

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI  
O‘RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA‘LIMI MARKAZI**

**AKADEMIK LITSEY VA KASB-HUNAR KOLLEJLARI  
UMUMTA‘LIM FANLARI  
O‘QUV DASTURLARI**

**TOSHKENT-2016**

Ushbu dasturlar O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashining 2016-yil 8-avgustdagi 3-sonli yig‘ilish bayoni qaroriga muvofiq, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2016- yil 25- avgustdagi 355-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlandi va amaliyotga joriy etildi.

## **Nutq madaniyati va davlat tilida ish yuritish**

### **Tuzuvchi:**

**A.R. Rafiyev**

– O‘zMU dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

### **Taqrizchilar:**

U. Saidov – filologiya fanlari nomzodi, dotsent  
M. Rahimova – Toshkent moliya va iqtisodiyot kolleji  
o‘qituvchisi

### **Dasturni optimallashtirishda ishtirok etgan ishchi guruhi a’zolari:**

D.Shodiyeva – O‘zMU qoshidagi akademik litseyi o‘qituvchisi,  
filologiya fanlari nomzodi  
B.Supiyeva – Axborot-metodik ta’minlash xizmati xodimi  
O.Badalova – Toshkent “Mehr-Shafqat” kolleji o‘qituvchisi  
G.Turdiyeva – O‘zMU qoshidagi Zangiota akademik litseyi o‘qituvchisi  
S.Qahharova – O‘zMU qoshidagi S.H.Sirojiddinov nomidagi akademik  
litseyi o‘qituvchisi  
I.Chinarova – Olmaliq sanoat kasb-hunar kolleji o‘qituvchisi

## **Kirish**

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va “Davlat tili to‘g‘risida”gi qonuni kuchga kirishi bilan o‘zbek tili davlat tili maqomini egalladi. Bu o‘zbek tili ijtimoiy vazifalarining kengayishiga, o‘zbek tilida yozma va nutqiy savodxonlik, rasmiy-idoraviy muloqot va yozishma madaniyatining rivojlanishiga keng imkoniyatlar ochdi. O‘zbek tilini o‘rganish va o‘qitish yo‘lga qo‘yildi. Bugungi kunda lotin yozuviga asoslangan yangi o‘zbek alifbosini o‘rganish borasida ham qator tadbirlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash milliy datsuri” va “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni O‘zbekiston istiqbolini yaratishga qodir yangi avloddan ilg‘or dunyo hamjamiyatida o‘zining bilimi, aql-idroki bilan mustahkam o‘rin egallay oladigan barkamol mutaxassislar tayyorlash zaruratini o‘rtaga qo‘ydi. Respublikamiz xalq xo‘jaligining barcha tarmoqlarida davlat tilida jahon o‘lchovlariga muvofiq tarzda ish yurita olish, milliy qadriyatlar va ma’naviy-madaniy fazilatlarga amal qilish O‘zbekiston mustaqilligini mustahkamlash va istiqbolini ta’minlashning muhim omilidir. Shunga ko‘ra, bo‘lg‘usi mutaxassislarni mustaqil va ijodiy fikrlashga odatlantirish, o‘z fikrlarini og‘zaki va yozma shakllarda to‘g‘ri va ravon ifodalashga o‘rgatish, rasmiy-idoraviy ish yuritish uslubini puxta egallashlarini ta’minlash vazifasi ixtisoslik va kasbiy tayyorgarlikning muhim sharti bo‘lib qoldi.

Shu maqsadda akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o‘quv yuklamasiga 40 soat hajmida “Nutq madaniyati va davlat tilida ish yuritish” fani kiritildi. “Nutq madaniyati va davlat tilida ish yuritish” fanining o‘quv dasturini tayyorlashda o‘zbek tilini ona tili va ikkinchi til sifatida o‘qitishga bag‘ishlangan o‘quv dasturlaridan, davlat tilida ish yuritishga oid qo‘llanmalardan foydalaniladi, til o‘rgatishdagi birinchi talab va takliflar, chet tillarini o‘qitish borasidagi dunyo tajribasi ham hisobga olinadi, til o‘rganish bo‘yicha ingliz, olmon tillaridagi matn ustida ishlash (kompozitsion)ga oid qo‘llanmalar talabi o‘rganiladi.

### **Fanni o‘qitishning maqsadi va vazifalari**

Respublikamizning har bir fuqarosi ish faoliyatida davlat tilini puxta o‘zlashtirganligi, savodxon va nutq madaniyatiga amal qiluvchi mutaxassis ekanligini namoyon eta bilish, boshqalar, chunonchi, chet ellik hamkasblari bilan shaxsiy va rasmiy aloqalarni zamonaviy yuksak saviyada bajara olish hayotiy zaruratga aylandi.

Mazkur datsurning vazifasi o‘qishlar davlat tilida va rus tilida olib boriladigan akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o‘quvchilarining o‘zbek tilidan yozma va og‘zaki nutqini boyitish, ularda mustaqil ravishda matn

tuzish, uni o'zgartirish ko'nikmalarini shakllantirish, mutaxassislikka oid rasmiy-idoraviy hujjatlarni, ish qog'ozlarini yozish, tahrir qilish malakasini hosil qilishdir.

Bu vazifalarni amalga oshirish davlat tilining respublika ijtimoiy hayotidagi o'rnini, tilning o'quvchining tafakkur qobiliyatini shakllantiruvchi vosita ekanligini anglash, undan nutqiy aloqa quroli sifatida turli vaziyatlarda o'rinli foydalana bilish darajasi bilan o'lchanadi. Shu jihatdan dasturdan kuzatilgan maqsad o'quvchilarning o'zbek tilidan olgan bilimlarini mustahkamlash, takomillashtirish va so'ngra tanlangan kasb doirasida bu bilimlarni til amaliyoti, nutq madaniyati va mahorati sirlari bilan to'ldirishdan iborat.

Dastur shu asosda akademik litsey va kasb-hunar kolleji o'quvchilarining davlat tilida mustaqil holda va yuksak madaniy saviyada yozish va ravon so'zlash, turli nutqiy vaziyatlarda tilning boy leksik-grammatik va uslubiy vositalaridan unumli va o'rinli foydalanish uquvini shakllantirish va bu ko'nikmani mustahkamlash bilan bog'liq amaliy mashqlarni bajarishni ko'zda tutadi. Shularni inobatga olgan holda dastur mazmuni uch yo'nalishdagi nazariy va amaliy bilimlarni mujassamlashtirgan.

Birinchiidan, o'quvchilarga til va tafakkur munosabatini yoritib beradi, nutqiy faoliyat turlari farqlanadi, ulardan amaliy foydalanish yo'llari ochib beriladi.

Ikkinchiidan, o'quvchilarning o'zi tanlagan kasb-hunar doirasidagi leksik ma'nosi, nutqdagi vazifasi va imkoniyatlari, uslubiy qo'llanish xususiyatlari nuqtayi nazaridan tahlil etilib, uni to'g'ri tanlash va yozma, og'zaki nutqda o'rinli ishlatish ko'nikmalari o'stiriladi.

Uchinchiidan, o'quvchining bo'lg'usi ish faoliyati doirasidagi xizmatida davlat tilida mustaqil ravishda va nutq madaniyati talablari darajasida ish yurita olish qobiliyatlari shakllantiriladi.

Shu maqsadda dasturda umumta'lim bosqichida egallangan o'zbek tili ta'limining uzviy davomi sifatida uni to'ldirishga xizmat qiluvchi aniq mavzular berildi. Bu mavzular dars jarayonida mazmunan o'quvchilar tanlagan bilimlar yo'nalishi (ijtimoiy yoki aniq fanlar), kasb-hunar yo'nalishining mohiyatiga muvofiqlashtirilishi, ya'ni davlat tilini o'rganish madaniyati, savodxonlik ayni shu fanlar yo'nalishi, kasb-hunar bilan bog'liq matnlar asosida amaliy ravishda tashkil etilishi lozim.

"Nutq madaniyati va davlat tilida ish yuritish" kursi boshqa fanlar kabi ham nazariy ma'lumotlarini o'quvchilar ongiga singdirishni, ham muayyan qoidalarga asoslanuvchi amaliy ko'nikmalarni shakllantirishni ko'zda tutadi. Tavsiya etilgan mavzular rejasida bu holat o'z aksini topgan. Shundan kelib chiqqan holda ushbu fan o'qituvchisi, avvalo, o'tiladigan mavzuga oid

barcha nazariy bilimlarni tegishli adabiyotlardan foydalanib (adabiyotlar ro'yxati ilova qilinadi) aniq chegaralab olishi va o'z o'rnida qiziqarli ixcham tarzda o'quvchiga yetkazishi zarur. Nazariy bilimlar kerakli izohlar bilan, ko'rgazmali tarzda tayyorlangan hujjat namunalari bilan mustahkamlab borilishi maqsadga muvofiqdir. Mavzularni o'tishda bayonchilikka berilib ketishdan qochish, har bir nazariy, me'yoriy qoidani amaliy tadbirini o'quvchilar faolligida amalga oshirishga intilish lozim. Chunki ko'pchilik mavzular u yoki bu jihati bilan farq qiluvchi hujjat matni ustida amaliy mashg'ulot o'tkazishni taqozo etadi. Bunda o'quvchilarning berilgan namuna asosida mustaqil ravishda turlicha mazmun va yo'nalishdagi matn tuza olish malakasini shakllantirishga jiddiy e'tibor berish kerak. Hujjat matnidagi har qaysi til vositasi: so'z, qo'shimcha, gap to'g'ri tanlanishi, adabiy me'yor va hujjatning zaruriy qismlari talabiga muvofiq ishlatilishini matn tahlili misolida o'rgatish yaxshi samara beradi.

O'quvchilar bilimni nazorat qilish uy vazifalarini, chunonchi, hujjat matnini yozib kelishni tekshirish bilan cheklanmasligi kerak. Har bir o'quvchi mavzuni o'zlashtirish bo'yicha qo'yilgan talablarga (bu talablar dasturga kiritilgan) to'la javob berishi lozimki, bu nazorat test usulida, yozma topshiriq asosida yoki og'zaki savol-javob orqali o'tkazish talab etiladi.

Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarda o'quv muddatining turlichaligi tufayli dasturda rejalashtirilgan mavzularga ijodiy va individual yondashish, uni yangi ma'lumotlar, ehtiyojtalab mashg'ulotlar bilan to'ldirib borish lozim. Shu bilan birga, ta'lim tizimining uzluksizligini, fanga ajratilgan o'quv soati(80 soat) cheklanganligini nazarda tutib tavsiya etilgan mavzular hayotiy ehtiyojiga qarab yangilanishi ham mumkin. Ammo bu holat belgilangan mavzular to'la o'zlashtirilishi asosidagina amalga oshiriladi.

## **Nutq madaniyati va davlat tilida ish yuritish fani bo'yicha o'quv dasturi mazmuni**

### **I. Nutq**

Nutq madaniyati asoslari haqida umumiy ma'lumot.

Nutqning to'g'riligi(urg'u me'yori va grammatik me'yor). Nutqning aniqligi, mantiqiy izchilligi, sofligi, ta'sirchanligi va nutqda bularga rioya qilish amali. Mustaqil va erkin fikrlash jarayonida tahlil etish, taqqoslash va to'g'ri xulosa chiqarish, bunga o'zini hamda o'zgalarni ishontira olish, shaxsiy munosabatni ifodalashning mantiqiy-lisoniy asoslariga amal qila olish.

## **II. Nutqiy faoliyat turlari**

Nutd uslubi. Rasmiy-idoraviy uslubdagi nutqning xususiyatlari.

Axborot va ma'ruza matni tayyorlash, matn utsida ishlash. (Bunday matnlarning publitsitsik va rasmiy uslubdagi ko'rinishlarini farqlash).

Fikr-mulohaza, tushuntirish, izohlash, asoslash, isbotlash bayoni, notiqlik madaniyati me'yorlari. (Radioeshittiruv va teleko'rsatuv uchun so'zlash, xabar yoki mulohaza aytish mazmunida matn tayyorlash. Bunday matnlar tarkibi, sistematik-uslubiy xususiyatlarini qiyosiy tahlil etish).

## **III. Matnning mazmuniy-vazifaviy belgilari**

Matn tuzilish. Atamalar va kasb-hunar so'zlarining ma'noviy-vazifaviy xususiyatlari. (Kasb-hunar so'zlarining uslubiy jihatdan farqlanishi, ilmiy va rasmiy nutq uslublaridagi vazifasini aniqlash).

Ixtisoslikka oid matn tuzish, bunda til vositalaridan o'rinli foydalanish masalasi va matnda nutq ta'sirchanligini oshiruvchi vositalarni qo'llash).

## **IV. Munshaot va ish yuritish**

O'zbek munshaoti tarixi, uning an'analari. Hujjat turlari. (O'tmishda hujjat tutish rasmi, tarixiy hujjatlarning turlari. Ichki va tashqi hujjatlar, mazmuniga ko'ra hujjat turlari). Rasmiy va shaxsiy xat, ularning farqlari.

Turli rasmiy xatlarning mazmuniy tavsifi, bunda fikrni bog'liqlikda ifodalash vositalari. (Rasmiy murojaat, xatga asosnoma, iltimos yoki tashakkur bayoni, taklif yoki e'tiroz bildirish shakllari, ulardan namunalar tayyorlash).

Xizmat doirasidagi kommunikatsiya shakllari. Telefonda rasmiy so'zlashuv uslubi. (Ish jarayonidagi nutqiy aloqa ko'rinishlari, ulardan o'z o'rnida foydalanish. Telefonda gaplashish odobi).

Shaxsiy hujjat matnlarining leksik-uslubiy xususiyatlari. (Shaxsiy ma'lumotlarni ifodalovchi hujjat matnlarida dalil, aniq sana, sabab-maqsadini yoritish uchun xizmat qiluvchi til vositalari, ularning rasmiy uslubda qo'llanishi).

Telegramma. Faksogramma matnlari tarkibi, ularni tayyorlash. (Telegramma va faksogramma matnlari namunasini yozish, jo'natish, qabul qilish va manzil bo'yicha yetkazish yuzasidan mashg'ulot o'tkazish).

Shaxsiy hujjat turlari, uning zaruriy qismlari tuzilishi (Tarjimayi hol, ariza, tushuntirish xati, tilxat, ishonchnoma va boshqalar matnlar namunasini tayyorlash).

Tavsifnoma, tavsiyanoma matnlari qismlarining o'zaro bog'lanish yo'llari. (Tavsifnoma, tavsiyanoma matnlari namunasini tayyorlash, matnning kirish, asosiy qism va xulosasining bog'liqligini tahminlash).

Buyruq, farmoyish matnlarining leksik-sintaktik qurilishi. (Buyruq, farmoyish matni namunalarini tayyorlash, matnda soʻzlarning bir maʼnoda kelishi, feʼllarning majhul daraja va buyruq-itsak maylida qoʻllanishi, fikrning aniqligini taʼminlash). Maʼlumot matnlari, ularning mazmuniy qurilishi. (Maʼlumotnoma matnida sarlavha, asosiy qism va asos-dalilning mazmuni).

Hisobot, dalolatnoma, bildirish tarzidagi matnlarda ifoda uslubi. (Bunday matnlar namunasini tayyorlash. Xabar mazmunini asosiy va qoʻshimcha maʼlumotlar bilan toʻldirish, maʼlumotlarning aniqligi va ixchamligini taʼminlash).

Hujjat matnlarida tinish belgilarini qoʻllanishi. Bosma ish qogʻozlari ustida ishlash. (Tayyor bosma ish qogʻozlarini toʻldirish, soʻrovlarga aniq va qisqa javob yozish malakasini oʻtsirish).

Bayoniy matnning til xususiyatlari. (Matnning tuzilishi, mazmuniy qismlari tarkibi, bosh harfda yoziladigan qismlari, feʼl shakllarining mosligi va boshqalar). Majlis bayonnomasi, uning koʻchirmasiga xos leksik-sintaktik vositalar.

Taqriz, annotatsiya tarzidagi matnlarda munosabat, dalil-asos, isbot-xulosa ifodasi. (Taqriz, annotatsiya, rezyume matni namunalarini tayyorlash, til vositalarini tahlil etish).

Fikr ifodasining mantiqiyliigi, izchilligi, asosiyliigi, fikrni madaniy va mantiqiy ifodalashning usul va yoʻllari. (Fikrni asoslashda iqtibos(sitata), maqol va hikmatlardan foydalanish. Koʻchirma gapni aynan va oʻzlashtirib qoʻllash masalasi).

Matn tahriri. (Matn mazmuni asosida xat boshi (abzas) jumllarini belgilash, ortiqcha va takror soʻzlarni chiqarish, uslubiy jihatdan taʼsirchan vositalarni kiritish, gaplarni oʻzgartirish, fikrning aniqligi va boyligini taʼminlash).

Kompyuterda hujjat matni tayyorlash, tahrir qilish, oʻzgartirish va yangilash. (Murakkab tuzilishli hujjatlar (ish rejasi, raqamli hisobot va b.) tayyorlash. Kompyuterda matn yozishda turli xil oʻlchov va koʻrinishdagi shriftlardan foydalanish).

Xalqaro munshaot matnlarining asosiy belgilari. (Xalqaro rasmiy hujjat namunasini tayyorlash, ularning tarjima matnida aynanlikni saqlash yoʻllari).



**“Nutq madaniyati va davlat tilida ish yuritish”**  
fanidan mavzuviy reja va soatlar taqsimoti

№	Fan bo‘limlari va mavzular	Umumiy yuklama (soatlarda)						
		Dars turi bo‘yicha soatlar taqsimoti						
		Hammasi	Jami	Nazariy (ma’ruza)	Amaliy	Seminar	Kurs ishi (loyihasi)	Mustaqil ish
<b>I</b>	<b><i>Nutq</i></b>	<b>3</b>	<b>2</b>	<b>1</b>	<b>1</b>	-	-	<b>1</b>
1.	Nutq madaniyati asoslari haqida umumiy ma’lumot. Nutqning to‘g‘riligi, aniqligi, mantiqiy izchilligi, sofligi va ta’sirchanligi.	3	2	1	1	-	-	1
<b>II</b>	<b><i>Nutqiy faoliyat turlari</i></b>	<b>6</b>	<b>4</b>	<b>1</b>	<b>3</b>			<b>2</b>
1.	Nutq uslubiyati. Rasmiy - idoraviy uslubdagi nutqning xususiyatlari.	3	2	1	1	-	-	1
2.	Fikr - mulohaza, tushuntirish, izohlash, asoslash, isbotlash bayoni, notiqlik madaniyati me’yorlari.	3	2	-	2			1
<b>III</b>	<b><i>Matnning mazmuniy - vazifaviy belgilari</i></b>	<b>5</b>	<b>4</b>	<b>1</b>	<b>3</b>			<b>1</b>
1.	Matn tuzilishi. Atamalar va kasb-hunar so‘zlarining mazmuniy-vazifaviy xususiyatlari	2	2	1	1			-
2.	Ixtisoslikka oid matn tuzish	3	2	-	2	-	-	1
<b>IV</b>	<b><i>Munshaot va ish yuritish</i></b>	<b>44</b>	<b>30</b>	<b>7</b>	<b>23</b>			<b>14</b>
1.	O‘zbek munshaoti tarixi, uning an‘analari. Hujjat turlari. Rasmiy va shaxsiy xat, ularning farqlari	3	2	1	1	-	-	1
2.	Turli rasmiy xatlarning mazmuniy tavsifi, bunda fikrni bog‘liqlikda ifodalash vositalari. Xizmat doirasidagi kommunikatsiya shakllari	3	2	-	2	-	-	1
3.	Shaxsiy hujjat matnlarining leksik - uslubiy xususiyatlari. Telegramma. Faksogramma matnlari tarkibi, ularni tayyorlash.	3	2	1	1	-	-	1
4.	Shaxsiy hujjat turlari, uning zaruriy qismlari tuzilishi.(tarjimayi hol, ariza, tushuntirish xati, tilxat,	3	2	-	2	-	-	1

	ishonchnoma va boshqalar)							
5.	Tavsifnoma, tavsiyanoma matnlari qismlarining o‘zaro bog‘lanish yo‘llari.	3	2	-	2	-	-	1
6.	Buyruq, farmoyish matnlarining leksik-sintaktik qurilishi.	3	2	1	1	-	-	1
7.	Ma’lumot matnlari, ularning mazmuniy qurilishi.	3	2	-	2	-	-	1
8.	Hisobot, dalolatnoma, bildirish tarzidagi matnlarda ifoda uslubi.	3	2	-	2	-	-	1
9.	Hujjat matnlarida tinish belgilarini qo‘llanishi va yozuv me’yorlariga amal qilish. Bosma ish qog‘ozlari ustida ishlash.	3	2	-	2	-	-	1
10.	Bayoniy matnning til xususiyatlari. Majlis bayonnomasi, uning ko‘chirmasiga xos leksik-sintaktik vositalar.	3	2	1	1	-	-	1
11.	Taqriz, annotatsiya tarzidagi matnlarda munosabat, dalil-asos, isbot-xulosa ifodasi.	3	2	-	2	-	-	1
12.	Fikr ifodasining mantiqiyliigi, izchilligi, asosiyliigi, fikrni madaniy va mantiqiy ifodalashning usul va yo‘llari.	2	2	1	1	-	-	1
13.	Matn tahriri.	3	2	1	1	-	-	1
14.	Kompyuterda hujjat matni tayyorlash, tahrir qilish, o‘zgartirish va yangilash.	3	2	-	2	-	-	1
15.	Xalqaro hujjatlarning asosiy belgilari. Hujjat matnini tuzish.	3	2	1	1	-	-	-
	<b>Jami:</b>	<b>58</b>	<b>4</b>	<b>10</b>	<b>3</b>			<b>18</b>

### Foydalaniladigan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: “Ma’naviyat”.2008.
2. Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: “O‘zbekiston”. 2011.
3. Karimov I.A. Ona yurtimizning baxt-u iqboli va buyuk kelajagi yo‘lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. – T.: “O‘zbekiston”. 2015.

4. Aminov M., Madvaliyev A., Mahkamov N., Mahmudov N. Ish yuritish. – T.: “O`zbekiston Milliy ensiklopediyasi”. – 2000.
5. Qo`ng`urov R., Begmatov E., Tojiyev Yo. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. – T.: “O`qituvchi”. 1992.
6. Mahmudov N., Rafiyev A., Yoldoshev I. Nutq madaniyati va davlat tilida ish yuritish. – T.: “Cho`lpon”. 2012.
7. Mahmudov N. O`qituvchining nutq madaniyati – T.: “O`qituvchi”. 2009.

### **Qo`shimcha adabiyotlar:**

1. Abdurahmonov X., Rafiyev A., Shodmonqulova D. O`zbek tilining amaliy grammatikasi. – T.: “O`qituvchi”. 1992.
2. Karimova V.M., Sunnatova R.I., Tojiboyeva R. Mustaqil fikrlash. – T.: 2000.
3. Qilichev E. O`zbek tilining amaliy stilistikasi. – T.: “O`qituvchi”. 1992.
4. Begmatov E. va b. O`zbek nutqi madaniyati ocherklari. – T.: “Fan”. 1988.
5. Saidov U. Notiqlik san`ati. – T.: 2007.
6. Bekmirzayev N. Notiqlik asoslari. – T.: 2008.

## Ona tili va adabiyot

### Tuzuvchilar:

<b>A.R. Rafiyev</b>	– O‘zMU dotsenti, filologiya fanlari nomzodi
---------------------	--

N. G‘ulomova – Respublika ta’lim markazi filologiya bo‘limi metodisti

### Dasturni optimallashtirishda ishtirok etgan ishchi guruhi a’zolari:

A.R.Rafiyev	– O‘zMU dotsenti, filologiya fanlari nomzodi
N.G‘ulomova	– Respublika ta’lim markazi filologiya bo‘limi metodisti
M.Qodirov	– O‘zMU dotsenti, filologiya fanlari nomzodi
D.Shodiyeva	– O‘zMU qoshidagi akademik litseyi o‘qituvchisi, filologiya fanlari nomzodi
B.Supiyeva	– Axborot-metodik ta’minlash xizmati xodimi
G.Turdiyeva	– O‘zMU qoshidagi Zangiota akademik litseyi o‘qituvchisi
S.Qahharova	– O‘zMU qoshidagi S.H.Sirojiddinov nomidagi akademik litseyi o‘qituvchisi
Z.Abduazimova	– Toshkent shahri, Uchtepa tumanidagi 197-maktab ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi
Sh.Sodiqova	– Toshkent shahri, Yakkasaroy tumanidagi 144-maktabning ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

### Taqrizchilar:

S.Sultonsaidova – filologiya fanlari nomzodi, dotsent

T. Niyozmetova – Nizomiy nomidagi TDPU dotsenti, f.f.n.

R.Abdusalomova – Respublika musiqa va san’atga ixtisoslashtirilgan maktab-internat o‘qituvchisi.

## Kirish

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” qabul qilinishi bilan ta’lim tizimlarida jiddiy o’zgarishlar ro’y berdi. Natijada umumiy ta’lim to’qqiz yilga keltirildi. Undan keyingi bosqich o’rta maxsus bilim va kasb-hunar ta’limi bosqichi bo’lib, ushbu dastur kasb-hunar kollejlari o’quvchilariga mo’ljallangan.

Mazkur fanni kollej o’quvchilariga o’qitishdan asosiy maqsad milliy qadriyatlarimiz asosi sanalmish ona tilimiz va adabiyotimizning bebaho merosi, an’analari bilan tanish bo’lgan o’quvchilarning bilimlarini sistemali yo’sinda umumlashtirish va egallagan ko’nikmalarini mustahkamlashdir.

Kollejlarda o’qitiladigan “Ona tili va adabiyot” fanidan o’rta maktabda kam e’tibor berilgan mavzularni to’ldirish, o’quvchilar to’la anglab yetmagan yoki tushunilishida qiyinchilik tug’diradigan mavzularni kengroq izohlash va shu orqali yetarli nutqiy malakani shakllantirish, adabiy-badiiy matnlar ustida ishlash, ko’nikmalarni o’stirish kabi vazifalarni bajarishga qaratilgan.

Dasturni tuzishda ushbu fan bo’yicha umumiy o’rta maktab dasturiga asoslanildi va bu ta’lim bosqichida chuqur o’zlashtirilmagan bilimlarni singdirishga e’tibor berildi. Dastur mazmunida o’quvchilarning muayyan mavzu yuzasidan mustaqil fikr yuritishlariga, o’z ustlarida ko’proq ishlashlariga, bilim egallashning tipiklashtirishdan umumlashtirishga qarab borish, dalillarni sharhlash va asoslash yo’sinlariga asosiy diqqat qaratildi. Shuningdek, dasturni yaratishda tajribali metodist o’qituvchilarning taklif-istaklari, chet el kollejlardagi ta’lim tizimi mazmuni o’rganildi va inobatga olindi.

Ushbu dastur amaldagi dasturlardan, birinchidan, umumiy o’rta maktabning sinovdan o’tgan yangi dasturlari negizida yaratilganligi, ikkinchidan, o’zlashtirilayotgan bilimlarning amaliy tatbiqi bosh mezon sifatida tanlanganligi hamda tarixiylik, izchillik, milliylik va zamonaviylik tamoyillariga to’la bo’y sundirilganligi bilan ajralib turadi.

Mustaqil demokratik jamiyat qurilishida insonning ma’naviy yetuk bo’lishi, o’z hayoti va kelajagining bunyodkoriga aylanishi, umuminsoniy madaniyatni egallashi, o’z Vataniga halol xizmat qila oladigan, ham ma’nan, ham jismonan barkamol yoshlarni tarbiyalash davlatimiz siyosatining ustuvor yo’nalishlaridan biridir.

Shu bois ham O’rta maxsus kasb-hunar ta’limi “Adabiyot” dasturi milliy va jahon pedagogikasi tajribalariga asoslangan holda tuzilgan bo’lib, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” maqsad, vazifalarini amalda istifoda etishga qaratilgan va yangi pedagogik tafakkur asosida o’quvchilarga ta’lim

berishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan. Uning negizida asosan inson va uning kamoli yotadi. Shu asoslardan kelib chiqib tuzilgan “Adabiyot” dasturining maqsad va vazifasi o‘quvchilarning ongi, dunyoqarashi, ma’naviy dunyosini boyitish, ularga o‘zligini anglatish, jamiyatning ongli a’zosi bo‘lishlariga zamin yaratishdir. Bolalarda o‘rganiladigan asarlar, ularning qahramonlari xatti-harakatiga o‘z munosabatini bildira oladigan darajada demokratik tafakkurni o‘stirishga, shuningdek, ularda burch, mas’uliyat, sha’n, qadr-qimmat, oriyat hissini, zavqlana olish xususiyatini uyg‘otish ko‘zda tutilgan. O‘z-o‘zini, atrofini o‘rab turuvchi tabiat, odamlar, boshqa millat-elatlarni, ularning madaniyatini, dini, e’tiqodini hurmat qilish, o‘z nuqtai nazariga ega bo‘lish, o‘zgalar fikrini hurmat qilish, muhokama, munozara qila olish madaniyatini rivojlantirish, umuman olganda, o‘quvchilarda ruhiy-hissiy kechinmalarini yuksaltirish, ularning ma’naviy-ruhiy olamlarini boyitish orqali vatanrarvarlik, insonsevarlik tuyg‘ularini singdirishni ko‘zda tutadi.

Dasturning asosiy talablaridan biri talabalarni bir “qolip”ga solmay, ularning fikrlash doiralarini kengaytirish, o‘z nuqtai nazarini erkin ifodalay olishga imkon berish va mustaqil fikrlashga, tafakkur qilishga yo‘naltirishdir. Unda o‘rganiladigan asar yuzasidan yagona fikr, xulosa chiqarish yo‘lidan borilmaydi, talabalarning har birini o‘z fikri, o‘z qarashlari bo‘lishiga erishish ko‘zda tutiladi.

Dasturda o‘qituvchilarning tashabbuskorligini uyg‘otish, erkin fikrlash, mahalliy mintqa materiallaridan foydalanishga imkon berish maqsadida dasturning 10-15 foizini istalgan badiiy yuksak asarlar bilan almashtirish mumkinligi hisobga olingan.

Dasturda o‘rni bilan bahs-munozara, she’rxonlik, g‘azalxonlik, bahri-bayt musobaqalari o‘tkazilishi, o‘rganilgan badiiy asar yuzasidan mulohaza insho, mavzu himoyasi, taassurot yozilishi ko‘zda tutilgan.

Dastur “Xalq og‘zaki ijodi – bebaho boylik”, “Qadimgi adabiy yodgorliklar – ma’naviyat durdonalari”, “Ildizni bilish o‘zlikni anglashdir”, “XX asr adabiyoti namunalari”, “Jahon adabiyoti xazinasidan” kabi ruknlarga bo‘lingan bo‘lib, har bir ruknga o‘quvchilarning yosh xususiyatlari, qiziqishlari, tabiiy va ruhiy imkoniyatlarini hisobga olgan holda, o‘zbek, qardosh va jahon adabiyotining eng sara asarlari tanlab kiritildi.

Mazkur dastur asosida yaratiladigan darslik va o‘rganiladigan asarlar talaba kamolotida asosiy vosita hisoblanib, ular orqali nutqiy, hissiy, amaliy ko‘nikmalar rivojlantiriladi va quyidagi maqsadlar amalga oshiriladi:

– asar yuzasidan yagona xulosaga kelinmaydi, asar haqida har bir talabaning o‘z xulosasi bo‘lishiga e’tibor qaratiladi;

– o‘rganishga berilgan asarlar uning qahramonlari orqali talabalar insonni his qilishga, shu orqali o‘zligini tanishga o‘rgatiladi;

– o‘rganiladigan asarlarda aks etgan ilg‘or qarashlar, yuksak fikrlarning ahamiyati tushuntiriladi;

– o‘rganishga berilgan asarlar talabalarlarning dunyoqarashi, ma’naviyati va e’tiqodining shakllanishi, kengayishini ta’minlashga qaratiladi. Shu orqali talabalarlarda o‘z xatti-harakatiga baho bera olish, o‘z-o‘zini anglash, o‘zgalarni tushunish, hissiy sezish, atrof-muhitga, atrofdagi odamlarga nisbatan e’tibor, insoniylik qadr-qimmatini anglash va hurmat qilish hissi rivojlantiriladi;

– oriyat, jasurlik va mardlik tuyg‘usi, burch mas’uliyati shakllantirib boriladi.

### **O‘quvchilar bilimi, malakasi va ko‘nikmasiga qo‘yiladigan talablar**

“Ona tili” dasturida asosiy mavzular adabiy-badiiy matnni lisoniy-badiiy tahlil etish orqali ham til bilimlarini mustahkamlash nazarda tutilgan. Dasturda ona tili mavzulariga 40 soat ajratildi.

Kasb-hunar kollejaridagi ta’lim mazmuni yo‘nalishi va o‘quvchilarning ona tilidan o‘zlashtirishi zarur bo‘lgan bilimlarni ehtiyoj va qiziqishga muvofiqlashtirib tavsiya etish ma’qul deb hisoblandi.

Bunda o‘quvchilarning ona tiliga e’tiborini kuchaytirish, tilning ijtimoiy mohiyatini anglash, o‘z ona tili fani tarixi, o‘ziga xos tabiatini bilish, davlat tili sifatida undan to‘la foydalanish imkoniyatlarini izlashi lozimligini tushuntira va singdira olish orqali amalga oshirilishiga e’tibor berildi.

Shu asosda o‘zbekcha nutqiy savodxonlik darajasini o‘stirish, so‘zni to‘g‘ri tanlash va qo‘llash, fikrning ravshanligini ta’minlovchi lisoniy vositalardan o‘rinli foydalanish borasidagi ko‘nikmalarini mustahkamlashga keng o‘rin berildi. Buni o‘qituvchi turli nazorat shakllari yordamida har mavzudan so‘ng tekshirib borishi, mavzu puxta o‘zlashtirilmagunicha yangi mavzuni boshlamasligi lozim bo‘ladi. O‘qituvchi grammatik qoidalarning amaliy tatbiqiga xos jihatlarga, so‘z va gapning nutq hosilasi sifatidagi xususiyatlariga, gap tuzishdagi g‘alizlikka barham berishga e’tiborni qaratishi lozim.

Mazkur dasturda o‘quvchilar amalga oshirishlari lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikmalar silsilasi, bajariladigan og‘zaki va yozma ishlar turlari hamda yod olinishi kerak bo‘lgan nazm namunalari ro‘yxati berilgan. Badiiy matnni yod olishni talab etish estetik va ma’rifiy ahamiyatidan tashqari o‘quvchi xotirasini mustahkamlashi, so‘z boyligini oshirib, nutqi jozibali bo‘lishiga katta yordam beradi.

Bunday talablarning qo‘yilishi orqali o‘quvchilarni mustaqil va hur fikr sohibi, badiiy so‘zni anglaydigan, undan ta’sirlanadigan, erkin shaxslar sifatida shakllantirish maqsadi ko‘zda tutilgan.

“**Adabiyot**” dasturidagi asosiy mavzular shoir adiblar ijodini o‘rganishga oid bo‘lib, badiiy asarlar matni bilan ishlash, ularni uqib o‘qish, tushunish, tahlil qilish va xulosa chiqarishga yo‘naltirilgan. Shu tariqa ma’naviyati yuksak, barkamol shaxslarni tarbiyalash ko‘zda tutilgan. Shunga ko‘ra dastur mavzulariga 80 soat ajratildi.

Kasb-hunar kollejaridagi ta’lim mazmuni yo‘nalishi va o‘quvchilarning adabiyotdan o‘zlashtirishi zarur bo‘lgan bilimlarni ehtiyoj va qiziqishiga muvofiqlashtirib tavsiya etish ma’qul deb hisoblandi.

Dasturda o‘rganish uchun tanlangan asarlarning badiiy-estetik qimmatini bilan birga tarbiyaviy-ma’rifiy tomonlari ham nazarda tutilgan. Unda matn ustida ishlash adabiyot o‘qitishdagi asosiy mashg‘ulot hisoblanadi. Har bir badiiy matn o‘quvchilar tomonidan mustaqil o‘qilishi, har bir o‘quvchi tomonidan o‘zicha idrok etilishi, o‘ziga xos tarzda qabul qilinishi, o‘ziga xos xulosalar chiqarilishiga erishilishi adabiyot o‘qitishda nihoyatda muhim va katta natija hisoblanadi. O‘qituvchi o‘rganilgan yoki mustaqil o‘qilgan biror matn yuzasidan o‘quvchilarga o‘z fikrini hukm tarzida aytishi mumkin emas. Chunki bu yoshdagi o‘quvchilar yosh va aqliy taraqqiyotiga ko‘ra kitobda bitilgan har qanday fikrga ham tanqidiy qaray olish, o‘z qarashlarini himoya qilish malakasiga ega bo‘ladilar.

Dasturda o‘rganishga taqdim etilgan asarlar faqat qissadan hissa chiqarish tarzida o‘qitilishi emas, balki, har bir talaba uni qalbidan, tafakkuridan mustaqil o‘tkazishi, o‘zicha zavq olishi va xulosa chiqarishi lozimligi nazarda tutilgan.

Dastur bilan ishlashda asosiy e’tibor fikrlar xilma-xilligi, xulosalar turlichaligi, o‘ylab, mushohada qilib, fikr aytishi lozimligiga qaratiladi.

Mazkur dasturda o‘quvchilar amalga oshirishlari lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikmalar silsilasi, bajariladigan og‘zaki va yozma ishlar turlari hamda yod olinishi kerak bo‘lgan nazm namunalari ro‘yxati berilgan. Badiiy matnni yod olishni talab etish estetik va ma’rifiy ahamiyatdan tashqari o‘quvchi xotirasini mustahkamlashi, so‘z boyligini oshirib, nutqi jozibali bo‘lishiga katta yordam beradi.

Bunday talablarning qo‘yilishi orqali o‘quvchilarni mustaqil va hur fikr sohibi, badiiy so‘zni anglaydigan, undan ta’sirlanadigan, erkin shaxslar sifatida shakllantirish maqsadi ko‘zda tutilgan.

#### **Talabalar quyidagilarni:**

- milliy va umumbashariy qadriyatlarni ulug‘lashda badiiy adabiyotning ijtimoiy vazifasini anglash;



- o‘zbek mumtoz adabiyoti namunalarini ifodali o‘qish, sharhlash, janr xususiyatlarini bilish;
- XX asr o‘zbek adabiyotining shakllanishi va rivojlanish tamoyillarini bilish;
- asar qahramonlari haqida mustaqil va ijodiy fikrlay olish, ularga tavsif bera bilish, badiiy asarning mohiyati va badiiyatini yorituvchi referat, insho yoza olish;
- asar qahramonlarini umuminsoniy va milliy qadriyatlar nuqtayi nazaridan mustaqil baholay olish;
- badiiy asardagi yozuvchi niyati va bosh muammoni, obrazlar olami, xarakterlar badiiyligi va hayotiyligi darajasini;
- badiiy asarlarning tarkibiy tuzilishiga tayangan holda uni tahlil qilish va baholashni;
- o‘rganilgan epik asar mazmunini qisqartirib, erkin bayon etish va uning badiiy xususiyatlarini aniqlashni;
- murakkab insoniy tuyg‘ular va hissiy kechinmalar xususida fikr yurita olishni;
- mumtoz adabiyot namunalarini lug‘at yordamida sharhlab berishni;
- badiiy asar qahramonlarini tavsiflab insho yoza olish;
- hayotiy hodisa to‘g‘risida erkin insho yoza bilish;
- ro‘y bergan hayotiy hodisa haqida yorqin fikrlay olish;
- o‘qilgan badiiy asarga taqriz yoza bilish;
- 6 yoki 7ta badiiy matnni yod ayta olish;
- lug‘atlardan foydalana olish;
- o‘rganilayotgan asarning qaysi tur va janrga mansubligini bilish;
- asarning janr xususiyatlarini hisobga olgan holda ifodali va ta’sirchan o‘qishni uddalashlari kerak.

Xulosa qilib aytganda, butun e’tibor bilimlarning mustahkam va ongli o‘zlashtirilishiga, talabalarni kitobga oshno etish, badiiy asar o‘qishga muhabbat uyg‘otish, ularda milliy qadriyatlarga hurmat tuyg‘usini o‘stirish, Vatan va xalqqa cheksiz mehr hislarini shakllantirish ko‘zda tutiladi.

### **Ona tili darslarining mazmuni** *Ona tilim - jonu dilim*

Til va tafakkur, ularning o‘zaro munosabatlari. Til – muloqot vositasi. Til va nutq tushunchalari. Nutqiy faoliyat, uning shakl va ko‘rinishlari. Nutqiy amallar (tinglab tushunish, so‘zlash, o‘qish va yozish)ni to‘g‘ri va puxta egallash zarurligi.(2 soat)

O‘zbek tilining taraqqiyot bosqichlari. Eski yozma adabiy til va hozirgi o‘zbek tili, ularning o‘zaro munosabati. O‘zbek adabiy tili va xalq tili o‘rtasidagi bog‘liqlik. (1 soat)

“Davlat tili to‘g‘risida”gi qonun va undan kelib chiqadigan vazifalar. “O‘z ona tilimni puxta bilamanmi?” mavzusida bahs-munozara o‘tkazish (2 soat)

### ***To‘g‘ri yozish – savodxonlik asosi***

O‘zbek imlosining nazariy asoslari va tamoyillari. Imlo qoidalarining asosiy bo‘limini sharhlash. So‘zlarda unli va undoshlarning qo‘shaloq qo‘llanishi. (1 soat)

So‘z o‘zagiga qo‘shimcha qo‘shganda yuz beradigan tovush o‘zgarishlari asosida to‘g‘ri yozish. *-ning* va *-ni* kelishik qo‘shimchalarining belgisi va belgisiz qo‘llash shartlari. (1 soat)

Qo‘shma va juft so‘zlarning nutq ifodasidagi o‘rni, ularni ajratib, qo‘shib va chiziqcha bilan yozish asoslari. (2 soat)

Qisqartma so‘zlar va bosh harflar imlosida qoidadan chetga chiqish sabablari va unga munosabat. Bo‘g‘in ko‘chirish qoidalarini sharhlash. yozma matnda, ish hujjatlarida bularga qat’iy amal qilish lozimligi. (2 soat)

Tinish belgilari imlosi. Ikki nuqta, vergul, tire, qavs, qo‘shtirnoq, so‘roq-undov belgini to‘g‘ri qo‘llash asoslari, bularning ishlatilish o‘rinlari. (1 soat)

### ***Ko‘ngul duri ichra guhar so‘zdurur...***

Yusuf Xos Hojib, A.Navoiy va boshqalar so‘zning qudrati haqida. Nutqiy muomala odobi va uning xalq kitoblari, mumtoz badiiy asarlardagi talqini. Nutq odobida ijtimoiy, ruhiy, lisoniy omillar. (1 soat)

Nutqda so‘zni to‘g‘ri tanlash mezonlari. Bunda so‘zning ma’no ko‘lami va xususiyatlarini bilishning ahamiyati. Bir ma’nolilik va ko‘pma’nolilik, bu holatlarni lug‘atlardan topa bilish. (1 soat)

So‘z ma’nosining ko‘chishi va nutqda bundan o‘rinli foydalanish. Iboralarning obrazlilik va ta’sirchanligi, g‘ayritabiiy so‘zlar, yangi so‘zlar va adabiy til nuqtayi nazaridan bunga munosabat. (1 soat)

So‘zlarning ma’nodoshligi, shakldoshligi, zid ma’noliligi, ma’no darajalanishi va bularning so‘z qo‘llash imkoniyatlariga munosabati. Bu hodisalarning notiqlik va badiiy san’at usullariga asos bo‘lishi. (2 soat)

So‘zning hissiy – ta’siriy jihatdan nutqdagi o‘rni. Betaraf bo‘yoqli so‘zlarni qo‘llash holatlari. Kasbga oid so‘zlar va ilmiy atamalar, ulardan og‘zaki va yozma nutqda o‘rinli foydalanish. So‘zning bo‘yoqdorligidan nutqda to‘g‘ri foydalanish. (2 soat)

### **Ifoda aniqligi - fikr ravshanligi**

Gap - matn sifatida. Fikr ifodasida gapning mantiqiy va grammatik talablariga rioya qilish. Soʻzlarning bogʻlanishida til vositalarining hissasi. Bunda tartib va ohangni oʻzgartirish imkoniyatlaridan foydalanish.(1 soat)  
Kiritma gaplar. Feʼl kesim va ot kesim (1 soat).

Dialogik matnda lisoniy vositalar va gap qurilishi. Bunday matnlarning nutq uslublaridagi oʻrni. (1 soat)

Gapning shakliy-mazmuniy tuzilishi va uning turlarida sinonimiya koʻlami. Matn tuzish va uni oʻzgartirishda bundan foydalanish yoʻllari. (1 soat)

Matnni kengaytirish, bunda kirish soʻz va kiritmalar, ilova qurilishlari, gap boʻlaklarining uyushib, ajratilib berilishi. (1 soat)

Matnni qisqartirish imkoniyatlari, bunda asosiy fikrni ifodalovchi tayanch soʻzlarni ajratish, qoʻshimcha maʼlumotlarni chiqarish yoʻllari. (1 soat). Bogʻlangan qoʻshma gaplar (2 soat). Ergash gapli qoʻshma gaplar (5 soat). Bogʻlovchisiz qoʻshma gaplar (2 soat). Koʻchirma gapli qoʻshma gaplar (1 soat). Murakkab qoʻshma gap haqida maʼlumot (1soat), Qismlari uyushgan murakkab qoʻshma gaplar (1 soat). Nutq uslublari haqida maʼlumot, soʻzlashuv uslubi (1soat). Publitsistik uslub, badiiy uslub (1soat). Ilmiy uslub, rasmiy uslub (1soat).

### **Adabiyot darslarining**

#### **Adabiyot – maʼnaviyatni yuksaltirish vositasi**

Badiiy adabiyot inson kamolotida asosiy vosita ekanligi. Insonning eng yaxshi fazilatlar sohibi, mustaqil, erkin shaxs sifatida shakllanishida, oʻz-oʻzini tarbiyalashida adabiyotning ahamiyati.

#### **Xalq ogʻzaki ijodi - bebaho boylik**

##### **“Rustamxon” dostoni**

Doston ishqiy- qahramonlik dostonlarining eng yaxshi namunalaridan biri ekanligi. Dostonda millatga xos urf-odatlar va insoniy fazilatlarining ulugʻlanishi.

Rustamxon timsoli, unga xos, mardlik, jasurlik, irodalilik.

Huroyim va Oftoboy timsollarida oʻzbek ayollariga xos oqilalik, bardoshlilik. Asarda ifodalangan milliy qadriyatlar va inson ruhiyati tasviri.

Nazariy maʼlumot: Doston va uning turlari haqida maʼlumot.

#### **Qadimgi adabiy yodgorliklar-maʼnaviyat durdonalari**

##### **“Avesto”**

“Avesto”ning qomusiy mohiyatga ega muqaddas kitob ekanligi.

Asarda dunyo ilm-fani, falsafasi, ma'naviyati va madaniyatining XXX asr ilgari tafakkur majmuyi mujassamlanganligi. Zardusht haqida ma'lumot.

Asarning “yaxshi so‘z, yaxshi xulq va yaxshi amal” olamni ham, odamni ham bezaydi ifodasining mohiyati.

“Ikkinchi fargard” va “Uchinchi fargard”larda inson xulqi, uning xatti-harakatlari natijasining qandayligi, uning yaxshi yoki yomon amallarining, hayotining kafolati ekanligi talqini.

### **O‘rxun-Enasoy obidalari**

Obidalarining adabiy-badiiy qimmatini. To‘nyuquq, Kultegin bitiklarida erk va ozodlik tarannumi. Ularda qahramonlik, ona-yurt daxlsizligi va xalq mustaqilligi g‘oyalarining ifodalanishi.

To‘nyuquq timsoli. Qahramonga xos jasurlik, yovqurlik, el, mamlakatni birlashtirish uchun fidoyilik, tinib-tinchimaslik kabi fazilatlarining mahorat bilan tasvirlanganligi.

### **Ildizni bilish o‘zlikni anglashdir**

#### **Imom Ismoil al-Buxoriy**

Muhaddis haqida ma'lumot.

Hadislar – ma'naviy bilimlar qomusi. Ota-onani e'zozlash rahmshafqatli bo'lish, saxovat, yetimparvarlik, odamiylik, nafsni tiyish, imon-e'tiqod xususidagi hadislarning mohiyati.

Nazariy ma'lumot: Hadis haqida.

#### **Ahmad Yassaviy. Hikmatlar**

Shoirning hayoti va ijodi haqida ma'lumot. Hikmatlarda haqiqat – qalbdan ekanligi, uni poklash, saodat-ma'rifat nurlari bilan ong va ruhni tiniqlashtirishda ekanligi tasviri. Hadislarda insoniy fazilatlar: poklik, halollik, nafsni tiyish, imon-e'tiqod tuyg'ularining ifodalanishi.

Nazariy ma'lumot: Hikmat haqida.

#### **Najmiddin Kubro. Ruboiylar**

Shoir haqida ma'lumot. Najmiddin Kubro shoir, olim, faylasuf sifatida. Ruboiylarida lirik qahramon ichki dunyosi, insonning dunyoviy va botiniy ilmlarni egallashi lozimligi tasviri.

#### **Jaloliddin Rumiy. Ruboiylar**

Shoir haqida ma'lumot. Ruboiylarida inson ruhi erkinligi, “muhabbat – butun borliqni harakatga keltiruvchi kuch” ekanligi talqini. Shoirning tasvirdagi o‘ziga xosligi. Ruboiylarda J.Kamolning tarjimonlik mahorati.

#### **Alisher Navoiy. “Xamsa” dostonidan parchalar**

Navoiyning hayoti va ijodiy faoliyati. Alisher Navoiy shoir, olim, davlat arbobi sifatida.

“Hayrat ul-abror” dostonidan parcha. O‘ninchi maqolot - “Rostlik ta’rifida...”da to‘g‘rilik va egrilik talqini. Navoiyning rost va yolg‘on haqidagi qarashlari.

“Layli va Majnun” dostonida ishq-muhabbat, inson erki talqini va uning ijtimoiy-falsafiy mohiyati.

Layli timsoli, uning malohati tasviri.

Qays timsoli, uning bilimlarni egallashdagi muvaffaqiyatlari sabablari va mohiyati. Dostonda ishq talqini.

**Nodira. Lirika. “Fig‘onkim”, “Ehtiyoj”, “Firoqnoma”.**

Shoira hayoti va ijodi haqida ma’lumot. She’rlarida ifodalangan hijron, ayriliq talqini, ayol iztiroblari tasviri.

**Muhammad Amin Muqimiy. G‘azallar. “Navbahor”, “Emdi sendek ...”, “Zulm ila qahru g‘azab”.**

Shoir hayoti va ijodi haqida ma’lumot. G‘azallarida bahor madhi, tabiat manzaralaridan zavqlanish, ishq - muhabbat tasviri. “Zulm ila qahru g‘azab” g‘azalida ifodalangan ijtimoiy tengsizlik va unga qarshi inson ruhiyati isyoni.

## **XX asr adabiyoti namunalari**

**Hamid Olimjon. She’rlar. “O‘rik gullaganda”, “G‘azal”.**

Shoir hayoti va ijodi haqida ma’lumot. She’rlarida ifodalangan tabiat go‘zalligi va unga oshufta lirik qahramon holatining mahorat bilan tasvirlangani. “G‘azal”ida ifodalangan sadoqat tuyg‘ulari, tabiat, shamol timsollarning shoir ruhiyatiga bog‘liqligi tasviri.

**S. Zunnunova. “Ruh bilan suhbat” asari**

Asarda urushning inson boshiga solgan adadsiz kulfat-alamlari va bu anduhlarning ayol e’tiqodiga dahl qilolmaganligi. Ona timsolidagi qarama-qarshi kechinmalar: farzandi kamolidan quvonch, shukronalik va shu kunga yetolmaganlar haqida anduhli xotiralar kurashi talqini.

**Erkin Vohidov. “Ruhlar isyoni”.**

Shoir hayoti va ijodi haqida ma’lumot.

“Ruhlar isyoni” dostonida tasvirlangan realistik tasvir va rivoyatlarning o‘zaro uyg‘unligi.

Dostondagi Nazrul Islom timsoli. Dostonning “Tug‘ilgansan ozod, mudom ozod bo‘lib qol!”, “Eldan omad ketsa, Dastlab hamjihatlik yo‘qolgay” misralari mohiyati.

Dostondagi yashashdan maqsad g‘oyasining bo‘rttirib tasvirlanishi.

**O‘tkir Hoshimov. “Bahor qaytmaydi”.**

Yozuvchi hayoti va ijodi haqida ma’lumot. Qissada ijtimoiy hayot, muhabbat, vafo, sadoqat tuyg‘ularining ifodasi, o‘tkinchi mayllarga berilib shaxsiyatparastlik, umuminsoniy qadriyatlarni mensimaslik asar qahramonini fojiga olib kelganligi talqini.

### **Abdulla Oripov. She'rlar.**

Shoir haqida ma'lumot. "Birinci muhabbatim", "Sen bahorni sog'inmadingmi?", she'rlarida lirik qahramon qalbi, ruhiyati manzaralarining mahorat bilan tasvirlanganligi. Undagi muhabbat, sog'inch, o'kinch tuyg'ulari. Oshiqlik, Odamiylik va Hayot haqidagi falsafiy qarashlar talqini.

### **Tohir Malik. "Alvido, bolalik!"**

Yozuvchi haqida ma'lumot. Qissada bolalar hayoti muammolariga jamiyat a'zolari munosabatining qarama-qarshi qo'yilishi. Asarda o'smirlar dunyosi, ular tabiatini tushunmaslik yomon oqibatlarga olib kelishi mumkinligi, ularga xos ruhiy kechinmalarning mahorat bilan ifodalanishi. Bolalik – umrning asl pallasi ekanligi talqini.

### **Muhammad Yusuf. She'rlar .**

Shoir haqida ma'lumot. "Jayron", "Muhabbat", "Yangi yil kechasi" she'rlarida ifodalangan odam, tabiat, olam o'rtasidagi bog'liqlik va inson ruhiyati manzaralari tasviri. Shoir she'rlarining jozibadorligini ta'minlagan samimiylik va ta'sirchanlik.

## **Jahon adabiyoti xazinasidan**

### **Sa'diy Sheroziy. "G'azallar" .**

Shoir haqida ma'lumot. G'azallarda ifodalangan yuksak badiiy mahorat, ishq va oshiqlik zavqi tasviri. Ulardagi chuqur falsafiy fikrlar, teran mushohada va lirik qahramon shaxsiyati tasviri.

### **Jek London. "Hayotga muhabbat".**

Yozuvchi haqida ma'lumot. Hikoyada insondagi hayotga bo'lgan muhabbatning o'lim ustidan g'alabasi. Do'stlikka xiyonat qiluvchining ayanchli taqdiri. Asar qahramonining hayot uchun mashaqqatli kurashi tasviri.

### **Chingiz Aytmatov. "Jamila" qissasi.**

Yozuvchining hayoti va ijodi haqida ma'lumot. "Jamila" qissasida ifodalangan pokiza muhabbat, inson erki va huquqi hamda asriy udumlarga munosabat ifodasi. Asarning "muhabbat haqida yozilgan eng ajoyib qissa" ekanligi.

## **Namunaviy insho mavzulari:**

1. So'zda sehr bor
2. Erk va ozodlik uchun kurashganlar
3. Ruboiylarda inson ruhiyati kamoloti
4. Layli yoki Majnun timsoliga tavsif
5. "Hayrat ul-abror" dostonida insonni kamolotga yetkazuvchi maqola va hikoyatlarning berilishi

6. “Ruhlar isyoni”- o‘ziga xos tuzilishga ega doston
7. Nazrul Islom – isyonkor-xalqparvar shoir
8. Erkni tarannum etuvchi doston
9. Alimardon timsoliga tavsif
10. Muhammad Yusuf she’rlarida ko‘ngilga yaqin tuyg‘ular ifodasi
11. Mening sevimli adibim
12. Adabiyot yashasa, millat yashar

### **Yod olinishi lozim bo‘lgan asarlar**

1. “Rustamxon” dostonidan parcha.
2. Hadislardan namunalar.
3. Ahmad Yassaviy hikmatlaridan namunalar.
4. Jaloliddin Rumi ruboiylaridan.
5. Alisher Navoiy. “Layli va Majnun” dostonidan parcha.
6. Nodira g‘azallaridan namuna.
7. Erkin Vohidov. “Ruhlar isyoni” dostonidan parcha.
8. Abdulla Oripov. She’rlaridan namunalar.
9. Muhammad Yusuf. She’rlaridan namunalar.
10. Muqimiy. “Emdi sendek ...” g‘azali.
11. H.Olimjon. “O‘rik gullaganda”.
12. S.Sheroziy. G‘azal.

### **Adabiyot bo‘yicha og‘zaki va yozma ishlarning turlari:**

**Og‘zaki ishlar.** Badiiy asarning janr xususiyatlarini hisobga olgan holda to‘g‘ri va ifodali o‘qish, she’riy matnlarni yod aytish. O‘qilgan nasriy asarlarning qahramonlariga tavsif berish.

She’riy asarda obrazli tasvir, badiiy detal va nazmiy san’atlarni sharhlab berish.

**Yozma ishlar.** O‘qilgan asar bo‘yicha obrazlarga tavsif beruvchi mustaqil insho yoki taqriz yozish. Mumtoz adabiyot namunalariga o‘z tushunchasi asosida va lug‘atdan foydalangan holda sharh yozish ko‘nikmasiga ega bo‘lish. Darsda o‘rganilgan asarlar yuzasidan adabiy insho yozish malakasini egallash.

**“Ona tili va adabiyot” fanidan mavzuiy reja va soatlar taqsimoti**

№	Fan bo‘limlari va mavzular	Umumiy yuklama (soatlarda)							
		Darstur bo‘yicha soatlar taqsimoti							
		Hammasi	Jami	Nazariy (ma’ruza)	Amaliy	Labarotoriya	Seminar	Kursishi (loyihasi)	Mustaqil ish
1	<i>Ona tilim – jon-u dilim</i> Til va tafakkur, ularning o‘zaro munosabatlari.	1	1	1	-	-	-	-	-
2	Nutqiy faoliyat, uning shakl va ko‘rinishlari.	2	1	1	-	-	-	-	1
3	O‘zbek tilining taraqqiyot bosqichlari.	1	1	1	-	-	-	-	-
4	“Davlat tili to‘g‘risida”gi qonun va undan kelib chiqadigan vazifalar.Bayon yozish va uning tahlili.	3	2	1	1	-	-	-	1
5	<i>To‘g‘ri yozish - savodxonlik asosi</i> O‘zbek imlosining nazariy asoslari va tamoyillari.	1	1	1	-	-	-	-	-
6	So‘z o‘zagi va qo‘shimchalardagi tovush o‘zgarishlari, ularning imlosi.	2	1	1	-	-	-	-	1
7	Qo‘shma va juft so‘zlarning nutq ifodasidagi o‘rni, ularning imlosi.	3	2	1	1	-	-	-	1
8	Qisqartma so‘zlar va bosh harflar imlosi, Bo‘g‘in ko‘chirish qoidalari.	3	2	1	1	-	-	-	1
9	Tinish belgilari imlosi.Diktant yozish.	1	1	-	1	-	-	-	-
10	<i>Ko‘ngul duri ichra guhar so‘zdurur...</i> Yusuf Xos Hojib, A.Navoiy va boshqalar so‘zning qudrati haqida. Nutq odobi.	2	1	1	-	-	-	-	1
11	Nutqda so‘zni to‘g‘ri tanlash mezonlari. Bir ma’nodlilik va ko‘p ma’nodlilik.	1	1	1	-	-	-	-	-
12	So‘z ma’nosining ko‘chishi. Iboralarning obrazlilik.	2	1	1	-	-	-	-	1
13	So‘zlarning ma’nodoshligi, shakldoshligi, zid ma’nodlilik, ma’no darajalanishi.	3	2	1	1	-	-	-	1
14	So‘zning hissiy – ta’siriy jihatdan	3	2	1	1	-	-	-	1



	nutqdagi oʻrni. Kasbga oid soʻzlar va atamalar. Test topshiriqlari ustida ishlash.								
15	<b>Ifoda aniqligi - fikr ravshanligi</b> Gap, uning mantiqiy va grammatik xususiyatlari.	1	1	1	-	-	-	-	-
16	Kiritma gaplar. Feʼl kesim va ot kesim.	2	1	1	-	-	-	-	1
17	Dialogik matnda lisoniy vositalar va gap qurilishi.	2	1	1	-	-	-	-	1
18	Gapning shakliy-mazmuniy tuzilishi va sinonimiyasi.	2	1	1	-	-	-	-	1
19	Gapni kengaytiruvchi boʻlaklar, gap boʻlaklarining uyushib, ajratilib berilishi.	2	1	1	-	-	-	-	1
20	Matnни qisqartirish va kengaytirish yoʻllari.	2	1	1	-	-	-	-	1
21	Bogʻlangan qoʻshma gaplar.	3	2	1	1	-	-	-	1
22	Ergash gapli qoʻshma gaplar.	7	5	4	1	-	-	-	2
23	Bogʻlovchisiz qoʻshma gaplar.	3	2	1	1	-	-	-	1
24	<b>Koʻchirma gapli qoʻshma gaplar</b>	1	1	1	-	-	-	-	-
25	Murakkab qoʻshma gaplar.	1	1	1	-	-	-	-	-
26	Nutq uslublari. Soʻzlashuv uslubi.	1	1	1	-	-	-	-	
27	Publitsistik va badiiy uslub.	2	1	1	-	-	-	-	1
28	Ilmiy uslub va rasmiy uslub. Bayon yozish va uning tahlili.	3	2	1	1	-	-	-	1
	<b>“Ona tili” fani boʻyicha hammasi</b>	<b>60</b>	<b>40</b>	<b>30</b>	<b>10</b>	-	-	-	<b>20</b>
29	Adabiyot – maʼnaviyat yuksaltirish vositasi.	1	1	1	-				-
30	<b>Xalq ogʻzaki ijodi - bebaho boylik</b> “Rustamxon” dostonini oʻqish, matn ustida ishlash.	3	2	1	1				1
31	Dostondagi timsollar, ularning fazilatlarini. Doston haqida maʼlumot.	3	2	2	-				1
32	Taassurot yozish. “Rustamxon” dostonidagi menga yoqqan qahramon.	1	1	-	1				-
33	<b>Qadimgi adabiy yodgorliklar- maʼnaviyat durdonalari</b> “Avesto” asarini oʻrganish,. “Ikkinchi fargard” matnini oʻqish, tahlil qilish.	3	2	2	-				1
34	“Uchinchi fargard” matnini oʻqish, tahlil qilish. Bahs-munozara: “Avesto”ning	3	2	-	2				1

	“yaxshi so‘z, yaxshi xulq va yaxshi amal” shiori.							
35	O‘rxun-Enasoy obidalarini o‘qib o‘rganish, matn ustida ishlash.	3	2	1	1			1
36	To‘nyuquq timsoli. Qadimiy obidalarining adabiy-badiiy qimmatini.	3	2	2	-			1
37	Insho va tahlil. “Erk va ozodlik uchun kurashganlar”.	2	2	-	2			-
38	<b>Ildizni bilish o‘zlikni anglashdir</b> Imom Ismoil al-Buxoriy. Hadis haqida.	3	2	2	-			1
39	Ahmad Yassaviy. Hikmatlar.	3	2	2	-			1
40	Hikmatlarni o‘qish, matn ustida ishlash, tahlil qilish, hikmat haqida ma’lumot.	3	2	1	1			1
41	Ijodiy matn yaratish. “Hadislar va hikmatlar- poklikka yetaklar”	1	1	-	1			-
42	Najmiddin Kubro. Ruboiylarni o‘qish, matn ustida ishlash, tahlil qilish	3	2	1	1			1
43	Jaloliddin Rumiy. Ruboiylarni o‘qish, matn ustida ishlash, tahlil qilish.	3	2	1	1			1
44	Ijodiy ish. Mavzu himoyasi: “Menga yoqqan ruboiy”.	2	1	-	1			1
45	She’rxonlik. “Ruboiy sehri”	1	1	-	1			-
46	Alisher Navoiy. “Hayrat ul-abror” dostonidan parchani o‘qish, tahlil qilish.	6	4	2	2			2
47	“Layli va Majnun” dostonini o‘qish, tahlil.	6	4	2	2			2
48	Doston timsollari – Layli, Majnun, Navfal va boshqalar.	4	3	2	1			1
49	Bahs-munozara. “Menga yoqqan qahramon”	1	1	-	1			-
50	Insho va tahlil . “Layli timsoliga tavsif”.	2	2	-	2			-
51	Nodira.G‘azal va muashsharni o‘qish, tahlil.	3	2	1	1			1
52	Muqimiy. Lirika. “Navbahor”, “Emdi sendek ...”, “Zulm ila qahru g‘azab”. Bahru bayt.	3	2	1	1			1
53	Takrorlash.Test topshiriqlari bilan ishlash.	1	1	-	1			-
54	<b>XX asr adabiyoti namunalari</b> H.Olimjon. O‘rik gullaganda”, “G‘azal” she’rlari.	3	2	1	1			1
55	S.Zunnunova. “Ruh bilan suhbat” asari. Matn ustida ishlash. Muhokama.	3	2	1	1			1
56	Erkin Vohidov.“Ruhlar isyoni” dostonini o‘qish, matn ustida ishlash.	3	2	1	1			1
57	Dostondagi Nazrul Islom timsoli. Bahs-	2	1	-	1			1

	munozara. “Tug‘ilgansan ozod, mudom ozod bo‘lib qol!”								
58	O‘tkir Hoshimov. “Bahor qaytmaydi” qissasi matni ustida ishlash.	3	2	1	1				1
59	Qissadagi Alimardon, Muqaddam, Anvar timsollari.	3	2	1	1				1
60	Insho va tahlil: 1. “Erkni tarannum etuvchi doston”. 2. “Alimardon timsoliga tavsif”	2	2	-	2				-
61	Abdulla Oripov. “Birinchi muhabbatim”, “Sen bahorni sog‘inmadingmi?” she‘rlarini o‘qish, matni ustida ishlash. She‘rxonlik.	3	2	1	1				1
62	Tohir Malik. “Alvido, bolalik!” qissasini o‘qish, matn ustida ishlash.	3	2	1	1				1
63	Qissadagi o‘smirlar dunyosi, ularga xos ruhiy kechinmalar tahlili.	2	1	-	1				1
64	Bahs - munozara. “Bolalik – umrning asl pallasi”.	2	1	-	1				1
65	Muhammad Yusuf. “Jayron”, “Muhabbat”, “Yangi yil kechasi” she‘rlari matni ustida ishlash.	3	2	1	1				1
66	Takrorlash. Test topshiriqlari bilan ishlash.	1	1	-	1				-
67	<b>Jahon adabiyoti xazinasidan</b> Sa‘diy Sheroziy. G‘azallari matni hamda lug‘at ustida ishlash. G‘azalxonlik.	3	2	1	1				1
68	Ifodali o‘qish mashqi.	1	1	-	1				-
69	Jek London. Yozuvchi haqida ma‘lumot “Hayotga muhabbat” hikoyasi matni ustida ishlash.	3	2	2	-				1
70	Hikoya qahramoni ruhiyatini o‘rganish, tahlil. Bahs-munozara. “Hikoyadan olgan taassurotlarim”	3	2	-	2				1
71	Chingiz Aytmatov. “Jamila” qissasini o‘qish matn ustida ishlash, tahlil qilish.	3	2	1	1				1
- Oʻz ishimdan sevinaman.
- Ilm - kamolot beshigi.
- Mehnatning tagi rohat.

***Yozma nutq:***

Hunar va ilmga oid hikmatlarni yozish.

Kasb-hunar tasviri asosida bayon yozish.

Mavzuga oid mashq va topshiriqlar ustida ishlash.

Tavsifnoma matnini tayyorlash.

***Grammatika:***

Bogʻlangan qoʻshma gaplar va ularning turlari. Biriktiruv bogʻlovchili bogʻlangan qoʻshma gaplar, ularning maʼnodoshligi.

### **XIII. Dam olish va taʼtil**

***Ogʻzaki nutq:***

Dam olish vaqtini mazmunli oʻtkazishga doir matnlarni oʻqish, ular boʻyicha savol-javobda ishtirok etish.

Taʼtil taassurotlari bilan oʻrtoqlashish.

Mavzuga oid adabiy-badiiy matnlarni tinglab tushunish, mazmunini qayta hikoyalash.

Quyidagi nutqiy mavzularda oʻzaro suhbatlashish:

- Xiyobonda dam oldik.
- Boʻsh vaqtingizni qanday oʻtkazasiz?
- Taʼtil – jon-u dilim.
- Taʼtil rejasi.

***Yozma nutq:***

Taʼtil haqida hikoya qilish uchun reja tuzish.

Oʻz va oʻrtoqlari taʼtili haqida incho yozish.

Taʼtil taassurotlariga oid matn tuzish.

Mavzuga oid mashq va topshiriqlar ustida ishlash.

***Grammatika:***

Zidlov bogʻlovchili bogʻlangan qoʻshma gaplar, ularning maʼnodoshligi.

### **XIV. Maishiy xizmat**

***Ogʻzaki nutq:***

Mavzuga oid adabiy-badiiy matnlarni tinglab tushunish, mazmunini qayta hikoyalash.

Maishiy xizmat korxonasi va muassasalari ishi haqida ma'lumot olish, ularning xizmatidan foydalanishda o'zbekcha so'z va iboralardan to'g'ri foydalanish.

Maishiy xizmat sohasida savol-javob va mulozamat iboralarini mustahkamlash.

Quyidagi nutqiy mavzularda o'zaro suhbatlashish:

- Sochimni oldirmoqchiman.
- Buyurtma qabul qiling.
- Xizmatangiz kafolatlimi?
- Imtiyozlar siz uchun foydali.

**Yozma nutq:**

Mavzuga oid mashq va topshiriqlar ustida ishlash.

Qanday maishiy xizmat turlaridan foydalanayotgani haqida matn yozish.

Maishiy xizmat korxonasi haqidagi afzalligi va imtiyozlari haqida reklama matnini tayyorlash.

**Grammatika:**

Ayiruv bog'lovchili bog'langan qo'shma gaplar, ularning ma'nodoshligi.

## XV. Yurt posbonlari

**Og'zaki nutq:**

Yoshlarning majburiy harbiy xizmat qismlaridagi hayoti va faoliyati haqida suhbatlashish.

Harbiy vatanparvarlik haqidagi tarixiy lavhalarni o'qib, bahs - munozara o'tkazish.

Quyidagi nutqiy mavzularda o'zaro suhbatlashish:

- Majburiy harbiy xizmat burchi.
- Vatanimni qo'riqlayman.
- Chegaradagi hushyorlik.
- Generallikni orzu qilgan askar.

**Yozma nutq:**

Chegara qo'shinlarining ishlari oid gazeta matnini o'qib, kengaytirib yangi hikoya yozish.

Harbiy xizmatga yo'llash tadbiri haqida gazetaga xabar tayyorlash.

Mavzuga oid mashq va topshiriqlar ustida ishlash.

**Grammatika:**

Bog'lovchisiz qo'shma gaplar, ularda tinish belgilari va ohang.

## **XVI. Madaniyatimiz fidoyilari**

### ***Og'zaki nutq:***

O'zbek qo'shiqlari, hofiz va xonandalari haqida savol-javobda ishtirok etish.

Teatr va kino san'ati, ommaviy axborot vositalari (televideniye, radio, gazeta-jurnallar) materiallari haqida fikr almashish.

Quyidagi nutqiy mavzularda o'zaro suhbatlashish:

- Birga qo'shiq aytamiz.
- Menga rol bering.
- Xalq olqishlagan san'atkor.
- Hayot ko'zgusi.

### ***Yozma nutq:***

Mavzuga oid mashq va topshiriqlar ustida ishlash.

Biror san'atkorga tavsifnoma yozish.

O'zi yoqtirgan san'at turining shaxs barkamolligiga ta'siri haqida bayon yozish.

**Grammatika:** Ergashgan qo'shma gaplar, bunday gaplarni tashkil etgan sodda gaplar o'rtasidagi mazmuniy munosabatlar.

## **XVII. Barhayot an'ana va udumlar**

### ***Og'zaki nutq:***

Odob-axloq, o'zbekona andisha, hurmat haqidagi matnlarni o'qish, ularni qayta hikoyalash.

Yordam so'rash va taklif etish uchun ishlatiladigan so'z va iboralarni o'rinli va to'g'ri qo'llash.

Insoniy fazilatlar haqidagi maqollarni o'rganish, ona tilidagi shu mazmundagi maqollar bilan qiyoslash.

Quyidagi nutqiy mavzularda o'zaro suhbatlashish:

- Odob salomdan boshlanadi.
- Yordamingizni ayamang.
- Insonlardan o'rgandim.
- Oila marosimlari.

### ***Yozma nutq:***

Teleko'rsatuv asosida milliy udumlar haqida bayon yozish.

Mavzuga oid mashq va topshiriqlar ustida ishlash.

Maqollar asosida kichik hikoya yozish.

**Grammatika:** Qo'shma gaplarning tarkibidagi bog'lovchi vositalariga ko'ra tasnifi. Bu vositalarining ishlatilishi.



## XVIII. Xalq bayramlari va sayllari

### ***Og‘zaki nutq:***

Mavzuga oid adabiy-badiiy matnlar tinglab tushunish, mazmunini qayta hikoyalash.

Bayram liboslari bo‘yicha suhbatda va rolli o‘yinda ishtirok etish.

Quyidagi nutqiy mavzularda o‘zaro suhbatlashish:

- Mustaqillik maydonida.
- Xalq sayli boshlandi.
- Navro‘z tantanalari.
- Bayram libosini kiyamiz.

### ***Yozma nutq:***

Mavzuga oid mashq va topshiriqlar ustida ishlash.

Bayram taassurotlarini yozma bayon qilish va gazetaga maqola yozish.

Videotasvir asosida Navro‘z sayllari haqida matn tuzish.

***Grammatika:*** Qo‘shma gaplarning tarkibiy qismlarining ifoda maqsadiga ko‘ra turlari, ularda tinish belgilarining qo‘llanishi.

## XIX Bizning mahalla

### ***Og‘zaki nutq:***

O‘z mahallasining manzili, obodonchiligi, odamlari haqida bo‘ladigan savol-javobda faol qatnashish.

Mavzuga oid adabiy-badiiy matnlarni tinglab tushunish, mazmunini qayta hikoyalash.

Quyidagi nutqiy mavzularda o‘zaro suhbatlashish:

- Qayerda yashaysan?
- Xonamni tozalayman.
- Vatan mahalladan boshlanadi.
- Ona yurtning - oltin beshiging.

### ***Yozma nutq:***

O‘z mahallasi haqida reklama matnini tayyorlash.

Mavzuga oid mashq va topshiriqlar ustida ishlash.

O‘tgan zamon fe‘llari orqali mahallada bajarilgan ishlarga oid matn tuzish.

***Grammatika:*** Qo‘shma gaplarning gap bo‘laklariga ko‘ra tasnifi. Kesim ergash gapli qo‘shma gaplar, ularda bog‘lovchi vositalarning ma‘nodoshligi.

## XX. Safar rejasi

### ***Og‘zaki nutq:***

Safar rejalari haqida o‘zbek tilida so‘zlab berish, safarga ketayotganlarga tilaklar bildirish.

Buyuk Ipak yo‘li haqidagi matnlarni o‘qish, ularni so‘zlash, shu kabi matnlarni kengaytirish. Buyuk Ipak yo‘li xaritasini izohlash.

Quyidagi nutqiy mavzularda o‘zaro suhbatlashish:

- Oy borib, omon keling!
- Buyuk Ipak yo‘li bo‘ylab.
- Bir marta ko‘rgan afzal.
- Safar taassurotlari.

### ***Yozma nutq:***

Mavzuga oid mashq va topshiriqlar ustida ishlash.

O‘zbekistonning tarixiy me‘morchilik obidalari haqida matnlar asosida bayon yozish va matn mazmunini kengaytirish.

Safar xotiralariga oid matn tuzish.

***Grammatika:*** Ega ergash gapli qo‘shma gaplar, ularda bog‘lovchi vositalarning ma‘nodoshligi.

## XXI. Jamoat transporti

### ***Og‘zaki nutq:***

Jamoat transportida, bekat va ko‘chalarda turli vaziyatlarda o‘zbek tilida muloqotga kirisha olish, o‘zini qiziqtirgan ma‘lumotlarni aniqlash.

Muayyan manzilga yetib borish yo‘nalishini og‘zaki ifodalay olish.

Rolli o‘yinda ishtirok etish.

Quyidagi nutqiy mavzularda o‘zaro suhbatlashish:

- Manzilga yetdingizmi?
- Xiyobonda uchrashamiz.
- Shahar transporti.
- Harakat xavfsizligiga amal qiling.

### ***Yozma nutq:***

So‘ralgan manzilga yetib borish yo‘nalishini yozma ifodalay olish.

Mavzuga oid mashq va topshiriqlar ustida ishlash.

Shahringiz jamoat transportining qatnovi haqida maqola tayyorlash.

Hozirgi zamon fe‘llari orqali ifodalangan mavzuga oid dialog tuzish.

***Grammatika:*** Hol ergash gapli qo‘shma gaplar, ularda bog‘lovchi vositalarning ma‘nodoshligi.

## **XXII. O‘zbek teatri va kinosi**

### ***Og‘zaki nutq:***

Tasviriy san’at asarlari, teatr san’ati haqidagi matnlarni o‘qish, ularni qayta hikoyalash. Rasmlarga qarab hikoya qilish.

Sahna ustalari haqida matnlarni o‘qish, teatr sohasi atamalarini izohlash.

Quyidagi nutqiy mavzularda o‘zaro suhbatlashish:

- Aktyor va hayot haqiqati.
- Mohir so‘z ustasi.
- Mumtoz o‘zbek kinosi.

### ***Yozma nutq:***

Mavzuga oid mashq va topshiriqlar ustida ishlash.

Teatr sahnasi tasvirini yozma bayon qilish.

O‘zi yoqtirgan kinosi aktyor haqida matn tuzish.

***Grammatika:*** Aniqlovchi ergash gapli qo‘shma gaplar, ularda bog‘lovchi vositalarning ma’nodoshligi.

## **XXIII Xalqimizning asil farzandlari**

### ***Og‘zaki nutq:***

O‘zbek xalqi tarixida o‘chmas iz qoldirgan allomalar, dunyo ilm-fani taraqqiyotiga yirik hissa qo‘shgan o‘zbek mutafakkirlari haqidagi matnlarni o‘qish, qayta hikoyalash, kengaytirish, shu mavzuda savol-javobda ishtirok etish.

Quyidagi nutqiy mavzularda o‘zaro suhbatlashish:

- Ular bilan faxrlanamiz.
- Xotira maydonida.
- Bilimini dunyo tan olgan.
- Xalq xotirasida mangu qoladi.

### ***Yozma nutq:***

Adabiy kecha uchun buyuk vatandoshlarimiz haqida ma’ruza matnini hozirlash.

O‘zbek xalqining sevimli qahramoni haqida gazetaga maqola tayyorlash.

Mavzuga oid mashq va topshiriqlar ustida ishlash.

***Grammatika:*** To‘ldiruvchi ergash gapli qo‘shma gaplar, ularda bog‘lovchi vositalarning ma’nodoshligi.

## XXIV Ishlab chiqarish amaliyoti

### **Og‘zaki nutq:**

Ishlab chiqarish amaliyoti o‘tkazilgan korxonadagi ishlar xususidagi savol-javobda ishtirok etish, o‘z fikr-mulohazalarini bildirish.

Fikrga munosabat bildirish, e‘tiroz va rad etish sabablarini izohlash.

Quyidagi nutqiy mavzularda o‘zaro suhbatlashish:

- Korxonatashkilot, jamoa xo‘jaligi)da.
- Mustaqil ishlayapman.
- Xavfsizlik texnikasi.
- Mening ish joyim.

### **Yozma nutq:**

Mavzuga oid mashq va topshiriqlar ustida ishlash.

Ishlab chiqarish amaliyotida qatnashgan kursdoshiga tavsifnoma yozish.

Ishlab chiqarish amaliyoti bo‘yicha hisobot tayyorlash.

**Grammatika:** Shart ergash gapli qo‘shma gaplar, ularda bog‘lovchi vositalarning ma‘nodoshligi.

### “O‘zbek tili” fanidan mavzuviy reja va soatlar taqsimoti

№	Fan bo‘limlari va mavzular	Umumiy yuklama (soatlarda)							
		Dars turi bo‘yicha soatlar taqsimoti							
		Hammasi	Jami	Nazariy (ma‘ruza)	Amaliy	Labarotoriya	Seminar	Kurs ishi(loyihasi)	Mustaqil ish
1	O‘zbekiston - mustaqil yurt	8	6	-	6	-	-	-	2
2	Mening qiziqishlarim va mashg‘ulotlarim	10	6	-	6	-	-	-	4
3	Oilam – tayanchim va faxrim	8	4	-	4	-	-	-	2
4	Ustozlar maktabi	8	4	-	4	-	-	-	2
5	Sevimli gazetam (jurnalim)	8	6	-	6	-	-	-	2
6	Til – ma‘naviyat ko‘zgusi	8	4	-	4	-	-	-	2

	Yozma nazorat ishi								
7	Sharq bozori ne'matlari	8	6	-	6	-	-	-	2
8	O'zbek dasturxonlari atrofida	8	4	-	4	-	-	-	2
9	Sog'liq - tuman boylik	8	4	-	4	-	-	-	2
10	Tarixni o'rganamiz	10	6	-	6	-	-	-	4
11	Dunyo mo'jizalari	8	4	-	4	-	-	-	2
12	Kasbimni sharaflayman Yozma nazorat ishi	8	6	-	6	-	-	-	2
13	Dam olish va ta'til	8	4	-	4	-	-	-	2
14	Maishiy xizmat	8	6	-	6	-	-	-	2
15	Yurt posbonlari	8	4	-	4	-	-	-	2
16	Madaniyatimiz fidoyilari	8	6	-	6	-	-	-	2
17	Barhayot an'ana va udumlar	8	6	-	6	-	-	-	2
18	Xalq bayramlari va sayllari Yozma nazorat ishi	8	6	-	6	-	-	-	2
19	Bizning mahalla	9	4	-	4	-	-	-	3
20	Safar rejasi	8	4	-	4	-	-	-	2
21	Jamoat transporti	9	4	-	4	-	-	-	3
22	O'zbek teatri va kinosi	8	6	-	6	-	-	-	2
23	Xalqimizning asil farzandlari	8	6	-	6	-	-	-	2
24	Ishlab chiqarish amaliyoti Yozma nazorat ishi	8	4	-	4	-	-	-	2
	<b>Жами:</b>	<b>174</b>	<b>12</b>	<b>-</b>	<b>12</b>	<b>-</b>	<b>-</b>	<b>-</b>	<b>54</b>

### **Foydalaniladigan darsliklar va o'quv qo'llanmalar ro'yxati**

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: “Ma'naviyat”. 2008. - 176 b.
2. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: “O'zbekiston”. 1992. - 46 b.
3. O'zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi qonuni // O'zbekistonning yangi qonunlari: To'plam. – T.: 1996. 20-30 b.
4. Azizov O. va b. O'zbek va rus tillarining qiyosiy grammatikasi. – T.: “O'qituvchi”. 2007.
5. Rasulov R., Mirazizov A. O'zbek tili. O'rta mxsus kasb-hunar ta'limi muassasalarining ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan guruhlar uchun o'quv qo'llanma. – T.: “Fan va texnologiya”. 2006.
6. Рафиев А., Махмудов Н., Юлдошев И. Делопроизводство на государственном языке. – T.: “Чўлпон”. 2009.
7. Shodmonov E., Rafiyev A., G'oyipov S. O'zbek tili. Darslik. – T.: “O'zbekiston”. 1995.
8. Usmonova M. va b. O'zbek tili. Darslik. – T.: “O'qituvchi”. 1992.

9. Mahmudov N. va b. Davlat tilida ish yuritish. Darslik. Toshkent-2008
10. Karimov S. Davlat tilida ish yuritish. Darslik. Toshkent-2006

#### **Qo‘shimcha adabiyotlar:**

1. Abdurahmonov X., Shodmonov E., Rafiyev A. O‘zbek tili. – T.: “O‘qituvchi”. 1988.
2. Юлдашев Р.А. Изучаем узбекский язык. O‘zbek tilini o‘rganamiz. Изд. 2-э, доп. – Т.: “O‘qituvchi”. 1996. - 264 s.
3. Nazarov K., Sayfullayev R., Ubaydullayeva M. O‘zbek tili (Ixtisoslik grammatikasi). – Т.: “O‘qituvchi”. 1993.
4. Madvaliev A., Mahmudov N., va b. O‘zbek tilida ish yuritish (munshaot). – Т.: “O‘zbek Milliy ensiklopediyasi”. 1990. - 223 b.
5. Решетов В.В. Основы фонетики и грамматики узбекского языка. – Т.: “Ўқитувчи”. 1966.
6. Rafiyev A. va boshqalar. Chet elliklar uchun o‘zbek tili. I-qism.(CD kassetali) – Т.: “O‘zbekiston”. 2001.
7. Rafiyev A. va boshqalar. O‘zbek tili. Kasb-hunar kollejlarning rus guruhlari uchun o‘quv qo‘llanma. – Т.: “Ilm Ziyo”. 2006 - 160 b.
8. Qo‘chqortoyev I., Rafiyev A. Kundalik muloqot so‘zlashgichi/ Разговорник повседневногo общения, – Т.: “O‘zbekiston”. 1995.
9. Ruscha - o‘zbekcha lug‘at. 1-2 jild. – Т.: “O‘zbek Milliy ensiklopediyasi”. 1988.
10. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 1-5 jild. – Т.: “O‘zbek Milliy ensiklopediyasi”. 2005 - 2008.
11. XXI asr: istiqbolimiz timsollari. – Т.: “O‘zbekiston”. 2001.

## **TARIX**

### **“O‘ZBEKISTON TARIXI”**

#### **Dasturni tuzuvchilar:**

- Q.Usmonov – Toshkent Moliya instituti “O‘zbekiston tarixi” kafedrasida professori, tarix fanlari doktori
- Sh.Karimov – Tarix fanlari nomzodi, professor
- I.Tursunov – Tarix fanlari doktori, professor
- A.Qozoqboev – Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti qoshidagi akademik litseyi o‘qituvchisi, tarix fanlari nomzodi, dostent

#### **Dasturni optimallashtirishda ishtirok etgan ishchi guruhi a‘zolari:**

- N.Polvonov – O‘zMU, “O‘zbekiston tarixi” kafedrasida dotsenti,
- A.Zamonov – O‘zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo‘yicha muvofiqlashtiruvchi-metodik markaz bo‘lim boshlig‘i
- Sh.Ergashev – O‘zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo‘yicha muvofiqlashtiruvchi-metodik markaz bosh mutaxassisi
- X.Yunusova – O‘zMU, “O‘zbekiston tarixi” kafedrasida professori
- Sh.Sharofaddinov – O‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi muassasalarini axborot-metodik ta‘minlash xizmati metodisti

J.Abdurahmonova–	O‘zMU qoshidagi 2-son akademik litsey tarix fani o‘qituvchisi, t.f.n
J.Abdullaev –	Toshkent Turin politexnika universiteti huzuridagi akademik litsey tarix fani o‘qituvchisi
F.Sultonov –	O‘zDJTU qoshidagi 2-son akademik litsey tarix fani o‘qituvchisi
M.Abdusodiqov –	TDSHI qoshidagi Yunusobod akademik litseyi tarix fani o‘qituvchisi
X.Xaydarova –	Toshkent 2-yuridik kolleji tarix fani o‘qituvchisi
F.Xamroyev –	TDTU qoshidagi 5-son akademik litseyi tarix fani o‘qituvchisi, f.f.n., dotsent
R.Meliboeva –	TDYUU qoshidagi akademik litsey tarix fani o‘qituvchisi,
M.Omonov –	O‘zMU qoshidagi S.H.Sirojiddinov nomli akademik litseyi tarix fani o‘qituvchisi
F. Sindarova –	O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini axborot-metodik ta’minlash xizmati metodisti

### **Taqrizchilar:**

B.J. Eshov – O‘zMU professori, tarix fanlari doktori,

A.A. Odilov – O‘zMU dotsenti, tarix fanlari nomzodi

M.N. Inatov – Toshkent davlat texnika universiteti “O‘zbekiston tarixi” kafedrasida dotsenti, tarix fanlari nomzodi

Sh. Shayakubov – Toshkent moliya instituti “O‘zbekiston tarixi” kafedrasida mudiri, dotsent, tarix fanlari nomzodi

A.A. Tojiboyev – Toshkent davlat texnika universiteti qoshidagi Chilonzor akademik litseyi ijtimoiy-gumanitar fani o‘qituvchisi, tarix fanlari nomzodi, professor



## Kirish

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimida “O‘zbekiston tarixi” va “Jahon tarixi” alohida fan sifatida o‘qitilib, dars soatlari deyarli tenglashtirilishi va yonma-yon, davriy ketma-ketlikda o‘rganilishi lozim.

O‘quv rejalari bo‘yicha tarix fani uchun umumta’lim fanlari blokida 160 soat ajratilgan, ya’ni “O‘zbekiston tarixi”- 80 soat, “Jahon tarixi” fani 80 soat O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi tizimining 1- va 2 -kurslarida tarix fani quyidagi ketma-ketlikda o‘qitiladi:

***I kurs: O‘zbekiston tarixi (1917-1991-y):*** Turkistonda 1917-yilgi ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar, Turkistonda sovet hokimiyatining o‘rnatilishi Turkiston muxtoriyati, O‘rta Osiyoda milliy–hududiy chegaralanish, 1917–1940-yillarda qoraqalpoqlar, Ikkinchi jahon urushi yillarida O‘zbekiston, O‘zbekiston sanoati va qishloq xo‘jaligi front xizmatida, urush yillarida fan, ta’lim va madaniyat, urushdan keyingi yillarda O‘zbekiston xalq xo‘jaligining tiklanishi, 1950-1985-yillarda O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy hayoti, Paxta yakka hokimligi va uning oqibatlari, fan, ta’lim va madaniyat, Qoraqalpog‘iston, “Qayta qurish” siyosati va uning barbod bo‘lishi, O‘zbekistonning mustaqillik uchun harakatlari masalalarini o‘z ichiga oladi.

**II kurs: O‘zbekiston tarixi (1991-2014-y):** O‘zbekiston Respublikasining tashkil topishi va huquqiy asoslarining yaratilishi, 1991-2000-yillarda O‘zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati organlari va uning takomillashtirilishi, 1991-2000 yillarda O‘zbekiston Respublikasida mahalliy o‘zini-o‘zi boshqarish organlari, O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiy islohotlar va ijtimoiy-siyosiy hayot, O‘zbekiston Respublikasida fan va ta’lim, madaniyat va sportning rivojlanishi, O‘zbekiston Respublikasi tarkibida suveren Qoraqolpog‘iston Respublikasi, 2001-2014-yillarda O‘zbekiston Respublikasida davlat boshqaruv organlari va uning faoliyati, iqtisodiy taraqqiyot, ijtimoiy-siyosiy hayot, O‘zbekiston Respublikasida fan, ta’lim va madaniyat, O‘zbekiston Respublikasida fuqarolik jamiyatining takomillashuvi, Milliy xavfsizlikni va mamlakat mudofaa qobiliyatini mustahkamlanishi, O‘zbekiston Respublikasining jahon hamjamiyati bilan integratsiyalashuvi, O‘zbekistonning MDH mamlakatlari, Markaziy Osiyo mamlakatlari, Sharq va G‘arb mamlakatlari bilan o‘zaro hamkorligi masalalari yoritib beriladi.

**“O‘zbekiston tarixi” fanidan mavzular bo‘yicha dars soatlari taqsimoti**

№	Fan bo‘limlari va mavzu	Umumiy yuklama, soat					
		Darslar turi bo‘yicha soatlar taqsimoti					
		Hammasi	Jami	Nazariy (ma’ruza)	Amaliy	Seminar	Mustaqil ish
	<i>I bo‘lim. O‘zbekiston 1917-1991-yillarda</i>	58	40	36	2	2	18
	<b>I bob: 1917-1945- yillarda O‘zbekistonning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayoti (24 soat).</b>	35	24	22		2	11
1.	Kirish. Turkistonda 1917 -yilgi ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar, Turkistonda sovet hokimiyatining o‘rnatilishi. Turkiston muxtoriyati	3	2	2			1
2.	Turkistonda sovetlar boshqaruvi tizimining mustahkamlanishi	3	2	2			1
3.	Xorazm va Buxoro Xalq Sovet Respublikalarining tuzilishi	3	2	2			1
4.	Turkistonda sovet hokimiyatiga qarshi harakatlar	3	2	2			1

5.	O'rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanish va O'zbekiston SSRning tuzilishi	3	2	2		1
6.	Yer-suv islohotlari. Respublika qishloq xo'jaligini jamoalashtirish va uning oqibatlari	3	2	2		1
7.	O'zbekistonda ijtimoiy va madaniy-ma'rifiy hayot	3	2	2		1
8.	Qatag'on siyosati va uning oqibatlari	3	2	2		1
9.	1917-1940-yillarda qoraqalpoqlar	3	2	2		1
10.	Ikkinchi jahon urushi yillarida O'zbekiston. O'zbekistonlik jangchilarning fashizmni tor-mor etishdagi jasoratlari	3	2	2		1
11.	O'zbekiston sanoati va qishloq xo'jaligi front xizmatida	2	2		2	
12.	Urush yillarida fan, ta'lim va madaniyat	3	2	2		1
	<b>II bob. 1946-1990-yillarda O'zbekistonning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayoti. (16 soat).</b>	<b>23</b>	<b>16</b>	<b>16</b>		<b>7</b>
13.	Urushdan keyingi yillarda O'zbekiston xalq xo'jaligining tiklanishi. Ma'muriyatchilikning kuchayishi	3	2	2		1
14.	1950-1985-yillarda O'zbekistonning ijtimoiy-siyosiy hayoti	3	2	2		1
15.	1950-1985-yillarda O'zbekiston iqtisodiy hayoti. Paxta yakka hokimligi va uning oqibatlari.	3	2	2		1
16.	1950-1985-yillarda fan, ta'lim va madaniyat	3	2	2		1
17.	1946-1985-yillarda Qoraqalpog'iston	3	2	2		1
18.	"Qayta qurish" siyosati va uning barbod bo'lishi.	3	2	2		1
19.	O'zbekistonning mustaqillik uchun harakatlari	3	2	2		1
20.	Umumlashtiruvchi dars	2	2		2	
	<b>II bo'lim. Mustaqil O'zbekiston ning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti</b>	<b>58</b>	<b>40</b>	<b>36</b>		<b>4 18</b>
	<b>I bob: 1991-2000-yillarda O'zbekiston (16 soat)</b>	<b>23</b>	<b>16</b>	<b>14</b>		<b>2 7</b>
21.	O'zbekiston Respublikasining tashkil topishi va huquqiy asoslarining yaratilishi	3	2	2		1
22.	1991-2000-yillarda O'zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati organlari va uning takomillashtirilishi	3	2	2		1
23.	1991-2000 yillarda O'zbekiston Respublikasida Mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlari	3	2	2		1
24.	1991-2000 yillarda O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy islohotlar.	3	2	2		1
25.	1991-2000 yillarda O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy-siyosiy hayot	3	2	2		1
26.	1991-2000 yillarda O'zbekiston Respublikasida fan va ta'lim.	3	2	2		1
27.	1991-2000 yillarda O'zbekiston Respublikasida madaniyat va sport.	2	2		2	
28.	O'zbekiston Respublikasi tarkibida suveren Qoraqalpog'iston Respublikasi	3	2	2		1
	<b>II bob: 2001-2014-yillarda O'zbekistonning ijtimoiy-</b>	<b>18</b>	<b>12</b>	<b>12</b>		<b>6</b>

	<b>iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti (12 soat)</b>						
29.	2001-2014-yillarda O‘zbekiston Respublikasida davlat boshqaruv organlari va uning faoliyati	3	2	2			1
30.	2001-2014-yillarda O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiy taraqqiyot	3	2	2			1
31.	2001-2014-yillarda O‘zbekiston Respublikasida ijtimoiy-siyosiy hayot.	3	2	2			1
32.	2001-2014-yillarda O‘zbekiston Respublikasida fan, ta’lim va madaniyat	3	2	2			1
33.	2001-2014-yillarda O‘zbekiston Respublikasida fuqarolik jamiyatining takomillashuvi	3	2	2			1
34.	Milliy xavfsizlikni va mamlakat mudofaa qobiliyatini mustahkamlanishi.	3	2	2			1
	<b>III bob: O‘zbekiston jahon hamjamiyatida (12 soat)</b>	<b>17</b>	<b>12</b>	<b>10</b>		<b>2</b>	<b>5</b>
35.	O‘zbekiston Respublikasining jahon hamjamiyati bilan integratsiyalashuvi	3	2	2			1
36.	O‘zbekistonning MDH mamlakatlari bilan o‘zaro hamkorligi	3	2	2			1
37.	O‘zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan o‘zaro hamkorligi	2	2			2	
38.	O‘zbekistonning Sharq mamlakatlari bilan hamkorligi	3	2	2			1
39.	O‘zbekistonning G‘arb mamlakatlari bilan hamkorligi	3	2	2			1
40.	Umumiy takrorlash.	3	2	2			1
	<b>Jami</b>	<b>116</b>	<b>80</b>	<b>72</b>	<b>2</b>	<b>6</b>	<b>36</b>

## **I-bo‘lim. O‘zbekiston tarixi (1917-1991-yillar)**

### **I-bob: 1917-1945-yillarda O‘zbekistonning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayoti**

#### **1- mavzu: Kirish. Turkistonda 1917-yilgi ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar, Turkistonda sovet hokimiyatining o‘rnatilishi Turkiston muxtoriyati (2 soat)**

O‘zbekiston Respublikasi Milliy mustaqil taraqqiyoti sharoitida akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari oldida turgan buyuk va ulkan vazifalarni hal etishda O‘zbekiston tarixi o‘quv fanining ahamiyati. Akademik litsey, kasb-hunar kollejlari o‘qitiladigan O‘zbekiston tarixining o‘ziga xos xususiyatlari, uning davrlari, manbalari.

Fevral inqilobi ta’sirida o‘lkada amalga oshirilgan tub ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar. Turkistonda Rossiya Muvaqqat hukumati Turkiston qo‘mitasining hamda ishchi va askar deputatlari sovetining tashkil topishi.

Jadidchilik harakatining kuchayishi. Umumturkiston musulmonlari qurultoylari. Turkiston o'lkasi musulmonlar Sho'rosining vujudga kelishi, uning joylardagi faoliyati.

Petrogradga 1917-yil oktyabrda yuz bergan davlat to'ntarilishi, uning Turkiston hayotiga ta'siri. Turkistonda Sovet hokimiyatining zo'rlik bilan o'rnatilishi. Turkiston xalq Komissarlari Soveti.

Turkiston Muxtoriyatining tuzilishi va faoliyati.

## **2-mavzu: Turkistonda sovetlar boshqaruvi tizimining mustahkamlanishi**

Turkistonda sovet boshqaruv-ma'muriy tizimining tashkil qilinishi. Turkiston Respublikasining Xalq xo'jaligi Kengashining tuzilishi. Qishloq xo'jaligiga nisbatan siyosat va o'tkazilgan chora -tadbirlar. Turkiston Muxtor Sovet Sotsialistik Respublikasi (TASSR) ning tuzilishi. Turkiston Kompartiyasining tashkil etilishi. O'lkada bolsheviklar hokimiyatining kuchayishi. Milliy rahbar xodimlarning faoliyati. Turor Risqulov, Nazir To'raqulov, Qayg'usiz Otaboyev, Abdulla Rahimboyev, In'omjon Xidraliyev. Turkiston o'lkasi Musulmonlar byurosi. Turkistonda bolshevistik diktatura va uning mohiyati.

## **3-mavzu: Xorazm va Buxoro Xalq Sovet Respublikalarining tuzilishi**

Xorazmda 1917-yildagi islohotchilik harakati, natijalari va mohiyati. Polvonniyoz Hoji Yusupov, Boboovun Salimov, Husaynbek Matmurodov faoliyatlari. "Yosh xivaliklar" harakatining faollashuvi. Xorazmdagi siyosiy va iqtisodiy vaziyatning murakkablashuvi. Junaidxonning hokimiyatni egallashi. Said Abdullaning xon deb e'lon qilinishi. Bolshevistik tajovuskorlikning kuchayishi. Xorazm Xalq Sovet Respublikasining tashkil etilishi. Respublikada hokimiyat tizimining shakllanishi. Polvonniyoz Hoji Yusupov boshchiligidagi hukumatning faoliyati. Respublikada siyosiy beqarorlik, noroziliklarni keltirib chiqargan sabablar. 1921-yil martida Yosh xivalik P.Yusupov boshliq hukumatning ag'darilishi. Xorazmda g'oyaviy-siyosiy vaziyatning keskinlashib borishi. XXSRning Xorazm Sovet Sotsialistik Respublikasi (XSSR) deb o'zgartirilishi va uning tashqi siyosati.

Buxoro amirligidagi 1917-yildagi ahvol. "Yosh buxoroliklar"ning faollashuvi. F.Kolesovning Buxoroga uyushtirgan harbiy hujumi. Qiziltepa bitimi. 1918–1920-yillarda Buxorodagi ijtimoiy-siyosiy ahvol. Buxoro Xalq Sovet Respublikasi(BXSR)ning tuzilishi. BXSRdagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar. F.Xo'jayev boshchiligidagi hukumat faoliyati. G'oyaviy-siyosiy vaziyatning o'zgarib borishi. BXSR olib borgan tashqi siyosati.

## **4-mavzu: Turkistonda sovet hokimiyatiga qarshi harakatlar**

Sovet hokimiyatiga qarshi qurolli harakatlarning boshlanishi. Farg`ona vodiysidagi sovet hokimiyatiga qarshi qurolli harakat, uning maqsadlari va mohiyati. Katta Ergash, Madaminbek, Shermuhammadbek va boshqa qo`rboshilar. Harakatning Turkiston siyosiy muhitiga ta`siri. Farg`ona muvaqqat muxtoriyat hukumatining tuzilishi.

Buxoro respublikasida sovetlarga qarshi kurash. Ibrohimbek, Mulla Abdulqahhor, Anvar Poshsho, Davlatmandbek, Jabborbek.

Xorazmda qurolli harakatlarning boshlanishi va kengayib borishi. Qurbon-Mamed Sardor - Junaidxon, Madraimboy, Sa`dulla bola, Shokir bola, Mavlonbek. Harakatning mag`lubiyati.

«Bosmachilik» deb nom olgan qarshilik ko`rsatish harakatining mohiyati, harakatlantiruvchi kuchlari, bosqichlari.

## **5-mavzu: O`rta Osiyoda milliy–hududiy chegaralanish va O`zbekiston SSRning tuzilishi**

Turkiston – mintaqa xalqlarining yagona makoni, umumiy vatani. Sovet hokimiyatining Turkistonda yuritgan milliy siyosati. O`lka xalqlarining o`z milliy davlatchiligini o`zi belgilashga intilishi, bu urinishning Sovet hokimiyati tomonidan barbod etilishi. Markaz va milliy yetakchilar qarashlarining to`qnashuvi. TASSR, Buxoro va Xorazm respublikalarining chegarlanishga munosabati.

1924-yilgi milliy-hududiy chegaralanish. O`zbekiston SSRning tashkil etilishi, uning hududi, aholisi. Boshqaruv mahkamalari, ijtimoiy-siyosiy va jamoat tashkilotlarini tuzilishi. Chegaralanish yakunlari. 1927-yilgi va 1937-yilgi O`zbekiston SSR Konstitutsiyalarining qabul qilinishi.

## **6-mavzu: Yer-suv islohotlari. Respublika qishloq xo`jaligini jamoalashtirish va uning oqibatlari**

Sovet hokimiyatining yangi iqtisodiy siyosati, uning mohiyati va Turkiston o`lkasida uni amalga oshirish masalalari. Yer-suv islohotlari, ularning amalga oshirilish bosqichlari.

1921-1922-yillarda Turkistonda o`tkazilgan yer-suv islohoti va uning mohiyati.

O'zbekistonda Sovet hokimiyati yuritgan agrar siyosatning mustamlakachilik mohiyati. 1925-1929-yillarda o'tkazilgan yer-suv islohotining maqsadlari. O'zbekistonda paxta yakka hokimligini amalga oshirish siyosati va amaliyoti. Qishloq xo'jaligini zo'raonlik yo'li bilan jamoalashtirish, o'ziga to'q dehqonlarni "quloqlashtirish", surgun qilish, sinf sifatida tugatish siyosati, uning oqibatlari.

### **7-mavzu: O'zbekistonda ijtimoiy va madaniy-ma'rifiy hayot**

"Hujum" harakatining uyushtirilishi. Uning mohiyati va oqibatlari. Aholining ijtimoiy turmushidagi o'zgarishlar, tibbiyot.

O'zbekistonda 1917-1924-yillardagi ma'naviy-madaniy muhitning xususiyatlari. Xalq ta'limi. Sovet hokimiyatining O'zbekistonda yangi ta'lim tizimini joriy etishdan ko'zlagan asosiy maqsadi. 1929 va 1940-yillardagi yozuv islohotlari. Oliy ta'lim tizimi. Milliy ziyoli kadrlarning o'lkada maorifni va oliy ta'limni rivojlantirish, fan sohalaridagi faoliyati. O'zbekiston fanlar akademiyasining tashkil etilishi.

O'zbek adabiyoti. «Chig'atoy gurungi» uyushmasi. XX asrning 20-30-yillardagi atoqli o'zbek yozuvchilari va ma'rifatparvarlarining asosiy vakillari va ularning asarlari. Milliy san'at. Matbuot, ma'rifat maskanlari.

### **8-mavzu: Qatag'on siyosati va uning oqibatlari**

XX asrning 20-yillaridagi qatag'onlar. Davlat, partiya arboblari, ziyolilarning qatag'onga uchrashi.

«18 lar guruhi», «Inog'omovchilik», «Qosimovchilik» ishlarining uyushtirilishi.

XX asrning 30-yillari o'rtasidagi ommaviy qatag'onlar. Chet elga o'qishga yuborilganlar ishi. Mutelik mafkurasining singdirilishi.

Diniy tashkilot va ruhoniylarning ta'qib etilishi. Qonun va inson huquqlarining poymol etilishi.

### **9-mavzu: 1917–1940-yillarda qoraqalpoqlar**

1917–1924 yillarda qoraqalpoqlar. Amudaryo bo'limida ijtimoiy-siyosiy vaziyat va sovet hokimiyatining qaror topishi. Amudaryo bo'limida iqtisodiy o'zgarishlar. Amudaryo bo'limiga viloyat maqomining berilishi.

1925–1930-yillarda qoraqalpoqlar. Qoraqalpog'iston muxtor viloyatining tuzilishi. Xo'jalik sohasidagi islohotlar. Qishloq xo'jaligini jamoalashtirish.

1930-yillardagi ijtimoiy-iqtisodiy hayot. Qoraqalpog`iston muxtor viloyatining Qoraqalpog`iston ASSRga aylantirilishi. QQASSRning O`zbekiston SSR tarkibiga kirishi. QQASSR Konstitutsiyasining qabul qilinishi. Madaniy-ma`rifiy hayot.

### **10-mavzu: Ikkinchi jahon urushi yillarida O`zbekiston. O`zbekistonlik jangchilarning fashizmni tor-mor etishdagi jasoratlari**

Ikkinchi jahon urushining boshlanishi. O`zbekistonning urush girdobiga tortilishi. O`zbekiston moddiy va ma`naviy kuchlarining urushga safarbar etilishi. Respublikada xo`jalik va ijtimoiy hayotning harbiy izga solinishi.

O`zbek xalqining bag`ri kengligi va ulug` insoniy fazilatlarini.

O`zbekiston jangchilarining jasorati va qahramonliklari. Urushning dastlabki kunlaridagi janglarda o`zbek jangchilarining ishtiroki. Brest mudofaasi. O`zbekistonliklarning g`arbiy frontlardagi janglarda ko`rsatgan jasoratlari. O`zbekistonliklarning Moskva, Stalingrad va Kursk uchun janglardagi ishtiroki. O`zbekistonlik jangchilarning 1944-1945-yillarda partizan tuzilmalaridagi ishtiroki. Fashistlar Germaniyasi va Yaponiya militaristlarini tor-mor keltirishda O`zbekistonlik jangchilarning ko`rsatgan jasoratlari.

Fashizmga qarshi kurashda qurbon bo`lgan yurtdoshlarimiz xotirasini abadiylashtirish borasidagi tadbirlar.

### **11-mavzu: O`zbekiston sanoati va qishloq xo`jaligi front xizmatida**

O`zbekiston sanoati - front uchun. SSSRning g`arbiy hududlaridagi sanoat korxonalarining O`zbekistonga ko`chirilishi. O`zbekistonda sanoat tizimidagi o`zgarishlar. Transport va aloqa xizmati.

Urush yillarida O`zbekiston qishloq xo`jaligi. O`zbekistonning g`alabani ta`minlashda strategik ahamiyatga molik mahsulotlar yetishtirib berishdagi muhim o`rni. Aholi turmushi.

Qoraqalpog`iston ASSR urush yillarida.

### **12-mavzu: Urush yillarida fan, ta`lim va madaniyat**

Urush yillarida ilm-fan. O`zbekiston Fanlar akademiyasining tashkil etilishi. G`arbiy hududlardagi yirik shaharlardan ko`plab ilmiy muassasalarning O`zbekistonga ko`chirib keltirilishi. Urush yillarida O`zbekistondagi ilmiy – tadqiqot muassasalarining faoliyati. Ilm-fan namoyandalari faoliyati.



Urush yillarida ta'lim tizimi va mutaxassis kadrlar tayyorlash muammolari.

O'zbek adabiyoti va san'ati fashizmga qarshi kurashda. Urush yillarida madaniyat muassasalarining faoliyati.

## **II-bob. 1946-1990-yillarda O'zbekistonning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayoti**

### **13-mavzu: Urushdan keyingi yillarda O'zbekiston xalq xo'jaligining tiklanishi. Ma'muriyatchilikning kuchayishi**

Urushning O'zbekiston xalq xo'jaligi va ma'naviy hayotiga keltirgan oqibatlari. Xalq xo'jaligining tiklanishi.

Urushdan keyingi yillarda ma'muriyatchilikning kuchayishi. O'zbekistonda milliy erkinliklarning cheklanishi. Ruslashtirish siyosatining tobora kuchaya borishi.

Ma'naviy-madaniy hayotda buyruqbozlikning kuchayishi. O'zbekiston ziyolilarini qatag'on qilishning yangi bosqichi.

### **14-mavzu: 1950-1985-yillarda O'zbekistonning ijtimoiy-siyosiy hayoti**

O'zbekistonning 1950-1985-yillardagi ijtimoiy-siyosiy hayoti. Aholining milliy tarkibidagi o'zgarishlar. Markazning milliy siyosati va uning salbiy oqibatlari.

1970-1985-yillarda boshqaruvning o'ta markazlashtiriluvi, ma'muriy-buyruqbozlik tizimi hukmronligining avj olishi. Jamoat tashkilotlari huquqlarining cheklanishi.

Sh.Rashidov – davlat va jamoat arbobi. Uning totalitar tizimda hukmron bo'lgan muhitdagi siyosiy va ijtimoiy faoliyati.

O'zbekiston Kompartiyasining siyosati.

O'zbekistonning xalqaro aloqalarda ishtiroki.

### **15-mavzu: 1950-1985-yillarda O'zbekiston iqtisodiy hayoti. Paxta yakka hokimligi va uning oqibatlari**

Sanoat rivojlanishidagi ziddiyatlar. Sanoatning bir yoqlama rivojlanishi. O'zbekistonning xalq xo'jaligi sohalari va tabiiy zaxiralari. Transport va aloqa vositalari tarmoqlarining kengayishi. Respublika sanoatining markazga qaramligi.

O'zbekistonga rusiyzabon aholining ko'plab ko'chib kelishi.

Respublikada agrar xo'jalik. Qishloq xo'jaligida paxta yakka hokimligi va uning oqibatlari. Qo'riq va bo'z yerlarni o'zlashtirish, suv omborlari va kanallar qurilishi. Ekologik halokat. Orol fojiasi. Donli ekinlar, meva-sabzavotchilik va chorvachilikdagi ahvol.

### **16-mavzu: 1950-1985-yillarda fan, ta'lim va madaniyat**

Ilm-fan. O'zbekistondagi ilmiy tadqiqot muassasalari va ularning faoliyati. Fanning ishlab chiqarishga joriy etilishi. Ijtimoiy-gumanitar, tabiiy va aniq fanlar.

Ta'lim tizimi, ta'lim-tarbiya va turmush. Ta'lim islohoti, uning natijalari.

Adabiyot va san'at. Respublika ma'naviy va madaniy hayoti. Ma'naviy hayotda mafkuraviy cheklashlar. Kommunistik mafkura hukmronligi va uning oqibatlari.

### **17-mavzu: 1946-1985-yillarda Qoraqalpog'iston**

Urushdan keyingi yillarda Qoraqalpog'iston xalq xo'jaligining ahvoli.

1950-yillarning oxiri-1960-yillarning boshlarida Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va sanoati.

1960-1985-yillarda Qoraqalpog'iston iqtisodiyotining bir tomonlama rivojlanishi.

Qoraqalpog'istonda ilm-fan, madaniyat va san'at.

### **18-mavzu: "Qayta qurish" siyosati va uning barbod bo'lishi**

«Qayta qurish» siyosati, uning barbod bo'lishi. O'zbekistonning ijtimoiy-siyosiy hayoti. «Paxta ishi» va uning oqibatlari.

Respublikada milliy urf-odatlar, an'analar, qadriyatlarni toptash. Markazdan yuborilgan "kadrlar to'dasi". Milliy kadrlarning tazyiqqa uchrashi.

Qayta qurish davrida O'zbekistondagi iqtisodiy holat va cheklangan islohotlar mohiyati. Ittifoq mehnat taqsimoti va unda O'zbekistonning tutgan o'rni. Qayta qurish davrida O'zbekistonning xalqaro aloqalari.

Xalq milliy ongining o'sishi. Demokratiya va ijtimoiy faollik.

Qayta qurish davrida milliy madaniyat masalasi. Ta`lim tizimi. Madaniy-ma`rifiy ishlar. Madaniyatda milliylik va baynalmilallik masalasi.

### **19-mavzu: O`zbekistonning mustaqillik uchun harakatlari**

Millatlar o`rtasidagi milliy-etnik munosabatlarning keskinlashuvi. Islom Karimovning Respublika rahbarligiga saylanishi. Ijtimoiy-siyosiy hayotda o`zgarishlarning boshlanishi, demokratik harakatlarning kuchayishi. O`zbekiston va Markaz munosabatlari. O`zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi.

O`zbekistonning milliy mustaqillik sari yo`l tutishi. O`zbekistonda Prezidentlik lavozimining joriy etilishi. Oliy Kengashda Islom Karimovning O`zbekiston Prezidenti etib saylanishi. Mustaqillik Deklaratsiyasining qabul qilinishi va uning tarixiy ahamiyati.

### **20-mavzu: Umumlashtiruvchi dars**

O`zbekistonning 1917-1991-yillarda ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayoti haqida o`quvchilar olgan bilim, malaka va ko`nikmalar yuzasidan yakuniy nazorat ishlar o`tkaziladi.

## **II-kurs**

### **II-bo`lim. Mustaqil O`zbekistonning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti**

#### **I-bob. 1991-2000-yillarda O`zbekiston**

### **21-mavzu: O`zbekiston Respublikasining tashkil topishi va huquqiy asoslarining yaratilishi**

O`zbekistonning Ittifoq shartnomasini yangilashga munosabati. 1991-yil avgust voqealari. SSSRning tanazzulga yuz tutishi. O`zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1991-yil 31-avgustda bo`lib o`tgan navbatdan tashqari VI sessiyasi. 1-sentyabrni O`zbekiston Respublikasining mustaqillik kuni - umumxalq bayrami deb belgilanishi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi VIII sessiyasining «O‘zbekiston Respublikasi referendumini o‘tkazish to‘g‘risida», «O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini o‘tkazish to‘g‘risida»gi qarorlari.

1991-yil 29-dekabrda bo‘lib o‘tgan referendum va uning yakunlari. 1991-yil 29-dekabrda bo‘lib o‘tgan Prezident saylovi va Islom Karimovning O‘zbekistonning Prezidenti etib saylanishi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va davlat ramzlarining qabul qilinishi. O‘zbekistonning ma‘muriy-hududiy tuzilishi.

## **22-mavzu: 1991-2000-yillarda O‘zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati organlari va uning takomillashtirilishi**

O‘zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati organlari vakolatlarining belgilanishi va yangi davlat organlarining shakllanishi.

Qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatining qayta tashkil etilishi hamda ularning faoliyati.

O‘zbekiston Respublikasi Parlamenti faoliyati. Vazirlar Mahkamasi va uning faoliyati. Sud hokimiyati.

Mahalliy davlat hokimiyati organlarining tashkil etilishi.

## **23-mavzu: 1991-2000-yillarda O‘zbekiston Respublikasida Mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish organlari**

Mahalla instituti va uning tarixiy ildizi. Mahalliy o‘zini-o‘zi boshqaruv organlarining tashkil etilishi.

Fuqarolar yig‘ini. Qishloq, ovul, mahalla oqsoqollari kengashlarining tuzilishi, vazifalari, faoliyati.

Mahalliy o‘zini-o‘zi boshqarish organlarining davlat boshqaruvidagi o‘rni.

## **24-mavzu: 1991-2000-yillarda O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiy islohotlar**

O‘zbekistonda bozor munosabatlariga o‘tishning o‘ziga xos yo‘lining ishlab chiqilishi. Taraqqiyotning “O‘zbek modeli” va uning amalga oshirilishi.

Iqtisodiy islohotlarni boshqarish tizimining barpo etilishi. Bozor infratuzilmasining shakllanishi. Iqtisodiy islohotlarning strategik maqsadlari, ustuvor yo‘nalishlari va bosqichlari. Sanoat va qishloq xo‘jaligidagi o‘zgarishlar.

Avtomobilsozlik sanoati.  
Mulkdorlar sinfining shakllanishi.  
Respublika iqtisodiyotiga chet el investitsiyalarining kirib kelishi.  
Don mustaqilligining ta'minlanishi.

## **25-mavzu: 1991-2000-yillarda O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy-siyosiy hayot**

O'zbekistonda demokratik jamiyatga xos saylov tizimining barpo etilishi.

Siyosiy partiyalar. Ijtimoiy harakatlar, jamoat tashkilotlarini shakllantirilishi. Jamiyatda ko'ppartiyaviylikning qaror topishi. Jamoat birlashmalari, nodavlat- notijorat tashkilotlar va ularning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi o'rni. Ommaviy axborot vositalari.

Respublika inson huquqlari va erkinliklarining kafolatlanishi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida O'zbekistonda kuchli ijtimoiy siyosat. Ijtimoiy himoya tizimining yaratilishi.

O'zbekiston – ko'p millatli mamlakat. Millatlararo totuvlik va bag'rikenglikning ta'minlanishi. Milliy-madaniy markazlarning tashkil topishi va ularning faoliyati.

## **26-mavzu: 1991-2000-yillarda O'zbekiston Respublikasida fan va ta'lim**

1991-2000-yillarda O'zbekistonda ilm-fan sohasidagi islohotlar va ularning natijalari. Oliy ta'lim tizimidagi islohotlar.

Ta'lim tizimidagi islohotlar. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni, Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi va ularning hayotga tatbiq etilishi. O'rta-maxsus, kasb-hunar ta'lim tizimining tashkil etilishi.

## **27-mavzu: 1991-2000-yillarda O'zbekiston Respublikasida madaniyat va sport**

Milliy istiqlol g'oyasining shakllanishi. Milliy va diniy qadriyatlar tiklanishi.

Madaniyat va san'atning rivojlanishi. Teatr, musiqa, tasviriy san'at, sirk, muzeylar faoliyati.

Jismoniy tarbiya va sportning rivojlanishi.

Milliy arxitektura va qurilish. Shaharsozlik.

## **28-mavzu: O‘zbekiston Respublikasi tarkibida suveren Qoraqalpog‘iston Respublikasi**

1990-yil 14-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasi tarkibida Qoraqalpog‘iston Respublikasi Davlat suvereniteti to‘g‘risida”gi Deklaratsiyaning qabul qilinishi. Qoraqalpog‘istonda davlat boshqaruv organlarining takomillashuvi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Konstitutsiyasi va davlat ramzlarining qabul qilinishi.

Qoraqalpog‘istonda iqtisodiy islohotlar.

Qoraqalpog‘iston Respublikasida fan, ta‘lim va madaniyat.

Orol muammosi. Orolbo‘yi aholisini ijtimoiy himoyalash borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar.

## **II-bob. 2001-2014-yillarda O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti**

### **29-mavzu: 2001-2014-yillarda O‘zbekiston Respublikasida davlat boshqaruv organlari va uning faoliyati**

Ikki palatali parlamentning shakllantirilishi va faoliyati. Davlat boshqaruv idoralari vakolatlaridagi o‘zgarishlar. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga kiritilgan o‘zgarishlar. Sud-huquq tizimidagi islohotlar. Sud tizimining liberallasuvi.

Ommaviy axborot vositalari. Ommaviy axborot vositalarining jamiyatni demokratlashtirishdagi o‘rni va ahamiyati.

### **30-mavzu: 2001-2014-yillarda O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiy taraqqiyot**

Iqtisodiyotning modernizatsiyalashuvi. Davlat tomonidan tadbirkorlarning qo‘llab-quvvatlanishi, ularni rag‘batlantiradigan

mexanizmning yaratilishi. Kichik va oʻrta biznes, kasanachilikning rivojlanishi.

Erkin va maxsus iqtisodiy zonalar yaratilishi hamda ularning ahamiyati. Agrar islohotlar. Fermerlik harakati.

Tarkibiy oʻzgarishlarni investitsiyalashning davlat tomonidan ragʻbatlantirilishi.

### **31-mavzu: 2001-2014-yillarda Oʻzbekiston Respublikasida ijtimoiy-siyosiy hayot**

Ijtimoiy himoya tizimining takomillashuvi. Manzilli ijtimoiy himoya tizimining joriy etilishi. Yangi ish oʻrinlarining yaratilishi.

Sogʻliqni saqlash tizimidagi islohotlar. Qishloq vrachlik punktlarining tashkil etilishi. Ona va bola salomatligini himoyalash.

Millatlararo va dinlararo totuvlikni taʼminlash borasida amalga oshirilgan tadbirlar.

Oʻzbekistonda nodavlat va notijorat tashkilotlari hamda ular faoliyatining kengayishi.

Saylov tizimidagi islohotlar. Siyosiy partiyalar, jamoat birlashmalari va ijtimoiy harakatlarning davlat boshqaruvidagi ishtirokining takomillashuvi.

### **32-mavzu: 2001-2014-yillarda Oʻzbekiston Respublikasida fan, taʼlim va madaniyat**

Maʼnaviy hayot. Fan, taʼlim va madaniyatning rivojlanishi.

Taʼlim sohasidagi islohotlar. 12 yillik majburiy taʼlimning shakllantirilishi.

Taʼlim tizimida xalqaro aloqalarning kuchayishi, yangi oliy taʼlim muassasalarining tashkil etilishi.

### **33-mavzu: 2001-2014-yillarda Oʻzbekiston Respublikasida fuqarolik jamiyatining takomillashuvi**

Oʻzbekistonning demokratik, fuqarolik jamiyat qurish tomon tutgan yoʻli, uning oʻziga xos xususiyatlari. Kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari.

Mahalliy oʻz-oʻzini boshqaruv organlari faoliyatining takomillastirilishi.

Respublikada demokratik jarayonlarning xalqaro miqyosda e'tirof etilishi.

### **34-mavzu: Milliy xavfsizlik va mamlakat mudofaa qobiliyatining mustahkamlanishi**

Umumiy, mintaqaviy va milliy xavfsizlik masalalari, ularning o'zaro bog'liqligi. O'zbekistonda milliy xavfsizlik tizimini yaratishning dolzarbligi. Milliy xavfsizlikni mustahkamlash chora-tadbirlari.

Mamlakatimiz xavfsizligiga tahdid solayotgan tashqi va ichki omillar: mintaqaviy mojarolar; terrorizm; diniy ekstremizm va fundamentalizm.

O'zbekiston Qurolli Kuchlari – xavfsizlik tayanchi. Yuqori malakali zobit (ofitser) kadrlar tayyorlash tizimining yaratilishi. Qurolli kuchlar jangovarligi, qudratining ko'tarilishi. Davlat chegaralarining mustahkamlanishi.

## **III-bob. O'zbekiston jahon hamjamiyatida. (12 soat)**

### **35-mavzu: O'zbekiston Respublikasining jahon hamjamiyati bilan integratsiyalashuvi**

O'zbekiston Respublikasining milliy manfaatlariga, jahon xavfsizligiga mos tinchliksevar mustaqil tashqi siyosat asoslarining ishlab chiqilishi. Tashqi siyosat tamoyillari.

O'zbekiston davlat mustaqilligining jahonning nufuzli davlatlari tomonidan tan olinishi. O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga qo'shilishi.

O'zbekiston Respublikasining BMT, YeXHT, SHHTga a'zo bo'lishi va ular bilan hamkorligi.

Respublikamizning xalqaro ixtisoslashgan iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy tashkilotlar bilan aloqalari.

### **36-mavzu: O'zbekistonning MDH mamlakatlari bilan o'zaro hamkorligi**

MDH tashkiloti. O'zbekistonning boshqa MDH davlatlari bilan iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va madaniy aloqalari.



Umumiy xavfsizlik muammolari. Terrorizm, diniy ekstremizm va giyohvandlikka qarshi hamkorlikda kurash. Ekologik muammolar. Transchegaraviy daryolar.

### **37-mavzu: O‘zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan o‘zaro hamkorligi. (2 soat)**

O‘zbekistonning Qozog‘iston, Turkmaniston, Qirg‘iziston, Tojikiston mamlakatlar bilan ko‘p tomonlama va ikki tomonlama hamkorligi.

Trans Osiyo temir yo‘l magistrali qurilishi, Orolni qutqarish harakatida faol ishtirok etishi.

Markaziy Osiyo Hamkorlik tashkilotining tuzilishi.

### **38- mavzu: O‘zbekistonning Sharq mamlakatlari bilan hamkorligi**

Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlari - Turkiya, Eron, Pokiston, Hindiston, Saudiya Arabistoni, Misr va boshqa davlatlar bilan aloqalar.

O‘zbekistonning Sharq va Tinch okeani havzasi mamlakatlari - Xitoy, Janubiy Koreya, Yaponiya, Malayziya, Indoneziya, Vetnam va boshqa mamlakatlar bilan hamkorligining o‘rnatilishi va kengayib borishi.

### **39-mavzu: O‘zbekistonning G‘arb mamlakatlari bilan hamkorligi**

O‘zbekistonning Yevropa mamlakatlari - Fransiya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Italiya, Ispaniya, Polsha, Chexiya, Slovakiya va boshqa davlatlar bilan munosabatlari.

O‘zbekiston va Amerika Qo‘shma Shtatlari o‘rtasidagi hamkorlik.

### **40-mavzu: Umumiy takrorlash**

Kurs yuzasidan takrorlash. O‘zbekiston Respublikasida davlat boshqaruv organlari va uning faoliyati, iqtisodiy-ijtimoiy siyosiy hayot, ilmfan va madaniyat, O‘zbekiston Respublikasi tarkibida suveren Qoraqolpog‘iston Respublikasi. Milliy xavfsizlik va mamlakat mudofaa qobiliyatining mustahkamlanishi, O‘zbekiston Respublikasining jahon hamjamiyati bilan integratsiyalashuvi, O‘zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan o‘zaro hamkorligi, O‘zbekistonning g‘arb mamlakatlari bilan hamkorligi,

O‘zbekistonning Sharq mamlakatlari bilan hamkorligi masalalari takrorlanadi.

## **“Jahon tarixi”**

**“Jahon tarixi”**fani bo‘yicha dasturni tuzuvchilar:

- M.F.Lafasov – Tarix fanlari nomzodi, dostent  
M.Ochilova – Q.Niyoziy nomli O‘zPFIT instituti ilmiy xodimi  
M.Kabirova – Q.Niyoziy nomli O‘zPFIT instituti ilmiy xodimi

**Dasturni optimallashtirishda ishtirok etgan ishchi guruhi a‘zolari:**

- Sh.Ergashev – O‘zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo‘yicha muvofiqlashtiruvchi-metodik markaz bosh mutaxassisi,  
A.Zamonov – O‘zbekiston ning eng yangi tarixi masalalari bo‘yicha muvofiqlashtiruvchi-metodik markaz bo‘lim boshlig‘i,  
N.Polvonov – O‘zbekiston Milliy universiteti, “O‘zbekiston tarixi” kafedrasida dotsenti

X.Yunusova –	O‘zbekiston Milliy universiteti, “O‘zbekiston tarixi” kafedrası professori
Sh.Sharofaddinov –	O‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi muassasalarini axborot-metodik ta‘minash xizmati metodisti
F. Sindarova –	O‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi muassasalarini axborot-metodik ta‘minash xizmati metodisti
J.Abdurahmonova –	O‘zMU qoshidagi 2-son akademik litseyi tarix fani o‘qituvchisi, t.f.n.
J. Abdullaev –	Toshkent Turin Politexnika Universiteti xuzuridagi akademik litseyi tarix fani o‘qituvchisi
F. Sulstonov –	O‘zDJTU qoshidagi 2-son akademik litseyi tarix fani o‘qituvchisi
M.Abdusodiqov –	TDSHI qoshidagi Yunusobod akademik litseyi tarix fani o‘qituvchisi
X. Xaydarova –	Toshkent 2-yuridik kolleji o‘qituvchisi
F.Xamroev –	TDTU qoshidagi 5-son akademik litseyi tarix fani o‘qituvchisi, f.f.n.
R.Meliboeva –	TDYU qoshidagi akademik litseyi tarix fani o‘qituvchisi
M.Omonov –	O‘zMU qoshidagi S.H.Sirojiddinov nomli akademik litseyi tarix fani o‘qituvchisi

### **Taqrizchilar:**

B.J. Eshov – O‘zMU professori, tarix fanlari doktori,

A.A. Odilov – O‘zMU dotsenti, tarix fanlari nomzodi

M.N. Inatov – Toshkent davlat texnika universiteti “O‘zbekiston tarixi” kafedrası dotsenti, tarix fanlari nomzodi

Sh. Shayakubov – Toshkent moliya instituti “O‘zbekiston tarixi” kafedrası mudiri, dotsent, tarix fanlari nomzodi

A.A.Tojiboyev – Toshkent davlat texnika universiteti qoshidagi Chilonzor akademik litseyi ijtimoiy-gumanitar fan o‘qituvchisi, tarix fanlari nomzodi, professor

## **Kirish**

Ushbu dastur kasb-hunar kollejlari va akademik litseylar uchun mo'ljallangan bo'lib, "Jahon tarixi"ning 1918–2014-yillarini o'z ichiga oladi va umumta'lim maktablaridagi "Jahon tarixi"fanining bevosita davomi hisoblanadi.

Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari "Jahon tarixi" fanini o'rganish quyidagi vazifalarni bajarishga yo'naltirilgan:

- o'quvchilarga jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichini tahlil qilish va o'z hayotiy istiqbollari belgilash imkonini beruvchi tarixiy jarayonlar haqida, jahon maydonida O'zbekistonning roli va o'rni haqidagi bilimlarni beradi;

- jahon xalqlari madaniyatining har biri o'ziga xos noyob va qimmatli ekanligini anglash imkonini beradi;

- gumanizm va vatanparvarlik tamoyillari, fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat g'oyalari hamda o'zbek xalqining tarixiy-madaniy merosi asosida talabalarda umuminsoniy qadriyatlarining shakllanishiga ko'maklashadi;

- Jamiyat taraqqiyotining muhim qonuniyatlarini bilib olish, dunyo rivojlanishining o'ziga xos yo'llarini tushunish va kelajak istiqbollari haqida

tasavvurlarga ega bo'lish imkonini beradi. Shuningdek, ilg'or mamlakatlarning tarixiy tajribasini O'zbekistonda ijodiy qo'llashga imkon beruvchi bilimlarni shakllantiradi.

“Jahon tarixi” fani baynalmilalchilik tarbiyasining muhim vositasidir. Bu fanni o'rganish o'quvchilarda boshqa millat, xalqlar va umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qilish, ularning urf-odatlarini va tarixini qadrlash hissini tarbiyalaydi.

“Jahon tarixi” fani ikki bo'limdan iborat bo'lib, I bo'lim 40soat, II bo'lim 40soat davomida o'qitiladi.

**1-kurs: Jahon tarixi fani bo'yicha:** Birinchi va ikkinchi jahon urushlari oralig'ida xalqaro munosabatlar, birinchi va ikkinchi jahon urushlari oralig'ida ilmiy-texnik taraqqiyotining jadallashuvi, ilm-fandagi yutuqlar, birinchi va ikkinchi jahon urushlari oralig'ida Buyuk Britaniya, Birinchi va ikkinchi jahon urushlari oralig'ida Fransiya, Birinchi va ikkinchi jahon urushlari oralig'ida AQSH, Sovet totalitar tizimining o'rnatilishi va uning o'ziga xos jihatlari, Birinchi va ikkinchi jahon urushlari oralig'ida Germaniya, Birinchi va ikkinchi jahon urushlari oralig'ida Italiya va Ispaniya, Yaponiya: rivojlanishdagi ziddiyatlar; totalitar rejimning o'rnatilishi, Xitoy va Hindiston: mustamlakachilikka qarshi harakatning kuchayishi, Turkiya va Eron: islohotlarning og'ir yo'li, Osiyodagi arab mamlakatlari: mandat tizimi va uning oqibatlari, Birinchi va ikkinchi jahon urushlari oralig'ida Lotin Amerikasi davlatlari. Taraqqiyotning umumiy jihatlari, Shimoliy Afrikadagi arab mamlakatlari, Birinchi va ikkinchi jahon urushlari oralig'ida Afrika mamlakatlari: metropoliyalarning talonchilik siyosati kabi mavzular o'rganiladi.

**2-kurs: Jahon tarixi fani bo'yicha:** Urush arafasidagi xalqaro munosabatlar, Ikkinchi jahon urushi. 1939-1945-yillardagi urush harakatlari, Fashistik Germaniya va militaristik Yaponiyaning tor-mor qilinishi. Urushning yakunlari, Ikkinchi jahon urushidan so'ng xalqaro munosabatlar: “sovuq urush»ning boshlanishi, XX asrning ikkinchi yarmi –XXI asr boshlarida AQSH, Buyuk Britaniya va Fransiya, Germaniya va Italiya, G'arbiy Evropa mamlakatlarida integratsiyalashuv jarayonlari: Yevropa Ittifoqining shakllanishi, 1945-1990-yillari sovet davlati va Sharqiy Yevropa mamlakatlarida integratsiyalashuv jarayonlari va uning inqirozi, Sharqiy Yevropa mamlakatlarida demokratik inqiloblar va sotsiyalistik lagerning parchalanishi, Sovet davlatining parchalanishi va sobiq sovet respublikalarining mustaqil rivojlanish yo'li, XX asrning ikkinchi yarmi-XXI asr boshlarida Yaponiya, Osiyoning industrial mamlakatlari, Xitoy, Hindiston va Pokiston, Turkiya, Eron, Afg'oniston, Arab mamlakatlari, Lotin Amerikasi: avtoritarizm va demokratik taraqqiyot oralig'ida, Tropik

va Janubiy Afrika mamlakatlari, Yangi ming yillik: harbiy, ekstremistik va ekologik xavf-xatarlar, Ikkinchi jahon urushidan keyingi etno-ijtimoiy muammolar, XX asrning ikkinchi yarmi-XXI asr boshlarida ilm-fan va madaniyat kabi mavzular namunaviy dasturga kiritildi.

**“Jahon tarixi” fanidan mavzular bo’yicha dars soatlari taqsimoti**

№	Fan bo‘limlari va mavzu	Umumiy yuklama,soat					
		Darslar turi bo’yicha soatlar taqsimoti					
		Hammasi	Jami	Nazariy (ma’ruza)	Amaliy	Seminar	Mustaqil ish
	<b>I- BO’LIM. XX asrning birinchi yarmida Jahon mamlakatlari</b>	<b>58</b>	<b>40</b>	<b>38</b>	<b>2</b>		<b>18</b>
	<b><u>I-bob.</u> 1918 – 1939-yillarda jahon mamlakatlari taraqqiyoti va xalqaro munosabatlar</b>	<b>8</b>	<b>6</b>	<b>6</b>			<b>2</b>
1	Kirish.	2	2	2			
2	Birinchi va ikkinchi jahon urushlari oralig’ida xalqaro munosabatlar.	3	2	2			1

3	Birinchi va ikkinchi jahon urushlari oralig'ida ilmiy-texnik taraqqiyotning jadallashuvi, ilm-fandagi yutuqlar	3	2	2		1
	<b>II-bob. 1918-1939-yillarda iindustrial sivilizatsiya mamlakatlari.</b>	<b>9</b>	<b>6</b>	<b>6</b>		<b>3</b>
4	Birinchi va ikkinchi jahon urushlari oralig'ida Buyuk Britaniya	3	2	2		1
5	Birinchi va ikkinchi jahon urushlari oralig'ida Fransiya	3	2	2		1
6	Birinchi va ikkinchi jahon urushlari oralig'ida AQSH.	3	2	2		1
	<b>III-bob. Totalitar tizimlarning qaror topishi</b>	<b>12</b>	<b>8</b>	<b>8</b>		<b>4</b>
7	Sovet totalitar tizimining o'rnatilishi va uning o'ziga xos jihatlari.	3	2	2		1
8	Birinchi va ikkinchi jahon urushlari oralig'ida Germaniya	3	2	2		1
9	Birinchi va ikkinchi urushlari oralig'ida Italiya va Ispaniya	3	2	2		1
10	Yaponiya: rivojlanishdagi ziddiyatlar; totalitar rejimning o'rnatilishi	3	2	2		1
	<b>IV-bob. I va II jahon urushlari oralig'ida Osiyo mamlakatlari.</b>	<b>9</b>	<b>6</b>	<b>6</b>		<b>3</b>
11	Xitoy va Hindiston: mustamlakachilikka qarshi harakatning kuchayishi	3	2	2		1
12	Turkiya va Eron: islohotlarning og'ir yo'li.	3	2	2		1
13	Osiyodagi arab mamlakatlari: mandat tizimi va uning oqibatlari.	3	2	2		1
	<b>V-bob. I va II jahon urushlari oralig'ida Lotin Amerikasi va Afrika mamlakatlari.</b>	<b>9</b>	<b>6</b>	<b>6</b>		<b>3</b>
14	Birinchi va ikkinchi jahon urushlari oralig'ida Lotin Amerikasi davlatlari. Taraqqiyotning umumiy jihatlari.	3	2	2		1
15	Shimoliy Afrikadagi arab mamlakatlari.	3	2	2		1
16	Birinchi va ikkinchi jahon urushlari oralig'ida Afrika mamlakatlari: metropoliyalarning talonchilik siyosati.	3	2	2		1
	<b>VI-bob. Ikkinchi jahon urushi.</b>	<b>11</b>	<b>8</b>	<b>8</b>		<b>3</b>
17	Urush arafasidagi xalqaro munosabatlar.	3	2	2		1
18	Ikkinchi jahon urushi. 1939-1945- yillardagi urush harakatlari.	3	2	2		1
19	Fashistik Germaniya va militaristik Yaponiyaning tor-mor qilinishi. Urushning	3	2	2		1

	yakunlari.						
20	Takrorlash	2	2		2		
	<b>II-BO'LIM. XX asrning ikkinchi yarmi - XXI asr boshlarida jahon mamlakatlari</b>	<b>58</b>	<b>40</b>	<b>38</b>	<b>2</b>		<b>18</b>
	<b>VII-bob. Ikkinchi jahon urushidan keyin dunyo taraqqiyoti.</b>	<b>3</b>	<b>2</b>	<b>2</b>			<b>1</b>
21	Ikkinchi jahon urushidan so'ng xalqaro munosabatlar: "sovuq urush»ning boshlanishi.	3	2	2			1
	<b>VIII-bob. XX asrning ikkinchi yarmi- XXI asr boshlarida AQSH va Garbiy Yevropa mamlakatlari.</b>	<b>12</b>	<b>8</b>	<b>8</b>			<b>4</b>
22	XX asrning ikkinchi yarmi-XXI asr boshlarida AQSH.	3	2	2			1
23	XX asrning ikkinchi yarmi -XXI asr boshlarida Buyuk Britaniya va Fransiya	3	2	2			1
24	XX asrning ikkinchi yarmi-XXI asr boshlarida Germaniya va Italiya	3	2	2			1
25	XX asrning ikkinchi yarmi -XXI asr boshlarida Garbiy Yevropa mamlakatlarida integratsiyalashuv jarayonlari: Yevropa Ittifoqining shakllanishi.	3	2	2			1
	<b>IX-bob. XX asrning ikkinchi yarmi -XXI asr boshlarida Sharqiy Yevropa mamlakatlari.</b>	<b>9</b>	<b>6</b>	<b>6</b>			<b>3</b>
26	1945 – 1990-yillari sovet davlati va Sharqiy Yevropa mamlakatlarida integratsiyalashuv jarayonlari va uning inqirozi.	3	2	2			1
27	Sharqiy Yevropa mamlakatlarida demokratik inqiloblar va sotsialistik lagerning parchalanishi.	3	2	2			1
28	Sovet davlatining parchalanishi va sobiq sovet respublikalarining mustaqil rivojlanish yo'li.	3	2	2			1
	<b>X-bob. XX asrning ikkinchi yarmi - XXI asr boshlarida Osiyo mamlakatlari</b>	<b>18</b>	<b>12</b>	<b>12</b>			<b>6</b>
29	XX asrning ikkinchi yarmi-XXI asr boshlarida Yaponiya.	3	2	2			1
30	Osiyoning industrial mamlakatlari.	3	2	2			1
31	XX asrning ikkinchi yarmi -XXI asr boshlarida Xitoy	3	2	2			1
32	XX asrning ikkinchi yarmi -XXI asr boshlarida Hindiston va Pokiston.	3	2	2			1



33	XX asrning ikkinchi yarmi -XXI asr boshlarida Turkiya, Eron, Afgoniston	3	2	2			1
34	XX asrning ikkinchi yarmi - XXI asr boshlarida Arab mamlakatlari	3	2	2			1
	<b>XI-bob. XX asrning ikkinchi yarmi – XXI asr boshlarida Lotin Amerikasi va Afrika mamlakatlari</b>	<b>6</b>	<b>4</b>	<b>4</b>			<b>2</b>
35	Lotin Amerikasi: avtoritarizm va demokratik taraqqiyot oralig‘ida.	3	2	2			1
36	XX asrning ikkinchi yarmida Tropik va Janubiy Afrika mamlakatlari	3	2	2			1
	<b>XII-bob. Jahon sivilizatsiyasi: yangi davr muammolari</b>	<b>10</b>	<b>8</b>	<b>6</b>			<b>2</b>
37	Yangi ming yillik: harbiy, ekstremistik va ekologik xavf-xatarlar.	3	2	2			1
38	Ikkinchi jahon urushidan keyingi etno-ijtimoiy muammolar.	3	2	2			1
39	XX asrning ikkinchi yarmi-XXI asr boshlarida ilm -fan va madaniyat.	2	2	2			
40	Takrorlash	2	2		2		
<b>Jami</b>		<b>116</b>	<b>80</b>	<b>76</b>	<b>4</b>		<b>36</b>

## **I-BO'LIM. XX ASRNING BIRINCHI YARMIDA JAHON MAMLAKATLARI**

### **I-bob. 1918 – 1939 yillarda jahon mamlakatlari taraqqiyoti va xalqaro munosabatlar**

#### **1-§. Kirish**

Kirish. “Eng yangi tarix” tushunchasi va uni davrlashtirish. “Industrial sivilizatsiya” tushunchasi. Birinchi va ikkinchi jahon urushlari, ularning oqibatlari. XX asrning birinchi yarmida ijtimoiy-siyosiy munosabatlar. Jahon iqtisodiy inqirozlari.

#### **2-§. Birinchi va ikkinchi jahon urushlari oralig‘ida xalqaro munosabatlar**

Parij tinchlik konferensiyasi. Millatlar Ligasining tashkil topishi. Mandat tizimi. Versal tinchlik shartnomasi. 1921–1922-yillardagi Vashington konferensiyasi. Versal-Vashington tizimining shakllanishi. Rossiyada fevral inqilobi, oktabr davlat to‘ntarishi va bolsheviklar hokimiyati o‘rnatilishining xalqaro munosabatlarga ta‘siri. 1918-1939-yillarda xalqaro munosabatlar. Komintern – xalqaro ishchilar harakatining

organi. Sotsialistik internatsional va sotsializm qurishning parlamentli yo'li. Versal-Vashington tizimining inqirozi. Urush va tinchlik muammolari, militarizm va pasifizm. Birinchi jahon urushidan keyin Osiyo va Afrika davlatlari. Ispaniyada fuqarolar urushi. AQSHning "betaraflik" siyosati.

### **3-§. Birinchi va ikkinchi jahon urushlari oralig'ida**

#### **Ilmiy-texnik taraqqiyotning jadallashuvi, ilm-fandagi yutuqlar**

Ilmiy-texnik taraqqiyotning muhim yo'nalishlari va jadallashish sabablari. Tabiiy fanlardagi yutuqlar. Atom fizikasidagi kashfiyotlar. Texnikadagi muhim kashfiyotlar.

Genetika–irsiyat haqidagi fan. Biologiya va bioximiyaning rivojlanishi. Meditsina sohasidagi kashfiyotlar.

Elektronika, radio va televideniye.

Transport vositalari: temiryo'l, avtomobil va dengiz transportidagi yangiliklar. Aviatsiya va raketa texnikasining rivojlanishi.

Raketalar davrining boshlanishi. Yangi o'qotar qurollar.

Yangi konstruktiv materiallarning kashf qilinishi. Elektr energiyasining yangi manbalari.

Ijtimoiy-gumanitar fanlardagi yutuqlar.

## **II-bob. 1918-1939-yillarda industrial sivilizatsiya mamlakatlari**

### **4-§. Birinchi va ikkinchi jahon urushlari oralig'ida Buyuk**

#### **Britaniya**

Birinchi jahon urushining Buyuk Britaniyaga ta'siri. Millatlar Ligasining mandat tizimi bo'yicha Buyuk Britaniya boshqaruviga o'tgan hududlar, mustamlakalar.

1918-yilgi parlament saylovlari, D. Lloyd Jorj boshchiligidagi konservatorlar hukumati. Buyuk Britaniyada liberal partiya ta'sirining susayishi va leyboristlar partiyasining siyosiy tizimdagi o'rni. N.Chemberlen hukumati va uning siyosati. I va II jahon urushlari oralig'ida Angliya iqtisodiy rivojlanishining o'ziga xos jihatlari. An'anaviy sanoatdagi (ko'mir, to'qimachilik) tushkunlik, mashinasozlik va kimyo sanoatining rivojlanishi.

Vestminster statusi. Britan fashizmi.

### **5-§. Birinchi va ikkinchi jahon urushlari oralig'ida Fransiya**

I jahon urushining Fransiya ta'siri. Parij tinchlik konferensiyasi va Fransiyaning Yevropada gegemonlik uchun kurashi.

1919 yilgi parlament saylovlari. J.Klemanso. Milliy blok va uning “Kuchli Fransiya uchun” harakati. A.Mileran hukumati. Daues rejasi (1924)va Lokarno kelishuvi (1925), Yung rejasi (1929), Fransiyaning diplomatik mag’lubiyati.

Iqtisodiy rivojlanish muammolari. Rur inqirozi. E.Errio hukumatining ijtimoiy dasturlari. O’zaro hujum qilmaslik to’grisida sovet-fransuz pakti. So’l kuchlarning hokimiyatga kelishi, Xalq fronti hukumati. L.Blyum hukumatining iste’foga chiqishi. Fransiya-Germaniya munosabatlarining keskinlashuvi. Urush arafasida ichki ziddiyatlarning kuchayishi.

### **6-§. Birinchi va ikkinchi jahon urushlari oralig’ida AQSH**

XX asrning 20-30-yillarida AQSHning ijtimoiy-siyosiy rivojlanishi. AQSHning “xaloskorlik” roli haqidagi g’oyaning kuchayishi. V.Vilson. Jahon moliya markazining Amerikaga ko’chishi. AQSH dunyoning asosiy kreditoriga aylanishi. Taraqqiyot yo’nalishi haqida bahslar. 1924-yilgi saylovlar. Respublikachilar g’alabasi. 1929-yilgi inqiroz va “amerikacha tizim»ning barbod bo’lishi.

F.Ruzveltning prezidentlikka saylanishi, mamlakatni inqirozdan chiqarish muammolari. “Yangi yo’l”ning e’lon qilinishi va uning ijtimoiy islohotlari. Liberal etatizm – demokratik partiya mafkurasi. 1937-yilgi inqiroz.

Ikkinchi jahon urushi arafasida AQSHda iqtisodiy va siyosiy vaziyat. AQSHning dunyodagi roli. Panamerikanizm va izolyatsionizm siyosati.

## **III-bob. Totalitar tizimlarning qaror topishi**

### **7-§. Sovet totalitar tizimining o’rnatilishi va o’ziga xos jihatlari**

“Totalitarizm” tushunchasi. Totalitarizmning mafkuraviy va siyosiy asoslari. Rossiyada sovetlar rejimning o’rnatilishi. 1920-yillar boshlaridagi siyosiy inqiroz. SSSRning tashkil qilinishi. Bir partiyali tizimning vujudga kelishi. “Harbiy kommunizm” va Yangi iqtisodiy siyosat (NEP). RKP (b) – VKP (b) rahbariyatida mamlakatni rivojlantirish masalalari bo’yicha kurash. Sovet totalitar siyosiy rejimining qaror topishi. Mamlakatni jadal industrialashtirish va qishloq xo’jaligini yoppasiga jamoalashtirish, madaniy inqilobning amalga oshirilishi, quloqlashtirish va qatag’on siyosatining ayanchli oqibatlari.

1920–1930-yillari SSSRning tashqi siyosati.

### **8-§. Birinchi va ikkinchi jahon urushlari oralig’ida Germaniya .**

Birinchi jahon urushining Germaniyaga ta’siri. Veymar Respublikasi. Mamlakatdagi siyosiy holat. Reparatsiya siyosati. Rur okkupatsiyasi, 1923-

yil siyosiy inqirozi. “Pivo fitnasi”. Germaniyada Veymar respublikasining inqirozi.

Fashistlarning hokimiyatga kelishi va fashizmning mohiyati. German totalitarizmining iqtisodiy tizimi. Fashizmning tashqi siyosati.

### **9-§. Birinchi va ikkinchi jahon urushlari oralig‘ida Italiya va Ispaniya**

Birinchi jahon urushining Italiyaga ta’siri. Sotsializm xavfi ostida kapitalistik mamlakatlar mafkurasidagi o‘zgarishlar: konservatizm, liberalizm, sotsial-demokratiya, fashizm va natsional-sotsializm. Millatchilik g‘oyasining totalitar xarakteri. Fashistik partiyalarning mafkurasi. Italiyada fashistlar rejimi. B.Mussolini. “Katta fashistik kengash”. Italiya fashizmning siyosiy-iqtisodiy siyosati. Totalitar tizimning o‘rnatilishi. Tashqi siyosat.

Birinchi jahon urushidan keyingi yillarda Ispaniya. Monarxiyaning ag‘darilishi. Ispaniya fuqarolar urushi, Franko rejimining o‘rnatilishi. Tashqi siyosat.

### **10-§. Yaponiya: rivojlanishdagi ziddiyatlar; totalitar rejimning o‘rnatilishi**

Birinchi jahon urushining Yaponiyaga ta’siri. Yaponiya iqtisodiyotining “oltin davri”. Yaponiyani Osiyo bozoridan siqib chiqarishning oqibatlari. Ichki siyosiy jarayonlarda demokratik tamoyillarning kuchayishi. 1930-yillarda Yaponiya taraqqiyotidagi ziddiyatlar, modernizatsiyalash jarayonining susayishi. Jahon iqtisodiy inqirozining Yaponiya uchun ijtimoiy-siyosiy oqibatlari. Liberal hukumatga millatchilar ta’sirining kuchayishi, totalitar rejimning shakllanishi. Yaponiyaning “o‘ziga xosligini” asoslashga urinishlar, totalitar rejimning kuchayishi.

Jamiyatda totalitar g‘oyalar va armiyada radikal kayfiyatlarning kuchayishi, agressiv tashqi siyosatga o‘tish. Xasan ko‘li va Xalxin-gol daryosidagi janglar.

## **IV- bob. Birinchi va ikkinchi jahon urushlari oralig‘ida Osiyo mamlakatlari.**

### **11-§. Xitoy va Hindiston: mustamlakachilikka qarshi harakatning kuchayishi.**

Hindistonning Birinchi jahon urushidagi ishtiroki va Buyuk Britaniya galabasiga qo‘shgan hissasi. Urushdan keyin mustamlakachilikka qarshi kurashning kuchayishi. M.Gandi siyosiy faoliyatining boshlanishi. Satyagraxi harakati. Hindiston Milliy Kongressi. 1935-yilgi Konstitutsiya. Ikkinchi jahon urushi arafasida Hindiston.

Birinchi jahon urushidan keyin (1918-1924) Xitoyda milliy harakatning kuchayishi. Ichki siyosiy holatning murakkablashuvi, fuqarolar urushlarining boshlanishi. Gomindan bilan kommunistik partiya o'rtasidagi ajralish. Gomindan rejimining o'rnatilishi. Xitoyning iqtisodiy rivojlanishi. Yapon agressiyasi va uning ichki siyosiy holatga ta'siri. Xitoyda yapon agressiyasiga qarshi kurashning boshlanishi. II jahon urushi arafasida Xitoy.

### **12-§. Turkiya va Eron: islohotlarning og'ir yo'li.**

I jahon urushi yakunlarining Turkiya uchun oqibatlari. Urushdagi mag'lubiyat va Usmoniylar imperiyasining tarqalib ketishi. Anatoliyada qarshilik harakatining vujudga kelishi. Antanta shartlarini Turkiyaga qabul qildirish uchun urinishlar. Turkiyaga qarshi intervensiyaning boshlanishi. Grek-Turk mojarosi. Mustafa Kamol Otaturk inqilobi. Otaturk islohotlari, modernizatsiyaning boshlanishi. Ijtimoiy-iqtisodiy siyosat. Turkiyaning tashqi siyosati.

Birinchi jahon urushining Eronga ta'siri. Eronda kojarlar sulolasining ag'darilishi. Pahlaviylar sulolasining hokimiyatga kelishi, Rizo shoh islohotlari. Eronning tashqi siyosati.

### **13-§. Osiyodagi arab mamlakatlari: mandat tizimi va uning oqibatlari**

Parij tinchlik konferensiyasi va mandat tizimining shakllanishi. Mandat tizimining mohiyati.

Buyuk Britaniya mandati ostidagi arab davlatlarining ijtimoiy-siyosiy hayoti. Falastin, Iroq, Transiordaniya. 1920-1930-yillarda Britaniya mandat hukumatining siyosati. 1921 yili Iroqda monarxiyaning o'rnatilishi. 1930-yili Iroqning mustaqil davlat deb e'lon qilinishi. Transiordaniya va Arabiston yarim oroli.

Fransiya mandati ostidagi arab davlatlarining ijtimoiy-siyosiy hayoti. Suriya, Livan. "Buyuk Livan"ning tashkil topishi. 1926-yili Livanda respublikaning e'lon qilinishi. Suriyaning to'rtta yarim avtonom davlatlarga bo'linishi. 1928-yilgi Suriya Ta'sis majlisi. Konstitutsiyaning qabul qilinishi.

## **VI-bob. Birinchi va ikkinchi jahon urushlari oralig'ida Lotin Amerikasi va Afrika mamlakatlari.**

#### **14-§. Birinchi va ikkinchi jahon urushlari oralig'ida Lotin Amerikasi davlatlari. Taraqqiyotning umumiy jihatlari**

Birinchi jahon urushining Lotin Amerikasi davlatlariga ta'siri. XX asrning 20-30-yillarida mintaqa mamlakatlari taraqqiyotining o'ziga xos tomonlari. Kapitalizm rivojlanishi. XX asr boshlaridagi ommaviy harakat va liberal-reformizm. Ozodlik harakatining yangi konsepsiyalari. 1929-1933-yillardagi jahon iqtisodiy inqirozi va mintaqadagi holatning keskinlashuvi. Lotin Amerikasi davlatlarining siyosiy hayotidagi o'zgarishlar.

1930-yillardan modernizatsiyalash va jadal industirlashtirish yo'liga o'tilishi.

AQSHning 30-yillarda Lotin Amerikasidagi siyosati. Tashqi siyosat.

#### **15-§. Shimoliy Afrikadagi arab mamlakatlari**

Shimoliy Afrikadagi arab-islom sivilizatsiyasi mamlakatlari. Angliya va Fransiya mustamlakalari. Mustaqil davlatlar. Birinchi jahon urushining Shimoliy Afrikadagi arab davlatlariga ta'siri. Milliy-ozodlik harakatining kuchayishi.

**Misr.** Mustaqillikning e'lon qilinishi. 1923-yilgi Konstitutsiya. 1936-yilgi ingliz-misr shartnomasi.

**Jazoir.** "Yosh jazoirliklar" partiyasi. Jazoir xalqi ozodlik kurashining kuchayishi.

**Marokash.** Ispaniyaning Rif tumaniga hujumi. Rif respublikasining tuzilishi. Rif respublikasining ag'darilishi. Marokashda Franko rejimining o'rnatilishi.

**Tunis.** «Dastur» partiyasining tuzilishi. 1921-1922-yillardagi ozodlik kurashi. Jahon iqtisodiy inqirozi yillarida Tunis.

#### **16-§. Birinchi va ikkinchi jahon urushlari oralig'ida Afrika mamlakatlari: metropoliyalarning talonchilik siyosati**

Afrikadagi Germaniya mustamlakalarining qayta taqsimlanishi. Buyuk Britaniya va Fransiya mustamlakalari. Janubiy Sahroyi Kabir va Tropik Afrika: an'anaviylik va modernizatsiya o'rtasida. Efiopiya. Liberiya. Janubiy-Afrika Ittifoqi. Mustamlakachilik va Afrikada modernizatsiyalash tendensiyalari: iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va madaniy sohalaridagi o'zgarishlar. Afrikada metropoliyalar siyosatining o'ziga xos tomonlari.

1920-yillarda Afrikada birinchi siyosiy partiya – Afrika Milliy Kongressi (AMK)ning tashkil qilinishi. Farovonlik assotsiatsiyasi ilk kasaba uyushmalarining shakllanishi. Panafrika kongresslari va ularning ahamiyati. Panafrika harakati faollari: Uilyam Dyubya va Markus Garvi. Afrika xristianlar harakati.

## **VII-bob. Ikkinchi jahon urushi**

### **17-§. Urush arafasidagi xalqaro munosabatlar**

Germaniyada hokimiyatga kelgan fashistlarning xalqaro maydondagi siyosati. Versal shartnomasi shartlarini o'zgartirish uchun kurash. Armiya va flotning qayta qurilishi. Fashistik Italiyaning Efiopiyaga bostirib kirishi. Ispaniyada general Franko isyoni va yetakchi davlatlarning munosabati.

Millatlar Ligasidagi holat, Sovet-fransuz-ingliz muzokaralari natijasizligi, fashist tajovuzkorlarini "rag'batlantirish" siyosati, Myunxen kelishuvi. Yaponiya, Germaniya va Italiyaning agressiv siyosati. "Antikomintern pakti".

1930-yillari SSSR va Germaniya munosabatlari. Molotov-Ribbentrop pakti. 1939-yilgi Yevropa harbiy-siyosiy inqirozi. Ikkinchi jahon urushi xavfining kuchayishi.

**18-§. Ikkinchi jahon urushi. 1939-1945-yillardagi urush harakatlari**  
Ikkinchi jahon urushining boshlanishi va sabablari. Polshaning bo'lib olinishi. "G'alati urush". Urush arafasida dunyoda siyosiy kuchlar mutanosibligi. Antifashist koalitsiyaning tuzilishi. Germaniyaning g'arbiy frontdagi harakatlari. Angliyaga qarshi kurash. Uchlar paktining tuzilishi. Sovet-fin urushi. Boltiqbo'yi mamlakatlarining Sovet Ittifoqi tarkibiga kiritilishi. Yevropada "Yangi tartib"ning o'rnatilishi.

"Barbarossa" rejasi: Germaniya va SSSR o'rtasida urushning boshlanishi. Urushning bosqichlari. 1941-1943-yillardagi urush harakatlari. Urushning borishidagi tub burilish. Ikkinchi front ochilishi. Qarshilik ko'rsatish harakati. Ittifoqchilar tomonidan dunyoning urushdan keyingi tuzilishi to'grisida strategik rejalarning ishlab chiqilishi (Tehron, Yalta, Potsdam konferensiyalari). 1944-1945-yillardagi urush harakatlari.

### **19-§. Fashistik Germaniya va militaristik Yaponiyaning tor-mor qilinishi.**

#### **Urushning yakunlari**

1945-mayda Germaniyaning, avgustda Yaponiyaning tor-mor qilinishi. Urush yillarida SSSR ta'sir zonasining shakllanishi.

Urushning yakunlari. AQSh va Angliya: G'arb davlatlarining g'alabaga qo'shgan hissasi. Mag'lub davlatlarning holati: Germaniya, Italiya, Yaponiya. Urushdan chiqarilgan xulosalar.

BMTning tashkil topishi. Nyurnberg sud jarayoni. Urush yakunlarini qayta ko'rib chiqish va soxtalashtirish uchun bugungi urinishlar. Neofashizm.

### **20-§. Takrorlash**

Birinchi va ikkinchi jahon urushlari oraligida xalqaro munosabatlar, ilmiy-texnik taraqqiyotning jadallashuvi, ilm-fandagi yutuqlar. Shuningdek, Birinchi va ikkinchi jahon urushlari oralig'ida Buyuk Britaniya, Fransiya, AQSh, Germaniya Italiya va Ispaniya, Sovet totalitar tizimining o'rnatilishi va o'ziga xos jihatlari

Birinchi va ikkinchi jahon urushlari oralig'ida Yaponiya, Xitoy, Hindiston, Turkiya, Eron, Lotin Amerikasi davlatlari va Shimoliy Afrikadagi arab mamlakatlari.

Urush arafasidagi xalqaro munosabatlar. Ikkinchi jahon urushi. 1939-1945-yillardagi urush harakatlari. Fashistik Germaniya va militaristik Yaponiyaning tor-mor qilinishi. Urushning yakunlari masalalari takrorlanadi.

## **II-BO'LIM. XX ASRNING IKKINCHI YARMI -XXI ASR BOSHLARIDA JAHON MAMLAKATLARI**

### **VII-bob. Ikkinchi jahon urushidan keyin dunyo taraqqiyoti.**

#### **21-§. Ikkinchi jahon urushidan so'ng xalqaro munosabatlar:**

##### **“sovuq urush»ning boshlanishi**

Ikkinchi jahon urushidan so'ng dunyodagi siyosiy kuchlar joylashuvida yuz bergan o'zgarishlar. G'olib davlatlar o'rtasida qarama-qarshilikning kuchayishi. 1945-1948-yillarda xalqaro munosabatlar. Urushdan keyin SSSR va AQSH o'rtasidagi ziddiyatlarning asosiy sabablari. Y.Churchillning Fultondagi nutqi va “sovuq urush”ning boshlanishi. G.Truman doktrinasi. Marshall rejasi, “Yangi Yevropa”ning qurilishi. Berlin inqirozi va Yevropada bo'linish. NATO va Varshava Shartnomasi Tashkiloti harbiy bloklarining tashkil qilinishi.

Ikkinchi jahon urushidan keyin qurollanish poygasining yangidan avj olishi. Jahondagi kuchlar nisbati. Koreya urushi (1950-1953).

1960-yillardagi siyosiy inqiroz–yadro urushi xavfining ortib borishi (Karib inqirozi). Vetnam urushi.

1970–1980-yillardagi harbiy-siyosiy barqarorlik. Yadro urushining oldini olish uchun kurash. Xelsinki konferensiyasi. SQCH– 1 va SQCH– 2.

### **VIII-bob. XX asrning ikkinchi yarmi – XXI asr boshlarida AQSH va Garbiy Yevropa mamlakatlari.**

#### **22-§. XX asrning ikkinchi yarmi –XXI asr boshlarida AQSH).**

Ikkinchi jahon urushidan keyin AQSHning iqtisodiy lider va eng qudratli davlatga aylanishi. 1945-1960 yillarda AQSH. Siyosiy rivojlanish: demokratlar va respublikachilar. Ichki reaksiyaning kuchayishi. 1960-yillari



qora tanlilarning ommaviy chiqishlari. Irqiy segregatsiyaga qarshi kurash. Martin Lyuter King. 1960 va 1980-yillardagi ichki va tashqi siyosati.

XX asrning 80–90-yillarida AQSH. Reyganomika. B.Klintonning “yangi iqtisodiy falsafasi”. B.Obama.

Tashqi siyosatdagi yangi yo’nalishlar. AQSHning tashqi siyosati.

### **23-§ XX asrning ikkinchi yarmi –XXI asr boshlarida Buyuk Britaniya va Fransiya.**

Kapitalistik tizimning transformasiyasi: neokolonializm va iqtisodiy globallashuv. “Umumiy rohat-farog’at jamiyati” va uning belgilari. Xalqaro moliyaviy tizimlarning (Jahon banki, Xalqaro valyuta fondi, Rekonstruksiya va rivojlanish xalqaro banki) tashkil qilinishi.

**Buyuk Britaniya:** leyboristlar va konservatorlar hukumatining siyosati. Britaniya mustamlaka imperiyasining transformatsiyasi. Irlandiya muammosi. Tetcherizm. T.Blerning “uchinchi yo’li”.

**Fransiya:** To’rtinchi Respublika ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti. Gollizm. Jazoir inqirozi. Beshinchi Respublikaning qaror topishi. SH. De Goll. XX asr oxirida Fransiya.

### **24-§XX asrning ikkinchi yarmi –XXI asr boshlarida Germaniya va Italiya**

**Germaniya.** 1945–1990 yillarda Germaniya. GFRning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi. K.Adenayer, L.Erxard islohotlari. “Iqtisodiy mo’jiza” sabablari. Germaniyaning birlashuvi (1990).

**Italiya.** Respublikaning e’lon qilinishi.Italiya “iqtisodiy mo’jizasi”. Mafiyaga qarshi davlat dasturi. XX asr oxirlarida Italiyaning rivojlanishi.

### **25-§. XX asrning ikkinchi yarmi-XXI asr boshlarida Garbiy Yevropa mamlakatlarida integratsiyalashuv jarayonlari: Yevropa Ittifoqining shakllanishi**

Urushdan keyin G’arbiy Yevropa mamlakatlarida integratsiyalashish uchun harakat. 1947-yilgi ta’riflar va savdo bo’yicha bosh kelishuv (TSBK) va uning Jahon Savdo Tashkiloti (JST) ga aylanishi. 1948-yili Yevropa iqtisodiy hamkorlik tashkiloti (YeIHT)ning tuzilishi. Yevropa Kengashining tashkil qilinishi. 1950-yillardan barqaror rivojlanishning boshlanishi.

Yevropada integratsion jarayonlar: Rim shartnomasi va Yevropa Iqtisodiy Hamkorlik (EIH) tashkilotining tashkil qilinishi. Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti (YeXHT). Ilmiy-texnik taraqqiyot va postindustrial jamiyatning shakllanishi. 1990-yillar Maastrix shartnomasi, Yevropada integratsion jarayonlarning kuchayishi. Yevropa Ittifoqi

(YeI)ning tashkil topishi. Yagona valyuta – yevroning joriy qilinishi. Yangi ittifoqning eski va yangi muammolari.

### **IX-bob. XX asrning ikkinchi yarmi -XXI asr boshlarida Sharqiy Yevropa mamlakatlari.**

#### **26-§. 1945 – 1990-yillari sovet davlati va Sharqiy Yevropa mamlakatlarida integratsiyalashuv jarayonlari va uning inqirozi**

Ikkinchi jahon urushidan keyin sovet davlatidagi tiklanish va iqtisodiy rivojlanish. Xo'jalikni tiklashning safarbarlik usuli. Sharqiy Yevropada sotsialistik tuzumning o'rnatilishi. O'zaro Iqtisodiy Yordam Kengashi (O'IYOK) ning tuzilishi. Sharqiy Yevropa: taraqqiyot modelining o'ziga xos jihatlari. Sovet davlatining Sharqiy Yevropa mamlakatlariga nisbatan siyosati. Totalitar rejimlarning beqarorligi. "Real sotsializm" inqirozining kuchayishi. 1956-yil Vengriya, 1968-yil Chexoslovakiya voqealari.

SSSRning Afg'onistonga bostirib kirishi va uning geosiyosiy oqibatlari. 1980-yillarning ikkinchi yarmidan SSSR tashqi siyosatidagi o'zgarishlar. "Yangicha siyosiy tafakkur" va SSSR geosiyosiy holatining o'zgarishi. "Sovuq urush"ning yakunlanishi. O'IYOK tashkilotining tarqab ketishi, jahon sotsialistik tuzumining inqirozi.

#### **27-§. Sharqiy Yevropa mamlakatlarida demokratik inqiloblar va sotsialistik lagerning parchalanishi**

1980-yillar boshlarida Polshada ijtimoiy-siyosiy harakatlarning kuchayishi. Birdamlik (Solidarnost). L.Valensa. SSSRda "qayta qurish" siyosatining Sharqiy Yevropa mamlakatlariga ta'siri. Ruminiyada N.Chayshesku rejimining ag'darilishi.

GDRda siyosiy faollikning oshishi, Berlin devorining qulashi, Germaniyaning birlashuvi. Vengriya va Chexoslovakiyadagi voqealar, Chexoslovakiyaning bo'linishi. Yugoslaviyaning parchalanib ketishi. Sharqiy Yevropadagi etnik va etno-siyosiy mojarolar. Bozor iqtisodiyotiga o'tishning og'ir yo'li. Integratsiyalashuv jarayonlari.

#### **28-§. Sovet davlatining parchalanishi va sobiq sovet respublikalarida mustaqil rivojlanish yo'li**

"Qayta qurish" siyosati va uning oqibatlari. Milliy va hududiy muammolarning kuchayishi. Sovet respublikalarida mustaqillik uchun harakatlarning avj olishi. Sobiq Ittifoq Respublikalarida mustaqillikning tiklanishi va e'lon qilinishi. O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining e'lon qilinishi.

MDHning tashkil topishi. Sobiq sovet respublikalarida mustaqil taraqqiyotning murakkab yo'li. Sobiq sovet respublikalarining mustaqillik

yillarida ijtimoiy-siyosiy hayot. Kavkazorti va Markaziy Osiyo Respublikalari. Boltiqbo'yi respublikalari, Ukraina va Belorussiya.

### **X-bob. XX asrning ikkinchi yarmi - XXI asr boshlarida Osiyo mamlakatlari**

#### **29-§.XX asrning ikkinchi yarmi - XXI asr boshlarida Yaponiya**

Ikkinchi jahon urushidan keyin Yaponiyaning ahvoli. Mustamlakalardan mahrum bo'lish. Ichki bozordagi o'zgarishlar. D.Makarturning agrar islohoti. Mag'lubiyatning iqtisodiy asoratlari va axloqiy-psixologik jihatlari. 1947- yilgi konstitutsiya. 1951-yilgi San-Fransisko tinchlik shartnomasi. Siyosiy tizimning o'zgartirilishi, parlament demokratiyasi sari harakat. Iqtisodiy erkinlik, AQSh yordami. 1950-1960-yillari Yaponiyaning iqtisodiy tiklanishi. Yapon jamiyatida demokratik tamoyillarning joriy qilinishi. Yaponiya «iqtisodiy mo'jizasi»ning asoslari. 1970-yillardagi iqtisodiy inqiroz. XX asr oxirlarida “postindustrial iqtisodiy modeli”ning yaratilishi. Tashqi siyosat.

#### **30-§.Osiyoning industrial mamlakatlari**

Osiyoning yangi industrial davlatlari: Janubiy Koreya, Tayvan, Singapur, Gonkong. Istiqboldagi industrial mamlakatlar: Malayziya, Tayland, Indoneziya, Filippin.

Rivojlanishning umumiy jihatlari.

#### **31-§. XX asrning ikkinchi yarmi -XXI asr boshlarida Xitoy**

Xitoyda fuqarolar urushi, kommunistlarning hokimiyatga kelishi. Xitoy Xalq Respublikasining e'lon qilinishi. 1953–1957-yillari Xitoyda “sotsializm qurish” uchun kurash. Mamlakatni industrilashtirish. Ichki siyosiy rivojlanish. “Katta sakrash”. “Madaniy inqilob”. 1970–1980-yillardagi islohotlar. Xitoyda islohotlarning yangi bosqichi.

Xitoyning tashqi siyosati.

#### **32-§. XX asrning ikkinchi yarmi -XXI asr boshlarida Hindiston va Pokiston**

Hindistonda mustamlaka tuzumining yemirilishi. Hindiston mustaqillikka erishuvi. “Neru davri”ning (1947-1964) iqtisodiy muammolari. Siyosiy tuzumning shakllanishi. 1970-yillardagi inqiroz. 1980-yillarda

iqtisodiy taraqqiyot yo'nalishining o'zgarishi. I.Gandi. Hindiston XX asr oxirlarida. R.Gandi, Narasmix Rao.

Zamonaviy Hindistonning diniy-axloqiy va kastaviy (tabaqaviy) muammolari. Tashqi siyosati.

Pokiston davlatining tashkil topishi. Kashmir muammosi. Harbiy to'ntarishlar. Mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy hayot. Tashqi siyosati.

### **33-§. XX asrning ikkinchi yarmi -XXI asr boshlarida Turkiya, Eron, Afgoniston.**

Ikkinchi jahon urushidan keyin Turkiya. Turkiyaning NATOga kirishi. 1960-1980-yillardagi siyosiy kurash. Turkiyaning yangi konstitutsiyasi. 1990-yillardagi siyosiy jarayonlar. Turkiya XXI asr boshlarida.

Eronda Muhammad Rizo Pahlaviyning taxtga kelishi. "Oq inqilob" islohotlari. Eronda "islom inqilobi", Eron Islom Respublikasining e'lon qilinishi. XX asr oxiri -XXI asr boshlarida Eron.

1950–1970-yillarda Afg'oniston. 1978-yilgi Savr inqilobi, fuqarolar urushi. Afg'onistonga sovet qo'shinlarining kiritilishi va uning oqibatlari. Afg'oniston – tolibonlar hokimiyati davrida. AQSH qo'shinlarining kiritilishi, Afg'onistonda fuqarolik hukumatining tiklanishi. H.Karzay. XXI asr boshlarida Afg'oniston.

### **34-§.XX asrning ikkinchi yarmi - XXI asr boshlarida Arab mamlakatlari**

1960-yillari **Suriyaning** rivojlanishi.

**Iroqning** respublika deb e'lon qilinishi. **Falastin** xalqining mustaqil davlat qurish uchun kurashi. Arab-Isroil munosabatlari.

**Misrda** 1952-yilgi davlat to'ntarishi, Misrning Respublika deb e'lon qilinishi,

**Marokash** mustaqilligining e'lon qilinishi. Ichki ziddiyatlar va davlat to'ntarishiga urinishlar.

**Jazoir.** 1954-1962-yillardagi mustaqillik uchun urush va mustaqillikning e'lon qilinishi. 1990-yillardagi g'alayonlar.

**Liviya.** Mustaqillikning e'lon qilinishi. 1969-yilgi davlat to'ntarishi, Liviya Arab Respublikasining e'lon qilinishi.

**Tunisning** mustaqillikka erishishi. Tunisning Respublika deb e'lon qilinishi.

XXI asr boshlarida Arab mamlakatlaridagi ahvol.

## **XI-bob. XX asrning ikkinchi yarmi -XXI asr boshlarida Lotin Amerikasi va Afrika mamlakatlari**

### **35-§. Lotin Amerikasi: avtoritarizm va demokratik taraqqiyot oralig'ida**

Lotin Amerikasi mamlakatlari taraqqiyotining optimal modeli yo'lida.

**Kuba.** Modernizatsiyaning inqilobiy yo'li. F.Kastro va uning sotsializm qurish dasturi.

**Chili.** Taraqqiyotning neokonservatizm yo'li. Sotsialistik oqimning kuchayishi, S.Alende. 1973-yilgi davlat to'ntarishi, A.Pinochet boshchiligidagi harbiy xuntaning hokimiyatga kelishi. 1989-yilgi prezident saylovlari.

**Meksika.** Mamlakatni modernizatsiyalash yo'li. 1950-1990-yillarda mamlakat rivojlanishining o'ziga xos yo'li.

XXI asr boshlarida Lotin Amerikasi mamlakatlari.

### **36-§. XX asrning ikkinchi yarmida Tropik va Janubiy Afrika mamlakatlari**

Tropik va Janubiy Afrika xalqlarining ikkinchi jahon urushidan keyingi milliy-ozodlik harakati. Afrikada mustamlaka tuzumining inqirozi. 1960-yil «Afrika yili». Mustaqil taraqqiyot muammolari. Harbiy to'ntarishlar. Afrika davlatlari rivojlanishining o'ziga xos jihatlari. Iqtisodiy mustaqillik uchun kurash. Afrika Birligi tashkilotining tuzilishi va uning faoliyati.

Janubiy Afrika Respublikasi. Aparteid tuzumi va uning oqibatlari. N.Mandela faoliyati.

## **XII-bob. Jahon sivilizatsiyasi: yangi davr muammolari**

### **37-§. Yangi ming yillik: harbiy, ekstremistik va ekologik xavf-xatarlar**

Ekstremizm va terrorizm tushunchalari. XX asr oxirlaridan ekstremizm va terrorizm xavfning kuchayishi. Diniy aqidaparastlik va ekstremizm. Xalqaro ekstremistik va terroristik tashkilotlar faoliyati va uning tinchlik uchun xavfi. Terroristik hurujlar.

Tabiiy resurslar muammosi va biosferaning ifloslanishi. Tabiiy boyliklarni qazib olishning to'xtovsiz ortib borishi. Atmosferaning ifloslanishi va boshqa ekologik xatarlar. Jahonda iqtisodiy, siyosiy va

madaniy globallashuv jarayonlari va barqaror-xavfsiz rivojlanish muammolari. Yuqori texnologiyalar va xalqaro hamkorlik.

Tabiatni muhofaza qilish tadbirlari. BMTning Atrof-muhit va taraqqiyot konferensiyasi (YUNSED) dasturlari.

**38-§. Ikkinchi jahon urushidan keyingi etno-ijtimoiy muammolar**  
Etno-ijtimoiy munosabatlar tushunchasi. Mustamlaka tizimining barbod bo'lishi. "Uchinchi dunyo" mamlakatlari. Qo'shilmaslik harakati va uning mohiyati.

Irqchilik va irqiy kamsitilishga qarshi kurash. Aholining majburiy va ko'ngilli migratsiyasi. Urbanizatsiya jarayonlari. Immigratsion siyosat va mehnat migratsiyasi.

1960–1980-yillari G'arb mamlakatlaridagi etnik mojarolar.

1990–2014-yillardagi etnik mojarolar.

### **39-§. XX asrning ikkinchi yarmi-XXI asr boshlarida ilm-fan va madaniyat**

Ikkinchi jahon urushidan keyin ilmiy-texnik bilimlarning rivojlanishi. Yangi davrning texnologiyalari.

Transport, kosmonavtika va yangi konstruksion materiallar.

Yangi harbiy texnikalar va qurollarning yaratilishi.

Bioximiya, genetika va meditsinadagi yangiliklar. Elektronika va robototexnika, Axborot kommunikatsiya texnologiyalarining va kompyuterlarning kashf qilinishi.

Axborot jamiyati va uning asosiy belgilari. Ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va robotlashtirish. Yangi bilimlarning kashf etilishi. Ilmiy-texnik taraqqiyotning jadallashuvi va uning oqibatlari.

Madaniy rivojlanish va mafkura. Ommaviy axborot vositalari va ommaviy madaniyat muammolari.

San'at va badiiy adabiyotning rivojlanishi. Adabiyot, tasviriy san'at, kino, teatr va musiqa san'atidagi oqim va yo'nalishlar. Arxitektura.

### **40-§. Takrorlash**

Ikkinchi jahon urushidan so'ng xalqaro munosabatlar: "sovuq urush"ning boshlanishi.

XX asrning ikkinchi yarmi-XXI asr boshlarida AQSh, Buyuk Britaniya va Fransiya. Germaniya va Italiya.

XX asrning ikkinchi yarmi -XXI asr boshlarida G'arbiy Yevropa mamlakatlarida integrasiyalashuv jarayonlari: Yevropa Ittifoqining shakllanishi. 1945–1990-yillari sovet davlati va Sharqiy Yevropa mamlakatlarida

integratsiyalashuv jarayonlari va uning inqirozi. Sovet davlatining parchalanishi va sobiq sovet respublikalarida mustaqil rivojlanish yo'li.

XX asrning ikkinchi yarmi-XXI asr boshlarida Yaponiya, Xitoy, Hindiston, Pokiston, Turkiya, Eron, Afg'oniston, Osiyoning industrial mamlakatlari, Arab mamlakatlari Lotin Amerikasi: avtoritarizm va demokratik taraqqiyot oralig'ida, Tropik va Janubiy Afrika mamlakatlari

Yangi ming yillik: harbiy, ekstremistik va ekologik xavf-xatarlar.

Ikkinchi jahon urushidan keyingi etno-ijtimoiy muammolar, ilm-fan va madaniyat masalalari takrorlanadi.

### **Adabiyotlar:**

1. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. – T.: “O'zbekiston ”. 1992.
2. Karimov I.A. O'zbekiston - bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li. – T.: “O'zbekiston ”, 1993.
3. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura.– T.: “O'zbekiston ”. 1996 .
4. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. 2-jild. – T.: “O'zbekiston ”.1996.
5. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 3-jild. – T.: “O'zbekiston”. 1996.
6. Karimov I.A. Bunyodkorlik yo'lidan. T.4. – T.: “O'zbekiston ”. 1996.
7. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: “O'zbekiston ”.1997.
8. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi. 5-jild. – T.: “O'zbekiston ”. 1997.
9. Karimov I.A. Barkamol avlod- O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. 6-jild. – T.: “O'zbekiston ”. 1997.
10. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. – T.: “O'zbekiston ”. 1998.
11. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. 7-jild. – T.: “O'zbekiston ”.1999.
12. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon turmush pirovard maqsadimiz. 8-jild. – T.: “O'zbekiston” 2000.
13. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. 9-jild. – T.: “O'zbekiston ”. 2001.
14. Karimov I.A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. 10-jild. – T.: “O'zbekiston”. 2002.
15. Karimov I.A. O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari. «Xalq so'zi» gazetasi. 2002- yil 30 -avgust soni.

16. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: “O‘zbekiston”. 1992-2002 O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o‘zgartishlar va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risidagi qonun. – T.: 2003.
17. Васильев Л.С. Всеобщая история. Том 5. От нового времени до современности: учебное пособие /Л.С. Васильев. – М.: КДУ. 2013.
18. Всемирная история. Весь школьный курс в таблицах/сост. М. Ю. Дуда. – Минск : современная школа: Кузьма. 2011.
19. Всеобщая история государства и права. Учебник для Вузов в двух томах. Том 2. Новое время. Новейшая время./ Под редакцией В.А. Томцинова. – М.: ИКД “Зерцало-М”. 2013.
20. Jahon mamlakatlari. Ma’lumotnoma /tuzuvchilar: SH.Ergashev, T.Vobomatov, N.Tursunov. – T.: 2013.
21. Загладин Н. В. Всемирная история: XX век: Учебник для 11 класса общеобразовательных учреждений. – 8-е изд. – М.: 2006.
22. История мировых цивилизации: учебное пособие/коллектив авторов: под найч.ред. Г.В. Драча, Т.С. Пониатовой . – М.: КНОРУС. 2012.
23. Новиков С.В. Всеобщая история/С.В.Новиков, А.С.Манькин, О.В.Дмитрева. – М.: 2012.
24. Фортинатов В.В История : Учебное пособие. Стандарт третьего поколения . для бакалавров. – СПб.: Питер. 2012.
25. Ergashev SH., Vobomatov T. XX asr: taqdirlarda aks etgan tarix. – T.: 2013.

## МАТЕМАТИКА

### **Dasturni optimallashtirishda ishtirok etgan ishchi guruh a’zolari:**

- |                  |   |
|------------------|---|
| А.Аbdushukurov – | O‘zMU, fizika-matematika fanlari doktori, professor   |
| M.Shorahimov –   | O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini axborot-metodik ta’minlash xizmati yetakchi uslubchisi, fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent. |



A.Amanov –	TAQI qoshidagi akademik litsey matematika fani o‘qituvchisi, fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent.
O.Qodirov –	A.A.Xodjaev nomli dizayn kolleji matematika fani o‘qituvchisi
Sh.Fayziev –	Qibray moliya-iqtisodiyot kolleji matematika fani o‘qituvchisi
M.Kavilova –	Toshkent viloyati Chirchiq shahri tibbiyot kolleji matematika fani o‘qituvchisi
N.Garaev –	Toshkent viloyati Chirchiq akademik litsey matematika fani o‘qituvchisi

### **Taqrizchilar:**

B.Haydarov – fizika-matematika fanlari nomzodi

### **Kirish**

Kadrlar tayyorlashning milliy modeli asosida uzluksiz ta’lim yotadi. Uzluksiz ta’lim malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo‘lib, ta’limning barcha turlarini, davlat ta’lim standartlarini kadrlar tayyorlash tizimi tuzilmasi va uning faoliyat ko‘rsatish muhitini o‘z ichiga oladi.

Umumiy o‘rta ta’lim negizida o‘qish uch yil bo‘lgan majburiy o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi uzluksiz ta’lim tizimidagi mustaqil turdir. O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’lim yo‘nalishi akademik litsey yoki kasb-hunar kolleji o‘quvchilari tomonidan ixtiyoriy tanlanadi. Akademik litsey va kasb-hunar kolleji davlat ta’lim standartlariga muvofiq o‘rta maxsus ta’lim beradi. O‘quvchilarning imkoniyatlarini va qiziqishlarini hisobga olgan holda ularning jadal intellektual rivojlanishini chuqur, sohalashtirilgan, tabaqalashtirilgan, kasbga yo‘naltirilgan ta’lim olishini ta’minlaydi. Akademik litsey va kasb-hunar kollejarida o‘quvchilar o‘zlari tanlab olgan

ta'lim yo'nalishi bo'yicha (gumanitar, texnika, agrar va boshqa sohalar) bilim saviyalarini oshirish hamda fanni chuqur o'rganishga qaratilgan maxsus, kasb-hunar ko'nikmalarini o'zlarida shakllantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Yuqoridagi maqsadlarni e'tiborga olgan holda biz quyida akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun matematika fani bo'yicha uzviylashtirilgan dasturni havola qilamiz.

Ushbu uzviylashtirilgan dasturni tuzishda quyidagi omillar asos qilib olindi:

- uzviylik va uzluksizlikni ta'minlash;
- mavzu va boblarni mantiqiy ketma-ketligini saqlash;
- o'quvchilarni uzluksiz ta'limni akademik litsey yoki kasb-hunar kollejlari davom ettirishga tayyorlash umumiy o'rta ta'lim maktablarining asosiy vazifasi ekanligi;
- mavzularni ta'lim turlarida bir xil talqinda takrorlanishiga yo'l qo'ymaslikka erishish;
- matematika fanini o'zlashtirishning yagona va effektiv yo'li masala hamda misollar yechishga alohida e'tibor berishdan iboratligi;

Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari matematika o'qitishdan ko'zda tutilgan asosiy maqsad quyidagilardan iborat:

- o'quvchilarni kundalik hayotda, mehnat faoliyatida, shuningdek, kelgusida bilim olishni davom ettirish uchun zarur bo'ladigan matematik bilim va malakalar sistemasini chuqur va ongli ravishda o'zlashtirishini ta'minlash;
- o'quvchilarda izchil mantiqiy fikrlashni shakllantirib borish natijasida ularning aql zakovat rivojiga, tabiat va jamiyatdagi muammolarni hal etishning maqbul yo'llarini topa olishlariga ko'maklashish;
- o'quvchilarda vatanparvarlik, milliy g'ururni tarkib toptirishni rivojlantirish;
- o'quvchilarni qomusiy olimlarimizning matematika rivojiga qo'shgan ulkan xissalaridan xabardor qilish;
- jamiyat taraqqiyotida matematikaning ahamiyatini his qilgan holda umuminsoniy madaniyatning tarkibiy qismi sifatida matematika to'g'risidagi tasavvurlarni shakllantirish.

Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarda matematika ta'limining vazifalari:

- akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'rta umumiy ta'limning bevosita davomi bo'lgani uchun ham bu erda matematika o'qitishda o'quvchilarning ilgari olgan bilimlarini chuqurlashtirish, amaliyotga tatbiq qilishda abstrakt va mantiqiy fikrlashini o'stirish;

- o‘quvchilarni funkstiyalar va ularning xossalarini matematik analiz tushunchalari vositasida tekshirishga o‘rgatish;
- tenglama va tengsizliklarni yechishdagi matematik usullarni mohiyatini sistemali ravishda o‘rgatish;
- fazoviy jismlarning xossalarini o‘rgatish va bu xossalarni amaliyot masalalarini yechishga tatbiq etish ko‘nikmalarini shakllantirish;
- o‘quvchilarga faqatgina tushunchalar berib qolmasdan ularda masalalar yechish yordamida mustaqil mantiqiy fikrlash, erkin matematik mushohada yurita olish, ma’lum qarorlar qabul qila olish kabi xislatlarni shakllantirishdan iborat.

### **O‘quvchilar bilim, malaka va ko‘nikmalariga qo‘yiladigan talablar:**

Algebra va analiz asoslari kursini o‘rganish natijasida o‘quvchilar quyidagi bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari lozim:

- to‘plam tushunchasiga ega bo‘lishi, to‘plamlar ustida amallarni bajara olishi,  $\forall, \Leftrightarrow, \Rightarrow, \vee, \wedge, \in, \cup$  - mantiqiy amallardan foydalanishni bilish;
- haqiqiy va kompleks sonlar ustida amallar bajarish, haqiqiy sonning modulini bilish, kompleks sondan kvadrat ildiz chiqara olish;
- matematik indukstiya usulini sonlarning bo‘linishi, yig‘indilarni hisoblash, tengsizlik va ayniyatlarni isbotlashga qo‘llash;
- ko‘rsatkichli, logarifmik, trigonometrik funkstiyalarni asosiy xossalarini bilish hamda ularga ko‘ra funkstiyalarni grafigini chizish;
- kvadrat tenglamaga keltiriladigan tenglamalar, ko‘rsatkichli, logarifmik, trigonometrik tenglama va tengsizliklarni echa olishi, tenglamalar yechishning umumiy, xususiy usullarini bilishi;
- hosila, hosilani hisoblash qoidalari, elementar funkstiyalarning hosilalari, hosilalar jadvali, hosilani geometrik va fizik ma’nosini bilish;
- egri chiziqqa urinmaning ta’rifi, urinma tenglamasini bilish;
- funkstiyaning oraliqdagi eng katta va eng kichik qiymatlarini topish;
- boshlang‘ich funkstiya, aniqmas integral va ularning xossalarini bilishi;
- egri chizikli trapesiyaning yuzi, aniq integral, Nyuton-Leybnist formulasini bilishi;
- aniq integral yordamida yuza va hajmlarni hisoblashni bilish;
- o‘rinlashtirish, o‘rin almashtirish, guruhlashning sonini topish formulalarini bilish;
- ehtimollikning klassik, statistik va geometrik ta’rifini bilish.

Geometriya kursini o‘rganish natijasida o‘quvchilar quyidagi bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari lozim:

- yassi figuralar va asosiy geometrik munosabatlar haqida ma'lumotlarni o'zlashtirish;
  - teoremlarni isbotlash, masala va misollar echishda mantiqiy mulohaza yuritishni bilish;
  - stereometriya elementlari va aksiomalarini bilish;
  - fazoda to'g'ri chiziq bilan tekislikni o'zaro joylashishini tasavvur qila olish;
  - to'g'ri prizma, piramida, silindr, konuslarni yon va to'la sirtlari haqida ma'lumotga ega bo'lishi;
  - to'g'ri prizma, piramida, silindr, konus, shar hajmlari haqida umumiy tushunchaga ega bo'lishi;
  - modellarda, chizmalarda ko'pyoqlar, aylanma jismlarni ajratish, ularning elementlarini ayta olish, shunga doir masalalarni echishi;
  - vektorning ta'rifi, moduli, qarama-qarshi vektorlar, nol vektor tushunchasini bilishi, vektorlar ustida amallarni bilishi;
  - bazis vektor tushunchasini bilishi, vektorlarni uchta bazis vektorlar bo'yicha yoyilmasini bilishi;
- vektorlarning skalyar ko'paytmasi va uning xossalarini bilishi.

#### **Algebra va analiz asoslari quyidagi bo'limlardan iborat:**

- to'plamlar nazariyasi elementlari;
- haqiqiy sonlar;
- ko'rsatkichli funksiyalar;
- logarifmik funksiyalar;
- trigonometriya;
- integral va uning xossalari;
- ehtimollar nazariyasi va matematik statistika elementlari;

#### **Geometriya quyidagi bo'limlardan iborat:**

- stereometriya aksiomalari va uning sodda natijalari;
- to'g'ri chiziq va tekisliklarning o'zaro joylashuvi;
- ko'pyoqliklar;
- ko'pyoqliklarning yon va to'la sirtlarini yuzlari;
- aylanish jismlari;
- fazoviy jismlarning hajmlari;
- fazoda vektorlar;

O'qituvchilar ishchi dastur tuzishda ushbu dasturda keltirilgan mavzularga ajratilgan soatlarning kamida  $\frac{3}{4}$  (75% yoki 150 soat) qismini amaliy mashg'ulotlarga ajratish kerak.

Ushbu dasturni amalga oshirishda o'qitishning dars jarayoni bilan bir qatorda mavzularning o'quvchilar tomonidan qay darajada o'zlashtirilishini,

aniqlash uchun nazoratning barcha turlarini ham o‘z vaqtida amalga oshirish muhimdir. Bu o‘rinda joriy nazoratni o‘quvchilarning og‘zaki javoblari, uy vazifalarini tekshirish, shuningdek, qisqa muddatli mustaqil ishlarni uyushtirish orqali amalga oshirish mumkin.

Oraliq nazoratni esa asosan yozma ishlar, test topshiriqlarni bajarish bilan o‘tkazish mumkin.

Dasturni tuzishda mavzularning mantiqiy ketma-ketligiga alohida e‘tibor berilgan. Shuning uchun algebra va analiz asoslari, geometriyani o‘qitishda dasturda keltirilgan mavzular ketma-ketligini saqlash maqsadga muvofiqdir.

Ayrim kasb-hunar kollejlari yo‘nalishlaridan kelib chiqib mazkur dastur asosida unga ba‘zi o‘zgartirishlar kiritish mumkin.

## **Ta’limning mazmuni**

### **Algebra va analiz asoslari**

#### 1. To‘plamlar nazariyasi elementlari.

To‘plam, to‘plam elementlari. Bo‘sh va qism to‘plam. To‘plamlar ustida amallar. Sonli to‘plamlar. Mantiqiy amallar, mavjudlik va ixtiyoriylik kvantorlari.

#### 2. Haqiqiy sonlar.

Haqiqiy sonning moduli va uning asosiy xossalari. Matematik induksiya usuli va ular yordamida misollar echish.

#### 3. Bir o‘zgaruvchili ko‘phadlar.

Bir o‘zgaruvchili ko‘phadlarni bo‘lish, ko‘phadlarni qoldikli bo‘lish. Ko‘phadni ildizi. Kompleks sonlar va ular ustida amallar, kompleks sondan kvadrat ildiz chiqarish. Chiziqli, kvadrat tenglamaga keltiriladigan tenglamalar. Bir o‘zgaruvchili rastional tenglama va tengsizliklarni echish usullari. Irrastional tenglama va tengsizliklar.

Muhammad Xorazmiyning «Al-jabr va al-muqobala hisobi» kitobi haqida qisqacha ma’lumot.

#### 4. Trigonometriya.

Trigonometrik funksiyalarning juftligi, toqligi va davriyligi. Trigonometrik funkstiyalarning grafigi. Teskari trigonometrik funkstiyalar. Trigonometrik funkstiyalar ko‘paytmasini yig‘indi yoki ayirma shakliga va aksincha, yig‘indisi va ayirmasini ko‘paytma shakliga keltirish.

Trigonometrik tenglamalarni echish usullari. Sodda trigonometrik tengsizliklarni echish. Beruniy va Ulug‘bekning trigonometrik «Zij»lari haqida ma’lumot.

#### 5. Ko‘rsatkichli funkstiyalar.

Ko‘rsatkichli tenglama va tengsizliklarni echishning asosiy usullari.  
Ko‘rsatkichli funksiya, uning aniqlanish va o‘zgarish sohalari.  
Funkstiyaning o‘shish va kamayish oraliqlari. Ko‘rsatkichli funkstiyaning grafigi.

6. Logarifmik funkstiyalar.

Onning logarifmi. Asosiy logarifmik ayniyatlar. Ko‘paytma, bo‘linma va darajaning logarifmi. Bir asosdan boshqa asosga o‘tish formulasi.

O‘nli va natural logarifmlar. Ko‘rsatkichli va logarifmik ifodalarni ayniy almashtirishlar. Logarifmik tenglama va tengsizliklarni echish usullari.

Logarifmik funksiya, uning aniqlanish va o‘zgarish sohasi. Logarifmik funkstiyaning grafigi. Teskari funkstiya, o‘zaro teskari funkstiyalar.

7. Hosila va uning tatbiqlari.

Funksiya orttirmasi. Hosila, uning geometrik va fizik ma‘nosi. Hosilani topish qoidalari. Darajali, logarifmik, ko‘rsatkichli funkstiyalarning hosilalari. Hosilalarni hisoblash. Trigonometrik funkstiyaning hosilasi. Garmonik tebranish haqida ma‘lumot. Funkstiyaning o‘shish va kamayish oraliqlari. Funksiya ekstremumlari. Funkstiyani hosila yordamida tekshirish va grafigini yasash. Oraliqdagi funkstiyaning eng katta va eng kichik qiymatlarini hisoblash.

8. Integral va uning xossalari.

Boshlang‘ich funksiya va uning xossalari. Aniqmas integral, boshlang‘ich funkstiyaning topish qoidalari. Egri chizikli trapestiyaning yuzi. Aniq integral. Nyuton-Leybnist formulasi. Integralning ba‘zi tatbiqlari.

9. Ehtimollar nazariyasi va matematik statistika elementlari.

O‘rinlashtirish, o‘rin almashtirish, guruhlashlar haqida tushuncha va ularning sonini topish uchun formulalar (isbotsiz). Hodisalar, ehtimollikning klassik, geometrik va statistik ta‘riflari. Matematik statistika elementlari. O‘zbek matematiklarining fanga qo‘shgan xissalari haqida qisqacha ma‘lumot.

## **Geometriya**

10. Stereometriya aksiomalari va uning sodda natijalari.

Stereometriya boshlang‘ich tushunchalari, stereometriya aksiomalari va ulardan kelib chiqadigan sodda natijalar.

11. To‘g‘ri chiziq va tekisliklarning o‘zaro joylashishi.

Fazoda ikki to‘g‘ri chiziqni o‘zaro joylashishi: Kesishuvchi va parallel tekisliklar. Ikki tekislikni parallellik va perpendikulyarlik alomatlari. To‘g‘ri chiziq va tekisliklarning o‘zaro joylashishi:

Kesishuvchi parallel to‘g‘ri chiziq va tekislik. To‘g‘ri chiziq va tekisliklarning parallellik va perpendikulyarligi haqidagi teoremlar.

12. Fazoda vektorlar.

Fazoda dekart koordinatalar sistemasi. Ikki nuqta orasida masofa. Vektorlar algebrasi elementlari. Vektorlarning koordinatalari, bazis vektorlar, vektorlarning uchta bazis vektorlar bo'yicha yoyish. Vektorlarni skalyar ko'paytmasi va uning xossalari. Vektorlar orasidagi burchak. Vektorlar yordamida geometrik masalalarni yechish.

### 13. Ko'pyoqlar.

Ikki yoqli burchak, tekisliklar orasidagi burchak, uchyoqli burchaklar. Ko'pyoq va uning elementlari. Ko'pyoqning yoyilmasi. Ikki yoqli burchakning chiziqli burchagi. Parallelepiped. Prizma va piramida. To'g'ri va muntazam prizma, muntazam piramida. Muntazam ko'pyoqlar haqida tushuncha. Kesik piramida.

### 14. Aylanish jismlari.

Prizma va piramidaning yon va to'la sirtlari.

### 15. Ko'pyoqliklar yon va to'la sirtlarining yuzlari.

Silindr, konus va konusning kesimlari. Shar va sfera. Sharning kesimlari. Sferaga urinma tekislik, shar bo'laklari.

### 16. Aylanish jismlari yon va to'la sirtlarining yuzlari.

Sirtning yuzi haqida tushuncha. Silindr, konusning yon va to'la sirtlari. Sfera va uning bo'laklarining sirtlari.

### 17. Fazoviy jismlarning hajmlari.

Hajm haqida tushuncha, hajmlarning asosiy xossalari. To'g'ri burchakli parallelepiped, prizma va piramidalarning hajmlari. Silindr, konus va sharning hajmlari.

### 18. Umumlashgan takrorlash.

Amaliy mashg'ulotlar o'tkaziladigan mavzular

1. To'plamlar va ular ustida amallar.
2. Mantiqiy amallar.
3. Haqiqiy sonlar ustida amallar.
4. Haqiqiy sonning moduli.
5. Matematik induktsiya usuli yordamida ayniyatlarni isbotlash.
6. Matematik induksiya usuli yordamida tengsizliklarni isbotlash va sonlarni bo'linishlariga qo'llash.
7. Bir o'zgaruvchili ko'phadlarni bo'lish. Ko'phadni qoldiqli bo'lish.
8. Kompleks sonlar ustida amallar, kompleks sondan ildiz chiqarish.
9. Kvadrat tenglamalarga keltiriladigan tenglamalar.
10. Bir o'zgaruvchili rastional tenglama va tengsizliklarni yechish.
11. Ko'rsatkichli tenglama va tengsizliklarni yechish.
12. Ko'rsatkichli funksiyaning grafigi.
13. Sonlarning logarifmi, asosiy logarifmik ayniyatlar.
14. Ko'rsatkichli va logarifmik ifodalarni ayniy almashtirishlar.
15. Logarifmik tenglama va tengsizliklarni echish.

16. Logarifmik funksiyaning grafigi.
17. Hosila. Darajali, ko'rsatkichli, logarifmik funksiyalarning hosilasi.
18. Funkstiyaning o'sish va kamayish oraliqlari, funksiyaning ekstremumlari.
19. Funksiyani hosila yordamida tekshirish va grafigini yasash.
20. Oraliqda funkstiyaning eng katta va eng kichik qiymatlarini hisoblash.
21. Trigonometrik ifodalarning ayniy almashtirish.
22. Teskari trigonometrik funksiyalar.
23. Trigonometrik tenglama va tengsizliklarni echish.
24. Trigonometrik funkstiyalarning hosilasi.
25. Boshlang'ich funkstiya, aniqmas integral.
26. Egri chiziqli trapestiyaning yuzi, aniq integral.
27. Aniq integral yordamida yuza va hajmlarni hisoblash.
28. O'rinlashtirish, o'rin almashtirish va guruhlashlar sonini topish
29. Hodisalarni ehtimolligini topish, statistika elementlari
30. To'g'ri chiziq va tekisliklarni o'zaro joylashishi.
31. Ikki yoqli burchaklar va uning chiziqli burchagi.
32. Ko'pyoqlarning yon va to'la sirtlari.
33. Aylanish jismlarini yon va to'la sirtlari.
34. To'g'ri burchakli parallelepiped, prizmaning hajmi.
35. Piramidaning hajmi.
36. Stilindr, konus va sharning hajmi.
37. Ikki nuqta orasidagi masofa, vektorlarni koordinatalari.
38. Skalyar ko'paytma, vektorlar orasidagi burchak.
39. Vektorlarni bazis vektorlariga yoyish.
40. Vektorlar yordamida geometrik masalalarni echish.

**“Algebra va analiz asoslari” fani mavzulari bo'yicha dars soatlari taqsimoti**

№	Fan bo'limlari va mavzular	Umumiy yuklama, soat
		Darslar turi bo'yicha soatlar taqsimoti



		<b>Hannasi</b>	<b>Jami</b>	<b>Nazariy (ma'ruza)</b>	<b>Amaliy</b>	<b>Mustaqil ish</b>
1	To'plamlar nazariyasi elementlari	6	6	2	4	-
2	Haqiqiy sonlar	20	14	4	10	6
3	Bir o'zgaruvchili ko'phadlar	26	18	4	14	8
4	Trigonometriya	26	18	4	14	8
5	Ko'rsatkichli funksiyalar	14	10	4	6	4
6	Logarifmik funksiyalar	32	20	6	14	12
7	Hosila va uning tatbiqlari	36	24	8	16	12
8	Integral va uning xossalari	28	16	4	12	12
9	Ehtimollar nazariyasi va matematik statistika elementlari	10	8	2	6	2
	<b>Jami:</b>	<b>198</b>	<b>134</b>	<b>38</b>	<b>96</b>	<b>64</b>

\* Akademik litsey namunaviy o'quv rejasi umumta'lim fanlari blokidagi soatlar taqsimotiga asosan mavzular to'liq saqlangan holda 124 soat hajmida ishchi o'quv dasturi shakllantiriladi.

### “Geometriya” fani bo'yicha dars soatlari taqsimoti

<b>№</b>	<b>Fan bo'limlari va mavzular</b>	<b>Umumiy yuklama, soat</b>
		<b>Darslar turi bo'yicha soatlar taqsimoti</b>

		Hammasi	Jami	Nazariy (ma'ruza)	Amaliy	Mustaqil ish
1	Stereometriya aksiomalari va uning sodda natijalari			2	2	-
2	To'g'ri chiziq va tekislikning o'zaro joylashishi			2	6	4
3	Fazoda vektorlar			2	4	4
4	Ko'pyoqlar			2	6	2
5	Ko'pyoqliklar yon va to'la sirtlarining yuzlari			2	4	2
6	Aylanish jismlari			2	6	4
7	Aylanish jismlari yon va to'la sirtlarining yuzlari			2	2	2
8	Fazoviy jismlarning hajmlari			2	6	4
9	Umumlashgan takrorlash			2	2	4
	<b>Jami:</b>			<b>18</b>	<b>38</b>	<b>26</b>

Ushbu dasturni amalga oshirishda o'qitishning dars jarayoni bilan bir qatorda mavzularning o'quvchilar tomonidan qay darajada o'zlashtirilishini aniqlash uchun nazoratning barcha turlarini ham o'z vaqtida amalga oshirish muhimdir. Bu o'rinda joriy nazoratni o'quvchilarning og'zaki javoblari, uy vazifalarini tekshirish, shuningdek qisqa muddatli mustaqil ishlarning uyushtirish orqali amalga oshirish mumkin.

Oraliq nazoratni esa asosan yozma ishlar, test topshiriqlarni bajarish bilan o'tkazish mumkin.

Dasturni tuzishda mavzularning mantiqiy ketma-ketligiga alohida e'tibor berilgan. Shuning uchun algebra va analiz asoslari, geometriyani o'qitishda dasturda keltirilgan mavzular ketma-ketligini saqlash maqsadga muvofiqdir.

#### **Asosiy adabiyotlar:**

1. Matematika. I-II-qism. Kasb-hunar kollejlari uchun qo'llanma (A.Meliqulov va boshqalar). – T.: 2003.

2. Algebra va analiz asoslari. O'рта maktabning 10-11-sinf uchun darslik (Sh.A.Alimov, Yu.M.Kolyagin va boshqalar). – T.: O'qituvchi, 2001, -304 b.
3. Algebra va analiz asoslari. Akademik litseylar uchun qo'llanma (R.X.Vafoev, J.X.Xusanov va boshqalar). – T.: O'qituvchi, 2003, -368 b.
4. Algebra va matematik analiz asoslari. I k. Akademik litseylar uchun qo'llanma (A.Abduxamidov, A.Nasimov va boshqalar). – T.: O'qituvchi, 2007, -462 b.
5. Algebra va matematik analiz asoslaridan masalalar to'plami. I k. Akademik litseylar uchun qo'llanma (A.Abduxamidov, A.Nasimov va boshqalar). – T.: Sharq, 2005, -150 b.
6. Geometriyadan masalalar to'plami (I.Isroilov, Z.Pashaev). – T.: O'qituvchi, 2001, -304 b.
7. X.M.Sayfullaeva Geometriya – T.: 2002
8. I.Isroilov va b. Geometriyadan masalalar to'plami –T.: 2001, 2010
9. I.Isroilov va b. Geometriya 1 qism – T.: 2010
10. I.Isroilov va b. Geometriya 2 qism – T.: 2010
11. Ehtimollar nazariyasi va matematik statistika (S.H.Sirojiddinov, M.M.Mamatov). – T.: O'qituvchi, 1984, -154 b.
12. Abduhamidov A.U., Nasimov X.A. “Algebra va matematik analiz asoslari”. I. II qism. Akademik litseylar uchun darslik. – T.: 2008- y.
13. Сайдаметов Э., Аманов А. и др. «Алгебра и основы математического анализа» учебное пособия для академических лицей. Ч. I. – Т.: «O'qituvchi». 2012 г.
14. Сайдаметов Э., Аманов А. и др. «Алгебра и основы математического анализа» учебное пособия для академических лицей. Ч. II. – Т.: «Ilm -ziyo». 2013- г.

### **Qo'shimcha adabiyotlar:**

1. Nega matematika (G.Drayver, inglizchadan tarjima). – T.: 1989.
2. Yosh matematiklar qomusiy lug'ati. – T.: 1991.
3. Maktabda geometriya tarixi. O'qituvchilar uchun qo'llanma (A.Abduraxmonov). – T.: O'qituvchi, 1992, -216 b.
4. Matematika sayyorasi (A.A'zamov, B.Xaydarov). – T.: 1993.
5. Сборник задач для поступающих в вузы. (Под редакцией М.И.Сканави) – М.: Высшая школа, 1992 г.

## **Informatika va axborot texnologiyalari**

### **Tuzuvchilar:**

R.R.Boqiev – Nizomiy nomidagi TDPU, fizika-matematika fanlari  
nomzodi, dostent.

S. S. Jumanazarov – O‘zFA ilmiy xodimi, texnika fanlari nomzodi.

**Taqrizchi:**

A.Obidov – O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi markazi bosh mutaxassisi

**Kirish**

Axborot-kommunikastiya texnologiyalarinig inson hayoti va faoliyatining barcha jabhalariga kirib borishi, axborot oqimining keskin ravishda ortib borishi, axborot almashinuvi, boshqaruv va texnologik

jarayonlarning avtomatlashtirish ko‘lamining kengayib borishi, umuman aytganda, jamiyat axborotlashuvi jarayonining jadallashib borishi, har bir mutaxassisdan informatika usul va vositalarini, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini puxta egallagan bo‘lishligini talab etmoqda. U qaysi sohada ishlashidan qat’i nazar, o‘z vazifasini zamon talabi darajasida bajarishi uchun axborotga ishlov beruvchi vositalarni, ularni ishlatish uslubiyatini bilishi va ularda ishlash ko‘nikmasiga ega bo‘lishi zarur. Shu sababli bugungi kunda mustaqil Respublikamizda ta‘lim sohasida amalga oshirilayotgan tub islohotlarning mazmun-mohiyati, maqsadi va vazifalari aniq belgilab olingan bo‘lib, ushbu vazifalar orasida o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi muassasalarining bitiruvchilarini axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan o‘z kasbiy faoliyatlarida samarali foydalana oladigan darajada tayyorlash vazifasi alohida o‘rin egallaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatning 2010-yil 27-yanvar kuni bo‘lib o‘tgan qo‘shma majlisidagi “Mamlakatni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir”, hamda Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 29-yanvar kuni bo‘lib o‘tgan majlisidagi “Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir” mavzularidagi ma‘ruzalarida ham o‘quv jarayoniga yangi axborot –kommunikatsiya va pedagogik texnologiyalarni, elektron darsliklar hamda multimedia vositalarini keng joriy etish hisobiga mamlakat maktablari, kasb-hunar kollejlari va litseylarida, oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim berish sifatini tubdan yaxshilash, ta‘lim muassasalarining o‘quv-laboratoriya bazasini eng zamonaviy o‘quv va laboratoriya uskunalari, kompyuter texnikasi bilan mustahkamlash vazifalari qo‘yilgan.

Shuningdek, 2012-yil 28-maydagi “Malakali pedagog kadrlar tayyorlash hamda o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi muassasalarini shunday kadrlar bilan ta‘minlash tizimini yanada takomillashtirishga oid chora – Tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-1761 sonli qarorida mazkur ta‘lim muassasalarida ta‘lim jarayoniga ilg‘or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta‘lim jarayoniga keng tatbiq etishga, bitiruvchilarning tayyorgarlik sifatini oshirishga alohida e‘tibor qaratilgan.

Ma‘lumki 2010-yilda ta‘lim tizimidagi fanlarni o‘qitishda uzviylik va uzluksizligini ta‘minlash maqsadida, har bir fanning mazmuni qayta tahlildan o‘tkazildi, Davlat ta‘lim standartlari va o‘quv dasturlari takomillashtirildi, ta‘lim bosqichlari bo‘yicha uning uzviyligi va uzluksizligini ta‘minlash asosida tubdan isloh qilindi. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o‘quv rejasida umumta‘lim predmeti sifatida kiritilgan “Informatika” va “Axborot texnologiyalari” fanlari bo‘yicha ham tegishli

o'quv dasturlari takomillashtirilgan. DTS asosida o'rta umumta'lim maktablaridagi «Informatika» va oliy ta'limdagi «Informatika va axborot texnologiyalari» fanlari bilan uzviy bog'liq ravishda qayta tuzib chiqildi.

Kasb-hunar kollejlari «Informatika va axborot texnologiyalari» fanini o'qitishning bosh maqsadi o'quvchilarga informatika va axborot texnologiyalarini kasbga yo'naltirilgan holda o'qitish, asosan ularning amaliy jihatlari haqida bilim berish, zamonaviy kompyuterlarning dasturiy ta'minoti, shu jumladan, amaliy va xizmat ko'rsatuvchi dasturlar bilan ishlash malakasini hosil qilish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan o'z kasbiy faoliyatlarida unumli foydalana olish ko'nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat.

Fanning vazifasi bo'lajak kichik mutaxassislariga informatika va axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida samarali foydalana oladigan darajada o'rgatish, shu sohada mukammal to'liq bilim berilishini ta'minlashdan iboratdir.

Dasturga kiritilgan bir qator amaliy dasturlarning barchasini ham o'rganish shart emas. Kasb-hunar kollejining kichik mutaxassislarni tayyorlash yo'nalishidan kelib chiqqan holda u yoki bu amaliy dasturni o'rganish tavsiya etiladi.

O'quvchilarning bilim, malaka va ko'nikmalariga talablar:

Fanni o'rganish natijasida o'quvchilar:

– axborotning turlari, ularni tasvirlash, saqlash, ishlov berish va uzatish yo'llarini, axborotning sifat ko'rsatkichlari, jamiyatda axborot jarayonlar, axborotlashgan jamiyat, axborot madaniyat, jamiyatni axborotlashtirishning huquqiy asoslari, axborotlashgan jamiyatning moddiy va texnologik negizlari, jamiyatning axborot resurslari, axborot xavfsizligi, axborot huquq va etika, o'z kasbiy faoliyatda axborotning roli va ahamiyatini, informatika va axborot texnologiyalarining axborotlashgan jamiyatdagi, xususan, o'z kasbiy sohasidagi o'rnini, roli va vazifalarini bilishi va ular haqida tushunchalarga ega bo'lishi;

– kompyuterning axborotga ishlov beruvchi vosita sifatidagi rolini, kompyuter dasturlari va ularning axborotlarga ishlov berish jaryonidagi o'rnini, shaxsiy kompyuterlar tasnifi va tarkibini, tizimli blok va uning tuzilmasini, kompyuterda ma'lumotlarni tashkil etish va saqlashni bilishlari;

– shaxsiy kompyuterning dasturiy ta'minoti va uning turlarini, drayverlar, utilitlar, amaliy dasturiy ta'minot turlarini, dasturlash texnologiyasining uskunaviy vositalarini bilishi va ular bilan ishlay olishi;

– tizimli dasturiy ta'minot va uning turlarini, operatsion tizim va uning qobig'i ostida ishlovchi dasturlarni bilishi va ular bilan ishlay olishi, zamonaviy operatsion tizimlar haqida ma'lumotlarga ega bo'lishi, WINDOWS operatsion tizimining yangi versiyalarida ishlay olishi, LINUX-

operatsion tizimi, uning imkoniyatlari, qo'llanilish doirasi, xususiyatlari va afzalliklari haqidagi bilimlarga ega bo'lishi;

– Ofis dasturlari paketi va uning tarkibini, zamonaviy matn protsessorlarining imkoniyatlarini bilishi va ulardan foydalana olish malakalariga ega bo'lishi, gipermurojaatlar, rasmlar va murakkab jadvallar bilan ishlay olishi, zamonaviy jadval protsessorining imkoniyatlari haqida bilimlarga ega bo'lishi va ulardan foydalana olishi, taqdimot yaratishning zamonaviy dasturiy ta'minoti haqida chuqurroq bilimga ega bo'lishi va Power Point dasturida murakkab animatsion taqdimotlarni yarata olishi, o'z kasbiy faoliyatida ofis dasturlaridan foydalanish imkoniyatlari haqidagi bilimlarga ega bo'lishi va ulardan foydalana olishi;

– grafik obyektlar va ularning kompyuterda tasvirlash usullarini, kompyuter grafikasi va uning turlarini, tasvirlarni grafik muharrir uskunalari (skaner, grafik planshet) yordamida kiritish va qayta ishlash yo'llarini, rastrli va vektorli grafikaning dasturiy ta'minotini bilishi, PhotoShop, CorelDraw dasturlaridan birida ishlay olishi, ikki va uch o'lchovli grafika haqida bilimga ega bo'lishi va o'z kasbiy faoliyatida grafik dasturlaridan foydalana olish malakalariga ega bo'lishi;

– amaliy dasturlar va ularning turli kasbiy sohalarda qo'llanilishi, nashriyot tizimlari haqida ma'lumotga ega bo'lishi, o'z kasbiy sohasidan kelib chiqqan holda turli sohalarda qo'llaniladigan dasturlar (PageMaker, 1S: Buxgalteriya, BEM, muhandislik grafikasi dasturlari – AvtoCad, MathCAD va boshqa dasturlar) haqida ma'lumotga ega bo'lishi va ulardan birida ishlay olish malakalariga ega bo'lishi;

– zamonaviy dasturlash tillari va ularning tasnifi, dasturlash tilining asosiy tushunchalari va operatorlarini, obyektga mo'ljallangan dasturlash haqida bilimga ega bo'lishi, Delphi dasturlash tili va uning ishchi muhiti bilan ishlay olishi, komponentlar palitrası va uning bo'limlari va ayrim komponentlari bilan ishlay olishi, Delphi dasturi strukturasi, loyiha va modullar tuzishga oid masalalarni hal qilishni, Delphida protsedura va funksiyalar bilan ishlay olishi, Delphi dasturlash tilining grafik imkoniyatlari oid dasturlar tuzish va ularni kompyuterga kiritib tahlil qilish, o'z kasbiy sohasiga oid uncha murakkab bo'lmagan masalalarning dasturini tuzish va kompyuterda natijasini ola bilish malakalariga ega bo'lishi;

– Web-dizayn va uning dasturiy ta'minoti, Flash texnologiyasi yordamida Web-sahifa yaratish va bezashni, Web-sahifalarga rasmlı, grafiklı ma'lumotlarni turli usullarda joylashtirish va bezash usullarini, Web-sahifalarda formalar o'rnatish usullarini, tovushlı ma'lumotlarni joylashtirishni, Web-sahifalar orasida aloqalarni o'rnatish imkoniyatlarini bilishlari va amaliyotda qo'llay olishlari;

– axborotni tashkil qilish va izlab topish, ajratib olingan axborotni tizimlashtirish, tartiblantirish, umumlashtirish va tushunarli shaklga keltirishni bilishi;

– kompyuterlarga xizmat qilishning asosiy qoidalari, ularga xizmat qiluvchi dasturlar va ulardan foydalana olishni bilishi;

– kompyuter viruslaridan saqlanish usullari, antivirus dastur vositalarining imkoniyatlaridan foydalana olishi;

– fayllarni arxivlash usullari va arxivator dasturlar bilan ishlashni bilishi;

– kasbiy sohasiga oid sodda masalalarning modellarini tuza olishi;

– multimedia texnologiyasi va telekommunikatsiya vositalarini bilishi va ulardan foydalana olish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;

– shaxsiy elektron manzil (elektron pochta) ochish va u bilan ishlash, Internet tarmog‘ida axborot izlash tizimlaridan foydalana olish malakalariga ega bo‘lish;

– Internet va lokal kompyuter tarmoqlaridan foydalana olish malakalariga ega bo‘lishlari zarur.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda fanning mazmuni quyidagi bo‘limlardan iborat qilib belgilandi:

1-bob. Axborot va jamiyat.

2-bob. Axborot texnologiyalari va tizimlari, ularning jamiyatdagi o‘rni va ahamiyati.

3-bob. Zamonaviy shaxsiy kompyuterlar va ularning dasturiy ta‘minoti.

4-bob. Ofis dasturlari va ularning yangi imkoniyatlari.

5-bob. Ma‘lumotlar ombori va uning boshqarish tizimlari.

6-bob. Kompyuterda grafik obyektlar bilan ishlash.

7-bob. Kasbiy faoliyatda amaliy dasturlar va ulardan foydalanish asoslari.

8-bob. Zamonaviy dasturlash tillari.

9-bob. Fayllarni arxivlash va kompyuter viruslaridan saqlanish.

10-bob. Axborot xavfsizligi.

11-bob. Kompyuterlarga xizmat ko‘rsatish.

12-bob. Model va modellashtirish asoslari.

13-bob. Kompyuter tarmoqlari va ularda ishlash asoslari.

14-bob. Web-dizayn asoslari

Amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlari ma‘ruzalarida olingan nazariy bilimlarni o‘zlashtirish va mustahkamlashga qaratilgan bo‘lib, zamonaviy kompyuterlar va axborot texnologiyalar vositalari bilan jihozlangan xonalarda o‘tkaziladi. Ularning soni mavzularning nazariy yoki amaliy ahamiyatlariga qarab belgilanadi. Amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarini o‘tkazishda asosiy e‘tiborni kasbiy sohaga oid masalalarni yechishga



qaratish lozim. Buning uchun alohida laboratoriya ishlari to'plamini tuzish va ulardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Mustaqil ishlarni tashkil etish va o'tkazishda, o'quvchilarga ularning kasbiy yo'nalishini hisobga olgan holda alohida vazifa va topshiriqlar berish tavsiya etiladi.

Dasturning bajarilishini kafolatlaydigan muhim omillaridan biri, o'quvchilar bilimini nazorat qilishni izchil va tizimli ravishda amalga oshirib borishdir. Bu o'rinda joriy nazoratni o'quvchilarni laboratoriya ishlarini bajarishlarini va uy vazifalarini tekshirish, qisqa muddatli mustaqil ishlarni uyushtirish yoki test orqali amalga oshirish tavsiya etiladi. Oraliq va yakuniy nazorat esa, asosan kasbiy sohasi bilan bog'liq maxsus vazifalarni bajarish yoki test topshiriqlari orqali amalga oshiriladi.

Fanni o'rganishda zamonaviy shaxsiy kompyuterlardan, axborot texnologiyalari vositalaridan, lokal va global kompyuter tarmoqlaridan (INTERNET, INTRANET), elektron pochta, ofis dasturlaridan, elektron ta'limiy resurslardan, yangi pedagogik texnologiyalardan va interfaol usullardan (loyihalar usuli, keys-stadi, hamkorlikda ishlash va boshq.) foydalanish ko'zda tutilgan.

## **FAN DASTURI**

### **1- bob. Axborot va jamiyat**

Axborot, ma'lumot va bilim haqida tushuncha. Axborotli jarayonlar. Axborotni tasvirlash, saqlash, ishlov berish va uzatish. Axborotning sifat ko'rsatkichlari. Jamiyatda axborotli jarayonlar.

Axborotlashgan jamiyat haqida tushuncha. Axborot madaniyati. Jamiyatni axborotlashtirishning huquqiy asoslari. Axborotlashgan jamiyatning moddiy va texnologik negizlari. Jamiyatning axborot resurslari.

Axborot xavfsizligi, axboriy huquq va etika. Kasbiy faoliyatda axborotning roli va ahamiyati (turli kasbiy sohalar misolida).

### **2-bob. Axborot texnologiyalari va tizimlari, ularning jamiyatdagi o'рни va ahamiyati.**

Axborot texnologiyalari haqida tushuncha. Axborot texnologiyasining ichki va tashqi omillari. Axborot texnologiyalarining axborotlashgan jamiyatdagi o'рни. Axborot texnologiyalarining ta'minoti. Axborot texnologiyalari turlari. Multimedia texnologiyasi.

Axborot tizimlari haqida tushuncha. Axborotlarni avtomatlashgan holda izlash. Axborot tizimlarini turkumlanishi—faktografik va hujjatli tizimlar. Axborot tizimlarida ma'lumot alamashish.

Bilimlar ombori. Bilimlar omborini boshqarish tizimlari. Sun'iy intellekt tushunchasi. Intellektual tizim. Ekspert tizimlari.

### **3-bob. Zamonaviy shaxsiy kompyuterlar va ularning dasturiy ta'minoti**

Kompyuter axborotlarga ishlov beruvchi vosita sifatida. Kompyuter dasturlari va ularning axborotlarga ishlov berish jaryonidagi o'ri. Shaxsiy kompyuterlar tasnifi va tarkibi. Tizimli blok va uning tuzilmasi. Kompyuterda ma'lumotlarni tashkil etish va saqlash. Kompyuterning zamonaviy tashqi qurilmalari.

Shaxsiy kompyuterning dasturiy ta'minoti va uning turlari. Tizimli dasturiy ta'minot. Operatsion tizim. Qobiq dasturlar. Total Commander qobiq dasturi.

Zamonaviy operatsion tizimlar. WINDOWS operatsion tizimining yangi versiyalari va ularning imkoniyatlari. LINUX operatsion tizimi, uning imkoniyatlari, qo'llanilish doirasi, xususiyatlari va afzalliklari.

### **4-bob. Ofis dasturlari va ularning yangi imkoniyatlari**

Ofis dasturlari paketi va uning tarkibi. Zamonaviy matn protsessorlari va ularning imkoniyatlari. Gipermurojaatlar, rasmlar va murakkab jadvallar bilan ishlash.

Zamonaviy jadval protsessorlari va ularning imkoniyatlari. Makroslar yaratish va ular bilan ishlash.

Taqdimot va uni yaratishning zamonaviy dasturiy ta'minoti. Power Point dasturi va uning yangi imkoniyatlari. Murakkab animatsion taqdimot yaratish.

Kasbiy faoliyatda ofis dasturlaridan foydalanish(turli kasbiy sohalar misolida).

### **5-bob. Ma'lumotlar ombori va uning boshqarish tizimlari.**

Ma'lumotlar turlari: belgili, sonli va mantiqiy. Ma'lumotlar ombori (MO) va uning turlari. MONing imkoniyatlari. Ma'lumotlar omborining boshqarish tizimlari (MOBT).

Iyerarxik tizim. Ma'lumotlarning iyerarxik tizimi. Ma'lumotlarning tarmoqli modeli va tizimi. Ma'lumotlarning relyatsion modeli. Ma'lumotlar omborini boshqarishning relyatsion tizimi.

Ma'lumotlar omborini yaratish va boshqarishda qo'llaniladgan dasturlar. Access dasturi, uning obyektlari va imkoniyatlari. SQL – so'rovlar tili.

### **6-bob. Kompyuterda grafik obyektlar bilan ishlash.**

Grafik obyektlar va ularni kompyuterda tasvirlash usullari. Kompyuter grafikasi tushunchasi. Kompyuter grafikasi turlari.

Tasvirlarni grafik muharrir uskunalari(skaner, grafik planshet va boshq) yordamida kiritish va qayta ishlash.Rastrli va vektorli grafikaning dasturiy ta'minotlari.

PhotoShop -rastrli grafik muharririda ishlash asoslari. CorelDraw-vektorli grafik muharririda ishlash asoslari.

Ikki va uch o'lchovli grafika. Kasbiy faoliyatda grafik dasturlaridan foydalanish imkoniyatlari (turli kasbiy sohalar misolida).

### **7-bob. Kasbiy faoliyatda amaliy dasturlardan foydalanish asoslari.**

Amaliy dasturlar va ulardan turli kasbiy sohalarda foydalanish imkoniyatlari. Nashriyot tizimlari. PageMaker dasturi va unda ishlash asoslari (matnli, jadvali va rasmi ma'lumotlar bilan ishlash).

Iqtisodiy, moliya va bank sohalarida qo'llaniladigan dasturlar. 1S: Buxgalteriya va BEM(buxgalterga elektron madad) milliy dasturlari haqida ma'lumotlar va ularda ishlash asoslari.

Muhandislik grafikasi dasturlari. AvtoCad dasturida ishlash asoslari. MathCAD dasturi va unda ishlash asoslari.

### **8-bob. Zamonaviy dasturlash tillari**

Zamonaviy dasturlash tillari va ularning tasnifi. Dasturlash tilining asosiy tushunchalari va operatorlari.

Obyektga mo'ljallangan dasturlash haqida tushuncha. Delphi dasturlash tili, uning ishchi muhiti va asosiy tushunchalari. Komponentlar palitrasi. Palitra bo'limlari va ayrim komponentlar xossalari(Edit, Label,Memo, Button va boshq.). Delphi dasturlari tuzilmasi(strukturasi). Loyiha va modul. Delphi dasturlash tilining operatorlari. Delphida protsedura va funksiyalar. Delphi dasturlash tilining grafik imkoniyatlari.

### **9-bob. Fayllarni arxivlash va kompyuter viruslaridan saqlanish.**

Ma'lumotlarni arxivlash. Arxivlash dasturlari va ularning turkumlanishi. Fayllarni arxivlash va arxivlangan fayllarni ochish. Arxivlangan fayllarni tekshirish. Arxivlangan fayllarni tiklash.

Kompyuter viruslari va ularning turlari. Kompyuter viruslarini davolash. Kompyuter viruslaridan saqlanishning ehtiyotkorlik tadbirlari. Zamonaviy antivirus dasturlar. Kasperskiy, Not32 antivirus dasturlari bilan ishlash. Antivirus dasturlar bazasini yangilash.

### **10-bob. Axborot xavfsizligi.**

Axborot xavfsizligiga oid asosiy tushunchalar. Axborot xavfsizligining tarkibiy ko'rsatkichlari. Axborot xavfsizligi muammosi. Asosiy xavf-

xatarlar. Axborotlarni himoya qilishning tashkiliy, huquqiy va texnik usullari haqida tushuncha.

Zamonaviy kompyuter stenografiyasi istiqbollari va uning asosiy vazifalari. Stenografik dasturlar to'g'risida ma'lumot. Kriptografiya tushunchasi va axborotlarni kriptografiyali himoyalash.

### **11-bob. Kompyuterlarga xizmat ko'rsatish.**

Qattiq diskga xizmat ko'rsatish amallari. Image dasturi. Yordamchi disklarni optimallashtirish. Kompyuterning foydalanuvchiga mos muhitini tashkil qilish. CD va DVD disklar bilan ishlash dasturlari. Nero dasturi va uning imkoniyatlari. Ovozli ma'lumotlar va videotasvirlarga ishlov berish dasturlari.

### **12-bob. Model va modellashtirish asoslari.**

Boshqarish tushunchasi. Boshqarish nazariyasi elementlari. Optimal boshqarish. Teskari aloqa.

Model va modellashtirish. Fizik, matematik, biologik, iqtisodiy va boshqa modellar. Matematik modellashtirish va uning bosqichlari. Kompyuterli modellashtirish, uning mohiyati va dasturiy vositalari.

Kasbiy faoliyatda matematik va kompyuterli modellashtirishdan foydalanish imkoniyatlari (turli kasbiy sohalar misolida).

### **13-bob. Kompyuter tarmoqlari va ularda ishlash asoslari.**

Kompyuter tarmoqlari va ularning turlari. Tarmoqlarning texnik vositalari: server, konsentrator, axborotni uzatish kabellari, modem. Lokal tarmoqlar. Korporativ tarmoq. Intranet tarmog'i.

Internet-global kompyuter tarmog'i, uning tarkibiy, texnik va axborotli qismlari, dasturiy ta'minoti. Internet bayonnomalari. Internetda qidiruv tizimlari. WWW qidiruv tizimi.

Elektron pochta(e-mail) va u bilan ishlash asoslari.

O'zbekistonda kompyuter tarmoqlari, zamonaviy axborot texnologiyalarini yaratish, joriy etish va rivojlantirish istiqbollari.

### **14-bob. Web-dizayn asoslari**

Web-sahifa, Web-sayt va Web-dizayn tushunchalari, Web-dizayn va uning dasturiy ta'minoti, Macromedia Flash texnologiyasi yordamida Web-

sahifa yaratish va bezash. Web-sahifalarga rasmlı, grafikli ma'lumotlarnı joylashtırish va bezash, Web- sahifalarda formalar yaratish va bezash. Web - sahifalarda animatsiyalar va ularni o'rnatish. Tovushli ma'lumotlar va ular bilan ishlash. Web- sahifalar orasida aloqalarnı o'rnatish imkoniyatlari.

### **Amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari uchun taxminiy mavzular**

- Shaxsiy kompyuterlarning texnik qurilmalari bilan ishlash.
- Shaxsiy kompyuterlarning dasturiy ta'minoti bilan tanishish.
- Tizimli dasturiy ta'minot bilan tanishish.
- Fayllar va kataloglar bilan ishlash.
- Tarmoq operatsion tizimi va amaliy dasturiy ta'minot dasturlari bilan tanishish.
- Operatsion tizim va uning qobig'i ostida ishlovchi dasturlar bilan ishlash.
- WINDOWS operatsion tizimining yangi versiyalari imkoniyatlari bilan tanishish.
- LINUX operatsion tizimi, imkoniyatlari, qo'llanilish doirasi bilan tanishish.
- Ofis dasturlari paketining yangi versiyasi tarkibi va imkoniyatlari bilan tanishish.

Matn protsessorlari va unda ishlash imkoniyatlari.

Gipermurojaatlar, rasmlar va murakkab jadvallar bilan ishlash.

- Jadval protsessori va unda ishlash.
- Murakkab turdagi jadvallarga ishlov berish.
- Jadvallarnı bir-biriga bog'lash va ularni tashkil qilish.
- Taqdimot yaratishning dasturiy ta'minoti bilan tanishish.
- Power Point dasturida ishlash.
- Murakkab turdagi taqdimotlarnı yaratish.
- Ofis dasturlaridan foydalanib kasbiy faoliyatga oid amaliy masalalarnı yechish.
- Grafik obyektlar va ularning kompyuterda tasvirlash usullari bilan taninish.
- Kompyuter grafikasi turlari bilan taninish.
- Tasvirlarning grafik muharrir uskunalari, skaner, grafik planshet yordamida kiritish va qayta ishlash.
- Rastri va vektorli grafikaning dasturiy ta'minoti bilan taninish.
- PhotoShop -rastri grafik muharririda ishlash.
- PhotoShop dasturida rasmlarga qayta ishlov berish
- CorelDraw-vektorli grafik muharririda ishlash.
- CorelDraw dasturida tasvirlarini hosil qilish ular ustida amallar

- bajarish.
- AvtoCad dasturi va uning imkoniyatlari bilan tanishish.
  - AvtoCad dasturida ishlash.
  - MathCAD dasturi va uning imkoniyatlari bilan tanishish
  - MathCAD dasturida ishlash
  - Grafik dasturlaridan foydalanib kasbiy faoliyatga oid masallarni yechish.
  - Kasbiy faoliyatiga oid masalalarni yechishda amaliy dasturlardan foydalanish.
  - PageMaker dasturi va unda ishlash.
  - Matnli, jadvali va rasmlil ma'lumotlar bilan ishlash.
  - Iqtisodiy sohada qo'llaniladigan dasturlar bilan taninish.
  - 1S: Buxgalteriya dasturi va unda ishlash.
  - BEM dasturida ishlash.
  - Zamonaviy dasturlash tillari va ularning tasnifi bilan taninish.
  - Delphi dasturlash tili va tilning ishchi muhiti bilan taninish.
  - Komponentlar palitrasi. Palitra bo'limlari va ayrim komponentlar xossalari bilan tanishish.
  - Delphi dasturlari strukturasi bilan taninish.
  - Loyiha va modullarga oid dasturlar tuzish.
  - Delphi dasturlash tilining operatorlari yordamida dasturlar tuzish.
  - Protsedura va funksiyalarga oid dasturlar tuzish.
  - Delphi dasturlash tilining grafik imkoniyatlari bilan taninish.
  - Delphi dasturlash tilida grafikaga oid dasturlar tuzish va tahlil qilish.
  - Web- dizayn va uning dasturiy ta'minoti bilan taninish.
  - Macromedia Flash texnologiyasi yordamida Web-sahifalarga ma'lumotlar joylashtirish.
  - Macromedia Flash texnologiyasi yordamida Web- sahifalarda formalar yaratish.
  - Bir nechta Web-sahifalar bilan aloqalarni o'rnatish.
  - MO ni yaratish.
  - MO ni ochish va yopish.
  - MO da ma'lumotlarni qo'shish va chiqarish.
  - Fayllarni arxivlash.
  - Arxivni yangilash va yangilangan fayllarni unga qo'shish.
  - Faylni arxivga ko'chirish va undan chiqarish.
  - Arxivdagi fayllarning mundarijasini ko'rib chiqish.
  - Arxivdagi faylni himoyalash.
  - Arxivdan faylni chiqarib olish.
  - Faylni arxivdan printer va ekranga chiqarish.
  - Antivirus dasturlari bilan ishlash.

- Kompyuter viruslaridan saqlanish.
- CD va DVD disklarga ma'lumotlar ko'chirish dasturlari bilan ishlash.
- Nero dasturi va uning imkoniyatlari bilan tanishish.
- Ovozli va videotasvirlarga ishlov berish dasturlar bilan ishlash.
- Model va modellashtirishga doir masalalar yechish.
- Sodda iqtisodiy masalalarni modelini qurish va yechish.
- Fizik jarayonlarni modellashtirish.
- Geometrik masalalarni modellashtirish.
- Biologik jarayonlarni modellashtirish.
- Lokal kompyuter tarmog'ida ishlash.
- Global kompyuter tarmog'ida ishlash.
- Elektron pochta bilan ishlash.
- Multimedia texnologiyasi va telekommunikatsiyadan foydalanish.

**Informatika va axborot texnologiyalari faniga ajratilgan soat miqdori va dars turlari bo'yicha taqsimoti**

№	Fan bo'limlari va mavzular	Umumiy yuklama, soat				
		Hammasi	Darslar turi bo'yicha soatlar taqsimoti			
			Jami	Nazariy (ma'ruza)	Amaliy	Mustaqil ish
1.	Axborot va jamiyat	8	4	2	2	4
2.	Axborot texnologiyalari va tizimlari, ularning jamiyatdagi o'rni va ahamiyati.	10	6	2	4	4
3.	Zamonaviy shaxsiy kompyuterlar va ularning dasturiy ta'minoti.	10	6	2	4	4
4.	<b>Ofis dasturlari va ularning yangi imkoniyatlari.</b>	<b>14</b>	<b>10</b>	2	<b>8</b>	4
5.	Ma'lumotlar ombori va uni boshqarish tizimlari	<b>14</b>	<b>10</b>	2	8	4
6.	<b>Kompyuterda grafik obyektlar bilan ishlash.</b>	<b>18</b>	<b>14</b>	2	<b>12</b>	4

7.	<b>Kasbiy faoliyatda amaliy dasturlar va ulardan foydalanish asoslari.</b>	<b>20</b>	<b>14</b>	4	<b>10</b>	6
8.	<b>Zamonaviy dasturlash tillari.</b>	<b>22</b>	<b>16</b>	4	<b>12</b>	6
9	Fayllarni arxivlash va kompyuter viruslaridan saqlanish.	<b>10</b>	<b>6</b>	2	<b>4</b>	<b>4</b>
10.	Axborot xavfsizligi.	<b>8</b>	<b>4</b>	2	<b>2</b>	4
11.	Kompyuterlarga xizmat ko'rsatish.	<b>10</b>	<b>6</b>	0	<b>6</b>	4
12.	Model va modellashtirish asoslari.	<b>14</b>	<b>10</b>	2	<b>8</b>	4
13.	Kompyuter tarmoqlari va ularda ishlash asoslari.	<b>14</b>	<b>10</b>	2	<b>8</b>	4
14.	<b>Web- dizayn asoslari</b>	<b>18</b>	<b>14</b>	2	<b>12</b>	4
	<b>Jami:</b>	<b>190</b>	<b>130</b>	<b>30</b>	<b>100</b>	<b>60</b>

\* Akademik litsey namunaviy o'quv rejasi umumta'lim fanlari blokidagi soatlar taqsimotiga asosan mavzular to'liq saqlangan holda 140 soat hajmida ishchi o'quv dasturi shakllantiriladi.

### **Asosiy adabiyotlar.**

1. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari – T.: “O'zbekiston”. 1998.- 528 b.
2. Karimov I.A. O'zbekiston Konstitutsiyasi–biz uchun demokratik taraqqiyot yo'lida va fuqarolik jamiyatini barpo etishda mustahkam poydevordir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 17-yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza (2009-yil 5-dekabr). – T.: “O'zbekiston”. 2009. - 32 b.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 28-maydagi “Malakali pedagog kadrlar tayyorlash hamda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarini shunday kadrlar bilan ta'minlash tizimini yanada takomillashtirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-1761 sonli qarori. - “Xalq so'zi” ro'znomasi. 2012-yil 29-may.
4. Abduqodirov A.A., Hayitov A.G'., Shodiyev R.R. Axborot texnologiyalari. Akad. litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik. – T.: “O'qituvchi”. 2003. -152 b.
5. Aripov M., Tillaev A. Web-sahifalar yaratish texnologiyalari. – T.: 2006. - 170 b.
6. Aripov M., Xaydarov A. Informatika asoslari. Akademik litsey va kasb – hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma. – T.: “O'qituvchi”. 2002- y. - 432 b.



7. Aripov M. Internet va elektron pochta asoslari. – T.: “Universitet”. 2000.- 126 b
8. Boqiyev R., Mamarajabov M., Ashurov M., Gulyamov J. Dasturlash asoslari. O‘quv metodik qo‘llanma. –T.: TDPU. 2006 y.
9. Boqiyev R.R., Matchonov A.O. Informatika. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma. –T.: Tafakkur. 2012.- 469 b.
10. Boqiyev R.R., Kayumova N. Axborot texnologiyalarini o‘qitish metodikasi. – T.: TDPU. 2006.
11. Nazirov Sh.A. va boshq. Delphi tilida dasturlash asoslari. Kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma. –T.: G‘ofur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2007.-280 b.
12. Nazirov Sh. Dasturlash tillari. – T.: 2007.
13. Sattorov A. Ma’lumotlar bazasini boshqarish sistemasi Access (Windows 9x-2006) T.: 2006-y.
14. Sattorov A. Informatika va axborot texnologiyalari. Akademik litsey va kasb – hunar kollejlari uchun darslik. – T.: “O‘qituvchi”, 2002-y. - 256 b.
15. Yuldashev U.Yu., Boqiyev R.R., Zokirova F.M. Informatika o‘qitish metodikasi. O‘qituvchilar uchun qo‘llanma. – T.: “Talqin”.2004-y.
16. Yuldashev U.Yu., Boqiyev R.R., Zokirova F.M. Informatika va axborot texnologiyalari. Elektron darslik. – T.: 2003- y.
17. Yuldashev U.Yu., Boqiyev R.R., Zokirova F.M. Informatika. Kasb – hunar kollejlari uchun darslik. – T.: G‘. G‘ulom nomidagi nashriyot - matbaa ijodiy uyi, 2002- y.- 240 b.
18. Yuldashev U.Yu., Mamarajabov M.E. Tursunov S. Web-dizayn. O‘quv - metodik qo‘llanma. – T.: TDPU. 2007.

### **Qo‘shimcha adabiyotlar:**

1. “Barkamol avlod yili” Davlat dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoyishi. –T.: 2009- yil 9- dekabr.
2. Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. (O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida” va “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi to‘g‘risida”gi qonunlari). –T.: “Sharq”.1998. -64 b.
3. Abduqodirov A.A., Hayitov A.G‘. Axborot texnologiyasiga oid atamalarning izohli lug‘ati. – T.: TDPU. 2002. 26 b.
4. Abduqodirov A.A., Hayitov A.G‘., Shodiyev R. Axborot texnologiyalari fanidan o‘quv plakatlar to‘plami. – T.: TDPU.2002.- 34 b.
5. Aripov M., Begalov B., Begimqulov U., Mamarajabov M., Axborot texnologiyalari. O‘quv qo‘llanma – T.: “Noshir”. 2009-368 b.

6. Aripov M.M., Muhammadiev J.O'. Informatika, informatsion texnologiyalar: OO'Yu talabalari uchun darslik. – T.: Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2004. -276 b.
7. Юлдашев У. Ю. Информационные технологии. Методическое пособие. Ч.1-2. – Т. : ТДПУ. 2007.
8. Yuldashev U.Yu., Mamarajabov M.E. Informatikadan laboratoriya mashg'ulotlari. O'quv qo'llanma. – T.: TDPU. 2002.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 29-yanvar kuni bo'lib o'tgan majlisidagi “Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir” mavzusidagi ma'ruzasi. “Xalq so'zi” ro'znomasi, 2010-yil 30-yanvar.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatning 2010-yil 27-yanvar kuni bo'lib o'tgan qo'shma majlisidagi “Mamlakatni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etish – ustuvor maqsadimizdir” mavzusidagi ma'ruzasi. “Xalq so'zi” ro'znomasi, 2010-yil 28- yanvar.
11. O'zbekiston Davlat ta'lim standarti: O'rta maxsus, kasb–hunar ta'limi umumta'lim fanlari. “Ma'rifat”. № 86. 2000-yil 4-noyabr.
12. Qosimov S. va boshqalar. Axborot texnologiyalari. – T.: 2006.
13. G'ulomov S.S., Begalov B. Informatika va axborot texnologiyalari. Oliy o'quv yurti talabalari uchun darslik/Akademik S.S. G'ulomovning umumiy tahriri ostida. – T.: Fan. 2010. -704 b.
14. G'ulomov S.S., va boshqalar. Axborot tizimlari va texnologiyalari: Oliy o'quv yurti talabalari uchun darslik/Akademik S.S. G'ulomovning umumiy tahriri ostida. –T.: “Sharq”. 2000. - 529 b.

## FIZIKA

## **Dasturni optimallashtirishda ishtirok etgan ishchi guruhi a'zolari:**

- Q.Suyarov** – TATU qoshidagi akademik litseyi o'qituvchisi
- J.O'sarov – TDPY doktoranti, fizika-matematika fanlari nomzodi
- M.Miraxmedov – TATU qoshidagi 2-sonli akademik litsey bosh o'qituvchisi, fizika-matematika fanlari nomzodi
- F.Jo'rayev – O'zMU qoshidagi S.H,Sirojiddinov nomli akademik litseyi bosh o'qituvchisi
- O'.Ernazarova – Chilonzor tibbiyot kolleji fizika fani o'qituvchisi

### **Taqrizchi:**

Sh. Usmonov – fizika- matematika fanlari nomzodi,  
TIMI qoshidagi akademik litseyi o'qituvchisi

## **Kirish**

Fizika o'quv fanidan ta'lim berishning II-bosqichida akademik litsey, kasb-hunar kollejlarda umumiy ta'lim predmeti sifatida o'qitiladigan fizika kursining maqsadi umumiy o'rta ta'lim negizida fizikadan fundamental bilim berish, fizik hodisalar va olamning fizik manzarasini ilmiy asosda

tushuntirish orqali o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashi va falsafiy mushohada yuritish qobiliyatini rivojlantirish, nazariya va amaliyotning dialektik bog'liqligini ochib berish, tabiatda va texnikadagi fizik jarayonlarni idrok etish salohiyatlarini oshirish, olgan bilimlarini kundalik hayotiy ehtiyojlarida va xalq xo'jaligidagi faoliyatlari uchun tayyorlash, ta'lim olishni davom ettirish uchun zamin yaratishni ta'minlashdan iborat.

Dasturning asosiy vazifasi:

– akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida fizika kursining o'qitilish izchilligini ta'minlash;

– fizik tushuncha, hodisa va qonunlarning o'qitish ketma-ketligida oddiydan murakkablikka qarab borish tizimini saqlash;

– oliy o'quv yurtiga kirish uchun zaruriy bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish;

– o'qituvchilar tomonidan ta'lim berish jarayonining bir me'yorda bo'lishiga erishish;

– o'qituvchining ish rejalarini tartibga tushirishdan iboratdir.

Dasturni tuzishda quyidagi g'oyalar asos qilib olindi:

– umumiy o'rta ta'limning 6-9-sinflarida fizikaning ma'lum darajada mantiqan yakunlangan kursining yuzaga kelganligi, bu bosqich bitiruvchilarini akademik litsey, kasb-hunar kollejlarida fizika predmetidan bilim olishning uzluksizligi va uzviyligini ta'minlash zaruriyati;

– o'quvchilarni hozirgi zamon fizika bilimlari bilan qurollantirish, uning amaliy tatbig'iga doir tajribalar o'tkazish, tajriba natijalarini qayta tahlil qilib, xulosalar chiqarish, tabiat va texnikada kechadigan fizik jarayonlar mohiyatini bilish, ularning texnik tatbiqlarini o'rganishlari zarurligi;

– fizika kursini o'qitishni hozirgi zamon talablari darajasiga ko'tarish va rivojlangan mamlakatlar andozasiga yaqinlashtirish kerakligi.

Dasturning tarkibi va mazmuni shu davrgacha amal qilib kelgan o'n bir yillik umumta'lim maktablarining fizika dasturi tarkibi va mazmuniga yaqindir. Bunda 6-9-sinflarda o'rganilgan fizik bilimlarning akademik litsey, kasb-hunar kollejlarida aynan takrorlanmasligiga, ta'lim mazmunining uzluksizligi va uzviyligiga alohida e'tibor qaratildi.

Ushbu o'quv dastur materiali 160 dars soatiga mo'ljallangan. Ajratilgan soatlar har bir bosh mavzu mazmunini o'zlashtirishga, shu mavzular bo'yicha ma'ruza o'qishga, ko'rgazma va tajribalarni namoyish etishga, laboratoriya ishlarini bajarishga, masala va test topshiriqlarini yechishga, o'quvchilarning olgan bilim, ko'nikma va malakalarini baholashga mo'ljallangan.

Mazkur dasturga ko'ra, 17 ta laboratoriya ishlarini bajarish rejalashtirilgan bo'lib, ta'lim muassasasining ichki imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda \*belgisi bilan keltirilgan laboratoriya ishlariga almashtirish mumkin. Masalalar echish, laboratoriya ishlarini tashkillashtirish, ekskursiyaga borish, umumlashtirish va takrorlash darslarini uyushtirish o'qituvchi ixtiyoriga beriladi.

O'qituvchi fizika darsini tashkil qilishda o'qitish usulining turli shakllaridan (ma'ruza, og'zaki bayon qilish, masalalar yechish, amaliy ish, ko'rgazmalilik va boshqa shakllardan) foydalanishi mumkin. Shuningdek, darslarni o'tishda dars berishning turli noan'anaviy usullaridan bahs-munozara, bayon, boshqotirmalar, elektron qo'llanmalar va multimediyalardan foydalanish tavsiya etiladi.

**Fizika faniga ajratilgan soat miqdori va dars turlari bo'yicha taqsimoti**

№	Fan bo'limlari va mavzular	Umumiy yuklama, soat					
		Ham masi*	Jami	Darslar turi bo'yicha soatlar taqsimoti			Mustaqil ish
				Nazariy (ma'ruza)	Amaliy	Labora Toriya ishi	
1	Kirish	1	1	1		-	-
2	Kinematika	10	7	3	2	2	3
3	Dinamika	9	6	4	2	-	3
4	Saqlanish qonunlar	4	2	2	-	-	2
5	Tebranish va to'liqlar	10	8	4	2	2	2
6	Molekulyar - kinetik nazariyasi asoslari	8	6	2	2	2	2
7	Suyuqlik xossalari	6	4	2	-	2	2
8	Qattiq jism xossalari	9	6	2	2	2	3
9	Termodinamika asoslari	12	8	4	4	-	4
10	Elektr maydon	12	8	4	2	2	4
11	O'zgarmas tok qonunlari	12	8	4	2	2	4

12	Turli muhitlarda elektr toki	16	12	6	2	4	4
13	Takrorlash	2	2	2		-	-
14	Magnit maydoni	9	6	2	2	2	3
15	Elektromagnit indukstiya	9	6	2	2	2	3
16	Elektromagnit tebranishlar	22	16	10	4	2	4
17	Elektromagnit to'liqlar	12	8	4	2	2	4
18	Optika	20	14	6	4	4	4
19	Nisbiylik nazariyasi	6	4	4		-	2
20	Kvant fizikasi elementlari	12	8	4		4	4
21	Atom va yadro fizikasi	9	6	4	2	-	2
22	Yadro energetikasi	6	4	2	2	-	2
23	Olamning zamonaviy fizik manzarasi	3	2	2		-	1
24	Umumiy takrorlash	2	2	2		-	-
	<b>Jami:</b>	<b>216</b>	<b>154</b>	<b>82</b>	<b>38</b>	<b>34</b>	<b>62</b>

\* Akademik litsey namunaviy o'quv rejasi umumta'lim fanlari blokidagi soatlar taqsimotiga asosan mavzular to'liq saqlangan holda 144soat hajmida ishchi o'quv dasturi shakllantiriladi.

### **Kirish**

Tabiatni o'rganishda fizikaning o'рни. Fizika va texnika taraqqiyoti. Fizikaning rivojlanish tarixiga oid ma'lumotlar. Tabiatni o'rganish ilmiga

Markaziy Osiyo buyuk allomalarining qo'shgan hissalar. O'zbekistonda fizika va texnika sohasida olib borilayotgan tadqiqotlar.

Fizik kattaliklarning Xalqaro birliklar sistemasi (SI).

## **1. Kinematika**

Kinematikaning vazifalari. Jismlarning fazodagi vaziyatini aniqlash: koordinatalar va sanoq sistemasi. Vektorlarni qo'shish va ayirish. Vektor kattaliklarning koordinata o'qlaridagi proeksiyalari.

Tekis harakat tezligi. O'rtacha va oniy tezlik. Ko'chish va tezliklarning nisbiyligi.

Yuqoriga tik otilgan jism harakati. Gorizont va gorizontga qiya otilgan jism harakati.

Egri chiziqli harakatda ko'chish, tezlik va tezlanishlar. Aylana bo'ylab tekis harakatni tavsiflovchi kattaliklar oralaridagi bog'lanishlar.

### **Ko'rgazma va tajribalar**

1. Harakatning nisbiyligi.
2. Stroboskop.
3. Harakatlarni qo'shish.
4. Jismlarning havoda va havosi siyraklashgan fazoda (Nyuton nayida) tushishi.
5. Aylana bo'ylab harakatlanayotgan jismning chiziqli va burchak tezligi.

### **Laboratoriya ishi**

1. Gorizont otilgan jism harakatini o'rganish.
  - \* Gorizontga qiya otilgan jism harakatini o'rganish.
  - \* Erkin tushish tezlanishini o'lchash.

### **Jihozlar va o'quv-ko'rgazmali qurollar:**

Mexanikadan «Mexanika-1» laboratoriya jamlanmasi, Raqamli o'quv sekundomeri, Oson qo'zg'aluvchi aravachalar, Nyuton nayi, Fizikadan universal shtativ, Aylanma harakatni o'rganish to'plami, 0,1 kg. li yuklar to'plami, Chizma ashyolari to'plami, Masshtabli chizg'ich.

## **2. Dinamika**

Dinamikaning vazifasi. Nyuton qonunlari va ularning tajribaviy asoslari. Inersial va noinersial sanoq sistemalari.

Gravitatsiya maydoni. Butun olam tortishish qonuni. Birinchi kosmik tezlik formulasini keltirib chiqarish.

Jismning bir necha kuchlar ta'siridagi harakati. Kuchni tashkil etuvchilarga ajratish va burchak ostida ta'sir etuvchi kuchlarni qo'shish. Jismning muvozanat sharti.

Suyuqlik va gazlar mexanikasi: suyuqlik va gazlarning laminar va turbulent oqimi. Harakatlanuvchi suyuqlik va gazlarda bosim. Bernulli tenglamasi.

Qo'zg'almas o'q atrofida aylanma harakatlanuvchi qattiq jism dinamikasi. Momentlar qoidasi.

### **Ko'rgazma va tajribalar**

1. Inerstiyaning paydo bo'lishi.
2. Kuchlarni qo'shish.
3. Nyutonning ikkinchi qonuni.
4. Nyutonning uchinchi qonuni.
5. Jismning muvozanat sharti.

Jihozlar va o'quv-ko'rgazmali qurollar:

Ko'rgazma dinamometri, Aylanma harakatni o'rganish to'plami, Fizikadan universal shtativ, 0,1 kg yuklar to'plami, Oson qo'zg'aluvchi aravachalar, Elektron tarozi.

### **3. Saqlanish qonunlari**

Jism va kuch impulsi. Jismlar yopiq sistemasining ta'rifi. Impulsning saqlanish qonuni, Nyutonning ikkinchi va uchinchi qonuni sifatida.

Og'irlik, elastiklik va ishqalanish kuchlarining bajargan ishi. To'la mexanik energiya, energiyaning saqlanish va aylanish qonuni.

### **Ko'rgazma va tajribalar**

1. Kuch impulsi.
2. Jism impulsi.
3. Yopiq sistemada impulsning saqlanish qonuni.
4. Ish bajarishda jism energiyasining o'zgarishi.
5. Potensial energiyaning kinetik energiyaga va aksincha kinetik energiyaning potensial energiyaga aylanishi.

Jihozlar va o'quv-ko'rgazmali qurollar:

Mexanikadan «Mexanika-1» laboratoriya jamlanmasi, Fizikadan universal shtativ, 0,1 kg yuklar to'plami, raqamli o'quv sekundomeri, ish



bajarishda jism energiyasining o'zgarishini namoyish qiluvchi asbob, elektron tarozi.

#### **4. Tebranishlar va to'liqlar**

Tabiatda tebranma harakat. Erkin va majburiy tebranishlar. Amplituda, davr, chastota. Matematik mayatnikning tebranish davri. Prujinaga osilgan yukning tebranishlari. Tebranma harakatlarda energiyaning aylanishi. Majburiy tebranishlar. Rezonans. Mexanik to'liqlar. Ko'ndalang va bo'ylama to'liqlar. To'liqin uzunligi. To'liqin uzunligining tebranish davri va chastotasiga bog'liqligi.

Tovush to'liqlari. Tovush tezligi. Tovushning qattiqligi va balandligi. Ultratovushlar haqida tushuncha.

#### **Ko'rgazma va tajribalar**

1. Ipga osilgan yuklarning tebranishi.
2. Prujinaga osilgan yuklarning tebranishi.
3. Tebranma va aylanma harakatlarni taqqoslash.
4. Tebranma harakat tasvirini yozish.
5. Majburiy tebranishlar.
6. Ko'ndalang va bo'ylama to'liqlarning hosil bo'lishi va tarqalishi.
7. To'liqin uzunligining tebranishlar chastotasiga bog'liqligi.
8. Tovush balandligining tebranishlar chastotasiga bog'liqligi.
9. Tovush qattiqligining tebranishlar amplitudasiga bog'liqligi.
10. Akustik rezonans.
11. Ultratovushdan foydalanish.

#### **Laboratoriya ishi**

2. Matematik mayatnik yordamida erkin tushish tezlanishini aniqlash.

\*Prujinali mayatnikni o'rganish.

Jihozlar va o'quv-ko'rgazmali qurollar:

Mexanikadan «Mexanika-1» laboratoriya jamlanmasi, Raqamli o'quv sekundomeri, Fizikadan universal shtativ, Spiral prujina, Har xil massali mayatniklar, Aylanma harakatni o'rganish to'plami, Peroli kamerton, Rezonans qutichaga o'rnatilgan kamertonlar va rezina bolg'acha, Tovush generatori, ovoz karnayi.

#### **Molekulyar fizika va termodinamika asoslari**

#### **5. Molekulyar-kinetik nazariya asoslari**

Ideal gaz molekulyar-kinetik nazariyasining asosiy tenglamasi. Gaz molekulalarining tezligini o'lchash.

Ideal gaz holati tenglamasi. Izojarayonlar va ular uchun holat tenglamalari.

### **Ko'rgazma va tajribalar**

1. Termometrlar.
2. Barometrlar.
3. Manometrlar.
4. Izotermik jarayon.
5. Izobarik jarayon.
6. Izoxorik jarayon.

### **Laboratoriya ishi**

3. Izojarayonlarni o'rganish.

Jihozlar va o'quv-ko'rgazmali qurollar:

Xona termometri, Raqamli o'quv termometri, Gaz qonunlarini o'rganish asbobi, Issiqlikdan himoyalovchi keramik plita, Quruq yoqilg'i, Polipropilenli laboratoriya idishlari to'plami, Fizika fanidan laboratoriya ishlari va ko'rgazmali tajribalar o'tkazish uchun idish va ashyolar jamlanmasi, Aneroid barometr, Manometrlar.

## **6. Suyuqlikning xossalari. Suyuqlik va gazlarning bir-biriga aylanishi**

Suyuqlik xossalari. Suyuqliklarning molekulyar tuzilishi. Sirt taranglik kuchi va sirt energiyasi. Havoning namligi. Nisbiy namlik.

### **Ko'rgazma va tajribalar**

1. Sovun parda sirtining qisqarishi.
2. Ho'llash hodisasi.
3. Ingichka shisha naylarda suvning ko'tarilishi.
4. To'yingan bug'larning xossalari.
5. Qaynash temperaturasining bosimga bog'liqligi.
6. Gigrometr va psixrometrlarning tuzilishi va ishlashi.

### **Laboratoriya ishi**

4. Kapilyar naychanning ichki diametrini aniqlash.

\*Psixrometr yordamida nisbiy namlikni aniqlash.

\*Sirt taranglik koeffisientini aniqlash.

### **Jihozlar va o'quv-ko'rgazmali qurollar:**

Laboratoriya mikroskopi, Suyuqliklarda sirt taranglik kuchini o'lchovchi dinamometr, Kapilyar naychalar to'plami, Tutash idishlar, Suyuqliklarda konvekstiyani o'rganish asbobi, Qo'rg'oshin silindrlar randasi

bilan, Xona termometri, Psixrometr, Raqamli o'quv termometri, Issiqlikka chidamli keramik plita, Quruq yoqilg'i, Sim karkaslar, Qaynash temperaturasining bosimga bog'liqligini namoyish qilish asbobi.

### **7. Qattiq jismlarning xossalari**

Qattiq jismlarning tuzilishi. Amorf va kristall jismlar. Qattiq jismlarning mexanik xossalari: elastiklik, plastiklik, mo'rtlik va cho'zilish diagrammasi. Qattiq jismlarning issiqlikdan kengayishi. Qattiq jismning erishi va qotishi.

#### **Ko'rgazma va tajribalar**

1. Kristall panjara modeli.
2. Kristallarni o'stirish.
3. Elastiklik va qoldiq deformatsiyaning namoyon bo'lishi.

#### **Laboratoriya ishi**

5. Yung modulini aniqlash.

Jihozlar va o'quv-ko'rgazmali qurollar:

Halqali shar, Metallarning issiqlik sig'imini namoyish qilish asbobi, Bimetall plastinka, Issiqlikdan himoyalovchi keramik plita, Quruq yoqilg'i, Laboratoriya mikroskopi, Kristall panjaralar modellari to'plami, Deformatsiya turlarini namoyish qilish asbobi, Kristallanish to'plami, Yod kristalli kolba, Kristall va amorf jismlar to'plami.

### **8. Termodinamika asoslari**

Termodinamikaning birinchi qonunining izojarayonlarga qo'llanilishi. Adiabatik jarayon. Qaytar va qaytmas jarayonlar. Termodinamikaning ikkinchi qonuni va uning talqini.

Issiqlik mashinalari va ularning ishlash prinsiplari. Sovutgich va uning ishlashi. Issiqlik mashinalarining FIKlari va ularni oshirish yo'llari. Karno stikli. Issiqlik mashinalarining xalq xo'jaligidagi o'rni. O'zbekistonda issiqlik energiyasidan foydalanish va uning istiqbollari. Tabiatni muhofaza qilish.

#### **Ko'rgazma va tajribalar**

1. Diffuziya hodisasining qaytmasligi.
2. Issiqlik mashinasining tuzilishi va ishlashi (modeli).

Jihozlar va o'quv-ko'rgazmali qurollar:

Issiqlikka chidamli keramik plita, Quruq yoqilg'i, Fizika fanidan laboratoriya ishlari va ko'rgazmali tajribalar o'tkazish uchun idish va ashyolar jamlanmasi, Raqamli o'quv termometri, Ichki yonuv dvigateling

proeksion modeli, Bug‘ turbinasi modeli, Termodinamika bo‘yicha ko‘rgazmali tajribalar ko‘rsatish to‘plami.

## **Elektrodinamika asoslari**

### **9. Elektr maydon**

Elektr maydon. Kulon qonuni. Dielektrik singdiruvchanlik. Zaryadlangan jism atrofida va ichidagi maydon kuchlanganligi. Elektr maydonning bajargan ishi. Potensiallar ayirmasi. Potensiallar ayirmasi bilan bir jinsli maydonning kuchlanganligi orasidagi bog‘lanish. Elektr maydonda o‘tkazgichlar va dielektriklar. O‘tkazgichning elektr sig‘imi. Kondensatorlar va ularni ulash. Elektr maydon energiyasi va energiya zichligi.

#### **Ko‘rgazma va tajribalar**

1. Kulon qonuni.
2. Zaryadlangan sharchalarning elektr maydoni.
3. Elektr maydonda o‘tkazgichlar va dielektriklar.
4. Kondensatorlarning tuzilishi va ishlashi.
5. Yassi kondensator elektr sig‘imining plastinkalar yuzasiga, ular orasidagi masofaga va muhitning dielektrik singdiruvchanligiga bog‘liqligi.
6. Zaryadlangan kondensatorning energiyasi.

#### **Laboratoriya ishi**

6. Kondensatorlarni ketma-ket va parallel ulash.

Jihozlar va o‘quv-ko‘rgazmali qurollar:

Fizika xonasi uchun elektr jihozlar to‘plami, O‘quv-laboratoriya ampermetri, O‘quv-laboratoriya voltmetri, Bir va ikki qutbli kalitlar to‘plami, Ulovchi simlar to‘plami, Surilma kondensator, Elektrostatik mayatnik, Elektr va magnit maydonlar spektrlarini namoyish etish uchun model, Shisha tayoqcha, Ebonit tayoqcha, Izolyastiya dastadagi yaproqchalar, Ko‘rgazmali yuqori kuchlanishli o‘zgartirgich, Metall to‘r (Kolbe to‘ri), Elektr popuk, Izolyastiya dastakli jez naycha, Izolyastyalovchi shtativlar, Elektroskop, Elektrometr ashyolari bilan, Universal fizika shtativi, Kondensatorlar to‘plami.

### **10. O‘zgaras tok qonunlari**

Tok kuchi va zichligi. Elektr tokining mavjud bo‘lish shartlari. O‘tkazgichlarni ketma-ket va parallel ulash. Elektr yurituvchi kuch. To‘liq

zanjir uchun Om qonuni. Ampermetr va voltmetrning o'lchash chegarasini oshirish. Shunt qarshiligi. Elektr tokining ishi va quvvati. Joul-Lenst qonuni.

### **Ko'rgazma va tajribalar**

1. O'zgarmas tok manbalari.
2. O'tkazgichlar va qarshiliklar.
3. Ampermetr.
4. Voltmetr.
5. Reostat.
6. Elektr zanjirini yig'ish.
8. O'tkazgichlar ketma-ket va parallel ulanganda ulardagi tok kuchi va kuchlanishning taqsimoti.
9. Tok kuchining manba EYuKiga va zanjirning to'liq qarshiligiga bog'liqligi.

### **Laboratoriya ishi**

7. O'tkazgichning solishtirma qarshiligini aniqlash.

\* Tok manbayining EYuKi va ichki qarshiligini aniqlash.

Jihozlar va o'quv-ko'rgazmali qurollar:

Fizika xonasi uchun elektr jihozlar to'plami, Namoyishli ta'minlash manbai, O'quv-laboratoriya ampermetri, O'quv-laboratoriya voltmetri, Bir va ikki qutbli kalitlar to'plami, Ulovchi simlar to'plami, Universal fizika shtativi, Ko'rgazmali har xil qarshilikdagi simlar to'plami, Laboratoriya rezistorlari to'plami, O'quv-laboratoriya ommetri, Ko'rgazmali surilma reostat (100 Om), Qarshiliklar magazini, O'quv-laboratoriya mikroampermetri, O'quv-laboratoriya milliampermetri, Turli quvvatdagi cho'g'lanma lampalar, Elektrodinamika asoslari bo'yicha «Elektr-1» laboratoriya jamlanmasi, Elektrotexnika va elektronika asoslari bo'yicha «Elektronika-1» laboratoriya jamlanmasi, Raqamli o'quv sekundomeri, Ko'rgazmali termopara,

### **11. Turli muhitlarda elektr toki**

O'tkazgichlar, dielektriklar va yarimo'tkazgichlar. Metallarning elektron o'tkazuvchanlik nazariyasi. Elektronlarning tartibli harakat tezligi. O'tkazgich qarshiligining temperaturaga bog'liqligi. O'ta o'tkazuvchanlik.

Yarim o'tkazgichlarda elektr toki. Yarim o'tkazgichlarning elektr o'tkazuvchanligi va uning temperaturaga bog'liqligi. Termorezistor. Yarimo'tkazgichlarning xususiy va aralashmaviy o'tkazuvchanligi. Elektron-kovakli o'tish. Yarim o'tkazgichli diod. Tranzistor. Yarim o'tkazgichli asboblarning qo'llanilishi.

Suyuqliqda elektr toki. Mis sulfat elektrolizi.

Vakuumda elektr toki. Termoelektron emissiya. Ikki elektrodli lampa. Elektron-nurli trubka.

### **Ko'rgazma va tajribalar**

1. Metall qarshiligining temperaturaga bog'liqligi.
2. Yarim o'tkazgichlar qarshiligining temperaturaga bog'liqligi.
3. Termorezistorlarning ishlashi.
4. Yarim o'tkazgichli diodning bir tomonlama elektr o'tkazuvchanligi.
5. Yarim o'tkazgichli dioddagi tok kuchining kuchlanishga bog'liqligi.
6. Tranzistor yordamida o'zgarmas tokni kuchaytirish.
7. Termoelektron emissiya.
8. Mis sulfat eritmasining elektrolizi.
9. Vakuumli diodning bir tomonlama elektr o'tkazuvchanligi.
10. Elektron-nurli trubkaning tuzilishi va ishlashi.

### **Laboratoriya ishi**

8. Yarimo'tkazgichli diodning bir tomonlama o'tkazuvchanligini o'rganish (O'zgaruvchan tokni yarim o'tkazgichli diod yordamida to'g'rilash).

9. O'tkazgich qarshiligining temperaturaga bog'liqligini o'rganish.

\*Termorezistor qarshiligining temperaturaga bog'liqligini o'rganish.

\* Misning elektrokimyoviy ekvivalentini aniqlash.

Jihozlar va o'quv-ko'rgazmali qurollar:

Fizika xonasi uchun elektr jihozlar to'plami, O'quv-laboratoriya ampermetri, O'quv-laboratoriya voltmetri, Bir va ikki qutbli kalitlar to'plami, Ulovchi simlar to'plami, Ko'rgazmali surilma reostat (100 Om), O'quv-laboratoriya ommetri, Universal fizika shtativi, Elektrotexnika va elektronika asoslari bo'yicha «Elektronika-1» laboratoriya jamlanmasi, Sim qarshiligining haroratga bog'liqligini namoyish etish asbobi, Yarim o'tkazgichlar xossasini o'rganish laboratoriya to'plami, Taglikka o'rnatilgan diod, Taglikka o'rnatilgan tranzistor, Elektroliz bo'yicha to'plam, Ikki elektrodli lampa, Elektron-nurli trubka.

## **12. Magnit maydon**

Tokning magnit maydoni. Tokli o'tkazgichlarning o'zaro ta'siri. Tokli g'altakning magnit maydoni. Magnit maydon induktsiyasi. Magnit oqimi. Amper kuchi. Lorenst kuchi. Elektr o'lchov asboblarning ishlash prinsipi.

Moddalarning magnit xossalari. Ferromagnitlar. Axborotlarni magnit usulida yozish. EHMning magnit xotirasi. Magnit disketlar va ularning qoʻllanilishi.

### **Koʻrgazma va tajribalar**

1. Parallel toklarning oʻzaro taʼsiri.
2. Magnit maydonning tokli oʻtkazgichga taʼsiri.
3. Elektronlar dastasining magnit maydonda ogʻishi.
4. Ampermetr va voltmetrning tuzilishi va ishlashi.
5. Tovushni magnit usulida yozish.

### **Laboratoriya ishi**

10. Elektr oʻlchov asboblarning ishlash prinsiplarini oʻrganish.  
\* Doimiy magnitning magnit maydon induktsiyasini aniqlash

### **Takrorlash**

Jihozlar va oʻquv-koʻrgazmali qurollar:

Fizika xonasi uchun elektr jihozlar toʻplami, Ulovchi simlar toʻplami, Bir va ikki qutbli kalitlar toʻplami, Asosga oʻrnatilgan magnitli strelka, Koʻrgazmali qutbli magnitlar, Koʻrgazmali taqasimon magnitlar, Oʻquv-laboratoriya ampermetri, Oʻquv-laboratoriya voltmetri, Parallel toklarning oʻzaro taʼsirini namoyish qilish asbobi, Tokli oʻtkazgich atrofidagi magnit maydon spektrini namoyish qilish asbobi, Elektrodinamik mikrofon va ovoz karnayi, Magnit maydon induktsiyasi indikatorlari.

### **13. Elektromagnit induksiya**

Elektromagnit induksiya hodisasi. Induksiya EYuKi. Induksiyaviy elektr maydon. Elektromagnit induksiya qonuni. Lens qoidasi. Oʻzinduksiya va oʻzaro induksiya. Transformator va uning ishlash prinsipi. Induktivlik. Magnit maydon energiyasi.

### **Koʻrgazma va tajribalar**

1. Elektromagnit induksiya.
2. Lens qoidasi.
3. Induksiya EYuKining magnit oqimi oʻzgarish tezligiga bogʻliqligi.
4. Oʻzinduksiya.
5. Oʻzinduksiya EYuKining zanjirdagi tok kuchi oʻzgarish tezligiga va oʻtkazgich induktivligiga bogʻliqligi.

### **Laboratoriya ishi**

11. Transformatorning FIK ni aniqlash.  
\*Elektromagnit induksiya hodisasini oʻrganish.

Jihozlar va o'quv-ko'rgazmali qurollar:

Fizika xonasi uchun elektr jihozlar to'plami, Ulovchi simlar to'plami, Bir va ikki qutbli kalitlar to'plami, Laboratoriya induktivlik g'altagi, Ko'rgazmali Tomson g'altagi, Magnit maydonida ramkaning aylanishini namoyish etuvchi asbob, Lens qoidasini namoyish etish asbobi, O'quv-laboratoriya ampermetri, O'quv-laboratoriya voltmetri, Detallarga ajraluvchi elektromagnit, Ko'rgazmali elektr qo'ng'irog'i, Kalava g'altak, Drossel g'altaklar, Paneldagi transformator.

#### **14. Elektromagnit tebranishlar**

Tebranish konturi. Konturdagi erkin elektromagnit tebranishlar va energiyaning aylanishlari. So'nuvchi elektromagnit tebranishlar.

Tebranish konturidagi elektromagnit tebranishlarni tavsiflovchi tenglama va uning yechimi. Elektromagnit tebranishlar davri (Tomson formulasi).

Avtotebranishlar. So'nmas tebranishlar generatori (tranzistorli). Majburiy elektromagnit tebranishlar. O'zgaruvchan tok va uni tavsiflovchi kattaliklar. O'zgaruvchan tok generatori. O'zgaruvchan tok zanjiridagi aktiv, sig'im va induktiv qarshilik. O'zgaruvchan tok zanjiri uchun Om qonuni. Elektr rezonans. O'zgaruvchan tokning ishi va quvvati.

#### **Ko'rgazma va tajribalar**

1. Tebranish konturi.
2. O'zgaruvchan tok generatori.
3. Tebranish konturida rezonans.

#### **L a b o r a t o r i y a i s h l a r i**

12. O'zgaruvchan tok zanjirida sig'im va induktiv qarshilikni aniqlash.  
\*O'zgaruvchan tok zanjirida rezonans hodisasini kuzatish.

Jihozlar va o'quv-ko'rgazmali qurollar:

Fizika xonasi uchun elektr jihozlar to'plami, Ulovchi simlar to'plami, Bir va ikki qutbli kalitlar to'plami, Laboratoriya induktivlik g'altagi, Magnit maydonida ramkaning aylanishini namoyish etuvchi asbob, O'quv-laboratoriya ampermetri, O'quv-laboratoriya voltmetri, Kondensatorlar to'plami, Osstillograf, O'zgaruvchan tok generatori.

#### **15. Elektromagnit to'lqinlar**

Elektromagnit maydon. Ochiq tebranish konturi. Elektromagnit to'lqinlar va ularning xossalari. Elektromagnit maydon energiyasi.

Radioning kashf etilishi. Radiotelefon aloqa printsiipi. Modulyatsiya va detektorlash. Eng sodda radio. Teleko'rsatuvlarning fizik asoslari. Toshkent



– teleko‘rsatuv vatani. Radiolokatsiya haqida tushuncha. Aloqa vositalarining rivojlanishi.

### **Ko‘rgazma va tajribalar**

1. Elektromagnit to‘lqinlarni tarqatish va qabul qilish.
2. Elektromagnit to‘lqinlarning qaytishi va sinishi.
3. Eng sodda radio.

### **L a b o r a t o r i y a i s h i**

13. Eng sodda radioni yig‘ish

Jihozlar va o‘quv-ko‘rgazmali qurollar:

Fizika xonasi uchun elektr jihozlar to‘plami, Ulovchi simlar to‘plami, Bir va ikki qutbli kalitlar to‘plami, Laboratoriya induktivlik g‘altagi, Kondensatorlar to‘plami, Yarim o‘tkazgichli radio to‘plam, Elektromagnit to‘lqinlar xususiyatlarini o‘rganish uchun to‘plam.

## **16. Optika**

Yorug‘likning elektromagnit nazariyasi haqida tushuncha. Yorug‘likning turli muhitlarda tarqalish tezligi.

Optik asboblardan ularning ishlash prinsipi (mikroskop, teleskop).

Yorug‘lik interferensiyasi va uning texnikada qo‘llanilishi. Gyuygens-Frenel prinsipi. Yorug‘lik difraksiyasi. Difraksion panjara.

Yorug‘lik dispersiyasi. Chiqarish va yutilish spektrlari. Spektral tahlil. Spektroskop va uning tatbiqi. Yorug‘likning qutblanishi. Rentgen nurlari va ularning tatbiqi. Elektromagnit to‘lqinlar shkalasi.

Yorug‘lik oqimi. Yorug‘lik kuchi. Yoritilganlik. Yoritilganlik qonuni.

### **Ko‘rgazma va tajribalar**

1. Interferensiya manzaralarini hosil qilish.
2. Tor tirqishda yorug‘lik difraksiyasi.
3. Difraksion panjara yordamida yorug‘likni spektrlarga ajratish.
4. Elektromagnit to‘lqinlar shkalasi.
5. Lyuksmetr.

### **Laboratoriya ishi**

14. Difraksion panjara yordamida yorug‘lik to‘lqin uzunligini aniqlash.

15. Yoritilganlik qonunlarini o‘rganish

\*Mikroskop yordamida shishaning nur sindirish ko‘rsatkichini aniqlash.

Jihozlar va o‘quv-ko‘rgazmali qurollar:

Ko‘rgazmali difraksion panjara, Geometrik optika bo‘yicha magnit tutqichli ko‘rgazmali jamlanma, Optikadan «Optika-1» laboratoriya

jamlanmasi, Ulovchi simlar to‘plami, Laboratoriya mikroskopi, O‘quv-laboratoriya mikroampermetri, Fotometriya qonunlarini o‘rganish asbobi, O‘quv lazeri, Optik taglik, Laboratoriya spektroskopi, Lyuksmetr, Yorug‘likning qutblanishini o‘rganish bo‘yicha to‘plam, Fluorensensiya bo‘yicha to‘plam, To‘g‘ri ko‘rish prizmasi, Yorug‘lik filtrlari, Yorug‘lik interferenstiyasi va difraksiyasini o‘rganish bo‘yicha to‘plam.

### **17. Nisbiylik nazariyasi elementlari**

Nisbiylik nazariyasi asoslari. Eynshteynning nisbiylik nazariyasi postulatlarini. Tezliklarni qo‘shishning relyativistik qonuni. Vaqt oralig‘ining, jism massasi va o‘lchamlarining harakat tezligiga bog‘liqligi. Massa va energiyaning o‘zaro bog‘lanish qonuni.

### **Kvant fizikasi asoslari**

#### **18. Kvant optikasi elementlari)**

Kvant fizikasining paydo bo‘lish tarixi. Plank gipotezasi. Yorug‘lik kvantlari. Fotoeffekt va uning qonunlari. Fotoeffekt tenglamasi. Vakuimli va yarimo‘tkazgichli fotoelementlar. Fotoeffektdan texnikada foydalanish. Yorug‘lik tabiatini tushuntirishdagi dualizm – yorug‘likning to‘lqin va kvant xossalari. Geliotexnika. O‘zbekistonda quyosh energiyasidan foydalanish va uning rivojlanish istiqbollari.

#### **Ko‘rgazma va tajribalar**

1. Fotoeffektning kuzatish.
2. Vakuimli va yarimo‘tkazgichli fotoelementlar.
3. Fotoelementlar yordamida fototokni hosil qilish.

#### **Laboratoriya ishi**

16. Quyosh batareyasining ishlash prinsipini o‘rganish.
17. Fotoeffekt hodisasini o‘rganish.

\*Fotoelementli relening tuzilishi va ishlashini o‘rganish.

Jihozlar va o‘quv-ko‘rgazmali qurollar:

Fizika xonasi uchun elektr jihozlar to‘plami, Ulovchi simlar to‘plami, Fotoelektrik tok manbai, Bir va ikki qutbli kalitlar to‘plami, Ulovchi simlar to‘plami, O‘quv-laboratoriya milliampermetri, Fotometriya qonunlarini o‘rganish asbobi, Elektrotexnika va elektronika asoslari bo‘yicha «Elektronika-1» laboratoriya jamlanmasi.

### **19. Atom va atom yadrosi**

Atomning tuzilishiga oid Rezerford tajribasi. Atomning yadroviy modeli. Borning kvant postulatlarini. Energetik sathlar. Yorug‘likning kvant

manbalari – lazerlar, ulardan fan – Texnikada va xalq xo‘jaligida foydalanish. Golografiya haqida tushuncha.

Atom yadrosining tarkibi. Izotoplar. Atom yadrolarining bog‘lanish energiyasi. Yadro reaksiyalari. Radioaktivlik. Alfa, beta va gamma nurlanishlar. Elementar zarralarni kuzatish va qayd qilish usullari. Radioaktiv aylanishlar. Radioaktiv yemirilish qonuni.

### **Ko‘rgazma va tajribalar**

1. Rezerford tajribasining modeli.
2. Vilson kamerasida izlarni kuzatish.
3. Ionlovchi zarralarni qayd etuvchi qurilmaning tuzilishi va ishlashi.

Jihozlar va o‘quv-ko‘rgazmali qurollar:

Rezerford tajribasi modeli, Vilson kamerasi, Ionlovchi zarralarni qayd etuvchi qurilma.

### **20. Yadro energetikasi**

Uran yadrosining bo‘linishi. Zanjirli reaksiya. Yadro reaktori. Atom elektrostansiyasi. Termoyadro reaksiyalari. Radioaktiv nurlanishlarning biologik ta’siri. Yadro energetikasidan tinchlik maqsadida foydalanish istiqbollari.

O‘zbekistonda yadro fizikasi sohasidagi tadqiqotlar va ularning natijalaridan xalq xo‘jaligida foydalanish.

### **21. Olamning zamonaviy fizik manzarasi**

Olamning mexanik va elektromagnit manzaralari. Materiya tuzilishining birligi va yagona fizik manzarasi. Fizika va fan – Texnika taraqqiyoti.

### **Umumiy takrorlash**

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Nurmatov J. va boshqalar. Fizikadan laboratoriya ishlari. – T.: “O‘qituvchi”, 2002.
  2. Suyarov Q.T. va boshqalar. Mexanika va molekulyar fizika. – T.: O‘qituvchi, 2002.
  3. Suyarov Q.T. va boshqalar. Fizikadan laboratoriya va namoyishli tajriba ishlari. – T.: “Talqin”, 2002.
  4. Suyarov Q.T va boshqalar. Fizika. I-kitob. Mexanika. – T.: “Yangi nashr”, 2009.
  5. Suyarov Q.T., Usmonov Sh., Usarov. J. Fizika. II-kitob. Molekulyar fizika. – T.: “Yangi nashr”, 2010.
  6. Tursunmetov K.A. , Xudayberganov A.M. Fizikadan praktikum. – T.: “O‘qituvchi”, 2002.
  7. Турсунметов К., Узоқов А., Бўрибоев,И., Худойберганов А. Физикадан масалалар тўплами (Академик лицей, касб-хунар коллежлари учун ўқув қўлланма). – Т.: “Ўқитувчи”, 2001.
  8. Fizika Ma’ruzalar matni 1-qism. – T.: “O‘qituvchi”, 2002.
  9. Fizika Ma’ruzalar matni 2-qism. –T.: “O‘qituvchi”, 2004.
  10. Fizika Ma’ruzalar matni 3-qism. – T.: “O‘qituvchi”, 2002.
  11. Xusanov A.X. va boshqalar. Elektrodinamika. Elektromagnit tebranishlar. – T.: “O‘qituvchi”, 2003.
  12. Юсупов А., Умаров С. Физикадан масалалар тўплами. – T.: “Ўқитувчи”, 1995.
  13. O‘lmasova M.X. Mexanika va molekulyar fizika 1-kitob. – T.: “O‘qituvchi”, 2003.
  14. O‘lmasova M.X. Fizika.Optika, atom va yadro fizikasi 3- kitob. –T.: “O‘qituvchi”, 2007.
  15. G‘aniev A. va boshqalar. Fizika. 1-qism, 2-qism. – T.: “O‘qituvchi”, 2003.
-

**Tuzuvchilar:**

M.Mamadazimov – fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent

S.N.Nuritdinov – fizika-matematika fanlari doktori, professor

**Taqrizchilar:**

M.M.Zakirov – fizika-matematika fanlari doktori, professor

M.M. Mo‘minov – fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent

M.A. Fattaxov – TTESI qoshidagi akademik litsey o‘qituvchisi

**Dasturni optimallashtirishda ishtirok etgan ishchi guruhi a’zolari:**

D.Po‘latova – TDYuI qoshidagi akademik litsey o‘qituvchisi,  
fizika-matematika fanlari nomzodi

S.Murotov – Toshkent yuridik kolleji oliy toifali o‘qituvchisi

G.Igamberdieva – TIMI qoshidagi akademik litsey o‘qituvchisi

Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari uchun astronomiya kursi, o'quvchilarda, eng avvalo, ilmiy dunyoqarashni shakllantirishni va ularga olamning bir butunligini anglatishni barcha astronomik hodisalarning kechishi tabiatning universal qonunlari (birinchi navbatda, fizik qonunlar) asosida ro'y berishni hamda bu hodisalarning tabiatini ilmiy nuqtayi nazaridagina o'rganishni maqsad qiladi.

Astronomiya kursi fizika, matematika sikliga kiruvchi o'quv predmetlaridan hisoblanib, mazkur o'quv predmetining mazmuni o'quvchilarning IX yillik o'rta umumta'lim maktablarida "Atrof olam", "Tabiat", "Geografiya" hamda fizika va matematikadan erishgan bilimlariga tayanadi. Mazkur kurs akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari o'quvchilarining koinot tuzilishi haqidagi tasavvurlar, osmon jismlarining kelib chiqishi va evolyutsiyasiga oid ilmiy nazariyalar hamda ularning fizik tabiatlariga doir bilimlar bilan qurollantiradi. Bu predmet o'quvchilarda, shuningdek, yulduz xaritasi, jumladan, osmonning surilma xaritalari, yulduzlar atlas va globuslaridan hamda maktab astronomik kuzatish asboblardan (durbin, teleskop, teodolit va boshqalar) mustaqil foydalanish, xususan, ular yordamida osmon jismlari (Quyosh, Oy, planetalar va yulduzlar)ni kuzata olish malakasi va ko'nikmalarini shakllantiradi.

Tavsiya etilayotgan astronomiya kursining ushbu dasturidan uning barcha bo'limlarining asoslari hamda zamonaviy yutuqlari haqidagi zaruriy bilimlar mazmuni o'rin olgan. Quyosh sistemasining tuzilishi va osmon jismlarining harakati bo'limi planetalarning Quyosh atrofidagi harakati, ularning davrlari va Kepler qonunlari haqida tushunchalar beradi. Amaliy astronomiya bo'limi osmon koordinatalari, osmon jismlarining harakatlari, olam qutbining balandligi va shu asosida, mazkur kuzatish joyining geografik koordinatalarini topish, vaqtni aniqlash va, ayni paytda, qo'llaniladigan turli taqvimlar yulian, grigorian, shamsiy va qamariy hijriy kalendarlar haqida tushunchalar beradi. Ushbu bo'lim o'quvchilarni osmon jismlarigacha bo'lgan masofalarni topish, ularning chiziqli o'lchamlarini hisoblash usullari bilan tanishtiradi.

Oxirgi yillarda kosmonavtikaning shaxdam odimlar bilan rivojlanayotganini hamda uning XXI asrda ilmiy-tadqiqot va xalq xo'jaligi yo'nalishlari bo'yicha ulkan rejalarini (Oyda ilmiy-texnik stansiya qurish, Marsni o'zlashtirish, Oy orbitasida qurilishi mo'ljallanayotgan ulkan kosmik mustamlaka - Quyosh fabrikasi va boshqalar) e'tiborga olib, dasturdan "Kosmonavtika elementlari"ga ham o'rin berildi. Mazkur bob 5 soatga mo'ljallangan bo'lib, kosmonavtika asoslarining mazmunini o'zida aks ettirgan.

Keyingi o'n yilliklarda astrofizikaning keskin rivojlanayotganligini e'tiborga olib, astronomiya dasturi kursning astrofizika yo'nalishi

mazmunini kuchaytirishni ham maqsad qilgan. Dastur, zamonaviy keng to'liqlik astronomiyaning metodlari va kuzatish asboblari, astronomiyaning fizika, texnika va kosmanavtikaning rivojlanishlaridagi alohida roli, shuningdek, raketa - kosmik texnikasi yordamida osmon jismlarining fizikasini o'rganishning, fan va xalq xo'jaligidagi uning muhim ahamiyati haqidagi ma'lumotlarni ham o'zida aks ettirgan.

Astronomiya dasturi Quyosh sistemasi jismlarining yulduzlar va ularning yirik masshtabli strukturalari va fizik tabiatlari haqidagi tushunchalar va nazariy bilimlar bilan yakunlanadi.

O'rta asrlarda yashab ijod etgan buyuk sharq allomalaridan Al-Xorazmiy, Al-Farg'oniy, Beruniy, Umar Xayyom, Nasriddin Tusiy va Ulug'beklarning astronomiya tarixidagi tutgan o'rinlari va salmoqli ilmiy meroslarida ham ushbu dastur mazmunidan keng o'rin berilgan bo'lib, bu mavzular o'qitishning tarbiyaviy aspektini kuchaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'quv yili davomida, astronomiya kursining o'qitilishi jarayonida har bir bo'lim uchun o'tkazilishi zarur bo'lgan Demonsratsiyalarning ro'yxati dasturda mos bo'lim mavzularidan so'ng sistemali ravishda keltirilgan.

Mazkur demonstratsiyalarni tashkil etish va o'tkazish vaqtini, sharoitga qarab, o'qituvchining o'zi tanlashi tavsiya etiladi. Imkoni bo'lganda, ayrim Demonsratsiyalarning planetariy yoxud astronomik muassasalarda uyushtirilishi, bunday amaliy mashg'ulotlarning samaradorligini yuqori darajada ta'minlaydi

Dasturda, o'qituvchi rahbarligida, o'quvchilar bilan vizual kuzatishlarni uyushtirish, maktab teleskoplarining kattalashtirishi va ravshanlashtirishi kabi xarakteristik kattaliklarini hisoblash, olam qutbining balandligiga ko'ra joyning geografik kenglamasini aniqlash kabi amaliy astronomiyaning elementlari ham yetarlicha yoritilgan.

O'qituvchi rahbarligida qurollanmagan ko'z va teleskoplar bilan o'tkazilishi lozim bo'lgan astronomik kuzatishlarning ro'yxati va ularning tarkibiy qismlari (strukturasi va vazifalari) dastur so'ngida keltirilgan. Amaliy mashg'ulotlar va kuzatishlar uchun tavsiya etilgan olti soatli vaqtning ikki soati (kunduzgilari) Quyoshni kuzatishga, qolganlari (kechqurungilari) Oyni, planetalar va ularning yo'ldoshlarini hamda yulduzlarni (yulduz turkumlari va ulardagi eng yorug' yulduzlar, qo'shaloq va fizik o'zgaruvchi yulduzlar hamda qo'shni galaktik tumanliklar) o'rganishni nazarda tutadi.

Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari uchun astronomiya kursi, o'quvchilarning fizika va matematikadan erishgan bilimlariga tayanilgan holda o'rganiladi. Binobarin, uning uchinchi kurslarda o'qitilishi, amalga oshirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

## **O‘quvchilar erishishi kerak bo‘lgan bilim va malakalar**

### O‘quvchilar quyidagilarni bilishi zarur:

- yulduzlar osmonining aylanishi, yulduzlar fonida Quyosh va Oy harakatlanishlarining sabablari;
- bahorgi, yozgi, kuzgi va qishki osmonning yulduz turkumlarini va ularning eng yorug‘ yulduzlarini (Vega, Al – Tohir, Deneb, Aldebaran, Betelgeyze, Antares, Sirius, Polluks, Arktur va boshqalar).
- Oy fazalarining almashinishi sabablarini, Quyosh va Oy tutilishlarining asosiy sabablari;
- Quyoshning tush paytidagi balandligining yil fasllariga ko‘ra o‘zgarib borish sabablari;
- astronomik kuzatishlar asosida geografik kenglamani aniqlash prinsiplari;
- geliosentrik ta’limotning ilmiy dunyoqarash masalasida ahamiyati;
- Quyosh sistemasi jismlarigacha masofalarni o‘lchash usullari;
- astronomik birlikning taxminiy qiymati;
- Oyning Yerdan, planetalarning Quyoshdan o‘rtacha uzoqliklarining taqribiy qiymatlari;
- birinchi va ikkinchi kosmik tezliklar;
- sun’iy yo‘ldoshlarning asosiy orbita elementlari;
- kosmik kemalarni Oyga va planetalarga uchirish asoslari;
- teleskoplarning vazifasi va ishlash prinsipi;
- keng to‘lqinli zamonaviy astronomiya (zamonaviy metodlar) haqida;
- erdan tashqi astronomiyaning imkoniyatlari;
- osmon jismlarini o‘rganishda spektral analiz;
- Quyoshning asosiy fizik xarakteristikalarini (Quyoshning aktivligi va uning Yerga ta’siri);
- Yer tipidagi planetalar va ular uchun umumiy bo‘lgan xususiyatlar;
- Gigant (ulkan) planetalar va ularning Yer tipidagi sayyoralardan farq qiluvchi asosiy xususiyatlari;
- Quyosh sistemasi mayda jismlarning fizik tabiatlaridagi xarakterli xususiyatlar;
- Kosmik fazoni tadqiq etishning asosiy yo‘nalishlari va uni o‘zlashtirishning kelajak istiqbollari;
- Quyosh sistemasi jismlarning kelib chiqishi to‘g‘risida zamonaviy tasavvurlar;
- yulduzlargacha masofalarni aniqlash usullari, astronomiyada asosiy uzunlik birligi;
- galaktikamizdagi eng yaqin va eng uzoq yulduzlargacha bo‘lgan taxminiy birlik;



- yulduzlarning asosiy fizik xarakteristikalari (spektri, rangi, temperaturasi, radius va massalari) va ularni Quyosh bilan taqqoslash;
- nurlanish qonunlarining (Stefan-Bolsman, Vin) mohiyati va ulardan yulduzlarga tegishli fizik kattaliklarni aniqlashda foydalanish;
- yulduzlar energiyasining manbayi;
- yulduzlar evolyutsiyasi haqida tushunchalar.
- Galaktikamizning tarkibi va o‘lchamlari, unda Quyosh sistemasining o‘rni;
- yulduzlararo bo‘shliq, gaz va chang tumanliklar;
- tashqi-qo‘shni galaktikalargacha (Andromeda, Katta va Kichik Magelan bulutlari) taxminiy masoflar;
- olam tuzilishining tuzilishi va evolyutsiyasi haqidagi tushunchalar.

*O‘quvchilar egallashi lozim bo‘lgan malakalar:*

- osmondan Qutb yulduzini (temir qoziq) topish va uning balandligiga ko‘ra joyning geografik kengligini aniqlash;
- Katta Ayiq, Kichik Ayiq, Kassiopeya va bu joydan yaxshi ko‘rinadigan yana 3-4 yulduz turkumini osmondan topa olish;
- yulduzlar xaritasidan foydalangan holda:
  - 1) yulduzlarning ekvatorial koordinatalarini aniqlay olish;
  - 2) yilning ixtiyoriy kuni uchun Quyoshning o‘rnini xaritadan aniqlash;
  - 3) berilgan koordinatalarga ko‘ra harakatdagi osmon obyektining (Oy, planetalar va boshqalar) o‘rnini belgilay olishi;
- yulduzlar surilma xaritasini berilgan kun va soat uchun qo‘yib, yoritgichlarning ko‘rinish shartlarini aniqlash;
- yoritgichlarning kulminatsiya holatlaridagi balandliklarini ularning og‘ishlari ( $\delta$ ) va joyning kengligiga ( $\varphi$ ) ko‘ra hisoblash masalalarini yecha olish;
- osmon jismining ko‘rinma diametri va ungacha masofaga ko‘ra, uning chiziqli o‘lchamini (radiusini) hisoblash;
- Keplerning III-qonuniga (jumladan, uning Nyuton tomonidan aniqlashtirilgan qonuni ko‘rinishiga) oid masalalar yechish.
- osmon jismining berilgan massasi va radiusiga ko‘ra birinchi va ikkinchi kosmik tezliklarini hisoblashga doir masalalar echish;
- SY orbitasi elementlariga (peregeliy va apogeyining balandliklariga) ko‘ra uning davrini hisoblashga (yoki aksincha) doir masalalar yechish.
- teleskopni parallaktik qurilma bo‘yicha (o‘zaro perpendikulyar o‘qlaridan birini Olam o‘qi bo‘ylab yo‘lantirilgan holda) o‘rnatish;
- teleskopni o‘rganuvchi obyektga yo‘naltirish;
- maktab teleskopi va dala durbinining kattalashtirishini hisoblash.

- Quyosh sistemasi haqidagi ma’lumotlar aks etgan jadvaldan foydalana olish;
- astronomik lug‘at va taqvimlardan foydalana olish;
- yangi astronomik ma’lumotlar va kosmosni o‘zlashtirish bo‘yicha davriy matbuot materiallaridan foydalanib, qisqacha obzor yoki referat tayyorlay olish;
- Quyosh va planetalarning fizik tabiatlariga oid sodda masalalarni yecha olish;
- yulduzlarning ma’lum parallakslariga ko‘ra masofalarni hisoblash;
- spektr-yorqinlik diagrammasidan foydalanib, yulduzlarga tegishli xarakteristik kattaliklarni taxminiy aniqlash;
- yulduzlarning o‘lchamlari, yorqinliklari (yoki absolyut yulduz kattaliklari) va temperaturalari orasidagi munosabatlardan;
- Xabbl qonuni asosida Galaktikalargacha masofalarni hisoblash;
- Quyosh sistemasining Galaktika markazidan uzoqligi va tezligiga ko‘ra uning aylanish davrini (yoki aksincha davriga va uzoqligiga ko‘ra tezligini) hisoblash.

### Fan mavzulari bo‘yicha o‘qitish rejasi tarkibi

№	Bo‘lim va mavzularning nomi	Umumiy yuklama, soat						
		Darslar turi bo‘yicha soatlar taqsimoti (auditoriya yuklamasi)						
		Hammasi	Jami	Nazariy	Amaliy mashg‘ulotlar	Laboratoriya ishi	Seminar (ekskursiya)	Mustaqil ish
1	Kirish	2	1	1				1
2	Amaliy astronomiya asoslari	10	7	5	2			3
3	Quyosh sistemasining tuzilishi va osmon jismlarining harakati	7	5	5				2
4	Kosmonavtika asoslari	7	4	4				2
5	Astrofizik tadqiqot metodlari	7	4	4				2
6	Quyosh sistemasi	11	7	5	2			4

	jismlarining fizik tabiati							
7	Yulduzlar	11	6	4	2			3
8	Koinotning tuzilishi va evolyutsiyasi	6	2	2				2
<b>Jami</b>		<b>59</b>	<b>36</b>	<b>30</b>	6			<b>19</b>

### **Kirish**

Astronomiya fani va uning zamonaviy yo‘nalishlari haqida. Astronomiyaning boshqa fanlar orasida tutgan o‘rni, uning xalq xo‘jaligidagi ahamiyati. Olam tuzilishi haqida hozirgi zamon tushunchalarining shakllanishi haqida tarixiy ocherk. Al-Xorazmiy, Al-Farg‘oniy, Beruniy, Umar Xayyom, Nasriddin Tusiy, Qozizoda Rumiy, Jamshid Koshiy, Ulug‘bek va Ali Qushchilarning astronomiyaning rivojiga qo‘shgan hissalar.

### **Amaliy astronomiya asoslari**

Yulduzlar osmoni va uning sutkalik ko‘rinma aylanishi. Yulduz turkumlari. Eng yorug‘ yulduzlarning arabcha nomlari haqida Beruniy. Osmon sferasining asosiy nuqta, chiziq va aylanalari. Quyoshning yillik ko‘rinma aylanishi. Ekliptika. Zodiak soha. Osmon koordinatalari. Gorizont va ekvatorial koordinatalar sistemalari. Yulduz xaritalari. Yulduz kattalıkları haqida tushuncha. Olam Qutbining gorizontdan balandligi va kuzatish joyining geografik kenglamasi orasidagi bog‘lanish. Turli kenglamalarda yoritgichlarning sutkalik ko‘rinma aylanishlari. Yoritgichlarning kulminasiyalari va kulminatsiya balandliklari. Ma‘lum joyda Quyoshning sutkalik ko‘rinma aylanishining yil davomida o‘zgarib borishi.

Vaqtни o‘lchash. Yulduz va Quyosh vaqtlari. Vaqt tenglamasi. Mahalliy, dunyo, poyas va dekret vaqtlari haqida tushuncha. Kalendarlar (Yulian, Grigorian va Hijriy taqvimlar) haqida tushuncha. Umar Xayyom kalendarı. Oyning harakati va fazalari. Quyosh va Oy tutilishlari. Astronomik kuzatishlar asosida joyning geografik kenglamasini aniqlash.

### **Demonstratsiyalar**

1. Osmon sferasining modeli.
2. Yulduzlar osmoni aks etgan yulduzlar xaritasi, atlası.
3. Yulduzlarning surılma xaritasi.
4. Yulduzlar va Quyoshning turli kenglamalarda sutkalik ko‘rinma aylanishi aks ettirilgan chizma - plakatlar.

5. Oynning harakati, fazalari va davrlari (modelda yoxud chizmada).
6. Quyosh va Oy tutilishlarining sxemalari.

### **Quyosh sistemasining tuzilishi va osmon jismlarining harakati (5 soat)**

Olam tuzilishi haqida geliosentrik ta'limot. Quyosh sistema-sining tarkibi va o'lchamlari. Planetalarning konfiguratsiyalari va ko'rinish shartlari. Planetalarning siderik va sinodik davrlari. Kepler qonunlari. Osmon jismlarining massalarini hisoblash. Sutkalik parallaks. Quyosh sistemasi jismlarigacha masofalarni hisoblash.

Astronomiyada uzunlik o'lchovi birliklari. Yerning radiusini aniqlash usullari. Xorazmiy va Beruniylarning bu sohadagi ishlari. Quyosh sistemasi jismlarining o'lchamlarini hisoblash usullari.

#### **Demonstratsiyalar**

1. Quyosh sistemasining dinamik modeli.
2. Planetalarning konfiguratsion holatlari aks ettirilgan sxema.
3. Sutkalik parallaks va Quyosh sistemasi jismlarining chiziqli o'lchamlarini o'lchashga oid chizmalar.
4. Yer radiusini Beruniy metodi asosida hisoblashga oid chizma.

#### **Kosmonavtika asoslari (4 soat)**

Kosmonavtika predmeti va uning boshqa fanlar bilan aloqasi. Uchish paytida sun'iy yo'ldoshga(SY) ta'sir etuvchi kuchlar. Vaznsizlik. Tortishishning markaziy maydoni. Tortishishning markaziy maydonida jismning xarakati. Kosmik tezliklar. Osmon jismining ta'sir sferasi va sun'iy yo'ldoshlar traektoriyalarini taxminiy hisoblash. Yer sun'iy yulduzlarining orbita elementlari. Oyga uchish traektoriyalari. Oyga qo'nish. Planetalarga uchish traektoriyalari. Yer SY lari va kosmik stano'iyalardan ilmiy va xalq xo'jaligi yo'nalishlarida foydalanish, uning istiqbollari.

#### **Demonstratsiyalar**

1. Yer sun'iy yo'ldozlarining orbita elementlari va aks ettirgan sxemalar (chizma, plakat yoki diapozitivlar)
2. Turli maqsadlarda uchirilgan SY larning (qutbiy, ekvatorial, geostasionar yo'ldozlar) Yer atrofi orbitalarining chizmalari.
3. Orbital va planetalararo kosmik sxemalari, fotografiyalari, diapozitivlari.
4. Kosmik apparatlarnig Oyga va planetalarga uchirish orbitalarining sxemalari (chizma va fotorasmlarda)

#### **Astrofizik tadqiqot metodlari (4 soat)**

Osmonni elektromagnit nurlanishlarda kuzatish-keng talqinli astronomiyaning asosidir. Optik va radioleskoplar, ularning xarakteristik kattaliklari. Yer atmosferasining turli nurlanishlar uchun "tiniqlik" darajasi.

Yer atmosferasidan tashqi astronomiya. Osmon jismlarining fizik tabiatlari va harakat tezliklarini ularning spektrlariga ko‘ra aniqlash metodlari.

### **Demonstratsiyalar**

1. Elektromagnit nurlanishlarning to‘lqin shkalasi.
2. Optik va radioteleskoplar(maktab optik teleskoplari, yirik teleskoplar - fotorasmlarda)
3. Teleskoplarda nurning yo‘li (sxema)
4. Spektroskop va spektrograflarning ishlash prinsipini o‘zida aks qilgan sxemalar.
5. Ulug‘bek rasadxonasi qoldiqlari (fotografiya)
6. O‘zbekiston Respublikasi FA Astronomiya instituti va filiallarining teleskoplari va spektral qurilmalari (fotografiyalar)

### **Quyosh sistemasi jismlarining fizik tabiati(7 soat)**

Quyosh - eng yaqin yulduz. Quyosh atmosferasining tarkibi. Fotosfera va undagi obyektlar (donadorlik, mash‘allar va dog‘lar). Xromosferada kuzatiladigan obyektlar (protubranetslar va xromosfera chaqnashlari). Quyoshning radionurlanishi. Quyosh aktivligi haqida tushuncha. Yer tipidagi planetalarning fizik tabiatlari. Gigant planetalar. Oy va planetalarning yo‘ldoshlari.

Kosmik apparatlar tomonidan olingan planetalarning relyefi, atmosferasi va magnitosferasiga tegishli ma‘lumotlar. Mayda planetalar (asteroidlar). Quyosh sistemasining mayda jismlari: kometalar. meteorlar, bolidlar va meteoritlar. Quyosh sistemasining kelib chiqishi haqidagi hozirgi zamon tasavvurlari. Quyosh sistemasi jismlarga tegishli muhim xususiyatlardagi fizik umumiylik.

### **Demonstratsiyalar**

1. Quyosh va planetalar haqida umumiy ma‘lumotlar jamlangan jadval.
2. Quyosh fotosferasining donadorligi, mash‘allari va dog‘lari (fotografiyalar).
3. Protubranetslar va Quyosh toji (fotografiya)
4. Planetalar va ularning yo‘ldoshlarining kosmik apparatlar (KA) yordamida olingan rasmlari.
5. Oyni va Yerni KA yordamida olingan rasmlari.
6. Kometalar va meteoritlar, meteor va bolidlarning rasmlari

**Yulduzlar** Yulduzlar Koinotda keng tarqalgan jismlardir. Yillik parallaks. Yulduzlargacha masofalarni aniqlash. Nurlanish qonunlari (Vinning siljish qonuni, Stefan - Bolsman qonuni) asosida yulduzlarning temperaturalarini hisoblash. Absolyut yulduz kattaligi. Yulduzlarning spektrlari, temperaturalari, yorqinlik-lari va ular orasida bog‘lanish. Spektr – yorqinlik diagrammasi. Yulduzlarning massalari va radiuslarini hisoblash

haqida tushuncha. Yulduzlarga tegishli kattaliklar - yorqinlik, radius va massa orasidagi bog'lanish. Gigant va mitti yulduzlar. Qo'shaloq yulduzlar. o'zgaruvchi, nostantsionar yulduzlar. Yulduzlarning ichki tuzilishi va energiya manbalari haqida tushuncha. yulduzlarning evolyutsiyasi. Neytron yulduzlar (pulsarlar) va "qora o'ralar" haqida tushuncha.

### **Demonstratsiyalar**

1. Turli spektral sinflarga kiruvchi yulduzlarning spektrlari (fotografiyalarda).
2. Spektr – yorqinlik diagrammasi (plakatda yoki diapozitivda).
3. Qo'shaloq yulduzlarning ravshanlik egriliklari (chizmada).
4. Turli tipdagi o'zgaruvchi yulduzlarning ravshanlik, nuriy tezlik va temperaturalarning vaqt bo'yicha o'zgarish grafiklari (chizma).
5. O'ta yangi yulduzning portlash jarayoni, qoldig'i (Qisqichbaqasimon tumanlik - fotografiya).

### **Koinotning tuzilishi va evolyutsiyasi )**

Koinotning tuzilishi va evolyutsiyasi - moddiy dunyo uchun fizik qonuniyatlarning amalda namoyon bo'lishidir. Galaktikamizning tuzilishi: tarkibi va strukturasi. Galaktikamizning aylanishi, unda Quyosh sistemasining o'ri. Kosmik radionurlar-nishlar. Tashqi galaktikalar, sinflari va ularning to'dalari. Koinotning ulkan masshtabli strukturasi. Olam tuzilishi haqidagi zamonaviy tasavvurlar, ularning dunyoqarash va ekologik aspektlari.

### **Demonstratsiyalar**

1. Galaktikamizning tuzilishi (yon tomondan va qutbi tomonidan ko'rinishlari) va unda Quyosh sistemasining o'ri.
2. Yulduz to'dalari, gaz-chang tumanliklarning fotografiyalari.
3. Turli tipdagi (spiral, elliptik va noto'g'ri formadagi) galaktikalar.
4. Koinotning yirik masshtabli strukturasi (mahalliy galaktik to'dalar, o'tagalaktikalar va metagalaktika - sxema).

### **Yakuniy (obzor) ma'ruza**

1. Koinotda aqlli mavjudotlar bormi?
2. Noma'lum uchar obyektlar haqida fan.
3. Koinotni tadqiq etish istiqbollari - insoniyatning hayotiy muammolarini hal qilish yo'lida.
4. Kosmonavtika kecha va bugun.

### **Amaliy mashg'ulotlar va sinfdan tashqari astronomik kuzatishlar**

1. Yulduzlarning surilma xaritalari va ular bilan ishlash.
2. Astronomik kalendarlar va lug'atlar (spravochniklar) bilan ishlash.

### **Qurollanmagan ko‘z bilan kuzatishlar**

1. Osmonning sutkalik ko‘rinma aylanishini kuzatish.
2. Kuzgi, qishki, bahorgi va yozgi osmon yulduz turkumlarining ravshan yulduzlarini surilma xarita yordamida topish.
3. Joyning geografik kengligini qutb yulduzining balandligiga ko‘ra taxminan aniqlash.
4. Planetalarning berilgan koordinatalariga ko‘ra osmondan topish.
5. Yulduzlar ravshanliklarining farqiga ko‘ra, ularning ko‘rinma yulduz
6. Oy fazalarini kuzatish va Quyoshga nisbatan vaziyatlarini taxminiy belgilash.
7. Meteor oqimlarini kuzatish asosida ularning radiantlarini belgilash.

### **Teleskop yordamida kuzatishlar**

1. Quyosh sirti obyektlarini (dog‘lar, mash‘allar) va Quyoshning aylanishini kuzatish.
2. Oyniing relyefini o‘rganish.
3. Venera fazalari. Mars, Yupiter va uning yo‘ldoshlari. Saturn va uning xalqasi.
4. Qo‘shaloq yulduzlar, yulduz to‘dalari, Somon Yo‘li, tumanliklar va tashqi Galaktikalar.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Mamadazimov M.M. Astronomiya. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik. – T.: “O‘qituvchi”. 2007.
2. Mamadazimov M.M. Astronomiya. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik. – T.: “O‘qituvchi”. 2006.
3. Мамадазимов М.М. Мактабда астрономия таълими. – Т.: «Ўқитувчи» .1994.
4. Мамадазимов М.М. Мактабда астрономия ўқитиш. – Т.: «Ўқитувчи» .1990.
5. Дагаев М.М. и др. Астрономия. – М.: “Просвещение”. 1983.
6. Мамадазимов М.М. Сферик ва амалий астрономиядан масалалар.– Т.: “Ўқитувчи”. 1979.
7. Мурсалимова Г., Рахимов А. Умумий астрономия курси. – Т.: “Ўқитувчи”. 1976.

### **Qo‘shimcha adabiyotlar:**

1. Аҳмад ал-Фарғоний. Астрономия илми асослари. – Т.: “Шарқ”.1998.
2. Мамадазимов М.М. Улуғбек ва унинг расадхонаси. – Т.: “Ўзбекистон”.1994.

3. Мамадазимов М.М. Астрономиядан ўқиш китоби. – Т.: “Ўқитувчи”. 1992.
4. Нуритдинов С.Н. Сомон Йўли. – Т.: “Фан”. 1989.
5. Андрианов Н.К., Марленский А.Д. Школьная астрономическая обсерватория. – М.: Наука. 1980.
6. Сираждинов С.Х. Матвиевская Г.П. Аль-Хорезми- выдающийся математик и астроном средневековья. – М.: Просвещение. 1983.
7. Матвиевская Г.П., Резенфельд Б.А. Математики и астрономы мусульманского средневековья и их труды (в VIII-XIII веках). – М.: Наука. 1983
8. Цесевич В.П. Что и как наблюдать на небе. – М.: Наука. 1979
9. Астрономия. Методология. Мирозрение. – М.: Наука, 1977.
10. Булгаков П.Г. Жизнь и труды Беруни. – Т.: Фан, 1976.
11. Комаров В.Н. Увлекательная астрономия. – М.: Наука. 1968.
12. Перельман Я.И. Қизиқарли астрономия. – Т.: Ўқитувчи. 1960.



## K I M Y O

### **Dasturni tuzuvchilar:**

Sh.Sh. Yaxyayeva – JIDU qoshidagi “Shayxontohur” akademik litseyi,  
kimyo fani o‘qituvchisi

H.A.Islamova – Yakkasaroy yengil sanoat kasb-hunar kolleji, kimyo fani  
o‘qituvchisi

### **Dasturni optimallashtirishda ishtirok etgan ishchi guruhi a’zolari:**

N.A.Agzamova – Mirobod temir yo‘llar kasb-hunar kolleji o‘qituvchisi

R.Inamova – Axborot -metodik ta’minlash xizmati yetakchi metodisti

### **Taqrizchilar:**

A.Mahsumov – TDPU kimyo fanlari doktori, professor.

I.Ismoilov – TDPU kimyo fanlari doktori, professor

## Kirish

### Fanning vazifasi va uni o'qitishdan maqsadi

Kimyo fanini o'qitish uchun tuzilgan mazkur dasturda o'quvchilarning umumiy o'rta ta'lim maktablarida olgan bilimlarini chuqurlashtirish va davom ettirish, boshlang'ich tushunchalar va umumiy kimyo asoslarini o'qitish, organik kimyo fani haqida ma'lumot berish, O'zbekistondagi asosiy kimyoviy ishlab chiqarish jarayonlari bilan tanishtirish.

Hozirgi ilm-fan, texnika va sanoat jadal rivojlanayotgan, ijtimoiy, ekologik holat keskinlashib borayotgan vaqtda umumiy o'rta maxsus ta'lim maskanlarida kimyo fanini mazmun jihatdan yangicha o'qitish bir tomondan zaruriyat bo'lsa, ikkinchi tomondan, zamon talabidir.

Umumiy o'rta maxsus ta'lim maskanlarida umumiy kimyoning asosiy qonunlarini o'rganishdan boshlab, davriy qonun, kimyoviy elementlarning atom tuzilishi va tarkibini, yangi kimyoviy elementlar sintezi, kvant sonlari, kimyoviy reaksiya tezligi va unga ta'sir etuvchi omillar, dispers sistema, oksidlanish-qaytarilish reaksiya turlari, organik kimyoning asosiy tushuncha va qonunlari, organik birikmalar sinflari, yuqori molekulyar birikmalar, O'zbekistonda kimyo fani va kimyo sanoatining rivojlanish mavzulari imkoni boricha o'quvchilar atrofini o'rab turgan muhitdagi hayot, turmush va ishlab chiqarish hamda tajribasi bilan bog'langan bo'lishi lozim.

O'quv dasturida o'quvchilar bilan laboratoriya ishlari va amaliy mashg'ulotlar o'tkazishga, har bir mavzuga tegishli masalalar yechishga katta ahamiyat beriladi, har qaysi bo'limni tugatgandan so'ng olingan nazariy bilimlar amaliy mashg'ulot va masalalar orqali mustahkamlab boriladi.

O'quvchilar bilimi, malakasi va ko'nikmasiga qo'yiladigan talablar

Ushbu o'quv dasturi bo'yicha bilim olgan akademik litsey va kasb-hunar kollejlarning o'quvchilari kimyo fanini o'zlashtirib, quyidagi talablarga javob berishlari kerak:

Umumiy va anorganik kimyo bo'limlaridan:

**Atom tuzilishi va tarkibi:**

atom yadrosining tarkibi va tuzilishi, izotoplar, izobar, izotonlar  
yangi elementlar sintezi

kimyoviy elementlarning davriy jadvaldagi o'rniga qarab atom tuzilishi

– elektron konfiguratsiyasi, proton, neytron, pozitron, nuklon soni

kvant sonlari: bosh, orbital, magnit va spin kvant sonlar

**Kimyoviy bog'lanish turlari (organik va anorganik birikmalarida):**

– kovalent, ionli, donor-akseptor, vodorod va metall bog'lanish

**Kimyoviy reaksiyalar kinetikasi:**

- endotermik, ekzotermik, qaytar va qaytmas reaksiyalar
- kimyoviy reaksiya tezligiga ta'sir etuvchi omillar: moddalar tabiati, o'lchami, moddalar konsentratsiyasi, bosim, harorat, katalizator, ingibitorlar
- Vant-Goff qoidasi
- kimyoviy muvozanatning siljishiga ta'sir etuvchi omillar

### **Dispers sistemalar:**

- dag'al (geterogen) dispers sistemalar, kolloid dispers sistemalar, chin (gomogen) eritmalar
- normal, molyar va foizli konsentratsiyalar orasidagi bog'liqlik

### **Ion almashinish reaksiyalari:**

- kation, anionlarni aniqlash, gaz ajralish, cho'kma hosil bo'lishi va kam dissotsiatsiyalanadigan moddalar hosil bo'lishi bilan boradigan reaksiyalar tenglamalarini molekulyar, to'liq ionli, qisqa ionli ko'rinishda yozish;
- tuzlarning gidrolizi, gidrolizlanishning ionli tenglamalarini tuzish;

### **Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari:**

- organik va anorganik moddalarning oksidlanish qaytarilish reaksiyalari
- molekulalararo, molekulalar ichidagi, disproporsiya va sinproporsiya reaksiyalari

### **Organik kimyo bo'limidan:**

#### **Kirish.** Organik kimyo fani. Organik birikmalar

- A.M. Butlerovning organik moddalarning tuzilish nazariyasi
- uglerod atomining tuzilishi, uglerod atomining valentligi va oksidlanish darajasi

#### **Organik moddalarning tuzilishi:**

- organik moddalarning sinflanishi
- organik birikmalarning asosiy nomenklaturasi, izomeriya va uning turlari

#### **Organik birikmalarning reaksiyalari:**

- organik kimyodagi kimyoviy reaksiya turlari

#### **Uglevodorodlar:**

- alkanlar, sikloalkanlar
- alkenlar, alkadiyenlar, alkinlar
- aromatik uglevodorodlar

#### **Uglevodorodlarning tabiiy manbalari:**

- tabiiy gaz, neft, toshko'mirni qayta ishlash

#### **Kislorodli organik birikmalar:**

- spirtlar, fenollar

- oddiy efirlar
- aldegid va ketonlar
- karbon kislotalar
- murakkab efirlar va yog‘lar

#### **Uglevodlar:**

- uglevodlar, ularning sinflanishi va ahamiyati
- monosaxaridlar:Fruktoza va glukoza
- disaxaridlar:Saxaroza, maltoza, laktoza
- polisaxaridlar:Kraxmal, selluloza

#### **Azotli organik birikmalar:**

- nitrobirikmalar
- aminlar va amidlar
- aminokislotalar
- oqsillar

#### **Geterosiklik birikmalar:**

- geterosiklik birikmalarning sinflanishi, pirimidin va purin asosli birikmalar
- nuklein kislotalar

#### **Tabiiy va sintetik yuqori molekulali birikmalar:**

- polimerlanish reaksiyasi va mexanizmi
- yuqori molekulali birikmalar sinflanishi
- tibbiyotda qo‘llaniladigan polimer moddalar.

#### **Kimyoning jamiyatda. hayotdagi o‘rni:**

- O‘zbekistonda metallurgiya sanoati
- qishloq xo‘jaligidagi zararkunandalarga qarshi kurash
- xalq xo‘jaligida va tibbiyotda rivojlanishi

#### **O‘quvchilar quyidagi amaliy bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari kerak:**

- kimyo tajriba xonalarida ishlash qoidalarini bilish;
- kimyoviy moddalar bilan ishlashda xavfsizlik qoidalarini bilish;
- oddiy kimyoviy idishlardan, asboblardan foydalanib, qattiq, suyuq moddalarning og‘irligini, hajmini o‘lchash;
- laboratoriya sharoitida tajribalar o‘tkazish uchun murakkab bo‘lmagan kimyoviy asbob-uskunalar va idishlar jamlanmasini tayyorlay olish,
- kimyoviy asboblarning bir-biriga ulanuvchi qismlarini mustaqil tayyorlash;
- sifat va miqdor reaksiyalarini o‘tkazish uchun asboblarni to‘plamini mustaqil yig‘a olish;
- kimyoviy moddalarning suvli va boshqa erituvchilardagi eritmalarini ma’lum bir konsentratsiyada tayyorlay olish;

- suyuqlanish temperaturasi aniqlash usullarini bilish;
- erituvchi va erigan modda haqida to‘liq tasavvurga ega bo‘lish, erigan moddani erituvchidan ajratish usullarini bilish;
- chin eritma, suspenziya, emulsiya, to‘yingan eritmalar farqini batafsil bilish;
- reaksiyon muhitning kislotalilik yoki ishqoriyligini indikatorlar yordamida aniqlash;
- murakkab bo‘lmagan kimyoviy moddalar o‘rtasida kechadigan neytrallanish, o‘rin olish reaksiyalari, cho‘kma tushish, gaz ajralish reaksiyalarini ko‘rsatib berish va sababini tushuntirib berish;
- murakkab bo‘lmagan ba’zi sifat reaksiyalarini ko‘rsatish va izohlab berish;
- laboratoriya mashg‘ulotlarini mustaqil ravishda bajara olish, tegishli xulosalar chiqarish;
- kimyoviy reaksiyalar tezligining tashqi omillarga, ya’ni temperaturaga, reaksiyaga kirishuvchi moddalarning yuzalariga va katalizatorga, moddalar tabiatiga bog‘liqligini tajribada ko‘rsata olish;
- organik moddalar tarkibidagi uglerod, vodorod va xlori aniqlay olish;
- ayrim organik moddalarni tashqi ko‘rinishi, o‘ziga xos hidi, rangi, holatiga qarab farqlay olish;
- to‘yinmagan uglevodorodlarning olinishi va xossalariga bog‘liq tajribalarni ko‘rsata olish;
- ayrim organik moddalarni sintez qilishni bilish;
- karbon kislotalarning olinish usullari va xossalariga oid tajribalarni ko‘rsatish va mohiyatini anglash;
- organik moddalarning aniqlash usullarini bilish va bunga doir masalalarni yechish;
- murakkab efirlarning sintez usullarini bilish;
- termoplastik polimer moddalar bilan tajribalar o‘tkazish va natijalarga ko‘ra xossalarini tushuntirib berish;
- plastmassalarni aniqlashga doir tajribalarni o‘tkaza olish va tushuntirib berish;
- kimyoviy tolalarning kislota va ishqorlar ta’siriga munosabatini amalda ko‘rsatib berish va bu tolalarni aniqlash;
- organik moddalar gidrolizlanish reaksiyalarini ko‘rsatish va gidroliz mexanizmini tushuntira olish;
- laboratoriya va amaliy mashg‘ulotlarni mustaqil o‘tkaza olish, reaksiya mohiyatini, mexanizmini tushunish, kuzatish natijalarini yozish va xulosa chiqarish, reaksiya sababi va natijasining bog‘liqligi qonuniyatlarini anglash, moddalarni sintez qilish jarayonida zaruriy shart-sharoitlarni bilish;

- tegishli mavzularga bag‘ishlangan masalalarni nazariy ta’limda olingan bilimlar, formula va qonuniyatlarni qo‘llagan holda yechish.

### Fan mavzulari bo‘yicha o‘qitish rejasi tarkibi

№		Darslar turi bo‘yicha soatlar taqsimoti (auditoriya yuklamasi)					
		hammasi	jami	nazariy	Amaliy	laboratoriya ishi	*mustaqil ish
<b>I</b>	<b>Umumiy kimyo</b>	<b>33</b>	<b>22</b>	<b>14</b>	<b>4</b>	<b>4</b>	36
1	Atom tuzilishi	6	4	2	2		2
2	Kimyoviy reaksiyalar va kimyoviy bog‘lanish turlari	6	4	2	2		2
3	Dispers sistemalar	3	2	2			1
4	Gidroliz jarayoni va ion almashinish reaksiyalari	6	4	2		2	2
5	Oksidlanish – qaytarilish reaksiyalar turlari	6	4	4			2
6	Kimyoviy reaksiyalar kinetikasi	6	4	2		2	2
<b>II</b>	<b>Organik kimyo</b>	<b>83</b>	<b>58</b>	<b>44</b>	<b>2</b>	<b>12</b>	
7	Organik kimyoning asosiy tushuncha va qonunlari	12	8	6	2		4
8	Organik birikmalar reaksiyalari	3	2	2			1
9	Uglevodorodlar va ularning sinflanishi	18	14	10		4	4
10	Uglevodorodlarning tabiiy manbalari	4	2	2			2
11	Kislorodli organik birikmalar	16	12	8		4	4
12	Uglevodlar	6	4	2		2	2
13	Azotli organik birikmalar	6	4	4			2
14	Oqsillarning turlari va xossalari	6	4	2		2	2
15	Geterosiklik birikmalar	3	2	2			1
16	Nuklein kislotalar	3	2	2			1
17	Yuqori molekulyar birikmalar. Polimerlar	3	2	2			1

18	O'zbekistonda kimyo fani va kimyo sanoatining rivojlanishi	3	2	2			1
	<b>Jami soatlar</b>	<b>116</b>	80	<b>58</b>	<b>6</b>	<b>16</b>	36

## 2. Dasturning mazmuni

*I* Atom tuzilishi. Atom yadrosining tuzilishi va tarkibi. Izotop, izobar, izoton va izoelektron elementlar.

s-, p-, d- va f- elementlarning kimyo elementlar Davriy jadvaldagi o'ri va xossalari. Kvant sonlari, Pauli prinsipi, Gund qoidasi. Tabiiy va sun'iy yadro reaksiyalar haqida tushunchalar va yangi kimyoviy elementlar olinish usullari.

Ko'rsatiladigan namoyishli tajribalar:

Moddalarning ion, atom va molekulyar holati, o'xshashlik va farqini namoyish etish.

Jihozlar va o'quv ko'rgazmali qurollar:

KEX. Elektr toki bilan bo'ladigan reaksiyalar uchun asbob, indikator qog'oz. Moddalarning kristall panjaralar to'plami. Mavzularga oid plakatlar va slaydlar to'plami.

### II. Kimyoviy reaksiyalar va kimyoviy bog'lanish turlari

Kimyoviy reaksiyalarning borishiga tashqi omillarning ta'siri. Anorganik va organik birkmalardagi kimyoviy bog'lanishlar turlari va moddalar tabiatiga ta'siri. Metall, ionli, va vodorod bog'lanishlar

Ko'rsatiladigan namoyishli tajribalar:

Moddalarning ion, atom va molekulyar holati, o'xshashligi va farqini namoyish etish. Kimyoviy moddalarning tarkibini aniqlash.

Jihozlar va o'quv ko'rgazmali qurollar:

KEX. Elektr toki bilan bo'ladigan reaksiyalar uchun asbob, indikator qog'oz. Moddalarning kristall panjaralar to'plami. Moddalar atomlarining shar sterjenli modellari. Mavzularga oid plakatlar va slaydlar to'plami.

### III. Dispers sistemalar

Dag'al dispers sistema. Kolloid sistemalar haqida ma'lumotlar. Chin eritmalar. Eritmalar. Molyar, normal va foiz konsentratsiyalarning bog'liqligi formulalar asosida tushuntirish.

Ko'rsatiladigan namoyishli tajribalar:

Ma'lum molyar konsentratsiyali eritmalar tayyorlash. To'yingan eritmalar tayyorlash.

Jihozlar va o'quv ko'rgazmali qurollar:

O'qituvchi uchun namoyishli tajribalar o'tkazishiga mo'ljallangan idish va anjomlar to'plami, kimyoviy reaktivlar uchun temir shkaf, kimyoviy idishlarni quritish uchun doska, termometr, shishaga yozish uchun qalam,

areometr silindri, elektron tarozi, KEX. O'qituvchi uchun laboratoriya tajribalari o'tkazish shisha asboblari va anjomlar to'plamlari. Elektr toki bilan bo'ladigan reaksiyalar uchun asbob. Mavzularga oid plakatlar va slaydlar to'plami.

#### **IV. Gidroliz jarayoni va ion almashinish reaksiyalari**

Kation va anion bo'yicha sodir bo'ladigan gidroliz. Kam eruvchi, gazsimon va kam dissotsiatsiyalanadigan moddalar hosil bo'lishi bilan boradigan reaksiyalar. Ion almashinish reaksiyasining molekulyar, ionli va qisqartirilgan ionli tenglamalarini yozish.

Ko'rsatiladigan namoyishli tajribalar:

Suvda erimaydigan asoslarning olinishi. Gaz ajralishi, kam dissotsiatsiyalanuvchi moddalar hosil qilish bilan boradigan tajribalar o'tkazish. Ion almashinishini namoyish etish.

Jihozlar va o'quv ko'rgazmali qurollar:

Polipropilendan tayyorlangan kimyoviy idishlar to'plami. KEX. Elektron tarozi, indikatorlar to'plami. O'qituvchi uchun laboratoriya tajribalarini o'tkazishga mo'ljallangan shisha asboblari va anjomlar to'plamlari. Kimyoviy reaktivlar to'plami, reaktivlar uchun temir shkaf, kimyoviy idishlarni quritish uchun doska, termometr, shishaga yozish uchun qalam, mikroanalizlar uchun idish va anjomlar to'plami, ion almashinish reaksiyalarini namoyishi uchun kerakli asboblari. O'quvchilar laboratoriya tajribalarini o'tkazishlari uchun shisha asboblari va anjomlar to'plami. Mavzularga oid plakatlar va slaydlar to'plami.

#### **V. Oksidlanish –qaytarilish reaksiyasi turlari**

Oksidlovchi va qaytaruvchilar. Oksidlanish – qaytarilish reaksiyasi tenglamalarini tuzishda, ion-elektron va elektron balans usullaridan foydalanish. Molekulalararo, ichki molekulyar, disproporsiya va sinproporsiya reaksiyalari. Noorganik va organik birikmalardagi elementlarning valentligini va oksidlanish darajasini aniqlash. Elektroliz.

Ko'rsatiladigan namoyishli tajribalar:

1. Oksidlanish –qaytarilish reaksiyasiga oid tajribalar. 2. Elektroliz jarayoniga oid tajribalar.

Jihozlar va o'quv ko'rgazmali qurollar:

KEX. Elektr toki bilan bo'ladigan reaksiyalar uchun asbob, indikator qog'ozi. Magnitli aralashtirgich. O'qituvchi va o'quvchilar uchun laboratoriya tajribalari o'tkazish uchun shisha asboblari va anjomlar to'plamlari. Mavzularga oid plakatlar va slaydlar to'plami.



## **VI. Kimyoviy reaksiya kinetikasi**

Endotermik, ekzotermik, qaytar va qaytmas reaksiyalar haqida tushuncha. Gess qonuni. Kimyoviy reaksiyalar tezligining konsentrasiyaga bogʻliqligi. Kimyoviy reaksiya tezligiga temperatura taʼsiri, Vant-Goff qoidasi. Kimyoviy muvozanat va uning siljishi. Le-Shatelye prinsipi.

Koʻrsatiladigan namoyishli tajribalar:

1. Kimyoviy reaksiya tezligiga temperaturaning taʼsiri.
2. Kimyoviy reaksiya tezligiga modda tabiatining taʼsiri.
3. Kimyoviy reaksiya tezligiga moddalar konsentratsiyasining bogʻliqligi.
4. Kimyoviy reaksiya tezligiga katalizatorlar taʼsiri.
5. Endotermik va ekzotermik reaksiyaga oid tajribalar.

Jihozlar va oʻquv koʻrgazmali qurollar:

KEX. Elektr toki bilan boʻladigan reaksiyalar uchun asbob, indikator qogʻozi. Magnitli aralashtirgich. Oʻqituvchi va oʻquvchilar laboratoriya tajribalarini oʻtkazish uchun shisha asboblari va anjomlar toʻplami. Mavzularga oid plakatlar va slaydlar toʻplami.

## **VII. Organik kimyoning asosiy tushuncha va qonunlari**

Uglerodning birikmalardagi gibridlanish holati. Organik birikmalarning tuzilish nazariyasining tarixiy rivojlanishi. A.M.Butlerovning kimyoviy tuzilish nazariyasi. Organik kimyo fanining tarixiy taraqqiyotidagi eng muhim organik sintezlar. Organik moddalarning sinflanishi. A.M.Butlerovning kimyoviy tuzilish nazariyasidagi asosiy qoidalari. Izomeriya turlari. Tuzilish izomeriyasi, holat izomeriyasi, sinflararo izomeriya. Organik moddalarning nomenklaturasi. Trivial, ratsional va xalqaro nomenklaturada organik moddalarni nomlash.

Koʻrsatiladigan namoyishli tajribalar:

Organik birikmalarning tuzilish, hosil qilish va olish tajribalari.

Jihozlar va oʻquv koʻrgazmali qurollar:

Shar sterjenli moddalar molekulalarini namoyish qilish toʻplami, moddalar molekulalarini namoyish qilish doskasi va toʻplami. Kimyoviy idish va anjomlar toʻplami. Kimyoviy reaktivlar toʻplami. Mavzularga oid plakatlar va slaydlar toʻplami.

## **VIII. Organik birikmalar reaksiyalari**

Organik birikmalarning asosiy kimyoviy reaksiya turlari. Oʻrin olish, almashinish, birikish, ajralish, oksidlanish, yonish va polimerlanish reaksiyalari. Vyurs, Konovalov, V.V.Markovnikov, N.N.Zinin, S.V.Lebedov, M.G.Kucherov reaksiyalari.

Ko'rsatiladigan namoyishli tajribalar:

Organik birikmalarning sifat analizlari.

Jihozlar va o'quv ko'rgazmali qurollar:

Kichik laboratoriya podnoschasi. Shar sterjenli moddalar molekulalarining namoyish qilish to'plami, moddalar molekulalarini namoyish qilish doskasi va to'plami. Kimyoviy idish va anjomlar to'plami. Kimyoviy reaktivlar to'plami. Mavzularga oid plakatlari va slaydlar to'plami.

## **IX. Uglevodorodlar va ularning sinflanishi**

Uglevodorodlarning sinflanishi. Asiklik va siklik uglevodorodlar. To'yingan va to'yinmagan uglevodorodlar. Uglevodorodlardagi kimyoviy bog'lanish turlari va zanjirdagi uglerod atomining valent burchaklari haqida tushuncha. Organik birikmalar tarkibidagi uglerod atomining gibridlanish holati. Ochiq zanjirli to'yingan uglevodorod vakillari. Alkanlarning gomologik qatori. Fizikaviy xossalari va gibridlanish holati. Umumiy formulasi. Izomeriya va nomenklaturasi. Alkanlarning olinishi, Vyurs reaksiyasi, kimyoviy xossasi. O'rin olish reaksiya mexanizmi.

### **To'yinmagan uglevodorodlarning sinflanishi**

Alkenlar va ularning umumiy formulasi,  $\delta$  (sigma) va p (pi) bog'lari, gomologik qatori, izomeriya va nomenklaturasi, cis va trans izomeriya, fizikaviy xossalari. Olinishi va kimyoviy xossasi. Alkenlarning sifat reaksiyasi. Markovnikov qoidasi. Polimerlanish reaksiyasi va polimer birikmalarning vakillari haqida ma'lumot. Ishlatilishi.

### **Alkadiyenlar**

Alkadiyenlar va ularning umumiy formulasi, gomologik qatori. Izomeriya va nomenklaturasi, fizikaviy xossalari. Olinishi va kimyoviy xossasi. Izopren. Sun'iy va tabiiy kauchuk.

### **Alkinlar**

Alkinlar va ularning umumiy formulasi, gomologik qatori. Izomeriya va nomenklaturasi, fizikaviy xossalari. Olinishi va kimyoviy xossasi. Alkinlarning sifat reaksiyasi. Atsetilenidlarning hosil bo'lishi.

### **Arenlar**

Arenlar va ularning umumiy formulasi, gomologik qatori. Izomeriya va nomenklaturasi. Fizikaviy xossalari. Benzol va uning gomologlarining olinishi, kimyoviy xossalari va ishlatilishi. Karbosiklik birikmalar.

Ko'rsatiladigan namoyishli tajribalar:

To'yinmagan uglevodorodlarning olinishi va xossalarini o'rganishga oid tajribalari. "Kauchuk", "Neft va neft mahsulotlari" namoyish kolleksiyasi.

Jihozlar va o'quv ko'rgazmali qurollar:

Shar sterjenli moddalar molekulalarini namoyish qilish to'plami, moddalar molekulalarini namoyish qilish doskasi va to'plami. Kimyoviy idish va anjomlar to'plami. Kimyoviy reaktivlar to'plami. Mavzularga oid plakatlar va slaydlar to'plami. O'qituvchi va o'quvchilar uchun laboratoriya tajribalari o'tkazish shisha asboblari va anjomlar to'plamlari. Mavzularga oid plakatlar va slaydlar to'plami.

### **X. Uglevodorodlarning tabiiy manbalari**

Tabiiy gaz, neftga yo'ldosh gazlar. Tabiiy gazning ishlatilish sohalari. Neft va uning tarkibi. Neftni qayta ishlash. Toshko'mir va ularni qayta ishlash. Krekinglash, katalitik va termik kreking, piroliz. O'zbekistondagi neft va tabiiy gaz manbaalari.

Ko'rsatiladigan namoyishli tajribalar:

To'yinmagan uglevodorodlarning olinishi va xossalarini o'rganishga oid tajribalar. "Kauchuk", "Neft va neft mahsulotlari" namoyish to'plamlari.

Jihozlar va o'quv ko'rgazmali qurollar:

Shar sterjenli moddalar molekulalarini namoyish qilish to'plami, moddalar molekulalarini namoyish qilish doskasi va to'plami. Kimyoviy idish va anjomlar to'plami. Kimyoviy reaktivlar to'plami. Mavzularga oid plakatlar va slaydlar to'plami. O'qituvchi va o'quvchilar uchun laboratoriya tajribalari o'tkazish shisha asboblari va anjomlar to'plamlari. Mavzularga oid plakatlar va slaydlar to'plami.

### **XI. Kislorodli organik birikmalar**

Kislorodli organik birikmalarning sinflanishi. Bir va ko'p atomli spirtlar. Metanolning gomologik qatori va umumiy formulasi. Izomeriya va nomenklaturasi. Fizik – kimyoviy xossalari. Bir atomli spirtlarning ayrim vakillari: yog'och va vino spirti.

Ikki va uch atomli spirtlar – etilenglikol, glitserin. Ularning nomlanishi, fizik xossasi, sifat reaksiyalari. Oddiy efirlar, ularning umumiy formulasi. Izomeriya va nomenklaturasi. Fizik – kimyoviy xossalari. Sinflararo izomerlari. Olinishi va ishlatilishi. Polikondensatsiyalanish reaksiyasi.

Fenol va uning gomologik qatori, fizik xossasi. Izomeriya va nomenklaturasi. Olinishi va kimyoviy xossalari. Fenollarning sifat reaksiyasi. Fenolning ishlatilishi. Ikki va uch atomli fenollar, ularning nomlanishi va izomeriyasi.

### **Aldegidlar va ketonlar**

Aldegidlar, umumiy formulasi, gomologik qatori, izomeriya va nomenklaturasi. Aldegidlarning kimyoviy xossalari va olinishi. Formaldegid, atsetaldegid va fenolformaldegid. Ketonlar, ularning umumiy

formulasi, izomeriya va nomenklaturasi. Atsetonning olinishi va kimyoviy xossalari. Aldegid va ketonlarning farqi va izomerlari.

### **Bir va ko‘p atomli karbon kislotalar**

**Bir va ko‘p atomli karbon kislotalar. Ularning izomeriyasi va nomenklaturasi. Bir atomli karbon kislotalarning umumiy formulasi, gomologik qatori, fizik xossalari. Olinishi va kimyoviy xossalari.**

#### **Karbon kislotalarning ishlatilishi.**

##### **Murakkab efirlar.**

Murakkab efirlarning olinishi va gidroliz reaksiyalari. Izomeriya va nomenklaturasi. Yog‘lar va ularning turlari: suyuq va qattiq yog‘lar. Ularning olinishi va gidrolizi. Sovunlar va yuvish vositalari.

Ko‘rsatiladigan namoyishli tajribalar:

1. Galoidalkanlarning olinishi.
2. Spirtlarni oksidlab aldegidlar olish.
3. Fenollarning sifat reaksiyalari.
4. Murakkab efirlarning olinishi.

Jihozlar va o‘quv ko‘rgazmali qurollar:

Shar sterjenli moddalar molekularini namoyish qilish to‘plami, moddalar molekularini namoyish qilish doskasi va to‘plami. Kimyoviy idish va anjomlar to‘plami. Kimyoviy reaktivlar to‘plami. Moddalar sintezi uchun qurilmalar. Mavzularga oid plakatlar va slaydlar to‘plami. O‘qituvchi va o‘quvchilar uchun laboratoriya tajribalari o‘tkazish shisha asboblari va anjomlar to‘plamlari. Mavzularga oid plakatlar va slaydlar to‘plami.

## **XII. Uglevodlar**

**Uglevodlar, ularning sinflanishi va ahamiyati. Monosaxaridlar- fruktoza va glukoza. Disaxaridlar- saxaroza, maltoza, laktoza.**

**Polisaxaridlar- kraxmal, selluloza.**

Ko‘rsatiladigan namoyishli tajribalar:

Mono-, di- va polisaxaridlarning fizikaviy va kimyoviy xossalari, suvda eruvchanligi, o‘xshashligi va farqini ko‘rsatuvchi tajribalar o‘tkazish.

Jihozlar va o‘quv ko‘rgazmali qurollar:

O‘qituvchi va o‘quvchilar uchun laboratoriya tajribalari o‘tkazish shisha asboblari va anjomlar to‘plamlari. Mavzularga oid plakatlar va slaydlar to‘plami. Shar sterjenli moddalar molekularining namoyish qilish to‘plami, moddalar molekularini namoyish qilish doskasi va to‘plami. Kimyoviy idish va anjomlar to‘plami. Kimyoviy reaktivlar to‘plami. Mavzularga oid plakatlar va slaydlar to‘plami.

### **XIII. Azotli organik birikmalar**

Azotli organik birikmalar. Nitrobirikmalarning ayrim vakillari va xossalari.

Konovalov reaksiyasi, nitrolash. Trinitrotoluol va trinitroglitserin olinishi. Aminlarning sinflanishi, alifatik va aromatik aminlar, fizik-kimyoviy xossalari. Goffman reaksiyasi. Birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi aminlar. Aromatik aminlar va kislota amidlari. Anilinning tuzilishi. Olinishi va ishlatilishi.

$\alpha$ -aminokislotalar. Izomeriya va nomenklaturasi, fizik- kimyoviy xossalari. Olinishi va bipolyar ko‘rinishi. Peptid bog‘lar. Keng tarqalgan  $\alpha$ -aminokislotalar vakillari. Polimerlanish reaksiyasi.

### **XIV. Oqsillarning turlari va xossalari**

**Oqsillarning birlamchi, ikkilamchi, uchlamchi va to‘rtlamchi tuzilishi. Oqsillarning sintezi. Denaturatsiya. Oqsillarning fizik-kimyoviy xossasi.**

**Oqsillarning amfoterligi. Oddiy va murakkab oqsillar haqida tushuncha. Protein va proteidlari. Oqsillarning sifat reaksiyalari.**

**Oqsillar turlari va asosiy vazifalari.**

Ko‘rsatiladigan namoyishli tajribalar:

Aminokislotalarning amfoter xossalari. Oqsillarni aniqlashga oid tajribalar. Oqsillarning denaturatsiyasi.

Jihozlar va o‘quv ko‘rgazmali qurollar:

KEX. Shar sterjenli moddalar molekulalarining namoyish qilish to‘plami, moddalar molekulalarini namoyish qilish doskasi va to‘plami. Kimyoviy idish va anjomlar to‘plami. Kimyoviy reaktivlar to‘plami. Mavzularga oid plakatlar va slaydlar to‘plami. O‘qituvchi va o‘quvchilar uchun laboratoriya tajribalari o‘tkazish shisha asboblari va anjomlar to‘plamlari. Mavzularga oid plakatlar va slaydlar to‘plami.

### **XV. Geterosiklik birikmalar**

Geterosiklik birikmalarning sinflanishi: pirrol, furan, tiofen, piridin (azotli, kislородli, oltingugurtli geterohalqali birikmalar) haqida tushunchalar.

Tarkibida bir va undan ortiq azot geteroatomlari bo‘lgan geterosiklik birikmalar. Pirimidin, purin qatori geterosiklik birikmalar. Adenin, guanin, timin, uratsil va sitozin haqida tushunchalar.

## **XVI. Nuklein kislotalar**

Nuklein kislotalarning tuzilishi. DNK molekulasining tuzilishi. Vodorod bog'larining hosil bo'lishi. Replikatsiya xossasi. Ribonuklein kislotalarning tuzilishi (RNK). RNKning biologik va kimyoviy xususiyatlari. Nuklein kislotalarning gidrolizi

## **XVII. Tabiiy va sintetik yuqori molekulali birikmalar**

Polimerlanish reaksiyasi va mexanizmi. Yuqori molekulali birikmalar sinflanishi. Tibbiyotda qo'llaniladigan polimer moddalar. Tabiiy va sintetik tolalar.

## **XVIII. Kimyoning jamiyat hayotida o'rni**

O'zbekistonda metallurgiya sanoati, qishloq xo'jaligidagi zararkunandalarga qarshi kurash, xalq xo'jaligida va tibbiyotda kimyo fanining rivojlanishi.

### **3. Tavsiya etiladigan amaliy mashg'ulotlar va laboratoriya ishlari**

#### **Amaliy ishlar:**

1. Kimyo tajribaxonalarda ishlash qoidalari. Kimyoviy idishlar va asbob-uskunalar bilan tanishtirish. Kimyoviy moddalar bilan ishlashda xavfsizlik qoidalari.
2. Kimyoviy elementlarning atom tuzilishi elektron konfiguratsiyasi.
3. Uglevodorodlarning izomeriyasi va nomenklaturasi.

#### **Laboratoriya ishlari:**

1. Ion almashinish reaksiyalari.
2. a) kimyoviy moddalar gidrolizi;  
b) kimyoviy reaksiya tezligi va kimyoviy muvozanatni o'rganish.
3. Organik moddalar sifat analizi.
4. a) etilenning olinishi va kimyoviy xossalarini o'rganish;  
b) asetilenning olinishi va kimyoviy xossalarini o'rganish.
5. a) glitserinning kimyoviy xossasini o'rganish (mis glitserinatlarining olinishi);  
b) etil spirtni kaliy dixromat bilan oksidlash.
6. Karbon kislotalarning kimyoviy xossalarini o'rganish.
7. Quruq mevdan qand moddalarni ajratish va kimyoviy xossasini o'rganish.
8. Oqsillarning sifat reaksiyalari.

## **Fanni o‘qitishda yangi pedagogik texnologiyalarning qo‘llanilishi**

Fanni o‘rganishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash, turli amaliy mashg‘ulotlarni mustaqil bajarish, referatlar yozish, testlar, o‘quv – Texnik vositalar, kompyuter elektron versiyalarni qo‘llash, ayrim zararli reaksiyalarni o‘tkazishda ularni kompyuterda yoki videotasmalar yordamida ko‘rsatish nazarda tutiladi.

### **Texnik o‘quv vositalari**

1. Ko‘rgazmali qurollar: jadvallar, slaydlar, CD- disklar
2. Organik birikmalarning tuzilishi – 12 ta plakat
3. Kompyuter tizimi. Multimediya proektor, ekran. Kodoskop
4. Taqdimot dars diskleri
5. Videotasmalar
6. Elektron davriy jadval
7. Elektron eruvchanlik jadvali
8. Kichik laboratoriya anjomlar plastik tagligi

## **4. O‘quv yuklamalarining hajmi**

Ushbu fan o‘quv dasturi 80 soatga mo‘ljallangan, jumladan, ma’ruzalar uchun 58 soat, amaliy mashg‘ulotlar uchun 6 soat va laboratoriya ishi uchun 16 soat ajratilgan. Joriy, oraliq nazorat turlarini o‘tkazishda o‘quvchilarning mustaqil ishlashiga keng imkoniyat beriladi. Laboratoriya ishlari kasb-hunar kollejlari yo‘nalishi boyicha ma’lum darajada o‘zgartirilishi mumkin.

## **6. Bilimni nazorat qilish turlari**

1-yarim yillikda 2 ta oraliq baholash va 1 ta yakuniy baholash nazorati,

2-yarim yillikda ham 2 ta oraliq va 1 ta yakuniy nazorat turlarini o‘tkazish tavsiya qilinadi. Joriy nazorat turlarini tanlash va ballarni belgilash o‘qituvchi ixtiyoriga beriladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Abdulxayeva M.M., Mardonov M.M. Kimyo. – T.: “O‘zbekiston”. 2011.
2. Toshev I.A., Ro‘ziyev R.R., Ismoilov I.I. Anorganik kimyo. – T.: 2003
3. Masharipov S., Tirkashev I. Kimyo. – T.: 2012
4. Xomchenko G.P., Xomchenko I.G. Kimyo. – T.: 2010
5. Toshev I.A., Ro‘ziyev R.R., Ismoilov I.I. Organik kimyo. – T.: 2004
6. Abdusamatov A., Mirzayev R. Organik kimyo. – T.: 2003
7. Muftaxov A.G., Omonov H.T. Umumiy kimyo. – T.: 2002
8. Gabrielyan O.S., Lisova G.G. Ximiya. – Drofa. 2012 (10 sinf)

9. Gabrielyan O.S., Lisova G.G. Ximiya. –Drofa. 2012 (11 sinf)
10. Gusev. L.S., Surovseva R.P. Ximiya. –Drofa. 2012 (10 sinf)
11. Gusev L.S., Surovseva R.P. Ximiya. –Drofa. 2012 (11 sinf)
12. Xomchenko G.P., Xomchenko I.G. Ximiya. – M.: 2012.

**Qo‘shimcha adabiyotlar:**

1. Toshev I.A., Ro‘ziyev R.R., Ismoilov I.I. Anorganik kimyodan mashq va masalalar to‘plami. – T.: 2003.
2. Koreyaning zamonaviy asbob-usknalaridan uslubiy qo‘llanma. – T.: 2005.
3. Toshev I.A., Ro‘ziyev R.R., Ismoilov I.I. Anorganik kimyodan laboratoriya mashg‘ulotlari. – T.: 2003.
4. DTMning testlar to‘plami. (2001-2014).



## **B I O L O G I Y A**

### **Tuzuvchilar:**

A.T. G‘ofurov – Nizomiy nomidagi TDPU, biologiya fanlari doktori, professor.

J.O.Tolipova – Nizomiy nomidagi TDPU, pedagogika fanlari doktori.

D.R.Inogamova – P.F.Borovskiy nomli tibbiyot kolleji o‘qituvchisi, pedagogika fanlar nomzodi.

M.A.Aslanova – O‘zMU qoshidagi S. H.Sirojiddinov nomidagi akademik litseyi bosh o‘qituvchisi.

### **Dasturni optimallashtirishda ishtirok etgan ishchi guruhi a‘zolari:**

M.Umaraliyeva – TFI qoshidagi akademik litseyi bosh o‘qituvchi.

R.Inamova – Axborot-metodik ta‘minlash xizmati yetakchi metodisti

### **Taqrizchilar:**

S.S .Fayzullaev – Nizomiy nomidagi TDPU, biologiya fanlari nomzodi, dotsent.

O.E.Eshonqulov – TPTI qoshidagi akademik litsey direktori, biologiya fanlari doktori, professor.

## Kirish

Biologiya – tirik organizmlarning kelib chiqishi, turli-tumanligi, tuzilishi, rivojlanishi ularda sodir bo‘ladigan hayotiy jarayonlar, tashqi muhit bilan aloqasi, moslashishi haqidagi fandır. Biologiya o‘quv fani umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 5-sinfidan boshlanadi va O‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi muassasalarida umumta‘lim o‘quv fani sifatida uzviy davom etadi.

Akademik litsey, kasb-hunar kollejlari o‘qitiladigan biologiya, ayniqsa, 9–sinfda o‘qitiladigan biologiya o‘quv fani bilan mantiqan bog‘langan bo‘lib, yagona o‘quv kursini tashkil etadi. Mazkur sinfda o‘quvchilarga organik olamning turli-tumanligi, sitologiya asoslari, hujayra va organizmlarda kehadigan hayotiy jarayonlar, ko‘payish, individual rivojlanish, irsiyat va o‘zgaruvchanlik, o‘simliklar, hayvonlar, mikroorganizmlar seleksiyasi haqida bilim berilsa, akademik litsey, kasb-hunar kollejlari o‘quv dasturiga genetik injeneriya va biotexnologiya evolyutsion ta‘limot, evolyutsiya dalillari, hayotning kelib chiqishi, rivojlanishi, odamning paydo bo‘lishi, ekologiya asoslari, biosfera va uning evolyutsiyasiga oid o‘quv materiallar kiritilgan. Qayd qilinganlarning hammasi o‘quvchilar ongida hayotning yer yuzida paydo bo‘lishi, rivojlanishi, organik olamning tuzilish darajalari, ularning muhit bilan aloqasi, organizmlarning moslanishi, biologik sistemalarning bir butunligi, o‘z-o‘zini boshqarishi, organ tuzilishi bilan boshqaradigan funksiyasining o‘zaro bog‘liqligi, nazariya bilan amaliyotning bir-biri bilan munosabati haqida ilmiy tushunchalarni shakllantirishga imkon beradi.

Umumiy o‘rta ta‘lim maktablari biologiya ta‘limida o‘rganilgan o‘quv materiallarining akademik litsey va kasb - hunar kollejlari biologiya ta‘limida takrorlanmasligi, o‘quvchilarning yosh psixologik xususiyatlari, umumiy o‘rta ta‘lim tayyorgarligiga mos kelishi hamda biologik tushunchalarni asta - sekin oddiydan murakkabga shakllantirish e‘tiborga olingan.

Biologiya ta‘limi o‘quv dasturi asosida fan o‘qituvchisi yillik taqvim-mavzuviy reja ishlab chiqadi va ta‘lim muassasasining o‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari tomonidan tasdiqlanadi. Taqvim - mavzuviy reja tuzishda namoyishli tajriba va laboratoriya ishlarining o‘tkazilishi, oraliq va yakuniy nazorat ishlarining to‘g‘ri taqsimlanishi, nazariy bilim berish va amaliy mashg‘ulotlarning ketma - ketligiga e‘tibor qaratish lozim.

Umumiy o‘rta ta‘lim maktablaridan farqli ravishda akademik litsey, kasb-hunar kollejlari o‘quvchilarning mustaqil bilim olishi, mantiqiy tafakkurini rivojlantirish o‘qituvchining diqqat markazida bo‘lishi kerak. Shu maqsadlarni ko‘zlab pedagogik jarayonda ma‘ruza, seminar munozara,

konferenstiya, muammoli hamda boshqa noan'anaviy darslardan, o'qitishni faollashtiruvchi metodlardan keng foydalanishi lozim.

Shu bilan bir qatorda mavzular mazmuni bilan aloqador turli manbalar ustida mustaqil ishlash, internet ma'lumotlaridan tabiiy obyektlardan keng foydalanish, ular ustida kuzatish, tajribalar olib borish, laboratoriya, amaliy mashg'ulotlar, ekskursiyalar o'tkazishga ham alohida ahamiyat berish zarur.

Akademik litsey, kasb-hunar kollejlarida biologiyani o'qitish yagona o'quv dasturi asosida tashkil etilsa ham u ikki yo'nalishda amalga oshiriladi.

Akademik litseylarda o'quvchilarni oliy o'quv yurtlariga tayyorlash bosh maqsad bo'lgani sababli, ularning biologiya fani asoslarini o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini oshirish uchun shu fanning turli sohalarida ishlaydigan ilmiy xodimlar bilan uchrashuvlarni tashkil etish, ayrim mavzularni o'tishga ularni jalb etish, ilmiy tadqiqot institutlari, stansiyalarga ekskursiyalar uyushtirish yoshlarni kelgusida qanday soha bo'yicha kasb egasi bo'lib yetishishlarida muhim ahamiyat kasb etadi.

Kasb-hunar kollejlarida esa biologiyani o'qitishni amaliy, ayniqsa, qishloq xo'jalik, tibbiyot, o'rmonchilik, baliqchilik, oziq-ovqat hamda xalq xo'jaligining boshqa sohalarida, tabiatni muhofaza qilish ishlari bilan bog'liq holda amalga oshiriladi. Shu maqsadlarni ko'zlab shifoxonalar, jamoa, fermer, o'rmonchilik, baliqchilik, parrandachilik xo'jaliklariga ekskursiyalar o'tkazish, tabiatni muhofaza qilish ishlariga o'quvchilarni jalb etish diqqatga sazovor.

Yuqoridagilardan tashqari o'quvchilarning qobiliyatlari, qiziqishlarini hisobga olgan holda ular bilan individual ishlash sinfdan tashqari mashg'ulotlar olib borish, adabiyotlar tavsiya etish, kechalar o'tkazishni rejalashtirish lozim.

### Fan mavzulari bo'yicha o'qitish rejasi tarkibi

№		Darslar turi bo'yicha soatlar taqsimoti (auditoriya yuklamasi)					
		Hammasi	Jami	Nazariy	Laboratoriya ishi	Seminar (ekskursiya)	Mustaqil ish
1	Kirish	2	2	2	-	-	-
2	Biologik nazariyalar va qonunlar	12	8	8	-	-	4
3	Genetik injeneriya va	15	10	10	-	-	5

	biotexnologiya						
4	Evolyutsion ta'limot	24	18	12	6		6
5	Organik olamning evolyutsion dalillari	11	6	6	-	-	5
6	Organik olamning paydo bo'lishi va rivojlanishi	12	8	6	2	-	4
7	Odamning paydo bo'lishi	6	4	4	-	-	2
8	Ekologiya asoslari	22	16	14	-	2	6
9	Biosfera va uning evolyutsiyasi	12	8	8	-	-	4
		<b>116</b>	<b>80</b>	<b>70</b>	<b>10</b>		<b>36</b>

### **Kirish**

Biologiya - tirik organizmlar haqidagi fan. Tiriklikning tuzilish darajalari.

Biologiyaning istiqbolli tarmoqlari. Tirik organizmlarni o'rganish metodlari: kuzatish, taqqoslash, tajriba, modellashtirish. Hayot va tiriklikning mohiyati.

Biologiya fanining muammolari. Biologiya fanining qishloq xo'jalik, tibbiyot, sanoat, o'rmonchilik, baliqchilik, tabiatni muhofaza qilishdagi ahamiyati.

### **Biologik nazariyalar va qonunlar**

Hujayraning tuzilishi va kimyoviy tarkibi. Hujayra nazariyasi. Tirik organizmlarning ko'payishi: jinsiz va jinsiy ko'payish. Jinsiz ko'payish. Bir va ko'p hujayrali organizmlarning jinsiz ko'payishi. Jinsiy ko'payish. Jinsiy ko'payish usullari. Gulli o'simliklarda jinsiy ko'payish. Hayvonlar jinsiy hujayralarining rivojlanishi. Gametogenez. Gametogenez jarayoni bosqichlari.

Irsiyat qonunlari va nazariyalari. Asosiy genetik tushunchalar va qonuniyatlar. G.Mendel qonunlari. Irsiyatning xromosoma nazariyasi. Genlarning o'zaro va ko'p tomonlama ta'siri. Belgilarning to'liq va to'liqsiz birikkan holda irsiylanishi haqidagi asosiy tushunchalarni umumlashtirish. Modifikator genlarning ta'siri. Genetikadan masalalar yechish.

O'zgaruvchanlik va uning xillari: fenotipik va genotipik o'zgaruvchanlik. Fenotipik o'zgaruvchanlik turlari: ontogenetik va modifikatsion o'zgaruvchanlik. Genotipik o'zgaruvchanlik turlari: kombinativ, rekombinativ, mutatsion o'zgaruvchanlik. Mutatsion nazariya va mutatsiya xillari: gen, xromosoma, genom mutatsiyalari. Mutatsiyalarning seleksiyadagi ahamiyati.

**Jihozlar va o'quv ko'rgazmali qurollar:** DNK modeli, o'quv laboratoriya mikroskopi. Hujayra tuzilishi to'g'risidagi plakatlar. Biologiya o'qituvchisining laboratoriya asbob-anjomlari to'plami. Genetikadan magnitli applikatsiyalar to'plamlari, DNK molekulasi bo'linish modeli. Genetikaga oid rasmlar, sxemalar, «Umumbiologik qonuniyatlar» bobiga tegishli plakatlar va proyeksiya ko'rgazmali-metodik qo'llanmalar.

### **Genetik injeneriya va biotexnologiya.**

Genetik injeneriya haqida tushuncha. Gen injeneriyasi fanining maqsadi. Genetik injeneriyaning tadqiqot obyektlari: bakteriyalar, viruslar, bakteriofaglar, tuban zamburug'lar, hujayralar.

Irsiyatning moddiy asoslarini o'rganish tarixi. Hujayra irsiyatini o'zgarishiga olib keladigan transformatsiya, transduksiya jarayonlari. Shtammlar, klonlar.

Ko'chib yuruvchi genetik elementlar–transpozonlar, plazmidalar, restriksion endonukleazalar. Rekombinativ DNK olish. Genlarni klonlash. Hujayra va gen injeneriyasiga asoslanib o'simlik irsiyatini o'zgartirish. Hayvonlar irsiyatini hujayra injeneriyasi yo'li bilan o'zgartirish. Gibridomalar olish.

Biotexnologiya haqida tushuncha. Gen va hujayra injeneriyasiga asoslangan biotexnologiya. O'zbekistonda genetik injeneriya va biotexnologiya sohasida qilinayotgan tadqiqotlar va olingan natijalar. Biotexnologiyaning kelajagi haqida.

**Jihozlar va o'quv ko'rgazmali qurollar:** DNK modeli, Hujayra tuzilishi, biotexnologiya mavzulariga oid plakatlar, sxemalar va jadvallar. Transformatsiya, transduksiya, episomalarga oid rasmlar. Biotexnologiya va genetik injeneriya» bobiga oid proyeksiya ko'rgazmali metodik-qo'llanmalar.

### **Evolyutsion ta'limot.**

Qadimgi Rim, Yunoniston faylasuflarining, o'rta asrlarda Markaziy Osiyo tabiyotshunos olim va mutafakkirlarining tabiat haqidagi fikrlari. Darvingacha bo'lgan davrda tabiat haqidagi tasavvurlarning paydo bo'lishi, O'rta asrlarda Markaziy Osiyoda tabiyotshunos olim va mutafakkirlarning tabiat haqidagi fikrlari (Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy va boshqalar). Biologiya fani rivojlanishida uyg'onish davri (Karl Linney), J.B.Lamarkning evolyutsion qarashlari Ch.Darvingacha bo'lgan davrda tabiat fanlarining yutuqlari. Ch.Darvinning tarjimai holi, «Bigl» kemasida dunyo bo'ylab safari. Asosiy asarlari. Ch.Darvinning Evolyutsion nazariyasining qisqacha mazmuni. Madaniy o'simliklar, xonakilashtirilgan hayvonlarning xilma xilligi, kelib chiqishi (g'o'za, qorako'l qo'ylar va h.k).

Sun'iy tanlash, uning shakllari. Tabiiy sharoitda hayvon va o'simliklardagi o'zgaruvchanlik. Organizmlar ko'payishining geometrik progressi. Yashash uchun kurash, uning shakllari. Tabiiy tanlanish, uning shakllari, Divergenstiya va konvergenstiya. Sun'iy va tabiiy tanlanish o'rtasidagi o'xshashlik va farqlar. Hayvonlardagi moslanishlar. Uning xillari: himoya rangi, chalg'ituvchi, ogohlantiruvchi rang, mimikriya. O'simliklardagi moslanishlar: gulli o'simliklarning hasharotlar va shamol orqali changlanishga moslanishlari. Meva va urug'larning shamol, hayvonlar orqali tarqalishiga bo'lgan moslanishlari. Moslanishning nisbiyligi.

Tur tushunchasi. Tur mezonlari. Turning paydo bo'lish yo'llari. Mikroevolyutsiya. Populyatsiya-evolyutsiyaning boshlang'ich birligi. Evolyutsiyaning boshlang'ich materiallari: mutatsion va kombinativ o'zgaruvchanlik. Evolyutsiyaning boshlang'ich omillari: genlar dreyfi, populyatsiya to'liqini, alohidalanish, migratsiya. Evolyutsiyaning sintetik nazariyasi va uning qoidalari.

Umumlashtiruvchi bahs darsi: Ch.Darvin ilmiy biologiyaning asoschisi.

**Jihozlar va o'quv ko'rgazmali qurollar:** O'zgaruvchanlik, sun'iy va tabiiy tanlanish, organizmlarning turli-tumanligi, muhitga moslashganligiga oid jadvallar, mulyajlar, tulumlar (qarg'a, kaptar, quyon), gerbariyalar to'plami, tirik obyektlar, plakatlar va proekstion ko'rgazmali-metodik qo'llanmalar, o'quv filmlar

#### **Laboratoriya ishlari:**

1. Tirik organizmlarda irsiyat va o'zgaruvchanlikni o'rganish.
2. G'oz, pomidor, rediska misolida madaniy o'simlik navlarini yaratishda sun'iy tanlanishning natijasini o'rganish.
3. Turning morfologik mezonini aniqlash.
4. Tirik organizmlarning muhitiga moslashganligini o'rganish.

**Jihozlar va o'quv ko'rgazmali qurollar:** "Qush patlari", "Mollyuskalar chig'anog'i", "Ipak qurti", "Asalari" va boshqa "Hashoratlar" kolleksiylari, gerbariyalar to'plami, qarg'a, kaptar, quyon tulumlari va turli hayvonlarning ho'l preparatlari. Biologiya fani o'qituvchisining namoyishli tajribalar o'tkazish uchun asboblarga to'plami va turli o'lchamli lupalar. Biologiya o'qituvchisining laboratoriya idish-anjomlari to'plami.

#### **Organik olamning evolyutsion dalillari**

Makroevolyutsiya va uni o'rganish metodlari. Evolyutsiyaning isbotlashda embriologiya va solishtirma anatomiya dalillari. Gomologik, analogik, rudiment organlar va atavizm hodisasi. Biogenetik qonun. Ularning evolyutsion ahamiyati. Evolyutsiyaning palentologik va biogeografik fan dalillari. Yer yoshini aniqlash. Eralar, davrlar va ulardagi

hayvon va o'simliklarning o'xshashligi, farqlari. Uning sabablari, ularning yoshini aniqlash (Yer soati). Turli qit'alarining paydo bo'lish tarixi.

**Jihozlar va o'quv ko'rgazmali qurollar:** Umurtqali hayvonlarning embrional rivojlanishi, gomologik, analogik va rudiment organlar, atavizm hodisasi, palentologiya bo'yicha plakat va proeksion ko'rgazmali-metodik qo'llanmalar, zoogeografik hududlarning xaritalari. Umurtqali hayvonlar va o'simliklarning toshga aylangan qoldiqlari, izlari, skelet va boshqa organlar modellari. Organizmlarning ho'l preparatlari, hayvonlarning tulumlari. "Parranda tuxumining tuzilishi" barelef modeli. «Organik olamning evolyutsion dalillari» bobiga oid plakatlar.

### **Organik olamning paydo bo'lishi va rivojlanishi**

Hayot tushunchasi. Yerda hayotning paydo bo'lishi to'g'risidagi nazariyalar. Hayotning paydo bo'lishida kimyoviy evolyutsiya bosqichi. Bu sohada qilingan tajribalar tavsifi. Hayotning biologik evolyutsiyasi. Organik olam evolyutsiyasining asosiy yo'nalishlari: aromorfoz idioadaptatsiya, umumiy degeneratsiya. Biologik progress va biologik regress. Turli era va davrlarda o'simlik va hayvonot olamining murakkablanishi hamda xilma xilligining ortishi. Markaziy Osiyo o'simlik va hayvonlarning tarixiy rivojlanishi.

G'o'za evolyutsiyasi. Odam faoliyatining organik olam rivojlanishiga ko'rsatgan ijobiy va salbiy ta'siri. Tabiat muhofazasi.

**Jihozlar va o'quv ko'rgazmali qurollar:** Yerda hayotning paydo bo'lishi. Evolyutsiyaning turli yo'nalishlari. Organik olamning eralar, davrlar bo'yicha rivojlanishiga oid plakatlar to'plami va proeksion ko'rgazmali metodik qo'llanmalar, o'quv filmlar, «Organik olamning paydo bo'lishi va rivojlanishi» bobiga tegishli rasmlar.

**Laboratoriya ishi:** Sporali o'simliklar, ochiq urug'li va gulli o'simliklar misolida o'simliklarda, hasharotlarning qattiq, parda, to'g'ri qanotli turkumlari misolida aromorfoz, idioadaptatsiyani aniqlash.

**Jihozlar va o'quv-ko'rgazmali qurollar:** Asalari, qishloq xo'jalik zararkunanda hashoratlari kolleksiyasi, kimyoviy moddalar va o'lchov idishlari to'plami, elektron tarozi, ochiq va yopiq urug'li o'simlik gullari modeli. Mavzuga oid plakatlar to'plami va proeksion ko'rgazmali-metodik qo'llanmalar.

### **Odamning paydo bo'lishi.**

Odam va hayvon gavda tuzilishidagi o'xshashlik va farqlar. Rudiment va atavizm belgilari. Antropogenezni harakatlantiruvchi omillar. Odam evolyutsiyasining asosiy yo'nalishlari: boshlang'ich ajdodlari, eng qadimgi

odamlar, qadimgi odamlar, hozirgi zamon qiyofasidagi odamlar. Odamning paydo bo'lishida biologik va ijtimoiy omillarning roli.

Odam irqi, ularning kelib chiqishi va birligi. Irqchilik nazariyasining tanqidi. Odamning kelajakdagi rivojlanish.

**Jihozlar va o'quv-ko'rgazmali qurollar:** Antropogenezning rivojlanish bosqichlarini tasvirlovchi jadvallar, sxemalar va rasmlar, rudiment organlar, atavizm hodisasini tasvirlovchi maketlar va rasmlar. Odam va hayvonlarning suyak qoldiqlari, qadimgi odamlar tomonidan yasalgan toshlar, nayzalar mulyajlari.

### **Ekologiya asoslari.**

Ekologiya fanining vazifalari, boshqa fanlar bilan aloqasi. Ekologiya fanining metodlari. Asosiy ekologik tushunchalar. Muhitning ekologik omillari. Ekologik omillarning organizmga kompleks ta'siri.

Abiotik omillar, iqlim omillari. Harorat, yorug'lik, namlik, atmosfera. Tuproq va topografik omillar. Tabiatdagi mavsumiy o'zgarishlar. Foto periodizm. Bioritmlar.

Biotik omillar. Simbioz, raqobat, yirtqichlik, parazitizm. Turlarni muhofaza qilish. O'zbekiston va dunyo «Qizil kitob»lari.

Ekologik tizimlar. Biogeotsenozlar, ularning tarkibi, funksiyalari, boshqarilishi. Organizmlarning oziq orqali bog'lanishlari. Oziq zanjirlari, trofik darajalar. Ekologik piramida. Sonlar biomassa, energiya piramidasi.

Tabiiy ekosistemalar. Tabiiy ekosistemalardan oqilona foydalanish. Sun'iy ekosistemalar. Agroekosistemalar, shahar ekosistemalari, kosmik ekosistemalar. Sun'iy ekosistemalardan oqilona foydalanish.

Inson ekologiyasi. Antropogen ekosistemalarning inson salomatligiga ta'siri. Odamlarning ekologik differentsiyasi. Adaptiv tiplar. Inson populyastiyalarida demografik o'zgarishlar.

**Jihozlar va o'quv ko'rgazmali qurollar:** Tirik tabiat burchagi, akvarium. O'quv tajriba xo'jaligida organizmlarning bir-biriga, shuningdek, abiotik omillarining o'simlik va hayvonlarga ko'rsatgan ta'siriga, oziq zanjiriga o'simlik va hayvonlarga ko'rsatgan ta'siriga, oziq zanjiriga oid sxemalar, jadvallar, tabiatda organizmlar orasidagi o'zaro aloqalarini ifodalashga oid kollektiyalar, gerbariyalar to'plami, chuchuk suv xavzasi, agroekosistema, tipik biogeotsenozlar modellari applikatsiyalari, o'quv filmlari, lupa, o'quv laboratoriya mikroskopi, «Ekologiya asoslari» bobiga oid plakatlardan va proektsion ko'rgazmali metodik qo'llanmalar.

#### **Ekskursiyalar:**

1. Tabiiy ekosistema bilan tanishish (1 soat).
2. Sun'iy ekosistema bilan tanishish (1 soat).



## **Biosfera va uning evolyutsiyasi**

Biosfera, tushunchalari, chegaralari. Yer qobiqlarida hayotning tarqalishi. Biosfera tarkibi, funktsiyalari. Biosferaning biomassasi: quruqlik yuzasi, tuproq biomassasi, okean biomassasi.

Biosferada moddalar va energiyaning aylanishi. Kimyoviy elementning biogen migratsiyasi. Uglarod, fosfor va azotning davriy aylanishi.

Biosfera evolyutsiyasi. Biogenezning birinchi va ikkinchi bosqichlari. Noogenez. Noosfera.

Ilmiy – Texnik revolyutsiyaning biosfera evolyutsiyasiga ta'siri. Biosfera resurslaridan oqilona foydalanish. Biosferani muhofaza qilish muammolari.

**Jihozlar va o'quv ko'rgazmali qurollar:** Biosfera chegaralari, tabiatda moddalar va energiya aylanishiga oid plakatlar va proeksion ko'rgazmali metodik qo'llanmalar, o'quv filmlari.

## **Bilimlarga qo'yiladigan talablar:**

Biologiya fanining ilmiy- tadqiqot metodlari, muammolari nazariy hamda amaliy ahamiyati. Genetik injeneriya haqida tushuncha, uning tadqiqot obyektlari. Transformatsiya, transduktsiya hodisalari. Ko'chib yuruvchi genetik elementlar. Genetik injeneriya metodlari. Genetik injeneriyaga asoslanib o'simlik irsiyatni o'zgartirish. Biotexnologiya haqida tushuncha. Gen va hujayra injeneriyasiga asoslangan biotexnologiya. Markaziy Osiyo tabiatshunos olimlarining tabiat va undagi voqea hodisalar haqidagi tasavvurlari. Ch.Darvinning organik olamning evolyutsiyasi to'g'risidagi nazariyasining qisqacha mazmuni: irsiy o'zgaruvchanlik, sun'iy tanlash, yashash uchun kurash, tabiiy tanlanish, organizmlarning moslanishi uning xillari. Tur mezonlari, tur, populyatsiya tushunchasi, turlarning tabiatda paydo bo'lishi. Evolyutsion nazariyaning ilmiy dunyoqarashni tarkib toptirishda qishloq xo'jaligi tibbiyot tabiatini muhofaza qilishdagi ahamiyati.

Mikroevolyutsiya. Evolyutsiyaning boshlang'ich birligi materiali, hodisasi, faktorlari. Makroevolyutsiya. Evolyutsiyaning embriologik, solishtirma anatomik, paleontologik biogeografik, bioximik dalillari. Biologik progress va uning shakllari. Aromorfoz, idioadaptatsiya, umumiy degeneratsiya. Biologik regress.

Asosiy ekologik tushunchalar, abiotik va biotik faktorlar, fotoperiodizm, bioritmlar. Populyatsiya va turning ekologik ta'rifi. Biotsenoz: biogeotsenoz, agrotsenozlar. Biosfera, biosferada biomassaning tarqalishi. Moddalar va energiyaning davr aylanishi. Biosfera evolyutsiyasining asosiy bosqichlari kabi bilimlarni bilishlari shart.

### **Malakaga qo‘yiladigan talablar:**

Talabalar sun‘iy va tabiiy tanlanishni taqqoslash, tabiatda o‘simlik va hayvonlardagi moslanishlarni ulardagi mavsumiy o‘zgarishlarni kuzata bilish, ularning sabablarini aniqlay olish, populyatsiyalar, biogeotsenozlar almashish sabablarini aniqlay olish, tabiatni muhofaza qilish, agrotsenozlar mahsuldorligini oshirish, chora-tadbirlarini amalga oshirish, oziqlanish zanjirlari, ekologik piramidalar sxemasini tuza olish, biogeotsenozlarning asosiy komponentlarini aniqlay olish, mustaqil ravishda ilmiy-ommabop adabiyotlar, ma‘lumotlardan foydalana olish, referatlar, axborotlar tayyorlash, ma‘ruzalar qilish ko‘nikma va malakasini egallagan bo‘lishlari kerak.

O‘quvchilarning bilimi va o‘quv ko‘nikma, malakasi reyting usulida baholanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Grin N., Staut. U. Biologiya 1-2-3 jildlar.- Mehnat: “Mir” .1990.
2. Kemp. P. va boshqalar. Введения в биологию -Mehnat: “Mir”. 1988
3. Laptev.G.T. Biologik injeneriya. Mehnat: 1990
4. Nishonboev K., Xamidov J.X., “Tibbiy biologiya va genetika”. – T.: “O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi”.2005.
5. Olimxo‘jaeva P.R., Sharafutdinxo‘jaeva N.Sh. biologiyadan qisqacha ruscha - o‘zbekcha lug‘at. – T.:“Ibn Sino” nashriyoti. 1990.
6. Tolipova J.O., G‘ofurov A.T. Biologiya o‘qitish metodikasi – T.: “O‘qituvchi”. 2004.
7. Tolipova J.O., G‘ofurov A.T. Biologiya ta‘limi texnologiyalari. – T.: “O‘qituvchi”. 2002.
8. Tolipova J.O. Biologiya fanini o‘qitishda pedagogik va axborot texnologiyalar moduli bo‘yicha metodik qo‘llanma. – T.: 2007.
9. O‘zbekiston Respublikasi «Qizil kitobi» 1,2 jildlar – T.: “Fan”. 1983-2006.
10. G‘ofurov A.T., Nishonboev K., Hamidov J., Toshmuhamedov B.. «Biologiya». – T.: «Sharq». 2007-y.
11. G‘ofurov A.T., Fayzullaev. S.S. Evolyutsion ta‘limot. – T.: “O‘qituvchi”. 2009.
12. Tolipova J.O., G‘ofurov A.T. M.Umaralieva “Biologiya darslari” – TDPU. 2015.

## **A m a l i y g e o g r a f i y a**

### **Tuzuvchilar:**

A. Qayumov –	geografiya fanlari doktori, professor
X. Vaxobov –	geografiya fanlari doktori, professor
A. Rafiqov –	geografiya fanlari doktori, professor
Sh. Azimov –	geografiya fanlari nomzodi, dostent
A. Xayitov –	pedagogika fanlari nomzodi, katta o‘qituvchi

### **Dasturni optimallashtirishda ishtirok etgan ishchi guruh a’zolari:**

J. Musayev –	O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini Axborot-metodik ta’minlash xizmati guruh boshlig’i
B. Esonov –	Toshkent davlat texnika universiteti qoshidagi kompyuter texnologiyalari akademik litseyi o‘qituvchisi
J. Nabixonov –	Toshkent pedagogika kollejining geografiya fani o‘qituvchisi
N. Irisova –	Toshkent viloyati Toshkent tumani Ijtimoiy- iqtisodiy kollejining geografiya fani o‘qituvchisi.

### **Taqrizchilar:**

N. Komilova –	O‘zbekiston Milliy universiteti dotsenti
M. Abdullaeva –	Nizomiy nomli TDPUning «Geografiya va uni o‘qitish metodikasi» kafedrasida o‘qituvchisi
S. Hayitboeva –	Toshkent shahar Chilonzor tibbiyot kolleji geografiya fani o‘qituvchisi

## Kirish

Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari o‘quvchilari “Amaliy geografiya” o‘quv kursini o‘rganishlari hamma jihatdan ham maqsadga muvofiq. Chunki o‘rta maktabda tabiiy va iqtisodiy geografiya kurslari to‘liq o‘rganiladi, bu jihatdan ular barcha nazariy bilimlarni oladilar. O‘quvchilar olingan nazariy bilimlar asosida amaliyotga chiqishlari, ya’ni geografiya kursining amaliyot bilan bog‘liqligi, tevarak-atrofdagi sodir bo‘layotgan turli jarayon va hodisalar geografik nuqtai nazardan yondashgan holda ularni yaxshilanish tomonga burish yoki ularni oldini olish hamda asoslash haqida o‘zaro fikr almashish, atrof muhitning ifloslanishi eng elementar texnologiyasini ko‘z oldiga keltira olish, bunda foydalanishning me’yoriy, andozali ko‘rsatkichlarini bilish, “Geosiyosat” va uning nazariy asoslarini, O‘zbekistonning geosiyosiy o‘rni va kelajagini, hozirgi zamon geosiyosiy muammolarini, tabiiy va inson resurslari, ulardan foydalanish va ularni baholash, sanoat va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini texnik-iqtisodiy asoslarini, ularni iqtisodiy geografik nuqtai nazardan baholash usullari va yondashuvlaridan xabardor bo‘lishlari zamon talabiga aylanadi.

Kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarda o‘quvchilar “Amaliy geografiya” kursidan saboq oladilar. Ularda mazkur o‘quv kursi bo‘yicha yaxshi, umrbod esda qoladigan taassurot qolishi uchun ularning keyingi hayotiy amaliyotida zarur bo‘ladigan amaliy bilimlar berish hayot taqozosiga aylanmoqda. O‘quvchi tabiat ulg‘ayishi, yashashi, mehnat qilishi tufayli tabiiy muhitning sir-asrorlari, hodisalari, jarayonlarini tushuna bilishni, uning ishlab chiqarish yoki jamiyat bilan bo‘lgan o‘zaro munosabatlaridagi turli o‘zgarishlar va ularning oqibatlarini to‘g‘ri baholay olishi maqsadga muvofiq. Bu borada ushbu kursdan olgan bilimlari uning shaxsiy hayotida asqotadi. Hozirgi yoshlarning kamolatga etishlarida “Amaliy geografiya” kursining ham hissasi bo‘lishi kerak.

### **O‘quv fanining maqsadi va vazifalari hamda uning ahamiyati**

Amaliy geografiyaning asosiy maqsadi geografik ilmiy va amaliy bilimlarni yanada chuqurroq tahlil qilish, tabiat va jamiyatdagi mavjud hamda vujudga kelayotgan turli tabiiy-geografik ijtimoiy va iqtisodiy-geografik masala va muammolarini hal qilishning konstruktiv negizlarini ilmiy asoslashdan iborat.

Bu maqsadga erishish uchun o‘zaro bog‘liq bo‘lgan quyidagi vazifalarni hal qilish zarur bo‘ladi:

- 1) jamiyat bilan tabiat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni optimallashtirish;
- 2) tabiiy komplekslar va ularni o'rganishning ilmiy va amaliy ahamiyatini tushuntirish;
- 3) tabiiy-geografik jarayon va hodisalarni tadqiq qilishning amaliy ahamiyatini bilish;
- 4) tabiiy sharoit va resurslarni xo'jalik maqsadlarida foydalanish uchun ularni baholash;
- 5) geografik bashoratlash va bashoratning ahamiyatini tushuntirish;
- 6) yirik xo'jalik korxonalarini joylashtirish va amalga oshiriladigan muhandislik loyihalarini ekologik-geografik ekspertizasining ahamiyatini bilish;
- 7) ishlab chiqarishni hududiy tashkil qilish muammolari va aholi joylashuvi masalasi yechimining oqilona yo'llarini tushuntirish;
- 8) geosiyosat va uning nazariy asoslarini bilish;
- 9) O'zbekistonning geosiyosiy o'rni va kelajagini baholay olish;
- 10) hozirgi zamon geosiyosat muammolarini, ularning sabablari va omillarini bilish;
- 11) ishlab chiqarishning texnik-iqtisodiy asoslarini tushunishi;
- 12) tabiiy va inson resurslarini iqtisodiy-geografik nuqtai nazardan baholashni uddalashi lozim.

Amaliy geografiya tabiiy resurslaridan foydalanishni optimallashtirish, bu jarayonda tarkib topishi mumkin bo'lgan hodisalarning oldini olish loyihalarini asoslash, xo'jalik tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida boyliklarni baholash, ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish va taraqqiyoti natijasida vujudga kelishi mumkin bo'lgan muhitdagi o'zgarishlarning bashoratlarini ishlab chiqish, tabiiy muhit-xo'jalik-aholi tizimida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan tabiiy-antropogen jarayonlar va umuman integral geotizim maromini boshqarishdagi ahamiyati katta. Mazkur fan tabiat bilan jamiyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni yaxshilash, ishlab chiqarishni rivojlantirish negizida tarkib topadigan jiddiy muammolar, aholi joylashuvi, mehnat resurslardan optimal foydalanish va shunga o'xshash bir-biri bilan bog'liq ijtimoiy va iqtisodiy-geografik majmualarini ishlanmalarini echishda ustuvorlik qiladi. Amaliy geografiyaning tadqiqot tamoyillari va usullari bilan o'quvchilarning bilimlarini boyitish ularning hayotiy (turmush) va mehnat amaliyotida doimo asqotadi; ularda tabiat muammolari yechimiga nisbatan qiziqish, hozirjavoblik eng muhim tabiat – Texnika-inson tizimidagi faoliyati rivojlanadi.

## **Amaliy geografiya o‘quv fani bo‘yicha bilimlarga, malaka va ko‘nikmalarga qo‘yiladigan talablar**

O‘quvchilar mazkur o‘quv kursini to‘liq va atroflicha o‘zlashtirishlari davlat standartiga tayangan holda ma’lum nazariy va amaliy bilimlarga ega bo‘lishlarini taqozo etadi. Bu borada bilish, uddalay olish va tasavvurga ega bo‘lish yo‘nalishida o‘quvchilarning mavzularni o‘zlashtirganlik darajalari nazorat qilinadi. Shuningdek, mavzularni o‘rganishga tayanch bo‘ladigan bilim va ko‘nikmalar, atama hamda tushunchalarni to‘liq o‘zlashtirishlari kundalik nazoratda bo‘lishi maqsadga muvofiq. Nazoratning usullari bisyor, masalan, test o‘tkazish, yozma ish, oddiy so‘rash, atama va tushunchalarga izoh berish kabi yo‘llar bilan bilimlari va ko‘nikmalarini tekshirish, ma’lum mavzu bo‘yicha erkin referat yozish ham o‘quvchilarning mavzularni o‘zlashtirganlik darajalarini aniqlashga imkon beradi. Bizningcha, bilimlarni o‘zlashtirishda bilish lozim bo‘lgan jihatlari (nazariy va metodologik masalalar), uddalay olish, ya’ni nazariy bilim asosida amaliy vazifani bajarish asosiy mavzudan tashqari unga yaqin bo‘lgan boshqa mavzular mazmunidan tasavvurga ega bo‘lish ham o‘quvchilarning bilimini yuqori bo‘lishiga olib keladi.

### **O‘quv predmetining asosiy bo‘limlari**

Amaliy geografiya o‘quv kursining asosiy bo‘limlari quyidagicha:

- Amaliy geografiya, uning maqsadi va vazifalari, tadqiqot usullari, obyektlari, boshqa fanlar bilan aloqasi.
- Tabiiy-geografik jarayonlar va ularni o‘rganishning ahamiyati.
- Tabiat komplekslari va resurslarini geografik baholash.
- Geografik bashorat.
- Yirik xo‘jalik korxonalarini joylashtirish va boshqa muhim tadbirlarni amalga oshirishning ekologik-geografik ekspertizasi.
- Ishlab chiqarishning texnik-iqtisodiy asoslari.
- Tabiiy va inson resurslarini iqtisodiy-geografik baholash.
- Geosiyosatning nazariy asoslari.
- O‘zbekistonning geosiyosiy o‘rni va kelajagi.
- Hozirgi zamon geosiyosiy muammolari.

### Fan mavzulari bo'yicha o'qitish rejasi tarkibi

№	Mavzular	Nazariy mashg'ulot	Amaliy mashg'ulot	Jami
1	Kirish "Amaliy geografiya" fani haqida tushuncha	2	-	2
2	Amaliy geografik tadqiqotlar	2	-	2
3	Tabiiy geografik jarayonlar	2	-	2
4	Jamiyat va tabiatning o'zaro ta'siri	2	-	2
5	Tabiat komplekslari va ularning o'zgarishi	2	-	2
6	Geografik bashorat	2	-	2
7	Atrof muhit monitoringi	2	-	2
8	Geografik-ekologik ekspertiza asoslari	2	-	2
9	Insoniyatning ekologik muammolari	2	-	2
10	Ekologik muammolar va ularning yechimi	2	-	2
11	Ishlab chiqarishning texnik-iqtisodiy asoslari	2	-	2
12	Soha kompleks dasturlarini amalga oshirishda geografiyaning ahamiyati	2	-	2
13	Iqtisodiy tarmoqlar va ularni joylashtirish qonuniyatlari	-	2	2
14	Tabiiy va inson resurslari, ularni iqtisodiy-geografik baholash	-	2	2
15	Geosiyosatning nazariy asoslari	-	2	2
16	Siyosat va geografiya fani o'rtasidagi aloqadorlik	-	2	2
17	O'zbekistonning geosiyosiy o'rni va kelajagi.	2	-	2
18	O'zbekistonning xalqaro tashkilotlar bilan hamkorligi	2	-	2
19	Hozirgi zamon geosiyosiy muammolari.	2	-	2
20	Davlatlarning o'zaro geosiyosiy munosabatlari	2	-	2
	<b>Jami:</b>	<b>32</b>	<b>8</b>	<b>40</b>

## **Kirish**

Amaliy geografiya fani haqida tushuncha, uning maqsadi va vazifalari. Amaliy geografiyaning tadqiqot usullari (tizimli, landshaft, ekologik, iqtisodiy va h.k.). Amaliy geografiyaning ahamiyati.

### **Amaliy geografik tadqiqotlar**

Agrogeografik tadqiqotlar. Qishloq xo‘jalik erlari. Qishloq xo‘jalik ekinlarini joylashtirish. Madaniy ekinlarni resursga mos ravishda tabaqalashtirilishi. Er kadastri. Tuproq bonitrovkasi. Muhandislik-geografik tadqiqotlar. Sanoat korxonalarini, gidrotexnik inshootlar, yo‘llarni loyihalashda muhandis-geografik tadqiqotlar. Tibbiy geografik tadqiqotlar. Tabiiy sharoitni inson salomatligiga ta’siri. Atrof muhit tarkibidagi og‘ir metallar miqdorini ortib ketishining inson salomatligiga ta’siri.

### **Tabiiy geografik jarayonlar**

Tabiiy geografik jarayonlar haqida tushuncha. Endogen va ekzogen kuchlar. Sun‘iy omillar. Tabiiy omillar ta’sirida sodir bo‘ladigan jarayonlar (nurash, eroziya, sel, surilma, karst, vulqon, zilzila va h.k.). Sun‘iy omillar ta’sirida vujudga keladigan jarayonlar: er yuzasini cho‘kish, surilmalar, sho‘rlanish, suv eroziyasi, shamol eroziyasi, o‘pirilishlar va h.k.

### **Jamiyat va tabiatning o‘zaro ta’siri**

Muhandislik inshootlari. Shaharsozlik, sanoat, transport, gidrotexnik inshootlar. Jamiyat va tabiatni o‘zaro ta’sirining asosiy bosqichlari: termachilik, ovchilik, baliqchilik; ilmiy – Texnik inqilob. Ekologik muvozanat va uning buzilishi.

### **Tabiat komplekslari va ularning o‘zgarishi**

Tabiat komplekslari haqida tushuncha. Landshaftlar va ularning tuzilishi (joy, maydon, fastiya) loyihalash ishlarida landshaft tahlili. Tabiat komplekslarini barqarorligi va ularning ho‘jalik ishlarida hisobga olish. Tabiat komplekslarini inson tomonidan o‘zgartirilishi.

### **Geografik bashorat**

Geografik bashorat haqida tushuncha. Bashorat usullari: landshaft-indikatsiya; o‘xshatish; ekstropolyastiya. Tabiat komponentlarini bashoratli ma’lumotnomali xususiyatlari. Sayyoraviy, mintaqaviy va



mahalliy bashoratlar. O‘zbekiston tabiat komplekslarining o‘zgarishini bashoratlash.

### **Atrof muhit monitoringi**

Monitoring va uning turlari: bioekologik, geokologik, biosferik. O‘zbekistonda atrof muhit monitoringini amalga oshirish. O‘zbekistonda muntazam ravishda amalga oshirilayotgan monitoringli tadqiqotlar.

### **Geografik-ekologik ekspertiza asoslari**

“Ekspertiza” tushunchasi va uning turlari (davlat, ilmiy, jamoatchilik, vazirlik). Ekspertiza uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlar. Ekspert xulosalari. O‘zbekistonda geografik ekologik ekspertiza o‘tkazish.

### **Insoniyatning global muammolari**

Global muammolar tushunchasi. Tinchlik va qurolsizlanish, yangi jahon urushining oldini olish muammosi. Ekologik muammo, ekologik tanazzul. Demografik muammo. Demografik tanazzul. Demografik siyosat. Energetika va xom ashyo muammolari: sabablari va hal qilish yo‘llari. Oziq-ovqat muammosi. Mazkur muammoni echishning ekstensiv va intensiv yo‘llari. Dunyo okeanidan foydalanish muammosi. Dengiz xo‘jaligi. Ozon “tuynugi”, Dunyo okeani suvining sho‘rlanishi.

Global muammolarning o‘zaro aloqadorligi. Rivojlanayotgan davlatlarni qoloqlikdan chiqarish – eng katta umumbashariy muammo. Global ilmiy bashoratlar. Global ilmiy taxminlar (gipotezalar): Issiqxona samarasi, Er yuzi aholisi sonining barqarorlashuvi, Oykumenapolis gipotezalari. Global loyihalar. Jahon XXI asrda.

### **Amaliy mashg‘ulot**

Kon metallurgiya, energetika yoki kimyo sanoati korxonalarining joylashishi bo‘yicha ekologik-geografik ekspertiza o‘tkazish (korxonalar tanlovi ixtiyoriy).

### **Ishlab chiqarishning texnik-iqtisodiy asoslari**

Xilma-xil turdagi mahsulot birligini ishlab chiqarishga sarflangan xom ashyo, yoqilg‘i, energiya materiallar va mehnat harajatlarning har xilligi. Ishlab chiqarishni joylashtirish jarayoniga ta’sir qiluvchi texnik-iqtisodiy omillar; material (xom ashyo)lar, suv, energiya va mehnatga ko‘p talabchanlik. Xom ashyo va tayyor mahsulotlarning nisbatan transportabel ekanligi.

Materiallar(xom ashyo)ni ko‘p iste’mol qiluvchi tarmoqlar. Materiallar(xom ashyo)ga ko‘p talabchanlikni hisoblash va baholash.

O‘zbekistonda materiallar(xom ashyo)ni ko‘p iste‘mol qiluvchi tarmoqlarning rivojlangan holati.

Suvga bo‘lgan talabni baholash. Suvni ko‘p iste‘mol qiluvchi tarmoqlar. Undiruvchi va qayta ishlovchi tarmoqlarda suv sarfi. Dehqonchilikda suv sarfining keskin farqlarga egaligi va uning asosiy sabablari. O‘zbekistonda suvni iste‘mol qiluvchi sanoat va qishloq xo‘jaligi tarmoqlari.

Energiyaga bo‘lgan talabchanlikni tavsiflash. Energiyani ko‘p iste‘mol qiluvchi tarmoqlar. Yoqilg‘idan, elektr energiyadan yoki har ikkisidan ham ko‘p foydalanuvchi tarmoqlar. Sanoatning ayrim tarmoqlarida energiya sarfini mahsulot tannarxidagi ulushi. O‘zbekistonda energiyani ko‘p iste‘mol qiluvchi tarmoqlarning rivojlanganligiga va joylashganligiga xos hususiyatlar.

Mehnatga bo‘lgan talabchanlikni o‘rganish va baholash, mehnatni ko‘p talab qiluvchi sanoat va qishloq xo‘jaligining tarmoqlarini rivojlanishi va joylashishini ifodalovchi qonuniyatlar. Mamlakatlarning rivojlanganlik darajasi bilan mehnatni ko‘p iste‘mol qiluvchi tarmoqlarning tarqalishi o‘rtasida funkstional aloqaning mavjudligi. O‘zbekiston Respublikasida mehnatni ko‘p iste‘mol qiluvchi tarmoqlarning keng tarqalganligi shu holatning asosiy sabablari.

Xom ashyo va tayyor mahsulotning nisbatan transportabelligi. Uni hisoblash va baholash usullari. Xom ashyodan katta va kichik miqdorda tayyor mahsulot olinadigan sanoat va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishning asosiy tarmoqlari. Transportabel tayyor mahsulot turlari. Transportabel bo‘lmagan xom ashyo va tayyor mahsulot turlarini uzoq masofalarga tashish muammosini hal qilish yo‘llari.

Tarmoqlar va ayrim korxonalarni bozor iqtisodiyoti sharoitida hududiy joylashtirish tamoyillari.

### **Tabiiy va inson resurslari, ularni iqtisodiy-geografik baholash**

Geografik baholash usullari (sifat, miqdor). Mineral resurslarni iqtisodiy baholash, ularni ishlab chiqarish(qazib olish)ga ketgan yakuniy va to‘g‘ri harajatlarning farqiga asoslanishi. Differensial renta va tabiiy resurslarning iqtisodiy bahosi. Differensial renta ko‘rsatkichidan tabiiy resurslarni iqtisodiy baholashda foydalanishda hisobga olishi zarur bo‘lgan uch jihatga xos xususiyatlar.

Suv resurslari va ularni iqtisodiy baholash bilan bog‘liq bo‘lgan muammolar. Biologik resurslarni iqtisodiy baholash resurslari. O‘rmon resurslarini miqdoriy va sifat ko‘rsatkichlari bo‘yicha baholash.

Iqlim resurslari va ularni iqtisodiy baholash masalalari. Iqtisodiy baholashni iqlim resurslaridan foydalanish maqsadi bilan aloqadorligi. Rekreatsiya resurslarini iqtisodiy baholash. Turistik renta va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish.

Aholi, mehnatga layoqatli aholi, mehnat resurslari, iqtisodiy faol va nafaol aholi, ishchi kuchi tushunchalarining mazmuni.

Aholini tabiiy va migratsiya harakatini tavsiflash va baholash. Demografik jarayonlarni hisoblash usullari.

Mehnat resurslarini hisoblash metodikasi. Mehnat resurslari balanslari, ularning asosiy elementlari. Iqtisodiy faol aholi soni va ulushini hisoblash. Iqtisodiy nafaol aholi va uning tarkibi. Band aholi, ishsizlar, iqtisodiyotdan ajralgan holda tahsil olayotgan o'quvchilar va boshqa turdagi iqtisodiy faol va nafaol aholini hisoblash metodikasi. O'zbekistonda mehnat resurslari muammosi va uni hal etish yo'llari. Inson resurslarini iqtisodiy baholash usullari va yondashuvlari. Mehnat resurslarining jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati balans va boshqa usullar yordamida baholash.

### **Geosiyosatning nazariy asoslari**

“Geosiyosat” tushunchasining mohiyati va mazmuni. “Geosiyosat” shakllanishi va rivojlanishining manbalari va asosiy bosqichlari.

**Geosiyosat obyekti va predmeti. Geosiyosatning asosiy qonunlari, kategoriyalari. “Geosiyosat” fani metodlari va asosiy vazifalari.**

Geosiyosat klassiklarining asosiy g'oyalari va tamoyillari (F. Ratstel, R. Chellen, X. Makinder, T. Mexen, V. Blansh, N. Spaykmen va boshqalar).

Hozirgi zamon geosiyosat maktablari va nazariyalari (“Atlantizm”, “Bixeviorizm”, “Mondializm”, Rus maktabi va boshqa yondashuvlar).

### **O'zbekistonning geosiyosiy o'rni va kelajagi.**

#### **O'zbekistonning xalqaro tashkilotlar bilan hamkorligi**

O'zbekiston hozirgi zamon siyosiy va iqtisodiy xaritasida. SSSR ning parchalanib ketishi va uning O'zbekiston uchun geosiyosiy oqibatlari. O'zbekiston nimasi bilan geosiyosiy e'tiborga ega? O'zbekistonning geosiyosiy manfaatlari.

O'zbekistonning geosiyosiy o'rni va kelajagi. O'zbekiston-g'arb mamlakatlari, O'zbekiston-MDH mamlakatlari, O'zbekiston-AQSh, O'zbekiston-qo'shni mamlakatlar o'rtasidagi munosabatlar.

O‘zbekistonning geosiyosiy mavqeyi va uning istiqbollari. O‘zbekistonning tabiiy demografik salohiyati va geosiyosiy manfaatlarini amalga oshirish yo‘llari.

### **Hozirgi zamon geosiyosiy muammolari .Davlatlarning o‘zaro geosiyosiy munosabatlari.**

Davlatlarning o‘zaro geosiyosiy munosabatlari haqida. Geosiyosatning tarixiy kategoriyalari G‘arbiy va Sharqiy Evropadagi geosiyosiy jarayonlar. Geosiyosiy munosabatlarda AQSh ning tutgan o‘rni va mavqeyi. Ko‘p qutbli dunyo shakllanishi va rivojlanish istiqbollari.

Rossiyaning geosiyosiy manfaatlarini. Rossiya-O‘zbekiston munosabatlari, ularga xos dinamika va xususiyatlar. Xitoyning geostrategik siyosati va unga xos iqtisodiy, siyosiy, geografik va demografik xususiyatlar. Xitoyning O‘rta Osiyo va O‘rta Sharq mintaqalaridagi geosiyosiy vaziyatga ta’siri.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘lag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: O‘zbekiston. 1997.
2. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda. – T.: O‘zbekiston. 1999.
3. Alimov T.A., Rafiqov A.A. Ekologik xatolar saboqlari: – T.: O‘zbekiston. 1991.
4. Andriyanova T. V. Geopoliticheskie teorii XX veka (Sostialno-filosofskie issledovaniya). – M.: 1996.
5. Gadjeiev K. E. Geopolitika. – M.: Mejdunarodnye otnosheniya, 1997.
6. Geopolitika: teoriya i praktika-Pod red. E. A. Pozdnyakova. – M.: 1996.
7. Dugen A. Osnovy geopolitiki. – M.: Artogeya. 1997.
8. Zokirov Sh.S. Landshaftshunoslik asoslari. – T.: Universitet. 1994.
9. Maksakovskiy V.P. Geograficheskaya kartina mira. Globalnye problemy chelovechestva. – Yaroslavl: 1996.
10. Mamatkulov M, Nigmatov A, Yusupov R. Geomorfologiya. – T.: Cho‘lpon. 2006.
11. Nabiev E.G‘., Qayumov A.A. O‘zbekistonning iqtisodiy salohiyati. – T.: Akademiya-Universitet. 2000.
12. Nigmatov A. Inson va tuproq. 1-2 nashr. – T.: “G‘afur G‘ulom”. 2002, 2003.
13. Pozdnyakov E. A. Geopolitika. – M.: Progress-Kultura. 1995.
14. Rafiqov A. A. Amaliy geografiya. – T.: “ Sharq”. 2007.

15. Rafiqov A. A. Geoekologik muammolar –T.: O‘qituvchi. 1997.
16. Tixonravov Yu. V. Geopolitika. – M.: Infra. 2000.
17. Xorev B. S. Ocherki geoglobalistiki i geopolitiki. – M.: 1997.
18. “Atlas mira” - SD kompleks diska, “New Mennlum”.
19. Qayumova M. Amaliy geografiyadan uslubiy qo‘llanma. –Jizzax: 2014.

**“Chaqiruvga qadar boshlang‘ich  
tayyorgarlik”**

**Tuzuvchilar:**

U. Qodirov –	Mudofaa vazirligi boshqarma boshlig‘i
S. Qurbonov –	O‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi markazi bosh mutaxassisi
O. Qulto‘raev –	JIDU qoshidagi akademik litsey yetakchi o‘qituvchisi
A. Sotvoldiev –	Nizomiy nomidagi TDPU o‘qituvchisi, dotsent
H. Abduvohidov –	Yangiyer akademik litseyi harbiy rahbari
A. Norboev –	Nizomiy nomidagi TDPU katta o‘qituvchisi
A. Bo‘taev –	Xo‘jaobod pedagogika va ijtimoiy-iqdisodiyot kasb-hunar kolleji harbiy rahbari

**Dasturni optimallashtirishda ishtirok etgan ishchi guruh a‘zolari:**

Q. Djalilov –	O‘ZMU qoshidagi 2-son akademik litseyi harbiy rahbari
H. Jo‘raev –	Jizzax viloyati Forish Maishiy xizmat va transport kasb-hunar kolleji o‘qituvchisi
N. Safarov –	Toshkent To‘qimachilik va yengil sanoat instituti qoshidagi akademik litsey “Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik va jismoniy tarbiya” kafedrası mudiri
Q. Yusupov –	Axborot-metodik ta‘minlash xizmati metodisti

## Kirish

1. “Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik” fani “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq tashkil etiladi va olib boriladi.

“Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuniga muvofiq, vazirliklar, idoralar, mahalliy davlat hokimiyati organlarining, shuningdek, jamoat tashkilotlarining ushbu sohadagi asosiy vazifalarini hamda chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlikni tashkil etish va uni amalga oshirish tartibini “Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlikni tashkil etish va uni amalga oshirish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom talablari bilan belgilanadi.

“Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik” (CHQBT) chaqiruvgacha hamda chaqiruv yoshida bo‘lgan fuqarolarni O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safida xizmat qilishga tayyorlashning tarkibiy qismi bo‘lib, O‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi muassasalari uchun majburiy o‘quv fani hisoblanadi.

“Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik” o‘quv faning maqsadi:

O‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limida chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fanini o‘quvchi-yoshlarga o‘qitilishidan asosiy maqsad, Vatan himoyasi yo‘lida o‘zining konstitutsiyaviy huquq va burchlarini chuqur anglatish, kindik qoni to‘kilgan, avlod-ajdodlarining xoki-poyi qo‘yilgan yurtini har qanday qurolli tajovuzdan himoya qilishdek muqaddas burchini a‘lo darajada ado etishlariga zamin yaratish uchun boshlang‘ich harbiy ta‘lim berish, harbiy kasbga bo‘lgan e‘tiqodlarini va qiziqishlarini orttirish, shuningdek, to‘satdan sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan favqulodda vaziyatlarda o‘zini va boshqalarni himoya qilish, davlatimizning ma‘naviy va moddiy ne‘matlarini saqlash yo‘lida oqilona tashabbus ko‘rsata oladigan jamiyatimizning fidoyi va vatanparvar a‘zolarini tayyorlashdan iborat.

Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fanining vazifalari:

CHQBT jarayoni o‘quvchi - yoshlarni Qurolli kuchlarimizda harbiy xizmatni o‘tash davomida o‘zlarining konstitutsiyaviy burchlarini a‘lo darajada bajarish, o‘ziga ishonib topshirilgan jangovar texnika va qurol-aslahalardan to‘g‘ri foydalanishni qisqa muddatda o‘zlashtirib olishlariga imkon yaratish, shuningdek, yuz berishi mumkin bo‘lgan favqulodda vaziyatlar (terrorchilik harakatlari, harbiy harakterga ega tahdidlar, qurolli to‘qnashuvlar, axborot kurashlari va h.k.) da to‘g‘ri va tartibli harakatlanish, zaruriyat tug‘ilganda o‘ziga hamda yon atrofida qilargilarga birinchi tibbiy va boshqa zaruriy yordamni ko‘rsata olishni o‘rgatishdan iborat.

Yoshlarga harbiy ta'lim berishda ularga harbiy qismlarning jangovar o'quv-faoliyatida bajariladigan mashqlar, harakatlar va amallarni harbiy qismlardagi qo'shnlarning jangovar o'quv faoliyatlariga mumkin qadar yaqinlashtirilgan holda o'rgatish ko'zda tutiladi.

2. CHQBT fani uchun o'g'il bolalarga – 140 soat; qiz bolalarga - 80 soat (4 soat - kirish mavzusiga, 26 soat “Fuqaro muhofazasi”ga, 4 soat – “Harbiy xizmat asoslari”ga, 46 soat “Tibbiy bilim asoslari”ga ajratilgan). CHQBT fani o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida ta'limning oxirgi ikki yilida o'qitiladi.

3. Ta'lim muassasalarida CHQBT fani nazariy, amaliy va nazorat shaklida o'tkaziladi.

Nazariy mashg'ulotlar asosan ma'ruza yoki suhbat shaklida ta'limning pedagogik va axborot kommunikatsion texnologiyalardan keng foydalanilgan holda o'tkaziladi. Bu mashg'ulotlarda o'quv materiallarining asosiy tushunchalari, ta'riflari hamda mavzuning asosiy qoidalarining mazmuni bayon etiladi. Adabiyotlar, sohaga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar, Qurolli Kuchlar Nizomlari talablari izohlanadi.

Amaliy mashg'ulotlar fan dasturi talablariga muvofiq jihozlangan o'quv-moddiy bazalarda o'tkaziladi.

Nazorat mashg'ulotlari dasturning “Harbiy ish asoslari”, “Otish tayyorgarligi” va “Yo'naltirilgan jismoniy tayyorgarlik”, “Tibbiy bilim asoslari” bo'limlari bo'yicha mashg'ulotlar faqat o'g'il bolalar uchun dala o'quv mashg'ulotlarining yakunida, “Harbiy xizmat asoslari” va “Fuqaro muhofazasi” bo'limlari bo'yicha mashg'ulotlar mazkur bo'limlar o'qitilishi yakunlanganishi bilan o'tkaziladi.

Ta'lim muassasalarida “Harbiy xizmat asoslari” bo'limi bo'yicha o'g'il bolalar bilan, “Fuqaro muhofazasi” bo'limi bo'yicha esa o'g'il va qiz bolalar bilan birga nazorat mashg'ulotlari o'tkaziladi. Nazorat mashg'ulotlarida o'quvchilar dasturda ko'rsatilgan me'yorlarni (mashq, usul, amaliy harakat, vazifalar) bajarishadi. O'quvchilarning yakka tartibdagi bahosi dasturdagi bo'limlar bo'yicha nazorat mashg'ulotlarida uning har bir me'yor bajarilganligi uchun olgan baholari yig'indisidan kelib chiqib quyidagicha aniqlanadi:

“a'lo” – agarda barcha tekshirilgan me'yorlarning (mashq usul, amaliy harakat, vazifalar) 50 % dan ortig'i “a'lo” bahoga, qolganlari esa “yaxshi” bahoga bajarilgan bo'lsa;

“yaxshi” - agarda barcha tekshirilgan me'yorlarning 50 % dan ortig'i “a'lo” va “yaxshi” baholarga bajarilsa, qolganlari esa qoniqarlidan pastga baholanmagan bo'lsa;

“qoniqarli” - agarda barcha tekshirilgan me'yorlarning bajarilishiga qo'yilgan “qoniqarsiz” baho bittadan ko'p bo'lmasa;



“qoniqarsiz” - me’yorlar bo’yicha ikkita va undan ko‘p qoniqarsiz baho bo‘lsa;

Ta’lim muassasalarida bitiruvchi bosqich o‘quvchilari bilan o‘qishning yakuniy qismida CHQBTdan olgan bilim, ko‘nikma va malakalarini mustahkamlash hamda dastur bo‘limlarida ko‘rsatilgan nazorat mashg‘ulotlarini o‘tkazish uchun CHQBTga ajratilgan vaqt hisobidan uch kunlik dala o‘quv mashg‘ulotlari o‘tkaziladi. Bu mashg‘ulotlar akademik litsey va kasb-hunar kollejlarning 3-bosqich o‘quvchilari bilan o‘qishning oxirgi davrida, tuman (shahar) hokimliklari hamda hududiy mudofaa ishlari bo‘limlari bilan kelishilgan holda, ta’lim muassasasi direktorining buyrug‘iga ko‘ra o‘tkaziladi.

Uch kunlik dala o‘quv mashg‘uloti (DO‘M) quyidagi tartibda olib boriladi:

– bir vaqtning o‘zida barcha yoki bir nechta ta’lim muassasalari o‘quvchilariga otaliqda bo‘lgan harbiy qismlarga yoki okrug qo‘mondonligi tomonidan birlashtirilgan o‘quv joylarida yig‘in o‘tkazish yo‘li bilan;

– har bir guruh o‘quvchilarini uch kunlik mashg‘ulotlar jadvaliga muvofiq olib chiqish yo‘li bilan. (O‘MB to‘liq bo‘lgan ta’lim muassasalari bilan kelishilgan holda);

– dala o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazish imkoniyatiga ega bo‘lgan ta’lim muassasasining o‘z bazasida;

DO‘M o‘tkazish vaqti va tartibi mudofaa ishlari bo‘limlari hamda O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi hududiy boshqarmalari bilan birgalikda, viloyat mudofaa ishlari boshqarmasi bilan kelishilgan holda belgilanadi va CHQBT jarayonini rejalashtirishga qadar ta’lim muassasalari rahbarlariga ma’lum qilinadi. DO‘M nazorat mashg‘ulotlarida nazorat me’yorlari (mashq, usul, amaliy harakat, vazifalar) ushbu dasturdagi 2-ilova shartlari bo’yicha bajariladi.

“Harbiy ish asoslari” bo‘limi bo’yicha:

– nishonni ilg‘ash, ularning joy atrofidagi narsalarga hamda belgilarga nisbatan joylashgan o‘rnini aniqlash va kuzatuv natijalari to‘g‘risida axborot berish;

– o‘t ochish joyini tanlash, yotib otish uchun xandaq (okop) qazish;

– jang maydonida avtomatdan o‘t ochgan holda yurib, qisqa yugurishlar bilan, yugurib, emaklab harakatlanish (to‘liq bajarish);

“Otish tayyorgarligi” bo‘limi bo’yicha :

– avtomatni qismlarga ajratish va yig‘ish, tozalash va moylash;

– avtomatdan otish bo’yicha dastlabki mashqni bajarish (kichik kalibrli-pnevmatik miltiqdan otish mashqini bajarish);

- o‘qdonga paxtavon patronlarni joylash;
- qo‘l granatlarini uloqtirish bo‘yicha mashqlarni bajarish.
- “Yo‘naltirilgan jismoniy tayyorgarlik” bo‘limi bo‘yicha:
  - 100 metrga yugurish;
  - turnikda tortilish;
  - 1000 yoki 3000 metrga yugurish;
  - to‘siqlar yo‘lagidan o‘tish bo‘yicha umumnazorat mashqini bajarish;
  - qo‘l jangi usullarini bajarish.

“Harbiy xizmat asoslari” bo‘limi bo‘yicha:

- kombatantning xatti-harakatlarini bajarish

4. Ta‘lim muassasalarida CHQBT jarayoni mazkur dastur talablari asosida rejalashtiriladi. O‘quv reja dasturning to‘liq bajarilishini, uning har bir bo‘limini boshqa fanlar bilan uzviy hamkorlikda o‘rganishni ta‘minlashi shart.

Joriy o‘quv yiliga taqvimiy-mavzuviy rejani “Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik” rahbari CHQBT dasturi hamda ta‘lim muassasasi direktori tomonidan tasdiqlangan haftalar bo‘yicha reja asosida ishlab chiqadi. Taqvimiy-mavzuviy reja o‘quv yiliga to‘liq tuzilib, uch kunlik dala-o‘quv mashg‘ulotlarini ham o‘z tarkibiga oladi.

Taqvimiy-mavzuviy reja har yili Mudofaa vazirligi qo‘shinlari va ta‘lim muassasalarining CHQBT bo‘yicha erishilgan ilg‘or tajribalaridan, shuningdek, axborot metodik yordam xizmati ma‘lumotlaridan kelib chiqib yangilanib turiladi.

Taqvimiy-mavzuviy rejada mashg‘ulotlar bo‘yicha o‘quv soatlarining taqsimoti, mashg‘ulotlarni o‘rganish mantiqiy ketma-ketligi, mashg‘ulotlarning o‘quv va tarbiyaviy maqsadlari, o‘quvchilarga mustaqil tayyorgarliklari uchun topshiriqlar, nazorat turlari, o‘quv adabiyotlari, shuningdek, uslubiy ko‘rsatmalar, qo‘llaniladigan pedagogik texnologiyalar va boshqa fanlar bilan o‘zaro bog‘liqlik ko‘rsatiladi.

O‘quv yili boshida ta‘lim muassasasi direktorining «Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik mashg‘ulotlarini boshlash to‘g‘risida» gi hamda mashg‘ulotlarni tashkiliy jihatdan sifatli uyushtirish va O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarning Umumharbiy nizomlari talablarini o‘quvchilarga amaliy jihatdan singdirish maqsadida «Guruh komandirlarini tayinlash to‘g‘risida» buyruqlari tasdiqlanadi. Buyruqqa asosan o‘quv guruhlardan guruhlar tashkil qilinadi. Intizomli, bilimli, tashkilotchi o‘quvchilardan guruh komandirlari tayinlanadi.

O'quvchilarning o'quv mashg'ulotlarida olgan bilim, ko'nikma va malakalari darsdan tashqari o'tkaziladigan quyidagi tadbirlar orqali mustahkamlanadi:

- harbiy bilim asoslari bo'yicha to'garaklar va sportning harbiy-amaliy turdagi seksiyalarini tashkil etish;
- harbiy sport musobaqalari, harbiy o'yinlar tashkil etish va o'tkazish;
- harbiy vatanparvarlik ruhidagi tadbirlar va davra suhbatlari, munozaralar va taqdimotlar tashkil etish;
- o'quvchilarning darsdan tashqari vaqtida harbiy texnika, harbiy va sport-sog'lomlashtirish yo'nalishidagi ta'lim muassasalariga tashriflarini tashkil etish.

CHQBT darslarida va darsdan tashqari tadbirlar jarayonida o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar umumharbiy nizomlar talablari asosida o'rnatilishi shart. CHQBT jarayonida intizomsiz o'quvchilardan Qurolli Kuchlar "Intizom nizomi" asosiy talablarini o'zlashtirishlari talab etiladi.

5. Kichik kalibrli (pnevmatik) miltiqdan, shuningdek, o'quv-kompyuter qurilmasidan (SKATT) o't ochish mashqlari, o'quvchilarning o'qotar quroldan otish qoidalari va usullarini o'zlashtirish darajasini tekshirish maqsadida, shuningdek, ularni o'qotar quroldan (avtomat) jangovar patronlar bilan otish bo'yicha dastlabki mashqlarga tayyorlash maqsadida o'tkaziladi.

Kichik kalibrli (pnevmatik) miltiqdan otish mashqlari xavfsizlik qoidalariga to'liq rioya qilingan holda maxsus jihozlangan o'q otish joylari (tir)da tashkil etiladi. Bunday mashqlarni amaliy bajarishga faqat o't otish mashqlarining shartlari va xavfsizlik qoidalariga oid bilim va ko'nikmalar sinovidan muvaffaqiyatli o'tgan o'quvchilarga ruxsat beriladi. Sinovdan o'tmagan o'quvchilar ushbu talablarga javob bera oladigan darajaga yetgandan so'ng darsdan tashqari o'tkaziladigan mashg'ulotlarda otish mashqlarini bajaradilar. Otish xavfsizligi ta'minlanmagan o'q otish joylarida otish mashqlarini bajarish, shuningdek, otish mashqlariga rahbarlikni o'quvchilardan biriga topshirib qo'yish qat'iyan taqiqlanadi.

Otish mashqini bajargandan so'ng, mashqni bajaruvchilar otish natijalarini ko'zdan kechiradi.

Jangovar o'qotar quroldan otish mashqlari maxsus jihozlangan otish joylarida (tirlarda) yoki otish maydonlarida garnizon boshlig'i (harbiy qism komandiri) va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi hududiy boshqarmalari bilan kelishilgan holda, tuman (shahar) mudofaa ishlari bo'limlari rejaları asosida o'tkaziladi. Otish mashg'ulotlari "Otish mashqi bo'yicha yo'riqnoma" ga muvofiq amalga oshiriladi.

Otish mashqlarini boshlashdan avval, otish mashqi rahbari, o'quvchilarning xavfsizlik qoidalari, o'qotar qurolining tuzilishi hamda otish qoidalari doir bilimlarini nazoratdan o'tkazadi. Ushbu qoidalarni o'zlashtirmagan o'quvchilar otish mashqlariga qo'yilmaydi.

Ta'lim muassasalarida o'qotar qurollar va o'q-dorilar mavjud bo'lmagan hollarda otish tayyorgarligi bo'yicha nazariy mashg'ulotlarda qurol-aslahalarning maketlari, ko'rgazmali vositalar va o'quv filmlaridan, amaliy mashg'ulotlarda esa qurol-aslahalar, granatalar va minalarning maketlaridan foydalanish tavsiya etiladi. O'qotar qurolni o'rganish bo'yicha amaliy mashg'ulotlarni garnizon boshlig'ining buyrug'i bilan ta'lim muassasasiga otaliqqa birlashtirilgan harbiy qismda o'tkaziladi.

Ta'lim muassasi rahbari o'quv qurol-aslahalarni ta'lim muassasalariga berish va ularni saqlash haqida yuqori turuvchi tashkilotlardan maxsus buyruq yoki ko'rsatma olmaganicha, tegishli vazirlik va tashkilotlardan ta'lim muassasasini maxsus tabelga muvofiq jangovar qurol-aslahalar, artilleriya va muhandislik vositalari bilan ta'minlanishini talab qilish huquqiga ega emas.

### Dasturning bo'limlari bo'yicha yillik o'quv soatlar taqsimoti

№	Bo'limlar nomlar	O'quv soatining umumiy miqdori		Ta'lim muassasi				Uch kunlik DO'M (o'g'il bolalar)
		O'g'il bolalar	Qiz bolalar	II bosqich		III bosqich		
				O'g'il bolalar	Qiz bolalar	O'g'il bolalar	Qiz bolalar	
1	Kirish	4	4	4	4			
2	Harbiy xizmat asoslari	38	4	28	4	6		4
3	Otish tayyorgarligi	20		10		6		4
4	Yo'naltirilgan jismoniy tayyorgarlik	18		6		8		4
5	Harbiy ish asoslari	28				20		8
6	Fuqaro muhofazasi	26	26	26	26			
7	Tibbiy bilim asoslari	6	46	6	46			
	<b>Jami:</b>	<b>140</b>	<b>80</b>	<b>80</b>	<b>80</b>	<b>40</b>	*	<b>20</b>

\*- Akademik litsey namunaviy o'quv rejasi umumta'lim fanlari blokidagi soatlar taqsimotiga asosan mavzular to'liq saqlangan holda 138soat hajmida ishchi o'quv dasturi shakllantiriladi.

**Eslatma:** 1.CHQBT to‘liq kursi uchun – 140 soat. Shundan 76 soati - amaliy, 64 soati - nazariy mashg‘ulotlar.

2. O‘quvchi qizlar uchun 80 soat ajratiladi (4 soat - kirish mavzusiga, 26 soat fuqaro muhofazasiga, 4 soat – harbiy xizmat asoslariga, 46 soat - tibbiy bilim asoslariga).

***Izoh:** O‘quvchi qizlarga kirish mavzusi, “Harbiy xizmat asoslari” bo‘limidagi qurolli to‘qnashuvlar huquqi mavzusi, fuqaro muhofazasi bo‘limi hamda Tibbiy bilim asoslari bo‘limidagi 6 soatlik “Shikastlanganda, baxtsiz hodisalar sodir bo‘lganda va jarohatlanganda (yaralanganda) birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish” mavzusi bo‘yicha mashg‘ulotlar o‘g‘il bolalar bilan birgalikda 2 bosqich, 3-semestrda o‘tkaziladi (jami 40 soat).*

*O‘quvchi qizlar 2 bosqich, 4-semestrda ilovadagi dasturga ko‘ra 40 soatlik “Tibbiy bilim asoslari” kursini o‘rganadilar.*

*\*Uchinchi kursda o‘smirlar va qiz bolalar o‘quv guruhlari soni saqlangan holda guruhlariga ajratilib o‘qitiladi. Bunda 3- kursdagi ikki guruhda dars mashg‘ulotlari jadval bo‘yicha bir vaqtga qo‘yiladi, ya‘ni guruhlardagi o‘smirlar va qizlar alohida guruhlariga bo‘linadi. O‘smirlarga dasturdagi harbiy tayyorgarlikka oid bo‘limlar bo‘yicha, o‘quvchi qizlarga alohida dastur asosida 60 soatlik “Hayot va turmush odobi” (Oilashunoslik) o‘quv kursidan mashg‘ulotlar o‘tkaziladi.*

3. Nazorat mashg‘ulotlari 12 soat. Nazorat mashg‘ulotlari har bir o‘quv bo‘limga ajratilgan vaqt hisobidan o‘tkaziladi. Nazorat mashg‘ulotlarining 4 soati (HXA - 2 soat, FM-2 soat) ta‘lim muassasida katta hajmdagi mavzulardan so‘ng yoki bo‘lim yakunida o‘tkaziladi, 8 soati esa (HXA – 4 soat, YJT-2 soat, HIA – 2 soat) DO‘M mobaynida o‘tkaziladi.

### **1-mavzu. “Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik” fanining maqsadi va vazifalari, bugungi kundagi ahamiyati.**

**1-mashg‘ulot.** Nazariy. O‘zbekiston Respublikasida chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlikning tarixiy zaruriyati hamda uning bugungi kundagi ahamiyati. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi Vatan himoyasi to‘g‘risida.

**2-mashg‘ulot.** Nazariy.CHQBT - O‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi muassasalarining o‘quv dasturidagi umumdavlat majburiy o‘quv fani sifatida. Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlikning mohiyati, maqsadi va vazifalari.

## **2-mavzu. O‘zbekiston Respublikasi mudofaasi - davlatning muhim vazifasi, umumxalq ishi.**

1-mashg‘ulot. Nazariy. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Oliy Bosh Qo‘mondonining mamlakat mudofaa qobiliyati hamda Qurolli Kuchlarni rivojlantirish borasidagi qarashlari. O‘zbekiston Qurolli Kuchlarining jangovar salohiyatini oshirish borasida olib borilayotgan islohotlar.

2-mashg‘ulot. Nazariy. O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa doktrinasining mohiyati, maqsadi va vazifalari. Mudofaa doktrinasining mudofaaga qaratilganligi.

### **HARBIY XIZMAT ASOSLARI**

#### **Ta‘limiy vazifasi**

Harbiy xizmat asoslari bo‘limida o‘quvchilar harbiy xizmatning huquqiy asoslarini tashkil etuvchi “Mudofaa to‘g‘risida” gi, “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida” gi Qonunlar, Qurolli Kuchlarning tashkiliy tizimi va vazifalari haqida, shuningdek, muddatli harbiy xizmatchilarga beriladigan imtiyozlar bilan tanishadilar. O‘quvchilarga O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining nizomlari talablari hamda ularga amal qilish har bir harbiy xizmatchining muqaddas burchi ekanligi tushuntiriladi. Shuningdek, o‘quvchilar qurolli to‘qnashuvlar huquqi, muddatli harbiy xizmatchilarning huquqiy javobgarligi bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni egallaydilar.

O‘quvchilar quyidagi bilimlarga ega bo‘lishlari shart:

- O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi “Mudofaa to‘g‘risida” gi hamda “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida” gi Qonunlari talablarini;
- O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari umumharbiy nizomlarining asosiy talablarini;
- O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining tashkil topishi tarixiy asoslarini;
- Qurolli Kuchlarning vazifasi, tarkibi, tuzilish tamoyillari, rivojlanish strategiyasini;
- Harbiy okruglar hamda mahalliy harbiy boshqaruv organlari vazifalarini;
- harbiy xizmat turlarini va harbiy xizmatni o‘tash hamda harbiy ro‘yxatda turish tartibini;

- harbiy unvonlar, farqlovchi belgilar, shuningdek, muddatli harbiy xizmatchilarga qo‘llaniladigan rag‘batlantirishlar va intizomiy ta‘zirlarni;
- harbiy intizom asoslarini, harbiy nizomning harbiy qism hayoti va faoliyatidagi o‘rni, harbiy xushmuomalalik qoidalari, o‘zini tutish va harbiycha salomlashish, askarning saf oldi va safdagi majburiyatlarini;
- harbiy jinoyat, harbiy xizmatdan bosh tortganligi uchun ma‘muriy va jinoiy javobgarlik haqidagi asosiy qonun talablarini;
- soqchining qorovullik xizmatidagi majburiyatlarini;
- qurolli to‘qnashuvlar huquqi mohiyati, tamoyillari va manbalarini;
- jangovar harakat qatnashchisi (kombatant)ning kodeksini;
- qurolli to‘qnashuvlar huquqining asosiy talablari va ularga rioya qilishning zarurligini;
- kombatant va fuqaro shaxs orasidagi farqlarni, harbiy obyekt bilan fuqaro obyektini farqlashni;
- harbiy harakatlar olib borishning taqiqlangan usullari va qurol turlarini;
- qurolli to‘qnashuvlar huquqini buzganligi uchun javobgarlikni;
- qurolli to‘qnashuvlar huquqi tomonidan qabul qilingan farqlovchi timsollarni va belgilarning vazifalarini;
- oliy harbiy bilim yurtlari va serjantlar tayyorlash maktablariga qabul qoidalari;
- muddatli harbiy xizmatchilarga belgilangan huquq va imtiyozlarni, harbiy xizmatchilarning huquqiy holatini;
- harbiy qasamyodning mohiyati, harbiy qismning jangovar bayrog‘ining ahamiyati, harbiy jamoaning shakllanishi va jipslashuvining xususiyatlari, jangovar an‘analarini.

**O‘quvchilar quyidagi ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishlari shart:**

- harbiy xizmatchi majburiyatlarining mohiyatini tushuntira olish, harbiy unvonlarni farqlash, unvon va lavozim bo‘yicha kattalar va kichiklarga, boshliqlar va bo‘ysunuvchilarga murojaat qilish;
- saf amallarini bajarish;
- buyruq berish, buyruqni bajarish tartibi, vzvod bo‘yicha posbon harakatlarini bajarish;
- trevoga e‘lon qilinganida, yong‘in chiqqanida shaxsiy tarkibning harakatlanishi;
- yakka tartibda va guruh tarkibida saf amallarini bajarish;
- kombatantning kodeksi talablarini to‘g‘ri bajarish;

– soqchi va qorovulning qorovullik xizmatidagi amaliy harakatlarini bajarish.

**“Harbiy xizmat asoslari” bo‘limi mavzularini o‘rganish uchun o‘quv soatlar taqsimoti**

№	Mavzular nomi	Soatlar miqdori		
		Hammasi	Ta'lim muassa sida	DO‘M da
1.	Harbiy xizmatning huquqiy asoslari	2	2	
2.	Harbiy xizmatchilarning huquq va majburiyatlari. Harbiy jinoyatlar.	2	2	
3.	O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari–davlatning harbiy tashkilot,O‘zbekiston Respublikasi mudofaasining asosi	4	4	
4.	O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Ichki xizmat nizomi.	6	6	
5.	O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Intizom nizomi.	2	2	
6.	O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Garnizon va qorovullik xizmati nizomi.	4	4	
7.	O‘zbekiston Respublika Qurolli Kuchlari Saf nizomi. Saf amallarini bajarish.	8	8	
8.	Qurolli to‘qnashuvlar huquqi.	6	4	2
9.	Nazorat mashg‘ulotlari.	4	2	2
	<b>Jami.</b>	<b>38</b>	<b>34</b>	<b>4</b>

**1-mavzu: Harbiy xizmatning huquqiy asoslari.**

**1-mashg‘ulot.** Nazariy.O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi Vatan himoyasi to‘g‘risida.O‘zbekiston Respublikasining “Mudofaa to‘g‘risida”gi Qonuni. Mudofaa tushunchasi. Fuqarolarning mudofaa borasidagi majburiyatlari. Mahalliy harbiy boshqaruv idoralari.

**2-mashg‘ulot.** Nazariy. O‘zbekiston Respublikasining “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi Qonuni. Umumiy harbiy majburiyat tushunchasi va uning mohiyati. Harbiy xizmat turlari. Harbiy xizmatga chaqirilish muddatini kechiktirish. Harbiy xizmatga chaqirilishdan



ozod etish. Fuqarolarni chaqiruv uchastkalarida qayd etish. Fuqarolarning harbiy ro'yxatdan o'tish bo'yicha majburiyatlari.

**2-mavzu: Harbiy xizmatchilarning huquq va majburiyatlari.  
Harbiy jinoyatlar.**

**1-mashg'ulot.** Nazariy. Vatanni himoya qilish-harbiy xizmatchining muqaddas burchi. Harbiy xizmatchilarning huquqlari va majburiyatlari.

**2-mashg'ulot.** Nazariy. Muddatli harbiy xizmatchilar hamda Oliy harbiy bilim yurti kursantlariga beriladigan imtiyozlar. Harbiy xizmatni o'tash tartibiga qarshi jinoyatlar hamda harbiy jinoyatlarni sodir etganlik uchun javobgarlik.

**3-mavzu: O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari – davlatning harbiy tashkiloti, O'zbekiston Respublikasi mudofaasining asosi.**

**1-mashg'ulot.** Nazariy. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining tashkil etilishi tarixi. Qurolli Kuchlarning vazifasi, tarkibi va qurilish tamoyillari. Qurolli Kuchlarga rahbarlik. Harbiy okruglar.

**2-mashg'ulot** Nazariy. Mudofaa vazirligi qo'shinlari. Qo'shin turlari va xillari. Ularning jangovar imkoniyatlari. Milliy xavfsizlik xizmati, Ichki ishlar vazirligi va Favqulodda vaziyatlar vazirligi qo'shinlari.

**3-mashg'ulot.** Nazariy. Komandirlar va boshliqlarning shaxsiy tarkibni o'qitish hamda tarbiyalashdagi o'rni. Ofitser va serjantlar Qurolli Kuchlarning tayanchi, askarlarning to'g'ridan to'g'ri boshlig'i. O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Davlat bojxona qo'mitasi tasarrufidagi oliy harbiy ta'lim muassasalari. Respublikamizdagi mavjud serjantlar tayyorlash maktablari.

**4-mashg'ulot.** Nazariy. Buyuk sarkardalarimizning merosi. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining jangovar an'analari. Harbiy qasamyod va uning harbiy xizmatchilarga qo'yadigan talablari. Harbiy qismning Jangovar bayrog'i-harbiy qadriyat, qahramonlik va shon-sharaf ramzi.

**4-mavzu: O'zbekiston Respublika Qurolli Kuchlarining Ichki xizmat nizomi.**

**1-mashg'ulot.** Nazariy. Harbiy xizmatchilarning umumiy majburiyatlari. Harbiy unvonlar va farqlovchi belgilar. Harbiy kiyim-boshni kiyish tartibi.

**2-mashg'ulot.** Nazariy. Boshliqlar va bo'ysunuvchilar, kattalar va kichiklar. To'g'ridan to'g'ri va bevosita boshliqlar. Buyruq berish va uni bajarish tartibi.

**3-mashg'ulot.** Nazariy. Harbiycha salomlashish, harbiycha xushmuomalalik va murojaat etish qoidalari.

**4-mashg'ulot.** Nazariy. Harbiy xizmatchilar o'rtasidagi ichki xizmat nizomida belgilangan o'zaro munosabatlar tartibini buzganlik uchun javobgarlik.

**5-mashg'ulot.** Amaliy. Vzvod bo'yicha sutkalik naryad. Uning vazifasi, tarkibi va qurollanishi. Vzvod bo'yicha posbonning majburiyatlari. Navbatdagi posbon o'z xizmat vazifasini o'taydigan joyning jihozlanishi.

**6-mashg'ulot.** Amaliy. Vzvodga vzvod komandiri va undan yuqori turuvchi to'g'ridan to'g'ri boshliqlar yoki boshqa bo'linmalar harbiy xizmatchilari kelganida, jangovar chorlov (trevoga) e'lon qilinganida yoxud yong'in chiqqan paytda posbonning harakatlanish tartibi.

### **5-mavzu. O'zbekiston Respublika Qurolli Kuchlarining Intizom Nizomi.**

**1-mashg'ulot.** Nazariy. Harbiy intizom va uning mohiyati. Muddatli harbiy xizmatchilarga nisbatan qo'llaniladigan rag'batlantirishlar va intizomiy ta'zir choralari. Muddatli harbiy xizmatchilarning ariza va shikoyatlarini ko'rib chiqish tartibi.

**2-mashg'ulot.** Nazariy. Harbiy xizmatchilarning axloq kodeksi. Harbiy xizmatchining ma'naviy-axloqiy qiyofasi.

### **6-mavzu. O'zbekiston Respublika Qurolli Kuchlarining Gornizon va qorovullik xizmati Nizomi.**

**1-mashg'ulot.** Nazariy. Qorovullik xizmati. Qorovulning tarkibi va vazifasi.

**2-mashg'ulot.** Nazariy. Soqchining majburiyatlari.

**3-mashg'ulot.** Amaliy. Post va uning jihozlanishi. Postni qabul qilish hamda topshirish tartibi. Soqchining postdagi harakatlari.

**4-mashg'ulot.** Amaliy. Soqchini almashtirish tartibi. Soqchining postda qurolni qo'llashi mumkin bo'lgan holatlar.

### **7-mavzu. O'zbekiston Respublika Qurolli Kuchlari Saf Nizomi. Saf amallarini bajarish.**

**1-mashg'ulot.** Amaliy. Saf va uning elementlari. Askarning saf oldi va safdagi majburiyatlari. Safni boshqarish. Dastlabki va darrov bajariladigan komandalar.

**2-mashg‘ulot.** Amaliy. Safda qadni rostlab turish va komandalarni bajarish. Turgan joyda burilishlar.

**3-mashg‘ulot.** Amaliy. Shaxdam qadam va oddiy yurish qadami bilan harakatlanish. Harakat paytida burilishlar.

**4-mashg‘ulot.** Amaliy. Turgan joyda va harakat chog‘ida bosh kiyim bilan yoki bosh kiyimsiz harbiycha salomlashish. Harakat paytida harbiycha salomga javob berish. Safdan chiqish, boshliqning oldiga borish va safga qaytish.

**5-mashg‘ulot.** Amaliy. Guruhning saf tortishi. Guruhning yurish safiga va yoyiq safga saflanishi. Guruhni yoyiq safdan yurish safiga va yurish safidan yoyiq safga qayta saflash. Guruhning kengayishi va jiplanishi.

**6-mashg‘ulot.** Amaliy. Guruhning shaxdam qadam bilan va oddiy yurish qadami bilan harakatlanishi. Harakat yo‘nalishini o‘zgartirish.

**7-mashg‘ulot.** Amaliy. Guruh tarkibida oddiy va shaxdam qadam bilan yurishni mashq qilish.

**8-mashg‘ulot.** Amaliy. Guruh tarkibida turgan joyda va harakat chog‘ida salomlashishni mashq qilish.

Nazorat mashg‘ulotlari:

**1-2-mashg‘ulot:** “Saf Nizomi”ning asosiy qoidalari bo‘yicha bilimlarni tekshirish. Nazorat me‘yorlarini bajarish (quolsiz va quol bilan bajariladigan saf amallari va harakatlari.)

- *qadni rostlash;*
- *turgan joyda burilishlar;*
- *shaxdam qadam bilan harakatlanish;*
- *harakat paytida bosh kiyim bilan harbiycha salomlashishni bajarish;*
- *safdan chiqish, boshliq oldiga borish va uning oldidan ketish, safga turish.*

**3-4-mashg‘ulot:** 7-mavzu bo‘yicha DO‘M da o‘tkaziladi.

### **8-mavzu: Qurolli to‘qnashuvlar huquqi. (o‘g‘il va qiz bolalar uchun)**

**1-mashg‘ulot.** Nazariy. Qurolli to‘qnashuvlar huquqining (QTH) vujudga kelishi tarixiy zaruriyati va sabablari. Qurolli to‘qnashuvlar huquqining mohiyati, tamoyillari va manbalari.

**2-mashg‘ulot.** Nazariy. Xalqaro insonparvarlik huquqining mazmuni. Qurolli to‘qnashuvlar huquqining asosiy tushunchalari.

**3-mashg‘ulot.** Nazariy. QTHda ko‘zda tutilgan farqlovchi timsol va belgilar. Xalqaro Qizil Xoch va Qizil Yarim Oy harakati.

**4-mashg‘ulot.** Nazariy. Harbiy operatsiyalarni rejalashtirish. Harbiy operatsiyalarni rejalashtirishga qo‘yilgan asosiy talablar. Kombatantning axloq kodeksi, jang maydonida harakatlanish qoidalari. QTHni buzganlik uchun milliy va xalqaro darajadagi javobgarlik.

**5-6-mashg‘ulot.** Amaliy. 3-4-mashg‘ulotlar bo‘yicha DO‘Mda o‘g‘il bolalar bilan o‘tkaziladi.

### OTISH TAYYORGARLIGI

#### **Ta’limiy vazifasi**

Otish tayyorgarligi bo‘limida o‘quvchilar o‘qotar qurollar, qo‘l granatalari, tankka, piyodalarga qarshi minalarning vazifasi, tuzilishi, ishlash tamoyili hamda jangovar xususiyatlariga doir dastlabki bilim va ko‘nikmalarni egallaydilar. O‘qotar qurollarni qismlarga ajratish va yig‘ish, shuningdek, qurolni tozalash, moylash, saqlash va avaylab - asrash bo‘yicha amaliy ko‘nikmalar shakllantiriladi. Shuningdek, otish qoidalari asoslarini o‘zlashtiradilar, o‘qotar qurollardan otish bo‘yicha dastlabki o‘quv mashqlarini bajaradilar. Qo‘l granatalarini turli holatlardan uloqtirish texnikasini o‘rganadilar. Otish tayyorgarligi mashg‘ulotlarida, otish amaliyotini bajarishda xavfsizlik choralariga rioya qilish ko‘nikmalarini egallaydilar.

#### **O‘quvchilar quyidagi bilimlarga ega bo‘lishlari kerak:**

- Otish mashg‘ulotlarida amal qilinishi shart bo‘lgan xavfsizlik choralarini ;
- Kalashnikov avtomati va boshqa o‘qotar qurollarning vazifasi, tuzilishi, ishlash tamoyili hamda jangovar xususiyatlarini;
- qo‘l granatalarning tuzilishi, ishlash tamoyili va jangovar xususiyatlarini;
- o‘qotar qurollarni qismlarga ajratish va yig‘ish, qurolni tozalash, moylash, saqlash va avaylab - asrashni;
- nishongacha bo‘lgan masofani aniqlash usullarini;
- avtomatni otishga tayyorlash, undan qo‘zg‘almas hamda paydo bo‘luvchi nishonlarga otish usullari va qoidalarini bilishi.

#### **O‘quvchilar quyidagi ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishlari kerak:**

- otish mashg‘ulotlarida xavfsizlik choralariga amal qilish;

- avtomatni otishga tayyorlashni, undan qo‘zg‘almas va paydo bo‘luvchi nishonlarga otish usullarini bajarish;
- avtomatni noto‘liq (to‘liqsiz) qismlarga ajratish hamda yig‘ish, uni tozalash va moylashni bajarish;
- otish bo‘yicha zamonaviy elektron trenajer (SKATT) moslamalaridan foydalanish;
- otish va kuzatish uchun joy tanlash hamda uni jihozlash;
- burchak kattaligi yordamida nishongacha bo‘lgan masofani aniqlash;
- qo‘l granatalarini turli holatlardan uzoqlikka hamda aniqlikka uloqtirish;
- boshlang‘ich mashq shartlari bo‘yicha o‘qotar quoldan jangovar patron bilan otish mashqini bajarish;
- kichik kalibrli (pnevmatik) miltiqdan o‘q otish mashqlarini bajarish.

**“Otish tayyorgarligi” bo‘limi bo‘yicha mavzularni o‘rganish uchun o‘quv soatlari taqsimoti**

№	Mavzular nomi	Soatlar miqdori		
		Ham masi	Ta‘lim muassa-sida	DO‘M-da
1	O‘qotar quollarining vazifasi, tuzilishi, ishlash tamoyili va jangovar xususiyatlari. Qo‘l granatalari.	6	6	
2	Quoldan otishning asoslari va qoidalari	4	4	
3	Joyda turib va harakat paytida qo‘zg‘almas hamda paydo bo‘luvchi nishonlarga o‘t ochish	10	6	4
<b>Jami:</b>		<b>20</b>	<b>16</b>	<b>4</b>

**1-mavzu: O‘qotar quollarning vazifasi, tuzilishi, ishlash tamoyili va jangovar xususiyatlari. Qo‘l granatalari.**

**1-mashg‘ulot.** Nazariy. Qurol-yarog‘ va o‘q-dorilar bilan ishlaganda xavfsizlik choralari. Kalashnikov avtomati (RPK-74 qo‘l pulemyoti)ning vazifasi, umumiy tuzilishi, ishlash tamoyili va jangovar xususiyatlari.

**2-mashg‘ulot.** Nazariy. Kalashnikov avtomatning asosiy qism va mexanizmlari hamda ularning vazifasi.

**3-mashg‘ulot.** Amaliy. Kalashnikov avtomatini noto‘liq qismlarga ajratish va qayta yig‘ish tartibi. Avtomatni ko‘zdan kechirish va otishga tayyorlash.

**4-mashgʻulot.** Amaliy. Otish vaqtida avtomatda sodir boʻlishi mumkin boʻlgan nosozliklar hamda ularni bartaraf etish usullari. Avtomatning qoʻshimcha ashyolari. Avtomatni tozalash, moylash va saqlash.

**5-mashgʻulot.** Nazariy. Qoʻl granatalarining vazifasi, jangovar xususiyatlari, umumiy tuzilishi va ishlash tamoyili. Granatalarni uloqtirishga tayyorlash. Qoʻl granatalarini qoʻllayotganda xavfsizlik choralari.

**6-mashgʻulot.** Nazariy. Dragunov merganlik miltigʻining tuzilishi, ishlash tamoyili va jangovar xususiyatlari. Kichik kalibrli miltiqning vazifasi, tuzilishi va jangovar xususiyatlari. Miltiqni qismlarga ajratish va yigʻish. Miltiqni tozalash va moylash.

## **2-mavzu: Quroldan otishning asoslari va qoidalari.**

**1-mashgʻulot.** Nazariy. Otish hodisasi va uning davrlari. Oʻqning boshlangʻich tezligi va uning otish jarayoniga taʼsiri. Qurolning silkinishi.

**2-mashgʻulot.** Nazariy. Oʻq trayektoriyasi. Toʻgʻri otish va uning amaliy ahamiyati. Oʻq tegmaydigan (oʻlik fazo) va tegadigan boʻshliqlar.

**3-mashgʻulot.** Amaliy. Nishonga aniq otish. Nishonni moʻljalga olish va uning elementlari. Joydan qoʻzgʻalmas va paydo boʻluvchi nishonlarga otayotganda nishonga olish moslamasini moʻljalga olish nuqtasiga toʻgʻrilash. Otish jarayoniga tuzatishlar kiritish.

**4-mashgʻulot.** Amaliy. Nishongacha boʻlgan masofani aniqlash usullari. Nishonning burchak kattaligi yordamida nishongacha boʻlgan masofani aniqlash. Minglik formulasi va uni amalda qoʻllash.

## **3-mavzu: Joyda turib va harakat paytida qoʻzgʻalmas hamda paydo boʻluvchi nishonlarga oʻt ochish.**

**1-2-mashgʻulot.** Amaliy. DOʻM davrida oʻtkaziladi. Mashgʻulot oʻtkazishdagi xavfsizlik choralari. Oʻqdonni patron bilan toʻldirish, tayanchni tayyorlash, tayanchdan yotib otishga tayyorlanish, moʻljalga olish, otishni amalga oshirish, otishni toʻxtatish, qurolni oʻqsizlantirish.

Kichik kalibrli (pnevmatik) miltiqdan otish mashqi shartlarini bajarish.

**3-4-mashgʻulot.** Amaliy. Kichik kalibrli (pnevmatik) miltiqdan otish mashqlarini bajarish. Zamonaviy elektron trenajorlardan (SKATT) foydalanib otish mashqini bajarish.

**5-6-mashgʻulot.** Amaliy. Qoʻl granatalarini joyda tik turgan, harakatlanayotgan, tizzalagan, yotgan holatlarda hamda xandaqdan uloqtirish texnikasini oʻrganish.

**7-8-mashgʻulot.** Amaliy. Qoʻl granatalarini xandaqdan (okopdan) uzoqlikka va nishonga aniq uloqtirish boʻyicha 1-mashqni bajarish.

**9-10-mashg‘ulot.** Amaliy. DO‘M davrida o‘tkaziladi. Otish bo‘yicha boshlang‘ich mashqlar shartlari bo‘yicha avtomatdan jangovar patronlar bilan otish mashqlarini bajarish (Dasturning 2-ilovasidagi otish tayyorgarligi shartlari bo‘yicha nazorat me‘yorlarini bajarish).

## **YO‘NALTIRILGAN - JISMONIY TAYYORGARLIK**

### **Ta‘limiy vazifasi**

Yo‘naltirilgan jismoniy tayyorgarlik askarning jang maydonida harakatlanishi uchun zarur bo‘lgan kuch, chidamlilik, tezkorlik, chaqqonlik, egiluvchanlik kabi jismoniy sifatlarni hamda dovyuraklik, bardoshlilik, qat‘iyatlilik, maqsadga va g‘alabaga intiluvchanlik kabi irodaviy sifatlarni tarbiyalaydi. Harbiy-amaliy yo‘nalishga ega maxsus ko‘nikmalarni rivojlantiruvchi mashqlar, shuningdek, turli mazmundagi harbiy sport musobaqalarini o‘z tarkibiga oladi. O‘quvchilarda yuqori axloqiy-ruhiy sifatlarni hamda estetik va gigiyenik madaniyatni shakllantiradi. Tanani sog‘lomlashtirish va chiniqtirishga doir majmuaviy mashqlarni o‘rgatadi.

### **O‘quvchilar quyidagi bilimlarga ega bo‘lishlari kerak:**

– O‘zbekiston Respublikasining «Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida» gi Qonunini;

- yo‘naltirilgan-jismoniy tayyorgarlik bo‘yicha me‘yorlarni;
- Qurolli Kuchlarda o‘tkaziladigan jismoniy mashqlar majmualarini;
- to‘siqlar yo‘lagini yengib o‘tish tartibini;
- yoshlarni sog‘lomlashtirish bo‘yicha o‘tkaziladigan musobaqa va tadbirlar mohiyatini;
- tanani sog‘lomlashtirish va chiniqtirish yo‘lidagi estetik va gigiyenik talablarni.

O‘quvchilar quyidagi ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishlari kerak:

- umumjismoniy tayyorgarlik mashg‘ulotlarida jismoniy yuklamaning yuqori tig‘izligiga erishish;
- turnikda va brusda mashqlarni bajarish;
- qo‘l granatalarini uloqtirish;
- to‘siqlar yo‘lagini yengib o‘tish usullarini bajarish;
- qisqa va uzoq masofalarga yugurish texnikasini bajarish;
- qo‘l jangi usullarini bajarish;
- dastur ilovasida ko‘zda tutilgan jismoniy me‘yorlarni bajara olish.

## O‘rganish uchun ajratiladigan o‘quv soatlari taqsimoti

№	Mavzular nomi	Soatlar miqdori		
		Hammasi	Ta'lim muassasida	DO'Mda
1	Umumjismoniy tayyorgarlik	4	4	
2	To‘siqlar yo‘lagi (qatori)dan o‘tish	4	2	2
3	Qo‘l jangi	8	8	
4	Nazorat mashg‘ulotlari	2		2
	<b>Jami</b>	<b>18</b>	<b>14</b>	<b>4</b>

### 1-mavzu: Umumjismoniy tayyorgarlik

**1-mashg‘ulot.** Amaliy. Umumjismoniy mashqlarni bajarish. Turnikda bajariladigan mashqlar: tortilish; turnikda ko‘tarilib aylanish; kuch bilan chiqish. Brusda bajariladigan mashqlar: chayqalgan holda qo‘lni bukish va to‘g‘rilash.

**2-mashg‘ulot.** Amaliy. Kuch mashqlari majmuasi. Chaqqonlik mashqlari majmuasi. Juftlikda mashqlar bajarish. Uzunasiga qo‘yilgan “eshak” va “ot” moslamalari ustidan sakrash. Oyoq va qo‘llar yordamida hamda faqat qo‘llar yordamida arqonga chiqish.

**3-mashg‘ulot.** Amaliy. Qisqa masofalarga yugurish texnikasini o‘rganish.

**4-mashg‘ulot.** Amaliy. O‘rta va uzoq masofalarga yugurish texnikasini o‘rganish.

### 2-mavzu. To‘siqlar yo‘lagi (qatori)dan o‘tish.

**1-mashg‘ulot.** Amaliy. To‘siqlar yo‘lagi elementlari va yengib o‘tish tartibi bilan tanishish. Alohida to‘siqlardan o‘tish usullari va ularni yengib o‘tishni mashq qilish. To‘siqlar yo‘lagidagi alohida to‘siq va to‘siqlar majmuasidan o‘tishni o‘rganish, egallangan ko‘nikmalarni takomillashtirish.

**2-mashg‘ulot.** Amaliy. Nazorat mashqlarini bajarish bo‘yicha malakalarni takomillashtirish. To‘siqlar yo‘lagidan o‘tish bo‘yicha nazorat



shartlari asosida shaxsiy va jamoaviy birinchilik uchun musobaqalar o'tkazish.

3-4-mashg'ulot. Amaliy. DO'M davrida o'tkaziladi. To'siqlar yo'lagida mashq bajarish bo'yicha malakalarini takomillashtirish. Granata uloqtirishni mashq qilish. Shaxsiy va jamoaviy birinchilik uchun musobaqalar o'tkazish.

### **3-mavzu. Qo'l jangi**

**1-mashg'ulot.** Amaliy. Qo'l jangining tayyorgarlik mashqlarini (o'zini himoya qilish, jangga tayyorlanishni) o'rganish va mashq qilish. Tayyorgarlik mashqlarini kompleks bajarish.

**2-mashg'ulot.** Amaliy. Hujum qilish usullari: jangga tayyorlik holati, qo'l bilan to'g'ridan, yon tarafdin, tepadan zarba berish hamda oyoq bilan to'g'ridan, yuqoridan, yon tarafdin, pastdan zarba berish usullarini o'rganish va mashq qilish.

**3-mashg'ulot.** Amaliy. Qo'l va oyoq bilan beriladigan zarbalardan himoyalash usullarini o'rganish va mashq qilish.

**4-mashg'ulot.** Amaliy. Dushman pichoq bilan yuqoridan, pastdan, yon tarafdin, to'g'ridan zarba berganda himoyalash usullarini o'rganish va mashq qilish. Pichoq bilan zarba berayotgan dushmanni qurolsizlantirish.

**5-mashg'ulot.** Amaliy. Og'riq beruvchi usullarni bajarishni o'rganish va mashq qilish: raqibning oldidan va orqasidan kelib qo'lini orqasiga qayirish. Dushmanning qo'lini ichkariga va tashqariga qayirish. Dushmanni bo'g'ish.

**6-mashg'ulot.** Amaliy. Orqadan chalib yiqitish. Orqadan dushmanning oyoqlaridan ushlab yiqitish usullarini o'rganish va mashq qilish. Dushman qo'l, oyoq, gavda va bo'yindan (kiyim yoqasidan) ushlab olganda Dushmandan qutulib ketish usullarini o'rganish va mashq qilish.

**7-mashg'ulot.** Amaliy. Avtomatning nayza-pichog'ini sanchish. Stvol, qo'ndoq, o'qdon hamda sapyor belkuragi bilan zarba berish usullarini o'rganish va mashq qilish. Dushman avtomat nayza-pichog'ini sanchmoqchi bo'lganida nayza-pichoqni chap yoki o'ng tarafga urib yuborish, zarbadan chappa yoki o'ngga chap berib, dushmanni qurolsizlantirish. Maxsus mashq tayog'i bilan mashq qilish. Dushman qurolni ushlab olganda qutulib ketish.

**8-mashg'ulot.** Amaliy. Dushman to'pponchasini g'ilof (kobura)dan olayotganda, u to'pponchani old yoki orqa tomondan o'qtalib xavf solganda, uni qurolsizlantirish usullarini o'rganish va mashq qilish. Dushmanning qo'lini bog'lash usullarini o'rganish hamda mashq qilish.

## **Nazorat mashg'ulotlari.**

**1-2-mashg'ulotlar.** Amaliy. 1-3-mavzular bo'yicha DO'M da o'tkaziladi.

## **HARBIY ISH ASOSLARI**

### **Ta'limiy vazifasi**

Harbiy ish asoslari bo'limida zamonaviy jang turlarini va ularning xarakteristikasini bilish, askarning jang oldi va jang olib borishdagi majburiyatlarida ko'rsatilgan harakatlarni bajarish, hujum va mudofaa jangida harakatlanish usul hamda amallarni bajarish, kuzatish va razvedka qilish, xaritasiz mo'ljal olish va azimut bo'yicha harakatlanish amallarini bajarish bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladilar. Lokal qurolli to'qnashuvlar, axborot kurashlari, chet el armiyalarining qurol-aslahalari, jangovar texnikasi hamda zamonaviy qirg'in vositalariga oid ma'lumotlarga ega bo'ladilar, ularga qarshi kurashish usullarini o'rganadilar.

### **O'quvchilar quyidagi bilimlarga ega bo'lishlari kerak:**

- umumqo'shin jangi turlari, taktik tayyorgarlik va manevr turlarini;
- motoo'qchi guruh tarkibi, vazifasi, qurollanishi, harbiy texnikasi hamda guruhning jangovar imkoniyatlarini;
- askarning jang oldi va jangdagi majburiyatlarini;
- hujum va mudofaa jangida harakatlanish tartibini;
- o't ochish turlarini;
- xandaq qazish, uni jihozlash va niqoblash tartibini;
- kuzatuvchi askar sifatida, shuningdek, ilg'or (dozor) bo'linma sifatida harakatlanishni;
- joyda xaritasiz mo'ljal olish va azimut bo'yicha harakatlanish tartibi va usullarini;
- tankka va piyodalarga qarshi minalarning vazifasi, tuzilishi, ishlash tamoyili, jangovar xususiyatlari va ularni joylashtirish, niqoblash va zararsizlantirish tartibini;
- zamonaviy uchuvchisiz uchish vositalari, raketa qurilmalari, aloqa vositalarini;
- axborot kurashlarining kelib chiqish sabablari, ularni qo'llash usullari va vositalarini;
- lokal qurolli to'qnashuvlar haqida tushunchalarni va ularga olib keluvchi sabablarni;

- chet el armiyalarining harbiy samolyotlari va vertolyotlari, o‘qotar qurollari va jangovar texnikasining imkoniyatlarini;
- dushmanning harbiy samolyotlari, vertolyotlari, zirhli texnikasi bilan kurashish usullari va vositalarini;
- dushman tomonidan ommaviy qirg‘in vositalari hamda zamonaviy oddiy qirg‘in vositalari qo‘llanganida ulardan himoyalaniş usullarini.

**O‘quvchilar quyidagi ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishlari kerak:**

- otish va kuzatish uchun joy tanlash;
- okop qazish, uni jihozlash va niqoblash;
- belgilangan maydonda kuzatuv olib borishni, joy atrofidagi jismlarga nisbatan nishonlarning joylashuvini aniqlash hamda kuzatuv natijalari to‘g‘risida axborot berish;
- qo‘l granatalarini uloqtirish;
- tankka qarshi minalarni o‘rnatish, ular o‘rnatilgan joylarni aniqlash va guruh tarkibida mina maydonlaridan yo‘l ochib o‘tish;
- askarning jangdagi harakatlari, usullari va amallarini to‘g‘ri bajarish;
- kuzatuvchi askar va ilg‘or bo‘linma (dozor) sifatida harakatlanish;
- shaxsiy himoya vositalarini qo‘llash;
- guruh tarkibida harakatlanish;
- xaritasiz mo‘ljal olish, azimut bo‘yicha harakatlanish.

**“Harbiy ish asoslari” bo‘limi bo‘yicha mavzularni o‘rganish uchun ajratiladigan o‘quv soatlari taqsimoti**

№	Mavzular nomi	Soatlar miqdori		
		Hammasi	Ta‘lim muassasida	DO‘Mda
1	Umumqo‘shin jangi asoslari	6	6	
2	Askarning jangdagi harakatlari	8	4	4
3	Razvedka	2	2	
4	Muhandislik to‘siqlari	3	2	1
5	Joyda xaritasiz mo‘ljal olish va azimut bo‘yicha harakatlanish.	3	2	1
6	Axborot kurashlari va lokal qurolli to‘qnashuvlar	2	2	
7	Nazorat mashg‘ulotlari	4	2	2
	<b>Jami</b>	<b>28</b>	<b>20</b>	<b>8</b>

## **1-mavzu: Umumqo‘shin jangi asoslari.**

**1-mashg‘ulot.** Nazariy. Jang haqida tushuncha. Zamonaviy umumqo‘shin jangining tavsifi, maqsadi va turlari.

**2-mashg‘ulot.** Nazariy. Askarning jang oldi va jangdagi majburiyatlari. Askarning dala anjomlari to‘plami (ekipirovkasi).

**3-mashg‘ulot.** Nazariy. Guruhning tarkibi, qurollanishi, jangovar texnikasi va imkoniyatlari. Guruhning harakatlanish taktikasi.

**4-mashg‘ulot.** Nazariy. Jangdagi vazifalarni muvaffaqiyatli bajarilishini ta‘minlovchi shartlar. O‘t ochish - jangda dushmanni yakson qilishning asosiy vositasi. O‘t ochish turlari. Jangdagi manevrlar to‘g‘risida tushuncha. Manevr turlari. Jangovar ta‘minot.

**5-mashg‘ulot.** Nazariy. Zamonaviy armiyalarning tanklari, zirhli mashinalari, o‘ziyurar artilleriya qurilmalari. Ularning taktik-texnik ko‘rsatkichlari va zaif joylari. Ularga qarshi kurashish usullari.

**6-mashg‘ulot.** Nazariy. Zamonaviy armiyalarning havo hujumi va uchuvchisiz uchish vositalari hamda raketa qurilmalari. Ularning taktik-texnik tavsifi. Ularga qarshi kurashish usullari.

## **2-mavzu: Askarning jangdagi harakatlari**

**1-mashg‘ulot.** Amaliy. Askarning mudofaadagi harakatlari. O‘t ochish marrasi (pozitsiya)ni tanlash va uni egallash. Yotib otish uchun handaqni qazish, jihozlash va uni niqoblash.

**2-mashg‘ulot.** Amaliy. Dushman o‘t ochishni boshlaganda, ommaviy va oddiy qirg‘in qurollarini qo‘llaganda yoki hujumga o‘tganda askarning harakatlanish tartibi. Mudofaa marrasiga yetib kelgan dushmanni yo‘q qilish. Xabar signallari bo‘yicha harakatlanish.

**3-mashg‘ulot.** Amaliy. Askarning hujumdagi harakatlari. Hujumga tayyorlanish, hujumga o‘tish hamda hujumning yakunlovchi bosqichi (ataka) ga o‘tish tartibi. Hujumning yakunlovchi bosqichi davomida dushmanni yo‘q qilish usullari. Jang maydonidagi to‘siqlarni yengib o‘tish. Jang maydonida piyoda harakatlanish usullari. Havo hujumidan himoyalaniish yo‘llari.

**4-mashg‘ulot.** Amaliy. Guruhning o‘t ochish marrasining muhandislik jihozlanishi. Zirhli texnika, pulemyotchi, granatamyotchi, avtomatchi uchun mo‘ljallangan xandaq namunalarini, shaxsiy tarkib uchun mo‘ljallangan yopiq o‘ralarni hamda jihozlangan bog‘lovchi xandaqlarni qazish va jihozlash. Yotib, tizzalab, tik turib otish uchun xandaq qazish, jihozlash va niqoblash.

**5-6-mashg‘ulot.** Amaliy. Ushbu mashg‘ulotlar 1-2 mashg‘ulotlarda ko‘rsatilgan o‘quv savollari bo‘yicha DO‘Mda o‘tkaziladi.

**7-8-mashg‘ulot.** Amaliy. Ushbu mashg‘ulotlar 3-4 mashg‘ulotlarda ko‘rsatilgan o‘quv savollari bo‘yicha DO‘M da o‘tkaziladi.

### **3-mavzu: Razvedka.**

**1-mashg‘ulot.** Nazariy. Buyuk sarkardalarimizning razvedka sohasidagi tajribasi. Razvedkaning mohiyati, maqsadi va vazifasi. Razvedkaning turlari, usullari, vositalari. Kuzatuvchi askarning vazifasi. Joyni kuzatish usullari. Berilgan kuzatish yo‘nalishida nishonlarni aniqlash. Kuzatuv natijalari to‘g‘risida axborot berish.

**2-mashg‘ulot.** Nazariy. Razvedka ilg‘ori (dozor) ning vazifasi. Razvedka ilg‘orining harakatlanish tartibi. O‘rmon, aholi punkti, daryo, jarlik va balandliklarni ko‘zdan kechirish tartibi. Aloqa va signal vositalari orqali xabar berish.

### **4-mavzu. Muhandislik to‘siqlari.**

**1-mashg‘ulot.** Nazariy. Muhandislik to‘siqlarining vazifasi va turlari: portlaydigan, portlamaydigan hamda aralash to‘siqlar. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida qo‘llanadigan tankka va piyodalarga qarshi minalar. Ularning vazifasi, tuzilishi, jangovar ko‘rsatkichlari.

**2-mashg‘ulot.** Nazariy. Tankka qarshi minalarni o‘rnatish tartibi. O‘rnatilgan minalarni aniqlash usullari. O‘rnatilgan minalarni oshkor qiluvchi belgilar.

**3-mashg‘ulot.** Amaliy. DO‘M da o‘tkaziladi. Minali maydonlardan yo‘l ochib o‘tish usullari.

5-mavzu. Joyda xaritasiz mo‘ljal olish va azimut bo‘yicha harakatlanish.

**1-mashg‘ulot.** Nazariy. Harbiy topografiya va uning ahamiyati. Joyda xaritasiz mo‘ljal olish hamda harakatlanishning mohiyati va usullari. Kompas, soat, quyosh va mahalliy jismlar yordamida ufq tomonlarini aniqlash.

**2-mashg‘ulot.** Nazariy. Magnit azimuti va uni aniqlash. Magnit azimuti bo‘yicha yo‘nalishni aniqlash. Azimut bo‘yicha belgilangan yo‘nalishdan og‘ishmasdan harakatlanish. To‘siqlarni aylanib o‘tish.

**3-mashg‘ulot.** Amaliy. DO‘M da o‘tkaziladi. 1-2-mashg‘ulotda ko‘rsatilgan o‘quv savollari bo‘yicha o‘tkaziladi.

## **Nazorat mashg'uloti:**

**1-2- mashg'ulotlar.** 1-5- mavzular bo'yicha DO'Mda o'tkaziladi.

6-mavzu. Axborot kurashlari va lokal qurolli to'qnashuvlar.

**1-mashg'ulot.** Nazariy. Axborot kurashlari tushunchasi, mohiyati, maqsadi va turlari. Axborot kurashlarining vazifasi, olib borilish usullari va vositalari. Unga qarshi kurashish usullari.

**2-mashg'ulot.** Nazariy. Lokal qurolli to'qnashuvlar tushunchasi, mohiyati, maqsadi, yuzaga kelish sabablari. Lokal qurolli to'qnashuvlarni olib borish taktikasi, usullari, vositalari.

## **Nazorat mashg'uloti:**

**1-2- mashg'ulotlar.** 1-3- mavzular bo'yicha o'tkaziladi.

## **FUQARO MUHOFAZASI (o'g'il va qiz bolalar uchun)**

Ta'limiy vazifasi:

Fuqaro muhofazasi – tinchlik va favqulodda vaziyatlar davrida o'tkaziladigan umumdavlat mudofaa tadbirlarining tarkibiy qismidir. Bu tadbirlar tinchlik va zararlangan hududlarda kechiktirib bo'lmaydigan qutqarish-tiklash ishlarini favqulodda vaziyatlar davrida aholini hamda iqtisodiyot obyekti dushmanning ommaviy va boshqa zamonaviy qirg'in vositalaridan himoya qilish, favqulodda vaziyatlardan amalga oshirish uchun o'tkaziladi. Ushbu bo'limda o'quvchilar yuqorida bayon etilgan vazifalar bo'yicha nazariy bilim hamda amaliy ko'nikmalarni egallaydilar.

O'quvchilarda fuqaro muhofazasi tashkiliy tizimi va uning vazifalari, tinchlik va favqulodda vaziyatlar davrda o'tkaziladigan umumdavlat mudofaa tadbirlariga doir bilim va ko'nikmalar shakllantiriladi.

### **O'quvchilar quyidagi bilimlarga ega bo'lishlari kerak:**

- O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi vazifasi va tashkiliy tuzilishini;
- Favqulodda vaziyatlar va ularning oldini olish hamda harakat qilish Davlat tizimining vazifasi va tashkiliy tuzilishini;
- O'zbekiston Respublikasi hududida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlar va ularning yuzaga kelish sabablarini;

– aholini va moddiy boyliklarni yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan favqulodda vaziyatlar oqibatlaridan muhofaza qilish maqsadida amalga oshirilayotgan umumdavlat tizimining tuzilishini;

– aholini ko‘chirish (evakuatsiya) qoidalari hamda usullari, shuningdek, zararlangan hududlarda favqulodda holatlarni bartaraf etish, qutqarish va boshqa shoshilinch chora -tadbirlarni tashkil etish hamda o‘tkazish usullarini;

– korxonalar va muassasalarda (ta‘lim muassasalari) fuqaro muhofazasining tashkiliy tizimi hamda vazifalarini;

– radiatsion, dozimetrik va kimyoviy razvedka asboblari vazifasi va tuzilishini;

– fuqaro muhofazasi himoya inshootlarining tuzilishi va vazifasini;

– favqulodda vaziyatlarda aholini ogohlantirish va ko‘chirish tartibini;

– favqulodda vaziyatlarda o‘zini tutish qoidalari va muhofazalanish usullarini.

### **O‘quvchilar quyidagi ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishlari kerak:**

– favqulodda vaziyatlar chog‘ida to‘g‘ri va tezkor harakat qila olish;

– favqulodda vaziyatlarda irodali, qat‘iyatli, intizomli, ruhan muvozanatli bo‘lish;

– fuqaro muhofazasi signallari bo‘yicha to‘g‘ri harakat qila olish;

– favqulodda vaziyatlarda shaxsiy va kollektiv himoya vositalaridan foydalanish;

– radiatsion, dozimetrik va kimyoviy razvedka asboblaridan foydalanishni;

– favqulodda vaziyatlar chog‘ida o‘ziga va jarohatlanganlarga birinchi tibbiy va boshqa zaruriy yordamni ko‘rsatish.

**“Fuqaro muhofazasi” bo‘limi bo‘yicha mavzularni o‘rganish uchun  
ajratiladigan o‘quv soatlari taqsimoti**

№	Mavzular nomi	Hammasi	Soatlar miqdori	
			Ta'lim muassasasida	
			O‘g‘il bolalar	Qiz bolalar
1	O‘zbekiston Respublikasida Fuqaro muhofazasining tashkil etilishi	2	2	2
2	O‘zbekiston Respublikasi hududida sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan favqulodda vaziyatlar tasnifi.	2	2	2
3	Aholini favqulodda vaziyatlardan ogoh etish. Aholini ko‘chirish (evakutsiya) tadbirlarini tashkil etish.	2	2	2
4	Zamonaviy ommaviy qirg‘in qurollari va ulardan himoyalanish	4	4	4
5	Shaxsiy (individual) himoya vositalari. Ularning vazifasi, tuzilishi va ulardan foydalanish.	6	6	6
6	Fuqaro muhofazasining himoya inshootlari	2	2	2
7	Favqulodda vaziyatlar yuz berganda va zararlanish o‘chog‘ida qutqarish – tiklash ishlari. Sanitar ishlovi o‘tkazish.	2	2	2
8	Radiatsion, kimyoviy razvedka va dozimetrik nazorat asboblari	2	2	2
9	Fuqaro muhofazasi va terrorizm	2	2	2
	Nazorat mashg‘uloti	2	2	2
	<b>Jami</b>	<b>26</b>	<b>26</b>	<b>26</b>

**1-mavzu: O‘zbekiston Respublikasida Fuqaro muhofazasining tashkil etilishi.**

**1-mashg‘ulot.** Nazariy. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligini tashkil etish to‘g‘risida”gi farmoni (1996 yil 4 mart). FVV-fuqaro muhofazasi sohasidagi halokat, falokat hamda tabiiy ofatlarning oldini olish, ularning oqibatlarini bartaraf etish bo‘yicha rahbar idora. O‘zbekiston Respublikasining “Fuqaro muhofazasi to‘g‘risida”gi qonuni (2000- yil 26- may). Fuqaro muhofazasi – favqulodda vaziyatlar oqibatida yuzaga keladigan xavflardan muhofaza qilish davlat tizimi sifatida. O‘zbekiston Respublikasi fuqaro muhofazasi



tizimining vazifalari, xizmatlari va kuchlari. Iqtisodiyot obyektlarida (ta'lim muassasalarida) fuqaro muhofazasining tashkil etilishi.

**2-mashg'ulot.** Nazariy. O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish Davlat tizimi, uning darajalari va shakllanishi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish Davlat tizimi to'g'risida"gi № 242-sonli qarori (2011 yil 24 avgust). Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va harakat qilish Davlat tizimining (FVDT) faoliyat ko'rsatish tartibi.

### **2-mavzu: O'zbekiston Respublikasi hududida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlar tasnifi.**

**1-mashg'ulot.** Nazariy. O'zbekiston Respublikasining "Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida"gi qonuni (1999 -yil 20-avgust). Favqulodda vaziyat tushunchasi va ularning tasnifi.

**2-mashg'ulot.** Nazariy. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Texnogen, tabiiy va ekologik tushdagi favqulodda vaziyatlarning tasnifi to'g'risida"gi № 455- sonli qarori (1998 yil 27 oktyabr). Texnogen, tabiiy va ekologik xususiyatli favqulodda vaziyatlar tushunchasi. Lokal, mahalliy, respublika va transchegarali favqulodda vaziyatlar.

### **3-mavzu. Aholini favqulodda vaziyatlardan ogoh etish. Aholini ko'chirish (evakuatsiya) tadbirlarini tashkil etish.**

**1-mashg'ulot.** Nazariy. Aholini favqulodda vaziyatlarlardan ogohlantirish. Aholiga favqulodda vaziyat haqida xabar berish va ogohlantirishning asosiy usullari. Obyekt ( ta'lim muassasalari) shaxsiy tarkibining "**DIQQAT HAMMAGA!**" signali bo'yicha harakati va o'zini tutish qoidalari. Tinchlik paytida ta'lim muassasasida favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularning oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha harakatlanish rejasi.

**2-mashg'ulot.** Nazariy. Aholini ko'chirish (evakuatsiya) tamoyillari, usullari hamda vositalari. Ko'chirish tadbirlarini o'tkazishni rejalashtirish va o'tkazish. Ko'chirish hay'atlari, yig'uv-ko'chirish punktlari. Transport vositalariga chiqarish hamda tushirish bekatlari. Ko'chirilganlarni qabul qilish punktlarining vazifasi va faoliyati. Ko'chirish jarayonida transport vositalaridan foydalanish. Ko'chirish vaqtida aholining o'zini tutish qoidalari va burchlari.

#### **4-Mavzu. Zamonaviy ommaviy qirg'in qurollari va ulardan himoyalanish.**

**1-mashg'ulot.** Nazariy. Yadro quroli-xavfsizlikka ulkan tahdid sifatida. Yadro qurolidan xoli hudud tushunchasi hamda yadrosizlik tamoyillari. Yadroviy qurolning portlash turlari va qo'llash vositalari. Yadroviy zararlanish o'chog'i. Yadro portlashining zararlovchi omillari.

**2-mashg'ulot.** Nazariy. Neytron va vodorod bombalari. Yadro qurolidan himoyalanish.

**3-mashg'ulot.** Nazariy. Kimyoviy qurol va uni qo'llash vositalari. Jangovar zaharlovchi moddalarning turlari. Kimyoviy binar quroli

**4-mashg'ulot.** Nazariy. Kimyoviy zaharlanish o'chog'i. Jangovar zaharlovchi moddalarning qo'llanganligini ko'rsatuvchi belgilar. Kimyoviy qurolning organizmga ta'siri va zaharlanish belgilari.

**5- mashg'ulot.** Nazariy. Bakteriologik (biologik) qurol. Uning qo'llanganligi belgilari. Asosiy bakteriologik (biologik) vositalarning qisqacha tavsifi. Bakteriologik zaxarlanish o'chog'i. Karantin va observatsiya xaqida tushuncha.

**6- mashg'ulot.** Nazariy. Zamonaviy oddiy qirg'in vositalari. Parchalanuvchi, sharikli, fugasli qurol-aslahalar. Portlaganda xajmi ortadigan bombalar. Yondiruvchi qurollar.

#### **5- mavzu. Shaxsiy (individual) himoya vositalari. Ularning vazifasi, tuzilishi va ulardan foydalanish.**

**1- mashulot.** Amaliy. Nafas olish a'zolarini himoya qiluvchi zamonaviy shaxsiy himoya vositalari. Umumqo'shin gazniqoblari. GP-5, GP-7 fuqaro gazniqoblari. Bolalar gazniqoblari. Ularning vazifasi, tuzilishi hamda ulardan foydalanish tartibi. Respiratorlar. Changga qarshi matoli niqob (CHQN-1), paxta-dokali bog'lagich hamda ulardan foydalanish.

**2-mashg'ulot.** Amaliy. Changga qarshi matoli niqob (CHQN-1), paxta– doka bog'lagichlarini tayyorlash va foydalanish. Jarohatlangan odamga gazniqob kiydirish bo'yicha me'yorlarni bajarish.

**3-mashulot.** Amaliy. Terini himoya qilish vositalari. Maxsus vositalar – umumqo'shin himoya to'plami (OZK), yengil himoya kostyumi (L-1). Umumqo'shin himoya to'plamini "Yoping'ich", "Plashch", "Kombinezon" usulida kiyish. L-1 engil himoya kostyumini kiyish. Terini himoya qilishning qo'lbola vositalaridan foydalanish. Qo'shimcha tadbir va usullarni qo'llash orqali (qo'lbola aralashmaga bo'ktirish) ularning himoyaviy xususiyatlarini oshirish.

**4- mashg‘ulot.** Amaliy. Himoyaning tibbiy vositalari. Shaxsiy doriqutisi (AI-2). Zaharlovchi kimyoviy moddalarga qarshi shaxsiy paketdan (IPP-8, IPP-9) foydalanish.

### **6- mavzu. Fuqarolar muhofazasining himoya inshootlari.**

**1-2- mashg‘ulot.** Nazariy. Panagohning tuzilishi va jihozlanishi. Radiatsiyaga qarshi panagohlar (PRU). Oddiy pana joylar (ochiq va yopiq o‘ralar). Yerto‘la va boshqa chuqurlashtirilgan xonalarni aholini himoyalash uchun moslashtirish. Oddiy panajoylar va ularni qurish tartibi. Aholini panagohga joylashtirish. Panagohlarda o‘zini tutish qoidalari.

### **7 - mavzu. Favqulodda vaziyatlar yuz berganda va zararlanish o‘chog‘ida qutqarish – tiklash ishlari. Sanitar ishlovi o‘tkazish.**

**1- mashg‘ulot.** Nazariy. Qutqaruv – Tiklash ishlarining asosiy vazifalari. Qutqaruv – Tiklash ishlariga jalb etiladigan kuch va vositalar. Kechiktirib bo‘lmaydigan qutqaruv – Tiklash ishlarini amalga oshirish tartibi, bajarish qoidalari va usullari. Qutqaruv – Tiklash ishlarini olib borishda xavfsizlik qoidalari amal qilish. Iqtisodiyot obyektlari faoliyati barqarorligini ta‘minlanishining ahamiyati.

**2-mashg‘ulot.** Nazariy. Favqulodda vaziyatlarda sanitar bo‘linmalarning birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish bo‘yicha harakatlari. Jabrlanganlarni ko‘chirish (evakuatsiya), transportga o‘tkazish va davolash muassasalariga yetkazish. Radioaktiv va kuchli ta‘sir etuvchi zaharli moddalar hamda bakteriologik vositalar bilan zararlanganda to‘la va qisman sanitar ishlovini o‘tkazish. Kiyim-bosh, poyabzal hamda shaxsiy himoya vositalarini dezaktivizatsiya, degazatsiya va dezinfeksiya qilish usullari.

### **8 - mavzu. Radiatsion, kimyoviy razvedka va dozimetrik nazorat asboblari.**

**1-mashg‘ulot.** Amaliy. Radioaktiv nurlanish. Nurlanish miqdorini o‘lchovchi (dozimetrik) asboblarni tasnifi. Doza quvvatini o‘lchovchi asboblarni. Ularning vazifasi, tuzilishi hamda ishlash tamoyili. Shaxsiy dozimetrlar. Nurlanishning dozimetrik nazoratini tashkil etish. Nazoratning shaxsiy va jamoaviy usullari. Radioaktiv nurlanishning salbiy oqibatlarini.

**2-mashg‘ulot.** Amaliy. Umumqo‘shin kimyoviy razvedka asbobi. Uning vazifasi, tuzilishi va texnik tavsifi. Havodagi va yuzadagi zaharlovchi moddalarni aniqlash.

## **9- mavzu. Fuqaro muxofazasi va terrorizm.**

**1-mashg‘ulot.** Nazariy. Terrorizm - shaxs va jamiyatga qarshi jinoyat. O‘zbekiston Respublikasining “Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida”gi qonuni.

**2-mashg‘ulot.** Nazariy. Xalqaro terrorizm tushunchasi. Terrorizm turlari. Terrorchilik tashkilotlariga umumiy tavsif.

### **Nazorat mashg‘ulotlari**

**1-2-mashg‘ulot.** Amaliy. 3 va 4 mavzular bo‘yicha o‘tkaziladi.

## **TIBBIY BILIM ASOSLARI**

### **Ta’limiy vazifasi:**

Tibbiy bilim asoslari bo‘limida o‘quvchilar jarohatlar va shikastlanishlar haqida, shuningdek, ular yuzaga kelganda o‘ziga va o‘zaro birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish tartibi, qoidalari, vositalari haqida nazariy bilim hamda amaliy ko‘nikma oladilar. O‘quvchilarga birinchi tibbiy yordamning mohiyati va vazifalari tushuntiriladi..

#### **O‘quvchilar quyidagi bilimlarga ega bo‘lishlari kerak:**

- turli jarohatlar tavsifini;
- qon ketishi turlarini va ularning asoratlarini;
- jarohat va shikastlanishlarning o‘ziga xos xususiyatlarini;
- suyak sinishi turlari va ularning asoratlarini;

#### **O‘quvchilar quyidagi ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishlari kerak:**

- jarohatlanganda, shikastlanganda tibbiy bog‘lam quyish;
- qonni vaqtincha to‘xtatuvchi jgut hamda suyak singanda shina quyish;
- sun’iy nafas berish va yurakni uqalash.

**“Tibbiy bilim asoslari” bo‘limi bo‘yicha mavzular nomi va uni o‘rganish uchun ajratilgan o‘quv soatlari taqsimoti**

<b>№</b>	<b>Mavzular nomi</b>	<b>Soatlar miqdori</b>	<b>Ma’ruza</b>	<b>Amaliyot</b>
1	Shikastlanganda, baxtsiz hodisa sodir bo‘lganda va jarohatlanganda (yaralanganda) birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish	6	1	5
	<b>Jami</b>	<b>6</b>	<b>1</b>	<b>5</b>

**1-mavzu. Shikastlanganda, baxtsiz hodisa sodir bo‘lganda va jarohatlanganda (yaralanganda) birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish.**

**1-mashg‘ulot.** Nazariy. Jarohat (yara) to‘g‘risida tushuncha, jarohatning turlari. Jarohatlanganda birinchi tibbiy yordam. Tibbiy bog‘lam quyish va bog‘lash uchun materiallar. Shaxsiy tibbiy bog‘lash jamlanmasidan foydalanish qoidalari.

**2-mashg‘ulot.** Nazariy. Kuyish, cho‘kish, sovuq urishi haqida tushuncha hamda shunday holatlar yuzaga kelganda birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish.

**3-mashg‘ulot.** Amaliy. Bosh, ko‘krak, qorin, qo‘l va oyoqlarga tibbiy bog‘lamlar qo‘yish tartibi.

**4-mashg‘ulot.** Amaliy. Qon ketishi turlari. Qon ketishini vaqtincha to‘xtatish usullari. Arteriya qon tomirlarini barmoq bilan bosish nuqtalari. Qon ketishida tibbiy tasma va qo‘lbola siquvchi bog‘lamdan foydalanish qoidalari.

**5-mashg‘ulot.** Amaliy. Suyak sinishi to‘g‘risida tushuncha. Suyak sinishining turlari va uning belgilari. Bosh suyagi, yelka, ko‘krak qafasi, oyoq yoki qo‘l suyaklari singanda birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish.

**6-mashg‘ulot.** Amaliy. Radiatsiyadan hamda kuchli ta’sir etuvchi zaharli moddalar bilan zararlanganda birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish. Radiatsion zararlanishning oldini olish. Shaxsiy tibbiy himoya vositalaridan, shaxsiy tibbiy doriqutisi. Zaharlovchi kimyoviy moddalarga qarshi shaxsiy paketdan foydalanish.

## **TIBBIY BILIM ASOSLARI**

### **(O‘quvchi qizlar uchun).**

O‘quvchi qizlarni vatanparvarlik hamda bemorlarga nisbatan insoniy munosabatda bo‘lish ruhida tarbiyalash, ularga jarohatlangan yoki bemor kishilarga tibbiy yordam ko‘rsatish maqsadida tibbiy bilim va ko‘nikmalarni ongli suratda, puxta egallash har bir fuqaroning muqaddas burchi ekanligini tushuntirish.

Ta’lim jarayonida asosiy e’tibor o‘quvchilarning birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish ko‘nikmalarini egallashi, jarohatlangan yoki bemor kishiga qarayotgan paytda muolajalarni tez, to‘g‘ri va sifatli o‘tkazishi, jarohatlangan yoki bemorlarga yuqori ma’naviy fazilatlarini singdirish, shuningdek, ularga sifatli va malakali xizmat ko‘rsatishning muhimligi hamda ahamiyatini tushuntirishga qaratilgan.

Nazariy mashg‘ulotlar hikoya qilish uslubida ko‘rgazmali qurollardan foydalangan holda amalga oshiriladi. Nazariy ma’ruza hajmi amaliyot davrida amallarni bajarishda qancha vaqt zarur bo‘lsa shundan kelib chiqadi. Amaliy mashg‘ulotlar davrida o‘qituvchi avval amallarni bajarib, ko‘rsatib, tushuntirgandan so‘ng o‘rganuvchilardan so‘raydi. O‘quvchi qizlarni ta’lim muassasalarida o‘qitishdan asosiy maqsad:

- sanitar bo‘linmasi sifatida ishlashga tayyorlash;
- ularni tibbiy muassasalarda kichik tibbiy xodim sifatida faoliyat ko‘rsatishga tayyorlash.

#### **O‘quvchi qizlar quyidagi bilimlarga ega bo‘lishlari kerak:**

- tibbiy xizmat asoslari hamda tibbiy xizmatning asosiy vazifalarini;
- birinchi tibbiy yordamning maqsad va vazifalarini;
- Tibbiy muassasaning tavsifi va uning tuzilishini;
- Tibbiy xizmat tadbirlarining o‘tkazilishini;
- Tibbiy ashyo va vositalardan to‘g‘ri hamda samarali foydalanishni;
- zararlanish o‘chog‘ida birinchi tibbiy yordam berish tartibi, me’yorlari hamda qoidalarini to‘g‘ri bajarishni.

#### **O‘quvchi qizlar quyidagi ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishlari kerak:**

- jarohatlanganda, kuyganda, kuchli ta’sir etuvchi zaharli moddalar va nurlanishdan shikastlanganlarga birinchi tibbiy yordam ko‘rsata olish;
- favqulodda vaziyatlarda ruhiy zo‘riqish holatidagi kishilarga birinchi yordam berish;

- epidemiologik kasalliklarning oldini olish bo‘yicha o‘tkaziladigan tadbirlarni bajarishni hamda bemorga qarov o‘tkaza olish;
- davolash muassasalarida kichik tibbiy xodim majburiyatlarini bajarishni.

**“Tibbiy bilim asoslari” bo‘limi bo‘yicha mavzularni o‘rganishga ajratiladigan soatlar taqsimoti**

№	Mavzular nomi	Soatlar miqdori		
		Hammasi	Ma’ruza	Amaliy
1.	Inson salomatligi. Inson salomatligiga shikast yetkazuvchi omillar.	6	6	-
2.	Favqulodda vaziyatlarda birinchi tibbiy yordam.	10	-	10
3.	Nurlanishdan zararlanish. Nurlanishdan zararlanganda birinchi tibbiy yordam berish tartibi.	4		4
4.	Jangovar zaharlovchi moddalardan zaharlanish. Zaharlanishning oldini olish hamda shikastlanganlarga birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish.	4	-	4
5	Davolash muassasalarida davolash muolajalarini bajarish. Shikastlangan odamlar va kasallarni parvarish qilish.	16	2	14
	<b>Jami</b>	<b>40</b>	<b>8</b>	<b>32</b>

**1-mavzu. Inson salomatligi. Inson salomatligiga shikast yetkazuvchi omillar.**

1-mashg‘ulot. Nazariy. Kasalliklarning qisqacha tavsifi hamda ularning yuzaga kelishiga sabab bo‘luvchi omillar.

2-mashg‘ulot. Nazariy. Inson salomatligi tushunchasi. Inson salomatligiga shikast yetkazuvchi omillar.

3-mashg‘ulot. Nazariy. Epidemiologik kasalliklar va ularning yuzaga kelishiga sabab bo‘luvchi omillar.

4-mashg‘ulot. Nazariy. Favqulodda vaziyatlarda epidemiologik kasalliklar yuzaga kelishining o‘ziga xos jihatlari.

5-mashg‘ulot. Nazariy. Jarohatlanganda hayotga xavf soluvchi omillar.

6-mashg‘ulot. Nazariy. Favqulodda vaziyatlarda kuzatiladigan ruhiy buzilishlar va ular oqibatida yuzaga keladigan salbiy oqibatlar.

## **2-mavzu. Favqulodda vaziyatlarda birinchi tibbiy yordam.**

1-mashg'ulot. Amaliy. Bog'lam turlari va bog'lam quyish qoidalari.

2-mashg'ulot. Amaliy. Tayanch – harakat apparati shikastlanganda birinchi tibbiy yordam.

3-mashg'ulot. Amaliy. Miya, bosh chanog'i jarohatlanganda hamda umurtqa pog'onasi shikastlanganda birinchi tibbiy yordam.

4-5-mashg'ulot. Amaliy. Ko'krak , qorin va tos suyagi sohasi jarohatlanganda birinchi tibbiy yordam.

6-mashg'ulot. Amaliy. Shikastlanish shoki. Shikastlanish shoki yuzaga kelganida birinchi tibbiy yordam.

7-mashg'ulot. Amaliy. Tezkor jonlantirish (reanimatsion yordam).

8-mashg'ulot. Amaliy. Klinik o'lim holatida birinchi tibbiy yordam.

9-mashg'ulot. Amaliy. Jangovar o'qdan jarohatlanganda birinchi tibbiy yordam.

10-mashg'ulot. Amaliy. Yondiruvchi vositalar ta'siridan kuyganda birinchi tibbiy yordam.

## **3-mavzu. Nurlanishdan zararlanish. Nurlanishdan zararlanganda birinchi tibbiy yordam berish tartibi.**

1-mashg'ulot. Amaliy. Nurlanishdan zararlanish. Nur kasalligi va uning bosqichlari. Nurlanishdan zararlanganda birinchi tibbiy yordam.

2-mashg'ulot. Amaliy. Shaxsiy tibbiy doriqutisi va undan foydalanish.

3-4-mashg'ulot. Amaliy. Dezaktivizatsiya amaliyotini o'tkazish.

## **4-mavzu. Jangovar zaharlovchi moddalardan zaharlanish. Zaharlanishning oldini olish hamda shikastlanganlarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish.**

1-mashg'ulot. Amaliy. Jangovar zaharlovchi moddalardan shikastlanish va ulardan zaharlanganda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish.

2-mashg'ulot. Amaliy. Jangovar zaharlovchi moddalar qo'llanganda harakatlanish tartibi.

3-4-mashg'ulot. Amaliy. Aholini sanitar ishlovdan o'tkazish. Degazatsiya amaliyotini o'tkazish.



## **5-mavzu. Davolash muassasalarida davolash muolajalarini bajarish.**

### **Shikastlangan odamlar va kasallarni parvarish qilish.**

1-mashg'ulot. Nazariy. Davolash muassasida faoliyat ko'rsatayotgan hamshiraning odob-axloqi, muomala madaniyati va mas'uliyati.

2-mashg'ulot. Nazariy. Davolash muassasida faoliyat ko'rsatayotgan hamshiraning shaxsiy gigiyenasi va kiyinishiga qo'yiladigan talablar.

3-mashg'ulot. Amaliy. Shikastlangan odamlar va kasallarni davolash jarayonida ularni parvarish qilib borishning ahamiyati. Shikastlangan odamlar hamda kasallarni davolash jarayonida bajariladigan ishlar. Jarrohlik amaliyotidan chiqqan, tanasi kuygan, nur kasalligidan shikastlangan kasallarni parvarish qilish. Kasal bolalarni parvarish qilish.

4-mashg'ulot. Amaliy. Bemorning shaxsiy gigiyenasi haqida tushuncha va uning bemorni davolashdagi ahamiyati. Bemorning yotish joyi, ko'rpa – To'shagini tayyorlash hamda uning ichki kiyimini almashtirish qoidalari. Bemorning terisi, tirnog'i, sochi, og'iz bo'shlig'i, qulog'i va ko'zini parvarish qilish qoidalari. Bemorni boqish, og'ir bemorlarga suv berish hamda ularni to'g'ri ovqatlantirish.

5-mashg'ulot. Amaliy. Davolash muassasalarida bajariladigan muolajalar. Bemorni tekshirish uchun har xil amallarni bajarish (tana harorati, tomir urishi va boshqalarni o'lchash). Tanadan ajralib chiqqan narsalarni (peshob, axlat va boshqalarni) yig'ish. Kompres, xantalli qog'ozcha va bankacha qo'yish, oshqozonni yuvish qoidalari. Kislorod yostig'ini to'ldirish hamda bemorga kislorod berish qoidalari.

6-mashg'ulot. Amaliy. Dori vositalarini saqlash va tarqatish. Tibbiy dori-darmonlar hamda ularni qo'llash me'yorlari haqida umumiy tushuncha. Kasalxonalar va poliklinikalar bo'limlarida tibbiy dori-darmonlarni saqlash hamda ularni bemorlarga tarqatish tartibi. Inson tanasiga tibbiy dori-darmonlarni kiritish usullari. Ba'zi tibbiy dori-darmonlarga nisbatan yuqori sezgirlik haqida tushuncha.

7-mashg'ulot. Amaliy. Shikastlangan odamlar va bemorlarni tashish. Bemorlarni tashish usullari va vositalari. Zambillar, aravachalar, o'rindiqlik va jarrohlik stoliga yotqizish qoidalari. Bemorlarni avtomobilga joylashtirish (yuklash) qoidalari.

8-mashg'ulot. Amaliy. Shikastlanganlar hamda bemorlarni qo'l va boshqa turli vositalar yordamida bir joydan boshqa joyga ko'chirish.

9-16 - mashg'ulot. Amaliy. Davolash maskanida amaliy mashg'ulotlar o'tkaziladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi –Toshkent. 2014- yil
2. O‘zbekiston Respublikasining “Umumharbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent. 2002.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Mudofaa to‘g‘risida”gi Qonuni. 2000.
4. O‘zbekiston Respublikasining “Fuqaro muhofazasi to‘g‘risida”gi Qonuni . 2000.
5. I.A.Karimov “O‘zbekiston XXI asr bo‘lag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari, taraqqiyot vakolatlari”.
6. I.A.Karimov “Milliy armiyamiz – mustaqilligimizning, tinch va osoyishta hayotimizning kafolatidir”, Toshkent, 2003.
7. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Ichki xizmat Nizomi , – T.: “O‘zbekiston”, 1996.
8. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Intizom Nizomi , – T.: “O‘zbekiston”, 1996.
9. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Garnizon va qorovullik xizmati Nizomi , – T.: “O‘zbekiston”, 1996.
10. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Saf Nizomi, – T.: “O‘zbekiston”, 1996.
11. “Наставление по физической подготовке” – T.: 1997- год
12. O. Qulto‘raev, A. Norboev, M. Ziyaeva, A. Avliyakov, “Hayot faoliyati xavfsizligi” o‘quv qo‘llanma, – T.: 2014.

### **III. Internet saytlar**

1. [www.Lex.uz](http://www.Lex.uz)
2. [www.Ziyonet.uz](http://www.Ziyonet.uz)
3. [www.metod.uz](http://www.metod.uz)
4. [www.armat.uz](http://www.armat.uz)
5. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)
6. [www.markaz.uz](http://www.markaz.uz)

## **Jismoniy tarbiya**

### **Tuzuvchilar:**

T.S.Usmonxo‘jaev – pedagogika fanlari doktori, professor

S.N.Qurbonov – O‘MKHT Markazi bosh mutaxassisi

R.Salomov – pedagogika fanlari doktori

G.Sh.G‘iyosov – O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan murabbiy,  
sport ustasi

X.K.Ataxanov – 2- Toshkent yuridik kolleji o‘qituvchisi

### **Taqrizchilar:**

F.Kerimov – pedagogika fanlari doktori, professor

Yu.Oripov – pedagogika fanlari nomzodi, dotsent.

## Kirish

Respublikamizda ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy va madaniy sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlar ta'limni, kadrlar tayyorlash tizimini tubdan yangilash va rivojlantirishni talab etadi. Shu boisdan ta'lim tizimini zamon talablari darajasida va erishilgan tajribalar asosida rivojlantirish orqali yosh avlodni jamiyat hayotida faol ishtirok etadigan har tomonlama etuk va yuksak ma'naviyatli qilib tarbiyalash davlatimizning eng ustivor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" mamlakatimizda ta'limni rivojlantirish va yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash borasidagi islohotlarni amalga oshirishning nazariy va amaliy asosini tashkil qilib, kelgusida ta'limni yanada rivojlantirishning istiqbollarini belgilovchi ahamiyatga molik hujjatlardir. Ushbu hujjatlarda O'zbekiston kelajagi bo'lgan yoshlarni jismonan sog'lom qilib voyaga etkazishga, mavjud istehdodni va iqtidorni namoyon etishlariga alohida ehtibor berilgan.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimida jismoniy tarbiya ta'limi quyidagi maqsad va vazifalarni amalga oshirishni talab qiladi.

– jismoniy tarbiya darslarida javobgarlikni his qiladigan, jamoatchi, irodali, tartibli, jamoat ishlarida faol qatnashadigan g'oyaviy chiniqqan va ijtimoiy dunyoqarashga ega bo'lgan yoshlarni tarbiyalash;

– o'z faoliyatida kasb-hunarga oid jismoniy tayyorgarlik ko'nikma va malakalarni shakllantirish;

– yuqori ishchanlikni ta'minlash, sog'liqni saqlash uchun doimiy ravishda jismoniy tarbiya bilan shug'ullanish;

– harakat faoliyati hajmini kengaytirish, jismoniy sifatlarini rivojlantirish va ruhiy qobiliyatlarini shakllantirish;

– hayotda kerakli mehnat faoliyatiga va mudofaa xizmatiga tayyorlash;

– jismoniy va ruhiy tayyorgarlikni uyg'unlashtirgan holda, harakat madaniyatiga, chiroyli tana tuzilishiga, optimal jismoniy taraqqiyotga va mustahkam sog'liqqa bo'lgan ehtiyojni shakllantirish;

– sog'lom turmush tarzini tashviqot qilish, xalq an'analaridan foydalanish, ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlarni shakllantirish;

– tanlangan sport turi bo'yicha o'z mahoratini muntazam takomillashtirish;

– kun tartibida faol harakatda bo'lish, jismoniy tarbiya va sport to'g'risidagi maxsus bilimlarni bilish, ko'nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat.

Ta'lim tizimida akademik litsey va kasb-hunar kollejlari asosiy bo'g'in sifatida muhim o'rin tutadi. Bu o'quv muassasalarida jismoniy tarbiya, sport, sog'lomlashtirish ishlarini rivojlantirish, ta'lim olayotgan o'quvchi yoshlarining sport turlariga qiziqishini oshirish, bilim, ko'nikma malakalarining to'laqonli bajarilishini ko'zlab, jismoniy tarbiya bo'yicha davlat ta'lim standartlari ishlab chiqilgan bo'lib, unda yoshlar egallashi lozim bo'lgan bilim ko'nikma va malakalar hamda o'quv yuklamasiga qo'yiladigan asosiy talablar belgilab berilgan.

Jismoniy tarbiya davlat standarti-standartli ta'lim majmuasi me'yorlari va talablari hujjati bo'lib hisoblanadi hamda ta'lim tizimi islohoti asosida takomillashib boradi. Jismoniy tarbiya ta'lim standarti uning funkstiyalari va tarkibi orqali ifodalaniladi.

Jismoniy tarbiya ta'limi standartining asosiy funkstiyalari va talablari quyidagilardan iborat:

1. Jismoniy tarbiya ta'limi vositalari yordamida o'quvchilarning jismoniy imkoniyatlarini kuchaytirish va jismoniy tarbiyaning ommaviylikini ta'minlash;

2. Jismoniy tarbiya ta'limi mazmunining uzviylikini ta'minlash. Jismoniy tarbiya sohasida bilimlarni jahon ta'lim standarti talablari darajasiga olib chiqish;

3. O'rta maxsus kasb-hunar ta'lim tizimidagi o'quv muassasalarida jismoniy tarbiya va ta'limini ijtimoiy ishlab chiqarish asosida amalga oshirish;

4. Jismoniy tarbiya ta'limini insonparvarlashtirish;

5. O'MKHT ning barcha bosqichlarda va yo'nalishlarida jismoniy tarbiya jarayonini nazorat qilish va boshqarish.

Jismoniy tarbiya darslari - jismoniy tarbiya va ta'limning asosiy shakli bo'lib, uning miqdori o'quv rejasida haftasiga 4 soat majburiy belgilanib, guruh o'quvchilari 10-15 tadan ikkiga bo'linib o'tkaziladi.

Darsdan tashqari paytlarda jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish: sport turlari bo'yicha sekstiyalari va qo'shimcha fakultativ mashg'ulotlar o'tkaziladi:

(fakultativ soatlar asosan guruhlarda o'qiyotgan ojiz o'quvchilar uchun hamda sport turlari bilan shug'ullanayotgan iqtidorli o'quvchilarni mahoratini yanada mustahkamlash maqsadida belgilanadi).

Ommaviy sport va jismoniy sog'lomlashtirish tadbirlari: sport bayramlari, sport turlari bo'yicha va milliy harakatli o'yinlar, musobaqalar, spartakiadalar, "ALPOMISH" va "BARCHINOY"

majmuasidagi tayyorgarlik testlarni bajarish bilan bajariladigan musobaqalar.

Mustaqil mashg'ulotlar: uy vazifalarini bajarish shaklida, darsda, o'tkazilgan mashqlar texnikasini takrorlash, rivojlantiruvchi, yondostiruvchi, imita'iaga mashqlarni bajarish, bolalar va o'smirlar sport maktablaridagi, mashg'ulotlar, ekskursiya, sayohatlar, harakatli va ko'ngilochar o'yinlar va boshqalar.

Jismoniy tarbiya fani bo'yicha o'quv jarayonida quyidagi hujjatlar zarur:

1. Jismoniy tarbiya fani bo'yicha o'quv dasturi.
2. Dars jadvali.
3. Guruhlar bo'yicha o'quv soatlarining I-II yarim yillikdagi taqsimoti.
4. I-II yarim yillikda o'quvchilardan qabul qilinadigan mezonlar.
5. Guruhlar bilan o'tkaziladigan dars ish rejasi, grafigi.
6. Dars konspekti.
7. Guruhlarni jismoniy tayyorgarligidan qabul qilinadigan ishchi jurnali.
8. Jismoniy tomondan kasalligi bo'yicha tibbiy vrach ruxsati bilan darsdan ozod qilingan o'quvchilar to'g'risida direktorni buyrug'i.

Jismoniy tarbiya darsining amaliyotidan vaqtinchalik tibbiy shifokorlar orqali ozod etilgan o'quvchilarga qo'yiladigan talablar

1. O'zining sog'ligini tekshirib turadigan kundalik daftar.
2. O'zining kasalligi to'g'risidagi referat yozib kelishi.
3. Jismoniy tarbiyada o'tkazilgan nazariy bilimlari to'g'risida yozib borgan konspekti.
4. Jismoniy tarbiya kabinetini va sport stendlarini tashkil qilishda yordam berish.
5. Ertalabki gimnastika kompleks mashqlarni ko'rsata bilishi.
6. Sport turlaridan birontasining elementlarini ko'rsata bilishi.
7. Sport turlarining birortasidan musobaqa paytida hakamlik qilishi.

**Akademik litseylar uchun jismoniy tarbiya fani bo'yicha  
o'quv soatlarining taxminiy yillik taqsimoti**

№	Dastur bo'limlari	O'quv davomida ajratilgan soatlar	o'quv bosqichlari		
			1 bosqich	2 bosqich	3 bosqich
I.	Nazariy bilim asoslari	Dars jarayonida			
II.	Amaliyoti:				
I.I	Gimnastika	48	16	16	16
1.	Engil atletika	72	24	24	24
2.	Sport o'yinlari (basketbol, voleybol, futbol, qo'l to'pi, badminton)	120	40	40	40
3.	O'zbek kurashi (o'smirlar uchun) Raqs elementlari va ritmik gimnastika (qizlar uchun)	78	26	26	26
4.	Turizm (reja asosida)				
5.	Suzish	36	12	12	12
6.	Kross tayyorgarligi	30	10	10	10
7.	Harakatli milliy o'yinlar	30	10	10	10
8.	Tanlab olinadigan sport turi	30	10	10	10
<b>Jami</b>		<b>444</b>	<b>148</b>	<b>148</b>	<b>148</b>

**Akademik litseylar uchun jismoniy tarbiya fani bo'yicha I – bosqichlarda o'tkaziladigan  
o'quv soatlarining taxminiy yillik taqsimoti**

№	Dastur bo'limlari	Yillik soat rejasi	I yarim yillik				Jami soati	II yarim yillik						Jami soati
			IX	X	XI	XII		I	II	III	IV	V	VI	
I.	Nazariy bilim asoslari		<b>Dars jarayonida</b>											
II	Amaliyoti:													
1.	Gimnastika	16			4	4	8	4	4					8
2.	Engil atletika	24	4	4	2		10			2	4	4	4	14
3.	Sport o'yinlari (basketbol, voleybol, futbol, qo'l to'pi, badminton)	40	4	4	6	6	20	2	2	4	4	4	4	20
4.	O'zbek kurashi (o'smirlar uchun) Raqs elementlari va ritmik gimnastika (qizlar uchun)	26	4	4	2	2	12	4	4	4	2			14
5.	Turizm (reja asosida)													
6.	Suzish	12			2	4	6					2	4	6
7.	Kross tayyorgarligi	10	4				4			4	2			6
8.	Harakatli o'yinlar	10		4			4				2	2	2	6
9.	Tanlab olinadigan sport turi	10			2	2	4	2	2	2				6
	<b>Jami:</b>	<b>148</b>	<b>16</b>	<b>16</b>	<b>18</b>	<b>18</b>	<b>68</b>	<b>12</b>	<b>12</b>	<b>16</b>	<b>14</b>	<b>12</b>	<b>14</b>	<b>80</b>



**Akademik litseylar uchun jismoniy tarbiya fani bo'yicha II- bosqichlarda o'kaziladigan  
o'quv soatlarning taxminiy yillik taqsimoti**

№	Dastur bo'limlari	Yillik soat rejasi	I-yarim yillik				Jami soati	II-yarim yillik						Jami soati
			IX	X	XI	XII		I	II	III	IV	V	VI	
I.	Nazariy bilim asoslari													
II.	Amaliyoti:													
1.	Gimnastika	16			4	4	8	4	4					8
2.	Engil atletika	24	4	4	2		10			2	4	4	4	14
3.	Sport o'yinlari (basketbol, voleybol, futbol, qo'l to'pi, badminton)	40	4	6	6	6	22	2	2	2	4	4	4	18
4.	O'zbek kurashi (o'smirlar uchun) Raqs elementlari va ritmik gimnastika (qizlar uchun)	26	4	4	2	2	12	4	4	4	2			14
5.	Turizm (reja asosida)													
6.	Suzish	12			2	4	6					2	4	6
7.	Kross tayyorgarligi	10			4		4			4	2			6
8.	Harakatli o'yinlar	10		4			4				2	2	2	6
9.	Tanlab olinadigan sport turi	10	2			2	4	2	2	2				6
	<b>Jami</b>	<b>148</b>	<b>14</b>	<b>18</b>	<b>20</b>	<b>18</b>	<b>70</b>	<b>12</b>	<b>12</b>	<b>14</b>	<b>14</b>	<b>12</b>	<b>14</b>	<b>78</b>

**Akademik litseylar uchun jismoniy tarbiya fani bo'yicha III – bosqichlarda o'tkaziladigan  
o'quv soatlarining taxminiy yillik taqsimoti**

№	Dastur bo'limlari	Yillik soat rejasi	I-yarim yillik				Jami soati	II-yarim yillik						
			IX	X	XI	XII		I	II	III	IV	V	VI	Jami soati
I.	Nazariy bilim asoslari		<b>Dars jarayonida</b>											
II.	Amaliyoti:													
1.	Gimnastika	16			4	4	8	4	4					8
2.	<b>Engil atletika</b>	24	4	4	2		10			2	4	4	4	14
3.	Sport o'yinlari (basketbol, voleybol, futbol, qo'l to'pi, badminton)	40	6	6	6	6	24	4	4	4	2	2		16
4.	O'zbek kurashi (o'smirlar uchun) Raqs elementlari va ritmik gimnastika (qizlar uchun)	26	4	4	4	4	16	2	2	2	2	2		10
5.	Turizm (reja asosida)													
6.	Suzish	12			2	4	6					2	4	6
7.	Krosstayyorgarligi	10			4		4			4	2			6
8.	Harakatli o'yinlar	10	2	2			4				2	2	2	6
9.	Tanlab olinadigan sport turi	10	2	2		2	6	2	2					4
	<b>Jami</b>	<b>148</b>	<b>18</b>	<b>18</b>	<b>22</b>	<b>20</b>	<b>78</b>	<b>12</b>	<b>12</b>	<b>12</b>	<b>12</b>	<b>12</b>	<b>10</b>	<b>70</b>

**O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi o'quv muassasalari uchun  
jismoniy tarbiya fani bo'yicha o'quv soatlarining taxminiy yillik  
taqsimoti**

№	Dastur bo'limlari	O'quv yili davomida ajratilgan soatlar	O'quv bosqichlari		
			1 bosqich	2 bosqich	3 bosqich
I	Nazariy bilim asoslari	<b>Dars jarayonida</b>			
II.	Amaliyoti:				
1.	Gimnastika	34	18	8	8
2.	Engil atletika	60	26	18	16
3.	Sport o'yinlari (basketbol, voleybol, futbol, qo'l to'pi, badminton)	114	50	30	34
4.	O'zbek kurashi (o'smirlar uchun) Raqs elementlari va ritmik gimnastika (qizlar uchun)	58	26	16	16
5.	Turizm (reja asosida)				
6.	Suzish	26	12	8	6
7.	Kross tayyorgarligi	20	10	4	6
8.	Harakatli milliy o'yinlar	20	10	6	4
9.	Amaliy kasbiy jismoniy tayyorgarlik	18	-	8	10
10.	Tanlab olinadigan sport turi	50	8	22	20
<b>Jami</b>		<b>400</b>	<b>160</b>	<b>120</b>	<b>120</b>

**O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi o'quv muassasalari uchun jismoniy tarbiya fani bo'yicha I-bosqichlarda o'tkaziladigan o'quv soatlarining taxminiy yillik taqsimoti**

№	Dastur bo'limlari	Yillik soat rejasi	I-yarim yillik					Jami soati	II-yarim yillik					Jami soati
			IX	X	XI	XII	I		II	III	IV	V	VI	
I.	Nazariy bilim asoslari		<b>Dars jarayonida</b>											
II.	Amaliyoti:													
1.	<b>Gimnastika</b>	18				10	4	14	4					4
2.	Engil atletika	26	6	4	2		2	14		4	4	4		12
3.	Sport o'yinlari (basketbol, voleybol, futbol, qo'l to'pi, badminton)	50	6	6	6	6	4	28	4	4	6	4	4	22
4.	O'zbek kurashi (o'smirlar uchun) Raqs elementlari va ritmik gimnastika (qizlar)	26	2		2		4	8	8	6			4	18
5.	Turizm (reja asosida)													
6.	Suzish	12									4	4	4	12
7.	Kross tayyorgarligi	10	2	4	4			10						
8.	Harakatli o'yinlar	10	2		2	2		6		2			2	4
9.	Tanlab olingan sport turlari	8								2	2	2	2	8
	<b>Jami:</b>	<b>160</b>	<b>18</b>	<b>14</b>	<b>16</b>	<b>18</b>	<b>14</b>	<b>80</b>	<b>16</b>	<b>18</b>	<b>16</b>	<b>14</b>	<b>16</b>	<b>80</b>

**Eslatma:** Jismoniy tarbiya darsi dastur bo'yicha haftasiga 2 marta 2 soatdan o'tkaziladi.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi o'quv muassasalari uchun jismoniy tarbiya fani bo'yicha

**II-bosqichlar uchun taxminiy yillik taqsimoti**

№	Dastur bo'limlari	Yillik soat rejasi	I-yarim yillik					Jami soati	II-yarim yillik					Jami soati
			IX	X	XI	XII	I		II	III	IV	V	VI	
I.	Nazariy bilim asoslari		<b>Dars jarayonida</b>											
II.	Amaliyoti:													
1.	Gimnastika	8				6	2	8						
2.	Engil atletika	18	6	4				10			4	4		8
3.	<b>Sport o'yinlari (basketbol, voleybol, futbol, qo'l to'pi, badminton)</b>	30	2	4	4	4	2	16	2	2	2	4	4	14
4.	O'zbek kurashi (o'smirlar uchun) Raqs elementlari va ritmik gimnastika (qizlar uchun)	16							8	6	2			16
5.	Turizm (reja asosida)													
6.	Suzish	8					6	6					2	2
7.	Kross tayyorgarligi	4											4	4
8.	Harakatli o'yinlar	6			2			2		2			2	4
9.	Amaliy kasbiy jismoniy tayyorgarlik	8			2	2		4			2	2		4
10.	Tanlab olingan sport turlari	22	2	2	2	2	2	10	2	4	2	2	2	10
	<b>Jami:</b>	<b>120</b>	<b>10</b>	<b>10</b>	<b>10</b>	<b>14</b>	<b>12</b>	<b>56</b>	<b>12</b>	<b>14</b>	<b>14</b>	<b>12</b>	<b>14</b>	<b>64</b>

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi o'quv muassasalari uchun jismoniy tarbiya fani bo'yicha

**III-bosqichlar uchun taxminiy yillik taqsimoti**

№	Dastur bo'limlari	Yillik soat rejasi	I yarim yillik					Jami soati	II yarim yillik				Jami soati
			IX	X	XI	XII	I		II	III	IV	V	
I.	Nazariy bilim asoslari		<b>Dars jarayonida</b>										
II.	Amaliyoti:												
1.	Gimnastika	8				4	4	8					
2.	Engil atletika	16	4	4	4	4		16					
3.	Sport o'yinlari (basketbol, voleybol, futbol, qo'l to'pi, badminton)	34	4	4	4	4	4	20	4	4	4	2	14
4.	O'zbek kurashi (o'smirlar uchun) Raqs elementlari va ritmik gimnastika (qizlar uchun)	16		2	2	4	2	10	4	2			6
5.	Turizm (reja asosida)												
6.	Suzish	6									2	4	6
7.	Kross tayyorgarligi	6	2	4				6					
8.	<b>Harakatli o'yinlar</b>	4							2	2			4
9.	Amaliy kasbiy jismoniy tayyorgarlik	10	2		4			6			4		4
10.	Tanlab olingan sport turlari	20	4	2	2		2	10		6	2	2	10
	<b>Jami:</b>	<b>120</b>	<b>16</b>	<b>16</b>	<b>16</b>	<b>16</b>	<b>12</b>	<b>76</b>	<b>10</b>	<b>14</b>	<b>12</b>	<b>8</b>	<b>44</b>
<b>Eslatma:</b> Jismoniy tarbiya darsi dastur bo'yicha haftasiga 2 marta 2 soatdan o'tkaziladi.													

## 1-bosqichlar uchun engil atletika amaliyotidan o'quv mezonlari

Sinov mashqlari	Natijalar va bahs					
	o'smirlar			qizlar		
	5	4	3	5	4	3
60 metrga yugurish	8.4	8.8	9.0	9.8	10.0	10.5
100 metrga yugurish	13.8	14,2	15.0	16.0	16.3	17.0
4x10 m. ga mokisimon yugurish	10.2	10.5	10.7	11.0	11.5	12.0
1000 m. ga yugurish	3.50	4.00	4.40	5.00	5.30	6.00
2000 m. ga yugurish	9.00	9.20	10.00	Vaqt hisobga olinmaydi		
3000 m. ga yugurish	12.30	13.00	13.30	-	-	-
Yugurib kelib uzunlikka sakrash	430	410	390	360	350	330
Balandlikka sakrash	130	120	115	115	PO	100
Turgan joyidan uzunlikka sakrash	230	210	180	170	165	160
Granatani uloqtirish: 500 gr. qizlar; 700 gr. o'smirlar.	35	30	25	20	18	15
Yadroni uloqtirish: 4 kg - qizlar uchun; 5 kg – o'smirlar uchun.	8	7.50	7	5.50	5.00	4.50

## 2-bosqichlar uchun engil atletika amaliyotidan o'quv mezonlari

Sinov mashqlar	Natijalar va bahs					
	o'smirlar			qizlar		
	5	4	3	5	4	3
1 00 metrga yugurish	13.6	14.0	14.5	16.3	16.5	17.0
1000 metrga yugurish	3.30	3,40	4.00	5.20	5.50	6.20
2000 metrga yugurish	9.00	9.20	9.50	Vaqt hisobga olinmaydi		
3000 metrga yugurish	12.20	12.40	13.00		-	-
4x 1 0 metrga mokisimon yugurish	10.0	10.2	10.8	10.5	11.0	11.5
Yugurib kelib uzunlikka sakrash	440	410	390	360	350	330
Turgan joyidan uzunlikka sakrash	230	220	190	175	170	165
Yugurib kelib balandlikka sakrash	130	125	120	115	110	105
Granatani uloqtirish: 500 gr. qizlar; 700 gr. o'smirlar.	40	35	30	23	20	18
Yadroni uloqtirish: 4 kg - qizlar uchun; 5 kg - o'smirlar.	8.50	8.0	7.50	6	5.50	5

### 3- bosqichlar uchun engil atletika amaliyotidan o'quv mezonlari

Sinov mashqlari	Natijalar va bahs					
	o'smirlar			qizlar		
	5	4	3	5	4	3
100 metrga yugurish	13.5	14.0	14.3	16.2	16.4	16.8
1000 metrga yugurish	3.20	3.50	4.00	5.00	5.30	6.00
2000 metrga yugurish	8.50	9.00	9.30	Vaqt hisobga olinmaydi		
3000 metrga yugurish	12.20	12.40	13.00	-	-	-
Yugurib kelib uzunlikka sakrash	450	420	390	370	360	340
Turgan joyidan uzunlikka sakrash	240	230	200	180	175	165
Yugurib kelib balandlikka sakrash	130	125	120	115	110	105
4x10 metrga mokisimon yugurish	9.8	10.0	10.5	10.8	11.0	11.5
Granatami uloqtirish: 500 gr. qizlar; 700 gr. o'smir.	43	38	35	25	22	20
Yadroni uloqtirish: 4 kg – qizlar uchun; 5 kg – o'smirlar uchun.	9	8.50	7.50	6.50	6.00	5.50
Arqonga 2-3 usulda tirmashib chiqish	5	4	3	4	3	2

### 1 – bosqichlar uchun gimnastika amaliyotidan o'quv mezonlari

№	Sinov mashqlari	Natijalari va bahs					
		o'smirlar			qizlar		
		5	4	3	5	4	3
1.	Baland turnikda tortilish	12	10	8	-	-	-
2.	Past turnikda tortilish (90 sm balandlikda)	-	-	-	20	15	10
3.	Chalqancha to'shakda yotgan holda gavdani 90 <sup>0</sup> gacha ko'tarish (1 daqiqa)	35	30	25	30	25	20
4.	Polda qo'l bilan tayanib qo'llarni bukish va yozish	40	35	30	-	-	-
5.	Gimnastik o'rindig'iga qo'llar bilan tayanib qo'llarni bukish				13	10	7
6.	Arg'umcha bilan 1 daqiqa sakrash	100	90	80	120	100	90
7.	Bir oyoqda tupponcha usulida o'tirib turish	8	6	4	5	4	3
8.	Ikki oyoqda o'tirib turish	50	40	30	40	30	20



9.	Arqonga 2-3 usulda tirmashib chiqish (metr)	5m	4m	3m	4m	3m	2m
----	---	----	----	----	----	----	----

## 2- bosqichlar uchun gimnastika amaliyotidan o'quv mezonlari

№	Sinov mashqlari	Natijalari va bahs					
		o'smirlar			qizlar		
		5	4	3	5	4	3
1.	Baland turnikda tortilish	14	9-10	7-8	-	-	-
2.	Turnikda tortilib aylanib to'ntarilish (marta)	4	3	2	-	-	-
3.	Past turnikda tortilish 90 sm (marta)	-	-	-	25	20	15
4.	Chalqancha to'shakda yotgan holda gavdani 90 <sup>0</sup> gacha ko'tarish	40	35	30	30	25	20
5.	Polda qo'l bilan tayanib qo'llarni bukish va yozish	40	35	30	-	-	-
6.	Gimnastika o'rindig'iga qo'llar bilan tayanib qo'llarni bukish va yozish				13	10	7-8
7.	Arg'umcha bilan 1 daqiqa sakrash	120	110	100	125	120	PO
8.	Ikki oyoqda o'tirib turish	50	45	35	45	35	25
9.	Arqonga 2-3 usulda tirmashib chiqish (metr)	5m	4m	3m	4m	3m	2m

## 3-bosqichlar uchun gimnastika amaliyotidan o'quv mezonlari

№	Sinov mashqlari	Natijalari va bahs					
		O'smirlar			qizlar		
		5	4	3	5	4	3
1.	Baland turnikda tortilish	14-15	10-12	8	-	-	-
2.	Turnikda tortilib aylanib to'ntarilish (marta)	7	6	4-5	-	-	-
3.	Chalqancha to'shakda yotgan holda gavdani 90 gacha	45	40	35	40	35	30
4.	Polda qo'l bilan tayanib qo'llarni bukish va yozish	40	35	30	-	-	-

5.	Gimnastika o'rindig'iga qo'llar bilan tayanib qo'llarni bukish va yozish				15	12	8
6.	Arg'umcha bilan 1 daqiqa sakrash	125	120	115	140	135	120
7.	Ikki oyoqda o'tirib turish	55	50	35	45	40	30
8.	Arqonga 2-3 usulda tirmashib chiqish (metr)	5m	4m	3m	4m	3m	2m

### Sport o'yinlari bo'yicha o'zlashtirish mezonlari

№	Sinov mashqlari	Natija va baho					
		O'smirlar			qizlar		
		5	4	3	5	4	3
1.	BASKETBOL. Jarima to'pini tashlash. 5 urinishdan xalqaga ulogirib tushirish						
	1 – bosqichlar uchun-5 urinish	3	2	1	3	2	1
	2 – bosqichlar uchun-6 urinish	4	3	2	3	2	1
	3 – bosqichlar uchun-7 urinish	5	4	3	4	3	2
2.	VOLEYBOL. To'pni bosh ustida ikki qo'llab yuqoriga barmoqlar bilan uzatish (o'ynash) 360 sm. tik aylana ichida (marta):						
	1 – bosqichlar uchun	13-15	10-12	7-9	12-14	10-11	7-9
	2 – bosqichlar uchun	16-17	13-15	10-12	13-15	10-12	8-9
	3 – bosqichlar uchun	18-20	16-17	14-15	16-17	13-15	10-12

### Futbol bo'yicha o'zlashtirish mezonlari

№	Sinov mashqlari	Natija va bahs			
		o'smirlar			
		5	4	3	2
I.	To'p bilan oyoqda janglyorlikni bajarish (marta):				
	1 – bosqichlar uchun	13-15	11-12	9-10	5-7
	2 – bosqichlar uchun	14-15	12-13	10-11	6-8
	3 – bosqichlar uchun	15-16	13-14	11-12	7-8

II.	Jarima tupini tepish (10 marta bosqichda)				
	1 – bosqichlar uchun	6	4-5	2-3	1
	2 – bosqichlar uchun	7	5-7	4-5	2
	3 – bosqichlar uchun	8	6-7	5-6	3
III.	To'pni uzoqqa tepish (metr):				
	1 – bosqichlar uchun	45	35-40	25-30	15-20
	2 – bosqichlar uchun	50	40-45	30-35	20-25
	3 – bosqichlar uchun	53	45-50	35-40	25-30
IV.	To'pni tepib olib yurish (soniya):				
	1 – bosqichlar uchun	5,0	5,3	5,5	
	2 – bosqichlar uchun	4,9	5,1	5,3	
	3 – bosqichlar uchun	4,7	5,0	5,2	

## I-bosqich

O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiyani rivojlanish tarixi. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” hamda “Jismoniy tarbiya to‘g‘risida”gi “Sog‘lom avlod uchun” davlat dasturining hayotga tatbiq qilinishi. O‘zbekiston Respublikasi sportchilarining Xalqaro musobaqalarda qatnashishi.

O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi tizimidagi o‘quv muassasalarida jismoniy

tarbiyaning maqsadi, o‘quvchilarning kelgusi kasbi faoliyatida jismoniy

tarbiyaning ahamiyati. Darsdan tashqari vaqtda jismoniy tarbiyani tashkil

qilish va jismoniy tarbiya vositalaridan foydalanish. Insonning jismoniy rivojlanishiga va salomatligini mustahkamlashga jismoniy mashqlarning tahsiri, inson organizmiga zararli odatlarni (spirtli ichimlik ichish, chekish, giyohvandlik moddalarni qabul qilish va boshqalar) salbiy tahsiri, ularga qarshi kurashish. Sayyohlik, sport va boshqa mashg‘ulotlar jarayonida shikastlanishlarda birinchi yordam ko‘rsatish. Davolash jismoniy tarbiyasi asoslari to‘g‘risida tushuncha berish. O‘z-o‘zini uqalash, chiniqtirish usullari va qoidalari. O‘z-o‘zini nazorat qilish (tana og‘irligi, ovqatlanish tartibi, uyqu, faol dam olish, nafas olishi va tomir urishi). Abu Ali Ibn Sino jismoniy mashqlar to‘g‘risida. Shaxsiy gigiena va tibbiy nazoaratning ahamiyati. Xalqaro olimpiadaning tashkil qilinishi va uning Prezidenti. Respublikamiz sportchilarining olimpiya o‘yinlarida qatnashuvi. O‘zbekistonda milliy sport o‘yinlarining rivojlanishi.

Sport mashg‘ulotlari jarayonida jarohatlanish va uning oldini olish chora tadbirlari to‘g‘risida tushuncha berish. Sport maydonlarining o‘lchamlari.

O‘zbekiston Respublikasi sport turi bo‘yicha terma jamoalarining Xalqaro miqyosida egallagan o‘rinlari. O‘zbek kurashi bo‘yicha jahon birinchiliklari to‘g‘risida ma’lumotlar.

Jismoniy sifatlarni rivojlantirishda yordam beradigan mashqlarni mustaqil bajarish qoidalari. O‘quv muassasalarida sport turlari va harakatli o‘yinlarda hakamlik qilish qoidalari.

Jismoniy tarbiya va sport shaxsni har tomonlama kamol toptirishning, mehnat va ijtimoiy faoliyatga tayyorlashning asosiy vositasi sifatida. Jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanish vaqtida o‘smirlar va qizlar gigienasi. Oila, ota-onalik vazifalari haqida umumiy

tushunchalar. Yosh oilaning shaxsiy va turmush gigienasi. Bo'lajak ona, yosh qizlarning jismoniy tarbiyasi.

### **Amaliyot**

#### **Gimnastika**

Nazariy ma'lumotlar. O'zbekistonda gimnastikaning rivojlanish tarixi. Gimnastika mashqlarini tana rivojlanishdagi o'rni. Gimnastik mashqlarni amalga oshirishda jarohatlanish va jarohatlanishning oldini olish chora tadbirlari.

Ko'nikma va malakalar. Saflanish va qayta saflanish mashqlari. Bir, ikki, uch, to'rt qatorga saflanishni takrorlash. Safda va alohida-alohida yurish jarayonida "Chap-Ga", "O'ng-Ga", "Orqa-Ga" buyruqlarga binoan burilish harbiy xizmat Nizomida qo'llaniladigan mashqlarini bajarishni takomillashtirish.

Umumiy rivojlantiruvchi mashqlar. Gantellar, to'ldirma to'p, gimnastik tayoqchalar juft-juft bo'lib mashq bajarish; bir-biriga qarama-qarshi turib, bir-biriga orqa turib har xil harakat mashqlarini bajarish, juft holda har tomonga yurish va yugurish, bir oyoqda "to'pponcha" usulida o'tirib turish.

Osilish va tayanishlar. O'smirlar: baland turnikda qo'llarga osilib oldinga va orqasiga siltanishlar, kuch bilan tortilib, to'ntarilib qo'llarga tayanib turish. Oldinga siltanib chiqib o'ng (chap) oyoqni oldinga o'tkazish. Orqaga to'ntarilib siltanishlar bilan orqaga tushish.

Qizlar: baland-past bruslarda qo'llar bilan xodada osilgan holatda siltanish, osilib o'tirish, ko'tarilib baland xodada tik osilish, qo'l ustidan oshirib chalkashtirib ushlab, chap tomonga 90 gradus burilish va chap oyoq soniga o'tirish, o'ng qo'l yonida chap qo'l bilan orqadan (xodani) past tomonidan ushlab o'ngga burilib orqada aylanib sakrab tushish.

Tirmashib chiqish: O'smirlar ikki, qizlar uch urinishda arqonga tirmashib chiqish.

Akrobatika: O'smirlar chalqancha yotgan holatda g'ujanak bo'lib o'tirishga o'tish. Oldinga va orqaga g'ujanak bo'lib umboloq oshish. Sherigi yordamida qo'lda tik turib va shu holatda sherigi yordamida oldinga umboloq osishni takrorlash, boshda va qo'llarda uchburchak hosil qilib tik turish. Oldinga va orqaga umboloq osishlarni murakkablashtirilgan usullarda bajarish.

Qizlar: "Ko'prik" hosil qilish, ko'prik holatida burilib bir tizzaga tayanib turib qolish, oldinga va orqaga umboloq oshish. Orqaga umboloq oshib oyoqlarni yarim holatidan turish.

Tayanib sakrash. O'smirlar balanddan 115 sm bo'lgan eni bilan qo'yilgan "Eshak" va balandligi 115 sm uzunasiga qo'yilgan "Ot" ustidan oyoqlarni kerib sakrab o'tish.

Qizlar: balandligi 110 sm bo'lgan eni bilan qo'yilgan "Ot" ustidan yugurib kelib, tayanib yon tomon bilan sakrash. O'zlashtirish mezonlari.

Osilish va tayanish: O'smirlar: baland turnikda kuch bilan tortilib, to'ntarilib qo'llarga tayanishni bilish.

Qizlar: Past-baland brusslarda mashqlar majmuasini to'liq bajara olishga erishish.

Yakka cho'p ustida muvozanat saqlash. Qizlar: Yakka cho'p ustida muvozanat saqlab yurishlar, bir oyoqda o'tirgan holda 180 gradus burilishlarni bajarish. Sakrab burilish, o'tirib qo'llarda tayanib oyoqlarni kerib o'tirish va tik turish. Qo'llarda tayanib oyoqlarni orqaga siltab sakrab tushish.

### **O'zlashtirish mezonlari**

Akrobatika: O'smirlar: Sherigi yordamida qo'llarda tik turib va shu holatdan sherigi yordamida oldinga umboloq osha bilish.

Qizlar: Yotgan holda mustaqil "ko'prik" yasash.

Tayanib sakrash: O'smirlar uzunasiga qo'yilgan "ot" da, qizlar "eshak" dan oyoqlarni kerib sakray olish.

Tirmashib chiqish: O'smirlar ikki, qizlar uch urinishda arqonga tirmashib chiqa olish.

### **Engil atletika**

Nazariy bilimlar: O'zbekiston engil atletikaning rivojlanish tarixi. Engil atletikaning o'quvchilarda harakat sifatlarini rivojlantirishdagi ahamiyati to'g'risida tushuncha berish.

Ko'nikma va malakalar: Kuch, tezkorlik, chaqqonlik, chidamlilik, egiluvchanlik sifatlarini tarbiyalash. Yurish va yugurishlar.

Yugurish mashqlari. Tizzalarni oldinga baland ko'tarib, oyoqlarni orqaga siltab, sakrab-sakrab yugurishlar. Past startdan chiqish va start tezligi 2.20 - 2.30 m.ga tezkor yugurishlar. 60 m. yoki 10 m.ga yugurish. Takroriy yugurishlar: 5-6 marta 60-100 m.ga. Tezlikni o'zgartirib yugurishlar. Baland startdan 3-4 mart 500 va 800 m.ga yugurish. Estafetali yugurish, 2-3 km.ga kross yugurish.

Sakrashlar. Yugurib kelib balandlikka "Qaychisimon" – "Xatlab o'tish" usulida sakrash. Yugurib kelib uzunlikka "Oyoqlarni bukib" sakrash mahoratini takomillashtirish.

Uloqtirish. O'smirlar 700 gr.li, qizlar 500 gr.li granatani uloqtirish. O'smirlar: 5 kg.li yadroni, qizlar 4 kg.li yadroni uloqtirish.

### **O'zlashtirish mezonlari.**

Yugurish startida turishi, startdan chiqishi, tezlanishi va masofa bo'ylab yugurish qoidalariga rioya qilgan holda mashqni mustaqil bajarishga erishish.

Granatani uloqtirish, yadroni uloqtirish ko‘nikma malakalarini hosil qildirish.

### **Sport o‘yinlari**

#### **Basketbol**

Nazariy bilimlar: O‘zbekiston basketbolini rivojlanish tarixi. Soddalashtirilgan o‘yin qoidalari.

Ko‘nikma va malakalar: Basketbolchining maydondagi harakatlari: yurish, yugurish, yo‘nalishni o‘zgartirib yurish va yugurish; maydonda joy tanlash, to‘xtashlar va burilishlar, sakrashlar. To‘pni bir yoki ikki qo‘llab ilish. Yuqorilab ketayotgan to‘pni ilish. Pastlab ketayotgan to‘pni ilish, maydondan sapchigan to‘pni ilish. To‘pni ikki qo‘llab ko‘krakdan uzatish yelkadan bir qo‘llab pastdan uzatish usullarini o‘rgatish. To‘pni erga urib olib yurish. To‘pni bir qo‘l bilan ketma-ket erga urib olib yurish texnikasini mustahkamlash. To‘pni yo‘nalish balandligini o‘zgartirib erga urib olib yurishni o‘rgatish. Joyida turgan holda yelkadan bir qo‘llab to‘pni savatga tashlashni mustahkamlash. Harakat jarayonida to‘pni bir qo‘llab savatga tashlashni o‘rgatish. Jarima to‘plarni tashlash. Zona bo‘ylab turli himoya guruhlarini o‘rgatish. Ikki tomonlama o‘quv o‘yini.

#### **O‘zlashtirish mezonlari**

Har bir o‘quvchi o‘yin qoidalariga rioya qilgan holda olib yurish, uzatish, ilib olish va tashlash elementlarini bajara olish.

#### **Voleybol**

Nazariy ma’lumotlar: O‘zbekistonda voleybolning rivojlanish tarixi. Voleybol o‘yining jismoniy tayyorgarlikni takomillashtirishdagi ahamiyati. Voleybol o‘yining musobaqa qoidalari.

Ko‘nikma va malakalari. Voleybol maydonida o‘yinchilarning harakatlari: oldinga, orqaga uzatish. To‘pni ikki qo‘llab ko‘p marta bosh ustida yuqoriga uzatib o‘ynash. To‘pni pastdan to‘g‘ri o‘yinga kiritish va kiritilgan to‘pni qabul qilib ikkinchi, uchinchi zonaga to‘g‘ri uzatib berish. To‘pni yon tomondan o‘yinga kiritish. To‘pni ikki qo‘llab pastdan qabul qilish. To‘rdan qaytgan to‘pni qabul qilish usulini o‘rgatish. To‘pni pastdan bir va ikki qo‘llab uzatish. Hujum zarbi berish va to‘siq qo‘yish bilan tanishish. Ikki tomonlama o‘quv-mashg‘ulot o‘yini. “Taym-brek” usulida hisobni sanashni o‘rgatish.

#### **O‘zlashtirish mezonlari**

Har bir o'quvchi to'pni o'yinga kiritish, qabul qilish, uzatish texnikalarini mustaqil bajara olish.

### **Qo'l to'pi**

Nazariy ma'lumotlar: Respublikamizda qo'l to'pini rivojlanish tarixi. Qo'l to'pi bilan shug'ullanuvchilar uchun xavfsizlik qoidalari.

Ko'nikma va malakalar: Qo'l to'pi o'yinchisining harakatlari: yurish, yo'nalishni o'zgartirib yugurish, maydonda joyni tanlash, sakrash. To'pni ikki qo'llab ko'krakda ilish, har xil balandlikda uchib o'tayotgan to'plarni ilish. To'pni yelka balandligida tirsakni bukib uzatish. To'pni yondan, pastdan uzatish. To'pni erga urib olib yurish, juft bo'lib harakat jarayonida to'pni uzatib olib yurish. To'pni tayanch holatda darvozaga tashlashni o'rgatish. Zona himoyalaridan 6\*0,5\*1 sistemalarini o'rgatish. O'quv mashg'ulot o'yini.

### **O'zlashtirish mezonlari**

To'pni harakat jarayonida uzatish, to'pni yo'nalishni o'zgartirib olib yurish, himoyachi qarshiligida to'pni tayangan holda darvozaga tashlash ko'nikmalarini hosil qilish.

### **Futbol (minifutbol)**

Nazariy ma'lumotlar. Respublikamizda futbolning rivojlanish tarixi. Musobaqa qoidalari. O'quvchilarda jismoniy sifatlarni rivojlantirishda futbolning ahamiyati.

Ko'nikma va malakalar. Futbolchining maydon bo'ylab harakatlari. Yurish yo'nalishini o'zgartirib yurish va yugurish, maydonda joyni tanlash. Dumalab kelayotgan va tushib kelayotgan to'plarni oyoqning panja qismining ichki va tashqi tomonlari bilan to'xtatishni o'rgatish. To'pni oyoqni panja qismining ichki va tashqi tomonlari bilan tepib olib yurish. Dumalab kelayotgan tipni oyoqning panja qismining ichki, tashqi va yuqori tomonlari bilan tepishini o'rgatish. Dumalab kelayotgan to'pni darvozabon tomonidan ilib olish. Har xil balandlikda uchib kelayotgan to'plarni musht bilan urib yuborish. To'pni yon tomonidan ikki qo'llab bosh ustidan o'yinga kiritish. To'pni uzatish, chalg'itish usullarini o'rgatish. Guruhli taktik o'yin bilan tanishtirish. O'quv mashg'ulot o'yini.

### **O'zlashtirish mezonlari**

Futbolchilar maydonda to'g'ri joy tanlash, harakat yo'nalishlarini o'zgartirib yugurishlarni bilish, har xil balandlikda uchib kelayotgan to'plarni oyoqning panja qismining ichki va tashqi tomonlari bilan to'xtatish, olib yurish va tepish harakat ko'nikmalarini hosil qilish.



## **Badminton**

Nazariy ma'lumotlar. Badminton o'yinining kashf etilishi va rivojlanish tarixi. Badminton o'yinida xavfsizlik qoidalari, o'tkazish joyi va jihozlarga qo'yilgan gigiyenik talablar. Badminton o'yini orqali jismoniy sifatlarni tarbiyalash. Badminton o'yini qoidasi va atamalari. Badmintonchining maydondagi turish holati va harakatlari, raketka bilan ishlash va raketka, volan bilan ishlash usullari.

Ko'nikma va malakalar. Badminton o'yinida ko'nikma va malakalarni shakllantirish, maydonda turish holati, harakatlanish usullari, yurush, yugurish, sakrash, zarba berish. Badmintonchining raketka va volan bilan ishlash usullari. Badminton o'yinida qo'llaniladigan atama va tushunchalarni hamda badminton o'yin qoidasini o'rganish. Badminton o'yinida maxsus mashqlarni o'rgatish. Yakka va juftlik o'yinlarida volanni o'yinga kiritish va uzatish usullari.

### **O'zlashtirish mezonlari**

Badminton o'yinining yakka va juftlik o'yinlarida volanni o'yinga kiritish va uzatish usullari.

### **O'zbek kurashi (belbog'li va xalqaro milliy kurash)**

Nazariy ma'lumotlar. O'zbekistonda o'zbek kurashining rivojlanish tarixi. Jarohatni oldini olish chora tadbirlari to'g'risida tushuncha berish. O'quvchilarni barkamolikka erishishida kurashning ahamiyati.

Ko'nikma va malakalar: Raqib yaktagining belbog'idan, ikki qo'lidan, engidan, yoqasidan, qo'llarni tirsagidan ushlagan holda to'shakda siljishlar. Yiqilishdan saqlanish usullarini o'rgatish. Orqaga yiqilayotganda qo'llarni yonga tizzadan 45-50 sm uzoqlikda tutib to'shakka qarsak chalgandek urib tushishni o'rgatish. Orqadan va oldindan chalish usulini bajarayotganda himoyalaniish va qarshi harakatni bilish. Oyoqlarni yondan va orqadan oyoq bilan qoqish usulini o'rgatish, shu usullarga qarshi harakat ko'nikmasini hosil qilish. O'quv mashg'ulot bellashuvi.

Belbog'li kurash. Tik turgan holda belbog'dan ushlash usullarini va to'shakda siljish harakat faoliyatlarini o'rgatish.

Siljish, tizzada cho‘kka latish, kaft urish (kiftlash) usullarini o‘rgatish va qarshi hujum qila olish.

Qoqib tashlash (qoqma) usulini va qarshi harakat usullarini o‘rgatish. Ilib tashlash usulini o‘rgatish va qarshi harakatlarni mustahkamlash.

### **O‘zlashtirish mezonlari**

O‘zbek kurashi va belbog‘lik kurashda to‘shakda yaktak va belbog‘lardan ushlagan holda siljishlarni bilish, o‘zbek kurashida jarohatni oldini olish, o‘rganilgan usullarni musobaqa qoidalariga rioya qilgan holda qo‘llay olishga erishish.

### **Raqs elementlari va ritmik gimnastika**

“Yalla”, “Andijon polkasi” dagi oyoq va qo‘llarning harakatlarini o‘rganish. “Chittigul”, “Asp bo‘laman” o‘yinlari. “Voxay bola”, “Shuginami-yo” o‘yinlarni harakat faoliyatlarini o‘rganish.

### **Suzish**

Nazariy ma’lumotlar. Respublikamizda suzish turini rivojlanish tarixi. Suzishning o‘quvchilar tanasini rivojlanishda va nafas olish ahzolari faoliyatini yaxshilashdagi ahamiyati.

Ko‘nikma va malakalar. Quruqlikda qo‘l va oyoq harakatlarini o‘rgatish. Krol usulida suzishda suv yuzasida sirpanishni o‘rgatish. Yog‘ochni oyoqlari bilan qisib olgan holda qo‘l harakatini o‘rgatish. Suzishda to‘g‘ri nafas olish. Suzishda burilishni o‘rgatish. Chalqancha yotib suzish. Cho‘kayotgan kishiga birinchi yordam ko‘rsatish.

### **O‘zlashtirish mezonlari**

Krol usulida suzishda yog‘och taxtadan foydalanib va yog‘och taxtasiz suza olish, cho‘kayotgan kishini qutqarish ko‘nikma va malakalarini hosil qilish.

### **Kross tayyorgarligi**

Nazariy ma’lumotlar. Kross tayyorganligining xususiyatlari va uning organizmga tahsiri.

Ko‘nikma va malakalar. Past-baland joylarda yugurish. Chidamlilikni rivojlantirish. Kross yugurishida to‘g‘ri nafas olish, kuchni to‘g‘ri taqsimlash, yugurish texnika va taktikasini o‘rgatish.

### **O‘zlashtirish mezonlari**

Kross yugurishida to‘g‘ri nafas olish, kuchni to‘g‘ri taqsimlash, burilish va masofaga yugurishga erishish.

### **Harakatli milliy o‘yinlar va estafetalar**

Milliy harakatli o‘yinlar: “Otib qochar”, “Olib qochar”, “Otishma”, “Qirq tosh”, “Qisqa kelar”, “Chavondozi”, “Bo‘ron”, “Eshak mindi”, “Tepki”, “To‘p uchun kurash”, “Tepa kurash”, “Kuchli va chaqqonlar”, “Futbolchilar estafetasi”, “Qo‘l to‘pi estafetasi”, “Beysbol”, “Basketbol estafetasi”, “Ommaviy to‘p”, “Olimpiya globusi”, “Mashqni eslab qol”, “Matematik estafeta”, “Sehrli kataklar”, “Kim bir oyoq bilan sakraydi”, “Arg‘umchoq bilan juft bo‘lib sakrash”. O‘qituvchi harakat o‘yinlarini tanlashda ularning kasblariga mosligini ehtiborga olish kerak.

## **TANLAB OLINADIGAN SPORT TURI**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi O‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi markazi hamda Madaniyat va sport ishlari vazirligining 01.02.2016 yildagi 04/07/qq-son qo‘shma qarori, O‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi markazining 17.02.2016 yildagi 37-son buyrug‘i asosida tayanch ta‘lim muassasasining belgilangan sport turi bo‘yicha mashg‘ulotlar tashkil etilishi tavsiya etiladi.

### **Katta tennis**

Nazariy ma‘lumotlar. Respublikamizda katta tennis sport turini rivojlanish tarixi. Katta tennisning o‘quvchilarni rivojlanishdagi ahamiyati. Ko‘nikma va malakalar. Katta tennis sport turi qoidalarini o‘rgatish.

#### **O‘zlashtirish mezonlari**

Katta tennis sport turi qoidalarini bilish. Raketka bilan to‘pga to‘g‘ri zarba berish. To‘pni o‘yinga kirita olish

### **Stol tennisi**

Nazariy ma‘lumotlar. Respublikamizda stol tennis sport turini rivojlanish tarixi. Stol tennisning o‘quvchilarni rivojlanishdagi ahamiyati. Ko‘nikma va malakalar. Stol tennis sport turi qoidalarini o‘rgatish.

#### **O‘zlashtirish mezonlari**

Stol tennis sport turi qoidalarini bilish. Raketka bilan to‘pga to‘g‘ri zarba berish. To‘pni o‘yinga kirita olish

### **Erkin kurash**

Nazariy ma‘lumotlar. Respublikamizda erkin kurash sport turini rivojlanish tarixi. Erkin kurashning o‘quvchilarni rivojlanishdagi

ahamiyati. Ko'nikma va malakalar. Erkin kurash sport turi qoidalarini o'rgatish.

O'zlashtirish mezonlari

Erkin kurash sport turi qoidalarini bilish. Chidamlilik va egiluvchanlikni mustahkamlash. Erkin kurashning oddiy usullarini bilish

### **Yunon-rum kurashi**

Nazariy ma'lumotlar. Yunon-rum kurash sport turini rivojlanish tarixi. Yunon-rum kurashning o'quvchilarni rivojlanishdagi ahamiyati.

Ko'nikma va malakalar. Yunon-rum kurash sport turi qoidalarini o'rgatish.

O'zlashtirish mezonlari

Yunon-rum kurash sport turi qoidalarini bilish. Chidamlilik va egiluvchanlikni mustahkamlash. Yunon-rum kurashning oddiy usullarini bilish.

### **Dzyudo**

Nazariy ma'lumotlar. Dzyudo kurash sport turini rivojlanish tarixi. Dzyudo kurashning o'quvchilarni rivojlanishdagi ahamiyati.

Ko'nikma va malakalar. Dzyudo kurash sport turi qoidalarini o'rgatish.

O'zlashtirish mezonlari

Dzyudo kurash sport turi qoidalarini bilish. Chidamlilik va egiluvchanlikni mustahkamlash. Dzyudo kurashning oddiy usullarini bilish.

### **Taekvondo**

Nazariy ma'lumotlar. Taekvondo kurash sport turini rivojlanish tarixi. Taekvondo kurashning o'quvchilarni rivojlanishdagi ahamiyati.

Ko'nikma va malakalar. Taekvondo kurash sport turi qoidalarini o'rgatish.

O'zlashtirish mezonlari

Taekvondo kurash sport turi qoidalarini bilish. Chidamlilik va egiluvchanlikni mustahkamlash. Taekvondo kurashning oddiy usullarini bilish.

### **Badiiy gimnastika**

Nazariy ma'lumotlar. Respublikamizda badiiy gimnastika sport turini rivojlanish tarixi. Badiiy gimnastikaning o'quvchilarni rivojlanishdagi ahamiyati.

Ko'nikma va malakalar. Badiiy gimnastika sport turi qoidalarini o'rgatish.

O'zlashtirish mezonlari

Badiiy gimnastika sport turi qoidalarini bilish. Chaqqonlik, epchillik, chidamlilik va egiluvchanlikni mustahkamlash. Badiiy gimnastikaning oddiy usullarini bilish

### **Sport gimnastikasi**

Nazariy ma'lumotlar. Respublikamizda sport gimnastika sport turini rivojlanish tarixi. Sport gimnastikaning o'quvchilarni rivojlanishdagi ahamiyati. Ko'nikma va malakalar. Sport gimnastika sport turi qoidalarini o'rgatish.

#### **O'zlashtirish mezonlari**

Sport gimnastika sport turi qoidalarini bilish. Chaqqonlik, epchillik, chidamlilik va egiluvchanlikni mustahkamlash. Sport gimnastikaning oddiy usullarini bilish

### **Og'ir atletika**

Nazariy ma'lumotlar. Respublikamizda Og'ir atletika sport turini rivojlanish tarixi. Og'ir atletikaning o'quvchilarni rivojlanishdagi ahamiyati. Ko'nikma va malakalar. Og'ir atletika sport turi qoidalarini o'rgatish.

#### **O'zlashtirish mezonlari**

Og'ir atletika sport turi qoidalarini bilish. Chidamlilik va kuchlilikni mustahkamlash. Og'ir atletikaning tosh ko'tarish usullarini bilish

### **Boks**

Nazariy ma'lumotlar. Respublikamizda Boks sport turini rivojlanish tarixi. Og'ir atletikaning o'quvchilarni rivojlanishdagi ahamiyati.

Ko'nikma va malakalar. Boks sport turi qoidalarini o'rgatish.

#### **O'zlashtirish mezonlari**

Boks sport turi qoidalarini bilish. Chidamlilik, chaqqonlik va kuchlilikni mustahkamlash. Ringda oyoq va qo'l harakatlarini o'rganish

### **Velosport**

Nazariy ma'lumotlar. Respublikamizda Velosport sport turini rivojlanish tarixi. Velosportning o'quvchilarni rivojlanishdagi ahamiyati.

Ko'nikma va malakalar. Velosport sport turi qoidalarini o'rgatish.

#### **O'zlashtirish mezonlari**

Velosport sport turi qoidalarini bilish. Chidamlilik va kuchlilikni mustahkamlash. Velosportda oyoq mashqlarini o'rganish

## **Karate**

Nazariy ma'lumotlar. Karate sport turini rivojlanish tarixi. Karatening o'quvchilarni rivojlanishdagi ahamiyati.

Ko'nikma va malakalar. Karate sport turi qoidalarini o'rgatish.

### **O'zlashtirish mezonlari**

Karate sport turi qoidalarini bilish. Kuch, chidamlilik, chaqqonlik va egiluvchanlikni mustahkamlash. Karate kurashning oddiy usullarini bilish.

## **Shaxmat/shashka**

Nazariy ma'lumotlar. Shaxmat/shashka sport turini rivojlanish tarixi. Shaxmat/shashkaning o'quvchilar aqliy rivojlanishdagi ahamiyati.

Ko'nikma va malakalar. Shaxmat/shashka sport turi qoidalarini o'rgatish.

### **O'zlashtirish mezonlari**

Shaxmat, shashka sport turi qoidalarini bilish. Xotirani mustahkamlash mashqlari. Shaxmat/shashkaning oddiy usullarini bilish

## **Sport raqsi**

Nazariy ma'lumotlar. Sport raqsi sport turini rivojlanish tarixi. Sport raqsining o'quvchilar jismoniy rivojlanishdagi ahamiyati.

Ko'nikma va malakalar. Sport raqsi elementlarini o'rgatish.

### **O'zlashtirish mezonlari**

Sport raqsi sport turi qoidalarini bilish. Yurish, yugurish, sakrash mashqlarini o'rgatish. Sport raqsining oddiy usullarini bilish

## **Uyga beriladigan vazifalar**

1. Ertalabki gigienik gimnastika mashqlar majmuasini tuza bilish.
2. Chap va o'ng oyoqda navbatma navbat to'pponcha usulida o'tirib turish (o'smirlar 3-10, qizlar 3-6 marta)
3. Arg'umchi bilan sakrash bir daqiqada 100 martadan sakrashga erishish.
4. Uch qadamdan yugurib kelib to'siqlardan sakrab o'tish, bir oyoqda deysinib, ikkinchi oyoqni ko'krakka ko'tarish. (o'smirlar 12-14 marta, qizlar 8-10 marta)
5. Orqada qo'llarga tayangan holda o'tirib oyoqlarni oldinga baland

ko‘tarib burchak hosil qilish. (o‘smirlar 6-10, qizlar 5-6)

6. Yotib qo‘llarda tayangan holda qo‘llarni bukib yozish. O‘smirlar mashqni bajarayotganda oyoqlar baland joyga joylashtiriladi.

7. Sekin-asta 10-15 daqiqa yugura olish.

8. Tanlangan sport turlari bo‘yicha jismoniy rivojlantiruvchi maxsus mashqlarni bajarish.

O‘qituvchi vazifalarni o‘quvchilarning imkoniyatlariga moslashtirib berishi lozim.

## **II-bosqich**

### **Bilim asoslari**

Yaxshi salomatlik, har tomonlama umumiy va kasbiy-amaliy tayyorgarlik, ishlab chiqarish gimnastikasining mehnat unumdorligini oshirishdagi ahamiyati.

Ilmiy asosda ishlab chiqilgan kun tartibining ahamiyati.

Optimal harakat tartibini tuza bilish (jismoniy tarbiyaning har xil shakllari).

O‘z-o‘zini nazorat qilishda obhektiv ma‘lumotlar: og‘irlik dinamometriya, tomir urishi, nafas olish ritmi, terni ajralib chiqishi va boshqalar.

O‘z-o‘zini nazorat qilishdagi subhektiv ma‘lumotlar: kayfiyat, uyg‘u, ishtaha, ruhiy holat, ish qobiliyati, og‘riqni sezish va boshqalar.

Charchash, qattiq charchash, ularning belgilari va oldini olish tadbirlari.

Tanlab olingan mutaxassislikka bog‘liq holda ishlab chiqarish gimnastikasi majmualarini tuzish usullari.

Oila, ota-onalik vazifalari haqida ilmiy tushuncha. Yosh oilaning shaxsiy va turmush gigienasi, jinsiy gigiena haqida tushuncha.

### **Amaliyot**

### **Gimnastika**

Nazariy ma‘lumotlar. Gimnastik mashqlar majmuasining harakat sifatleri kuch, egiluvchanlik va chaqqonlikni rivojlantirishdagi ahamiyati.

Ko‘nikma va malakalar. Saf mashqlari. Bir qatordan ikki, uch, to‘rt qatorga qayta saflanishni va birinchi bosqichda o‘tilgan saf mashqlarini takrorlash. Harakatda bo‘lganda “Chap-Ga”, “O‘n-Ga”, “Orqa-Ga” buyruqlariga binoan burilish mashqlarini bajarish. Turgan joyda yurish va yurishdan to‘xtash. Harakatlanish va harakatni to‘xtatish. Harakat tezligini o‘zgartirish uchun “UZUN QADAM BOS”, “KALTA QADAM BOS”, “TEZ – TEZ QADAM BOS”, “SEKIN QADAM

BOS”, “YARIM QADAM BOS”, mashqlarini buyruqqa binoan bajarish.

Umumiy rivojlantiruvchi mashqlar. Birinchi bosqichda berilgan mashqlarni qaytarish. Gantellar, toshlar, to‘ldirma to‘plar, gimnastik tayoqchalar bilan juft-juft bo‘lib mashqlar bajarish: bir-biriga qarama-qarshi turgan holda, bir-biriga orqa o‘tirib turib har xil harakat mashqlarini bajarish; juft holda har tomonga yurish; bir oyoqda “to‘pponcha” usulida o‘tirib, trenajerlarda mashqlar bajarish va boshqalar.

Baland-past brusslar (qizlar). Baland xodada qo‘lda osilib depsinish bilan oyoq tizzalarini bukish.

Yonga siltanish. Baland xodada osilib o‘ng oyoqni siltab, chap oyoqda depsinib, chap oyoq tizzasini bukish, o‘ng oyoqni orqaga uzatish, chap qo‘l bilan baland xoda ustidan oshirish yoki yotib olish. Past xodada buralib, chap sonda o‘tirish, xodani ushlab. Past chap sonda o‘tirgan holda kerilib, sakrab tushish, yuqoridagi elementlarni muvofiqlashtirish.

Osilish va tayanish (o‘smirlar). Baland turnikda qo‘llarga osilib oldinga va orqaga siltanishlar. Oldinga siltanib chiqib, o‘ng (chap) oyoqni oldinga o‘tkazish. Orqaga to‘ntarilib siltanishlar bilan orqaga tushish elementlarinin takomillashtirish.

Yakka cho‘p ustida muvozanat saqlash (qizlar). Yakka cho‘pda ikki qo‘lga tayangan holda o‘ng oyoq bilan siltanish. Yakka cho‘p ustida oyoqlarni kerib o‘tirish. Oyoqlarni kerib o‘tirgan holda orqaga oyoqlarni siltab qo‘llarga tayanib tish va qo‘llarni bukish, qo‘llarni yozib tayanib turish. Yakka cho‘p ustida oldiga va orqaga yurishlar. Bir oyoqda siltanib orqaga burilish va sakrash. Yakka cho‘pni ustida turgan bir oyoq bilan depsinib ikkinchi oyoq bilan siltanib kerilib sakrab tushish. O‘rganilgan usullarni birlashtirish.

Akrobatika. O‘smirlar: cho‘qqayib o‘tirgan holda kuch bilan boshda va qo‘llarda tik turish. Uch qadamda yugurib kelib uzun o‘mboloq oshish. Balandligi 90 sm.gacha balandlikdagi to‘siqlardan oshib, o‘mboloq oshish.

Qizlar: oldinga va orqaga o‘mboloq oshish, kurakda tik turish, yotgan holda ko‘prik qilish. Sherigi yordamida ko‘prik qilish. Bir oyoqda qaldirg‘och usulida muvozanat turish.

Tayanib sakrash. O‘smirlar: yugurib kelib 115-120 sm.ga teng balandlikda uzunasiga qilib qo‘yilgan ot ustidan tayanib sakrash.

Qizlar: yugurib kelib ikki oyoqda ko‘prikdan densinib balandligi 110 sm.ga teng ko‘ndalang qilib qo‘yilgan ot ustidan tayanib sakrash.



Tirmashib chiqish. O‘smirlar ikki, qizlar uch urinishda arqonga tez tirmashib chiqish.

#### O‘zlashtirish mezonlari

O‘smirlar va qizlar arqonga o‘rganilgan usullarda tez tirmashib chiqishga erishish.

Akrobatika. Sherigi yordamida tik turgan holda ko‘prik qilish, oldinga va orqaga o‘mboloq oshish, bir oyoqda turgan holda qaldirg‘och usulida muvozanat saqlab turishga erishish.

Tayanib sakrash. O‘smirlar uzunasiga qo‘yilgan ot ustidan va qizlar ko‘ndalang qilib qo‘yilgan ot ustidan oyoqlarni kerib sakrash uchun yugurib kelish, depsinish, tayanish harakatlari ko‘nikmalarini hosil qilish.

#### **Engil atletika**

Nazariy ma’lumotlar. Engil atletika mashqlar majmualarining o‘quvchilarda harakat sifatlarini tarbiyalashdagi ahamiyati. Musobaqa qoidalari.

Ko‘nikma va malakalar. Past startdan chiqib 2\*30 m.ga, 2-3\*60 m.ga va 100 m.ga qayta yugurish. 10\*10 m.ga mokisimon yugurish, 4\*100 m.ga estafetali yugurish. Kross yugurishda burilish. Masofa bo‘ylab yugurish texnikasini o‘rgatish. Qizlar 2 km, o‘smirlar 3 km.ga yugurishda chidamlilikni rivojlantirish.

Sakrash: Uzunlikka “Oyoqlarni bukish” usulida sakrash. Yugurib kelib balandlikka sakrashda “Xatlab o‘tish” usulida sakrash, yugurib kelish depsinish va parvoz qilish harakat ko‘nikmalarini tashkil toptirish.

Granatani uloqtirish. O‘smirlar 700 gr.li, qizlar 500 gr.li granatani uloqtirishda yugurib kelish va chalishtirma qadam tashlash texnikalarini takomillashtirish.

Yadro uloqtirish. Qizlar 4 kg.li, o‘smirlar 5 kg.li yadroni uloqtirishda oyoq, qo‘l va gavda harakatlarini muvofiqlashtirish.

#### O‘zlashtirish mezonlari.

Qisqa, o‘rta, uzoq masofalarga masofa bo‘ylab yugurishda va finish harakatlari ko‘nikmalarini hosil qilish.

Uzunlikka va balandlikka sakrashda kuchli depsinish, parvoz qilish malakalarini hosil qilish. Granata uloqtirish va yadro uloqtirishda oyoq, qo‘l va gavda harakatlarini qoidaga muvofiq bajarishga erishish.

#### Sport o‘yinlari Basketbol

Nazariy ma'lumotlar. Basketbolning harakat ko'nikmalari orqali o'quvchilarda chidamlilik va boshqa sifatlarni rivojlantirish to'g'risida tushuncha berish. Basketbolning texnika va taktikasi to'g'risida tushuncha berish. Musobaqa qoidalari.

Ko'nikma va malakalar. 1 bosqichda o'rganilgan maydondagi harakatlarni takomillashtirish. To'xtashlar, burilishlar, sakrashlar. Ikki qo'llab ilib olish. Bir joyda turib yelkadan bir qo'llab savatga tashlash texnikasini mustahkamlash. Harakatda bo'lganda bir qo'lda yuqoridan va elakadan to'pni savatga sakrab tashlashni o'rgatish. Jarima to'plarni tashlash. Chalg'itish harakatlari. To'pni himoyachi qarshiligida urib olib yurish.

Himoyachi harakatlari. To'pli va to'psiz o'yinchilarni qarshi olishga o'rgatish. O'quv mashg'ulot o'yinlari.

#### O'zlashtirish mezonlari

To'pni harakat jarayonida bir, ikki qo'llab uzatish, ilib olish, to'xtash, burilishlar, bir qo'llab yelkadan va yuqoridan savatga aniq tashlashga erishish. Himoyachi tomonidan hujumchini qarshi olish harakat ko'nikmalarini hosil qilish.

#### **Voleybol**

Nazariy ma'lumotlar. Zona himoyasi to'g'risida tushuncha berish. Voleybol musobaqa qoidalari.

Ko'nikma va malakalar. Pastdan to'pni bir qo'llab qabul qilish. To'pni ikki qo'llab yuqoridan oldinga va orqaga uzatish. To'pni qabul qilib ikkinchi, uchinchi, to'rtinchi, zonalardagi sheriklariga aniq uzatish. Bir kishilik to'siq qo'yish. To'rtinchi va ikkinchi zonalarda hujum zarbi berishni o'rgatish. To'pni pastdan va yuqoridan o'yinga kiritish. Ikki tomonlama o'quv mashg'ulot o'yini.

#### O'zlashtirish mezonlari

To'pni yuqoridan va pastdan o'yinga kiritish, kiritilgan to'pni pastdan ikki qo'llab qabul qilib, sherigiga aniq uzatish, hujum zarbi berish ko'nikmalariga erishish.

#### **Qo'l to'pi**

Sh.Sharofaddinov –	O'MKHT Axborot-metodik xizmati etakchi metodisti
M.Omonov –	O'zMU qoshidagi S.H.Sirojiddinov nomidagi akademik litsey o'qituvchisi
A.Tojiboev –	Toshkent Davlat texnika universiteti qoshidagi Chilonzor akademik litseyi o'qituvchisi

### Taqrizchi:

N.Polvonov –	O'zMU Tarix fakulteti dotsenti, t.f.n
A.Odilov –	Toshkent Davlat texnika universiteti qoshidagi Chilonzor akademik litseyi o'qituvchisi

## **Kirish**

Mustaqil mamlakatimizning oliy va oʻrta maxsus taʼlim muassasalarida, shuningdek, akademik litseylar hamda kasb-hunar kollejlarda “Maʼnaviyat asoslari” fanini oʻrganish yoʻlga qoʻyilganidan buyon ancha vaqt oʻtdi. Bu davrda mazkur fanning predmeti, maqsadi va vazifalari xususida muayyan tasavvur hosil boʻldi, uni oʻqitish samaradorligini oshirish yuzasidan uslubiy–pedagogik qarashlar tizimi shakllandi. Oʻzbekiston Respublikasining “Taʼlim toʻgʻrisida”gi qonuni va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ga (1997 yil) muvofiq endilikda bu yoʻnalishdagi saʼy-harakatlarni yanada faollashtirish talab etiladi. Chunki, xalqaro andozalardagi bu hujjatlar taʼlim tizimi zimmasiga dunyo ilm-fani yutuqlaridan yaxshi xabardor, jahoniy miqyoslarda xalqimiz nomidan baralla soʻz ayta oluvchi, Oʻzbekiston shaʼnini ulugʻlashga qodir farzandlarni kamol toptirishdek, gʻoyat masʼuliyatli vazifa yuklamoqda.

Dasturning maqsadi akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari oʻquvchilari “Maʼnaviyat asoslari” fanini ilmiy asosda, oddiqlikdan murakkablik tomon izchil ravishda oʻrganishga imkon yaratishdan iboratdir. Fan hamda dasturning vazifalari esa oʻquvchilarni butun insoniyat, chunonchi, Sharq va Markaziy Osiyo xalqlari, jumladan, oʻzbek xalqi yaratgan maʼnaviyatga oid bilimlar bilan qurollantirish, buyuk vatandoshlarimizning jahon tafakkuri taraqqiyotiga, Islom madaniyati va tasavvuf ahloqiga qoʻshgan beqiyos hissalarini yoritish orqali ulardan milliy-maʼnaviy merosdan faxrlanish tuygʻusini tarbiyalash, qadriyatlar hamda urf-odatlarimizga ongli munosabat hissini uygʻotish, shu asosda maʼnaviyati boy, milliy taraqqiyot mafkuramizda qatʼiy turuvchi, ona-Vatanimizning buyuk kelajagi uchun fidoiy, bozor iqtisodiyoti sharoitida insoniylik fazilatlarini toʻla namoyon eta biladigan, oʻzini, yon-atrofdagilarni milliy turmush tarzimizga yot gʻoyalar, oqimlar, illatlar, qusurlardan himoya qila oladigan barkamol avlodni voyaga yetkazishga yoʻnaltirilgan.

“Maʼnaviyat asoslari” fani oʻquv dasturi 40 soatga moʻljallangan boʻlib, shundan 24 soat nazariy, 16 soat seminar mashgʻulotlari uchun ajratilgan. Mustaqil ishlar uchun ajratilgan soatlar 16 soatni tashkil etadi.

O‘quv dasturining tarkibi oquvchilarning bilimi, konikmasi va malakasiga qo‘yiladigan talablar, fanning o‘quv rejadagi boshqa fanlar bilan aloqadorligi, fanni o‘qitishda foydalaniladigan zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar, nazariy va seminar mashg‘ulotlarni o‘qitish, mustaqil ishlarni tashkil etish bo‘yicha ko‘rsatmalar, fan dasturining informatsion-uslubiy ta‘minoti, o‘quvchilarning bilimini baholash, fan mavzulari bo‘yicha o‘qitish rejasi tarkibi, o‘quv dasturining mazmuni, tavsiya etiladigan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat.

### **Fanning maqsadi va vazifalari**

#### **Fanning maqsadi:**

- O‘quvchilarni butun insoniyat, chunonchi, Sharq va Markaziy Osiyo xalqlari, jumladan, o‘zbek xalqi yaratgan ma‘naviyatga oid bilimlar bilan qurollantirish;
- Buyuk vatandoshlarimizning jahon tafakkuri taraqqiyotiga, Islom madaniyati va tasavvuf axloqiga qo‘shgan beqiyos hissalarini yoritish orqali ularda milliy-ma‘naviy merosdan faxrlanish tuyg‘usini tarbiyalash.

#### **Fanning vazifasi:**

- Yoshlarda ajdodlarga munosib voris bo‘lish, milliy qadriyatlar hamda urf-odatlarimizga ongli munosabat va daxldorlik hissini uyg‘otish;
  - Mustaqillikni asraydigan, Vatan kelajagi uchun, yurt ravnaqi uchun fidoiy farzandlarni tarbiyalash;
  - o‘zini, yon-atrofdagilarni milliy turmush tarzimizga ma‘naviy tahdidlar, illatlar, qusurlardan himoya qila oladigan barkamol avlodni voyaga yetkazish.

### **Fan bo‘yicha o‘quvchilarning bilimi, ko‘nikmasi va malakalariga qo‘yiladigan talablar**

O‘quvchilar ushbu fanni organish orqali:

Ma‘naviyat tushunchasi, uning tarkibiy qismlari, inson hayotida ma‘naviyatning o‘rni va ahamiyati;

“Ma‘naviyat asoslari” fanining ijtimoiy, ilmiy-nazariy, badiiy-estetik, amaliy manbalari;

Markaziy Osiyo xalqlari ma‘naviyatining yozma yodgorliklari; ma‘naviy meros, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, ularning shakllanish va mavjudlik tamoyillari;

Barkamol shaxs ma‘naviyatida milliy marosimlar, urf-odat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o‘rni va roli;

Ma'naviy barkamollikda milliylik va umuminsoniylik birligi;  
insonga, vatanga muhabbat, fidoiyluk, bunyodkorlik, adolatlilik,  
huquqqa hurmat ma'naviy shaxsning fazilatlari ekanligi;

Insonparvarlik, vatanparvarlik, kamtarlik, mehnatsevarlik, mehr-oqibat, birodarlik yuksak ahloqlilik barkamol shaxs ma'naviyatining muhim jihatlari ekanligi;

Kasb-hunarli bo'lish, ilm-fanni ishtiyoq bilan o'rganish Vatanga fidoiyluk namunasi ekanligi;

Mahalla muhiti va oila ma'naviyati-milliy taraqqiyotimiz kafolatlari ekanligi haqida **nazariy bilimlarga ega bolishi**;

Davlat rahbarimizning ma'naviyat tushunchasining mazmun-mohiyati bilan bog'liq fikrlarini o'rganib borish;

ommaviy axborot vositalari va boshqa tarmoqlardan zarur bo'lgan axborotlarni izlab topish, tahliliy yondashish va mavzu bilan bog'lay olish;

O'zbekistondagi ma'naviy islohotlar jarayonlarni kuzatish va ularga oid diagrammalar, infogrammalar tayyorlay olish;

O'rgangan bilimlarini bir davrdan ikkinchi davrga o'tkaza olish, qiyosiy tahlil qilish;

mustaqil bilimlarini boyita olish;

fanga oid bo'lgan atamalar izohini topa olish, ulardan o'rinli foydalanish;

O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlariga oid ma'lumotlarini jamlay olish va taqdimotlar tayyorlay olish ko'nikmalariga ega bolishi;

Jamiyatda sodir bo'layotgan jarayonlarga faol kirisha olish;

Jamiyatda sodir bo'layotgan voqealar va hodisalar, vaziyatlarga baho berish, ular o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni anglash;

Aniqlangan xususiy natijalarni umumlashtirib, asosiylarini ajratish, xulosa chiqara olish;

Jarayonga munosabat bildirishda tanqidiy va asosli fikrlay olish;

jamiyatda bo'layotgan har qanday voqea-hodisalarga dahldorlikni his etish;

o'zlikni anglashni shakllantirish;

Milliy ma'naviyatimiz boyliklarini jahonga tanitishda fidoiy bo'lish;

Ekologik madaniyat va ma'naviyatni takomillashtirishda fidoiy bo'lishni anglash malakalariga ega bolishi lozim.

### **Fanning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi,**

#### **uslubiy jihatdan uzviyligi va ketma-ketligi**

“Ma'naviyat asoslari” fani umumtalim fanlaridan “Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar”, “Ona tili va adabiyot”, “Tarix”,

“Falsafiy fanlar”, “Oila psixologiyasi”, “O‘zbekiston Konstitutsiyasi”, “Huquqshunoslik” fanlari bilan uzviy bog‘liq hamda uslubiy jihatdan ketma-ketdir.

### **Fanni o‘qitishda foydalaniladigan zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar**

**Zamonaviy axborot texnologiyalari:** Kompyuter texnikasi, proektor, ovoz kuchaytirgich, printer, nusxa ko‘chirish apparati, elektron doska va boshqa multimedia vositalari yordamida o‘qitiladi.

**Zamonaviy pedagogik texnologiyalar:** Dars jarayonida “Hamkorlikda o‘qish”, “Loyiha”, “Keys-stadi” kabi interfaol pedagogik texnologiyalar hamda “Aqliy hujum”, “Klaster”, “Bumerang”, “Amaliy o‘yin”, “Rolli o‘yin”, “Yelpig‘ich”, “Nima uchun?”, “Qanday?”, “Zinama-zina”, “Tushunchalar tahlili”, “T sxema”, “Atamalar zanziri”, “Toifalash jadvali”, “FSMU”, “B-B-B”, “Blits-so‘rov”, “Insert” va boshqa shu kabi metodlar qo‘llaniladi.

### **Fan bo‘yicha nazariy, seminar mashg‘ulotlari va mustaqil ishlarni tashkil etish bo‘yicha ko‘rsatmalar**

**Nazariy mashg‘ulotlarni tashkil etish:** O‘qituvchi ma’ruza matni orqali mavzu bo‘yicha o‘rgatilishi lozim bo‘lgan tushunchalarni reja asosida taqsimlagan holda mashg‘ulotni tashkil etadi. Mavzu bo‘yicha o‘quvchi bilishi lozim bo‘lgan tushunchalar to‘g‘risida ma’lumot beradi. Qaytar aloqani o‘quv topshiriqlar (og‘zaki, yozma) yordamida mustahkamlaydi. Mavzu bo‘yicha o‘quvchilarning savollariga javob beradi, yangi pedagogik texnologiyalar orqali o‘quvchilarda mavzu bo‘yicha bilimlarni shakllantiradi.

**Seminar mashg‘ulotlarini tashkil etish:** O‘tilgan mavzular bo‘yicha o‘quvchilarning bilimlari pedagogik texnologiyalar asosida mustahkamlanadi. O‘qituvchi mavzular bo‘yicha o‘quvchilarning mavzuni o‘zlashtirganlik darajasidan kelib chiqqan holda mustaqil bajarishlari uchun topshiriqlar beradi. Taqdimotlarni kuzatadi, nazorat qiladi, baholaydi.

**Mustaqil ishlarni tashkil etish:** O‘qituvchi o‘tilgan mavzular mazmunidan kelib chiqqan holda mustaqil ish mavzulari ro‘yxatini shakllantiradi, mustaqil ishlarni bajarish shaklini belgilaydi, mustaqil ishni bajarish bo‘yicha tegishli ko‘rsatma va tavsiyalar beradi. Mustaqil ishlar

yakuniy nazorat o'tkazilgunga qadar tekshirib chiqilishi va baholanishi lozim. Mustaqil ishga qo'yilgan baholar joriy nazorat tarkibiga kiradi.

### **O'quv dasturining informatsion-uslubiy ta'minoti**

O'quv dasturining informatsion-uslubiy ta'minoti dasturda belgilangan mavzular va ularga ajratilgan soatlar darslik va o'quv qo'llanmalarda to'liq yoritilishi o'qituvchiga vaqtni tejashga va tejalgan vaqtdan mavzularga oid qo'shimcha ilmiy-metodik materiallar tayyorlash uchun foydalanish imkoniyatini yaratish;

– bu borada tajribali, yuqori natijalarga erishgan o'qituvchilarning ishlarini ommalashtirish, o'rganishni yo'lga qo'yish;

– ushbu fan o'qituvchisi birinchi navbatda mutaxassis, o'z fanini yaxshi biladigan, fidoiy, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanadigan, ularning yangi usullarini kashf eta oladigan, ijodkor bo'lishi lozim;

– Ta'lim berishda zamonaviy texnik imkoniyatlar Respublika miqyosida oshirilishiga qaramasdan, o'qituvchi har qanday vaziyatda oddiy usullarda ham mukammal bilim berish yo'llarini izlab topmog'i va ularni qo'llamog'i kerak;

muzeylarga, tarixiy joylarga, dalalar, zavod-fabrikalar, san'at dargohlari, kontsert zallari, teatr, kino, televideniya, nashriyotlar va hokazolarga sayohat darslari tashkil etishni nazarda tutadi.

### **O'QUVCHILARNING BILIMLARINI BAHOLASH**

Fanning xususiyatini hisobga olgan holda reyting tizimi bo'yicha o'quvchilar bilimni baholash mezonlari ishlab chiqildi.

O'quvchining fan bo'yicha o'zlashtirishni baholash muntazam ravishda olib boriladi va quyidagi turlar orqali amalga oshiriladi:

– joriy baholash (JB);

– akuniy baholash (YaB).

JB da fanning har bir mavzusi bo'yicha o'quvchining bilimi va amaliy ko'nikmalarini aniqlab borish nazarda tutiladi.

JB turlari har bir mavzuning hususiyatidan kelib chiqqan holda, og'zaki, yozma ish, test, nazorat ishi, uy vazifasi, kollokvium va shu kabi boshqa shakllarda amalga oshirilishi mumkin.

YaB da o'quvchining bilim, ko'nikma va malakalari fanning umumiy mazmun doirasida baholanadi.

O'quvchining semestr davomida fan bo'yicha to'plagan umumiy balli har bir baholash turlaridan to'plangan ballar yig'indisiga teng bo'ladi.

YaB turi test shaklida o'tkaziladi.

O‘quvchining fan bo‘yicha mustaqil ishi JB va YaB turlarida baholandi.  
O‘quvchilar bilimini baholashda quyidagi namunaviy mezonlar inobatga olinadi.

<b>Ball</b>	<b>Baho</b>	<b>O‘quvchining bilim darajasi</b>
4,5-5	A‘lo	Xulosa va qaror qabul qilish; Ijodiy fikrlay olish; Mustaqil mushohada yuritish; Amalda qo‘llay olish; Mohiyatini tushunish; Bilish, aytib berish; Tasavvurga ega bo‘lish.
3,5-4	Yaxshi	Mustaqil mushohada yuritish; Amalda qo‘llay olish; Mohiyatini tushunish; Bilish, aytib berish; Tasavvurga ega bo‘lish.
2,5-3	Qoniqarli	Mohiyatini tushunish; Bilish, aytib berish; Tasavvurga ega bo‘lish.
1-2	Qoniqarsiz	Aniq tasavvurga ega emaslik; Bilmaslik.

**“Ma’naviyat asoslari” fanidan o‘tkaziladigan reyting tizimi  
quyidagi vazifalarni bajarishga qaratilgan:**

- o‘quvchilarning “Ma’naviyat asoslari” fanini o‘zlashtirishini muntazam ravishda nazorat etib borish, ularni o‘quv semestri davomida o‘z bilimlarini uzluksiz faol ravishda oshirib borishlarini ta’minlash.
- o‘quvchilar bilimini haqqoniy aniq va adolatli baholash hamda natijalarini ularga muntazam ravishda ma’lum qilib borish;
- o‘quvchilarni mafkuraviy muammolar bo‘yicha mustaqil ishlash ko‘nikmalarini keng rivojlantirish;
- “Ma’naviyat asoslari” fanidan ta’lim beradigan o‘qituvchilarda ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlarga puxta tayyorgarlik ko‘rish, o‘quvchilar bilimini baholash uchun savollarni tuzishda mas’uliyatni oshirish va hokazolar.

**Izoh:** O‘quvchilarni amaliy mashg‘ulotlarda baholash jarayonida, uning axloq odobi, ma’naviyati, dunyoqarashi, faolligi ham inobatga olinadi.



## Mavzular bo'yicha dars soatlarining tahminiy taqsimoti

№	Fan bo'limlari va mavzular	Umumiy yuklama, soat				
		Dars turi bo'yicha soatlar taqsimoti				
		Hammasi	Jami	Nazariy (ma'ruza)	Seminar	Mustaqil ish
1	“Ma'naviyat asoslari” fanining maqsad va vazifalari.	2	2	2		
2	Ma'naviy meros. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar.	8	6	2	4	2
3	Bashariyat taraqqiyotida ma'naviyatning o'рни.	6	4	2	2	2
4	O'rta Osiyolik mutafakkirlarning jahon madaniyati rivojiga qo'shgan hissasi.	6	4	2	2	2
5	Ta'lim - tarbiya – inson ma'naviyati shakllanishiga bevosita ta'sir etuvchi omil.	6	4	2	2	2
6	Barkamol shaxs tarbiyasida ma'naviyatning o'рни.	4	2	2		2
7	Insonparvarlik, vatanparvarlik va tinchliksevarlik – shaxs ma'naviyatining ajralmas qismi.	6	4	2	2	2
8	Demokratik jamiyatning shakllanishida ma'naviyatning o'рни.	6	4	2	2	2
9	Jamiyat taraqqiyotida islohotlar va ularning ma'naviy mezonlari.	6	4	2	2	2
10	Ma'naviy tahdidlar va ularga qarshi kurash.	5	4	2	2	1
11	Mamlakat taraqqiyotidagi mas'uliyatni his etish yoshlarning yuksak ma'naviy burchi.	3	2	2		1
	<b>Jami:</b>	<b>58</b>	<b>40</b>	<b>22</b>	<b>18</b>	<b>18</b>

### *O'quv dasturining mazmuni*

#### **1-mavzu. “Ma'naviyat asoslari” fanining maqsad va vazifalari.**

Ma'naviyat tushunchasiga ta'rif. Prezidentimiz Islom Karimovning “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch” asaridagi kontseptual g'oyalar asosida ma'naviyat tushunchasiga ta'rif berish.

Ma'naviyat asoslari fanining ijtimoy-gumanitar fanlar bilan aloqasi. Tarix, adabiyot va inson falsafasi ma'naviyatning nazariy manbalari sifatida.

O'zlikni anglash. Ma'naviyatni anglash. Ma'naviyat inson ongi va ruhiyati bilan chambarchas bog'liq tushuncha ekanligi.

Ma'naviyatning jamiyat hayotidagi g'oyaviy, mafkuraviy – ma'rifiy, madaniy-diniy va axloqiy qarashlarni o'zida mujassam etishi.

Ma'naviyatga bevosita ta'sir etuvchi omillar. Ma'naviy meros, madaniy boyliklar, tarixiy yodgorliklar.

Ma'naviyatni anglashda ona tilining o'rni. O'zlikni anglash milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o'rtasidagi ruhiy-ma'naviy bog'liqlikning til orqali namoyon bo'lishi. "Davlat tili to'g'risida"gi qonunning qabul qilinishi.

## **2-mavzu. Ma'naviy meros. Milliy va umuinsoniy qadriyatlar.**

Ma'naviy meros hamda qadriyatlar tushunchalari.

Qadimiy diyorumiz jahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri hamda umumbashariy sivilizatsiya va madaniyatning uzviy qismi ekanligi.

Mustaqillik tufayli xalqimiz ma'naviy merosiga, qadriyatlariga munosabatning o'zgarishi. Bu borada Prezidentimiz tashabbusi va rahnamoligida amalga oshirilgan tadbirlar. Davlat ramzlarini qabul qilinishi, Navro'z, hayit bayramlari, Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro, Bahovuddin Naqshband, Amir Temur, Mirzo Bobur singari ulug'larimiz nomlarining tiklanishi borasida olib borilgan ishlar.

Muqaddas dinimiz ma'naviyatning tarkibiy qismi ekanligi.

Islom dini va madaniyati rivojiga xalqimiz tomonidan qo'shib kelinayotgan beqiyos hissa. Xalqaro Islom Konferentsiyasi tashkilotining ta'lim, fan, va madaniyat masalalari bo'yicha muassasasi (AYSESKO) 2007- yilda Toshkent shahrini "Islom madaniyati poytaxti" deb e'lon qilganligi.

Madaniy boyliklar. Mamlakatimiz hududida mavjud bo'lgan tarixiy obidalar umumjahon merosining noyob namunasi ekanligi. O'lkamizda dehqonchilik va hunarmandchilik madaniyati, me'morchilik va shaharsozlik yuksak darajada rivoj topganligi haqida. Madaniyatning ilm, axloq, badiiy, diniy qadriyatlar kabi tarkibiy qismlari mavjudligi. "Avesto" bebaho ma'naviy meros. Xalq og'zaki ijodi va uning noyob durdonalari. "Alpomish" va "Go'ro'g'li" dostonlarida ota-bobolarimizning chet el bosqinchilariga qarshi Vatan, xalq ozodligi uchun kurashlarining tasvirlanganligi.

Milliy bayramlar xalq ma'naviyatining ko'zgusi ekanligi.

Milliy urf-odatlar. Mehr-oqibat, insonni ulug'lash, tinch va osoyishta hayot, do'stlik va totuvlikni qadrlash, muammolarni birgalikda xal qilish,

hashar. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. Mamlakatimizda Ikkinchi jahon urushida halok bo‘lgan yurtdoshlarimiz xotirasini abadiylashtirish maqsadida Xotira va qadrlash kunining joriy etilishi. Xotira maydonlari, Motamsaro ona haykalining barpo etilishi, ”Xotira” kitobining chop etilishi. Qatag‘on qurbonlarini yod etish kunining joriy etilishi”. Shahidlar xotirasi” xiyoboni va “Qatag‘on qurbonlarini yod etish” muzeyining barpo etilishi haqida.

### **3-mavzu. Bashariyat taraqqiyotida ma’naviyatning o‘rni.**

Insoniyat tarixida jahon taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shgan mutafakkirlarning ma’naviy merosi.

Aristotel, Platon va Sokratning falsafa tarixidagi o‘rni. Gerodot, Ksenofont kabi tarixchilarning asarlari, Kul Tegin obidasi, O‘rxun-Enasoy toshbitiklari.

Bag‘doddagi “Bayt ul-hikma” va Xorazm Ma‘mun akademiyasi va unda faoliyat yuritgan olimlarning ma’naviy qarashlari.

O‘rta asrlarda Yevropa uyg‘onish davri namoyandalari Nikolay Kopernik, Jordano Bruno, Galileo Galiley.

XX asr tarixida Hindiston milliy ozodlik kurashining yetakchisi Mahatma Gandining ma’naviy qarashlari.

### **4-mavzu. O‘rta Osiyolik mutafakkirlarning jahon madaniyati rivojiga qo‘shgan hissasi.**

Buyuk allomalarning ilmiy-ijodiy kashfiyotlari ma’naviyatimiz mezoni. Muhammad Muso Xorazmiy, Ahmad Farg‘oniy, Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Mahmud Zamahshariy. Ularning hayoti va buyuk merosi xalqimiz ma’naviy boyligi isboti ekanligi. Sohibqiron Amir Temur. “Temur tuzuklari”. Mirzo Ulug‘bek. “Ziji jadidi Ko‘ragoniy”. Alisher Navoiy so‘z mulkingning sultoni.

Buyuk mutafakkir va allomalarimizning islom madaniyati taraqqiyotidagi ulkan hissasi. Imom Buxoriy hadis ilmining sultoni. “Al-jome` as-sahih”. Abu Iso Muhammad ibn Iso Termiziyning ma’naviy merosi. “Sunani Termiziy”. Imom Moturudiy – musulmonlarning e`tiqodini tuzatuvchi. Burxoniddin Marg‘oniy islom din va millatning hujjati. “Hidoya” asari. Abduholiq G‘ijduvoniy, Bahouddin Naqshbandiy tariqatining asosi “Diling Ollohda, qo‘ling mehnatda bo‘lsin”.

Buyuk allomalarimizning dunyo miqyosida e`tirof etilishi va ularga nisbatan hurmat.

Jadidchilik harakati namoyandalari. Ajdodlarimizning ilmiy merosi davomchilari, o‘zbek fani va madaniyatining fidoiylari.

## **5- mavzu. Ta'lim- tarbiya – inson ma'naviyati shakllanishiga bevosita ta'sir etuvchi omil sifatida.**

Ta'lim-tarbiya inson kamoloti va millat ravnaqining asosiy sharti va garovi. Ta'lim-tarbiya davlat va jamiyat nazoratidagi umummilliy masaladir. Ta'lim-tarbiyaning asosiy maqsadi va vazifasi komil inson tarbiyasidir. Ta'lim va tarbiya ajratib bo'lmaydigan uyg'unlikdir. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" va "Maktab ta'limini rivojlantirish umummilliy dasturi" ta'lim jarayoni mazmunini tubdan takomillashtirishga xizmat qiladi. Ta'limni insonparvarlashtirishning markaziy masalasi yoshlarda or-nomusni, vatan va xalq oldidagi mas'uliyatni, yuksak axloq va fuqarolik sifatlarini shakllantirishdan hamda ma'naviy-ruhiy fazilatlarni singdirishdan iborat ekanligi. Jamiyat ma'naviyatini yuksaltirishda ta'lim va tarbiya ishlarining ahamiyati benihoya katta ekanligi.

Inson qalbiga yo'l ta'lim -tarbiyadan boshlanadi. Maktab - ma'naviyat ma'rifat maskani. 1 oktyabr - O'qituvchi va murabbiylar kuni.

Mamlakatimizda ma'naviy tiklanish va yangilanish jarayonlarida adabiyot hamda san'at. Erkin ijod imkoniyatlari. Ma'naviy tahdidlarga qarshi kurashda ilmu fan, san'at, ijod ahlining o'rni. Ommaviy axborot vositalari- ma'naviy targ'ibotning markaziy namoyandasi. Ommaviy axborot vositalarining keng imkoniyatlari, faoliyati va kelajakdagi maqsadlari.

Ilm – inson uchun g'oyat oliy va muqaddas bir fazilat ekanligi. , Ilm kishini zehni, fikrini o'tkir qilishi. Kishi xayotidagi ishlarni haqiqiy to'g'ri yo'lga soladigan vosita bu – ilm ekanligi.

Kasbiy mahoratni shakllantirishda umuminsoniy va milliy qadriyatlar asosida yoshlarni tarbiyalash, mamlakatimiz mustaqil taraqqiyotini yanada takomillashtirishda ishlab chiqarish sohalarini rivojlantirish, zamonaviy texnika va texnologiyani muayyan sohalariga tatbiq etish, ulardan samarali foydalanish yo'llari haqida to'liq bilimga ega bo'lishlari ochib beriladi. Zamonaviy mutaxassis o'z kasbiy faoliyati sohasidagi yangiliklarni egallab borishi, istiqboldagi taraqqiyot yo'nalishlari hamda yuzaga keluvchi muammolarni yechish yo'llarini ko'ra bilishi lozim. Kasbiy mahorat yoshlarni kasbga yo'naltirish va tayyorlashda kasb egalariga nisbatan hurmat hissini, kasbiy g'ururni shakllantirishdan iborat ekanligi.

## **6-mavzu. Barkamol shaxs tarbiyasida ma'naviyatning o'rni.**

Ma'naviy tarbiyani to'g'ri yo'lga qo'yish, ma'rifat va madaniyatning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash maqsadga erishishning asosiy omillaridan biri ekanligi.

Madaniyatsiz jamiyat rivojlanmaydi. Madaniyatning tarkibiy qismlari bo'lmish ilm, fan, ma'rifat taraqqiyot negizi. Iqtisodiy taraqqiyot uchun ulkan moddiy - madaniy zamin zarur ekanligi.

Yosh avlodni har tomonlama yetuk qilib tarbiyalashda komil inson, ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik, dinlararo bag'rikenglik tamoyillarining o'rni va ahamiyati. Milliy g'oyaning butun O'zbekiston ahli uchun birdek daxldorligi. Bizning ulug' maqsadimiz mustaqillikni mustahkamlash, mamlakatimizni har tomonlama yuksaltirish, yorug' va erkin hayot sari olg'a yurishdir.

Millat ma'naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda oilaning o'rni va ta'siri beqiyos ekanligi.

Mahalla – insonni jamiyat bilan uyg'unlashtiradigan hamda shu ruhda tarbiyalaydigan eng katta saxovatli go'sha va beqiyos Vatan ekanligi. Mustaqillik sharofati tufayli qo'shnichilik va mahallachilik an'analarining yangi ruhda shakllanganligi. Mahallaning Konstitutsion maqomga egaligi. Mahalla “Kuchli davlatdan – kuchli jamiyat sari” tamoyilining amaliy ifodachisi. Mahalla - tarbiya maktabi.

Yangi jamiyat bunyodkori yangi insonni tarbiyalashda mahallaning, uning faollarining, diniy ma'rifat va ma'naviy axloqiy masalalar bo'yicha maslahatchilar ishtirokining ahamiyati.

Uzluksiz ma'naviy tarbiya ona suti, oila tarbiyasi, ajdodlar o'giti, Vatan tuyg'usi orqali amalga oshirilishi. Tabiatga, go'zallikka munosabat.

### **7-mavzu. Insonparvarlik, vatanparvarlik va tinchliksevarlik – shaxs ma'naviyatining ajralmas qismi.**

Milliy o'z-o'zini anglash, boshqa millatlarga nisbatan hurmat, vatanparvarlik va millatparvarlik, tinchliksevarlik shaxs ma'naviyatining belgilari ekanligi.

Insonparvarlik axloqiy tamoyillarning eng qadimiy va eng muhimi. I.A.Karimov Konstitutsiyaning 13 yilligiga bag'ishlab so'zlagan nutqida ham inson manfaati masalasi mohiyat va Yechimlari izohlangan. Insonparvarlik – odamzod qadri, erkinlik va qobiliyatlarining har tomonlama namoyon bo'lishi uchun kurashish kishilarning baxt-saodati, teng huquqliligi, adolatli hayotini ta'min etishga intilishini ifodalaydigan g'oya va qarashlar tizimi ekanligi. Barcha uchun birdek yagona “universal demokratiya”ning yo'qligi.

XX asr tarixida inson omili hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ldi va barcha tarixiy o'zgarishlarning harakatlantiruvchi kuchiga aylanganligi.

Vatanparvarlik, insonparvarlik va o'z millatiga sadoqat, shaxs ma'naviyatining muhim mezonlari ekanligi.

Vatanparvarlik – kishining o‘zi tug‘ilib o‘sgan, kamol topgan joy, zamin, o‘lkaga bo‘lgan mehr-muhabbatini, munosabatlarini ifoda etadigan ijtimoiy va ma’naviy axloqiy hislatlari, fazilatlari ekanligi.

Xalqimiz ma’naviyatining ajralmas qismiga aylanib ketgan muqaddas tushunchalardan biri – tinchliksevarlik ekanligi. Yer yuzidagi har qanday urushning natijasi – yovuzlik, adolatsizlik, shafqatsizlik va buzg‘unchilik hamda axloqsizlik ekanligi. Barcha ezgu orzu-niyatlar tinchlik zaminida ro‘yobga chiqishi haqida. Davlatimiz tomonidan tinchlikni ta’minlash borasida olib borilayotgan ishlar.

Mustaqillikni asrab-avaylash, himoya qilish va mustahkamlashning muhim omili ogohlik ekanligi. “O‘zingni, o‘z uyingni o‘zing asra!”, “Ogoh bo‘ling odamlar!”, “Tinchlik uchun kurashmoq kerak!”, “O‘zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo‘lmaydi”.

### **8-mavzu. Demokratik jamiyatning shakllanishida ma’naviyatning o‘rni.**

Erkin fuqaro ma’naviyatini shakllantirish dolzarb vazifa ekanligi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning samaradorligi xalq ma’naviyatining tiklanishi, boy tarixiy merosimizning chuqur o‘rganilishi, milliy qadriyatlarning saqlanishi, madaniyat, san`at rivoji va jamiyat tafakkurining o‘zgarishi hamda yuksalishi bilan bog‘liq ekanligi. 1990 -yil 24- martda O‘zbekistonda prezidentlik boshqaruvining joriy etilishi milliy madaniyatimiz, ma’naviy boyliklarimizni asrash va yanada boyitishga qaratilgan o‘z mustaqil siyosatimizni ishlab chiqish va amalga oshirishga xizmat qildi.

Ona tili – bu millatning ruhi. Mustaqillik arafasida o‘zbek tiliga davlat tili maqomini berish masalasi. Davlat tili maqomining Konstitutsiyada huquqiy jihatdan belgilanishi va mustahkamlanishi. Istiqlol yillarida o‘zbek tilining qo‘llanish doirasining kengayishi va xalqaro miqyosda faol muloqot vositasiga aylanishi.

Vatanga muhabbat o‘zlikni anglashdan boshlanadi. Yosh avlodni yaxlit o‘zbek xalqining farzandi ekanligini anglash ruhida tarbiyalash. Yashab turgan joy nomlarining atalishida tarixiy xotira va vatan tuyg‘usi. Dunyoviy davlatda dinga munosabat. Sobiq mustabid tuzum davrida din va diniy qadriyatlarga munosabat. Dunyoviy va diniy qadriyatlarning uyg‘unligi tarixiy zarurat ekanligi.

Shaxs va davlatning o‘zaro ma’suliyati. Ijtimoiy adolat. Fuqarolar tengligi.

Demokratik jamiyatning shakllanishida ma’naviyatning o‘rni beqiyos ekanligi.

Mamlakatimizda ma'naviyat davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylanganligi. Davlat va nodavlat tashkilotlarining jamiyat hayotida tutgan o'рни.

### **9-mavzu: Jamiyat taraqqiyotida islohotlar va ularning ma'naviy mezonlari.**

Yangi taraqqiyot yo'liga qadam. Erkin bozor munosabatlariga asoslangan huquqiy davlat, demokratik jamiyat barpo etish yo'lida.

Taraqqiyotning o'zbek modeli.

Davlat mulkini xususiylashtirish bozor munosabatlariga o'tishning muhim shartlaridan biri ekanligi.

O'tkazilayotgan islohotning jamiyatda ma'naviy mezonlarning hal qiluvchi omili bo'lib xizmat qilib kelayotgani. O'tish davrida ijtimoiy adolat tamoyilining ahamiyati.

Islohotlar samarasi xalqning yuz berayotgan o'zgarishlar uning hayotiga daxldorligini anglab yetishi bilan belgilanishi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida inson omili. Islohot – islohot uchun emas, avvalo, inson uchun. Islohotlarni amalga oshirishda ma'naviyat va iqtisodiyotning bir-birini inkor etmasligi. Islohotlarning xalqimiz ruhiyati, turmush tarzi, urf-odat, an'analariga har tomonlama mos yo'li. Islohotlarda xalq ma'naviy hayoti bilan bog'liq masalalarning ustuvorligi.

Ma'naviyat va iqtisodiyotning o'zaro aloqadorligi jamiyat taraqqiyoti va barqarorligi garovi ekanligi.

### **10-mavzu: Ma'naviy tahdidlar va ularga qarshi kurash.**

Ma'naviy tajovuzlar. Xudbinlik, loqaydlik, manfaatparastlik, hasad, sotqinlik kabi illatlardan yosh avlodni himoya qilish yo'llari.

Ma'naviy bo'shliq va zamonaviy axborot maydoni xavfi. Beparvolik, loqaydlikning ma'naviyatga yetkazadigan zararlari. Xalqaro maydondagi turli siyosiy kuchlarning milliy va strategik maqsadlari yo'lidagi "Erkinlik va demokratiyani olg'a siljitish" hamda o'tish davridagi g'oyaviy bo'shliqdan foydalanib ma'naviy va axloqiy tubanlik illatlariga asoslangan "ommaviy madaniyat" niqoblari ostidagi harakatlari.

Ma'naviy tahdidlar va ularning ta'sir qilish vositalari. Mustaqil dunyoqarash. Sog'lom fikrlash. Mafkuraviy va ma'naviy ta'minlanganlik. Komil inson, sharqona axloq me'yorlari. Or-nomus, uyat, andisha, sharmu hayo, ibo va iffat tushunchalari.

Ma'naviy boylik – inson irodasining quvvati. Beparvolik, loqaydlik ma'naviyatga zid illat. Jamiyat mafkuraviy immunitetini kuchaytirishning samarali usul va uslublari. Shaxs va davlat, inson va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarning yangicha mazmuni va shakli, yangi tamoyillar asosida

takomillashib borishi. Ma'naviy hayotimizni turli tahdid va xurujlardan himoya qilish har bir fuqaro, har bir insonning mas'uliyatli burchi ekanligi.

### **11-mavzu: Mamlakat taraqqiyotidagi mas'uliyatni his etish yoshlarning yuksak ma'naviy burchi**

Bosqinchilik va mustamlakachilik oxir-oqibatda ozodlik hamda istiqlol uchun kurash zaruratini keltirib chiqarishi butun insoniyat tarixi sabog'i. Mustaqillikka erishish g'oyasi O'zbekiston xalqiga ham azaldan merosligi. Xalqimizning ahmoniylar, grek-makedoniyaliklar zulmiga, arablar istilosiga, mo'g'ul -tatar bosqinchiligiga, chorizm mustamlakachiligiga va, nihoyat, sho'ro totalitar tuzumiga qarshi olib borgan milliy ozodlik harakatlari.

Mustaqillik tushunchasi, uning siyosiy (milliy davlatchiligimizning tiklanishi, o'z taqdirimizni o'zimiz erkin belgilashimiz, jahon hamjamiyatiga teng huquqli a'zo bo'lishimiz,) iqtisodiy (mamlakat hududidagi jamiki moddiy boyliklarga ega bo'lishimiz), ijtimoiy (turmushni milliy xususiyatlarimiz, urf-odatlarimiz va an'analarimiz asosida tashkil etish imkoniga erishganimiz), ma'naviy (o'zligimizni anglash, insoniyat tarixida tutgan o'rnimizni bilib olish, omma fikrning uyg'onishi) sohalardagi ahamiyati. Mustaqillikning oliy qadriyatga aylanishi.

“O'zbekiston – kelajagi buyuk davlat!” shiorining olg'a surilishi omillari. Respublikamizda yerosti va usti resurslarni ishga solish, zamonaviy ishlab chiqarish korxonalarini vujudga keltirish, odamlar uchun munosib turmush sharoitlarini vujudga keltirish, odamlar uchun butun xalqning, ayniqsa, yoshlarning mustaqillikni mustahkamlash va mamlakat taraqqiyotiga mas'ullikni xis qilish yoshlarning ma'naviy burchi ekanligi hamda bu jarayonda ular o'z ma'naviy salohiyatini yuksaltirib borish davr talabi ekanligini anglashi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: “O'zbekiston”. 2014.
2. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisodiyot, siyosat, mafkura. 1-jild.– T.: “O'zbekiston”. 1996.
3. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. 2-jild. – T.: “O'zbekiston”. 1996.
4. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir.3-jild. – T.: “O'zbekiston”. 1996.
5. Karimov I.A. Bunyodkorlik yo'lidan. 4-jild. – T.: “O'zbekiston”. 1996.
6. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi.5-jild, – T.: “O'zbekiston, 1997.



7. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot. 6-jild. – T.: “O‘zbekiston”. 1998.
8. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz. 7-jild, – T.: “O‘zbekiston”. 1999.
9. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz. 8-jild. – T.: “O‘zbekiston”. 2000.
10. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas’ulmiz. 9-jild, – T.: “O‘zbekiston”. 2001.
11. Karimov I.A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. 10-jild. – T.: “O‘zbekiston”. 2002.
12. Karimov I.A. Biz tanlagan yo‘l-demokratik taraqqiyot va ma’rifiy dunyo bilan hamkorlik yo‘li. 11-jild. – T.: “O‘zbekiston”. 2002.
13. Karimov I.A. Tinchlik va xavfsizligimiz o‘z kuch-qudratimizga, hamjihatligimiz va qat’iy irodamizga bog‘liq. 12-jild. – T.: “O‘zbekiston”. 2004.
14. Karimov I.A. O‘zbek xalqi hech qachon hech kimga qaram bo‘lmaydi. 13-jild. – T.: “O‘zbekiston”. 2005.
15. Karimov I.A. Jamiyatimizni erkinlashtirish, islohotlarni chuqurlashtirish, ma’naviyatimizni yuksaltirish va xalqimizning hayot darajasini oshirish-barcha ishlarimizning mezon va maqsadidir. 15-jild. – T.: “O‘zbekiston”. 2007.
16. Karimov. I. A. “ Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch”. – T.: “Ma’naviyat”. 2008.
17. Karimov I.A. Eng asosiy mezon - hayot haqiqatini aks ettirish. – T.: O‘zbekiston, 2009.
18. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi: O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisidagi ma’ruza. 2010-yil 12-noyabr. –T.: «O‘zbekiston». 2010.
19. Islom Karimov. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonosida. – T.: “O‘zbekiston”. 2011.
20. Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. – T.: O‘zbekiston, 2011.
21. Karimov I.A. O‘tganlarni xotirlash, keksalarni e’zozlash – bizning farzandlik burchimizdir. 9-may 2015-yil Xotira maydonida ommaviy axborot vositalari vakillariga bergan intervyusi // “Xalq so‘zi” 2015-yil 10-may.
22. Karimov I.A. “Ona yurtimiz baxt-u iqboli va buyuk kelajagi yo‘lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir” – T.: O‘zbekiston. 2015.

23. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning “O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining yigirma to‘rt yillik bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida”gi Qarori. “Xalq so‘zi” , 2015- yil 18- iyul.
24. Karimov I.A. Vatanimizning tinchligi va xavfsizligi o‘z kuch-qudratimizga, xalqimizning hamjihatligi va bukilmaz irodasiga bog‘liq. – T.: “O‘zbekiston”. 2004.
25. “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun. 1997-yil 29-avgust.
26. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. 1997-yil 29-avgust.
27. “Xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san‘atini rivojlantirishni yanada qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. “Xalq so‘zi”, 2010-yil 30-mart.
28. Bolalar sporti ob`ektlaridan foydalanish samaradorligini oshirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori. “Xalq so‘zi”, 2010 -yil 6-may.
29. Prezident Islom Karimovning Qozog‘iston Respublikasi Ostona shahrida 2011-yil 15-iyun kuni Shanxay hamkorlik tashkiloti (SHHT) Davlat rahbarlari kengashining navbatdagi, o‘n birinchi majlisidagi nutqi. “Hamjihatlikda global tahdidlarga qarshi kurashish va barqaror taraqqiyotni ta’minlash” “Xalq so‘zi”, 2011-yil 16-iyun. №118 (5285).
30. Prezident Islom Karimovning I.Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisidagi ma’ruzasi. “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatni rivojlantirish kontsepsiyasi”. – T.: “O‘zbekiston”, 2010.
31. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning BMT Bosh Assambleyasining Ming yillik rivojlanish maqsadlariga bag‘ishlangan Oliy darajadagi yalpi majlisidagi nutqi//Xorijiy ijtimoiy-siyosiy doiralar vakillarining munosabatlari va sharhlari. –T.: “O‘zbekiston”, 2010. -184 b.
32. Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. – T.: “O‘zbekiston”, 2000.
33. Imom Buxoriy. “Hadis”, 4-jildlik. – T.: 1992. 1-jild.
34. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yohud axloq. – T.: Sharq, 1994.
35. Toxir Karim. Muqaddas “Avesto” izidan. – T.: Cho‘lpon, 2000.
36. Ahmedov B. Tarixdan saboqlar. – T.: “O‘qituvchi”, 1994.
37. Abdurashitxonov M. Tanlangan asarlar. – T.: “Ma’naviyat”, 2003.
38. Bozor iqtisodiga o‘tish va jamiyatning ma’naviy yangilanish muammolari. – T.: 1993.
39. Buyuk siymolar allomalar (O‘rta Osiyolik mashhur mutafakkir va donish-mandlar). Nashrga tayyorlovchi M.M.Xayrullayev. – T.: Meros, 1-kitob, 1995, 2-kitob, 1996, 3-kitob, 1997.

40. Imom Ismoil al-Buxoriy. Al-adab al-mufrad(Adab durdonalari). Tarjimon, muqaddima va izohlar muallifi Sh. Boboxonov. – T.: “O‘zbekiston”, 1990.
41. Imomnazarov M. Milliy ma’naviyatimizning takomil bosqichlari. Mas’ul muharir N. Komilov. – T.: “Sharq”, 1996.
42. Kaykovus. Qobusnoma. Muhammad Rizo Ogahiy tarjimasini. – T.: “O‘qituvchi”, 1998.
43. Musurmonova O. Ma’naviy va yoshlar tarbiyasi. – T.: “O‘qituvchi”, 1996.
44. Musurmonova O. Oila ma’naviyati-milliy g‘urur. – T.: “O‘qituvchi”, 2000.
45. Ma’naviyat gulistoni. – T.: 2002.
46. Ma’naviyat yulduzlari (Markaziy Osiyolik mashhur siymolar, allomalar, adiblar). – T.: 2001.
47. Mahmudov T. Mustaqillik va ma’naviyat. – T.: “Sharq”, 2001.
48. Yusupov E, Ismoilov F. Odamiylik saboqlari. – T.: 1997.
49. Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig. –T.: Yulduzcha, 1990.
50. Yaxshiliqov J., Ahadov Sh. Temuriylar ma’naviyati. –T.: Fan, 1999.
51. Yo‘ldosheva S. Xalq urf-odatlarini va an`analari. – T.: 2003
52. Ma’naviyat asosiy tushunchalar izohli lug‘ati. – T. : “G‘.G‘ulom”, 2009.
53. Quronov M. Mafkura, ta’sirchanlik va uslub: ma’ruza matni (“Voizga yordam” turkumidan). – T.: Ma’naviyat, 2000.
54. Qirg‘izboev A, Sindarova F, Jo‘raeva N. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch” nomli asarini o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi tizimida o‘rganish bo‘yicha dastur va uslubiy qo‘llanma. Qayta to‘ldirilgan nashri. – T.: “VORIS-NASHRIYOT” 2010.

### **Internet saytlari**

1. [www.gov.uz](http://www.gov.uz).
2. [www.metod.uz](http://www.metod.uz)
3. [www.ziyo-net.uz](http://www.ziyo-net.uz)
4. [www.press-service.uz](http://www.press-service.uz).
5. [www.bilim.uz](http://www.bilim.uz).
6. [www.filosofiya.ru](http://www.filosofiya.ru).
7. [www.history.ru](http://www.history.ru).

## **Falsafiy fanlar**

(Estetika. Dinshunoslik. Shaxs va jamiyat)

### **Estetika**

#### **Tuzuvchilar:**

Abdulla Sher – O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a‘zosi, O‘zMU  
Dotsenti

U.S.Xo‘janiyozov – pedagogika fanlari nomzodi, dotsent
--

#### **Taqrizchilar:**

Umarov E. – falsafa fanlari doktori, prof.

Qurbonmamadov A. – falsafa fanlari doktori, prof.

Mahmudov M. – filologiya fanlari nomzodi, dotsent,

Xusanov B. – falsafa fanlari nomzodi, katta o‘qituvchi

#### **Dasturni optimallashtirishda ishtirok etgan ishchi guruhi a‘zolari:**

Sh. Sharofiddinov – Axborot metodik ta`minlash xizmati yetakchi  
metodisti

F.Sindarova – Sergeli politexnika kasb-hunar kolleji o`qituvchisi

## Kirish

“Estetika” fanining asosiy vazifasi sharq xalqlari estetikasi va O‘rta Osiyoda estetik tarbiya tarixi va o‘ziga hosligini farqlay bilishdir. Mustaqillik ma’naviyatini, estetik madaniyat mohiyatini o‘quvchilar ongiga singdirish, estetik ong, estetik faoliyatini tarkib topdirish haqidagi bilimlarga ega bo‘lish kerakligi haqida tushuncha berib borish.

Mamlakatimizning rivojlanishi, dunyo miqyosida davlatlararo hurmat-E’tiborga sazovor bo‘lishi, kelajak avlodni yanada yuksak ma’naviyatli, zamonaviy, intellektual bilimli, ilmiy salohiyatga ega, har tomonlama etuk jamiyatga munosib hissasini qo‘sha oladigan shaxs sifatida shakllantirishni talab qiladi.

O‘zbekistonda mustaqillikka erishilgan dastlabki kundan boshlab fan, ta’lim va tarbiya mazmuniga alohida e’tibor qaratildi. Mustaqillik yillarida erishilgan yutuqlar yoshlarda milliy ma’naviy meros va qadriyatlarni estetik idrok qilish, ularda voqealarning hodisa sifatida namoyon bo‘lishi emas, balki estetik mohiyatini chuqur anglash malakalarini shakllantirishni taqozo etmoqda. Ayni paytda bu jarayon estetika fanining metodologik asoslari hamda ilmiy mazmunini milliy va umuminsoniy tamoyillar bilan mushtarakligini ta’minlashni talab etadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov ta’kidlaganidek: “Tariximizga kirib kelayotgan bu buyuk marra munosabati bilan o‘tgan davr mobaynida hayotimiz sifati, mamlakatimiz qiyofasi qanday o‘zgarib borayotgani, qanday yutuq va natijalarga erishganimiz, ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan ochiq demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish yo‘lida qanday sur’atlar bilan rivojlanib borayotganimizni baholash ehtiyoji tug‘ilmoqda.”<sup>1</sup>

Mazkur dastur estetik tafakkurning ijtimoiy siyosiy asoslari har qanday jamiyat xalqining ijtimoiy ongini o‘zgartirishga, uning pirovard maqsadlariga xizmat qilishga qaratilgan. SHu bois, unda san’at, adabiyot, ekologiya, texnika va dizaynning estetik mazmunini yoritish, atrof-muhit estetikasi, sog‘lom turmush tarzi estetikasi kabi yangi yo‘nalishlarning ilmiy-nazariy asoslari ko‘rsatib berilgan. CHunki bugungi kundagi globallashuv davrida yoshlar tafakkurini turli g‘ayriestetik g‘oyalar ta’siridan himoya qilish, ayniqsa elektron vositalar orqali kirib kelayotgan turli ko‘rinishdagi omillarning estetik mazmunini to‘laqonli anglash davr talabiga aylangan. Ana shu talabga mos ta’lim tizimini yaratish, ta’lim oluvchilarda estetik dunyoqarashni yuksaltirish, badiiy tafakkur, estetik ma’naviyat, mediamadaniyat va ijodiy fikrlarni shakllantirish muhim vazifa

<sup>1</sup> Karimov I. A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2010.

hisoblanadi. Bu vazifaga esa o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari tizimida estetika fanini chuqurroq o'qitish orqali erishish mumkin.

### **Fanning maqsadi va vazifalari**

#### **Fanning maqsadi:**

O'quvchilarda estetik tafakkurning vujudga kelishi va taraqqiyot bosqichlari to'g'risidagi dunyoqarashni shakllantirish va rivojlantirish;

O'quvchilarga san'atdagi, turmushdagi, sanoatdagi, tabiatdagi nafosatning, go'zallikning inson hayotida tutgan o'rnini ilmiy nuqtai nazardan tushuntirishga qaratilgan.

#### **Fanning vazifasi:**

– o'quvchilarda estetik ong va ijodiy qobiliyatning shakllanishi hamda rivojlanishiga ko'maklashish;

– milliy va umumbashariy estetik qadriyatlarining mamlakatimiz ijtimoiy-ma'naviy hayotidagi ahamiyatini ko'rsatib berish;

– texnika estetikasi va uning amaliy ko'rinishi bo'lmish dizaynning, tabiat estetikasi, turmush estetikasi hamda sport estetikasining erkin, demokratik jamiyat taraqqiyotidagi beqiyos ahamiyatini o'quvchilarga anglatish;

– amaliy mashg'ulotlarda o'quvchilarning estetik voqelik va estetik obyektlar bilan bevosita munosabatda bo'lishlariga erishish.

### **Fan bo'yicha o'quvchilarning bilimi, ko'nikmasi va malakalariga qo'yiladigan talablar**

O'quvchilar ushbu fanni organish orqali:

Estetika fani tadqiqot doirasining miqyosiyligi va ko'pyoqlamaligi, uning falsafiy mohiyati;

Estetika – san'at, badiiy ijod, dizayn, turmush go'zalligi, atrof-muhitni go'zallashtirish, xulqiy go'zallik va estetik tarbiya borasidagi umumiy qonuniyatlar hamda estetik mezoniy tushunchalar;

Sharq-qadimgi dunyo estetikasining beshigi; Sharq-qadimgi dunyo estetikasining beshigi;

Antik dunyo mumtoz estetikasi va uning jahon nafosat ilmi taraqqiyotiga ta'siri;

O'rta asrlar musulmon Sharqi estetikasi;

Yevro'pa ma'rifatparvarlari estetikasi;

Eng yangi davr estetikasining o'ziga xos xususiyatlari;

Turkistonda jadidchilik ma'rifiy-ijtimoiy harakatida ma'rifatchilik va estetik g'oyalarning ommalashuvi;

Estetik ong va uning individuallik xususiyati;

Estetik faoliyat mehnatning o'ziga xos turi;  
Estetikaning asosiy tushunchalari;  
San'at va uning estetik mohiyati;  
Tabiatning estetik xususiyatlari;  
Ilmiy texnik taraqqiyot va ishlab chiqarishdagi estetik faoliyat;  
Sport estetikasi;

Shaxs kamolotida estetik tarbiyaning ahamiyati haqida **nazariy bilimlarga ega bolishi;**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning milliy va umumbashariy ma'naviy merosga munosabat hamda estetik qadriyatlar borasida bildirgan fikr-mulohazalarini o'rganib borish;

Estetikaning inson va jamiyat hayotini ma'naviy boyitishdagi amaliy ahamiyati to'g'risida o'rgangan bilimlarini bir davrdan ikkinchi davrga o'tkaza olish, qiyosiy tahlil qilish;

Vatan va jahon san'ati tarixi, zamonaviy san'atning eng muhim yo'nalishlaridan xabardor bo'lish;

Atrofida bo'layotgan voqealarga dahldorligini his qilish;

Guruhlarda ishlay olish;

Jamoadoshlarini fikrini hurmat qilish, o'zi fikrini to'g'ri ifodalay olish;

Jamoado o'z o'rniga ega bo'lish, kelishmovchiliklarni bartaraf etish yuzasidan qarorlar qabul qila olish;

Jamoado ishlay olish va etakchilik qobiliyatlarini namoyon etish, masuliyat bilan yondashish;

Fanga ma'lumotlarini jamlay olish va taqdimotlar tayyorlay olish **ko'nikmalariga ega bolishi;**

Jamiyatda sodir bo'layotgan jarayonlarga faol kirisha olish;

Jamiyatda sodir bo'layotgan voqealar va hodisalar, vaziyatlarga baho berish, ular o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni anglash;

Aniqlangan xususiy natijalarni umumlashtirib, asosiylarini ajratish, xulosa chiqara olish;

Jarayonga munosabat bildirishda tanqidiy va asosli fikrlay olish;

Jamiyatda bo'layotgan har qanday voqea-hodisalarga dahldorlikni his etish;

Go'zallikka, ulug'vorlikka nisbatan muhabbat hissini tuyish;

Erkinlik, demokratiya va fuqarolik jamiyatini taraqqiy ettirishda estetikaning o'rnini munosib baholay olish;

Go'zallikka nisbatan fidoyilarcha munosabat da bo'lish;

Mustaqillik mohiyatini anglash;

Mustaqillik baxsh etgan erkin tafakkur qilish imkoniyati - san'at va estetika taraqqiyotining zarur sharti ekanini anglash;

Haqiqiy san'at asarlarining millat va jamiyat hayotidagi ulkan ma'naviy hodisa ekanini anglash;

San'atni chuqur tushunish;

Mashg'ulotlar jarayonida olgan taassurotlarini og'zaki va yozma bayon qilish **malakalariga ega bolishi lozim.**

### **Fanning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi, uslubiy jihatdan uzviyligi va ketma-ketligi**

“Estetika” fani umumtalim fanlaridan “Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar”, “Ma'naviyat asoslari”, “Ona tili va adabiyot”, “Tarix”, “Falsafiy fanlar”, “Oila psixologiyasi”, “O'zbekiston Konstitutsiyasi”, “Huquqshunoslik” fanlari bilan uzviy bog'liq hamda uslubiy jihatdan ketma-ketdir.

### **Fanni o'qitishda foydalaniladigan zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar**

**Zamonaviy axborot texnologiyalari:** Kompyuter texnikasi, proektor, ovoz kuchaytirgich, printer, nusxa ko'chirish apparati, elektron doska vositalari va fanga oid audio-video materiallar yordamida o'qitiladi.

**Zamonaviy pedagogik texnologiyalar:** Dars jarayonida “Hamkorlikda o'qish”, “Loyiha”, “Keys-stadi” kabi interfaol pedagogik texnologiyalar hamda “Aqliy hujum”, “Klaster”, “Bumerang”, “Amaliy o'yin”, “Rolli o'yin”, “Yelpig'ich”, “Nima uchun?”, “Qanday?”, “Zinama-zina”, “Tushunchalar tahlili”, “T sxema”, “Atamalar zanziri”, “Toifalash jadvali”, “FSMU”, “B-B-B”, “Blits-so'rov”, “Insert”, “Intervyu”, “3x4” va boshqa shu kabi metodlar qo'llaniladi.

### **Fan bo'yicha nazariy, seminar mashg'ulotlari va mustaqil ishlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatmalar**

**Nazariy mashg'ulotlarni tashkil etish:** O'qituvchi ma'ruza matni orqali mavzu bo'yicha o'rgatilishi lozim bo'lgan tushunchalarni reja asosida taqsimlagan holda mashg'ulotni tashkil etadi. Mavzu bo'yicha o'quvchi bilishi lozim bo'lgan tushunchalar to'g'risida ma'lumot beradi. Qaytar aloqani o'quv topshiriqlar (og'zaki, yozma) yordamida mustahkamlaydi. Mavzu bo'yicha o'quvchilarning savollariga javob beradi, yangi pedagogik texnologiyalar orqali o'quvchilarda mavzu bo'yicha bilimlarni shakllantiradi.

**Seminar va amaliy mashg'ulotlarini tashkil etish:** O'tilgan mavzular bo'yicha o'quvchilarning bilimlari pedagogik texnologiyalar asosida mustahkamlanadi. O'qituvchi mavzular bo'yicha o'quvchilarning mavzuni



o'zlashtirganlik darajasidan kelib chiqqan holda mustaqil bajarishlari uchun topshiriqlar beradi. Taqdimotlarni kuzatadi, nazorat qiladi, baholaydi.

O'qituvchi amaliy mashg'ulotlarni mavzuga mos (muzey, teatr, kinoteatr, sirk, konstert zali, me'moriy yodgorliklar majmui, sanoat korxonasi, sport inshooti, tabiat quchog'i v.b.) obyektlarda olib boradi.

**Mustaqil ishlarni tashkil etish:** O'qituvchi o'tilgan mavzular mazmunidan kelib chiqqan holda mustaqil ish mavzulari ro'yxatini shakllantiradi, mustaqil ishlarni bajarish shaklini belgilaydi, mustaqil ishni bajarish bo'yicha tegishli ko'rsatma va tavsiyalar beradi. Mustaqil ishlar yakuniy nazorat o'tkazilgunga qadar tekshirib chiqilishi va baholanishi lozim. Mustaqil ishga qo'yilgan baholar joriy nazorat tarkibiga kiradi.

### **O'quv dasturining informatsion-uslubiy ta'minoti**

O'quv dasturining informatsion-uslubiy ta'minoti dasturda belgilangan mavzular va ularga ajratilgan soatlar darslik va o'quv qo'llanmalarda to'liq yoritilishi o'qituvchiga vaqtni tejashga va tejalgan vaqtdan mavzularga oid qo'shimcha ilmiy-metodik materiallar tayyorlash uchun foydalanish imkoniyatini yaratish;

bu borada tajribali, yuqori natijalarga erishgan o'qituvchilarning ishlarini ommalashtirish, o'rganishni yo'lga qo'yish;

ushbu fan o'qituvchisi birinchi navbatda mutaxassis, o'z fanini yaxshi biladigan, fidoiy, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanadigan, ularning yangi usullarini kashf eta oladigan, ijodkor bo'lishi lozim;

ta'lim berishda zamonaviy texnik imkoniyatlar Respublika miqyosida oshirilishiga qaramasdan, o'qituvchi har qanday vaziyatda oddiy usullarda ham mukammal bilim berish yo'llarini izlab topmog'i va ularni qo'llamog'i kerak;

muzeylarga, tarixiy joylarga, dalalar, zavod-fabrikalar, san'at dargohlari, kontsert zallari, teatr, kino, televideniya, nashriyotlar va hokazolarga sayohat darslari tashkil etishni nazarda tutadi.

### **O'quvchilarning bilimlarini baholash**

Fanning xususiyatini hisobga olgan holda reyting tizimi bo'yicha o'quvchilar bilimini baholash mezonlari ishlab chiqildi.

O'quvchining fan bo'yicha o'zlashtirishni baholash muntazam ravishda olib boriladi va quyidagi turlar orqali amalga oshiriladi:

- Joriy baholash (JB);
- Yakuniy baholash (YaB);

JB da fanning har bir mavzusi bo'yicha o'quvchining bilimi va amaliy ko'nikmalarini aniqlab borish nazarda tutiladi.

JB turlari har bir mavzuning hususiyatidan kelib chiqqan holda, og'zaki, yozma ish, test, nazorat ishi, uy vazifasi, kollokvium va shu kabi boshqa shakllarda amalga oshirilishi mumkin.

YaB da o'quvchining bilim, ko'nikma va malakalari fanning umumiy mazmun doirasida baholanadi.

O'quvchining semestr davomida fan bo'yicha to'plagan umumiy bali har bir baholash turlaridan to'plangan ballar yig'indisiga teng bo'ladi.

YaB turi test shaklida o'tkaziladi.

O'quvchining fan bo'yicha mustaqil ishi JB va YaB turlarida baholandi.

O'quvchilar bilimni baholashda quyidagi namunaviy mezonlar inobatga olinadi.

Ball	Baho	O'quvchining bilim darajasi
4,5-5	A'lo	Hulosa va qaror qabul qilish; Ijodiy fikrlay olish; Mustaqil mushohada yuritish; Amalda qo'llay olish; Mohiyatini tushunish; Bilish, aytib berish; Tasavvurga ega bo'lish.
3,5-4	Yahshi	Mustaqil mushohada yuritish; Amalda qo'llay olish; Mohiyatini tushunish; Bilish, aytib berish; Tasavvurga ega bo'lish.
2,5-3	Qoniqarli	Mohiyatini tushunish; Bilish, aytib berish; Tasavvurga ega bo'lish.
1-2	Qoniqarsiz	Aniq tasavvurga ega emaslik; Bilmaslik.

“Estetika” fanidan o'tkaziladigan reyting tizimi quyidagi vazifalarni bajarishga qaratilgan:

- o'quvchilarning “Estetika” fanini o'zlashtirishini muntazam ravishda nazorat etib borish, ularni o'quv semestri davomida o'z bilimlarini uzluksiz faol ravishda oshirib borishlarini ta'minlash.
- o'quvchilar bilimni haqqoniy aniq va adolatli baholash hamda natijalarini ularga muntazam ravishda ma'lum qilib borish;
- o'quvchilarni estetik muammolar bo'yicha mustaqil ishlash ko'nikmalarini keng rivojlantirish;
- “Estetika” fanidan ta'lim beradigan o'qituvchilarda ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarga puxta tayyorgarlik ko'rish, o'quvchilar bilimni baholash uchun savollarni tuzishda mas'uliyatni oshirish va hokazolar.

**Izoh:** O'quvchilarni amaliy mashg'ulotlarda baholash jarayonida, uning axloq odobi, ma'naviyati, dunyoqarashi, faolligi ham inobatga olinadi.

## Fan mavzulari bo'yicha o'qitish rejasi tarkibi

№	Boblar va mavzular	Ham masi	Jami dars soatlari	Ma'ruza	Amaliy mashg'ulot	Seminar	Mustaqil ish
<b>Birinchi bo'lim. Estetikaga kirish</b>							
1-mavzu	Estetikaning predmeti, tadqiqot doirasi va vazifalari	3	3	2		1	
<b>Ikkinchi bo'lim. Estetik tafakkur taraqqiyotining asosiy bosqichlari</b>							
2-mavzu	Qadimgi dunyo estetikasi va o'rta asrlar mutafakkirlarining estetik ta'limotlari	4	2	1		1	2
3-mavzu	Yangi davr estetikasidagi asosiy oqimlar va yo'nalishlar	4	2	1		1	2
4-mavzu	Turkiston ma'rifatchi-jadidlarining estetik qarashlari	4	2	1		1	2
<b>Uchinchi bo'lim. Estetika nazariyasi</b>							
5-mavzu	Estetik ong va estetik faoliyat	6	4	2		2	2
6-mavzu	Estetikaning asosiy tushunchalari	5	4	2		2	1
<b>To'rtinchi bo'lim. Amaliy estetika</b>							
7-mavzu	San'at estetikasi	10	8	4	2	2	2
8-mavzu	Tabiat va turmush estetikasi	2	1	1			1
9-mavzu	Texnika va sport estetikasi	3	2	1	1		1
10-mavzu	Estetik tarbiya	3	2	2			1
<b>Jami:</b>		<b>44</b>	<b>30</b>	<b>17</b>	<b>3</b>	<b>10</b>	<b>14</b>

### O'quv dasturining mazmuni

#### Birinchi bo'lim. estetikaga kirish

##### 1-mavzu. Estetikaning predmeti, tadqiqot doirasi va vazifalari

Estetika – nafosatning mohiyatini o'rganuvchi qadimiy falsafiy fan. Estetika fani tadqiqot doirasining miqyosiyliigi va ko'pyoqlamaligi, uning falsafiy mohiyati.

Estetika” – nafosatni o'rganuvchi qadimiy fan. “Estetika” fanining obekti va falsafiy mohiyati. Dunyoni estetik his qilishga mifologik, diniy, ilmiy va falsafiy yondashuvlar. “Estetika” haqidagi qarashlar tarixi. “Estetika” va ijtimoiy fanlarning o'zaro aloqadorligi: falsafa, etika, tarix,

milliy g'oya, pedagogika, psixologiya, ma'naviyat asoslari, dinshunoslik, iqtisodiyot, ekologiya, tabiiy fanlar. "Estetika"ning strukturasi.

Estetika – san'at, badiiy ijod, dizayn, turmush go'zalligi, atrof-muhitni go'zallashtirish, xulqiy go'zallik va estetik tarbiya borasidagi umumiy qonuniyatlar hamda estetik mezoniy tushunchalar (kategoriyalar) tizimi sifatida.

Estetikaning boshqa zamonaviy fanlar bilan aloqasi: estetika va falsafa; estetika va axloqshunoslik; estetika va ruhshunoslik; estetika va milliy istiqlol g'oyasi; estetika va sosiologiya; estetika va dinshunoslik; estetika va pedagogika, estetika va ekologiya v.h.

Erkinlik, demokratiya va fuqarolik jamiyatini taraqqiy ettirishda estetikaning o'rni, uning inson estetik madaniyatni shakllantirishdagi roli va jamiyat hayotining barcha jabhalarini ma'naviy boyitishdagi amaliy ahamiyati.

## **Ikkinchi bo'lim. estetik tafakkur taraqqiyotining asosiy bosqichlari**

### **2-mavzu. Qadimgi dunyo estetikasi va O'rta asrlar mutafakkirlarining estetik ta'limotlari**

Sharq-qadimgi dunyo estetikasining beshigi. Somir(Shumer) va Bobilonda dastlabki estetik g'oyalarning shakllanishi. Qadimgi Misrda vujudga kelgan san'at turlarining estetik mohiyati. Qadimgi Turon va Erondagi estetik g'oyalar. «Avesto»ning falsafiy – estetik mohiyati. Hindi – Xitoy mintaqasidagi san'at taraqqiyotining o'ziga xos jihatlari.

Antik dunyoning mumtoz estetikasi. Qadimgi Yunoniston allomalari Suqrot va Aflotunning estetik qarashlari. Arastuning estetik ta'limoti va uning qadimgi dunyo estetik tafakkurida tutgan o'rni. Qadimgi Rumo estetikasi (Horastiy Flakk, Tit, Lukrestiy Kar, Boestiy).

Antik dunyo estetikasining jahon nafosat ilmi taraqqiyotiga ta'siri.

Umumjahoniy dinlar va ularning san'at bilan o'zaro hamkorligi. San'at turlarining shakllanishi va taraqqiy etishida dinning ahamiyati.

O'rta asrlar musulmon Sharqi estetikasida mashshoiyyunlik va tabiiyyunlik yo'nalishlarining qaror topishi (Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Umar Xayyom). Tasavvuf estetikasining vujudga kelishi (G'azzoliy, Rumi).

O'rta asrlar budda Sharqi estetikasining alohida xususiyatlari. Buddachilik, daochilik va konfustiychilik estetik ta'limotlarining Xitoy san'atidagi o'rni. O'rta asrlar Xitoy estetikasining mintaqaviy ahamiyati.

Yapon estetikasi va uning asosiy tushunchalari. Xeyyan davri estetikasi (IX-XII asrlar). Yapon teatr estetikasi, choy taomili, tosh bog'lar, gulchilik san'ati (ikebana) estetikasi.

Temur va temuriylar davri estetikasi. Navoiy, Jomiy, Bobur, Husayn Boyqaroning estetik qarashlari, tazkirachilik an'analari va tazkiraning estetika risolasi sifatidagi ahamiyati (Abu Mansur as-Saolibiy, Abu Farroj al-Isfahoniy, Davlatshoh Samarqandiy, Zayniddin Vosifiy, Hasanxo'ja Nisoriy).

### **3-mavzu. Yangi davr estetikasidagi asosiy oqimlar va yo'nalishlar**

Yevro'pa ma'rifatparvarlari estetikasi (Byork, Yum, Didro). XYIII asr oxiri va XIX asr boshlaridagi olmon mumtoz estetikasi (Kant, Shiller, Shelling Hegel).

Yevro'pa estetikasida norastional yo'nalishning qaror topishi (Kikegaard, Shopenhauer, Nitstshe). Markscha estetika hamda sinfiylik nazariyasining san'at va nafosat ilmi taraqqiyotiga salbiy ta'siri. XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi rus mumtoz estetikasi (L.Tolstoy, F. Dostoevskiy, V. Solovyov, N. Berdyaev v.b.).

Eng yangi davr estetikasining o'ziga xos xususiyatlari; froydchilik, ekzistenstiyachilik, hayot falsafasi, yangi kantchilik, falsafiy germenevtika va boshqa yo'nalishlar estetikasi (Z. Froyd, K.Yung, E.Fromm, K. Yaspers, J.P. Sartr, Y. Huyzinga, Xose Ortega-i-Gasset, O.Shpengler, A.Bergson, X.Gadamer, R. Tagor, J.Halil, A.Rayhoni, D.Sudzuki v.h.).

### **4-mavzu. Turkiston ma'rifatchi-jadidlarining estetik qarashlari**

Turkistonda jadidchilik ma'rifiy-ijtimoiy harakatining vujudga kelishi. Ziyolilar orasida ma'rifatchilik va estetik g'oyalarning ommalashuvi. Jadidchilikning mohiyatan axloqiy-estetik oqim ekani.

Furqat va Anbar otinning estetik qarashlari. Behbudiy, Hamza va Ayniyning zamonaviy san'at turlari va janrlarga murojaat qilishi. Jadid teatrining vujudga kelishi. Fitrat va Cho'lponning estetik qarashlari - jadidchilik estetikasining yuksak pog'onasi sifatida.

## **Uchinchi bo'lim. estetika nazariyasi**

### **5-mavzu. Estetik ong va estetik faoliyat**

Estetik ong va uning individuallik xususiyati. Estetik ongning asosiy unsurlari: estetik ehtiyoj va estetik munosabat; estetik tuyg'u va estetik did; estetik baho va estetik ideal; estetik qarashlar va estetik nazariyalar. Shaxs estetik ehtiyojini tarbiyalash muammolari.

Estetik ong va estetik faoliyatning mazmun va mohiyati. Estetik ong va estetik faoliyatning o'zaro aloqadorligi. Estetik ong va estetik faoliyatning ijodiy xarakteri.

Estetik faoliyat mehnatning o'ziga xos turi sifatida. Estetik faoliyatning ijodiylik xususiyati, turli ma'naviy faoliyatlarning estetik ibtidoaga asoslanishi, mehnat, o'yin va san'atning o'zaro munosabatlari, estetik faoliyatning turlarga bo'linishi, san'atning o'ziga xos estetik faoliyat

sifatidagi ahamiyati, hunar va san'at, hunarning estetik vazifalari, xalq ijodi va professional ijodiy faoliyat.

Tabiatning go'zallik va ulug'vorlik manbai ekanligi, uning estetik faoliyat obyekti sifatida namoyon bo'lishi. Tabiat estetikasining o'ziga xos jihatlari. Estetika va ekologiyaning hamkorligi, bu hamkorlikning dolzarb muammolari.

### **6-mavzu. Estetikaning asosiy tushunchalari**

Estetik mezoniyl tushunchalar (kategoriyalar) - estetik bilishning muhim omili sifatida. Nafosat - estetikaning keng qamrovli mushtarak mezoniyl tushunchasi.

Go'zallik mezoniyl tushunchasi. Go'zallik haqidagi tasavvurning o'zgaruvchanligi, go'zallikka sifatning ta'siri, go'zallik va manfaat, go'zallikning san'atda namoyon bo'lishi, go'zallik va xunuklik.

Ulug'vorlik mezoniyl tushunchasi. Ulug'vorlikning favqulodda salbiyl hissiyotlarga asoslanishi. Ulug'vorlikka son va miqyosning ta'siri, tabiatdagi ulug'vorlik, ulug'vorlikning san'atda namoyon bo'lishi, ulug'vorlik va tubanlik.

Fojiaviylk mezoniyl tushunchasi. Fojiaviyl to'qnashuv va uning asoslari, fojiaviylk va estetik ideal, fojiaviylkning san'atda namoyon bo'lishi, fojia(tragediya) - san'at janri sifatida, fojiaviyl ziddiyat va fojiaviyl qahramon. Forig'lanish.

Kulgililik mezoniyl tushunchasi. Kulgili holat, kulgi va uning inson hayotidagi o'rni, hazil hissi, kulgililikning san'atda namoyon bo'lishi va uning ifoda shakllari (hajv, mutoyiba, kinoya, kesatiq, istehzo) Kulgi (komediya) - san'at janri sifatida. Kulgining forig'lantirish xususiyati.

Estetik mezoniyl tushunchalarning o'zaro aloqalari va ijtimoiyl ahamiyati.

## **To'rtinchi bo'lim. amaliyl estetika**

### **7-mavzu. San'at estetikasi**

San'atning vujudga kelishi va uning estetik mohiyati. San'atda o'yin nazariyasining ahamiyati. Yozef Xeyzing nazariyasi. O'yin va badiiy ijod, estetik ko'rinish va o'yin.

San'atda hayotiy haqiqat va shartlilik, unda milliy ruh va umuminsoniy qadriyatlarining o'rni. San'at va axloq, san'at va din, san'at va falsafa, san'at va mehnat, san'at va siyosat, san'at va texnika, san'at va mafkura. San'at psixologiyasi. San'at sostiologiyasi.

San'at asarida badiiy obraz. San'atda tipiklashtirish va ideallashtirish. San'at asarida shakl va mazmun. San'atda mavzu va g'oya, syujet va kompozistiya, usul va uslubiy shakllar.

San'atning turlarga bo'linishi. Turdosh san'atlar va janrlar. Estetika tarixida san'at turlarini turkumlash muammosi. San'at turlari: badiiy adabiyot, xalq amaliy san'ati, me'morlik, rassomlik, haykaltaroshlik, teatr, musiqa, badiiy suratkashlik, xattotlik, estrada va stirk, kino, askiya, qo'shiqchilik va raqs, notiqlik, qiroat san'ati (badiiy o'qish).

Badiiy ijod estetik faoliyatning bir turi sifatida. Badiiy qobiliyat, iste'dod va daho. Iste'dod va mehnat. San'atkor shaxsining favquloddalik xususiyati. San'atkorning jamiyatdagi o'rni: san'atkor va zamon; san'atkor va tarix; san'atkor va milliy g'oya; san'atkor va mafkura; san'atkorning maylparastlik va mafkurachilik xususiyati.

San'at asarini estetik idrok etishning ijodiylik tabiati. Idrok etuvchining «hammualliflik», «ishtirokchilik» roli. Estetik idrok etishda estetik masofa omilining ahamiyati. Estetik idrok etish madaniyatini ravnaq toptirish muammolari.

### **8-mavzu. Tabiat va turmush estetikasi**

Tabiatning estetik xususiyatlari: uning go'zallik va ulug'vorlik manbai ekanligi; tabiat estetikasining o'ziga xos jihatlari; uning nafosat olami va estetik faoliyat obyektini sifatida namoyon bo'lishi; tabiat va badiiy ijod; tabiat va ijodkor.

Tabiat estetikasining badiiy-estetik mohiyati va xususiyati. Tabiat estetikasi tabiat borlig'i va xususiyatlarini anglash usuli sifatida. Tabiat estetikasini anglashga doir ijtimoiy-estetik qarashlar tarixi.

Atrof-muhit va uning tuzilmasi: tabiiy muhit; ishlab chiqarish muhiti; turmush muhiti; atrof-muhitni go'zallashtirishning an'anaviy va yangicha usullari; uning zamonaviy muammolari. Estetika va ekologiyaning hamkorligi va bu hamkorlikning dolzarbligi.

Zamonaviy estetik madaniyat va turmush estetikasi: turmush estetikasining o'ziga xos xususiyatlari; estetik o'zni tutish yoxud hulqiy go'zallik muammosi; nutq madaniyati va inson tashqi qiyofasini go'zallashtirishning ahamiyati; shaxsiy va oilaviy munosabatlar go'zalligi.

Turmush estetikasining ijtimoiy-madaniy faoliyat shakli sifatidagi mohiyati. Turmush estetikasiga doir an'anaviy va zamonaviy yondashuvlar. Turmush estetikasining jamiyat ijtimoiy hayotidagi o'rni va roli.

Go'zal turmush tarzi tushunchasining ko'p qirrali ekanligi. Tabiiy muhit, narsalar dunyosi va ichki dunyo uyg'unligi. An'anaviy urf-odatlar estetikasi va zamonaviy estetik ehtiyoj. Nur, rang va tovush estetikasi. Estetika va moda. Moda va dizayn.

### **9-mavzu. Texnika va sport estetikasi estetikasi**

Ilmiy texnik taraqqiyot va ishlab chiqarishdagi estetik faoliyat. Dizaynning vujudga kelishi va uning estetik mohiyati, texnika estetikasi -

dizayn nazariyasi sifatida, texnika estetikasining zamonaviy ishlab chiqarishda foydali va estetik jihatdan boyib borishi. Xalq amaliy san'ati va dizayn.

Texnika estetikasining ahamiyati va uning zamonaviy estetika fanida tutgan o'rni.

Texnogen sivilizatsiya - estetik faoliyat va estetik didni shakllantirishning muhim omili. Ilmiy-texnikaviy taraqqiyotni insoniylashtirish va go'zallashtirishning estetik muammolari. Voqelikka estetik munosabatning milliy va umumbashariy ahamiyati. Estetik qadriyatlar – barqarorlikni ta'minlovchi omil. "Dunyoni go'zallik qutqaradi" shiorining global ahamiyati. Olamni estetik anglashda jamiyat axborotlashuvining roli.

Axborot estetikasining o'ziga xos xususiyatlari va uning ijtimoiy-siyosiy, badiiy-ijodiy, ma'naviy-axloqiy jarayonlar bilan bog'liqligi. Reklamaning estetik xususiyatlari. Reklama faoliyatiga estetik qonuniyatlarning ta'siri. Reklamalardagi g'ayriestetik holatlar va ularning ko'rinishlari. Reklamaning estetik g'oyasida milliylik va umumbashariylik dialektikasi.

Sport estetikasining mohiyatan inson harakati go'zalligi va ulug'vorligini estetik anglab etish ekanligi. Sport estetikasi ma'naviy va jismoniy komillik uyg'unligining in'ikosi sifatida. Uning sport fanatizmini engib o'tish vositasi tarzidagi ahamiyati;

Sport estetikasi insonning ijtimoiy faoliyat shakli sifatidagi mohiyati. Uning tabiat va jamiyat uyg'unligini idrok etishdagi roli. Sport va sport estetikasining borliq uyg'unligini anglab etishdagi falsafiy mohiyati. Sport estetikasiga doir ijtimoiy-estetik qarashlar tarixi.

Sport va ijod, uning mohiyatan jildosha san'ati bilan bog'liqligi. Sportning «estetik» turlari: figurali uchish; badiiy gimnastika; suvga sakrash; sinxron suzish; ot sporti v.b.

### **10– mavzu. Estetik tarbiya**

Shaxs kamolotida estetik tarbiyaning ahamiyati. Estetik tarbiyaning hozirgi zamondagi xilma-xil yo'nalishlari va vositalari. San'at-estetik tarbiyaning asosiy vositasi sifatida. Estetik tarbiyada badiiy-estetik ijodning o'rni. Estetik tarbiya bilan ijtimoiy munosabatlar uyg'unligi muammosi.

Estetik ravnaq va unda badiiy havaskorlik hamda san'at targ'ibotining mavqeyi. Xalq estetik ehtiyoji va badiiy didini yuksaktirishning dolzarbligi. Ommaviy madaniyat hodisasi va uning yoshlar estetik tarbiyasiga salbiy ta'siri.



## **Seminar mashg'ulotlarining namunaviy tarkibi**

### **1-mashg'ulot. Estetikaning predmeti, tadqiqot doirasi va vazifalari.**

#### **Reja:**

1. Estetika nafosatning mohiyatini o'rganuvchi qadimiy falsafiy fan sifatida.
2. Estetikaning boshqa zamonaviy fanlar bilan o'zaro aloqasi va hamkorligi.
3. Estetika fanining asosiy vazifalari.

### **2-mashg'ulot. Qadimgi dunyo estetikasi.**

#### **Reja:**

1. Ko'hna Sharq qadimgi dunyo nafosat ilmining beshigi sifatida.
2. «Avesto» va undagi estetik g'oyalar.
3. Qadimgi Hindi-Xitoy mintaqasidagi estetika va san'at taraqqiyoti.
4. Qadimgi dunyoning mumtoz estetikasi.

### **3-mashg'ulot. O'rta asrlar mutafakkirlarining estetik ta'limotlari.**

#### **Reja:**

1. Umumjahoniy dinlar va ularning san'at bilan o'zaro hamkorligi.
2. O'rta asrlar budda Sharqi estetik tafakkuri.
3. O'rta asrlar musulmon Sharqi mutafakkirlarining estetik qarashlari.
4. O'rta asrlar Yevro'pa estetikasi.

### **4-mashg'ulot. Yangi davr estetikasidagi asosiy oqimlar va yo'nalishlar.**

#### **Reja:**

1. Yevro'pa marifatparvarlarining estetik qarashlari.
2. Olmon mumtoz estetikasi.
3. Yevro'pa estetikasidagi norastional yo'nalishlar.
4. Eng yangi davrning estetik ta'limotlari.

### **5-mashg'ulot. Turkiston ma'rifatchi-jadidlarning estetik qarashlari.**

#### **Reja:**

1. Jadidchilik harakati va uning estetik asoslari.
2. Furqat va Anbar otin ilgari surgan estetik g'oyalar.
3. Avloniy, Fitrat va Cho'lponning estetik qarashlari.
4. Jadid teatr estetikasi.

## **6-mashg'ulot. Estetik ong va estetik faoliyat.**

### **Reja:**

1. Estetik ong va uning tuzilmasi.
2. Estetik faoliyat mehnatning o'ziga xos turi sifatida.
3. Estetik faoliyat turlari.

## **7-mashg'ulot. Estetikaning asosiy tushunchalari.**

### **Reja:**

1. Estetik mezoniy tushunchalar – kategoriyalarning o'rganishning ahamiyati.
2. Go'zallik va xunuklik tushunchalari
3. Ulug'vorlik va tubanlik tushunchalari.
4. Fojaviylik va kulgililik tushunchalari.
5. Asosiy estetik tushunchalarning o'zaro aloqalari.

## **8- mashg'ulot. San'at estetikasi.**

### **Reja:**

1. San'atning vujudga kelishi va uning estetik mohiyati.
2. San'at turlari.
3. San'at turlarining o'zaro aloqadorligi.
4. Badiiy ijod jarayoni va san'at asarini estetik idrok etish.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati :**

#### **Asosiy adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: “O'zbekiston”, 2015.
2. I.A.Karimov. Istiqlol va ma'naviyat. – T.: 1994.
3. I.A.Karimov. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. – T.:, 1996.
4. I.A.Karimov. O'zbekiston buyuk kelajak sari. – T.: 1998.
5. I.A.Karimov. Donishmand xalqimizning mustahkam irodasiga ishonaman. «Fidokor» gaz., 2000- yil, 8 -iyun.
6. Karimov. I. A. “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch”. – T.: “Ma'naviyat”. 2008.
7. Karimov I.A. Eng asosiy mezon - hayot haqiqatini aks ettirish. – T.: O'zbekiston. 2009.
8. Islom Karimov. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonosida. – T.: “O'zbekiston” 2011.
9. Karimov I.A. “Ona yurtimiz baxt-u iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir”. –T.: O'zbekiston. 2015.
10. E.Umarov. Estetika asoslari. – T.: 2003.

### **Qo'shimcha adabiyotlar:**

1. Navoiy. Majolis un-nafois. //Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik, 13 -jild. – T.: «Fan» 1998.
2. Navoiy. Mahbub ul-qulub. //Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik, 14-jild. – T.: «Fan» 1998.
3. Fitrat. Adabiyot qoidalari. – T.: «O'qituvchi», 1995.
4. Forobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: A.Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 1990.
5. Hayyom. Navro'znoma. – T.: «Mehnat», 1990.
6. Cho'lpon. Adabiyot nadir. – T.: «Cho'lpon», 1994.
7. Gadamer G. Aktualnost prekrasnogo. – M.: «Iskusstvo», 1991.
8. Ortega-i-Gasset X. Degumanizatsiya iskusstva. – M.: 1991.
9. Samosoznaniye Yevropeyskoy kulturi XX veka. – M.: Poltizdat, 1991.
10. Tagor R. Prekrasnoye. // Tagor R. Sochineniya v 12 – Tomax. T-11. – M.: 1965.
11. Freyd Z. Budushyeye odnoy illyuzii. //Sumerki bogov. – M.: Politezdat, 1990.
12. Freyd Z. Ostoumiye i Yego otnosheniye k bessoznatelnomu. S-Pb. – M.: «Universitetskaya kniga», 1997.
13. A.Shopengauer. Osnovnye idei estetiki. //A.Shopengauer. Izbrannye proizvedeniya. – M.: «Prosveshyeniye», 1992.
14. SHEfstberi E. Esteticheskiye opt. – M.: «Iskusstvo», 1975.
15. Yung K. Ob otnosheniye analiticheskoy psixologii k poezii. //Yung K. Soznaniye i bezsoznatelnoye. S-Pb. – M.: 1997.
16. Hassan I. The Postmodern Turn. Esseys in Postmodern Theori and Culture. Ohio State University Press, 1987.
17. Gilson E. Introduction aux arts du beau. – Paris: 1963.
18. Heidegger M. Die Kunst und der Raum. Sankt Gallen: -Erker: 1969.
19. Huizinga J. Das Problem der Renaissance. Renaissance und Realismus. Darmstadt, 1971.
20. Gadamer H. Lob der Theorie. Frankfurt am Main, 1984.
21. Schiller. Philosophische Schriften //Schiller. Samtliche werke in zehn banden. Bd – 8. Berliner ausgabe, 1984.

### **Internet saytlari:**

[www.gov.uz](http://www.gov.uz).

[www.filosofiya.ru](http://www.filosofiya.ru).

[www.bilim.uz](http://www.bilim.uz).

## **Dinshunoslik**

### **Tuzuvchilar:**

Z.Islomov – filologiya fanlari doktori, professor  
N.Muhamedov – tarix fanlari nomzodi, dotsent

### **Taqrizchilar:**

M.Artikov – falsafa fanlari nomzodi, dotsent  
M.Komilov – tarix fanlari nomzodi, dotsent

### **Dasturni optimallashtirishda ishtirok etgan ishchi guruhi a'zolari:**

D. Rahimjonov – Toshkent islom universiteti Islomshunoslik ilmiy –  
Tadqiqot markazi direktori, t.f.n., dost.  
A. Hasanov – Toshkent islom universiteti professori, t.f.d.  
M. Artikov – O‘zMU Falsafa fakulteti dotsenti, falsafa.f.n.  
Sh. Sharofiddinov – Axborot metodik ta`minlash xizmati yetakchi  
metodisti  
F.Sindarova – Sergeli politexnika kasb-hunar kolleji o`qituvchisi  
J.Najmiddinov – Toshkent islom universiteti “Dinshunoslik va  
jahon dinlarini qiyosiy o`rganish YuNESKO”  
kafedrasi o`qituvchisi

## Kirish

Yurtimizda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirishda milliy qadriyatlar bilan bir qatorda diniy qadriyatlarning ham ahamiyati katta. Xalqimizning buyuk ajdodlarimiz merosidan bahramand bo'lishi, islom dinining insonparvarlik falsafasi va ezgu g'oyalari yoshlar qalbidan joy olishi uchun mamlakat ta'lim tizimi sohasida ko'plab ishlar olib borilmoqda.

Mamlakatimizning rivojlanishi, dunyo miqyosida davlatlararo hurmat-e'tiborga sazovor bo'lishi, kelajak avlodni yanada yuksak ma'naviyatli, zamonaviy, intellektual bilimli, ilmiy salohiyatga ega, har tomonlama etuk jamiyatga munosib hissasini qo'sha oladigan shaxs sifatida shakllantirishni talab qiladi.

Jamiyatning ma'naviy yangilanishidan ko'zlangan bosh maqsad – yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq erkinligi va farovonligiga erishish, komil insonni tarbiyalash, ijtimoiy hamkorlik va millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglikdan iborat yuksak diniy madaniyatni shakllantirishda Respublikamiz maktablari, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari va oliy o'quv yurtlarida o'qitilayotgan “Dinshunoslik” fanining o'rni va ahamiyati cheksizdir.

Ta'lim muassasalarida dinshunoslik fanini o'qitishdan asosiy maqsad – o'quvchi yoshlarga din, dinning kelib chiqishi, uning taraqqiyoti, insoniyat hayotida tutgan o'rni haqida umumiy ilmiy tushunchalar berishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimovning din o'zbek xalqining ma'naviy merosi, qadriyatlari, milliy istiqlol g'oyasi haqidagi fikr-mulohazalari, chuqur ilmiylik, tarixiylik, xolislik tamoyillari asos qilib olindi.

Dinshunoslikning asosiy fanlar qatorida o'qitilishi O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining sharofati ekanligi, din, dindorlar va diniy tashkilotlarga nisbatan davlat tomonidan adolatli siyosatning o'rnatilishi, vijdon erkinligining fuqarolarga Konstitutsion kafolatlanishini tushuntirish bosh maqsadlardan biri qilib qo'yildi.

“Dinshunoslik” fani o'quv dasturi 20 soatga mo'ljallangan bo'lib, shundan 16 soat nazariy, 4 soat seminar mashg'ulotlari uchun ajratilgan. Mustaqil ishlar uchun ajratilgan soatlar 10 soatni tashkil etadi.

O'quv dasturining tarkibi oquvchilarning bilimi, konikmasi va malakasiga qo'yiladigan talablar, fanning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan

aloqadorligi, fanni o'qitishda foydalaniladigan zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar, nazariy va seminar mashg'ulotlarni o'qitish, mustaqil ishlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatmalar, fan dasturining informatsion-uslubiy ta'minoti, o'quvchilarning bilimni baholash, fan mavzulari bo'yicha o'qitish rejasi tarkibi, o'quv dasturining mazmuni, tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

### **Fanning maqsadi va vazifalari**

Fanning maqsadi:

O'quvchi yoshlarga jamiyat va inson ma'naviy hayotining muhim tarkibiy qismi bo'lgan din va uning ta'limoti, tarixi to'g'risida ilmiy-nazariy tushunchalar berish, ularni diniy bag'rikenglik ruhida tarbiyalash;

Yoshlarda din va uning turli shakllari, ta'limoti, yo'nalishi va oqimlari haqida to'g'ri ilmiy xulosalar chiqara oladigan dunyoqarashni shakllantirish.

**Fanning vazifasi:**

O'quvchilarni din, uning mohiyati va mazmuni, ezgulik g'oyalari bilan qurollantirish;

O'quvchilarda diniy qadriyatlarning umuminsoniy va milliy qadriyatlar bilan mushtarak jihatlarini tahlil qilish orqali diniy e'tiqod va his - tuyg'ularga hurmat ruhini tarbiyalash;

Dindan siyosiy maqsadlarda foydalanish, ekstremistik va terrorchilik jinoyatlarini niqoblashning reaksiyon mohiyatini fosh etish;

O'quvchilarni yurtimizda vijdon erkinligining kafolatlanishi, ma'rifiy islomning rivojlanishi uchun yaratilgan shart-sharoitlar bilan tanishtirish.

### **Fan bo'yicha o'quvchilarning bilimi, ko'nikmasi va malakalariga qo'yiladigan talablar**

O'quvchilar ushbu fanni organish orqali:

Dinning tarixiyligi masalasi;

Diniy ong asoslarining shakllanishi;

Milliy dinlar, ularning kelib chiqishi, tarixiy bosqichlari va geografik hududi;

Zardushtiylik ta'limoti, Avesto va uning tarkibiy qismlari;

Buddaviylik ta'limoti, manbalari, oqimlari va yo'nalishlari;

Xristianlik va undagi yo'nalishlar;

Islom dini va uning manbalari;

Islomda oqimlarining vujudga kelishi;

O'zbekiston Respublikasida din va diniy tashkilotlar;

O‘zbekistonda diniy bag‘rikenglik haqida nazariy bilimlarga ega bolishi;

Dinlar haqida umumiy ma’lumotlarga ega bo‘lish;

Dinlarning hayotbaxsh va ezgulik mohiyati ekanligini anglay olish;

Dinlararo muloqot madaniyatiga oid bo‘lgan tajribaga ega bo‘lish;

Diniy va milliy qadriyatlarning mazmun-mohiyatini anglash;

Dunyoviy davlatda diniy munosabatlar haqida mustahkam tushunchalarga ega bo‘lish;

Din ma’naviyatning asoslaridan biri ekanligini his etish;

Diniy bag‘rikenglik tamoyillarini o‘zida shakllantira olish ko‘nikmalariga ega bolishi;

Diniy va milliy qadriyatlarning mazmun-mohiyati hamda urf-odat va an’analarni qadrlash madaniyatini to‘g‘ri talqin qilish;

Turli dinlarning ta’limotlarini va ulardan ajralib chiqqan oqimlarning g‘oyalarini farqlay olish;

Tarixiy, madaniy va ma’naviy merosni asray olish;

Ajdodlar ilmiy-ma’naviy asarlarini o‘rganish va tadqiq etish;

Dinlararo bag‘rikenglik madaniyati haqida o‘zaro fikr almashuv, muloqot o‘tkaza olish malakalariga ega bolishi lozim.

### **Fanning o‘quv rejadagi boshqa fanlar bilan o‘zaro bog‘liqligi, uslubiy jihatdan uzviyligi va ketma-ketligi**

“Dinshunoslik” fani umumtalim fanlaridan “Ma’naviyat asoslari” “Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar” , “Ona tili va adabiyot”, “Tarix”, boshqa “Falsafiy fanlar”, “Oila psixologiyasi”, “O‘zbekiston Konstitutsiyasi”, “Huquqshunoslik” fanlari bilan uzviy bog‘liq hamda uslubiy jihatdan ketma-ketdir.

### **Fanni o‘qitishda foydalaniladigan zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar**

Zamonaviy axborot texnologiyalari: Kompyuter texnikasi, proektor, ovoz kuchaytirgich, printer, nusxa ko‘chirish apparati, elektron doska va boshqa multimedia vositalari yordamida o‘qitiladi.

**Zamonaviy pedagogik texnologiyalar:** Dars jarayonida “Hamkorlikda o‘qish”, “Loyiha”, “Keys-stadi” kabi **interfaol** pedagogik texnologiyalar **hamda** “Aqliy hujum”, “Klaster”, “Bumerang”, “Amaliy o‘yin”, “Rolli o‘yin”, “Yelpig‘ich”, “Nima uchun?”, “Qanday?”, “Zinama-zina”, “Tushunchalar tahlili”, “T sxema”, “Atamalar zanziri”, “Toifalash jadvali”, “FSMU”, “B-B-B”, “Blits-so‘rov”, “Insert” va boshqa shu kabi **metodlar** qo‘llaniladi.

## **Fan bo'yicha nazariy, seminar mashg'ulotlari va mustaqil ishlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatmalar**

**Nazariy mashg'ulotlarni tashkil etish:** O'qituvchi ma'ruza matni orqali mavzu bo'yicha o'rgatilishi lozim bo'lgan tushunchalarni reja asosida taqsimlagan holda mashg'ulotni tashkil etadi. Mavzu bo'yicha o'quvchi bilishi lozim bo'lgan tushunchalar to'g'risida ma'lumot beradi. Qaytar aloqani o'quv topshiriqlar (og'zaki, yozma) yordamida mustahkamlaydi. Mavzu bo'yicha o'quvchilarning savollariga javob beradi, yangi pedagogik texnologiyalar orqali o'quvchilarda mavzu bo'yicha bilimlarni shakllantiradi.

**Seminar mashg'ulotlarini tashkil etish:** O'tilgan mavzular bo'yicha o'quvchilarning bilimlari pedagogik texnologiyalar asosida mustahkamlanadi. O'qituvchi mavzular bo'yicha o'quvchilarning mavzuni o'zlashtirganlik darajasidan kelib chiqqan holda mustaqil bajarishlari uchun topshiriqlar beradi. Taqdimotlarni kuzatadi, nazorat qiladi, baholaydi.

**Mustaqil ishlarni tashkil etish:** O'qituvchi o'tilgan mavzular mazmunidan kelib chiqqan holda mustaqil ish mavzulari ro'yxatini shakllantiradi, mustaqil ishlarni bajarish shaklini belgilaydi, mustaqil ishni bajarish bo'yicha tegishli ko'rsatma va tavsiyalar beradi. Mustaqil ishlar yakuniy nazorat o'tkazilgunga qadar tekshirib chiqilishi va baholanishi lozim. Mustaqil ishga qo'yilgan baholar joriy nazorat tarkibiga kiradi.

### **O'quv dasturining informatsion-uslubiy ta'minoti**

O'quv dasturining informatsion-uslubiy ta'minoti dasturda belgilangan mavzular va ularga ajratilgan soatlar darslik va o'quv qo'llanmalarda to'liq yoritilishi o'qituvchiga vaqtni tejashga va tejalgan vaqtdan mavzularga oid qo'shimcha ilmiy-metodik materiallar tayyorlash uchun foydalanish imkoniyatini yaratish;

bu borada tajribali, yuqori natijalarga erishgan o'qituvchilarning ishlarini ommalashtirish, o'rganishni yo'lga qo'yish;

ushbu fan o'qituvchisi birinchi navbatda mutaxassis, o'z fanini yaxshi biladigan, fidoiy, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanadigan, ularning yangi usullarini kashf eta oladigan, ijodkor bo'lishi lozim;

ta'lim berishda zamonaviy texnik imkoniyatlar Respublika miqyosida amalga oshirilishiga qaramasdan, o'qituvchi har qanday vaziyatda oddiy usullarda ham mukammal bilim berish yo'llarini izlab topmog'i va ularni qo'llash tajribasiga ega bo'lishi kerak.



### **O`quvchilarning bilimlarini baholash**

Fanning xususiyatini hisobga olgan holda reyting tizimi bo'yicha o`quvchilar bilimini baholash mezonlari ishlab chiqildi.

O`quvchining fan bo'yicha o'zlashtirishni baholash muntazam ravishda olib boriladi va quyidagi turlar orqali amalga oshiriladi:

- Joriy baholash (JB);
- Yakuniy baholash (YaB);

JB da fanning har bir mavzusi bo'yicha o`quvchining bilimi va amaliy ko'nikmalarini aniqlab borish nazarda tutiladi.

JB turlari har bir mavzuning hususiyatidan kelib chiqqan holda, og'zaki, yozma ish, test, nazorat ishi, uy vazifasi, kollokvium va shu kabi boshqa shakllarda amalga oshirilishi mumkin.

YaB da o`quvchining bilim, ko'nikma va malakalari fanning umumiy mazmun doirasida baholanadi.

O`quvchining semestr davomida fan bo'yicha to'plagan umumiy bali har bir baholash turlaridan to'plagan ballar yig'indisiga teng bo'ladi.

YaB turi test shaklida o'tkaziladi.

O`quvchining fan bo'yicha mustaqil ishi JB va YaB turlarida baholandi.

### **O`quvchilar bilimini baholashda quyidagi namunaviy mezonlar inobatga olinadi.**

<b>Ball</b>	<b>Baho</b>	<b>O`quvchining bilim darajasi</b>
4,5-5	A'lo	Hulosa va qaror qabul qilish; Ijodiy fikrlay olish; Mustaqil mushohada yuritish; Amalda qo'llay olish; Mohiyatini tushunish; Bilish, aytib berish; Tasavvurga ega bo'lish.
3,5-4	Yahshi	Mustaqil mushohada yuritish; Amalda qo'llay olish; Mohiyatini tushunish; Bilish, aytib berish; Tasavvurga ega bo'lish.
2,5-3	Qoniqarli	Mohiyatini tushunish; Bilish, aytib berish; Tasavvurga ega bo'lish.
1-2	Qoniqarsiz	Aniq tasavvurga ega emaslik; Bilmaslik.

“Dinshunoslik” fanidan o'tkaziladigan reyting tizimi quyidagi vazifalarni bajarishga qaratilgan:

– o`quvchilarning “Dinshunoslik” fanini o'zlashtirishini muntazam ravishda nazorat etib borish, ularni o`quv semestri davomida o'z bilimlarini uzluksiz faol ravishda oshirib borishlarini ta'minlash.

– o`quvchilar bilimini haqqoniy aniq va adolatli baholash hamda natijalarini ularga muntazam ravishda ma`lum qilib borish;

– o`quvchilarni diniy muammolar bo`yicha mustaqil ishlash ko`nikmalarini keng rivojlantirish;

– ayni paytda “Dinshunoslik” fanidan ta`lim beradigan o`qituvchilarda ma`ruza va amaliy mashg`ulotlarga puxta tayyorgarlik ko`rish, o`quvchilar bilimini baholash uchun savollarni tuzishda mas`uliyatni oshirish va hokazolar.

**Izoh:** *O`quvchilarni amaliy mashg`ulotlarda baholash jarayonida, uning axloq odobi, ma`naviyati, dunyoqarashi, faolligi ham inobatga olinadi*

### Fan mavzulari bo`yicha o`qitish rejasini tarkibi

№	Fan bo`limlari va mavzular	Umumiy yuklama, soat				
		Dars turi bo`yicha soatlar taqsimoti				
		Hammasi	Jami dars soatlari	Nazariy	Seminar	Mustaqil ish
1	«Dinshunoslik» faniga kirish	3	2	2		1
2	Dinning ibtidoiy shakllari	3	2	2		1
3	Milliy dinlar. Yahudiylik, hinduiylik, konfustiylik	3	2	2		1
4	Zardushtiylik	3	2	2		1
5	Jahon dinlari. Buddaviylik	3	2	2		1
6	Jahon dinlari. Xristianlik	3	2	2		1
7	Jahon dinlari. Islom	3	2	2		1
8	Islomdagi oqimlar: xorijiylik, shialar va zamonaviy ko`rinishdagi oqimlar	3	2		2	1
9	O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida vijdon erkinligi	3	2		2	1
10	Diniy bag`rikenglikning mazmun-mohiyati va ahamiyati	3	2	2		1
	<b>Jami:</b>	<b>30</b>	<b>20</b>	<b>16</b>	<b>4</b>	<b>10</b>

## O'quv dasturining mazmuni

### 1-mavzu. "Dinshunoslik" faniga kirish

"Dinshunoslik" fanining predmeti, maqsadi va vazifalari. Din tushunchasi va uning jamiyatdagi funkstiyalari.

Dinlar tasnifi: urug'-kabila dinlari, milliy dinlar, jaxon dinlari, monoteistik va politeistik dinlar. Din e'tiqod sifatida. Dinga berilgan ta'riflar. Din va qonunning o'zaro munosabatlari. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni.

**Asosiy tushunchalar:** O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni, dinning jamiyatdagi ijtimoiy, ma'naviy, ruhiy funkstiyalari hamda kompensatorlik, integratorlik, regulyatorlik, legitimlovchilik vazifalari, falsafiy, nazariy jihatlari, urug'-qabila dinlari, millat dinlari, jahon dinlari, monoteistik va politeistik dinlar.

### 2-mavzu. Dinning ibtidoiy shakllari

Diniy ong asoslarining shakllanishi. Avesto, Tavrot, Injil, Qur'oni karimda insoniyatning yaratilishi haqida. Dafn etish jarayoni, ov qilish. Ibtidoiy din shakllari. Totemizm, animizm, shomonlik yoki sehrgarlik (afsun, magiya), fetishizm. Ibtidoiy mifologiya. Neolit davridagi diniy tasavvurlar.

**Asosiy tushunchalar:** Avesto, Tavrot, Injil, Qur'oni karim, Axuramazda, Yahve, Ota xudo, Alloh, ko'mishdagi maxsus marosimlar, totemizm, Ojibva qabilasi, aborigenlar, Tabu, animizm, shomonlik, sehrgarlik, magiya, ritual harakatlar, yovuz afsungarlik, harbiy afsungarlik, sevgi afsungarligi, tibbiy afsungarlik, ob-havo afsungarligi, fetishizm, but, sanam, tumor, xudolar, mehrob, cherkov, haykallar, faol bashorat, neolit, paleolit, folbin.

### 3-mavzu: Milliy dinlar. Yahudiylik, hinduiylik, konfustiylik

Yahudiylikning vujudga kelishi. Bani Isroil xalqi. Abara-evrey-yahudiy. Ibriylar. Ibrohim, Ishoq, Yoqub, Yusuf silsilasi. Qur'ondagi Yusuf surasi. Bani Isroil qavmi tarixi. Yahudiylik ta'limoti. Olamlarning yaratilishi. Yahudiylik manbalari – Tavrot va Talmud. Manbalar tahlili. Yahudiylikdagi oqimlar. Qadimiy oqimlar – saduqiylar, favziylar, esseylar. Zamonaviy oqimlar – massonizm, sionizm. Yahudiylik marosimlari va bayramlari. O'rta Osiyoga yahudiylikning tarqalish tarixi.

Qadimgi Xindistonda veda dini.

Vedalar to'rt yirik to'plamdan iborat kitoblari.

1. Rigveda («madhiyalar vedasi»);

2. Samaveda («qo‘shiqalar vedasi»);
3. YAjurveda («qurbonliklar vedasi»);
4. Atxarvaveda («afsun va jodular vedasi»).

Vedalar ta‘limoti. Veda xudolari.

Veda dinida Braxmanlik. Braxmanlik kastasi, undagi urf-odat marosimlar. Qadimgi Xindistonda kastachilik tizimi.

Hinduiylik dinining kelib chiqishi. Hinduiylik Hindistondagi asosiy diniy e‘tiqodlardan biri. Kasta tuzumining shakllanishi. Hinduiylikning vedizm va braxmanlikdan farqi. “Maxabxarata” – muqaddas yozuv. Hinduiylikdagi Braxma, Vishnu, Shiva xudolari uchligi. Braxma dunyoni yaratgan xudo. Shiva xalq ommasi xudosi. Shivaizmdagi oqimlar. Vishnu-quyosh xudosi. Vishnuizmdagi urf-odatlar. Hinduiylikdagi bayramlar.

Konfustiyning hayoti, ijtimoiy – Tarixiy vaziyat. Konfustiy – din asoschisi. Konfustiy ta‘limoti. Konfustiyning falsafiy qarashlari. Syao ta‘limoti konfustiychilikning asosi. Li qonunlari. Konfustiylikda oila va nikoh tushunchasi. Ta‘limotning Xitoyda tarqalishi va davlat mafkurasi darajasiga ko‘tarilishi. Konfustiy nomining ilohiylashtirilishi. Konfustiyga “knyaz”, “imperator”, “eng haqiqiy donishmand”, “millatlarning ulug‘ ustози” unvonlarining berilishi.

**Asosiy tushunchalar:** Yahudiylik dini, yakkaxudolik, Falastin, millat dini, Abu Rayhon Beruniy yahudiylik haqida, Bani Isroil, Ya‘qub payg‘ambar, ibriylar, Mesopotamiya, Dajla va Furot daryolari, Arabiston yarim oroli, Qur‘oni karimdagi “Yusuf” surasi, Yahvega imon keltirish, yahudiy xalqlari, Messiya, Sinion tepaligi, Oxirat kuniga ishonish.

Hinduiylik, braxmanlik, diniy qorishma, guru, besh qoida, Maxabxarata, trimurti-uchlik, Braxma, Vishnu, Shiva, ishvachilar, smartlar, dandilar, linga, yoglar, panteon, Ramayana, vishnuizm bayramlari.

Konfustiylik, ijtimoiy muhit, Konfustiy ta‘limoti, falsafiy qarashlar, Stzyun-stzi, komil inson, Lunyuy, Syao ta‘limoti, Syao va Li, Li qonunlari, Xan sulolasi, Chjou, In, Stuyfu, Xan podshohi, Lyu Ban, qurbonlik, knyazlik, imperatorlik, “eng haqiqiy donishmand”, “millatlarning ulug‘ ustози”.

#### **4-mavzu: Zardushtiylik**

Zardushtiylik ta‘limotining vujudga kelishi. Zardusht xayoti va faoliyati. Zardusht ta‘limoti. Ko‘pxudolikdan yakkaxudolikka o‘tish. Zardushtning vatani xakidagi bahslar. Zardushtiylikning diniy ta‘limoti. Axuramazda. Axriman, jannat, jaxannam xaqidagi tasavvurlar. Zardushtiylik rasm-rusumlari. Olov, daxmalar, ostodonlar. Zardushtiylikka oid ta‘limot, qarash va urf- odatlar.

Muqaddas kitob Avestodagi “Mazdayana” dini. Behdin – eng yaxshi din. Zardo‘sh t vatani. Zardushtiylik ta‘limoti. Axuramazda va Axriman.

Avesto – zardushtiylikning asosiy manbasi. Avestoning tarkibiy qismlari – Videvdat, Yasna, Vispart, Yasht. Zardushtiylik va hozirgi zamon.

**Asosiy tushunchalar:** Zardushtiylik, Zardusht, Midiya, Axuramazda, Axriman, suv, olov, er, havo, fikrlar sofliqi, soʻzning sobitligi, amallarning insoniyliqi, Videvdat, Yasna, Visparat, Yasht.

### **5-mavzu. Jahon dinlari. Buddaviylik**

Buddaviylik – jahon dini. Buddaviylik asoschisining shaxsi. Buddaviylik taʼlimoti. Buddaviylikning tarqalishi. Buddaviylikning Xitoyga kirib kelishi. Buddaviylik manbalari. Markaziy Osiyoda buddaviylik. Buddaviylik oqimlari va yoʻnalishlari. Xinayana yoʻnalishi. Maxayana yoʻnalishi.

**Asosiy tushunchalar:** Siddxartxa Gadjama (Gautama), Buddha, Malika Mayya, Yashadxara, Raxila, Trishna, Varanasi, diniy falsafiy taʼlimot, varna, meditatiya, axloq normalari, donishmandlik, nirvana, buddaviylikka mansub xudolar, buddaviylik manbalari, Tripitaka, sutra, maxayana.

### **6- mavzu. Jahon dinlari. Xristianlik**

Xristianlik dini – jahon dinlaridan biri. Xristianlik dini paydo boʻlishi tarixi. Xristian dini taʼlimoti. Ota-xudo, oʻgʻil-xudo, muqaddas Ruh haqidagi qarashlar. Xristian dini marosim va urf-odatlar. Xristianlikdagi yoʻnalishlar katolik, pravoslav, protestantlik. Yoʻnalishlarning oʻziga xos xususiyatlari, farqlari. Xristian missionerligi.

**Asosiy tushunchalar:** Iso Masih, xristianlik, Injil, xristianlik manbalari, apostol, nazaret, messiya, eʼtiqod timsoli, Rim papasi, Istambul patriarxi, yeparxiya, arxiepiskop, pravoslav, katolik, protestantlik, Martin Lyuter, cherkov bayramlari, ruhoni, diakon, missionerlik, prozelitizm.

### **7-mavzu. Jahon dinlari. Islom**

“Joxiliya” davri arablarining diniy anʼanalari va koʻpxudolik. Muhammad ibn Abdullox - diniy rahnamo va davlat arbobi. Nabiy va Rasul soʻzlarining maʼnosi.

Islom – jahon dinlaridan biri. Islom dini tarixi va taʼlimoti. Kaʼba va uning tarixi. Islom dini falsafasi.

Islom manbalari tushunchasi. Qurʼoni karim –islomning asosiy manbasi. Suralar va ularning nozil boʻlish tarixi. Ilk sura. Ilk «Suxuf» - Kurʼon oyatlarining jamlanishi. Xalifa Usmon ibn Affon davrida Qurʼonning kitob holiga keltirilishi. Toshkentdagi Usmon mushafi va uning tarixi. Qurʼonning qoʻlyozma va nashrlari. Qurʼon ilmlarining taraqqiyoti. Qurʼon tarjimalari.

*Hadisi shariflar islomning asosiy manbalaridan biri sifatida. Hadis soʻzining lugʻaviy maʼnosi. Hadislar islom dinining Qurʼondan keyingi ikkinchi manbasi. Hadislarni oʻrganish va yigʻish. Hadis toʻplamlarining vujudga kelishi. Sihohi sitta. Imom al-Buxoriy va uning “Al-Jomeʼ as-sahih”*

*asari. Imom al-Muslimning “Al-Jome’ as-sahih” asari. Imom at – Termiziyning “Sunan” asari. Imom Abu Dovudning “Kitobu-s-sunan” asari. Imom an-Nasoiyning “Sunanu-l-kubro” asari. Imom ibn Mojaning “Sunan” asari. Hadis ilmining shakllanishi.*

**Asosiy tushunchalar:** Islom, din, imon, namoz, zakot, ro‘za, haj, Muhammad ibn Abdulloh, Qur‘on, hadis, Ka‘ba, nabiy, rasul, arablar, qurayshiylar, Makka, Madina, musulmon, manba, manbashunoslik, Qur‘oni Karim, ilohiy kitob, sura, oyat, nozil bo‘lish, qo‘lyozma, toshbosma, tafsir, mushaf, suhuf, vahiy, pora, makkiy suralar, madaniy suralar, xalifalar Abu Bakr, Umar, Usmon, Ali, Qur‘on ilmlari, adabiy manba, tarixiy manba, tarjima.

*Hadis, hadis al-qudsiy, hadis an-nabaviy, roviy, isnod, muhaddis, sunna, Imom al-Buxoriy, “Al-Jome’ as-sahih”, Imom al-Muslim, “Al-Jome’ as-sahih”. Imom at – Termiziy, “Sunan”, Imom Abu Dovud, “Kitobu-s-sunan”, Imom an-Nasoiy, “Sunanu-l-kubro”. Imom ibn Moja, “Sunan”, sahih hadis, zaif hadis, sahoba, tobe‘in, mujtahid, hadisshunoslik markazlari.*

### **8-mavzu. Islomdagi yo‘nalishlar va mazhablar: sunniylar, shialar, xorijiyalar va zamonaviy ko‘rinishdagi oqimlar (2 soat)**

Islomdagi yo‘nalishlar. Islomdagi ilk bo‘linishlarning boshlanishi.

Islom dinining sunniylik va shialikka bo‘linib ketishining asosiy sabablari. Shialarning Xalifa saylash to‘g‘risidagi diniy qarashlari. Shialarning diniy qarashlari.

Shomda Muoviya va Ali o‘rtasidagi Siffin jangining bo‘lib o‘tishi.

Xorijiylikning paydo bo‘lishi tarixi. Xorijiyalarning Xalifa saylash to‘g‘risidagi qarashlari.

Islomda sunniylikning mazhablari (Hanafiylik, molikiylik, shofeylik, xanbaliylik) Diniy ekstremizmning mintaqada namoyon bo‘lishining o‘ziga xos xususiyatlari. Diniy ekstremistik oqimlarning g‘arazli maqsadlari. Diniy-ekstremistik harakatlar faoliyatida islom ta‘limotining buzib talqin qilinishi.

**Asosiy tushunchalar:** mutaassiblik, oqim, xorijiyalar, shialar, Ahmad ibn Taymiya, “salafiylik”, “Hizbut – Tahrir”, “Akromiyalar”, “Nurchilar”, “Tablig‘chilar”, tahdid.

## **9-mavzu. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida vijdon erkinligi (2 soat)**

O‘zbekiston Respublikasida din va diniy tashkilotlar. O‘zbekiston Respublikasida vijdon erkinligining qonun yo‘li bilan kafolatlanishi. Vijdon erkinligi-diniy e‘tiqod erkinligi. Vijdon erkinligining O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida kafolatlanishi. “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi qonunning yangi tahriri. O‘zbekistondagi diniy konfessiyalar. Missionerlik va prozelitizm. Noqonuniy diniy faoliyatning ta‘qiqlanishi. Dunyoviy davlatda dinning o‘rni.

Asosiy tushunchalar: Vijdon erkinligi, diniy tashkilotlar, diniy e‘tiqod erkinligi, mustaqillik va din, dunyoviy davlat, ibodat, Konstitutsiyaning 31-moddasi, cherkov, sinagoga, diniy qadriyatlar, sekta.

### **10-mavzu. Diniy bag‘rikenglikning mazmun-mohiyati va ahamiyati**

Bag‘rikenglik tushunchasi. Diniy bag‘rikenglikka bag‘ishlangan xalqaro me‘yoriy hujjatlar. O‘zbekistonda diniy bag‘rikenglik. O‘zga din vakillariga do‘stona munosabat. O‘zbekiston ko‘p din va konfessiyalar o‘lkasi. O‘zbekistonda diniy bag‘rikenglik va hamjihatlikning tarixiy va zamonaviy asoslari. O‘zbekistonda millatlararo totuvlik.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

#### **Asosiy adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2014.
2. “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining qonuni (yangi tahriri)\\O‘zbekistonning yangi qonunlari, № 19. – T.: Adolat, 1998. 224-234-betlar.
3. Karimov I.A. O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li. – T.: 1992.
4. Karimov I.A. O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. – T.: 1996.
5. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘saqasida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: 1997.
6. Karimov I.A. Alloh qalbimizda, yuragimizda. – T.: 1999.
7. Karimov I.A. Hushyorlikka da‘vat. – T.: 1999.
8. Karimov I.A. Donishmand xalqimizning mustahkam irodasiga ishonaman. –T.: “O‘zbekiston”, 2000.

9. E'tiqod erkinligi qonuniy asosda bo'lsin. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning Oliy Majlis XI sessiyasida so'zlagan nutqi. "Xalq so'zi", 1998, 5-may.
10. Karimov I. A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. –T.: Sharq, 1998.
11. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008.
12. Karimov I.A. Eng asosiy mezon – hayot haqiqatini aks ettirish. – T.: O'zbekiston, 2009.
13. I.Karimov. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: "O'zbekiston", 2011.
- kontratseptiv vositalarning turlarini;
- erta oila qurishning salbiy asoratlarini;
- OITS va jinsiy yo'l bilan yuqadigan kasalliklarning ijtimoiy-psixologik muammolarini, turlarini, ulardan saqlanish yo'llarini;
- fanga oid atamalarni, ularning lug'aviy ma'nolarini.

**Fan mavzularini o'zlashtirish davomida o'quvchilar quyidagi ko'nikmalarga ega bo'lishlari zarur:**

- oilaviy huquqiy munosabatlarni talqin qila olish;
- oilaviy hayot davomida oilaning iqtisodiy, reproduktiv, tarbiyaviy, kommunikativ, rekreativ, felitsitologik, regulativ, relaksatsiya vazifalarini tahlil qila olish;
- hayz siklini nazorat qilish;
- turli temperamentga xos juftliklarda sevgi-muhabbat tuyg'ularining kechishini tahlil qila olish;
- turmush o'rtog'ini to'g'ri tanlay olish;
- nikoh shartnomasini tuzish;
- yangi oilaga moslashish;
- muloqot jarayonida yuzaga keladigan to'siqlarni oldini olish va ularni bartaraf etish;
- nizoli vaziyatlarga to'g'ri baho berish;
- oilaviy xayotda yuzaga keladigan muammolarga konstruktiv tus berish, destruktiv yo'nalishdagilaridan saqlanish;
- kontratseptiv vositalardan foydalanish;
- oilani rejalashtirish va sog'lom turmush tarzini olib borish;



- OITS va jinsiy yo'l bilan yuqadigan kasalliklardan saqlanish;
- oilaviy munosabatlar hamda shaxs xususiyatlarini o'rganuvchi psixologik tashxis metodikalari bilan ishlash, natijalarini to'g'ri tahlil qila olish;
- fanga oid atamalarni to'g'ri talqin qilish, ulardan to'g'ri foydalanish.

**Fan mavzularini o'zlashtirish davomida o'quvchilar quyidagi malakalarga ega bo'lishlari zarur:**

- oila byudjetini yuritish;
- shaxslararo munosabatlar jarayonida tinglash va muloqot o'rnatish;
- nizoli vaziyatlarni oldini olish;
- muammoli vaziyatlardan psixologik jihatdan oqilona chiqib ketish;
- psixologik adabiyotlar bilan ishlash.

### “Oila psixologiyasi” fanining mavzularini taqsimlanishi

№	Fanning bo'limlari va mavzular nomi	Umumiy yuklama, soat						
		Hammasi	Darslar turi bo'yicha soatlar taqsimoti (auditoriya yuklamasi)					Mustaqil ish
			Jami	Nazariy (ma'ruza)	Amaliy	Laboratoriya ishi	Seminar	
1	Psixologiya haqida tushuncha. Oila psixologiyasi fani predmeti, maqsad va vazifalari.	5	4	2			2	1
2	Oila va oilaviy munosabatlar tarixi. Oila xususida sharq mutafakkirlarining qarashlari.	5	4	2			2	1
3	Oila turlari va vazifalari.	6	4	2	2			2
4	O'smirlik va o'spirinlik davrining o'ziga xos psixologik xususiyatlari.	4	2	2				2
5	Muhabbat psixologiyasi.	3	2	2				1

6	Nikoh oldi omillarining xususiyatlari va ularning nikoh mustahkamligiga ta'siri.	6	4	2	2				2
7	Oilada shaxslararo munosabatlar va muloqot psixologiyasi.	6	4	2	2				2
8	Oilaviy nizolar psixologiyasi. Ajralish, uning sabab va oqibatlari.	3	2	2					1
9	Reproduktiv salomatlikning ijtimoiy – psixologik jihatlari.	3	2	2					1
10	OITS (SPID) va jinsiy yo'l bilan yuqadigan kasalliklarning ijtimoiy-psixologik muammolari va ularning yechimlari.	3	2		2				1
<b>Jami:</b>		<b>44</b>	<b>30</b>	<b>18</b>	<b>8</b>	<b>0</b>	<b>4</b>	<b>0</b>	<b>14</b>

\*- Akademik litsey namunaviy o‘quv rejasi umumta’lim fanlari blokidagi soatlar taqsimotiga asosan mavzular to‘liq saqlangan holda 40 soat hajmida ishchi o‘quv dasturi shakllantiriladi.

### **O‘quv material mazmuni**

#### **1-mavzu: Psixologiya haqida tushuncha. Oila psixologiyasi fani predmeti, maqsad va vazifalari**

Psixologiya fani haqida tushuncha. Oila psixologiyasi fani predmeti, maqsad va vazifalari. O‘zbekiston Respublikasida oila masalalariga e’tibor. “Oila” ilmiy-amaliy Markazining tashkil etilishi, uning maqsad va vazifalari.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida nikoh-oila munosabatlari-ning aks ettirilishi. Oila kodeksining qabul qilinishi, uning maqsad va vazifalari.

#### **2-mavzu: Oila va oilaviy munosabatlar tarixi. Oila xususida sharq mutafakkirlarining qarashlari**

Sharq mutafakkirlari - Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Xojib, Kaykovus, Amir Temur, Rizouddin ibn Faxruddin, Abdullo Avloniy, Abdurauf Fitrat, Yusuf Tovasliylarning oila va oilaviy munosabatlar xususidagi qarashlari.

Qur'on, hadis va boshqa muqaddas manbalarda oila masalalarining yoritilishi.

Nikoh-oila munosabatlari yuzaga kelishi va rivojlanishi. Erkak va ayol munosabatlarida yuzaga kelgan “tabu”lar. Nikohning dastlabki turlari: Endogamiya, ekzogamiya, urug‘lararo nikoh.

Dastlabki juft nikohlarning yuzaga kelishi. Xususiy mulkchilikning yuzaga kelishi va uning nikoh oila munosabatlarining shakllanishiga ta'siri. "Sovg'a ayrboshlash". Individual juft nikohning yuzaga kelishi. Juft oila. Oilaviy rollarning yuzaga kelishi.

Patriarxat, poligam (ko'p xotinlilik), monogam, nuklear (lot. nukleus – yadro) oilalar.

### **3-mavzu: Oila turlari va vazifalari**

Jamiyatda nuklear va ko'p bo'g'inli oilalarning o'rni. Oila va jamiyat munosabatlari.

Hozirgi zamon oilalarining turlari: ijtimoiy kelib chiqishi, to'liqligi, bo'g'inlar va bolalar soni, er-xotin ma'lumoti saviyasi, oilaning yoshi, qayliqlar ota-onasi oilasining moddiy ta'minlanganlik darajasi, regional jihati, oilada ayol yoki erkak yetakchiligi, er-xotin orasidagi munosabatlar, oilaning yuridik rasmiylashtirilganligi, er-xotinlarning millatiga ko'ra oila turlari. Ularning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini bilish, ularga xos muammolarni o'rganish.

Hozirgi zamon oilasining asosiy vazifalari: oilaning iqtisodiy, reproduktiv, tarbiyaviy, kommunikativ, rekreativ, felitsitologik, regulyativ, relaksatsiya vazifalari.

### **4-mavzu: O'smirlik va o'spirinlik davrining o'ziga xos psixologik xususiyatlari.**

Yosh davrlari inqirozlari haqida tushuncha. O'smirlik va o'spirinlik davri psixologiyasi. O'smirlik va o'spirinlik davrining kechishida psixologik, fiziologik va ijtimoiy omillarning ta'siri.

O'g'il va qiz bolalarning jinsiy balog'atga yetishi. Jinsiy balog'atga yetish bosqichlari. O'smir o'g'il bolalar organizmidagi o'ziga xos o'zgarishlar.

Hayz ko'rish siklida qiz bolalar va ayollar ruhiyatida ro'y beradigan o'zgarishlar.

O'g'il va qiz bolalarda balog'atga yetishning "o'z muddati"dan erta yoki kech ro'y berishining ular ruhiyatiga, hulqiga ta'siri. Qarama-qarshi jinsga bo'lgan qiziqishning ortishi va munosabatlarning shakllanishi. Jinsiy tarbiya va uning vazifalari.

O'smir va o'spirinlarning o'z-o'ziga va atrofida qilargalarga nisbatan bo'lgan munosabatlari. Shaxslararo munosabatlar psixologiyasi. O'smir "Men"ining shakllanishi. O'smirlik avtonomiyalari.

### **5-mavzu: Muhabbat psixologiyasi**

O'smirlarda do'stlik, yoqtirish va sevgi hislari. Sevgi-muhabbat tuyg'ulari va ularning turlari. Sevgi-muhabbat haqida donishmandlar, mutaxassis olimlarning fikrlari. Turli temperamentli kishilarda hissiyotlarning ifodalanishi. Sevgining fasliy o'zgarishi.

Turli yosh bosqichlarida sevgi-muhabbat tuyg'ularining kechishi.

Muhabbat bosqichlari. Muhabbat belgilari: "birgalik effekti", idrokning ideallashuvi, altruizmning keskin ifodalanishi, sevgilisida boshqalar ko'rmagan jihatlarini ko'rish, muhabbat kuchiga cheksiz ishonish.

Rashk va muhabbat hislari. Rashk tuyg'usi, uning ko'rinishlari. Rashk hislaridan xolos bo'lish yo'llari.

### **6-mavzu: Nikoh oldi omillarining xususiyatlari va ularning nikoh mustahkamligiga ta'siri**

Nikoh oldi omillari, ularning oila mustahkamligiga ta'siri. Nikohga jismoniy, jinsiy, huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy-axloqiy, psixologik yetuklik masalalari. Yosh kelin-kuyovlarning ijtimoiy kelib chiqishlari, ma'lumot ko'rsatkichlari va boshqa shu kabi nikoholdi omillarining oila mustahkamligidagi o'rni. Oila qurish yoshi.

Oila qurish motivlari. Sevgi, moddiy manfaatdorlik (hisob) yoki stereotip bo'yicha oila qurish hamda ularning oila mustahkamligiga ta'siri.

Nikoh shartnomasi. Yoshlarning bo'lajak oilaviy hayot haqidagi tasavvurlari va ularning oila mustahkamligiga ta'siri. Erta oila qurishning ijtimoiy-psixologik muammolari.

Oila psixodiagnostikasi haqida tushuncha. Nikoh-oila munosabatlarini o'rganuvchi metod va metodikalar, ulardan foydalanish masalalari.

### **7-mavzu: Oilada shaxslararo munosabatlar va muloqot psixologiyasi**

Muloqot madaniyati. Muloqot jarayonida yuzaga keladigan to'siqlar: psixologik, vaziyatli, mazmuniy va mativatsion.

Oilaviy muloqotlarning o'ziga xos qonuniyatlari. Oilaviy muloqot madaniyatining ko'rinishlari.

Oilaviy munosabatlar psixologiyasi. Yosh oilada er-xotin munosabatlari dinamikasi. Er-xotin munosabatlari rivojlanishining notekisligi. Yosh kelin-kuyovlarni oilaning boshqa a'zolari bilan bo'ladigan munosabatlari. Oila qurgandan so'ng kelin va kuyovning ijtimoiy mavqeyining o'zgarishi. Kelinlarning yangi oilaga moslashishi. Er-xotin munosabatlarining o'ziga xosligi, biologik, ijtimoiy va psixologik qovushuvlar.

### **8-mavzu: Oilaviy nizolar psixologiyasi. Ajralish, uning sabab va oqibatlari**

Er-xotin munosabatlarida nizoli vaziyatlarning yuzaga kelishi. Oilaviy nizolar turlari. Nizolarning ijtimoiy-psixologik tavsifi. Muvaffaqiyatli va muvaffaqiyatsiz oilalar. Oilada er-xotin munosabatlarini biriktiruvchi (konstruktiv) va ajratuvchi (destruktiv), tor doiradagi (er-xotin o'rtasidagi) va keng doiradagi (boshqalar ham ishtirok etadigan) nizolar.

Er-xotin nizolarining dinamikasi (qarama-qarshiliklarning yuzaga kelishi, nizoli vaziyat, nizolarning kechishi, nizodan so'nggi vaziyat).

Oilaviy munosabatlarda nizolarni yuzaga keltiruvchi va oilaviy munosabatlarning buzilishiga olib keluvchi sabab, bahona va omillar.

Nizolarning oldini olish va bartaraf etish usullari.

Ota-onalar va farzandlar o'rtasidagi nizolar. Qaynona-kelin o'rtasidagi nizolar. Qaynona-kuyov o'rtasidagi kelishmovchiliklar.

Ajralish va uning oqibatlarini. Ajralishning o'ziga xos ijtimoiy-psixologik va etnopsixologik xususiyatlari.

Ajralish sabablari, omillari. Ularning salbiy asoratlarini kamaytirish masalalari.

### **9-mavzu: Reproktiv salomatlikning ijtimoiy-psixologik jihatlari**

Reproktiv salomatlik tushunchasi. Oilada sog'lom turmush tarzini olib borish. Jinsiy hayotning oila mustahkamligiga ta'siri. Erta oila qurishning salbiy asoratlari.

Kontratseptiv vositalar va ularning turlari hamda homiladorlikdan saqlanish usullari haqida umumiy ma'lumot, ularning inson hissiy va ruhiy holatiga ta'siri. Kontratseptiv madaniyatni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik va hududiy xususiyatlari.

### **10-mavzu: OITS (SPID) va jinsiy yo'l bilan yuqadigan kasalliklarning ijtimoiy-psixologik muammolari va ularning yechimlari**

OITS va jinsiy yo'l bilan yuqadigan kasalliklarning dunyodagi tarqalganlik holati, ularning ijtimoiy omillari, yuqish yo'llari va vositalari. Ularni oldini olish yuzasidan tavsiyalar.

Mazkur kasalliklarning shaxslararo munosabatlarga, shaxsning kasb faoliyati, jinsiy quvvati, nasli hamda ruhiyatiga ta'siri.

### **Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2014
2. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi. – T.: Adolat, 2007
3. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi– T.: Adolat, 2011

### **O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari, farmoyishlari va risolalari**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mustahkam oila yili" Davlat dasturi to'g'risidagi PQ-1717-son Qarori. 2012 yil 27 fevral.
2. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. – T.: O'zbekiston, 1998.
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat.- 2008.

## **O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari**

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Oilaviy manfaatlarni ta'minlash borasida 1998 yilda amalga oshiriladigan tadbirlar davlat dasturi to'g'risida"gi 45-son qarori. 1998 yil 27 yanvar
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Respublika "Oila" ilmiy-amaliy markazini tashkil etish to'g'risidagi 54-son qarori. 1998 yil 2-fevral.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Barkamol avlodni tarbiyalashda oila instituti va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining ta'lim muassasalari bilan o'zaro hamkorligini yanada rivojlantirish chora -tadbirlari to'g'risida"gi 175-son qarori. 2012 -yil 19-iyun.

## **Asosiy adabiyotlar**

1. Karimova V.M. Oila psixologiyasi: Darslik. – T.: 2007.
2. Shoumarov G'.B., Haydarov I.O., Sog'inov N.A., Akramova F.A., Solihova G., Niyozmetova G. Oila psixologiyasi, 5-nashr – T.: Sharq, 2013.

## **Qo'shimcha adabiyotlar**

1. Akramova F.A. Oilaviy hayotni o'rganishga oid psixologik testlar. – T.: 2002.
2. Akramova F.A. Oilaviy hayotga oid psixologik tavsiyalar. – T.: 2002.
3. Aminov M., Ashirova M. va boshqalar. Xotin-qizlar ensiklopediyasi. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 1999.
4. Dog'an S. Baxtli oila – baxtli farzand. – T.: Yurist-media markazi, 2010.
5. Zunnunova D. Sevgimi...yoki havas? – T.: Davr press, 2011.
6. Zufarova M.E. Umumiy psixologiya. – T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2010.
7. Kaykovus. Qobusnoma. – T.: Meros, 1992.
8. Karimova V.M. Oilaviy hayot psixologiyasi: O'quv qo'llanmasi – T.: 2006.
9. Mansur A. Qur'oni Karim. – T.: Cho'lpon, 1992.
10. Nazarova B.A. Ilmiy tadqiqot atamaları lug'ati. – G.: Ziyo, 2014.
11. To'vasliy Yu. Hikmatlar xazinasi. – T.: Navro'z, 1994.
12. Usmanxodjaev A. Katta tibbiyot o'quv lug'ati. – T.: Navro'z, 2013.
13. Shukurova Sh., To'ychieva N., Normuxamedova N. O'smirlik va ilk o'spirinlik davrlari psixologiyasi. – T.: 2007.
14. Fayziev Y.M. Umumiy va tibbiy psixologiya. – T.: Ilm ziyo. 2014.

- 15.Xodakov N.M. Yosh er-xotinlarga. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2012.
- 16.Yunusdjonova Z.S., Mirzaeva S.A., Bositxonova E.I. Psixologik parvarish. – T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati. 2010.
- 17.Muhammad payg‘ambar qissasi. Hadislar. – T.: Kamalak. 1991.
- 18.Oilani oqilona rejalashtiring. – T.: 1997.
- 19.Oila va nikoh. –T.: Toshkent islom universiteti. 2009.
- 20.Hayot kitobi: Yosh oilalar uchun ensiklopedik qo‘llanma. – T.: Sharq. 2011.
- 21.1001 savolga psixologning 1001 javobi. (YuNeSKO, YuNPFA loyihasi asosida). –T.: Mehnat. 2000.
- 22.Andreeva T.V. Semeynaya psixologiya: Uchebnoe posobie. – SPb.: Rech, 2004.
- 23.Dolf Kyunsel. Organizm cheloveka. – Berlin. 1988.
- 24.Kulakov V.I. O Vashem zdorove jenshiny. – M.: 1990.
- 25.Malkina-Рых I.G. Semeynaya terapiya. – M.: Eksmo. 2008

### **Internet saytlari**

1. [www.koob.ru](http://www.koob.ru)
2. [www.oila.uz](http://www.oila.uz)
3. <http://kk.convdocs.org/docs/index-294818.html?page=2> - Oilani paydo bo‘lishi va rivojlanishidagi sotsial omillar.
4. <http://minjust.uz/uz/publications/family/2012/11/2540/> - Oila sog‘lom ekan – jamiyat mustahkam.
5. <http://minjust.uz/uz/publications/family/2012/11/2541/> - Jamiyatning mustahkam asosi.
6. <http://minjust.uz/uz/publications/family/2012/10/2365/> - Oila qonunchiligini takomillashtirishdagi masalalar.
7. <http://minjust.uz/uz/publications/family/2012/09/2232/> - Oila-jamiyat himoyasida.
8. <http://minjust.uz/uz/publications/family/2012/07/2024/> - Mustahkam oila – davlatning tayanchi.

## Huquqshunoslik

### O'quv dasturni takomillashtirish bo'yicha ishchi guruh a'zolari:

- Ochilov S.K. – O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalarini axborot-metodik ta'minlash xizmati yetakchi metodisti
- Choriyev M.Sh. – Toshkent davlat yuridik universiteti qoshidagi akademik litseyning o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari
- Ernazarova U.N. – O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti o'qituvchisi
- Rasulova G.A. – O'zbekiston Milliy universiteti qoshidagi S.H.Sirojiddinov nomli akademik litseyning huquqshunoslik fani o'qituvchisi
- Lutfullayeva F.B. – Toshkent davlat yuridik universiteti qoshidagi akademik litseyning "Huquq va maxsus fanlar" kafedrasini mudiri

### Taqrizchi:

- Saydullayev Sh. A. – Toshkent davlat yuridik universiteti "Davlat va huquq nazariyasi va tarixi" kafedrasini dotsenti v/b



## Kirish

Huquqiy demokratik davlat qonun ustuvorligini, barchaning qonun oldida tengligini hamda adolatli jamiyat mavjudligini taqozo etadi. Bu esa, ko‘p jihatdan aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksak darajada taraqqiy etganligiga bevosita bog‘liq. Chunki, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar huquq normalari asosida amalga oshiriladi, jamiyatda mavjud ijtimoiy munosabatlarni huquq normalari bilan tartibga solinadi.

Mamlakatimizning rivojlanishi, dunyo miqyosida davlatlararo hurmat-e‘tiborga sazovor bo‘lishi, kelajak avlodni yanada yuksak ma‘naviyatli, zamonaviy, intellektual bilimli, ilmiy salohiyatga ega, har tomonlama yetuk jamiyatga munosib hissasini qo‘sha oladigan shaxs sifatida shakllantirishni talab qiladi.

“Huquqshunoslik” fani akademik litsey va kasb-hunar kollejlarning o‘quvchilariga huquq asoslarini o‘rgatish orqali ularning huquqiy bilimi, huquqiy dunyoqarashi, huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini shakllantirishga qaratilgan.

Huquqiy bilimli va huquqiy madaniyatli mutaxassis esa kelgusidagi faoliyatida samarali faoliyat olib borish, xato va kamchiliklarga yo‘l qo‘ymaslik, mehnat intizomiga rioya qilish, huquqbuzarliklar sodir etmaslik, o‘z huquq va erkinliklarini himoya qilish, huquqiy munosabatlarning faol ishtirokchisi sifatida namoyon bo‘lish xususiyatlariga ega bo‘ladi. Bunday shaxs kelgusida mustaqil fuqarolik pozitsiyasi asosida tanlagan yo‘lidan ogishmay olg‘a boradigan va kelgusida o‘z kasbining mohir ustasi hisoblangan mutaxassis sifatida namoyon bo‘ladi.

“Huquqshunoslik” fanining asosiy vazifasi demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati nazariyasini hamda barcha huquqiy munosabatlarni tartibga solish me‘yorlarini o‘rgatishdan iborat. Huquqiy bilimli mutaxassislarni tayyorlashda ushbu fanlar tizimida alohida o‘ringa ega. Chunki uzluksiz ta‘lim tizimida jamiyat, davlat va huquq masalalariga adolat, erkinlikka asoslangan holda yondashib, huquqiy munosabatlarni qanday tartibga solinishini o‘rganishga talab kuchaymoqda.

Mazkur o‘quv dasturi akademik litsey va kasb-qunar kollejlarning tayyorlov yo‘nalishidan qat‘iy nazar barchasi uchun umumiy va fundamental

huquqiy bilimlarni shakllantirishga qaratilgan. Shuningdek, o'quvchilar ushbu fan orqali turli huquq sohalari hamda mamlakatimiz huquq tizimining mazmuni va mohiyati haqida umumiy tushunchaga ega bo'ladilar.

O'quvchilar ushbu fanni o'rganish orqali mamlakatimizda mavjud huquq tizimi, ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquq normalari, huquqiy munosabatlar, qonunchilikdagi yangiliklar haqida umumiy bilim va ko'nikmaga ega bo'ladilar. Bu esa, ularning huquqiy bilim va huquqiy dunyoqarashini rivojlantirish, huquqiy ong va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga xizmat qiladi.

“Huquqshunoslik” fani o'quv dasturi 40 soatga mo'ljallangan bo'lib, shundan 24 soat nazariy, 14 soat seminar mashg'ulotlari uchun ajratilgan. Mustaqil ishlar uchun ajratilgan soatlar 18 soatni tashkil etadi.

O'quv dasturining tarkibi oquvchilarning bilimi, konikmasi va malakasiga qo'yiladigan talablar, fanning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan aloqadorligi, fanni o'qitishda foydalaniladigan zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar, nazariy va seminar mashg'ulotlarni o'qitish, mustaqil ishlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatmalar, fan dasturining informatsion-uslubiy ta'minoti, o'quvchilarning bilimini baholash, fan mavzulari bo'yicha o'qitish rejasi tarkibi, o'quv dasturining mazmuni, tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

### **Fanning maqsadi va vazifalari**

***Fanning maqsadi:*** O'quvchilarga mamlakatimizda mavjud huquq sohalarining mazmuni va mohiyatini o'rgatish orqali ularning huquqiy bilimi, huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishdan iborat.

***Fanning vazifasi:*** O'quvchilarga davlat va huquqning paydo bo'lishi, rivojlanish qonuniyatlari, davlat va huquqning mohiyati, zaruriyati, davlat va huquqning shakllari, funksiyalari, tizimi haqidagi bilim va tushunchalarni, davlat va huquq nazariyasi; konstitutsiyaviy huquq, fuqarolik huquqiy munosabatlar; mehnatning huquqiy normalar bilan tartibga solinadigan munosabatlar; shuningdek, oila; jinoyat huquqi asoslari; xalqaro huquqiy munosabatlarning asoslarini o'rgatishga qaratilgan.

## **Fan bo'yicha o'quvchilarning bilimi, ko'nikmasi va malakalariga qo'yiladigan talablar**

O'quvchilar ushbu fanni organish orqali:

davlat va huquq tushunchasi, nazariyalar, huquq normalari, huquqiy munosabatlar, huquqiy davlat tushunchalari;

Konstitutsiyaviy huquq mazmunini, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining tarixiy rivojlanish bosqichlari, qabul qilinishi, uning tuzilishi va mazmunini;

Ma'muriy huquq asoslari, ma'muriy huquqiy munosabatlar tushunchasi, ularning subyektlari, ma'muriy javobgarlik, ma'muriy jazo turlari va ularni qo'llash tartibini, voyaga yetmaganlarning ma'muriy javobgarligi;

Fuqarolik huquqi tushunchasi, fuqarolik-huquqiy munosabatlar, ularning subyektlari, mulk huquqi tushunchasi, majburiyat huquqi;

tadbirkorlik faoliyatining huquqiy asoslari, tadbirkorlik faoliyati subyektlarining huquqiy maqomi;

Mehnat huquqi tushunchasi, jamoa shartnomalari va kelishuvlari, mehnat shartnomasi, mehnatga oid Xalqaro konvensiyalar, ishga qabul qilish tartibi, mehnat intizomi va mehnatni muhofaza qilish;

Oila huquqi tushunchasi, nikoh va uni tuzish tartibi, tugatilish asoslari, ota-ona va farzandlarning huquq va majburiyatlari; vasiylik va homiylik tushunchalari;

Jinoyat huquqi tushunchasini, jinoyatning tarkibi, jinoyatda ishtirokchilik, jinoiy jazo tushunchasi, turlari, ayb va uning shakllarini bilish, voyaga yetmaganlarning jinoiy javobgarligi xususiyatlari;

Ekologiya huquqi tushunchasi, ekologik huquqbuzarlik va javobgarlik;

Xalqaro huquq tushunchasi, xalqaro-huquqiy munosabatlar, ularning subyektlari, xalqaro huquq va milliy huquq tushunchalari haqida ***nazariy bilimlarga ega bolishi;***

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov asarlaridagi davlat va huquqqa oid g'oyalarni bilish va ular asosida mushohada yurita olish;

huquqiy munosabatlarni mustaqil tasniflash;

axloq va huquq normalarni bir-biridan ajrata olish;

normativ hujjatlarni farqlay olish;

ta'lim muassasasida o'rnatilgan tartib qoidalariga rioya qilish;

qonun ustuvorligiga rioya qilish;  
huquqiy vaziyatlarga darslik va qo‘shimcha adabiyotlardan mustaqil javob topa olish ***ko‘nikmalariga ega bolishi***;  
hayotda o‘zining mustaqil fuqarolik pozitsiyasini namoyon eta olishi;  
o‘z huquq va erkinliklarini himoya qila olish malakalariga ega bo‘lish;  
shartnoma va bitimlarni rasmiylashtira olish;  
mustaqil hayotda o‘zining xatti-harakatlarini huquq normalariga mos ravishda boshqara olish;  
huquqni qo‘llash, huquqni muhofaza qiluvchi funksiyalarni bilish hamda o‘z huquqlarini amalga oshirish;  
huquqiy munosabatlarni bir-biridan farqlay olish ***malakalariga ega bolishi lozim***.

**Fanning o‘quv rejadagi boshqa fanlar bilan o‘zaro bog‘liqligi, uslubiy jihatdan uzviyligi va ketma-ketligi**

“Huquqshunoslik” fani umumtalim fanlaridan “Nutq madaniyati va davlat tilida ish yuritish”, “Ona tili va adabiyot”, “Tarix”, “Ma’naviyat asoslari”, “Falsafiy fanlar”, “Oila psixologiyasi”, “O‘zbekiston Konstitutsiyasi”, “Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar” fanlari bilan uzviy bog‘liq hamda uslubiy jihatdan ketma-ketdir.

**Fanni o‘qitishda foydalaniladigan zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar**

***Zamonaviy axborot texnologiyalari:*** Kompyuter texnikasi, noutbuk, proektor, ovoz kuchaytirgich, printer, skayner, nusxa ko‘chirish apparati, elektron doska kabi multimedia vositalariga asoslangan holda o‘qitiladi.

***Zamonaviy pedagogik texnologiyalar:*** Dars jarayonida interfaol usullar va ta’lim texnologiyalaridan “Loyiha”, “Aqliy hujum”, “Klaster”, “Bumerang”, “Keys-stadi”, “Amaliy o‘yin”, “Elpig‘ich”, “Muammoli vaziyat”, “Nima uchun?”, “Qanday?”, “Tarmoqlash”, “Zinama-zina” va boshqa shu kabi pedagogik texnologiyalar qo‘llaniladi.

**Fan bo‘yicha nazariy, seminar mashg‘ulotlari va mustaqil ishlarni tashkil etish bo‘yicha ko‘rsatmalar**

***Nazariy mashg‘ulotlarni tashkil etish:*** O‘qituvchi ma’ruza matni orqali mavzu bo‘yicha o‘rgatilishi lozim bo‘lgan tushunchalarni reja asosida taqsimlagan holda bilim beradi. Mavzu bo‘yicha o‘quvchi minimal darajada

bilishi lozim bo'lgan tushunchalarni yozdiradi. Mavzu bo'yicha o'quvchilarning savollariga javob beradi, mavzuni mustahkamlaydi, yangi atamalar bo'yicha qo'llaydigan pedagogik texnologiyalar orqali o'quvchilarning ko'nikmasini shakllantiradi.

**Seminar mashg'ulotlarini tashkil etish:** O'tilgan mavzular bo'yicha o'quvchilar bilan savol-javob qiladi. O'quvchilar o'zlashtirishi qiyin bo'lgan tushunchalari qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalar asosida mustahkamlanadi. Mavzular bo'yicha o'quvchilarning mavzuni o'zlashtirganlik darajasidan kelib chiqqan holda mustaqil bajarishlari uchun topshiriqlar beradi.

**Mustaqil ishlarni tashkil etish:** O'qituvchi o'tilgan seminar mashg'ulotlari xususiyatidan kelib chiqqan holda mustaqil ish mavzulari ro'yxatini shakllantiradi, mustaqil ishlarni bajarish shaklini belgilaydi, mustaqil ishni bajarish bo'yicha tegishli ko'rsatma va tavsiyalar beradi. Mustaqil ishlar yakuniy nazorat o'tkazilgunga qadar tekshirib chiqilishi va baholanishi lozim. Mustaqil ishga qo'yilgan baholar joriy nazorat tarkibiga kiradi.

### **O'quv dasturining informatsion-uslubiy ta'minoti**

O'quv dasturining informatsion-uslubiy ta'minoti ma'ruza, seminar, mustaqil mashg'ulotlar uchun darslik, asosiy va qo'shimcha adabiyotlar, huquqiy adabiyotlar, gazeta va jurnallar, multimedia vositalari, internet materiallari, zamonaviy ta'lim texnologiyalari va metodlari, ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsion texnologiyalarni qo'llanilishini nazarda tutadi.

### **O'quvchilarning bilimlarini baholash**

Fan bo'yicha baholash joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar hamda mustaqil ish shaklida amalga oshiriladi. Mazkur baholash usullari o'quvchilarning bilim darajasini, tanqidiy va tahliliy fikrlash, notiqlik, o'z fikr va mulohazalarini mustaqil asoslab berish va himoya qilish, ularni yozma shaklda tizimli va samarali bayon etish ko'nikmalarini aniqlashga qaratilgan.

O'quvchilar joriy, oraliq va yakuniy nazorat bo'yicha "5", "4", "3" va "2" ballar qo'yish orqali baholanishi belgilangan.

*Belgilangan baholash turlari bo'yicha ballar quyidagi holatlarda qoyiladi:*

o'quvchilarning darslarga qatnashishdagi davomati va faolligi;

seminar mashg'ulotlariga tayyorgarlik darajasi;  
fan bo'yicha asosiy manbalarni konspektlashtirganligi;  
dolzarb mavzular bo'yicha mustaqil ishlar yozish, test savollari tuzish,  
jadvallar tayyorlash va nazorat ishi yozish;  
mustaqil ta'lim uchun berilgan nazorat ishlarini bajarish;  
fanga oid ko'rgazmali qurollar tayyorlash.

*Joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar mashg'ulotlar jarayonida amalga oshirilib, uning doirasida oquvchi quyidagilarni namoyon etadi:*

o'zlashtirilgan o'quv materiallarini chegaralangan vaqt doirasini e'tiborga olgan holda samarali bayon etish qobiliyati;

guruhda ishlash va amaliy misollarga tayangan holda xulosalar chiqarish yoki dalillar keltirish;

tanqidiy fikrlash, taraflarning fikrini eshitish va o'zining javoblarini tegishli huquqiy terminlardan foydalangan holda asoslab berish;

muayyan masalalarni hal qilish uchun tegishli huquq normalarini qo'llay olish ko'nikmalari;

huquqshunoslikka oid masala va vaziyatlarni yechimini topa olish qobiliyati;

mustaqil tarzda tadqiqot olib borish;

o'zi tomonidan ilgari surilgan fikrlarni mantiqiy izchillikda va mazmunan to'g'ri holatda yozma shaklda bayon etish;

tegishli normativ-huquqiy hujjatlardagi normalarni to'g'ri qo'llash va sharhlash;

o'zlashtirgan o'quv materiallari bo'yicha bilimlarini namoyon etish;

ijtimoiy-huquqiy hodisalarni bilish va tushunish;

tegishli huquqiy atamalardan foydalangan holda masalani adabiy va yuridik tilda bayon qilish;

o'z javobini tegishli huquq manbasi yoki normativ-huquqiy hujjatlarga havola qilgan holda asoslash;

yakuniy xulosalar chiqara olish va boshqalar.

## Fan mavzulari bo'yicha o'qitish rejasi tarkibi

№	Fanning bo'limlari va mavzulari	Umumiy yuklama, soat							
		Hammasi	Darslar turi bo'yicha soatlar taqsimoti (auditoriya yuklamasi)						Mustaqil ish
			Jami	Nazariy (ma'ruza)	Amaliy	Laboratoriya	Seminar	Kurs ishi (loyihasi)	
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
<b>I.bob. Davlat va huquq nazariyasi</b>		<b>6</b>	<b>4</b>	<b>2</b>			<b>2</b>		<b>2</b>
1.	Davlat va huquq nazariyasi. Davlat va huquqning kelib chiqishi, ijtimoiy mohiyati.	2	2	2					
2.	Huquqiy munosabatlar. Huquq normalari.	4	2				2		2
<b>II.bob. Konstitutsiyaviy huquq</b>		<b>2</b>	<b>2</b>	<b>2</b>					
3.	Konstitutsiyaviy huquq. Konstitutsiya va uning tarixiy rivojlanishi.	2	2	2					
<b>III.bob.Ma'muriy huquq asoslari</b>		<b>6</b>	<b>4</b>	<b>2</b>			<b>2</b>		<b>2</b>
4.	Ma'muriy huquq tushunchasi, tizimi va manbalari.	2	2	2					
5.	Ma'muriy huquqbuzarlik va ma'muriy javobgarlik tushunchasi. Voyaga yetmaganlarning ma'muriy javobgarligi.	4	2				2		2
<b>IV.bob.Fuqarolik huquqi asoslari</b>		<b>6</b>	<b>4</b>	<b>2</b>			<b>2</b>		<b>2</b>
6.	Fuqarolik huquqi. Fuqarolik huquqiy munosabatlar.	2	2	2					
7.	Mulk huquqi. Majburiyat huquqi. Shartnoma va bitimlar.	4	2				2		2
<b>V.bob.Tadbirkorlik faoliyatining huquqiy asoslari</b>		<b>6</b>	<b>4</b>	<b>2</b>			<b>2</b>		<b>2</b>
8.	Tadbirkorlik faoliyatini huquqiy tartibga solinishi. Tadbirkorlik faoliyati subyektlarining huquqiy maqomi.	2	2	2					
9.	Tadbirkorlik faoliyatini	4	2				2		2

	huquqiy himoya qilish tizimi. Iste'molchilar huquqlarini himoya qilinishi.							
<b>VI.bob.Mehnat huquqi asoslari</b>		<b>4</b>	<b>4</b>	<b>4</b>				
10.	Mehnat huquqi. Jamoa shartnomasi va kelishuvlari. Mehnat shartnomasi. Voyaga yetmaganlarning ishga qabul qilinish borasidagi huquq va majburiyatlari.	2	2	2				
11.	Mehnatga oid Xalqaro konvensiyalar: Xalqaro Mehnat Tashkilotining Ishga qabul qilish uchun eng kichik yosh to'g'risidagi 138-konvensiyasi (1973 yil 26 iyun) hamda Bolalar mehnatining og'ir shakllarini taqiqlash va yo'q qilishga doir shoshilinch choralar to'g'risidagi 182-konvensiyasi (1999 yil 17 iyun), "Majburiy mehnatni tugatish to'g'risida"gi 1957 yil 105-Konvensiya haqida umumiy tushuncha.	2	2	2				
<b>VII.bob.Oila huquqining asoslari</b>		<b>6</b>	<b>4</b>	<b>2</b>			<b>2</b>	<b>2</b>
12.	Oila huquqi asoslari. Nikoh. Nikohni tugatish asoslari.	2	2	2				
13.	Ota-onalar hamda bolalarning huquq va majburiyatlari	4	2				2	2
<b>VIII.bob. Jinoyat huquqi asoslari</b>		<b>10</b>	<b>6</b>	<b>4</b>			<b>2</b>	<b>4</b>
14.	Jinoyat huquqi. Jinoyat tarkibi.	2	2	2				
15.	Jinoiy jazo va uning turlari.	4	2	2				2
16.	Voyaga yetmaganlar jinoyati va uni oldini olish.	4	2				2	2
<b>IX.bob.Ekologiya huquqi asoslari</b>		<b>6</b>	<b>4</b>	<b>2</b>			<b>2</b>	<b>2</b>
17.	Ekologiya huquqi tushunchasi va manbalari.	2	2	2				
18.	Ekologik huquqbuzarliklar va javobgarlik.	4	2				2	2
<b>X.bob. Xalqaro huquq</b>		<b>6</b>	<b>4</b>	<b>2</b>			<b>2</b>	<b>2</b>
19.	Xalqaro huquqning tushunchasi va manbalari.	2	2	2				
20.	Xalqaro huquq va milliy huquq.	4	2				2	2
<b>JAMI</b>		<b>58</b>	<b>40</b>	<b>24</b>			<b>16</b>	<b>18</b>



## *O'quv dasturining mazmuni*

### **I. Bob. Davlat va huquq nazariyasi .**

#### **1-mavzu. Davlat va huquq nazariyasi.**

##### **Davlat va huquqning kelib chiqishi, ijtimoiy mohiyati.**

Davlat va huquq nazariyasi. Davlat va huquqning kelib chiqishi, ijtimoiy mohiyati. Davlatlar tasnifi. Huquqiy davlat, tushunchasi.

#### **2-mavzu. Huquqiy munosabatlar. Huquq normalari.**

Huquq manbalari. Huquq manbalarining turlari.

Huquqiy munosabatlar. Huquqiy munosabatlar subyektlari.

Huquq normalari.

### **II. Bob. Konstitutsiyaviy huquq.**

#### **3-mavzu. Konstitutsiyaviy huquq. Konstitutsiya va uning tarixiy rivojlanishi.**

Konstitutsiyaviy huquq. Konstitutsiya va uning tarixiy rivojlanishi. Konstitutsiya va uning tarixiy rivojlanishi.

Konstitutsiyaning asosiy funksiyalari, ustunligi va barqarorligi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini qabul qilish shart sharoitlari.

### **III. Bob. Ma'muriy huquq asoslari.**

#### **4-mavzu. Ma'muriy huquq tushunchasi, tizimi va manbalari.**

Ma'muriy huquq tushunchasi, manbalari.

Ma'muriy-huquqiy munosabatlar, ularning turlari.

Ma'muriy-huquqiy munosabat subyektlari.

#### **5-mavzu. Ma'muriy huquqbuzarlik va ma'muriy javobgarlik tushunchasi. Voyaga yetmaganlarning ma'muriy javobgarligi.**

Ma'muriy huquqbuzarlik tushunchasi.

Ma'muriy javobgarlik tushunchasi. Ma'muriy jazo.

Korrupsiyaga qarshi kurashishga oid ma'muriy qonunchilik.

Voyaga yetmaganlarning ma'muriy huquqbuzarligi. Voyaga yetmaganlarning ma'muriy javobgarligi.

#### **IV. Bob. Fuqarolik huquqi asoslari.**

##### **6-mavzu. Fuqarolik huquqi. Fuqarolik huquqiy munosabatlar.**

Fuqarolik huquqi tushunchasi, manbalari. Fuqarolik huquqi munosabatlari. Ularning subyektlari va obyektlari. Oʻn toʻrt yoshdan oʻn sakkiz yoshgacha boʻlgan voyaga yetmaganlarning muomala layoqati. Yuridik shaxslar. Korrupsiyaga qarshi kurashishga oid fuqarolik qonunchiligi. Bitimlar, majburiyatlar va shartnomalar tushunchasi, ularning shakllari

##### **7-mavzu. Mulk huquqi. Majburiyat huquqi. Shartnoma va bitimlar.**

Mulk huquqi tushunchasi. Mulk shakllari. Mulk huquqi subyektlari va obyektlari. Intellektual mulk tushunchasi, turlari.

#### **V. Bob. Tadbirkorlik faoliyatining huquqiy asoslari.**

##### **8-mavzu. Tadbirkorlik faoliyatini huquqiy tartibga solinishi.**

##### **Tadbirkorlik faoliyati subyektlarining huquqiy maqomi.**

Tadbirkorlik faoliyatining huquqiy asoslari tushunchasi va tizimi. Tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan huquqiy tartibga solinishi. Tadbirkorlik faoliyatining subyektlari va ularning huquqiy maqomi. Tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari bitiruvchilariga tadbirkorlik sohasida yaratilayotgan shart-sharoit va imkoniyatlarning huquqiy asoslari.

##### **9-mavzu. Tadbirkorlik faoliyatini huquqiy himoya qilish tizimi.**

##### **Isteʼmolchilar huquqlarini himoya qilinishi.**

Tadbirkorlik faoliyatini huquqiy himoya qilish mexanizmi. Tadbirkorlik faoliyatini huquqiy himoya qilishga oid qonun hujjatlari. Tadbirkorlik faoliyatini himoya qiluvchi davlat organlari. Tadbirkorlik faoliyatini sud tomonidan himoya qilinishi.

Isteʼmolchilarning huquqlarini himoya qilish toʻgʻrisidagi qonun hujjatlari. Isteʼmolchiga nuqsonli tovar sotilgan taqdirda moddiy va maʼnaviy zararni qoplash tartibi. Tovar (ish, xizmat)ning nuqsonlari tufayli etkazilgan zarar uchun mulkiy javobgarlik. Isteʼmolchilar huquqlarining davlat tomonidan himoya qilinishi.

## **VI. BOB. Mehnat huquqi asoslari.**

### **10-mavzu. Mehnat huquqi. Jamoa shartnomasi va kelishuvlari. Mehnat shartnomasi. Voyaga yetmaganlarning ishga qabul qilinish borasidagi huquq va majburiyatlari.**

Mehnat huquqi tushunchasi. Mehnatga oid munosabatlar subyektlari. Ish beruvchi va xodim tushunchasi. Ish beruvchi va xodimning asosiy huquqlari. Voyaga yetmaganlarning ishga qabul qilinish borasidagi huquq va majburiyatlari.

Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarini ish bilan bandligini ta'minlashga oid normativ-huquqiy hujjatlar mazmuni. Mehnat jamoasi. Jamoa shartnomasi, tushunchasi, turlari.

Ayrim toifadagi xodimlarga beriladigan imtiyozlar. Ayollar va yoshlar uchun beriladigan kafolatlar: O'zbekiston Respublikasida akademik litsey va kasb-hunar kollejlari bitiruvchilari uchun tashkil etilayotgan bo'sh ish o'rinlari va mehnat yarmarkalarining huquqiy asoslari.

Ish vaqti. Dam olish vaqti. Mehnatga haq to'lash.

Mehnat intizomi. Mehnatni muhofaza qilish. Davlat ijtimoiy sug'urtasi.

**11-mavzu. Mehnatga oid Xalqaro konvensiyalar:** Xalqaro Mehnat Tashkilotining Ishga qabul qilish uchun eng kichik yosh to'g'risidagi 138-konvensiyasi (1973-yil 26-iyun) hamda Bolalar mehnatining og'ir shakllarini taqiqlash va yo'q qilishga doir shoshilinch choralar to'g'risidagi 182-konvensiyasi (1999-yil 17-iyun), "Majburiy mehnatni tugatish to'g'risida"gi 1957- yil 105-Konvensiya haqida umumiy tushuncha.

Mehnatga oid Xalqaro konvensiyalar: Xalqaro Mehnat Tashkilotining Ishga qabul qilish uchun eng kichik yosh to'g'risidagi 138-konvensiyasi (1973- yil 26- iyun) hamda Bolalar mehnatining og'ir shakllarini taqiqlash va yo'q qilishga doir shoshilinch choralar to'g'risidagi 182-konvensiyasi (1999- yil 17-iyun), "Majburiy mehnatni tugatish to'g'risida"gi 1957-yil 105-Konvensiya haqida umumiy tushuncha. Mehnat shartnomasi tushunchasi. Ishga qabul qilish tartibi.

## **VII. Bob. Oila huquqining asoslari.**

### **12-mavzu. Oila huquqi asoslari. Nikoh. Nikohni tugatilish asoslari.**

Oila huquqi tushunchasi, manbalari. Nikoh. Erta turmush qurish va uning huquqiy oqibatlari. Nikohning tugatilishi. Er va xotinning mulkka oid huquq va majburiyatlari.

### **13-mavzu. Ota-onalar hamda bolalarning huquq va majburiyatlari**

Ota-onalar hamda bolalarning huquq va majburiyatlari.

O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik togrisidagi kodeksining 47, 47<sup>1</sup>, 47<sup>2</sup>-moddalari, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 125<sup>1</sup>-moddasi.

Farzandlikka olish. Voyaga yetmaganlarga nisbatan vasiylik va homiylik.

## **VIII. Bob. Jinoyat huquqi asoslari.**

### **14-mavzu. Jinoyat huquqi. Jinoyat tarkibi.**

Jinoyat huquqi tushunchasi va manbalari. Jinoyat belgilari. Jinoyat tarkibi. Jinoyat obyekti. Jinoyatning obyektiv tomoni. Jinoyat subyekti. Jinoyatning subyektiv tomoni. Korrupsiyon jinoyatlar. Korrupsiyaga qarshi kurashishga oid jinoiy qonunchilik. Ayb va uning shakllari. Jinoyatni tasniflash. Jinoyat ishtirokchilari. Jazo tushunchasi, turlari va maqsadlari. Jinoiy jazo va uni tayinlash.

### **15-mavzu. Jinoiy jazo va uning turlari.**

Jinoiy jazo tushunchasi, maqsadlari, turlari. Jazo tayinlash. Javobgarlikdan ozod qilish turlari. Jazodan ozod qilish turlari. Sudlanganlik.

### **16-mavzu. Voyaga yetmaganlar jinoyati va uni oldini olish.**

Voyaga yetmaganlar jinoyati va ularning turlari. Voyaga yetmaganlarni jinoiy javobgarlikka tortish asoslari. Voyaga yetmaganlar uchun qo'llaniladigan jazolar va ularning turlari.

## **IX. Bob. Ekologiya huquqi asoslari.**

### **17-mavzu. Ekologiya huquqi tushunchasi va manbalari.**

Ekologiya huquqi tushunchasi, ahamiyati va tizimi. Ekologiya huquqi manbalari tizimi va turlari.

### **18-mavzu. Ekologik huquqbuzarliklar va javobgarlik.**

Ekologik huquqbuzarlik va javobgarlik tushunchasi, ularning turlari. Ekologik huquqbuzarlik va javobgarlikning vujudga kelish asoslari.

## **X. Bob. Xalqaro huquq.**

### **19-mavzu. Xalqaro huquqning tushunchasi va manbalari.**

Xalqaro huquqning vujudga kelishi. “Xalqaro huquq” tushunchasi. Xalqaro huquq manbalari. Xalqaro huquq funksiyalari.

### **20-mavzu. Xalqaro huquq va milliy huquq.**

Xalqaro huquq va milliy huquq. Xalqaro huquq obyektlari va subyektlari. Korrupsiyaga qarshi BMT konvensiyasi Korrupsiyaga qarshi BMT konvensiyasi. (Nyu-York, 2003 -yil 31- oktyabr).

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:**

- 1.1. Karimov I.A. O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-jild. – T.: O‘zbekiston, 1996. – 364 b.
- 1.2. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash – davr talabi. 5-jild. – T.: O‘zbekiston.1997. – 384 b.
- 1.3. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo‘lida. 6-jild. – T.: “O‘zbekiston”. 1998. – 429 b.
- 1.4. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz. 7-jild. – T.: “O‘zbekiston”. 1999. – 413 b.
- 1.5. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz. 8-jild. – T.: “O‘zbekiston”. 2000. – 525 b.
- 1.6. Karimov I.A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. 10-jild. – T.: “O‘zbekiston”. 2002. – 432 b.
- 1.7. Karimov I.A. Tinchlik va xavfsizligimiz o‘z kuch-qudratimizga, hamjihatligimiz va qat’iy irodamizga bog‘liq. 12-jild. – T.: “O‘zbekiston”. 2004. – 400 b.
- 1.8. Karimov I.A. O‘zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo‘lmaydi. 13-jild. – T.: “O‘zbekiston” 2005. – 448 b.
- 1.9. Karimov I.A. Inson, uning huquq va erkinliklari – oliy qadriyat. 14-jild. – T.: “O‘zbekiston” 2006. –280 b.
- 1.10. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. –T.: “Ma’naviyat”. 2008. –174 b.
- 1.11. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari –T.:”O‘zbekiston». 2009 – 56 b.

- 1.12. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. T.: “O‘zbekiston”. 2010- y.
- 1.13. Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: “O‘zbekiston”. 2011- y.
- 1.14. Karimov I.A. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Qo‘shma majlisidagi nutqi. “Xalq so‘zi”. 2015- yil 11- aprel.
- 1.15. Karimov I.A. O‘tganlarni xotirlash, keksalarni e‘zozlash – bizning farzandlik burchimizdir. “Xalq so‘zi”. 2015- yil 10- may.
- 1.16. Karimov I.A. Ona yurtimizning baxt –u iqboli va buyuk kelajagi yo‘lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. – T.: “O‘zbekiston “.2015. 304 b.

## **II. Normativ-huquqiy hujjatlar**

- 2.1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: “O‘zbekiston”. //2015- y.
- 2.2. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. – T.: “Adolat”. 2015 - y.
- 2.3. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi. – T.: “Adolat”. 2015 y.
- 2.4. O‘zbekiston Respublikasining Xo‘jalik protsessual kodeksi. – T.: “Adolat”. 2015 y.
- 2.5. O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi. – T.: “Adolat”. 2015- y.
- 2.6. O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi. – T.: “Adolat”, 2015- y.
- 2.7. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. – T.: “Adolat”. 2015
- 2.8. O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi. – T.: “Adolat”. 2015- y.
- 2.9. O‘zbekiston Respublikasining «Ta‘lim to‘g‘risida»gi qonuni// O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997- yil, 9-son, 225-modda.
- 2.10. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi// O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997- yil, 11-12-son, 295-modda.
- 2.11. O‘zbekiston Respublikasining Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi// O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997 -yil, 9-son, 227-modda.

- 2.12. O‘zbekiston Respublikasining 2008 yil 7 yanvardagi “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonuni// O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. 2008- yil, 1-2-son, 1-modda.
- 2.13. “Ishga qabul qilish uchun eng kichik yosh to‘g‘risida”gi 138-sonli Konvensiya (Jeneva 6 iyun 1973) O‘zbekiston Respublika qonuni bilan 2008- yil 7- aprelda ratifikatsiya qilingan.
- 2.14. “Bolalar mehnatining og‘ir shakllarini ta‘qiqlash va yo‘q qilishga doir shoshilinch choralar to‘g‘risida”gi 182-Konvensiya (Jeneva 17-iyun 1999).
- 2.15. “Majburiy mehnatni tugatish to‘g‘risida”gi 1957-yil 105-Konvensiya
- 2.16. Korrupsiyaga qarshi BMT Konvensiyasi (Nyu-York, 2003- yil 31-oktyabr). O‘zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalari to‘plami. 2008-yil, 3-4-son, 19-20-moddalar.
- 2.17. O‘zbekiston Respublikasining 2010- yil 29- sentyabrdagi “Voyaga yetmaganlarning nazoratsizligi va huquqbuzarligining profilaktikasi to‘g‘risida”gi qonuni// O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2010- yil, 39-son, 341-modda.
- 2.18. O‘zbekiston Respublikasining “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi (yangi tahrirdagi) qonuni// O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2012- yil, 18-son, 201-modda.
- 2.19. O‘zbekiston Respublikasining “Oilaviy tadbirkorlik to‘g‘risida”gi qonuni// O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2012- yil, 17-son, 188-modda.
- 2.20. O‘zbekiston Respublikasining “Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonuni// O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2012- yil, 39-son, 446-modda.
- 2.21. O‘zbekiston Respublikasining “Tadbirkorlik sohasida ruxsat berish tartib taomillari to‘g‘risida”gi qonuni// O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2012 yil, 51-son, 575-modda.
- 2.22. O‘zbekiston Respublikasining 2012-yil 24- dekabrdagi “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi qonuni// O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2012 -yil, 52-son, 583-modda.
- 2.23. O‘zbekiston Respublikasining 2014-yil 14-maydagi “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi qonuni// O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2014- yil, 20-son, 221-modda.
- 2.24. O‘zbekiston Respublikasining 2014-yil 5-maydagi “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to‘g‘risida”gi qonuni//

O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2014- yil, 19-son, 209-modda.

2.25. O'zbekiston Respublikasining 2014- yil 3- dekabrda "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi qonuni// O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2014- yil, 49-son, 578-modda.

### **III. Asosiy darslik va o'quv qo'llanmalar**

3.1. Davlat va huquq nazariyasi, (Prof. X.Odilqoriyevning tahriri ostida). – T.: "Sharq". 2009.

3.2. Oilada barkamol avlod tarbiyasi. (o'quv qo'llanma). –T.: 2010 y.

3.3. "Ishga qabul qilish uchun eng kichik yosh to'g'risida"gi 138-sonli Konvensiya (Jeneva 6- iyun 1973) O'zbekiston Respublika qonuni bilan 2008- yil 7- aprelda ratifikatsiya qilingan.

3.4. "Bolalar mehnatining og'ir shakllarini ta'qiqlash va yo'q qilishga doir shoshilinch choralar to'g'risida"gi 182-Konvensiya (Jeneva 17-iyun 1999).

3.5. Korrupsiyaga qarshi BMT konvensiyasi. (Nyu-York, 2003- yil 31-oktyabr). O'zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalari to'plami. 2008-yil, 3-4, 19-20-moddalar.

3.6. O'zbekiston Respublikasi tomonidan ratifikatsiya qilingan Xalqaro mehnat tashkilotining Konvensiyalari: qisqacha mazmuni, implementatsiya, kasaba uyushmalari tomonidan qo'llash amaliyoti. /T.K.Narbayevning umumiy tahriri ostida. – T.:O'zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashi, 2012. 88 bet./

3.7. Odilqoriev X.,O'zbekiston Respublikasining qonunchilik tizimi. –T.: 2008.

3.8. Temur tuzuklari. OzRFA. –T: "O'zbekiston", 2011- y.

3.9. Abu Nosir Forobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti. 2006- y.

3.10. Karimova O. Huquqshunoslik. – T.: "Sharq". 2015- y.

### **IV. Internet resurslari**

- 4.1. [www.press-service.uz](http://www.press-service.uz) – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining matbuot xizmati
- 4.2. [www.gov.uz](http://www.gov.uz) – O'zbekiston Respublikasi Hukumati portali



- 4.3. [www.senat.uz](http://www.senat.uz) – O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati
- 4.4. [www.parliament.gov.uz](http://www.parliament.gov.uz) – O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi
- 4.5. [www.supcourt.uz](http://www.supcourt.uz) – O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi
- 4.6. [www.genprok.gov.uz](http://www.genprok.gov.uz) – O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi
- 4.7. [www.minjust.uz](http://www.minjust.uz) – O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi
- 4.8. [www.ombudsman.gov.uz](http://www.ombudsman.gov.uz) – O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili (Ombudsman)
- 4.9. [www.scrc.uz](http://www.scrc.uz) – O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi huzuridagi Sud qonunchiligini demokratlashtirish va liberallashtirish hamda sud tizimi mustaqilligini ta‘minlash bo‘yicha tadqiqot markazi
- 4.10. [www.tsul.uz](http://www.tsul.uz) – Toshkent davlat yuridik universiteti
- 4.11. [www.vuk.uz](http://www.vuk.uz) – O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining Oliy o‘quv kurslari
- 4.12. [www.uzmarkaz.uz](http://www.uzmarkaz.uz) – Yuristlar malakasini oshirish markazi
- 4.13. [www.huquqburch.uz](http://www.huquqburch.uz) – “Huquq va burch” ijtimoiy-huquqiy jurnali
- 4.14. [www.insonvaqonun.uz](http://www.insonvaqonun.uz) – “Inson va qonun” huquqiy gazetasi
- 4.15. [www.lex.uz](http://www.lex.uz) – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi
- 4.16. [www.metod.uz](http://www.metod.uz) – O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini Axborot-metodik ta’minlash xizmati
- 4.17. [www.ziyo-net.uz](http://www.ziyo-net.uz) – Axborot ta’lim tarmog‘i

## **O‘zbekiston konstitutsiyasi**

### **O‘quv dasturni takomillashtirish bo‘yicha ishchi guruh a‘zolari:**

- Ochilov S.K. – O‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi muassasalari axborot-metodik ta’minlash xizmati yetakchi metodisti
- Choriyev M.Sh. – Toshkent davlat yuridik universiteti qoshida akademik litseyning o‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari
- Ernazarova U.N. – O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti o‘qituvchisi
- Rasulova G.A. – O‘zbekiston Milliy universiteti qoshida S.H.Sirojiddinov nomli akademik litseyning huquqshunoslik fani o‘qituvchisi
- Lutfullayeva F.B. – Toshkent davlat yuridik universiteti qoshida akademik litseyning “Huquq va maxsus fanlar kafedrasini” mudiri

### **Taqrizchi:**

- Zulfiqorov Sh.X. – Toshkent davlat yuridik universiteti “Davlat huquqi va boshqaruvi” kafedrasini mudiri

## Kirish

O‘zbek xalqining istiqboldagi asosiy maqsadi insonparvar, demokratik huquqiy davlatni va fuqarolik jamiyatini bunyod etishga qaratilgan bo‘lib, bu borada jamiyatning barcha sohalarida tubdan yangilanishlar va bunyodkorlik ishlari amalga oshirilmoqda.

Shuni aytish kerakki, huquqiy davlat o‘z-o‘zidan bunyod bo‘lmaydi. Buning uchun hayotda Konstitutsiya va qonunlarning ustuvorligi ta‘minlanishi hamda yuksak huquqiy ong va huquqiy madaniyatning qaror topishi zarur. Chunki Konstitutsiya davlatni davlat, millatni millat sifatida dunyoga tanitadigan oliy yuridik kuchga ega huquqiy hujjatdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisida (2010-yil 12-noyabr) bayon etgan “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish Konsepsiyasi”da ta‘kidlaganidek, “...mamlakatimizning demokratik taraqqiyotini ta‘minlash va fuqarolik jamiyatini shakllantirishning asosiy prinsiplarini belgilab bergan Konstitutsiyamizning qoida va normalariga tayanish alohida ahamiyat kasb etadi”.

Konstitutsiya xalqimizning xohish irodasini, adolatli davlat, farovon jamiyat va erkin hayot qurish va uni rivojlantirishning istiqbollarini belgilaydi. Unda inson hayoti, uning sha‘ni, qadr-qimmatini, haq-huquqlari va boshqa manfaatlari oliy qadriyat sifatida mustahkamlab qo‘yilgan.

Mustaqillik Konstitutsiyasi mazmunida mujassam bo‘lgan ilg‘or g‘oyalarga va axloqiy-huquqiy qoidalarga amal qilib hayotda yashashni turmush tarzining ajralmas uzviy qismga aylantirish hamda oliy qadriyat hisoblangan insonning huquqlari, erkinliklari va burchlarining og‘ishmay bajarilishini ta‘minlash davr talabidir.

Konstitutsiya va qonunlarning hayotda amaliy ifodasini topishida o‘z-o‘ziga kelayotgan yosh avlodning Konstitutsiya va uning asosida qabul qilingan qonunlarning mazmun-mohiyati to‘g‘risida huquqiy bilimga egaligi, huquqiy ongi va huquqiy madaniyatning yuksakligi muhim rol o‘ynaydi.

Shu bois davlatimiz tomonidan ta‘limning barcha tizimlarida yoshlarning huquqiy ongi, tafakkuri va madaniyatini tarbiyalashga hamda huquqiy ta‘limning o‘quv-moddiy va uslubiy ta‘minotini yaxshilashga

alohida e'tibor berib kelinmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2001-yil 4-yanvarda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganishni tashkil etish to'g'risida"gi Farmoyishi asosida Respublika Konstitutsiyasini o'rganishning alohida o'quv kursi sifatida ta'lim tizimiga joriy qilinishi huquqiy ta'limni rivojlantirish sohasida diqqatga sazovor tarixiy qadamlardan biri bo'ldi.

Ushbu Farmoyishdan kelib chiqib, ta'lim tizimining muhim bo'g'ini hisoblangan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimidagi o'quv muassasalarida ta'lim olayotgan o'quvchilarning Konstitutsiya va qonunlar to'g'risidagi nazariy va amaliy bilimlarini yanada boyitish hamda mustahkamlash maqsadida "O'zbekiston Konstitutsiyasi" fani kiritildi.

Ushbu fanning o'quv dasturida Asosiy Qonunimizning mazmun-mohiyatini zamon talablari darajasida o'quvchilarga singdirish hamda amaliy mashg'ulotlar orqali o'quvchilarda qonunlarga hayotda rioya qilib yashash ko'nikma va malakalarini shakllantirish, shuningdek, o'quvchilarning qonun hujjatlarini mustaqil o'rganishlari va mutolaa qilishlari zarurligiga asosiy e'tibor qaratilgan.

Mazkur o'quv dasturida boshqa ta'lim bosqichlarida Konstitutsiya to'g'risidagi bilimlarining takrorlanmasligi, izchilligi, uzluksizligini ta'minlash hamda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimi o'quv muassasalari va ularda ta'lim olayotgan o'quvchilarning yosh xususiyatlari hisobga olingan.

O'quvchilarga Konstitutsiyada mustahkamlangan qoidalar va ular asosida qabul qilingan amaldagi qonunlarni o'rgatish, ularga kundalik hayotda rioya qilish qanchalik zarur ekanligini anglatish o'quv dasturi mazmunining asosiy negizini tashkil qiladi.

Chunki Konstitutsiya va uning asosida qabul qilingan qonunlarni bevosita o'zaro tabiiy uyg'unlik asosida o'rganish o'quvchilarda Konstitutsiya haqidagi bilimlarining yanada chuqurroq, mukammalroq bo'lishiga asos bo'ladi. O'quvchilarda Konstitutsiya va qonunlarga hurmatda bo'lish, o'z huquqlaridan to'g'ri foydalanish, burchlarini halol va vijdonan bajarish his -tuyg'ularining tarbiyalanishiga zamin yaratadi.

O'zbekiston Respublikasining huquq tizimida Konstitutsiyaning o'rni va ahamiyati, Konstitutsiyani o'rganishning zarurligi, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi asosida qabul qilingan qonunlarni bilish

muhimligi, “O‘zbekiston Konstitutsiyasi” fanining predmeti, maqsadi va vazifalari muhim ahamiyatga egadir.

“O‘zbekiston Konstitutsiyasi” fani o‘quv dasturi 40 soatga mo‘ljallangan bo‘lib, shundan 22 soat nazariy, 18 soat seminar mashg‘ulotlari uchun ajratilgan. Mustaqil ishlar uchun ajratilgan soatlar 18 soatni tashkil etadi.

O‘quv dasturining tarkibi oquvchilarning bilimi, konikmasi va malakasiga qo‘yiladigan talablar, fanning o‘quv rejadagi boshqa fanlar bilan aloqadorligi, fanni o‘qitishda foydalaniladigan zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar, nazariy va seminar mashg‘ulotlarni o‘qitish, mustaqil ishlarni tashkil etish bo‘yicha ko‘rsatmalar, fan dasturining informatsion-uslubiy ta‘minoti, o‘quvchilarning bilimini baholash, fan mavzulari bo‘yicha o‘qitish rejasi tarkibi, o‘quv dasturining mazmuni, tavsiya etiladigan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat.

### **Fanning maqsadi va vazifalari**

**Fanning maqsadi:** Konstitutsiya va qonunlar bo‘yicha chuqur nazariy va amaliy bilimlar berish, Konstitutsiyaning jamiyatdagi o‘rni va ahamiyatini, uning mazmun-mohiyatini o‘quvchilar ongiga singdirish, qonunlarga hurmat uyg‘otish, yosh avlodning huquqiy ongini oshirish va huquqiy madaniyatini yuksaltirish hamda huquqiy davlatni bunyod etishda faol ishtirok qiladigan huquqiy bilimga ega komil insonni tarbiyalashga qaratilgan.

**Fanning vazifasi:** “O‘zbekiston Konstitutsiyasi” fanini o‘qitishdan ko‘zlangan maqsadga erishish quyidagi vazifalarni amalga oshirishga qaratilgan:

Konstitutsiya va qonunlar mazmunida mujassam bo‘lgan ilg‘or g‘oyalarga va axloqiy-huquqiy qoidalarga amal qilib hayotda yashashni turmush tarzining ajralmas uzviy qismiga aylantirish;

konstitutsiyaviy qonun bo‘yicha beriladigan ta‘limni yuqori ilmiy-nazariy va tarbiyaviy saviyada amalga oshirish orqali o‘quv jarayonini faollashtirish;

har bir o‘quvchini hayotdagi amaliy faoliyatida zarur bo‘lgan Konstitutsiya bo‘yicha huquqiy bilimlar bilan qurollantirish;

konstitutsiyaviy qonunlarning mazmun va mohiyatini o‘rgatish orqali o‘quvchilarni kelajakka ishonch ruhida tarbiyalash;

o'quvchilarning huquqiy ongi va huquqiy tafakkurini zamon talablari darajasida shakllantirishga erishish;

o'quvchilarning Konstitutsiya va qonunlar bo'yicha huquqiy savodxonligini oshirish va ularda huquqiy madaniyatli bo'lish his-tuyg'ularini tarbiyalash;

o'quvchilarda Konstitutsiya va uning asosida qabul qilingan qonunlarga nisbatan e'tiqodni shakllantirib borish;

umuminsoniy va milliy huquqiy qadriyatlarga hurmat-ehtiromni uyg'otish;

o'quvchilarni qonun hujjatlarida mustahkamlangan huquqiy qoidalarni hayotda qo'llay bilishga o'rgatish;

o'quvchilarga inson huquq va erkinliklari – ayni vaqtda muayyan burch, majburiyat va mas'uliyat ekanligini teran anglatish;

Konstitutsiya va qonun hujjatlari ustida mustaqil ishlash va erkin mutolaa qilishga o'rgatish;

o'quvchilarning o'zi egallayotgan mutaxassislik va kasb-hunar yo'nalishi bo'yicha huquqiy bilimlarini boyitish;

yuksak xulq-atvor fazilatlarini bilan o'zgaralarga namuna bo'la olishga o'rgatish;

jamiyat va inson manfaatlariga zararli harakatlarga, diniy ekstremizm, aqidaparastlik, huquqbuzarliklarga qarshi kurashish immunitetini hosil qilish;

jamiyatdagi voqea va hodisalarni huquqiy jihatidan mantiqiy tafakkur qilish va munosabat bildira olish layoqatini shakllantirish;

qonunchilikni yaratish yo'lidagi tarixiy tajribalarni va huquqiy ta'lim rivojlanishini tushuntirish;

o'quvchilarning huquqiy bilimlarini boyitish orqali ularning jamiyat hayotidagi ijtimoiy huquqiy faolligini ta'minlash;

jamiyat hayotidagi, huquqiy sohadagi o'zgarishlarni teranroq anglash va zarur ilmiy, g'oyaviy, tarbiyaviy xulosalar chiqarish hamda milliy istiqloq mafkurasining shakllanishiga yordam berish;

o'quvchilarni ijodiy, mustaqil va erkin fikrlash, olgan bilimlarini ishonchli tarzda hayotga tatbiq etish, qo'shimcha manbalar, me'yoriy

hujjatlar hamda ommaviy axborot vositalaridan foydalanish qobiliyatlarini shakllantirish;

Konstitutsiya va qonunlar bo'yicha olgan huquqiy bilimlari natijasida o'z hayotining kelajagini belgilash, o'z Vatanining dunyoda munosib o'rin egallashida halol mehnat qilish bilan hissa qo'shish hamda boshqa millat vakillarining huquqiy manfaatlarini hurmat qilish ruhida tarbiyalashdan iboratdir.

### **Fan bo'yicha o'quvchilarning bilimi, ko'nikmasi va malakalariga qo'yiladigan talablar**

O'quvchilar ushbu fanni organish orqali:

O'zbekiston Konstitutsiyasining yaratilishi va uning asosiy xususiyatlarini, asosiy prinsiplari;

O'zbekiston Respublikasida fuqarolik, inson huquq va erkinliklarining kafolatlari hamda burchlari, O'zbekiston Respublikasining saylov tizimi;

jamiyatning iqtisodiy negizlari, jamoat birlashmalari, oila va ommaviy axborot vositalarining konstitutsiyaviy maqomi;

O'zbekiston Respublikasining ma'muriy hududiy tuzilishi, davlat hokimiyati tizimi va ularning vazifalari, Qoraqalpog'iston Respublikasining huquqiy maqomi;

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining konstitutsiyaviy maqomi;

Mahalliy davlat hokimiyati organlari, fuqarolarning o'zini-o'zini boshqarish organlari;

O'zbekiston Respublikasi sud hokimiyati va uning tizimi;

O'zbekiston Respublikasida prokuratura, mudofaa va xavfsizlik tizimi;

O'zbekiston Respublikasining moliya va kredit tizimi;

Konstitutsiyaga o'zgartirish kiritish tartibi haqida ***nazariy bilimlarga ega bo'lishi;***

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov asarlaridagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga oid g'oyalarni bilish va ular asosida mushohada yurita olish;

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidagi huquq va burchlarini mohiyatini tushunish va ularga rioya qilish;

davlat hokimiyati organlarining bo'linish prinsipi hamda ularning vazifalarini anglay bilish;

Konstitutsiyaviy normalar mazmunini tushuntirishga qaratilgan mustaqil ishlar tayyorlay olish ***ko'nikmalariga ega bolishi;***

konstitutsiyaviy huquqlaridan hayotda mustaqil foydalana olish;  
konstitutsiyaviy burchlarini anglash va ularni ongli ravishda bajarish;  
konstitutsiyaviy normalarni anglash orqali davlat va jamiyat hayotida faol ishtirok etish;  
siyosiy huquqlaridan foydalanish;  
o'z konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini himoya qila olish *malakalariga ega bolishi lozim.*

### **Fan bo'yicha nazariy, seminar mashg'ulotlari va mustaqil ishlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatmalar**

***Nazariy mashg'ulotlarni tashkil etish:*** O'qituvchi ma'ruza matni orqali mavzu bo'yicha o'rgatilishi lozim bo'lgan tushunchalarni reja asosida taqsimlagan holda bilim beradi. Mavzu bo'yicha o'quvchi minimal darajada bilishi lozim bo'lgan tushunchalarni yozdiradi. Mavzu bo'yicha o'quvchilarning savollariga javob beradi, mavzuni mustahkamlaydi, yangi atamalar bo'yicha qo'llaydigan pedagogik texnologiyalar orqali o'quvchilarning ko'nikmasini shakllantiradi.

***Seminar mashg'ulotlarini tashkil etish:*** O'tilgan mavzular bo'yicha o'quvchilar bilan savol-javob qiladi. O'quvchilar o'zlashtirishi qiyin bo'lgan tushunchalarni qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalar asosida mustahkamlanadi. Mavzular bo'yicha o'quvchilarning mavzuni o'zlashtirganlik darajasidan kelib chiqqan holda mustaqil bajarishlari uchun topshiriqlar beradi.

***Mustaqil ishlarni tashkil etish:*** O'qituvchi o'tilgan seminar mashg'ulotlari xususiyatidan kelib chiqqan holda mustaqil ish mavzulari ro'yxatini shakllantiradi, mustaqil ishlarni bajarish shaklini belgilaydi, mustaqil ishni bajarish bo'yicha tegishli ko'rsatma va tavsiyalar beradi. Mustaqil ishlar yakuniy nazorat o'tkazilgunga qadar tekshirib chiqilishi va baholanishi lozim. Mustaqil ishga qo'yilgan baholar joriy nazorat tarkibiga kiradi.

### **O'quv dasturining informatsion-uslubiy ta'minoti**

O'quv dasturining informatsion-uslubiy ta'minoti ma'ruza, seminar, mustaqil mashg'ulotlar uchun darslik, asosiy va qo'shimcha adabiyotlar, huquqiy adabiyotlar, gazeta va jurnallar, multimedia vositalari, internet materiallari, zamonaviy ta'lim texnologiyalari va metodlari, ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsion texnologiyalarni qo'llanilishini nazarda tutadi.



## **O‘quvchilarning bilimlarini baholash**

Fan bo‘yicha baholash joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar hamda mustaqil ish shaklida amalga oshiriladi. Mazkur baholash usullari o‘quvchilarning bilim darajasini, tanqidiy va tahliliy fikrlash, notiqlik, o‘z fikr va mulohazalarini mustaqil asoslab berish va himoya qilish, ularni yozma shaklda tizimli va samarali bayon etish ko‘nikmalarini aniqlashga qaratilgan.

O‘quvchilar joriy, oraliq va yakuniy nazorat bo‘yicha “5”, “4”, “3” va “2” ballar qo‘yish orqali baholanishi belgilangan.

*Belgilangan baholash turlari bo‘yicha ballar quyidagi holatlarda qoyiladi:*

- o‘quvchilarning darslarga qatnashishdagi davomati va faolligi;
- seminar mashg‘ulotlariga tayyorgarlik darajasi;
- fan bo‘yicha asosiy manbalarni konspektlashtirganligi;
- dolzarb mavzular bo‘yicha mustaqil ishlar yozish, test savollari tuzish, jadvallar tayyorlash va nazorat ishi yozish;
- mustaqil ta‘lim uchun berilgan nazorat ishlarini bajarish;
- fanga oid ko‘rgazmali qurollar tayyorlash.

*Joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar mashg‘ulotlar jarayonida amalga oshirilib, uning doirasida oquvchi quyidagilarni namoyon etadi:*

- o‘zlashtirilgan o‘quv materiallarini chegaralangan vaqt doirasini e‘tiborga olgan holda samarali bayon etish qobiliyati;
- guruhda ishlash va amaliy misollarga tayangan holda xulosalar chiqarish yoki dalillar keltirish;
- tanqidiy fikrlash, taraflarning fikrini eshitish va o‘zining javoblarini tegishli huquqiy terminlardan foydalangan holda asoslab berish;
- muayyan masalalarni hal qilish uchun tegishli huquq normalarini qo‘llay olish ko‘nikmalari;
- mustaqil tarzda tadqiqot olib borish;
- o‘zi tomonidan ilgari surilgan fikrlarni mantiqiy izchillikda va mazmunan to‘g‘ri holatda yozma shaklda bayon etish;
- tegishli normativ-huquqiy hujjatlardagi normalarni to‘g‘ri qo‘llash va sharhlash;
- o‘zlashtirgan o‘quv materiallari bo‘yicha bilimlarini namoyon etish;
- ijtimoiy-huquqiy hodisalarni bilish va tushunish;

tegishli huquqiy atamalardan foydalangan holda masalani adabiy va yuridik tilda bayon qilish;

o'z javobini tegishli huquq manbasi yoki normativ-huquqiy hujjatlarga havola qilgan holda asoslash;

yakuniy xulosalar chiqara olish va boshqalar.

### Fan mavzulari bo'yicha o'qitish rejasi tarkibi

№	Fanning bo'limlari va mavzulari	Umumiy yuklama, soat							
		Hammasi	Darslar turi bo'yicha soatlar taqsimoti (auditoriya, yuklamasi)						Mustaqil ish
			Jami	Nazariy (ma'ruza)	Amaliy	Laboratoriya	Seminar	Kurs ishi	
1	2	2	4	5	6	7	8	9	10
<b>I Bob. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, unda shaxs va davlat munosabatining huquqiy asoslari</b>		<b>5</b>	<b>3</b>	<b>2</b>			<b>1</b>		<b>2</b>
1.	Kirish. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – asosiy qonun.	2	1	1					1
2.	O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining Asosiy prinsiplari.	3	2	1			1		1
<b>II Bob. O'zbekiston fuqarolarining asosiy huquqlari</b>		<b>12</b>	<b>8</b>	<b>4</b>			<b>4</b>		<b>4</b>
3.	Fuqarolar huquqlarining Konstitutsiyaviy asoslari.	3	2	1			1		1
4.	Shaxsiy huquq va erkinliklar	3	2	1			1		1
5.	Siyosiy huquqlar	3	2	1			1		1
6.	Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar	3	2	1			1		1
<b>III Bob. Huquq va erkinliklarning Konstitutsiyaviy kafolatlari</b>		<b>4</b>	<b>3</b>	<b>2</b>			<b>1</b>		<b>1</b>
7.	Inson huquq va erkinliklarining ta'minlanishi. Fuqarolarning huquqlarini himoya qilish mexanizmi.	4	3	2			1		1
<b>IV Bob. Konstitutsiyada fuqarolarning asosiy burchlari</b>		<b>6</b>	<b>4</b>	<b>2</b>			<b>2</b>		<b>2</b>

8.	Fuqarolarning Konstitutsiyaviy burchlari.	3	2	1			1		1
9.	Vatanni himoya qilish va harbiy xizmatni o'tash burchi.	3	2	1			1		1
<b>V Bob. Jamiyat va shaxs munosabatlari</b>		<b>3</b>	<b>2</b>	<b>2</b>					<b>1</b>
10.	Fuqarolik jamiyatining asoslari	3	2	2					1
<b>VI Bob. O'zbekiston Respublikasining davlat shakli va davlat organlari</b>		<b>28</b>	<b>20</b>	<b>10</b>			<b>10</b>		<b>8</b>
11.	O'zbekiston Respublikasining davlat tuzilishi va boshqaruv shakli	3	2	1			1		1
12.	O'zbekiston Respublikasi Parlamenti – Oliy Majlis.	3	2	1			1		1
13.	O'zbekiston Respublikasining Prezidenti.	3	2	1			1		1
14.	Ijro etuvchi hokimiyatning huquqiy asoslari.	4	3	1			2		1
15.	Mahalliy davlat hokimiyati va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari.	3	2	1			1		1
16.	Sud hokimiyati.	3	2	1			1		1
17.	O'zbekiston Respublikasida Prokuratura organlarining huquqiy asoslari.	3	2	1			1		1
18.	Moliya va kredit.	3	2	1			1		1
19.	Mudofaa va xavfsizlik.	2	2	1			1		
20.	Konstitutsiyaga o'zgartirish kiritish tartibi.	1	1	1					
<b>Жами</b>		<b>58</b>	<b>40</b>	<b>22</b>			<b>18</b>		<b>18</b>

### *O'quv dasturining mazmuni*

#### **I. Bob. O'zbekiston respublikasi konstitutsiyasi, unda shaxs va davlat munosabati huquqiy asoslari**

##### **1-mavzu. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – asosiy qonun**

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi. Uning davlat mustaqilligini mustahkamlashdagi o'рни. Mustaqillik Konstitutsiyasi jamiyatda huquqiy taraqqiyotni ta'minlashda yangi davrni boshlab berganligi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining mazmun-mohiyatini belgilovchi asosiy g'oyalar. Konstitutsiyaning tuzilishi. Konstitutsiyaning asosiy prinsiplari. Prezidentimizning Konstitutsiya haqidagi fikrlari. Konstitutsiya va qonunlarning ustunligini ta'minlash davlatimizning muhim vazifalaridan biri ekanligi.

Konstitutsiya va xalqaro huquq. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining xalqaro huquq qoidalari va talablariga monandligi. O‘zbekiston Konstitutsiyasi kelajagi buyuk davlat bunyod etishning huquqiy kafolati ekanligi.

## **2-mavzu. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining Asosiy prinsiplari.**

O‘zbekiston Respublikasining davlat suvereniteti tushunchasi. Xalq hokimiyatchiligining asoslari. Konstitutsiya va qonun ustuvorligining ta‘minlanishi. Tashqi siyosat prinsiplari

## **II. Bob. O‘zbekiston fuqarolarining asosiy huquqlari**

### **3-mavzu. Fuqarolar huquqlarining Konstitutsiyaviy asoslari**

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidagi inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari haqidagi qoidalar.

O‘zbekiston fuqarolari, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning huquqiy maqomi.

O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik to‘g‘risidagi 1992- yil 2- iyul qonuni (1-28 moddalar).

Fuqarolar huquqlari va erkinliklarining asosiy turlari: fuqarolarning shaxsiy huquqlari, siyosiy huquqlari, iqtisodiy va ijtimoiy huquqlari.

Inson huquqlari to‘g‘risidagi xalqaro huquqiy qoidalar. Inson huquqlarini amalga oshirishda xalqaro aloqalar.”Inson huquqlari to‘g‘risidagi xalqaro bill”, “Bola huquqlari to‘g‘risida konvensiya” 1989- yil 20- noyabr, “Irtiqy kamsitishning barcha shakllarini tugatish to‘g‘risida xalqaro konvensiya” 1965 yil 21 dekabr.

O‘zbekiston Respublikasining 2008-yil 27-yanvardagi “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonuni.

### **4-mavzu. Shaxsiy huquq va erkinliklar**

Yashash huquqi har bir insonning tabiiy huquqi ekanligi. Inson hayotiga suiqasd qilish og‘ir jinoyatligi. Shaxsga qarshi jinoyatlar tushunchasi va turlari: hayotga qarshi jinoyatlar, sog‘liqqa qarshi jinoyatlar, hayot yoki sog‘liq uchun xavfli jinoyatlar. Sud orqali himoyalaniish huquqi. (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘lim jazosini bekor qilish to‘g‘risida”gi Farmoni (2005 –yil avgustdagiga muvofiq, o‘lim jazosi 2008 - yil 1- yanvardan e‘tiboran bekor qilinishi belgilandi).

Fikrlash, soʻz, eʼtiqod va vijdon erkinligi. Oʻzbekiston Respublikasining "Fuqarolarning murojaatlari toʻgʻrisida"gi qonuni 2002-yil 13-dekabr yangi tahriri.

### **5-mavzu. Siyosiy huquqlar**

Oʻzbekiston Respublikasi fuqarolarining kasaba uyushmalariga va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqi. "Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritish toʻgʻrisida"gi 2014- yil 16- apreldagi Qonuni.

Oʻzbekiston Respublikasida faoliyat koʻrsatayotgan siyosiy partiyalar, boshqa jamoat birlashmalari, ijtimoiy harakatlar.

«Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati va uning vazifalari haqidagi hujjatlar. Bu tashkilotning yoshlar huquqlarini himoya qilishdagi ahamiyati. 1991-yil 20-noyabrdagi "Oʻzbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari toʻgʻrisida"gi Qonuni. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2014- yil 6-fevraldagi PQ-2124-sonli Qarori bilan tasdiqlangan "Oʻzbekiston Respublikasida 2014- yilda yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan qoʻshimcha chora-tadbirlar dasturi".

Oʻzbekiston Respublikasining Siyosiy partiyalar toʻgʻrisidagi 1996- yil 26 -dekabr Qonuni mazmuni. Oʻzbekiston Respublikasining Fuqarolar saylov huquqlarining kafolatlari toʻgʻrisidagi 1994- yil 5- may Qonuni.

### **6-mavzu. Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar**

Mulkdor boʻlish huquqi. Mehnat huquqi. 2008- yil 8- apreldagi OʻRQ-144-sonli Qonuni bilan ratifikatsiya qilingan Xalqaro Mehnat tashkilotining "Bolalar mehnatining ogʻir shakllarini taqiqlash va yoʻq qilishga doir shoshilinch choralar toʻgʻrisida"gi 182-sonli Xalqaro konvensiyasi va 2008-yil 4 -apreldagi OʻRQ-140-sonli Qonuni bilan ratifikatsiya qilingan Xalqaro Mehnat tashkilotining "Ishga qabul qilish uchun eng kichik yosh toʻgʻrisida"gi 138-sonli Xalqaro konvensiyasi, Malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqi. Ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi.

Bilim olish huquqi. «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»ning mazmuni va xususiyatlari. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari - taʼlim tizimining yangi boʻgʻini sifatida. Bu taʼlim tizimi faoliyatini belgilovchi huquqiy hujjatlar.

Oʻzbekiston Respublikasining «Taʼlim toʻgʻrisida»gi 1997-yil 29-avgust qonuni. Taʼlim tizimi va turlari. Taʼlim sohasidagi davlat siyosatining

asosiy prinsiplari. Davlat ta'lim standartlari: o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi standarti (2000-yil 16-oktyabr). Ta'lim jarayoni qatnashchilarini ijtimoiy himoya qilish. Iqtidorli bolalar va iste'dodli yoshlar, ularning ilm olishini qo'llab-quvvatlovchi va rag'batlantiruvchi jamoat tashkilotlari.

### **III. Bob. Huquq va erkinliklarning konstitutsiyaviy kafolatlari**

#### **7-mavzu: Inson huquq va erkinliklarining ta'minlanishi.**

##### **Fuqarolarning huquqlarini himoya qilish mexanizmi.**

Inson huquq va erkinliklarining kafolatlari tushunchasi. Konstitutsiyada mustahkamlangan huquq va erkinliklar kafolatlarining o'ziga xos xususiyatlari. Inson huquqlari va erkinliklarining huquqiy kafolatlari to'g'risidagi Konstitutsiyaviy qoidalar (43-46 moddalar). Har bir shaxs o'zining Konstitutsiyada belgilab qo'yilgan huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish huquqining ta'minlanganligi. Voyaga yetmaganlar, mehnatga layoqatsizlar va yolg'iz keksalar huquqlari davlat himoyasida ekanligi. Jamiyatda xotin-qizlar ("O'zbekiston xotin-qizlar qo'mitasi faoliyatini qo'llab-quvvatlash borasidagi qo'shimcha chora -tadbirlar to'g'risida" gi 2004-yil 25-maydagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni) va erkaklar teng huquqliligi kafolatlari.

Fuqarolarning huquqlarini himoya qilish mexanizmi. Inson huquqlarini muhofaza qilish va uning kafolatini ta'minlash. Oliy Majlisning inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) to'g'risidagi 1997-yil 24-aprel qonuni mazmuni. Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy Markazining faoliyati yo'nalishlari. O'zbekiston Respublikasining «Advokatura to'g'risida»gi 1996-yil 27-dekabr qonuni. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2007- yilda "Advokatlar palatasini tashkil etish to'g'risida"gi Farmoni. Malakali yuridik yordam olish huquqi va uni amalga oshirish tartiblari. Huquq va erkinliklarning davlat tomonidan ta'minlanishi.

### **IV. Bob. Konstitutsiyada fuqarolarning asosiy burchlari**

#### **8-mavzu. Fuqarolarning Konstitutsiyaviy burchlari**

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida fuqarolarning burchlariga oid Konstitutsiyaviy qoidalar (47-52 moddalar).

Konstitutsiya va qonunlarga rioya qilish. O‘z huquqlarini amalga oshirishda boshqa kishilarning huquq va erkinliklarini hurmat qilish. Jamoa orasida o‘z burchini bajarish, ota-onani hurmat qilish.

Ajdodlarimiz yaratib bizga qoldirgan tarixiy, ma’naviy va madaniy merosni avaylab asrash.

Tabiat va atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish burchining bajarilishi-sog‘lom turmush tarzini yaratishning garovi ekanligi.

Qonun bilan belgilangan soliq va mahalliy yig‘imlarni to‘lash burchini bajarish esa mamlakat iqtisodiy qudratini oshirishning muhim kafolati ekanligi.

### **9-mavzu. Vatanni himoya qilish va harbiy xizmatni o‘tash burchi**

O‘zbekiston Respublikasini himoya qilish har bir fuqaroning Konstitutsiyada belgilangan burchi ekanligi.

Har bir fuqaroning harbiy yoki muqobil xizmatni o‘tash burchi (Konstitutsiyaning 52- moddasi).

O‘zbekiston Respublikasining “Mudofaa to‘g‘risida”gi 2001- yil 11- maydagi qonuniga tavsif. Harbiy qasamyod to‘g‘risidagi 1992- yil 3- iyul Oliy Kengashining qarori.

O‘zbekiston Respublikasining “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi 200 -yil 12- dekabr qonuni haqida. Muqobil xizmat to‘g‘risidagi 1992- yil 3- iyul qonuni mazmuni.

## **V. Bob. Jamiyat va shaxs munosabatlari**

### **10-mavzu. Fuqarolik jamiyatining asoslari**

Jamiyatning iqtisodiy negizlari. Jamoat birlashmalari va kasaba uyushmalari. Oila. Ommaviy axborot vositalari.

## **VI. Bob. O‘zbekiston Respublikasining davlat shakli va davlat organlari**

### **11-mavzu. O‘zbekiston Respublikasining davlat tuzilishi va boshqaruv shakli**

Mustaqil O‘zbekiston davlatchilikni shakllantirish va rivojlantirish yo‘lida: tajriba va istiqbollar. O‘zbekiston Respublikasining ma’muriy-hududiy va davlat tuzilishi haqidagi Konstitutsiyaviy qoidalar (68-75

moddalar). O‘zbekiston Respublikasining davlat tuzilishi shakli. Davlat tuzilishi prinsiplari. Davlat belgilari. Davlat chegarasi. O‘zbekiston xalqi tushunchasi. O‘zbekiston aholisi va uning tarkibi. Davlatning hududiy hukmronligi, uning o‘z hududida to‘la va beistisno mustaqilligini anglatishi. O‘zbekiston Respublikasi hududi va iqtisodiy qudrati bo‘linmas, uning chegaralari dahlsiz bo‘lib, davlat himoyasida ekanligi. Mamlakat hududining yaxlitligi va daxlsizligi xalqaro huquqning asosiy prinsiplaridan ekanligi.

O‘zbekiston Respublikasning boshqaruv shakli tavsifi. O‘zbekiston Respublikasi davlat boshqaruvining Konstitutsiyaviy asoslari.

### **12-mavzu. O‘zbekiston Respublikasi Parlamenti – Oliy Majlis**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi haqidagi Konstitutsiyaviy qoidalar. Oliy Majlisga saylov to‘g‘risidagi 1993 yil 28 dekabr qonuni. O‘zbekiston Respublikasining «Oliy Majlis to‘g‘risida»gi 1994 yil 22 sentyabrdagi Konstitutsiyaviy qonuni. 2008 yil 25 dekabrdagi “Saylov to‘g‘risidagi qonun hujjatlari takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonunlariga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan qonunlarni yaratish va amalga kiritish borasida olib borilayotgan ishlar – huquqiy taraqqiyotni ta‘minlashning asosiy manbaidir.

### **13-mavzu. O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti haqidagi Konstitutsiyaviy qoidalar. «O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to‘g‘risida»gi 1991 yil 18 noyabr qonuni. Respublika Prezidenti tomonidan jamiyat hayotida Konstitutsiya va qonunlar ustuvorligini ta‘minlash yo‘lida amalga oshirilayotgan ishlar va ularning ahamiyati.

### **14-mavzu. Ijro etuvchi hokimiyatning huquqiy asoslari**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi haqidagi Konstitutsiyaviy qoidalar. Ijro etuvchi hokimiyatning Konstitutsiyada belgilangan vakolatlari va vazifalari. «O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to‘g‘risida»gi 1993 yil 6 may qonuni (1-15 moddalar). O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2010 yil 12 noyabr kuni Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisidagi



“Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish Konsepsiyasi” yuzasidan qilgan ma’ruzasi. O‘zbekiston Respublikasining 2014 yil 16 apreldagi O‘RQ – 366-sonli Qonuni.

### **15-mavzu. Mahalliy davlat hokimiyati va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari**

Mahalliy davlat hokimiyati organlari va fuqarolarni o‘zini o‘zi boshqarish haqidagi Konstitutsiyaviy qoidalar. Bu organlarning Konstitutsiyada belgilab berilgan vazifalari. «Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida»gi 1993 yil 2 sentyabr qonuni. Mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatining Konstitutsiyaviy prinsiplari.

Fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risidagi 1999 yil 14 apreldagi qonuni. O‘zini-o‘zi boshqarish organlarini saylash tartibi, ular faoliyatining tashkil etilishi va vakolati.

Fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlarining jamiyatdagi huquqiy munosabatlarda qonun ustuvorligini ta’minlashdagi o‘rni va roli.

### **16-mavzu. Sud hokimiyati**

Sud hokimiyati tushunchasi va uning mazmun-mohiyati. O‘zbekistonning sud xokimiyati haqidagi Konstitutsiyaviy qoidalari tavsifi. O‘zbekiston Respublikasining «Konstitutsiyaviy sudi to‘g‘risida»gi Qonuni mazmuni. O‘zbekiston Respublikasining «Sudlar to‘g‘risida»gi (yangi tahriri) 2000 yil 14 dekabr Qonuni mazmuni. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2010 yil 12 noyabr kuni Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisidagi “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish Konsepsiyasi” yuzasidan qilgan ma’ruzasi. Sud tizimlarida o‘zgarishlar, yangilanish va huquqiy taraqqiyot sari qadamlar.

### **17-mavzu. O‘zbekiston Respublikasida Prokuratura organlarining huquqiy asoslari**

Prokuratura to‘g‘risidagi Konstitutsiyaviy qoidalar (118-121-moddalar) O‘zbekiston Respublikasi “Prokuraturasi to‘g‘risida”gi 2001-yil 29-avgustdagi Qonuni. Prokuror voyaga yetmaganlar huquqlarining himoyachisi. Yoshlarning prokuratura organlari bilan hamkorligi. Qonunlarning aniq va bir xil ijrosining ta’minlanishida prokuratura organlari

tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar – qonunchilikni ta’minlashning muhim asosidir.

### **18-mavzu. Moliya va kredit**

Moliya va kredit tizimi. O‘zbekiston Respublikasi davlat byudjeti. (O‘zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksi 2014 yil yanvar). Maxalliy va davlat byudjetlari. O‘zbekiston Respublikasining bank tizimi. O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki. O‘zbekiston Respublikasining soliq tizimi.

### **19-mavzu. Mudofaa va xavfsizlik**

O‘zbekiston Respublikasi mudofaa va xavfsizligining Konstitutsiyaviy asoslari. Fuqarolarning mudofaa va xavfsizlik sohasidagi burchlari. Respublika mudofaa va xavfsizlikni ta’minlash, qurolli kuchlarni shakllantirish va ularni tizimi, qurolli kuchlarning vazifasi, qurolli kuchlarga raxbarlik qilish. O‘zbekiston Respublikasining “Mudofaa to‘g‘risida”gi 2001- yil 11-maydagi qonuniga tavsif. Harbiy qasamyod to‘g‘risidagi 1992 - yil 3- iyul Oliy Kengashining qarori.

O‘zbekiston Respublikasining “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi 2002-yil 12-dekabr qonuni haqida. Muqobil xizmat to‘g‘risidagi 1992- yil 3- iyul qonuni mazmuni.

### **20-mavzu. Konstitutsiyaga o‘zgartirish kiritish tartibi**

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o‘zgartirish kiritish tartibi, muddati, qonunchilik tashabbusi huquqiga ega subyektlar.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 83-84-moddalari.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 127-128-moddalari.

### **Foydalaniladigan adabiyotlar ro‘yxati:**

- 1.17. Karimov I.A. O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-jild. – T.: O‘zbekiston, 1996. – 364 b.
- 1.18. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. 2-jild. – T.: O‘zbekiston, 1996. – 380 b.
- 1.19. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash – davr talabi. 5-jild.– T.: O‘zbekiston, 1997. – 384 b.
- 1.20. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo‘lida. 6-jild.– T.: O‘zbekiston, 1998. – 429 b.

- 1.21. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz. 7-jild. – T.: O‘zbekiston, 1999. – 413 b.
- 1.22. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz. 8-jild. – T.: O‘zbekiston, 2000. – 525 b.
- 1.23. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas’ulmiz. 9-jild. – T.: O‘zbekiston, 2001. – 439 b.
- 1.24. Karimov I.A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. 10-jild. – T.: O‘zbekiston, 2002. – 432 b.
- 1.25. Karimov I.A. Biz tanlagan yo‘l – demokratik taraqqiyot va ma’rifiy dunyo bilan hamkorlik yo‘li. 11-jild. – T.: O‘zbekiston, 2003. – 320 b.
- 1.26. Karimov I.A. Tinchlik va xavfsizligimiz o‘z kuch-qudratimizga, hamjihatligimiz va qat’iy irodamizga bog‘liq. 12-jild. – T.: O‘zbekiston, 2004. – 400 b.
- 1.27. Karimov I.A. O‘zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo‘lmaydi. 13-jild. – T.: O‘zbekiston, 2005. – 448 b.
- 1.28. Karimov I.A. Inson, uning huquq va erkinliklari – oliy qadriyat. 14-jild. – T.: O‘zbekiston, 2006. – 280 b.
- 1.29. Karimov I.A. Jamiyatimizni erkinlashtirish, islohotlarni chuqurlashtirish, ma’naviyatimizni yuksaltirish va xalqimizning hayot darajasini oshirish – barcha ishlarimizning mezoni va maqsadidir. 15-jild. – T.: O‘zbekiston, 2007. – 320 b.
- 1.30. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. –T.: “Ma’naviyat”, 2008. –174 b.
- 1.31. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari –T.: O‘zbekiston, 2009 – 56 b.
- 1.32. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. T.: “O‘zbekiston ” 2010 y.
- 1.33. Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida –T.: O‘zbekiston. 2011 y..
- 1.34. Karimov I.A. Amalga oshirayotgan islohotlarimizni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati qurish - yorug‘ kelajagimizning asosiy omilidir. T.: O‘zbekiston. 2013 y.
- 1.35. Karimov I.A. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 22 yilligiga bag‘ishlangan ma’ruza. Xalq so‘zi gazetasi 2014 yil 6 dekabr.
- 1.36. O‘zbekistong Respublikasi Prezidentining 2015 yil 11 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi a‘zolarini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-28-sonli Farmoni.

1.37. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining birinchi tashkiliy yig‘ilishidagi nutqi. “O‘zbekiston ovozi” gazetasi 2015 yil 13 yanvar 5-sonli.

1.38. Karimov I.A. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Qo‘shma majlisidagi nutqi. Xalq so‘zi. 2015 yil 11 aprel.

1.39. Karimov I.A. O‘tganlarni xotirlash, keksalarni e‘zozlash – bizning farzandlik burchimizdir. Xalq so‘zi. 2015 yil 10 may.

1.40. Karimov I.A. Ona yurtimizning baxtu-iqboli va buyuk kelajagi yo‘lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. T.: Ozbekiston 2015. 304 b.

## **II. Normativ-huquqiy hujjatlar**

2.1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: “O‘zbekiston”, //2015 y.

2.2. O‘zbekiston Respublikasining “Jamoat birlashmalari to‘g‘risida”gi qonuni// O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1991.- №4.- 76-modda.

2.3. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat bayrog‘i to‘g‘risida”gi qonuni// O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1992.- №1.- 27-modda.

2.4. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat gerbi to‘g‘risida”gi qonuni// O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1992.- №9.- 328-modda.

2.5. O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to‘g‘risida”gi qonuni// O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1992.- №1.- 34-modda.

2.6. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat madhiyasi to‘g‘risida”gi qonuni// O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1993.- №1.- 52-modda.

2.7. O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonuni// O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1993.- №9.- 320-modda.

2.8. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili to‘g‘risida”gi (yangi tahrirdagi) qonuni// O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiining Axborotnomasi, 1995.- №12.- 257-modda.

2.9. O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyaviy sudi to‘g‘risida”gi qonuni// O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1995.- № 9.- 178-modda.

2.10. O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar va qarorlar ustidan sudga shikoyat

qilish to'g'risida"gi qonuni// O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1995.- № 9.- 183-modda.

2.11. O'zbekiston Respublikasining "Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonuni// O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1996.- №5-6.- 59-modda.

2.12. O'zbekiston Respublikasining "Bank va bank faoliyati to'g'risida"gi qonuni// O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Axborotnomasi, 1996.- № 5-6.- 54-modda.

2.13. O'zbekiston Respublikasining "Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida"gi qonuni// O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Axborotnomasi, 1997.- № 4-5.- 108-modda.

2.14. O'zbekiston Respublikasining "Advokatura to'g'risida"gi qonuni// O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997.- № 2.- 48-modda.

2.15. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining Markaziy saylov komissiyasi to'g'risida"gi qonuni// O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1998.- № 5-6.- 95-modda.

2.16. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni// O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997 yil, 9-son, 225-modda.

2.17. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi// O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997 yil, 11-12-son, 295-modda.

2.18. O'zbekiston Respublikasining Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi// O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997 yil, 9-son, 227-modda.

2.19. O'zbekiston Respublikasining "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi (yangi tahrirdagi) qonuni// O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 1998.- № 5-6.- 99-modda.

2.20. O'zbekiston Respublikasining "Sudlar to'g'risida"gi (yangi tahrirdagi) qonuni// O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2001.- №1-2.- 10-modda.

2.21. O'zbekiston Respublikasining "Prokuratura to'g'risida"gi (yangi tahrirdagi) qonuni// O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2001.- № 9-10.- 168-modda.

2.22. O'zbekiston Respublikasining referendumini to'g'risida"gi (Yangi tahriri) O'zbekiston Respublikasi 30.08.2001 y. 265-II-son Qonuni bilan tasdiqlangan// O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi 2001 y. 9-10-son, 176-modda.

2.23. "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi 12.12.2002 y. 432-II-son Qonuni bilan

tasdiqlangan// O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi 2002 y. 12-son, 213-modda.

2.24. “Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy printsiplari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi 04.04.2002 y. 350-II-son Qonuni bilan tasdiqlangan// O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi 2002 y. 4-5-son, 60-modda

2.25. “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni// O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi 2002 y. 12-son, 215-modda.

2.26. O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti faoliyatining asosiy kafolatlari to‘g‘risida”gi qonuni// O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2003.- №3-4.- 34-modda.

2.27. “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining reglamenti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi 29.08.2003 y. 522-II-son Qonuni bilan tasdiqlangan// O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi 2003 y. 9-10-son, 136-modda

2.28. “Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlariga saylov to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartishlar va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi O‘zbekiston Respublikasi 29.08.2003 y. 520-II-son Qonuni bilan tasdiqlangan// O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi 2003 y. 9-10-son, 134-modda

2.29. “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to‘g‘risida”gi (Yangi tahriri) O‘zbekiston Respublikasi 29.08.2003 y. 518-II-son Qonuni bilan tasdiqlangan// O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi 2003 y. 9-10-son, 132-modda

2.30. “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman) to‘g‘risida”gi (yangi tahriri) O‘zbekiston Respublikasi 27.08.2004 y. 669-II Qonuni bilan tasdiqlangan.

2.31. “Xalq deputatlari mahalliy kengashi deputatini, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatini va Senati a‘zosini chaqirib olish to‘g‘risida”gi qonuni// O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining axborotnomasi. –2005. – №1. – 12- modda.

2.32. O‘zbekiston Respublikasining “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi (yangi tahrirdagi) qonuni// O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2007. - №3.- 20-modda.

2.33. “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatining va Senati a‘zosining maqomi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi 02.12.2004 y. 704-II Qonuni bilan tasdiqlangan// O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi 2004 y.

2.34. O‘zbekiston Respublikasi “Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish, hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy

partiyalarning rolini kuchaytirish to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonuni// O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2007.- №15.- 151-modda.

2.35. Saylov to'g'risidagi qonun hujjatlari takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonunlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqidagi" O'zbekiston Respublikasi Qonuni// Xalq so'zi. 2008 yil 27 dekabr

2.36. O'zbekiston Respublikasining 2008 yil 7 yanvardagi "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi qonuni// O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2008 yil, 1-2-son, 1-modda.

2.37. O'zbekiston Respublikasining "Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi qonuni// O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2012. - №39.- 446-modda.

2.38. O'zbekiston Respublikasining 2012 yil 24 dekabrda "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi qonuni// O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2012 yil, 52-son, 583-modda.

2.39. O'zbekiston Respublikasining "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi (yangi tahrirdagi) qonuni// O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2012 yil, 18-son, 201-modda.

2.40. O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolar yig'ini (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi to'g'risida"gi (yangi tahrirdagi) qonuni// O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2013. - №17.- 220-modda.

2.41. O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi (yangi tahrirdagi) qonuni// O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2013.- №17.- 219-modda.

2.42. O'zbekiston Respublikasining 2014 yil 5 maydagi "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida"gi qonuni// O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2014 yil, 19-son, 209-modda.

### **III. Asosiy darslik va o'quv qo'llanmalar**

3.1. Abu Nosir Forobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 1993 y.

3.2. Qayumov R.Q. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi. Darslik. – T.: IIV Akademiyasi, 1997. – 400 b.

3.3. Tadjixonov U. va boshqalar. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi. Darslik.T.:, "Sharq".2009 y- 532 b.

3.4. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi. Mualliflar jamoasi. Darslik.T.:, "Moliya".- 2002 645 b.

- 3.5. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi. Mualliflar jamoasi. Darslik.T.:, T.Yu.Yu.I.- 2005 545 b.
- 3.6. Odilqoriev H.T., Tulteev I.T. Ikki palatali parlament. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2005. – 344 b.
- 3.7. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy huquqi: Darslik. H.T.Odilqoriev tahrir ostida. – Toshkent: IIV Akademiyasi, 2005. – 752 b.
- 3.8. Xorijiy mamlakatlar Konstitutsiyaviy (davlat) huquqi: O‘quv qo‘llanma\\ Mas‘ul muharrir: dostent D.Q.Ahmedov. – Toshkent: TDYuI, 2006. – 550 b.
- 3.9. O‘zbekiston Respublikasi parlament huquqi: O‘quv qo‘llanma\\ A.A.To‘laganov tahriri ostida. – Toshkent:,TDYuI, 2006. – 232 b.
- 3.10. O‘zbekiston Respublikasi parlament huquqi. Mualliflar jamoasi. Toshkent:, TDYuI, 2006. – 302 b.
- 3.11. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga sharh / A.A.Azizxo‘jaev umumiy tahriri ostida. Toshkent: TDYuU, 2008. – 496 b.
- 3.12.Odilqoriev X., O'zbekiston Respublikasining qonunchilik tizimi. T.: 2008 y.
- 3.13. Oilada barkamol avlod tarbiyasi. (o‘quv qo‘llanma). T.: 2010 y.
- 3.14. Temur tuzuklari. O‘zFA –T:”O‘zbekiston”, 2011 y.
- 3.15.O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o‘rganish. (O‘quv qo‘llanma). Mualliflar jamoasi. –T.: “Sharq”. 2014- yil.

#### IV. Internet resurslari

- 4.18. [www.press-service.uz](http://www.press-service.uz) – O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining matbuot xizmati
- 4.19. [www.gov.uz](http://www.gov.uz) – O‘zbekiston Respublikasi Hukumati portali
- 4.20. [www.senat.uz](http://www.senat.uz) – O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati
- 4.21. [www.parlament.gov.uz](http://www.parlament.gov.uz) – O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi
- 4.22. [www.supcourt.uz](http://www.supcourt.uz) – O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi
- 4.23. [www.genprok.gov.uz](http://www.genprok.gov.uz) – O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi
- 4.24. [www.minjust.uz](http://www.minjust.uz) – O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi
- 4.25. [www.ombudsman.gov.uz](http://www.ombudsman.gov.uz) – O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili (Ombudsman)



- 4.26. [www.ssrc.uz](http://www.ssrc.uz) – O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi huzuridagi Sud qonunchiligini demokratlashtirish va liberallashtirish hamda sud tizimi mustaqilligini ta‘minlash bo‘yicha tadqiqot markazi
- 4.27. [www.tsul.uz](http://www.tsul.uz) – Toshkent davlat yuridik universiteti
- 4.28. [www.vuk.uz](http://www.vuk.uz) – O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining Oliy o‘quv kurslari
- 4.29. [www.uzmarkaz.uz](http://www.uzmarkaz.uz) – Yuristlar malakasini oshirish markazi
- 4.30. [www.huquqburch.uz](http://www.huquqburch.uz) – “Huquq va burch” ijtimoiy-huquqiy jurnali
- 4.31. [www.insonvaqonun.uz](http://www.insonvaqonun.uz) – “Inson va qonun” huquqiy gazetasi
- 4.32. [www.lex.uz](http://www.lex.uz) – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi
- 4.33. [www.metod.uz](http://www.metod.uz) – O‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi muassasalarini Axborot-metodik ta‘minlash xizmati

## MILLIY ISTIQLOL G‘OYASI: asosiy tushuncha va tamoyillar

### O‘quv dasturni takomillashtirish bo‘yicha ishchi guruh a‘zolari:

<b>S.Ochilov</b> –	O‘MKHT Axborot-metodik xizmati Ma’naviy-axloqiy va tarbiyaviy ishlarni takomillashtirish bo‘limi boshlig‘i
X.Sultonov –	Toshkent Davlat sharqshunoslik instituti qoshidagi Yunusobod akademik litseyi direktori
A.Tojiboev –	Toshkent Davlat texnika universiteti qoshidagi Chilonzor akademik litseyi o‘qituvchisi
F.Sindarova –	Sergeli politexnika kasb-hunar kolleji o‘qituvchisi
Sh.Sharofaddinov –	O‘MKHT Axborot-metodik xizmati etakchi metodisti
M.Omonov –	O‘zMU qoshidagi S.H.Sirojiddinov nomidagi akademik litsey o‘qituvchisi

### Taqrizchi:

J.Abduraxmanova –	O‘zMU qoshidagi 1-sonli akademik litseyi oqituvchisi
A.Odilov –	Toshkent Davlat texnika universiteti qoshidagi Chilonzor akademik litseyi o‘qituvchisi

## Kirish

Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab milliy istiqlol g'oyasini shakllantirish xalqimiz uchun juda muhim ehtiyojga aylandi. Bu masala o'ta dolzarb va katta ijtimoiy ahamiyatga ega. Mafkura mohiyati, maqsadi va yo'nalishlari bilan jamiyatda milliy g'oyalarni ro'yobga chiqarishga hamda uning hayotbaxsh qudratini amalga oshirishga yordam beradi.

“Milliy istiqlol g'oyasi” fanining ta'lim tizimiga joriy etilishi mamlakatimiz ma'naviy hayotida muhim voqea bo'ldi. Bu fan milliy istiqlol g'oyasining asosiy tushuncha va tamoyillari, tarixiy negizlari, ilmiy, falsafiy, dunyoviy ildizlari, o'ziga xos namoyon bo'lish qonuniyatlari va xususiyatlari to'g'risida bilim beradi. Ushbu fanni o'qitishni to'g'ri tashkil qilish, bu borada ta'lim – Tarbiyaning an'anaviy va zamonaviy usullaridan foydalanish katta ahamiyat kasb etadi.

Millatning rivojlanishida milliy g'oyaning ahamiyati katta. Milliy g'oya millatning ichki rivojlanishi va kelajak sari intilishi hamda kurashlarining markazida bir kuch bo'lib, millatning qaysi o'ylar va qaysi maqsadlar orqali olg'a intilishini ta'minlaydi.

O'zbek xalqi o'z milliy mustaqilligiga erishib, necha asrlik orzu umidlarning, kurash va intilishlarning ro'yobga chiqishi milliy g'oyaning ro'yobga chiqishi hamdir. Milliy uyg'onish, milliy tiklanish, milliy taraqqiyot konsepsiyasi ijtimoiy yo'naltirilgan bozor munosabatlariga o'tish davrida milliy o'zlikni anglash bilan sintezlashuvi va uning bugungi turmush tarzimiz hamda tafakkurimiz taraqqiyotida namoyon bo'lishi sivilizatsiya yo'lidir.

“Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar” fani ta'lim tizimiga dastlab joriy etilganda fanning zamon talablarida o'qitilishi 3 ta muhim shart bilan bog'langan edi. Ularning birinchisi fanni o'qitadigan malakali kadrlarning zarurati, ikkinchisi mashg'ulotlarni tashkil etishda o'quvchilarning yoshi, psixologiyasi va bilim bazalarini hisobga olish va uchinchisi o'qituvchilarning metodik jihatdan qurollangan bo'lishlari edi.

O'tgan davr mobaynida ushbu fan bo'yicha qator ishlar amalga oshirildi, jumladan respublikaning bir necha oliygohlarida ushbu fan bo'yicha mutaxassislar tayyorlana boshlandi, bazadagi o'qituvchilarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish yo'lga qo'yildi. Jahon ta'lim jarayoni doirasida turli mamlakatlarning yaqinlashuvi, zaruriyati tom ma'noda

global, insoniyat sivilizatsiyasi taqdiri uchun hal etuvchi ahamiyatga ega bo'lgan ko'plab omillar bilan belgilanadi. Bu omillar orasida yuzaga kelgan umumiy va milliy o'ziga xosliklar alohida ahamiyatga ega.

Ta'limning noyob imkoniyatlari hozir nafaqat inson aqlini yangi tezkor imkoniyatlar bilan qurollantirish, balki uning ongini qayta qurish bilan bog'liq. Insoniyat sivilizatsiyasi rivojining yangi bosqichi insonning shakllanish jarayoni, shaxsiy fazilatlar, hayotiy maqsadlar va qadriyatlar haqidagi tasavvurlarini o'zgartiradi. O'sib kelayotgan yosh avlod uchun ta'lim tizimi sifat jihatdan yangicha talablar qo'yadi.

XXI asr-innovatsiyalar asridir. Mamlakatimiz kelajagi jamiyat hayotining boshqa sohalari bilan birga ta'lim tarbiya tizimini yangi zamon talablari darajasiga ko'tarishga yo'naltirilgan ishlarning samaradorligi bilan belgilanadi.

Navqiron avlod davr ruhida ma'naviy kamol topib, buyuk ajdodlarimiz barhayot mevasidan oziqlanib, zamonaviy bilimlarni egallab, ularni ongi, shuuriga singdirib bormas ekan, bizning o'z oldimizga qo'ygan ulug'vor maqsadlarimizga erishishimiz, nurli istiqbolimizni bunyod etishimiz ham qiyin. Mana shu bois ham yoshlar tarbiyasi, ularni barkamol insonlar etib shakllantirish, voyaga etkazish masalasi har doim davlatimiz oldidagi birinchi darajali vazifalardan biridir.

“Milliy istiqbol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar” fani o'quv dasturi 40 soatga mo'ljallangan bo'lib, shundan 22 soat nazariy, 18 soat seminar mashg'ulotlari uchun ajratilgan. Mustaqil ishlar uchun ajratilgan soatlar 16 soatni tashkil etadi.

O'quv dasturining tarkibi o'quvchilarning bilimi, konikmasi va malakasiga qo'yiladigan talablar, fanning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan aloqadorligi, fanni o'qitishda foydalaniladigan zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar, nazariy va seminar mashg'ulotlarni o'qitish, mustaqil ishlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatmalar, fan dasturining informatsion-uslubiy ta'minoti, o'quvchilarning bilimini baholash, fan mavzulari bo'yicha o'qitish rejasi tarkibi, o'quv dasturining mazmuni, tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

## **Fanning maqsadi, vazifalari va dolzarbligi**

### **Fanning maqsadi:**

- Mustaqil taraqqiyot va jahonshumul mafkuraviy jarayonlar sharoitida milliy g‘oya va mafkurani o‘quvchilar qalbi va ongiga singdirish orqali ularda e‘tiqod, dunyoqarash, tafakkur va insoniy fazilatlarni shakllantirish.
- Prezident Islom Karimov tomonidan belgilab berilgan bosh g‘oya, yurtimizda ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etishga xizmat qiladigan yaxlit va izchil ta‘limotni yoshlarimiz qalbi va ongiga singdirish.
- O‘quvchi yoshlarni milliy istiqlol g‘oyasi bo‘yicha nazariy va amaliy bilimlar bilan qurollantirish, yoshlarda mustaqil dunyoqarash va erkin tafakkurni shakllantirish hamda g‘oyaviy tarbiyani amalga oshirish.

### **Fanning vazifasi:**

- umuminsoniy va milliy qadriyatlarga asoslanib, O‘quvchi yoshlarning dunyoqarashini boyitish va ularni kelajakka ishonch ruhida tarbiyalash;
- o‘quvchi yoshlarga milliy istiqlol g‘oyalariga oid tushunchalar to‘g‘risida nazariy va amaliy bilimlar uyg‘unligini ta‘minlash asosida ta‘lim – Tarbiya berish;
- o‘quvchi yoshlarga Vatan va uning buyuk kelajagi oldidagi mas‘uliyat, burch, vazifa mohiyatini teranroq anglatish, daxldorlik xissini tarbiyalash;
- mustaqillikning tarixiy ahamiyatini anglash, uni asrash, mustahkamlashning o‘quvchi yoshlar hayotiy faoliyatida namoyon bo‘lishiga erishish.

### **Fanning dolzarbligi:**

- Hozirgi globallashuv davrida yoshlarni mafkuraviy tarbiyalash va ma‘naviyatini yuksaltirish muammolari, ularni hal etish, erkin tafakkurni shakllantirish va yuksak intellektual salohiyatli shaxs qilib voyaga etkazishga erishish.

## **Fan bo‘yicha o‘quvchilarning bilimi, ko‘nikmasi va malakalariga qo‘yiladigan talablar**

O‘quvchilar ushbu fanni organish orqali:

G‘oya va mafkuralarning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni;

G‘oya va mafkura tushunchalarining axloqiy, badiiy, diniy tushunchalar bilan aloqadorligi.

Ilg‘or g‘oya va ma‘rifatparvarlik.

G‘oya va mafkuralarning tarixiy shakllari;

Bunyodkorlik g'oyalari, ularning mohiyati va mazmuni, shakllari va xususiyatlari.

Buzg'unchi g'oya va mafkuralar. Ularning mohiyati, xususiyatlari, maqsadlari, ijtimoiy jarayonlarga salbiy ta'siri.

Milliy g'oya va mafkuralarning tarixiy ildizlari. Milliy mafkura oziqlanadigan manbalar.

Buyuk allomalarning jamiyat taraqqiyoti to'g'risidagi g'oyalari va ma'naviy merosi, undan faxrlanish tuyg'usi.

Milliy g'oyaning umuminsoniy qirralari. Qadimgi sharq, yunon, rim va boshqa falsafa maktablarining merosi.

Geosiyosat va mafkuraviy poligon tushunchalari. Geopolitik maqsadlar va mafkuraviy siyosatning namoyon bo'lish xususiyatlari.

Globalashuv fenomeni. Globalashuv jarayonining hayotimizga tobora chuqur kirib kelayotganining asosiy omili va sababi. Globalashuv jarayoni, uning ijobiy va salbiy tomonlari.

Taraqqiyotning o'zbek modeli. Bu model-jamiyatni yangilash va isloh etishning besh tamoyiliga asoslanganligi.

Milliy g'oya va mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning borishi. Amalga oshirilayotgan islohotlarning milliy va umuminsoniy asosga qurilganligi.

Istiqlol va milliy mafkuraning shakllanishi zarurati. O'zbekistonda barpo etilayotgan jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy asoslari.

Oila – ma'naviy, ma'rifiy va mafkuraviy tarbiyaning eng muhim omillaridan biri ekanligi.

Mahallani mafkuraviy tarbiyadagi imkoniyatlari va o'rnini his etish.

Yangilanish va rivojlanishning ma'naviy-axloqiy negizlari.

XXI asrda g'oyaviy-mafkuraviy sohadagi rivojlanish istiqbollari. XXI asrda erkin fuqaro jamiyati ma'naviyatini shakllantirish, mustaqil fikrga ega bo'lgan shaxs ma'naviyatini kamol toptirish vazifalari.

Milliy istiqlol g'oyasi tushunchasi, uning mohiyati.

Milliy istiqlol mafkurasining mazmuni. Inson qalbi va ongiga ta'sir etadigan taraqqiyparvar tushuncha va tuyg'ular.

Istiqlol mafkurasining oliy maqsadi - xalqni O'zbekistonning buyuk kelajagini bunyod etishga safarbar qilish, ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish yo'lida birlashtirish.

Milliy istiqlol mafkurasining vazifalari. Mustaqil dunyoqarash va erkin tafakkurni shakllantirish.

Milliy istiqlol mafkurasining xususiyatlari va uning xalqimiz tub manfaatlarini ifodalashi.

Milliy istiqlol mafkurasining umumiy tamoyillari.

Milliy istiqlol mafkurasining milliy va umuminsoniy tamoyillari.

Milliy davlatchilikni qurishda, uni taraqqiy ettirishda milliy g'oyaning o'rni.

Mamlakatimizda ma'naviy tiklanish va yangilanish jarayonlarida adabiyot hamda san'at. Erkin ijod imkoniyatlari. Ma'naviy tahdidlarga qarshi kurashda ilmu fan, san'at, ijod ahlining o'rni.

Mafkuraviy tarbiyaning uslub va vositalari haqida nazariy bilimlarga ega bolishi;

Davlat rahbarimizning milliy g'oya va mafkura tushunchalarining mazmun-mohiyati bilan bog'liq ko'rsatmalari, fikrlarini o'rganib borish;

Mustaqil taraqqiyotimizning 25 yilligi davomida erishilgan yutuqlarni tahlil qila bilish.

ommaviy axborot vositalari va boshqa tarmoqlardan zarur bo'lgan axborotlarni izlab topish, mavzu bilan bog'lay olish;

O'zbekistondagi demokratik o'zgarishlar va mafkuraviy jarayonlarni kuzatish va diagrammalar, jadvallar tayyorlay olish;

o'rgangan bilimlarini bir davrdan ikkinchi davrga o'tkaza olish;

mustaqil bilimlarini boyita olish;

fanga oid bo'lgan atamalar izohini topa olish, ulardan o'rinli foydalanish;

O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlariga oid ma'lumotlarini jamlay olish va taqdimotlar tayyorlay olish **ko'nikmalariga ega bolishi;**

Jamiyatda sodir bo'layotgan jarayonlarga faol kirisha olish;

Jamiyatda sodir bo'layotgan voqealar va hodisalar, vaziyatlarga baho berish, ular o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni anglash;

aniqlangan xususiy natijalarni umumlashtirib, asosiylarini ajratish, xulosa chiqara olish;

jarayonga munosabat bildirishda tanqidiy va asosli fikrlay olish;

jamiyatda bo'layotgan har qanday voqea-hodisalarga dahldorlikni his etish;

o'z "Men"ini shakllantira olish – faoliyatida o'zini anglash mexanizmini shakllantirish malakalariga ega bolishi lozim.

### **Fanning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi, uslubiy jihatdan uzviyligi va ketma-ketligi**

"Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar" fani umumtalim fanlaridan "Ona va adabiyot", "Tarix", "Ma'naviyat asoslari", "Falsafiy fanlar", "Oila psixologiyasi", "O'zbekiston Konstitutsiyasi",

“Huquqshunoslik” fanlari bilan uzviy bog‘liq hamda uslubiy jihatdan ketma-ketdir.

### **Fanni o‘qitishda foydalaniladigan zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar**

**Zamonaviy axborot texnologiyalari:** Kompyuter texnikasi, proektor, ovoz kuchaytirgich, printer, nusxa ko‘chirish apparati, elektron doska va boshqa multimedia vositalariga asoslangan holda o‘qitiladi.

**Zamonaviy pedagogik texnologiyalar:** Dars jarayonida “Hamkorlikda o‘qish”, “Loyiha”, “Keys-stadi” kabi interfaol pedagogik texnologiyalar hamda “Aqliy hujum”, “Klaster”, “Bumerang”, “Amaliy o‘yin”, “Rolli o‘yin”, “Yelpig‘ich”, “Nima uchun?”, “Qanday?”, “Zinama-zina”, “Tushunchalar tahlili”, “T sxema”, “Atamalar zanziri”, “Toifalash jadvali”, “FSMU”, “B-B-B”, “Blits-so‘rov”, “Insert”, “Qiyoslash” va boshqa shu kabi metodlar qo‘llaniladi.

### **Fan bo‘yicha nazariy, seminar mashg‘ulotlari va mustaqil ishlarni tashkil etish bo‘yicha ko‘rsatmalar**

**Nazariy mashg‘ulotlarni tashkil etish:** O‘qituvchi ma’ruza matni orqali mavzu bo‘yicha o‘rgatilishi lozim bo‘lgan tushunchalarni reja asosida taqsimlagan holda mashg‘ulotni tashkil etadi. Mavzu bo‘yicha o‘quvchi bilishi lozim bo‘lgan tushunchalar to‘g‘risida ma’lumot beradi. Qaytar aloqani o‘quv topshiriqlar (og‘zaki, yozma) yordamida mustahkamlaydi. Mavzu bo‘yicha o‘quvchilarning savollariga javob beradi, yangi pedagogik texnologiyalar orqali o‘quvchilarda mavzu bo‘yicha bilimlarni shakllantiradi.

**Seminar mashg‘ulotlarini tashkil etish:** o‘tilgan mavzular bo‘yicha o‘quvchilarning bilimlari pedagogik texnologiyalar asosida mustahkamlanadi. O‘qituvchi mavzular bo‘yicha o‘quvchilarning mavzuni o‘zlashtirganlik darajasidan kelib chiqqan holda mustaqil bajarishlari uchun topshiriqlar beradi. Taqdimotlarni kuzatadi, nazorat qiladi, baholaydi.

**Mustaqil ishlarni tashkil etish:** o‘qituvchi o‘tilgan mavzular mazmunidan kelib chiqqan holda mustaqil ish mavzulari ro‘yxatini shakllantiradi, mustaqil ishlarni bajarish shaklini belgilaydi, mustaqil ishni bajarish bo‘yicha tegishli ko‘rsatma va tavsiyalar beradi. Mustaqil ishlar



yakuniy nazorat o'tkazilgunga qadar tekshirib chiqilishi va baholanishi lozim. Mustaqil ishga qo'yilgan baholar joriy nazorat tarkibiga kiradi.

### **O'quv dasturining informatsion-uslubiy ta'minoti**

O'quv dasturining informatsion-uslubiy ta'minoti dasturda belgilangan mavzular va ularga ajratilgan soatlar darslik va o'quv qo'llanmalarda to'liq yoritilishi o'qituvchiga vaqtni tejashga va tejalgan vaqtdan mavzularga oid qo'shimcha ilmiy-metodik materiallar tayyorlash uchun foydalanish imkoniyatini yaratish;

bu borada tajribali, yuqori natijalarga erishgan o'qituvchilarning ishlarini ommalashtirish, o'rganishni yo'lga qo'yish;

ushbu fan o'qituvchisi birinchi navbatda mutaxassis, o'z fanini yaxshi biladigan, fidoiy, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanadigan, ularning yangi usullarini kashf eta oladigan, ijodkor bo'lishi lozim;

ta'lim berishda zamonaviy texnik imkoniyatlar Respublika miqyosida oshirilishiga qaramasdan, o'qituvchi har qanday vaziyatda oddiy usullarda ham mukammal bilim berish yo'llarini izlab topmog'i va ularni qo'llamog'i kerak;

muzeylarga, tarixiy joylarga, dalalar, zavod-fabrikalar, san'at dargohlari, kontsert zallari, teatr, kino, televideniya, nashriyotlar va hokazolarga sayohat darslari tashkil etishni nazarda tutadi.

### **O'quvchilarning bilimlarini baholash**

Fanning xususiyatini hisobga olgan holda reyting tizimi bo'yicha o'quvchilar bilimini baholash mezonlari ishlab chiqildi.

O'quvchining fan bo'yicha o'zlashtirishni baholash muntazam ravishda olib boriladi va quyidagi turlar orqali amalga oshiriladi:

- joriy baholash (JB);
- yakuniy baholash (YaB);

JB da fanning har bir mavzusi bo'yicha o'quvchining bilimi va amaliy ko'nikmalarini aniqlab borish nazarda tutiladi.

JB turlari har bir mavzuning hususiyatidan kelib chiqqan holda, og'zaki, yozma ish, test, nazorat ishi, uy vazifasi, kollokvium va shu kabi boshqa shakllarda amalga oshirilishi mumkin.

YaB da o'quvchining bilim, ko'nikma va malakalari fanning umumiy mazmun doirasida baholanadi.

O'quvchining semestr davomida fan bo'yicha to'plagan umumiy bali har bir baholash turlaridan to'plangan ballar yig'indisiga teng bo'ladi.

YaB turi test shaklida o'tkaziladi.

O‘quvchining fan bo‘yicha mustaqil ishi JB va YaB turlarida baholandi.  
O‘quvchilar bilimini baholashda quyidagi namunaviy mezonlar inobatga olinadi

Ball	Baho	O‘quvchining bilim darajasi
4,5-5	A’lo	Xulosa va qaror qabul qilish; Ijodiy fikrlay olish; Mustaqil mushohada yuritish; Amalda qo‘llay olish; Mohiyatini tushunish; Bilish, aytib berish; Tasavvurga ega bo‘lish.
3,5-4	Yaxshi	Mustaqil mushohada yuritish; Amalda qo‘llay olish; Mohiyatini tushunish; Bilish, aytib berish; Tasavvurga ega bo‘lish.
2,5-3	Qoniqarli	Mohiyatini tushunish; Bilish, aytib berish; Tasavvurga ega bo‘lish.
1-2	Qoniqarsiz	Aniq tasavvurga ega emaslik; Bilmaslik.

**“Milliy istiqlol g‘oyasi”** fanidan o‘tkaziladigan reyting tizimi quyidagi vazifalarni bajarishga qaratilgan:

- o‘quvchilarning “«Milliy istiqlol g‘oyasi” ” fanini o‘zlashtirishini muntazam ravishda nazorat etib borish, ularni o‘quv semestri davomida o‘z bilimlarini uzluksiz faol ravishda oshirib borishlarini ta’minlash.
- o‘quvchilar bilimini haqqoniy aniq va adolatli baholash hamda natijalarini ularga muntazam ravishda ma’lum qilib borish;
- o‘quvchilarni mafkuraviy muammolar bo‘yicha mustaqil ishlash ko‘nikmalarini keng rivojlantirish;
- “Milliy istiqlol g‘oyasi” fanidan ta’lim beradigan o‘qituvchilarda ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlarga puxta tayyorgarlik ko‘rish, o‘quvchilar bilimini baholash uchun savollarni tuzishda mas’uliyatni oshirish va hokazolar.

**Izoh:** *O‘quvchilarni amaliy mashg‘ulotlarda baholash jarayonida, uning axloq odobi, ma’naviyati, dunyoqarashi, faolligi ham inobatga olinadi.*

## Mavzular bo'yicha dars soatlarining tahminiy taqsimoti

№	Fan bo'limlari va mavzular	Umumiy yuklama, soat							
		Dars turi bo'yicha soatlar taqsimoti							
		Hammasi	Jami	Nazariy	Amaliy	Laboratoriya	Seminar	Kurs ishi (loyihasi)	Mustaqil ish
	Kirish. «Milliy istiqlol g'oyasi» fanini o'rganishning ahamiyati	3	2	2					1
<b>I. bo'lim. G'oya va mafkuralar tarixi</b>									
1	G'oya va mafkuralarning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni	3	2	1			1		1
2	G'oya va mafkuralarning tarixiy shakllari	3	2	1			1		1
3	Milliy g'oya va mafkuralarning falsafiy – Tarixiy manbalari	5	4	2			2		1
<b>II. bo'lim. Hozirgi zamonda inson qalbi va ongi uchun kurash</b>									
1	Taraqqiyot va hozirgi dunyoning mafkuraviy manzarasi	3	2	2					1
2	Mafkuraviy jarayonlarning umumbashariy va mintaqaviy ko'rinishlari	5	4	2			2		1
3	Globalashuv jarayonlari va mafkuraviy tahdidlar	3	2	1			1		1
4	O'zbekiston taraqqiyoti va mafkuraviy tahdidlar	3	2	1			1		1
<b>III. bo'lim. O'zbekiston taraqqiyoti va mafkuraviy muammolar</b>									
1	O'zbekistonda barpo etilayotgan jamiyat	3	2	2					1
2	O'zbekistonda iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy sohada olib borilayotgan islohotlar. Erishilgan yutuqlar. (O'zbekiston tarixi muzeyi hamda viloyatlardagi o'lkashunoslik muzeylarida amaliy dars)	3	2				2		1
<b>IV. bo'lim. Milliy mafkura va uning asosiy tamoyillari</b>									

1	Milliy istiqlol g'oyasining mohiyati va mazmuni	3	2	1			1		1
2	Milliy istiqlol g'oyasining maqsad va vazifalari	3	2	1			1		1
3	Milliy istiqlol g'oyasining asosiy tamoyillari	3	2	1			1		1
4	Milliy g'oya va ma'naviy hayot	3	2	1			1		1
<b>V. bo'lim. G'oyaviy tarbiya va mafkuraviy immunitet</b>									
1	Inson qalbiga yo'l va g'oyaviy tarbiya	6	4	2			2		2
2	Komil insonni voyaga Yetkazishda mafkuraviy tarbiya omillarining ahamiyati	6	4	2			2		2
<b>Jami:</b>		<b>58</b>	<b>40</b>	<b>22</b>			<b>18</b>		<b>18</b>

### *O'quv dasturining mazmuni*

#### **Kirish**

Milliy istiqlol g'oyasi va mafkurasi dolzarb ijtimoiy zarurat. Mafkuraviy muammolarni o'rganish davr talabi. «Milliy istiqlol g'oyasi» fani predmeti, maqsadi va vazifalari, uni o'rganishning ahamiyati. Milliy istiqlol g'oyasi va mafkurasining yoshlarda mustaqil dunyoqarash va erkin tafakkurni shakllantirish, ularni yuksak ma'naviyatli shaxs qilib tarbiyalashga yo'naltirilganligi. Vatan ravnaqi, yurt tinchligi va xalq farovonligiga xizmat qilishi. Hozirgi davrda yoshlarni g'oyaviy tarbiyalash va ma'naviyatini yuksaltirish muammolari, ularni hal etish vazifalari. Bu jarayonda ijtimoiy fanlarning ahamiyati.

#### **I. Bo'lim. G'oya va mafkuralar tarixi**

##### **1-mavzu: G'oya va mafkuralarning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni**

G'oya tushunchasi, uning mohiyati va mazmuni. G'oya va dunyoqarash inson tafakkuri mahsuli. g'oyalarning shakllanishi va namoyon bo'lish xususiyatlari. Tafakkur, fikr, g'oya, faraz va nazariya tushunchalari, ularning o'zaro aloqadorligi va farqli xususiyatlari.

Mafkura tushunchasi, uning mohiyati va mazmuni. Mafkura tushunchasining ta'rifi, Mafkura – xalq, millat, jamiyat maqsadlarini, manfaatlarini va intilishini o'zida aks ettiruvchi tizim. Har bir jamiyatda mafkuraning mavjud bo'lishi ijtimoiy hayotning qonuni ekanligi. Mafkura bo'lmasa odam, jamiyat va davlat o'z yo'lini yuqotishi muqarrarligi. Mafkura – dunyoqarash, g'oyalar tizimi va tarbiya vositasi.

G'oya va mafkura tushunchalarining axloqiy, badiiy, diniy tushunchalar bilan aloqadorligi. Ajdodlar ma'naviy olamining avlodlar ma'naviyatida namoyon bo'lish qonuniyati. Bu qonuniyatning ulug'vor g'oyalarni kelajak avlod ongiga Yetkazishdagi ahamiyati.

Ilg'or g'oya va ma'rifatparvarlik. Ma'rifat-keng ma'noda dunyoni bilish va anglash, o'qish-o'rganish, ulg'ayish, kamolotga erishish jarayoni. Ezgu g'oyalar va ma'rifat jamiyatda insonni ulug'vor maqsadlar sari Yetaklovchi kuch ekanligi.

### **Amaliy mashg'ulot savollari:**

1. G'oya va mafkura tushunchalari mohiyati
2. G'oyalarning shakllanishi va namoyon bo'lish xususiyatlari
3. Mafkura bo'lmasa inson, jamiyat va davlat o'z yo'lini yo'qotish muqarrarligi

### **2-mavzu: G'oya va mafkuralarning tarixiy shakllari**

G'oya va mafkuralarning tarixiy shakllari. Dastlabki mafkuraviy tizimlarning shakllanishi. Afsona va rivoyatlar. Ilohiy qadriyatlar (diniy) va dunyoviy yondashuvga asoslangan mafkuralar. Dinlar, diniy g'oyalar va mafkuralar. Dunyoviy va diniy g'oyalarning mushtarakligi mohiyati. g'oyalarning insoniyat tarixida ozodlik va istibdod, ma'rifat va jaholatga xizmat qilgan mafkuralar shaklida namoyon bo'lishi. Mifologiyaga asoslangan totemizm, animizm, fetishizm kabi g'oyaviy tizimlar-mafkura shakllari. Milliy asosdagi mafkura shakllari: hinduizm, iudaizm, konfutsiylik, sintoizm.

Olamning vujudga kelishi va mavjudlik qonuniyatlarini falsafiy talqin qilish natijasida paydo bo'lgan oqimlar: monizm, dualizm, plyuralizm, idealizm va materializm va boshqalar.

Dahriylik va uning oqibatlari. Shovinizm g'oyalari. Uning muayyan shaxsni yoki millatni ustun qo'yadigan aqidaga aylanishi.

Ijtimoiy me'yor va qonun-qoidalarni tan olmaslikka da'vat etuvchi nigilizm.

Taraqqiyotda g'oya va mafkuralarning tarixiy takomili. g'oya va mafkuraning tarixiy shakllari va ko'rinishlari. Insoniyat tarixiy taraqqiyoti yoki tanazzulida g'oya va mafkuralarning o'rni. Mafkuraviy va ma'naviy jarayonlarning ijtimoiy tarixiy shart-sharoit bilan aloqadorligi. Qadimgi davr ma'naviyati va mafkurasi. IX-XII asrlarda Sharq Renessansi (uyg'onih) davri, Temur va temuriylar davri mafkurasi. Davrlar almashinuvi va mafkuralar o'zgarishi. g'oyaviy zaiflikning millat birdamligiga va davlat qudratiga putur Yetkazishi. g'oyaviy zaiflik va mafkuraviy beqarorlikning oqibatlari: Makedoniyalik Iskandar va arab bosqini. Chingiziylar istibdodi va Chor istilosi.

Bunyodkorlik g'oyalari, ularning mohiyati va mazmuni, shakllari va xususiyatlari. Insoniyat jamiyat va sivilizatsiyalar rivojiga ta'sir ko'rsatgan ijtimoiy, siyosiy, ilmiy g'oyalar, nazariyalar, ta'limotlar va mafkuralar. Zardusht, Sokrat, Platon, Konfutsiy, Alisher Navoiy va boshqalarning bunyodkor g'oyalari. Milliy davlatchiligimiz yorqin namunasi bo'lgan Amir Temur davlatining bunyodkor g'oyalarga asoslanganligi. Bunyodkorlik g'oyasi ijtimoiy barqarorlik va taraqqiyotning garovi. Milliy istiqlol g'oyasining bunyodkorlik mohiyati.

Buzg'unchi g'oya va mafkuralar. Ularning mohiyati, xususiyatlari, maqsadlari, ijtimoiy jarayonlarga salbiy ta'siri. O'rta asrlardagi salb yurishlari, diniy fanatizm, fashizm va bolshevizm kabi g'ayriinsoniy g'oyalar. Buyuk davlatchilik shovinizmi, tajovuzkor millatchilik, irqchilik, terrorchilik, missionerlik, baptistlar, adventistlar, iyegovistlar, Yevengelista, prozelitizm va kabi yovuz g'oya va mafkuralar. Ularga qarshi kurash zarurligi. Buzg'unchi g'oyalar hukmron bo'lgan joyda ijtimoiy beqarorlikning mavjud bo'lishi. Insoniyat boshiga qayg'u-kulfatlar va azob-uqubatlar keltirgan g'oyalar asosidagi xatolar, fojealar, urushlar, qatag'onlar. Tarixda g'oya va mafkurani mutlaqlashtirish oqibatlari.

#### **Amaliy mashg'ulot savollari:**

1. Qadimgi davr ma'naviyati va mafkurasi
2. Dastlabki mafkuraviy tizimlar
3. Bunyodkorlik g'oyalari, ularning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni
4. Buzg'unchi g'oyalarning insoniyat hayotiga salbiy ta'siri

### **3-mavzu: Milliy g'oya va mafkuralarning falsafiy - tarixiy manbalari**

Milliy g'oya va mafkuralarning tarixiy ildizlari. Milliy mafkura oziqlanadigan manbalar. Xalqimizning qadimiy va boy tarixi - ibrat va tarbiya manbai. <sup>1</sup>«Avesto»-Markaziy Osiyo xalqlarining turmush tarzi, ma'naviy-hayoti, mafkurasi, dunyoqarashi, axloqiy fazilatlarini ifoda etuvchi bebaho manba. Urxun-Ruxniy yozma yodgorligi. Xalq og'zaki ijodi namunalari. San'at durdonalari. Spitamen, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur kabi milliy qahramonlarimizning erk va hurlik yo'lidagi jasorati. Ularning ibratli jasoratidan voqif bo'lish har bir oqil farzandning muqaddas burchi ekanligi.

Milliy g'oyaning falsafiy asoslari - dunyoviy bilimlar, diniy va ilmiy qarashlar, millat falsafasi, hurfikrlilik va istiqlol dunyoqarashi, insonni komillikka Yetaklovchi g'oyalar tashkil qilishi. Ularning milliy mafkurani shakllantirishga manbaviy asos bo'lib xizmat qilishi.

Buyuk allomalarning jamiyat taraqqiyoti to'g'risidagi g'oyalari va ma'naviy merosi, undan faxrlanish tuyg'usi. Umumbashariy taraqqiyot rivojiga ulkan hissa qo'shgan olimu fuzalolarning jamiyat hayotida ezgu

g'oyalarning o'zni haqidagi fikrlari. Ajdodlarimizning ozodlik va hurlik to'g'risidagi g'oyalari. Xorazmiyning dunyoviy kashfiyotlari. Al-Forobiyning adolatli jamiyat g'oyasi. Al-Beruniyning ijtimoiy-axloqiy qarashlari. Ibn Sinoning dualizm ta'limoti. Alisher Navoiyning komil inson haqidagi falsafiy qarashlari, Axmad Yassaviyning purma'no hikmatlari. Tasavvuf falsafasi. Jadidlarning g'oyalari - milliy ma'naviyatimiz yuksakligi namunasi. O'zbekistonda milliy istiqlol g'oyasi va mafkurasining shakllanishi.

Milliy g'oyaning umuminsoniy qirralari. Qadimgi sharq, yunon, rim va boshqa falsafa maktablarining merosi. Sokrat, Platon, Aristotel, Gegel va shu kabi faylasuflarning falsafiy-ma'naviy qarashlari. Gumanistik zamonaviy falsafiy oqimlar ilgari surayotgan g'oyalar.

#### **Amaliy mashg'ulot savollari:**

1. Milliy mafkuraning tarixiy ildizlari
2. Boy tariximiz-milliy manbalardan biri
3. Ajdodlarimizning ma'naviy-madaniy merosida adolatli jamiyat qurish va komil inson tarbiyasi masalalari
4. Istiqlol mafkurasining umuminsoniy asoslari va milliy negizlari

## **II. Hozirgi zamonda inson qalbi va ongi uchun kurash**

### **1-mavzu: Taraqqiyot va hozirgi dunyoning mafkuraviy manzarasi**

Hozirgi dunyoning g'oyaviy-mafkuraviy manzarasi. Inson ongi va qalbi uchun kurash. Ilg'or va tajovuzkor g'oyalar, mafkuralar, ularning inson ongi va qalbiga ta'siri. XX asrda dunyoda g'oyaviy qarama-qarshiliklarning keskinlashuvi, bu asr oxiridagi ko'p qutbli dunyo. Jahondagi mafkuraviy manzara va ma'naviy muhitdagi o'zgarishlar. Jahonni mafkuraviy bo'lib olish va o'z ta'siriga tortishga urinishlar, Buyuk davlatchilik shovinizmi, panislomizm, pansovetizm, xalifalikni tiklash singari zararli g'oyalar mohiyati. Ularga qarshi kurash zarurligi.

Mafkuraviy jarayonlarning globallashib borishi. Ilmiy kashfiyotlar, universal texnologiyalar va axborot tarqalishi globallashuvi jarayonlarining dunyodagi mafkuraviy vaziyatga ta'siri. Zamonaviy ilm-fan yutuqlari va ularning kishilar tasavvurini keskin o'zgartirishi. Ilmiy -texnikaviy taraqqiyot va globallashuv jarayonlarining aqidaparastlik va jaholatga zidligi.

#### **Amaliy mashg'ulot savollari:**

1. Dunyoning g'oyaviy-mafkuraviy manzarasi
2. Jahonni mafkuraviy bo'lib olishga urinishlar
3. Mafkuraviy jarayonlarning globallashuvi

## **2-mavzu: Mafkuraviy jarayonlarning umumbashariy va mintaqaviy ko‘rinishlari**

Hozirgi davr: geosiyosat va mafkuraviy poligonlar. Geosiyosat va mafkuraviy poligon tushunchalari. Geopolitik maqsadlar va mafkuraviy siyosatning namoyon bo‘lish xususiyatlari. Mafkuraviy ta’sir geosiyosatning eng samarali vositasiga aylanishi. Mafkuraviy vaziyat, mafkuraviy kurash, mafkuraviy profilaktika va mafkuraviy immunitet masalalari.

Mafkuraviy kurashlarning umumbashariy va mintaqaviy muammolari. Markaziy Osiyo mintaqasida mafkuraviy jarayonlar, narkobiznes, ekologik tanglik, jinoyatchilik kabi umumbashariy muammolar. Mintaqada tinchlik va barqarorlikni saqlash vazifalari. Ularni amalga oshirishda O‘zbekistonning faol ishtiroki va mafkuraviy barqarorlik borasidagi faoliyati. Xavfsiz dunyo - har bir inson uchun oliy maqsad. «Yalpi mintaqaviy Xavfsizlikdan umumjahon xavfsizligi sari» tamoyili.

Markaziy Osiyoda yot va begona g‘oyalar, zararli mafkura, mafkuraviy poligonlar va texnologiyalar xurujiga qarshi mintaqada kuch va salohiyatni birlashtirish zaruriyati.

### **Amaliy mashg‘ulot savollari:**

1. Geopolitik maqsadlar va mafkuraviy siyosatning namoyon bo‘lish xususiyatlari
2. Mafkuraviy vaziyat, mafkuraviy kurashning umumbashariy va mintaqaviy muammolari
3. Mintaqada tinchlikni saqlashda O‘zbekistonning faol ishtiroki

## **3-mavzu: Globallashuv va jarayonlari mafkuraviy jarayonlar**

Globallashuv fenomeni. Globallashuv jarayonining hayotimizga tobora chuqur kirib kelayotganining asosiy omili va sababi. Globallashuv jarayoni, uning ijobiy va salbiy tomonlari. Zamonaviy axborot maydoni va undagi harakatlar tig‘izligi. Globallashuv mafkuraviy ta’sir o‘tkazish quroli sifatida. Mafkura poligonlari yadro poligonlaridan kuchli.

Og‘ir sinov yillari. 1991 yil oktyabr voqealari, 1991 yil 8 dekabr Namangan voqealari, 1992 yil yanvar, 1999-, 2000-, 2001-, 2004- yil 28-mart-1 aprel, 30-iyul Toshkent voqealari. 2005-yil 13-may Andijon voqealari. Andijon voqealari to‘g‘risida uydurma va haqiqat.

Mustaqillikni asrab-avaylash, himoya qilish va mustahkamlashning muhim omili ogohlik ekanligi. “O‘zingni, o‘z uyingni o‘zing asra!”, “Ogoh bo‘ling odamlar!”, “Tinchlik uchun kurashmoq kerak!”, “O‘zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo‘lmaydi”.

Ma’naviy bo‘shliq va zamonaviy axborot maydoni xavfi. Beparvolik, loqaydlikning ma’naviyatga Yetkazadigan zararlari. Xalqaro maydondagi turli siyosiy kuchlarning milliy va strategik maqsadlari yo‘lidagi “Erkinlik



va demokratiyani olg'a siljitish" hamda o'tish davridagi g'oyaviy bo'shliqdan foydalanib ma'naviy va axloqiy tubanlik illatlariga asoslangan "ommaviy madaniyat" niqoblari ostidagi harakatlari.

Ma'naviy tahdidlar va ularning ta'sir qilish ko'rinishlari. Mustaqil dunyoqarash. Sog'lom fikrlash. Mafkuraviy va ma'naviy ta'minlanganlik. Komil inson, sharqona axloq me'yorlari. Or-nomus, uyat, andisha, sharmu hayo, ibo va iffat tushunchalari.

### **Amaliy mashg'ulot savollari:**

1. Globallashuv deganda nimani tushunasiz?
2. Globallashuvning insoniyat hayotiga ijobiy va salbiy ta'siri nimalarda ko'rinadi?
3. Ogohlik davr talabi.
4. Ma'naviy tahdid va ma'naviy bo'shliq tushunchalarining o'zaro aloqadorligi nimada?
5. Mafkuraviy tahdid shakllari va turlari.
6. Aqidaparastlik-g'ayriinsoniy mafkuralardan biri, uning oqibatlari.
7. Mafkuraviy tahdid soluvchi g'oyalalar, manbalar, ularning imkoniyatlari va ta'sir doiralari.

### **4-mavzu: O'zbekistonning taraqqiyoti va mafkuraviy tahdidlar**

Taraqqiyotning o'zbek modeli. Bu model-jamiyatni yangilash va isloh etishning besh tamoyiliga asoslanganligi. Uning O'zbekiston taraqqiyotini ta'minlashda muhim yo'nalish ekanligi. Iqtisodiyotning siyosatdan ustunligi. O'zgarishlar va yangilanishlarni izchil amalga oshirishda davlatning islohotchilik faoliyati. Jamiyat hayotining barcha sohalarida qonunning ustuvorligi. Kuchli ijtimoiy siyosatni amalga oshirish. Bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish.

Respublika iqtisodiyotining barqaror va muvozanatlashtirilgan o'sishini ta'minlash chora-tadbirlari. Iqtisodiyotni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari. Odilona ijtimoiy siyosat ildizlarining tarixiy qadriyatlarimiz bilan bog'liqligi. Ijtimoiy himoyada ishonchli kafolatlar va aholini, ayniqsa, uning nochor guruhlarini aniq manzilli hamda maqsadli ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimining barpo etilganligi.

Milliy g'oya va mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning borishi. Milliy g'oyaning milliy manfaatlardan kelib chiqishi va uni o'zida ifoda qilishi. Amalga oshirilayotgan islohotlarning milliy va umuminsoniy asosga qurilganligi. Tub o'zgarishlar va xalqni mafkuraviy qurollantirish. «Elim deb, yurtim deb yonib yashash» tamoyilining mohiyati, uning

g'oyaviy onglilik ko'rsatkichi ekanligi. Islohotlar jarayonida odamlar tafakkuri va dunyoqarashida o'zgarishlarni amalga oshirish. Sub`ektivizm, manfaatparastlik, mahalliychilik, urug'-aymoqchilik kabi illatlarni bartaraf etishning milliy istiqlol g'oyasi bilan bog'lik vazifalari.

#### **Amaliy mashg'ulot savollari:**

1. O'zbekistonda iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy sohada olib borilayotgan islohotlar
2. Iqtisodiy sohada erishilgan yutuqlar.
3. Ijtimoiy sohada erishilgan yutuqlar.
4. Ma'naviy sohada erishilgan yutuqlar.

### **III. O'zbekiston taraqqiyoti va mafkuraviy muammolar**

#### **1-mavzu: O'zbekistonda barpo etilayotgan jamiyat**

Istiqlol va milliy mafkuraning shakllanishi zarurati. O'zbekistonda barpo etilayotgan jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy asoslari. Ularni ro'yobga chiqarish va erkin demokratik fuqarolik jamiyatini bunyod etishda milliy istiqlol mafkurasining ahamiyati. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayotga erishish hamda demokratik tamoyillarga asoslangan ma'naviy muhitni yaratish. Bu g'oyani amalga oshirish va istiqlol mafkurasini hayotga tatbiq etish zaruriy ehtiyoj ekanligi.

Bugungi O'zbekistonning iqtisodiyoti, ma'naviyati va mafkurasi, ularning o'zaro munosabati. Adolat biz qurayotgan jamiyatning mezoni. Jamiyatda sog'lom turmush tarzini yaratish yo'lida amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari. «Sog'lom avlod», «Ona va bola», «Mehr-muruvvat», «Qariyalarni qadrlash», «Obod mahalla», «Ijtimoiy himoya», «Yoshlar yili» davlat dasturlarning insonparvarlik mohiyati.

O'zbekistonning rivojlanishi, odilona tashqi siyosati tufayli jahondagi o'z mavqeyiga ega bo'lishi va nufuzining yanada ortib borishi. O'zbekistonda milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ulug'lanishi, dinga munosabat va e'tiqod masalalari, turli konfessiyalar faoliyati, ularning hamjixatligi ta'minlanganligi. Respublikamizda vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar faoliyatining huquqiy asoslari. Ma'naviyatni yuksaltirish, g'oyaviy-mafkuraviy sohalardagi muammolarni xal etish, milliy kadriyatlarni asrash va muhofaza qilish vazifalari.

Yangilanish va rivojlanishning ma'naviy-axloqiy negizlari. Milliy g'oya va milliy ong tuyg'usining mohiyatini to'g'ri anglash, uni tarbiya qilish ma'naviy sohadagi ishlarning tub negizi. Milliy manfaatga xizmat qiladigan qadriyatlarni, ilg'or demokratik qoida va tushunchalarni aniq-ravshan tasavvur etish, ularni o'rganish, asrab-avaylash, boyitish, rivojlantirish o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash mafkuraning ma'naviy sohadagi asosiy vazifasi ekanligi.

XXI asrda g'oyaviy-mafkuraviy sohadagi rivojlanish istiqbollari. XXI asrda erkin fuqaro jamiyati ma'naviyatini shakllantirish, mustaqil fikrga ega bo'lgan shaxs ma'naviyatini kamol toptirish vazifalari.

Ko'chma mashg'ulot:

O'zbekistonda iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy sohada olib borilayotgan islohotlar. Erishilgan yutuqlar.(O'zbekiston davlat tarix muzeyi hamda viloyatlardagi o'lkashunoslik muzeylarida amaliy dars).

1. O'zbekistonda iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy sohada olib borilayotgan islohotlar. Erishilgan yutuqlar.

2. Iqtisodiy sohada:

- iqtisodiy hayotni erkinlashtirish;
- xususiylashtirish jarayoni;
- xorij sarmoyalarini kiritish asosida amalga oshirilgan ishlar.

3. Ijtimoiy sohada:

- oila-mahalla -ta'lim muassasasi birligining komil insonni shakllantirishdagi ahamiyati.

4. Ma'naviy sohada:

- ma'naviy qadriyatlarning tiklanishi;
- ijtimoiy hamkorlik va millatararo totuvlikka erishishda milliy madaniy markazlarning o'rni;
- fuqarolarning siyosiy ongini oshirishda siyosiy partiyalar va nodavlat tashkilotlarning o'rni;
- O'zbekistonning jahon hamjamiyatidagi nufuzi.

#### **Amaliy mashg'ulot savollari:**

- 1.O'zbekistonda bunyod etilayotgan jamiyatning asosiy tamoyillari.
- 2.O'zbekistonning jahondagi o'rni va nufuzining ortib borishi.
- 3.Milliy g'oya va amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi.
- 4.G'oyaviy sohadagi rivojlanish istiqbollari, unda har bir yurt farzandining faol ishtiroki.
5. Xotira va qadrlash kuni.

#### **IV. Milliy mafkura va uning asosiy tamoyillari**

##### **1-mavzu: Milliy istiqlol g'oyasining mohiyati va mazmuni**

Milliy istiqlol g'oyasi tushunchasi, uning mohiyati. Milliy g'oyanazariya, mafkura uni hayotga, xalqimiz ongi va qalbiga singdirishga qaratilgan amaliyot. Istiqlol g'oyasi-xalqning, millatning kuch-qudrat manbai. Istiqlol mafkurasining xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchni o'zida aks ettirishi. Islom Karimov asarlarida milliy istiqlol mafkurasining ilmiy-nazariy va amaliy asoslab berilganligi. Milliy istiqlol mafkurasi-milliy o'zlikni anglatuvchi va tanlagan yo'limizning to'g'riligini anglash omili ekanligi. U o'tmishni kelajak bilan bog'lovchi ma'naviy ko'prik, tarixiy

xotirani uygʻotish, oʻtmishdan saboq chiqarish hamda oʻzlikni anglatuvchi mezon. Xalqimiz maqsadlarini ifoda etuvchi va jamiyat aʼzolarini shu oliyjanob maqsad yoʻlida birlashtiruvchi bayroq. Milliy istiqlol mafkurasihar bir vatandoshimizning oila, jamiyat, el-yurt oldidagi burchi va masʼuliyatini qay darajada ado etayotganligini belgilaydigan maʼnaviy mezon. Uning ijtimoiy-iqtisodiy asoslari.

Milliy istiqlol mafkurasining mazmuni. Inson qalbi va ongiga taʼsir etadigan taraqqiyparvar tushuncha va tuygʻular. Hayotiy insonparvar gʻoyalar tizimi. Millat, xalq va jamiyatni birlashtiruvchi kuch, yuksak ishonch va eʼtiqod manbai. Oʻzlikni, muqaddas anʼanalarni anglash tuygʻusi. Xalqimizning asrlar davomida shakllangan ezgu intilishlari. Xalqimiz, davlatimiz daxlsizligini asraydigan gʻoyalar. Boshqa elat va xalqlarni hurmat qilish. Ezgu gʻoya sifatida yovuz gʻoyalarga nisbatan nafrat uygʻota olishi. Istiqlol mafkurasining zamon va davrlar oʻzgarishiga qarab, oʻzi ifodalaydigan manfaat, maqsad-muddalarni amalga oshirishning vositalarini tavsiya eta olishi.

#### **Amaliy mashgʻulot savollari:**

1. Milliy istiqlol mafkurasini tushunchasi mohiyati
2. Milliy istiqlol gʻoyasi-xalqning, millatning kuch qudrat manbai ekanligi
3. Milliy istiqlol mafkurasining ilmiy-nazariy va amaliy asoslab berilganligi

#### **2-mavzu: Milliy istiqlol gʻoyasining maqsad va vazifalari**

Istiqlol mafkurasining oliy maqsadi - xalqni Oʻzbekistonning buyuk kelajagini bunyod etishga safarbar qilish, ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish yoʻlida birlashtirish. Fuqarolarimizni hozirgi hayot talablariga javob beradigan ogoh, tashabbuskor va jurʼatli kishilar etib voyaga yetkazish, inson huquqlarini taʼminlash, gumanizm va umuminsoniy qadriyatlarga rioya qilish tamoyilini jamiyat hayotining asosiy mezoniga aylantirish-istiqlol mafkurasining muhim maqsadlari sifatida.

Milliy istiqlol mafkurasining vazifalari. Mustaqil dunyoqarash va erkin tafakkurni shakllantirish. Hurfikrli, oʻz bilimi va kuchiga ishonib yashaydigan insonni tarbiyalash. Odamlarimiz, ayniqsa yoshlarimizni iymon-eʼtiqodini mustahkamlashga xizmat qiladigan maʼnaviy muhitni yaratish. Fuqarolarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish. Vatandoshlarimiz tafakkurida oʻzlikni anglash, tarixiy xotiraga sadoqat, muqaddas qadriyatlarni avaylab-asrash, vatanparvarlik tuygʻusini kamol toptirish. Jamiyatda xalqimizga va millatimizga xos boʻlgan bunyodkorlik fazilatlarini yuksaltirish, mutelik, loqaydlik, befarqlik kabi illatlardan poklash. Mamlakatimiz xalqi ongi va qalbida «Oʻzbekiston - yagona Vatan» degan tushunchani shakllantirish va mustahkamlash.

Milliy istiqlol mafkurasining xususiyatlari. Xalqimizning tub manfaatlarini ifodalashi. Odamlarni buyuk maqsadlar sari uyushtiruvchi kuch ekanligi. Jamiyat a'zolari faoliyatining yuksak ma'naviy mezon. Kishilarni safarbar etish va mafkuraviy himoya vositasi. Yosh avlodni g'oyaviy tarbiyalash manbai.

#### **Amaliy mashg'ulot savollari:**

1. Milliy istiqlol mafkurasining xalq, millat, shaxs va davlat manfaatlarini o'zida aks ettirishi
2. Milliy istiqlol mafkurasining o'ziga xos xususiyatlari
3. Istiqlol mafkurasini hayotga tatbiq etishda yoshlarning faol ishtiroki

#### **3-mavzu: Milliy istiqlol g'oyasining asosiy tamoyillari**

